O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“MILLIY QADRIYATLAR DIALEKTOLOGIK ATLASI – TARIXNI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLAR TO‘PLAMI



16.10.2024
Navoiy shahri

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN TASHKILIY QO‘MITASI

M.B.Kalonov	Navoiy davlat pedagogika instituti rektori, rais.
	A’zolar:
D.Narziqulova	NavDPI Ilmiy va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, a’zo.
X. Qurbonov	NavDPI Yoshlar masalalari bo‘yicha prorektori, a’zo.
A.Allaberdiyev	NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani, a’zo.
B.Zaripov	NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, a’zo.
N.Murodova	NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, a’zo
R.Yusubova	NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, a’zo
F.Yuldashev	NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, a’zo
N.Yarashova	NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, a’zo
N.Raxmonov	NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, a’zo
G.Norova	NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, a’zo

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANNING TAHRIR HAY’ATI

N.Murodova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
R.Yusubova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
R.Sharopova	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
N.Yarashova	Navoiy innovatsiyalar universiteti professori, f.f.d. (DSc)

Maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

SO‘ZBOSHI

Bugungi kunda har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy-madaniy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo, o‘z madaniyatini, qadimiy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor vazifa sifatida ahamiyat qaratmoqda. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgandan so‘ng o‘tgan 35 yil davomida hukumatimiz tomonidan o‘zbek tilini har tomonlama takomillashtirish, mavqeyini mustahkamlash, uning jahon tillari darajasidagi nufuzini ko‘tarishga katta e’tibor qaratilib, ko‘plab samarali ishlar amalga oshirildi. Shu ma’noda, muhtaram Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi 5850-son qarorida “xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biri” ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoniga ilova qilingan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, o‘zbek tili ta’limini takomillashtirish, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy an’ana, qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan g‘ururlanish va ularni yanada boyitish ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Xususan, o‘zbek adabiy tilini yanada boyitish ko‘zda tutilar ekan, dialektologiya tadqiqotlarini kengaytirish, o‘zbek tili dialektlari xaritasini yaratish dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilab berildi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan ushbu ilmiy-amaliy anjumanga yuzga yaqin materiallar taqdim etilgan bo‘lib, maqolalarda o‘zbek tilining xususiyatlari xalq og‘zaki ijodi namunalari, yozma adabiyot tili misolida, shuningdek, tarixiylik, qolaversa, lingvomadaniy, lingvopragmatik, psixolingvistik, lingvopoetik aspektlarda ochib berilgan.

Ishonamizki, ushbu maqolalar tilshunoslik sohasi bilan shug‘ullanayotgan ilm ahlini befarq qoldirmaydi.

Tashkiliy qo‘mita

TIL – MILLAT MA’NAVIYATI TIMSOLI

Assalomu alaykum, muhtaram mehmonlar, ilmiy anjuman ishtirokchilari! O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 35 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Milliy qadriyatlar dialektologik atlasi – tarixni o‘rganishda muhim manba” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumaniga xush kelibsiz!

Til – millatning asosiy belgilaridan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri bo‘lib, til mavjud ekan, millat mangu yashaydi; tilning tirikligi, aytish mumkinki, millatning, xalqning mavjudligidir. Demakki, o‘zbek tilining tirikligi – o‘zbek millatining mavjudligi, davlat tili esa o‘zbek davlatchiligining borligidan dalolatdir. Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, din-u diyonatimiz, ma’naviyatimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko‘rsatuvchi ko‘zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Shu sabab 1989-yil 21-oktabr – “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilingan kun har yili boshqa bayramlar qatori Navoiy davlat pedagogika institutida ham yuqori ko‘tarinkilik bilan nishonlanib kelinmoqda. Bu qutlug‘ kun barchangizga muborak bo‘lsin, deyman.

O‘zbek tilimiz dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri hisoblanadi. Bu tilning keng imkoniyatlari qadimgi toshbitiklarda, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarida, Ahmad Yassaviy hikmatlarida, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa” asarlarida, Boburning “Boburnoma” asarida, Boborahim Mashrab, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi mumtoz shoirlarimiz va asrimiz adiblari ijodida madh etib kelinmoqda.

“Davlat tili haqida”gi qonun o‘zbek tilining taraqqiysi, erkin rivojlanishi, davlat va jamoat organlarida asosiy ish yuritish tiliga aylanishi va tilimiz muhofazasi yo‘lida qilingan huquqiy harakat bo‘lib, tilimizni davlat tili maqomi bilan mustahkamladi. Bu qonun o‘zbek xalqi milliy ongining taraqqiysida, mamlakat mustaqilligi mustahkamlanishida, madaniy merosimiz hamda ma’naviyatimizning tiklanishida muhim rol o‘ynadi. Mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasida va davlat tili to‘g‘risidagi qonunning yangi tahririda til masalasi bugungi kun talabi darajasida o‘z aksini topdi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida davlat tili to‘g‘risidagi qoidalar: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”, degan zalvorli jumlalarda mustahkamlandi. Mazkur qoida 1995-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonunining yangi tahririda mufassal yoritib berildi.

Demakki, o‘zbek tilining rivoji va ravnaqi uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida “Davlat tili haqida”gi qonunning barcha moddalari to‘liq amalga kiritildi.

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarining, huquqshunoslarimizning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san’ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa, mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimizning xizmatlari katta bo‘ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko‘pgina yo‘nalishlari bo‘yicha qat’iy me’yorlar belgilandi, ona tilimiz rivojiga oid yangi qoidalar va qarorlar inobatga olingan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko‘pgina munozarali masalalar o‘zining nazariy asosiga qo‘yildi.

Bugun o‘tkazilayotgan “Milliy qadriyatlar dialektologik atlasi – tarixni o‘rganishda muhim manba” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida ham respublikamizning yetakchi olimlari tilshunoslikning dolzarb masalalari va muammolarining yechimlari, ona tilimizning kelgusi istiqbolli rejalari xususida o‘z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etadilar.

Ruxsatingiz bilan bugungi ilmiy-amaliy anjumanni ochiq deb e’lon qilaman.

Kalonov Muhiddin Bahriddinovich
Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

ТИЛЛАР ГЛОБАЛЛАШУВИ ВА ЎЗБЕК ТИЛИ АМАЛДА БЎЛИШИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

С.А.Каримов, А.Б.Пардаев,
Самарқанд давлат университети профессорлари

«Фарзандингга қайси тилда билим берсанг,
бир кун келиб шу миллатга хизмат қилади»,
Мустафо Чўқай

Бугун жаҳонда юз бераётган ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар, шубҳасиз, тилларнинг яшаш тарзига таъсир кўрсатмоқда. Оламнинг лисоний манзараси ўзгариб, глобаллашувнинг ҳозирги босқичи халқлар тили ва маданияти ўртасидаги чегаранинг аста-секинлик билан йўқолиб боришига олиб келмоқда. Бу жараёнда халқаро тилларнинг аҳамияти янада ортмоқда. Инглиз тили истеъмол даражасига кўра олдинги ўринда турибди. Рус, хитой, араб, испан, немис ва француз тилларининг эса халқаро ва минтақавий тиллар сифатида аҳамияти ошиб бормоқда.

Бу ҳақда О.Е.Богданова ўзининг «Глобаллашувнинг лингвистик ўлчови» номли мақоласида глобаллашувнинг инсоният тараққиётида янги босқич эканлиги ва инсоният ҳамкорлигининг янги истиқболларини очишини эътироф этган ҳолда, унинг дунёни катта бозорга айлантираётганини, давлатлараро рақобатни кучайтираётганини, халқаро маданий зиддиятларни ҳам келтириб чиқараётганини, бу жараёнлар оламнинг лингвистик манзарасига ҳам таъсир кўрсатаётганини ёзган [4,71-74].

Дунё тилларининг катта ва кичик тиллар тарзида гуруҳланиб бораётгани ана шу таъсирнинг натижасидир. Бу жараёнда ҳар икки гуруҳга дахлдор тиллар ўзига хос тарзда ҳаёт кечиришмоқда. Айрим давлатлардаги тил сиёсати бунинг яққол далилидир.

Масалан, АҚШдаги тил сиёсатини олиб қарайлик. А.О.Лалетинанинг «Глобализация ва таълим тизимида тил сиёсати: Россия ва АҚШ тажрибаси» номли мақоласида таъкидланишича, АҚШда инглиз тилини билиш муҳим тил сиёсати ҳисобланади ва таълимнинг барча бўғинларида у етакчилик қилади. Университетлар хориждан қабул қилинган талабаларга инглиз тилини билишнинг минимал талабларини қўяди. Тил ўргатувчи қўшимча курслар ташкил қилади. 50 та штатда ўрта мактабларда чет тили ўқитилади, аммо уни ўрганиш шарт қилиб қўйилмаган. Чет тилини олий таълимда ўрганиш мумкин. Чет тилини ўргатиш ташқи сиёсатга, штатлардаги демографик вазиятга қараб белгиланади. Ҳатто совуқ уруш даврларида АҚШ рус тилини ўрганишни қўллаб қувватлаган. Ҳозирда Осиё ва Ўрта Шарқ тилларни ўрганиш фаол қўллаб-қувватланмоқда. Барча ҳолатларда инглиз тили етакчилик қилади. АҚШнинг ташқи тил сиёсатида эса изчиллик йўқ [11, -С.158-164].

Европа мамлакатлари тилларида ҳам аҳвол ташвишланарли. Ташқи миграциянинг кучайиб, мусулмонлар сонининг ошиб бораётгани бу ташвишларга сабаб бўлмоқда. Эмигрантларнинг давлат тилини ўзлаштиришдан кўра, ўз тилларини сақлаб қолишга мойиллиги адабий тил меъёрларининг бузилишига олиб келмоқда. Бундан ташқари, Европа халқлари онгига инглиз тили жиддий таъсир кўрсатмоқда.

Е.С.Гриценко, А.В.Кирилиналарнинг «Глобаллашув шароитида тил сиёсати» мақоласида қайд этилишича, дунёда 80 фоизга яқин савдо-сотиққа оид мулоқотлар инглиз тилида олиб борилади. Бу фактлар мақола муаллифларини кичик тилларга вайронагарчилик келтирувчи **тил империализми** пайдо бўлганлиги ҳақида хулосага келишига сабаб бўлган [6,95-101].

Россия Федерацияси олиб бораётган тил сиёсати эса бошқача. А.О.Лалетинанинг юқорида тилга олинган мақоласида қайд этилишча, Россия федерациясида кўпмиллатлиликка боғлиқ ҳолда тилга бўлган муносабат ўзига хос. 65 % мактабда таълим рус тилида олиб борилади, қолган мактабларда эса миллий тилларда ўқитилади. Аммо битирувчилар албатта рус тилидан ягона давлат имтиҳон топширадилар.

Таълимнинг барча федерал стандартлари чет тилини, асосан инглиз тилини ўқитишни назарда тутади. Бошқа маҳаллий тилларга лингвомаданий қизиқиш йўқ. Россияда чет тилига қизиқишнинг шартларидан бири институтционал (иқтисодий) муаммоларни ҳал этиш бўлиб ҳисобланади [11, -С.158-164].

Худди ЮНЕСКНОнинг йўқолиб бораётган тиллар Қизил китобига ўхшаш Россияда ҳам «Россия халқлари тиллари қизил китоби» энцеклопедик луғат-маълумотнома нашр қилинмоқда [17].

Т.Гусман берган маълумотларга кўра, Россиянинг шимолий ҳудудларида 30 та тилдан 14 таси ўқитилади, яъни 60-70 фоизи йўқолиш чегарасида. АҚШ ва Канада мамлакатларида 187 тилдан 149 таси йўқолиш арафасида. Умуман Америкадаги 900 тилдан 300 таси хавф остида. Австралияда эса аҳвол бундан ҳам ёмон – 90 фоиз тил йўқолиб кетишга маҳкум. Социологлар фиркича, Россияда 50 фоиз тил йўқолади [7].

С.Ю.Камышеванинг «Тиллар глобал рақобатбардошлигини баҳолашнинг объектив воситалари» мақоласида А.С.Пушкин номидаги Рус тили давлат институти Тил сиёсати ва халқаро таълим маркази амалга оширган «Жаҳонда рус тилининг ўрни индекси: глобал рақобатбардошлик индекси ва советлардан кейинги макондаги барқарорлиги индекси» инновацион лойиҳаси доирасидаги тадқиқотлар натижалари эълон қилинган.

Унда айтилишича, СССР қулагандан кейин бу маконда рус тилини биладиганлар сони 60-80 млн.га қисқарган. Глобал рақобатбардошлик индексида рус тили 12 та йирик жаҳон тиллари орасида (инглиз, испан, француз ва хитой) 5-ўринда туришлиги, бу тилда гаплашадиганлар сони – 258 млн киши, яъни 8-ўринда эканлиги маълум қилинган.

Хулоса шундай бўлган: расмий статусга эга бўлишига қарамасдан, рус тилида сўзлашадиган муҳит камайиб бормоқда ва қизиқишнинг пасаяётганлигидан рус тили шафқатсиз равишда ўз позициясини йўқотмоқда. [10].

Таниқли олим **М.Краусс**нинг айтишича, XXI асрда инсоният тарихида мисли кўрилмаган гуманитар ҳалокат юз беради – фаолиятда бўлиб келаётган 6 минг тилнинг тенг ярми – 3 мингтаси барҳам топади. Биринчи навбатда, дейди Краусс, ота-оналар фарзандлари билан ўз она тилларида гаплашмай қўйганларида бу ҳалокат юз беради. Бу глобал ҳалокатнинг олдини олиш йўллари ҳақида ким бош қотиради, кам сонли тилларнинг ҳақ-ҳуқуқларини ким ҳимоя қилади, бунда давлатнинг ва жамоат ташкилотларининг, тилшуносларнинг роли қандай бўлади, ким молиялаштиради, деган қатор саволларга жавоб топиш керак бўлади. [7].

Марказий Осиё давлатларида тил сиёсати. Марказий Осиё мамлакатларида мустақилликка эришиши муносабати билан рус тилига эътибор камайди. Бунинг ўрнига инглиз тилига эътибор кучайди.

Совет даврида бу республикаларда рус тилини ўрганиш мажбурий қилиб қўйилганлигидан, ўтган асрнинг 80-йилларида аҳолининг 80 фоизи рус тилида бемалол гаплаша олган.

Ўзбекистон ва Туркманистон республикалари мустақилликнинг илк йилларида лотин ёзувига ўтди. Тожикистон ва Қирғизистон давлатлари эса лотин ёзувига ҳали ўтган эмас. Қозоғистон лотин ёзувига ўтиш фикрига фақат 2019 йилда келган.

Н.Бекмурзаев «Марказий Осиё мамлакатларида тил сиёсати» мақоласида бу мамлакатлар аҳолиси тиллари ҳаётнинг илмий, маданий, сиёсий ва ижтимоий жабҳаларидан олиб ташланган ва мутлақ маиший ва фольклор тилига айланган, деган **нотўғри фикр**ни билдирган [3].

Ўзбекистонда тил сиёсати. Мустақиллик туфайли ўзбек тилига давлат тили мақомининг берилиши билан унинг нуфузи ошганлигигига, эътиборнинг кучайганига ҳеч бир шубҳа йўқ. У чинакам маънода давлат рамзларидан бирига айланди. Ўзбек тилининг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти минбаридан жаранглагани, халқаро миқёсдаги анжуманлар тилига айлангани бунинг далили бўла олади.

Кейинги ўтган 6 йил давомида она тилимизга бўлган ғамхўрлик шахсан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев номи билан боғлиқ. Мамлакат раҳбарининг ташаббуси билан қабул қилинган қонун ва фармонлар миллий тил ривожининг ҳуқуқий кафолати бўлиб хизмат қилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрда қабул қилган «**Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида**» фармони (ПФ-5850-сон), 2020 йил 10 апрелдаги «**Ўзбек тили байрами кунини белгилаш тўғрисида**» Ўзбекистон Республикасининг қонуни (№ ЎРҚ-615), 2020 йилнинг 20 октябрь санасида қабул қилган «**Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида**»ги Фармони, шу фармон асосида **Давлат тилини ривожлантириш департаменти** ташкил этилиши, «**2020-2030 йилларда ўзбек тилини ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш концепцияси**»нинг кучга кириши ана шу муҳим тарихий ҳужжатлар саналади.

Ана шу муҳим тарихий ҳужжатлар ижроси жараёнида ўзбек тилига бўлган муносабат жиддий ўзгарди. Қонуности ҳужжатлари она тилимизнинг жаҳон тиллари орасидаги нуфузини янада

ошириш, тил таълимини янада такомиллаштириш, мамлкатимизда яшайдиган барча миллатлар ва элатларнинг манфаатини ҳимоя қилишга қаратилди.

Айни пайтда, тил сиёсати Ўзбекистонда яшайдиган миллатлараро сиёсий мувозанатни мувофиқлаштириб турадиган самарали воситага айланди. Чунки давлатимиз тил ўрганиш ва ўргатишнинг мажбурийлик йўлидан бораётган эмас, аксинча, юртимизда миллатлараро тенглик ва тотувликни барқарор қилиш сиёсати устуворлик қилади.

И.Азимовнинг «**Ўзбекистоннинг тил сиёсати ҳақидаги баҳсларга доир**» мақоласида айтилишича, республика мактабларининг 900 тасида **рус**, 133 тасида **қорақалпоқ**, 218 тасида **қозоқ**, 38 тасида **қирғиз**, 165 тасида **тожик** ва 23 тасида **туркман** тилларида ўқитилмоқда [1]. Бу далиллар эса мамлакатимизда олиб борилаётган тил сиёсатида бошқа тилларнинг қай даражада қўллаб қувватланаётганини, унда яшаётган бионта этник гуруҳнинг тил ва маданияти ривожига қарши эмаслиги, аксинча қўллаб қувватланишини тасдиқлайди

Б.Олимжонов эса «**Нима учун ўзбек тили сиёсат ва фан тилига айланмади**», деган мақоласида Ўзбекистондаги рус мактабларидаги ўқувчиларнинг 80-90 фоизи этник ўзбеклар эканлигини ёзади ва мамлакатда рус тили мавқеининг ҳамон баланд деб ҳисоблайди. Унинг таъкидлашича, республикадаги йирик гуманитар университетларда рус тили факультетлари мавжудлиги, 2,3 млн. меҳнатга лаёқатли аҳолининг Россияда эканлигининг ҳам рус тилини ўрганишга таъсири бор [2].

Дунёдан ажралган ҳолда тараққий этиб бўлмагани сингари, халқаро иқтисодиёт ва меҳнат бозоридан жой олиш, илмий-технологик инқилоб янгиликларини ўзлаштириш, таълимга бўлган янгича ёндашувларни жаҳонда етакчи бўлган тилларни ўрганмасдан амалга ошириб бўлмаслиги барчага аёндир. Шу боисдан, кейинги йилларда Ўзбекистонда **чет тилларни ўрганиш**га ҳам талаб кучайиб бормоқда.

Бирламчи тил сифатида халқаро тилларнинг қайси бирини қабул қилиш ҳар бир давлатнинг ихтиёридаги ишдир. Ўзга тилни ўрганиш эса, ўз навбатида ўша тил ҳукмрон бўлган мамлакат турмуш тарзини, ҳатто таълим стандартларини ўрганишни ҳам тақозо этади. Шу боисдан, Ўзбекистонда фақат инглиз ва рус тилларигина эмас, балки турк, хитой, корейс тилларини ўрганишга ҳам эътибор кучаймоқда. Нафақат иқтисодий, балки ижтимоий-гуманитар масалаларда икки томонлама манфаатли мулоқотларга эҳтиёжнинг тобора ортиб бораётгани бунга сабаб бўлмоқда.

Айни пайтда, Ер юзида 50 млн киши, демак ҳар 150 кишидан бири ўзбек тилида гаплашади. Ҳозирда ўзбек тили дунё давлатларининг 60 га яқин университети ва 100 дан зиёд мактабида ўрганилмоқда. Жумладан, Япониянинг 8 университетида, Туркиянинг 18, Американинг 8, Германиянинг 4 университетида ўзбек тили ўқитилади.

Бу келтирилган фактлар мамлакатимизда тил сиёсатининг халқ манфаатидан келиб чиқиб амалга оширилаётганини кўрсатади.

Шундай бир шароитда она тилимизга чет сўзларнинг кириб келишини тақиқлаш йўли билан тўхтатиб бўлмайди. Улар ўзлари ифодалаётган тушунчалар ва нарса-ҳодисалар билан биргаликда кириб келади. Аммо улар меъёрлаштирилиши, тилимиз қонуниятларига мос келадиган тарзда қабул қилиниши лозим.

Шубҳасиз, реципиент тилга нафақат лексиканинг, балки чет тили грамматикасининг таъсири бўлиши ҳам мумкин. *Мен ўзимда бўламан, мен ўзимда эмасман, сизни кўрганимдан хурсандман* сингари қалбсиз калькалардан эҳтиёт бўлиш маъқул кўринади.

Тилимизга чет сўзларнинг кириб келишига қандай муносабатда бўлиш бизнинг қарашларимиз ва муносабатларимизга ҳам боғлиқ. Бир томондан, бу жараённи ўзбек тилининг бойиб бориши, иккинчи томондан эса, тилимизнинг коммуникатив имкониятларини чеклаб қўйиши тарзида тушуниш ҳам мумкин. Ҳар қандай ҳолатда ҳам бир нарса аниқ: бу жараёнларни энди тўхтатиб бўлмайди. Улар тилшуносларимиз томонидан она тилимиз қонуниятларига мослаштирилиши мумкин, холос.

***

Бу келтирилган маълумотлар шундан далолат берадики, бугун тил ҳам худди инсоният жамиятининг ўзи каби табақаланишга юз тутган – йирик ва кичик тилларга ажралган. Бу бўлинишлар озчилик аҳоли гаплашадиган тилларнинг ривожланишига тўсқинлик қилиб, ҳатто айримларининг йўқолиб кетишига сабаб бўлмоқда. Мамлакатлараро иқтисодий алоқаларнинг ўсиб бориши инглиз тили мавқеининг тобора ортиб боришига кўмаклашмоқда. Аммо Ер юзи аҳолисининг асосий қисми ўз **этник-маданий-диний яхлитлиг**ини, тилини сақлаб қолишни истайди.

Турли тамаддунларнинг тўқнаш келиши, миграция ва урбанизация жараёнлари, демографик вазият, айрим минтақаларда этник зиддиятларнинг мавжудлиги, ҳатто халқаро туризмнинг

ривожланиши фонида ҳам янгича тил вазияти шаклланмоқда. ***Оламнинг маданий манзараси шу тарзда ўзгариб бормоқда.***

Ана шундай мураккаб бир шароитда кам сонли тилларнинг аҳволи ҳавотир уйғотмоқда. ***Миллий маданият ва миллий тилни сақлаб қолиш муаммоси*** кичик давлатларнинг ***кун тартибига қўйилмоқда***, замонавий тилшуносликнинг муҳим масалаларидан бирига айланмоқда.

Гарчи айрим минтақаларда кичик ва камсонли миллатлар, элатларнинг ҳуқуқий тенглиги таъминланган бўлса-да, объектив сабабларга кўра амалда бу тенглик таъминланаётган эмас ва улар глобаллашув талабларига мослашишга мажбур бўлмоқда. Ўз-ўзидан **уч тиллилик** – ўз миллий тилини, ўзи яшаб турган ҳудуддаги миллатлараро тилни ва инглиз тилини билиш тамойили шаклланмоқда.

Кичик тил истеъмолчиларининг аста-секинлик билан катта тиллардан фойдаланишга ўтиши ва натижада она тилининг таназзулга йўл тутиши, табиий, жонли тилларнинг, миллий тафаккур имкониятининг камайиб ва йўқолиб бориш хавфи пайдо бўлмоқда.

Оламнинг витруаллашаб бораётгани ҳам тилимизга жиддий таъсир кўрсатмоқда. Жуда катта ахборот салоҳиятига эга бўлган ижтимоий тармоқлардан фойдаланишда ўзбек тили истеъмолчиларининг маълум қисми нотўғри йўл тутаётгани бунинг далилидир. Улар қолдираётган постларида гапларни нотўғри тузишмоқда, сўзларни маъносига бормай қўллашмоқда, саводсизларча ёзишмоқда. Беҳаё ва уятсиз, маънавиятимизга мутлақо тўғри келмайдиган сўз ва ибораларни қўллашмоқда.

Аммо биз, қандай бўлмасин, биз тилимизнинг боқийлиги, нуфузи ва маданийлиги учун курашишимиз шарт ва зарур. Бунинг учун тилнинг истиқболига жиддий таъсир кўрсата оладиган учта омилни – давлат, меъёр кодификаторлари бўлган тилшунослар ва унинг истеъмолчиси бўлган халқнинг кучини бирлаштириш чораларини кўришимиз керак. Бир давлат ичидаги тил сиёсатида тил таълими ҳам ғоятда муҳим ўрин тутишини инобатга олиб, тил ўргатишни таълим-тарбиянинг бошланғич бўғинидан бошлашимиз ва бу ишимизни тараққиётимизнинг асосий шарти деб билишимиз лозим. Вертуал оламда миллий тил корпуси яратиш ҳам бу борадаги кечиктириб бўлмас ишларимиздан саналади.

Зеро, олдимизда буюк бир вазифа – она тилимизни асраб-авайлаш, уни барча бало-қазолардан ҳимоя қилиш ва келажак авлодга безавол етказиш вазифаси турар экан, бунинг учун барчамиз масъул эканлигимизни ҳамиша ёдимизда сақлашимиз лозим бўлади.

АДАБИЁТЛАР

1. Азимов И. К дискуссиям о языковой политике Узбекистана. https://uzdaily. uz/ru/ post/56915.
2. Алимджанов Б. «Узбекистан: почему узбекский не стал языком политики и науки», CABAR.asia, 19 февраля 2019 года.
3. Бекмурзаев Н. Языковая политика стран Центральной Азии. https://cabar.asia/ru/ yazykovaya-politika-stran-tsentralnoj-azii
4. Богданова О.Е. Лингвистическое измерение глобализации. Вестник ТГПУ. 2006. Выпуск 9 (60). Серия: Гуманитарные науки (Филология), -С.71-74.
5. Глобализация и языковая политика в Казахстане. https://www.kaznu. kz/ru/22174/page.
6. Гриценко Е.С., Кирилина А.В. Языковая политика в условиях глобализации / Языковая политика и языковые конфликты в современном мире. - М., 2014. - С. 95-101.
7. Гусман Т.Р. Современная глобализация и проблемы малочисленных языков в лингвистике XXI века. https://pandia.ru/text/78/011/ 3211.php.
8. Дегтярев А.К. Языковой национализм как социокультурный феномен / Nomothetika: Философия. Социология. Право. 2022. Т. 47, № 2, -С.219-229.
9. Джон Данн. Языковая глобализация и русский язык. http://trv-science.ru/2015/09/yazykovaya-globalizaciya-i-russkij-yazyk.
10. Камышева С.Ю. Объективные инструменты оценки глобальной конкурентоспособности языков. SYKamysheva@pushkin.institute.
11. Лалетина А.О. Глобализация и языковая политика в сфере образования: опыт России и США / Политическая лингвистика, 1 (43), 2013, -С.158-163.
12. Материалы II Международного конгресса «Языковая политика стран Содружества Независимых Государств (СНГ)» (Алма-Ата, 26-28 октября 2021 г.).
13. «Мульти-культи» как способ уничтожения национального языка. https://almavest.ru/ru/node/1210.

14. Хоназаров Қ. Глобаллашув ва тил фалсафаси. – Тошкент, 2009.
15. Холмўминов Ж. Глобаллашув ва миллий тил тақдири https://www.researchgate.net/publication/337655601_GLOBALLASUV_VA_MILLIJ_TIL-konvertirovan
16. Эксперт: глобализация способствует вымиранию языков. https:// nazaccent.ru/content/10480-v-obshestvennoj-palate-obsudili-problemy-izucheniya. html.
17. Языковая политика в России. https://ru.wikipedia.org/wiki.
18. Языковая политика и лингвистическая безопасность. Материалы второго международного научно-образовательного форума 25-26 сентября 2018 г. Нижний Новгород – 2018.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA “QADRIYAT” MAZMUNIY MAYDONINING MIKROSISTEMALARI

Zaripov Botir Po‘latovich,
Navoiy davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tilshunosligida konsept tushunchasi, uning mazmun mohiyati, o‘zbek va jahon tilshunosligi leksikografiyasida “qadriyat” konsepti haqida atroflicha mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “qadriyat” tushunchasi, sintagmatik munosabat, konsept, moddiy va ma’naviy qadriyatlar, qadriyatlar guruhlari, leksik kategoriya, semantik xususiyatlar.

Abstract: The article discusses the concept of “value” in the lexicography of Uzbek and world linguistics.

Key words: concept of “value”, syntagmatic relationship, concept, material and spiritual values, groups of “values”, lexical category, semantic features.

“Dunyoda qadrlanadigan odamlar, narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko‘p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birortasi uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri ism, atama yoki bevosita nom bo‘la olmaydi, balki ularning qadrini anglatadigan tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Qadriyatni ma’naviy-falsafiy tushunish uning kundalik hayotidagi ma’nosidan farq qiladi. Bu esa *qadriyat* tushunchasini uning o‘zi bog‘liq bo‘lgan obyektdan farqdash (aslo ajratish emas) bilan birga uni obyektlarning turli jihatlari (foydalilik, keraklilik) bilan aynanlashtirmaslik imkonini beradi”[1]. Shunday qilib *qadriyat* biror tarzda va shaklda zohir bo‘ladigan, subyekt uchun muayyan ta’sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko‘rinishlari: narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma’naviylnk me’zonlari hamda bularning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir[2].

Tilshunoslikda “qadriyat” tushunchasi keng va ko‘p qirrali soha bo‘lib, batafsil tahlil qilishni talab qiladi. Maqolani struktura qilish uchun umumiy semantika bilan bog‘liq bo‘lgan va “qadriyat” tushunchasining ma’lum bir tomonini aks ettiruvchi leksemalar guruhi bo‘lgan yadrosini aniqlashdan iborat.

“Qadriyat” leksik kategoriyasida eng ko‘p uchraydigan so‘zlarni kalit deb hisoblab, kalit so‘z barcha lug‘aviy guruhlarda qatnashishi hamda uning mazmuni mazkur guruhlarda qatnashishi shart. Shu sababdan semantik markazlashuv amalga oshib, muayyan sohadagi eng umumiy tushunchani bildiruvchi semalarni yadro deb hisoblash maqsadga muvofiq. Shunday ekan “qadriyat” kategoriyasiga milliy konsepsiya darajasida tahlil etish maqsadga muvofiq. A.P.Babushkin konsepsiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “Bu haqiqiy yoki ideal mavzuni aks ettiruvchi kollektiv ongning diskret mazmunli birligidir. Dunyoning va ona tilida so‘zlashuvchilarning milliy xotirasida og‘zaki ravishda belgilangan shaklda saqlanadi, tushuncha esa leksik obektivlik bo‘lmaganda mavjud bo‘lmaydi[3]”. Demak, “qadriyat” mazmuniy maydonini milliy konsepsiyamiz sifatida tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri.

L.A.Kiseleva shu bilan birga yadro semani ham tilga oladi va izohlab beradi. Uning izohiga ko‘ra, “yadro sema so‘zning o‘zak ma’nosi ifodasiga teng keladi[4]”. Dastlab yadroni aniqlab olishda

[1] https://staff.tiiame.uz/storage/users/640/presentations/PjNpGoefFkC87KrWq6Fqo0rk3su5GnO6dnsGT9k0.pdf
[2] Falsafa qomusiy lug‘ati. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2004. – 468 б.
[3] Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж : Издательство Воронежского государственного университета, 1996. – 104 с.
[4] Qarang. Киселева Л.А. Коммуникативные языковые функции и семантическое строение словесного значения... // Проблемы семантики / Отв. ред. В.М.Солнсев. – М.: Наука. 1974. – С. 75.

tadqiq etilayotgan leksik kategoriya va uning ma’noviy guruhlari, mazkur guruhga tegishli leksemalarning xususiyatlari, semema va semalari hisobga olinadi. Ushbu sistemani aniqlashda semantik aloqalarni aniqlash orqali yadroni shakllantirish tahlil metodi muhim. O‘rganilayotgan leksik kategoriyaning sistemasi leksik sathning ichki mikrosistemalarini tadqiq kiladi. Mazkur mikrosistemalardan biri bosh ma’no, ya’ni yadro sema**,** qolgan mikrosistemalar esa yadro semadan kengayadigan transformalardan biri markaz semasi[1]. Mazkur tadqiqot ishida semantik aloqalarni aniqlash tahlil metodining asosiy vazifasi mavjud bo‘lgan yadro semalarni aniqlash orqali, “qadriyat” leksik kategoriyasining leksik sistemadagi mohiyati, tabiati, ma’lum maqsadga ko‘ra har xil shakllarda namoyon bo‘lish imkoniyatlarini belgilashdir. Quyida “qadriyat” leksik kategoriyasi ana shunday mikroguruhlar asosida ijobiy yadroni, har bir ma’noviy guruh – yadroni, yadroga qarashli ma’noviy uyalar va unga tegishli leksemalar bilan markaz va chekka qismlarni shaklantirgan.

O‘zbek tilidagi “qadriyat” mazmuniy maydoni sohasining asosiy tizimini tahlil qilish o‘zbek madaniyati va uning qadriyat g‘oyalarini yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi. Bu, shuningdek, til odamlarning qadriyatlarini qanday aks ettirishini va shakllantirishini ko‘rishga yordam beradi.

Quyidagi holatlar yadroni aniqlashda muhim jarayon hisoblanadi.

Dastlab umumiy munosabatlardagi “qadriyat” mazmuniy maydonida asosiy tushuncha umumiy tushunchani (qadriyatga oid tushunchalarni), tobe tushuncha (mavzuiy guruhlar, ma’noviy guruhlar) esa maxsus tushuncha, deb ataladi. Umumiy munosabatlarning muhim xususiyati – til tizimidagi mazmuniy maydonni o‘zbek tilida ifodalanishini aniqlash. Aniqlangan mazmuniy maydon tizimi(mavzuiy guruhlar, ma’noviy guruhlar, ma’noviy uyalar) umumiy tushuncha uchun (“qadriyat” mazmuniy maydoniga) maxsus tushuncha bo‘ladi.

Xususan, “qadriyat” mazmuniy maydoni ham o‘zining umumiylik xususiyati bilan iyerarxik manzarasiga ega. Albatta, ushbu leksik kategoriya hajm va tuzilish nuqtayi nazaridan murakkab iyerarxik ko‘rinish kasb etadi. Quyida “qadriyat” mazmuniy maydonining butun-bo‘lak guruhlari haqida alohida-alohida iyerarxik jadvallar va ularning izohi keltirilgan**.** Har qaysi guruh tarkibidagi mavzuiy guruhlar hamda ularning ma’noviy uyalari, uyalarga tegishli leksemalar haqida fikrlar bildirilgan. Har bir guruhning iyerarxik manzarasi tahlil qilinayotgan ma’noviy guruhning semantik imkoniyati kengligini amalda aks ettiradi. Xususan, har bir guruhning iyerarxik manzarasi quyida tasniflangan.

Ularni amalga oshirishda semantik, sintagmatik hamda madaniy kontekst usullari orqali aks ettirdik

Sintagmatik munosabatlar mohiyati:

– Qadriyatga oid leksemalarni sintagmatik munosabat asosida yaqin semantik aloqaga ega bo‘lgan so‘zlar orqali yadroni aniqlash mumkin.

Masalan, “qadriyat”ni anglatuvchi “qiymat, ahamiyat, muhimlik holati, qadr-qimmat” semalari barcha qadriyatlar uchun umumiy nom bo‘lgan sema(kalit so‘z. muallif izohi) bo‘lganligi uchun sohadagi boshqa so‘zlar bilan eng yaqin bog‘lanishga ega bo‘ladi.

Masalan, *qiymat, e’tibor, aziz, ahamiyat, qimmat va baho* leksemalari kontekstda yadroga birlashadi va “qadriyat” tushunchasini anglatadi. ***Madaniy kontekst orqali yadroni aniqlash mohiyati:***

Muayyan madaniyatda qadriyatga oid leksemalarning eng muhim milliy-madaniy xususiyatlarini anglatuvchi ma’nosi bo‘lgan so‘zni yadro deb hisoblash mumkin. Masalan, “Milliy qadriyat” mavzui guruhining yadrosini “mehr-muhabbat”, “ahillik”, “ezgu fazilat”, “totuvlik”, “hurmat” semalari shakllantiradi. Tabiiyki, har bir semalar ma’lum uyalarni shakllantiradi. Xususan, “hurmat” semasi “ota va “ona”ni qadrlash, “qarindosh-urug‘ munosabatlari”ni qadrlash kabi “Milliy qadriyat” mavzuiy guruhini shakllantiradi.

Shu o‘rinda bir narsaga e’tibor qaratish zarur. Yadro har doim ham bitta so‘z bilan chegaralanmasligi mumkin. Masalan, u atov birlik (so‘z, so‘z birikmasi, leksema, barqaror birikmlar shaklida) bo‘lishi mumkin. Leksik maydonning yadrosini niqlash uchun yuqoridagi barcha mezonlarni hisobga olish va eng mos keladigan so‘z yoki so‘z birikmasini tanlash kerak.

“Bunday hollardagi tahlil jarayonida ilmiy bilishning tizimlilik usuli, alohidalik, xususiylik va umumiylik, butun va bo‘lak kategoriyalarining dialektikasiga asoslanish qo‘l keladi. Bunda qadriyat shakllari bog‘langan obyekt, jarayonlarning makon hamda zamonda zohir bo‘lishi, ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar va aloqalarni o‘rganish, obyektiv asosi, subyektiv jihatlan anglanishi; umumiy, xususiy va alohida jihatlarini tahlil qilish imkoni tug‘iladi. Bu esa qadriyatning namoyon bo‘lish shakllari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani

[1] Yuldashev F. ”Ma’naviyat” leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi va leksikografik talqini”. Filol. fan. dok. (DSc)…diss. Avtoreferati. – Qarshi, 2023. – B. 56.

shakllantiradi. Bog‘lanish ham in’ikosi bo‘lgan eng umumiy qadriyat tizimlariga xos xusyatlarni o‘rganish imkonini beradi”[1]. Quyida mazkur tizimning yadrosi bo‘lgan asosiy tushunchalar va guruhlarni iyerarxiy munosabat asosida tahlil qilamiz.

Qadriyatlarning shartli ravishda “Sharqiy" qadriyatlarga bo‘linishiga yashash tarzi va ma’lum ma’noda “joylashish” ning ham o‘rni bor.

Biz shartli ravishda “Sharqiy” qadriyatlar mavzuiy guruhining yadrosini “birdamlik”, “e’tiqod”, “o‘zaro hurmat”, “mehmondo‘stlik” umumiy ma’nolar shakllantiradi. Ular esa o‘z navbatida ma’noviy guruhlarni shakllantiradi.

I. “Sharqiy” qadriyatlar mavzuiy guruhi:

1.1. “Hamjihatlik” ma’noviy guruhi: *oilaga e’tibor, jamoaga e’tibor, munosabatlardagi ahillik, an’analarga sadoqat* atov birliklari;

1.2. “Keksalarga hurmat” ma’noviy guruhi: *ota-bobolarga hurmat, keksa avlodlarning obro‘-e’tibori va donoligini hurmat qilish;*

1.3. “Mehmondo‘stlik” ma’noviy guruhi: *qarindosh-urug‘lik munosabati, an’anaviy mehmondo‘stlik, millatlararo totuvlik;*

1.4. “Vatanparvarlik” ma’noviy guruhi: *Vatanga muhabbat, o‘z yurtiga sadoqat*.

Qadriyat “Ma’naviy qadriyatlar” va “Moddiy qadriyatlar” mavzuiy guruhlarining sistemasi quyidagi shaklda tarmoqlanadi. Qadriyatlarning *ma’naviy* va *moddiy* qismlarga bo‘linishi ularning inson hayoti va dunyoqarashining turli sohalariga tegishliligini aks ettiradi. Ma’naviy qadriyatlar mavzuiy guruhi “insonning ichki dunyosi”, “axloq”, “ma’naviy qarashlar”, “e’tiqod” semalari uning yadrosini shakllantiradi, o‘z atrofida quyidagi ma’noviy guruhlarga ajraladi.

I. “Milliy qadriyatlar” mavzuiy guruhining ichki sistemasini aniqlash uchun uning yadrosi bo‘lgan “ezgulik” umumiy ma’noli ma’noviy guruhlar shakllanadi.

1.1. “Axloqiy qadriyatlar” ma’noviy guruhi:

Mazkur guruh “ma’naviy fazilat”, “yaxshilik, mehribonlik” semasi orqali quyidagi leksemalarni o‘z ichiga oladi hamda millatimiz uchun milliy qadriyat sifatida baholanadi. Bu semalar axloqiy qadriyatlarning asosidir: to‘g‘rilik, *halollik, mehribonlik, mehr-shafqat, adolat, mardlik, sabr-toqat, rahm-shafqat.*

1.2. “Adolat” ma’noviy guruhi. Bu so‘z adolatli muomala va qonun oldida tenglik degan ma’noni anglatadi.

1.3. “Urf-odatlarga bo‘lgan qadriyat” ma’noviy guruhi: *to‘y, a’za, turli marosimlar, mavsumiy marosimlar, yosh bilan bog‘liq ma’rosimlar;*

*1.4. “*Oilaning ulug‘lanishi”ga bo‘lgan e’tibor: *ota-onani hurmatlash, farzandni asrash, qiz farzandga nisbatan e’tibor, qarindoshlarga mehribonlil*.

Shuningdek iqtisodiy qadriyatlarni ham ma’lum ma’noda guruhlarga bo‘lib ko‘rsatish mumkin:

I.“Iqtisodiy” qadriyatlar: Olamning o‘zbek lisoniy manzarasida “iqtisodiy qadriyat” mavzuiy guruhi quyidagi ma’nolar asosida ma’noviy guruhlarga bo‘linadi.

1.1. “Davlatning yer osti va yer usti boyliklarini asrash” ma’noviy guruhi: Mazkur guruhga oid so‘z va birikmalar shu millatning lisoniy ongida shakllanadi, takomillashadi, rivojlanadi hamda shu xalqning qadriyatlariga aylanib boradi. Masalan, “adolatli taqsimlanish”, “daromadlar tengligi”, “ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi”, “davlat mulki”, “xalq mulki”, “shaxsiy mulk”, “mulk dahlsizligi”, “oilaviy mulk” kabi atov birliklari mazkur guruhni shakllantirishga asos bo‘ladi.

1.2. “Resurslardan oqilona foydalanish” mavzuiy guruhi: Zamonaviy qadriyat sifatida kirib kelayotgan mazkur tushunchalar “tejamoq”, “asrab-avaylash”, “isrof qilmaslik”, “unumdorlikni oshirish” va “turmush darajasini yaxshilash” atov birliklari bilan qadriyatga bilvosita aloqador. Masalan, “isrof qilmaslik” qo‘shma fe’lini “qadriyat” mazmuniy maydoniga qanday aloqador ekanligini tahlil qilamiz. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da **ISROF** *leksemasi* “ortiqcha, me’yordan ko‘p xarajat qilish, nest-nobud qilish; o‘rinsiz yoki ortiqcha ishlatish, yo‘q qilish ma’nosini anglatadi. *Isrof qilmaslik* inkor ma’nosi esa, ushbu leksemaning aks ma’nosini anglatadi. Xalqimizda isrof qilmaslik haqida aforizmlar va maqol-matallar ham yuzaga kelganki, bu milliy qadriyatimizga aylanib ulgurgan, shu asosida bizning lisonimizga turli atov birliklar shaklida kirib borgan. Masalan, *Tejam bilan ishlatsang, uy-ro‘zg‘oring but. Isrof bilan ishlatsang, yomon kunni kut.* “Qanotli so‘zlar”. Ushbu birgina maqol lingvokulturalogiyaning muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, O‘TIlda ***isrof qilmoq*** birikmasi “bekorga (ortiqcha) ishlatmoq, nobud qilmoq” semasi bilan ota-bobolarimizning qadriyatlariga zid ravishdagi harakatni bildiradi.

[1] Фалсафа қомусий луғати. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2004. – 468 б.

1.3. “Tadbirkorlik erkinligi” manoviy guruhi: Mazkur guruh “Iqtisodiy qadriyatlar” mavzuiy guruhining zamonaviy qadriyatlar ma’noviy guruhiga aloqador. Bu guruh “tadbirkorlik bilan shug‘ullanish”, “shaxsiy loyiha”. “biznes yaratish” va “bozorda raqobat qilish” atov birliklari va umumiy semalari asosida mazkur guruhni shakllantiradi hamda o‘z ichida yuzga yaqin leksemalarni qamrab oladi.

1.4. “Erkin bozor” ma’noviy guruhi: “iqtisodiy o‘sish”, “sog‘lom raqobat”, “milliy brend”, “zamonaviy savdo kompleksi”, “farovonlik kaliti”, “farovonlikka yordam” kabi yangi atov birliklar, yangi birikmalar, yangi jumlalarni shakllantirishga hissa qo‘shadi.

1.5. “Innovatsion va texnologik taraqqiyot” ma’noviy guruhi: Ma’lumki, qadriyatlar o‘ta barqaror va o‘zgarmas hodisa emas. Ular davrning o‘zgarishi bilan, yangi texnologiyalarni rivojlantirishni bilan, innovatsion faollikning ortib borishi bilan ham o‘zgarib insonlar hayotiga kirib boradi hamda shu davrda yangi leksemalar, atov birliklar hamda yangidan yangi neologizmlarning paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi. Masalan, *innovatsiya* leksemasi bugungi kunda faollashib ketdiki, hatto obyektlar, ta’lim muassasalari uchun nom(atoqli ot) darajasida ham qo‘llanmoqda.

1.6. “Barqarorlik va barqaror rivojlanish” ma’noviy guruhi: Bugun globallashuv davri barcha davlatlarda “iqtisodiy barqarorlik”, “inqirozning oldini olish”, “atrof-muhitni muhofaza qilish” kabi tushunchalarning paydo bo‘lishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Estetik qadriyatlar” ma’noviy guruhi:

6 jildli O‘zbek tilining izohli lug‘atida “**ESTETIKA** / *yun.* aisthetikos – hissiy idrokka (bilishga) oid] 1. Nafis san’at va badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi go‘zallikning mohiyati va shakllarini, inson va olam o‘rtasidagi qadriyatlar munosabatini o‘rganuvchi falsafiy fan”[1] shaklida izohlangan. Mazkur termin “go‘zal” semasi orqali estetik qadriyatlarni aks ettiradi. Terminning ma’nosi keng bo‘lib, moddiy va ma’naviy go‘zallikni aks ettiradi. Bundan ko‘rinadiki mazkur guruh “Umuminsoniy qadriyatlar” mavzuiy guruiga taalluqli bo‘ladi hamda moddiy va ma’naviy xarakterdagi qadriyatlarni anglatadi. Go‘zallikni ifodalovchi leksemalar: *chiroyli, muhtasham, nafis, uyg‘un, rang-barang, nafosatli, nafis, nafis, maftunkor.*

“Ijtimoiy qadriyatlar” mikrotizimni anglatuvchi qadriyatlari:

1.1. “Oila qadriyatlari” ma’noviy guruhi: Oila o‘zbek hayotining asosiy ustunidir. “iliqlik”, “an’ana”, “mas’uliyat”, “avlodlar davomiyligi”, “sevgi va g‘amxo‘rlik” semalari mazkur guruhni shakllantiradi.

1.2. “O‘zaro hurmat” ma’noviy guruhi: “bobo va buvilarga hurmat” , “ustozlarga hurmat”, “mehmonlarga hurmat” semalari asosida shakllanadi.

1.3. “Tinchlik uchun kurash qadriyati” ma’noviy guruhi: “Tinchlik va osoyishtalik”, “farovonlik va osudalik” semalari ushbu guruh uchun yadro vazifasini bajaradi.

1.4. “Ozodlik qadriyati”: “Istiqlol”, “erkinlik, “mustaqillik” semalari asosida shakllanadi.

V. “Hayot qadriyatlari” mavzuiy guruhi: Hayot qadrini ifodalovchi “hayot”, “sog‘lik”, “baxt”, “muhabbat”, “oila”, “do‘stlik”, “erkinlik”, “farovonlik” semalar ushbu guruh uchun yadro vazifasini

VI. “Vaqt qadriyatlari” mavzuiy guruhi: Vaqt ahamiyatini ifodalovchi leksemalar: vaqt, tezlik, samaradorlik, unumdorlik, shoshilinchlik, muddat.

Shuni yodda tutish kerakki, bu leksik birliklar va tushunchalar turg‘un emas, balki o‘zbek jamiyati bilan birga rivojlanadi. Ularning ma’nosi kontekst va vaqtga qarab farq qilishi mumkin.

Navbatdagi mavzuiy guruhimiz “Umuminsoniy qadriyatlar” juda keng tushuncha bo‘lib, ularni turli mezonlar, jumladan, ma’naviy guruhlarga ko‘ra tasniflash mumkin, hatto, biz yuqorida ichki sistemaga ajratgan bazi ma’noviy guruhlar ham mazkur guruhning tarkibiga oid bo‘ladi. Sababi “Umuminsoniy qadriyatlar”ning mohiyati shundan iboratki, ular jamiyatning katta qismiga tegishli bo‘lgan tamoyillar, e’tiqodlar va ideallar yig‘indisidir. Ular shaxs ma’naviy qarashlari, ularning axloqiy qarashlari, xulq-atvor va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Ushbu guruh boshqa mavzuiy guruhlarga qaraganda keng va serqirra. Shu boisdan uni quyidagi shaklda guruhlarga ajratamiz.

“**Umuminsoniy qadriyatlar” mavzuiy guruhi:**

I.1. “Ma’naviy qadriyatlar” ma’noviy guruhi: Bunga shaxs ma’naviy sifatlari bilan bog‘liq bo‘lgan hamda insonning ichki dunyosi bilan bog‘liq qadriyatlar kiradi. Ula esa ma’noviy uyalarga ajraladi.

1.1. “Tarbiyaga asoslangan qadriyat” ma’noviy uyasi. Mazmuniy maydonda markaziy qatorlaridan joy oladigan leksemalardan biri “tarbiya” leksemasi. Mazkur leksemaning ma’naviy qadriyatlardagi o‘ziga xos**,** u bu tushunchaga xalqimizning munosabati bilan farqlanadi. Farzandlarni tarbiyalash muqaddas burchligi, bitta bolaga yettita qo‘shni tarbiyalovchi ekanligi shular jumlasidandir[2]”. Tarbiya

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. 6 jild. J.II.– T. O‘zME, 2022-yil. – B. 58.

[2] Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 25.

“ma’naviyat” leksik kategoriyasining “axloq” ma’noviy guruhidan joy oladigan leksema, “ma’naviyat” kategoriyasiga nisbatan markaz vazifasini bajaradi. Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi.[1] Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmga chanqoq va har tomonlama mukammal qilib voyaga yetkazishga intilish hamma zamonlarda ham insoniyatning oldiga qo‘ygan muhim vazifasi hisoblangan. O‘z davrining yetuk mutafakkirlari hisoblangan buyuk ajdodlarimiz yaratgan nodir asarlarda tarbiya bosh mavzu bo‘lib kelgan. Ularning durdona asarlari o‘sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, ma’nan yetuk inson bo‘lib yetishishlariga undagan. Asrlar davomida sevib mutolaa qilib kelinayotgan “Pandnoma”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Turkiy guliston yoxud axloq” va hokazo asarlar shular jumlasidandir. Yuqoridagi asarlar bilan yaqindan tanishar ekanmiz, tarbiya tushunchasining keng va tor ma’nolarda ifodalanishining guvohi bo‘lamiz.

1.2.“Ma’naviy rivojlanish” ma’naviy uyasi: *Ma’naviyat, sezgi, ichki dunyoni bilish, haqiqatni qidirishni rivojlantirish* atov birliklari bilan kengayadi;

1.3. “Rahmdillik” ma’naviy uyasi: *hamdardlik, bag‘rikenglik, saxiylik, xotamitoylik* leksemalari;

1.4. “Kechirimlilik ” ma’naviy uyasi: *xafagarchiliklardan xalos bo‘lish va salbiy his-tuyg‘ularni ko‘tarmaslik qobiliyati* atov birliklari;

Shaxsiy aloqalar bilan bog‘liq qadriyatlar:

1.1. Mehribonlik: *rahm-shafqat, yordam, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish* leksemalari;

Shunday mikroguruhlardan yana biri “mehribonlik” ma’noviy uyasi hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu leksemaga shunday ta’rif berilgan: *Mehr* – sevgi, muhabbat, moyillik. **1** Insonning o‘z tug‘ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga bo‘lgan samimiy muhabbati; yaxshi ko‘rish tuyg‘usi. **2** Shafqat, rahmdillik[2].

A.Peshkovskiy “so‘zning semantik birligi unda odatda izohli lug‘atlarda ajratiladigan xususiy ma’nolarni o‘ziga bo‘ysundiruvchi muayyan “umumiy ma’no”ning mavjudligi bilan emas, balki bu alohida mustaqil ma’nolarning bir-birlari bilan ma’lum munosabatlari va ularning bitta belgiga bog‘lanishi bilan asoslanadi”, – deb ta’kidlaydi[3].

“Mehribonlik leksemasi lug‘atdagi ma’nosi bilan chegaralanib qolmaydi. Ushbu leksema “muhabbat”, “sadoqat”, “ixlos”, “sevgi”, “mehribonlik”, “oqibat”, “hurmat”, “moyilllik”, “sog‘inish”, “rahmdillik”, “ko‘ngliga yaqin olmoq”, “suyib munosabatda bo‘lish tuyg‘usi”, “e’zozlamoq” kabi semalari bilan mavzuiy guruhni kengaytirishga hamda *mehr* leksemasining semantik qirralarini yoritishga xizmat qiladi. Ushbu leksemaning semantik tarkibini oydinlashtirish uning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash yo‘li bilan ochiladi. *Mehr* leksemaning sinonimlari va antonimlari hamda ularga tegishli leksemalar asosida *mehr* mikromaydoni hosil bo‘ladi. Xususan, *mehr* leksemasining leksik va kontekstual sinonimlari (rahm-shafqat, muhabbat, shafqatlilik, saxovat, oqibat) leksik va kontekstual antonimlariga (nafrat, shafqatsizlik, jirkanish, g‘azab, yoqtirmaslik) oid bo‘lgan birliklar asosida *mehr* mikromaydoni paydo bo‘lishini hamda uning mazmuniy maydoni kengligini shakl va ma’no munosabatidan ko‘rish mumkin”[4].

Bu ijodkorning lisoniy manzarasida ham aks etib, misralarga ko‘chadi:

“Savob deb ingraydi dunyomiz behol,
Zordir u najotbaxsh hislar sehriga.
Janglarda toliqqan majruh zot misol,
Suyanib yashar u inson *mehriga”*[5].

1.2. Muhabbat: *yorga, vatanga, hayotga, san’atga muhabbat* leksemalari;

1.3. Halollik: *rostlik, odoblilik, adolatlilik* leksemalari;

1.4. Sodiqlik: *printsiplaringizga, va’dalaringizga, do‘stlaringizga, oilangizga sodiqlik* leksemalari;

1.5. Ishonch: *boshqalarning halolligi va ishonchliligiga ishonish* leksemalari;

1.6. Mas’uliyat: *oilangiz, jamiyatingiz va mamlakatingiz oldidagi mas’uliyatingizni tushunish.*

Jamiyat bilan bog‘liq qadriyatlar:

1.1.Erkinlik: *so‘z, fikr, tanlash erkinligi* leksemalari;

1.2. Adolat: *qonun oldida tenglik, inson huquqlarini himoya qilish* leksemalari;

---

[1] Бу ҳақида қаранг. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. II. – Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – Б. 587

[3] Пешковский А. Избран труды. М., 1959. – Б. 83.

[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati:80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmalari. J. I. – O‘zME. 2022-yil. – B. 148-bet

[5] https://kitobxon.com/oz/kitob/abdulla-oripov-saylanma

1.3.Vatanparvarlik: *Vatanga muhabbat, uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorlik* leksemalari;

1.4. Fuqarolik mas'uliyati: *jamoat hayotida ishtirok etish, fuqarolik burchlarini bajarish* leksemalari;

"Qadriyat" tushunchasining serqirra ekanligi uni turli kategoriya sifatida talqin qilinganda hamda har birining maqsad va vazifalari aniq belgilanganda namoyon bo'ladi.. "Qadriyat" tushunchasi *falsafiy, aksiologik, lingvoma'naviy va lingvomadaniy* birlik sifatida universaldir. "Qadriyat" mazmuniy maydonining subyektivligi, obyektivligi, qadriyat kategoriyasining o'zgaruvchanligi va tizimliligi hamda uning lingvistik va nutqiy ba'zalari orqali namoyon bo'ladi. Qadriyatni falsafiy kategoriya sifatida o'rganishda uning milliy, mental va asosiy e'tibor ijobiy qadriyatlarga asoslanib o'rganilsa, lingvistikada esa "qadriyat" umumiy semali atov birliklarning ijobiy va salbiy, bevosita va bilvosita aloqadorlik xususiyatlari hamda ona tilida so'zlashuvchilarning lisonida qadriyat va antiqadriyatlarga oid so'zlaridan foydalanganda ularning lingvistik tahlilida namoyon bo'ladi. Zotan, har bir inson milliy qadriyatlari dunyosida yashaydi, uning lingvistik ba'zasidan foydalanib fikralydi. Babaeva shunday yozadi: Qadriyatlar – bu insonni o'z faoliyatida boshqaradigan va uning xulq-atvori normalarini belgilaydigan maqsadlardir[1] ta'rifi bevosita lingvoma'naviyatshunoslikning ham obyekti bo'la olishini ko'rsatadi. *Xulq-atvor* leksemasi – bu "axloq" lingvistik kategoriyasiga oid tushuncha bo'lib, "ma'naviyat" mazmuniy maydonining yadrosi[2] hisoblanadi. Demak, "qadriyat" mazmuniy maydoniga oid atov birliklar moddiy va ma'naviy tushunchalar bilan bog'liq ekanligining isboti.

Xulosa qilib aytish mumkinki, so'zning lug'aviy ma'nosi sohaga ko'ra tartibga solinadi. Leksik ma'noni leksik kategoriya sifatida o'rganish semasiologik tadqiqotlar uchun qiziqarli istiqbollarni ochadi, chunki u ko'plab an'anaviy semasiologik masalalarni kengroq ko'rib chiqishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR :

1. Falsafa qomusiy lug'ati. – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2004. –468 б.
2. Бабушкин А. П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж : Издательство Воронежского государственного университета, 1996. – 104 с.
3. Киселева Л.А. Коммуникативные языковые функции и семантическое строение словесного значения… Проблемы семантики / Отв. ред. В.М.Солнсев. – М.: Наука. 1974. – S. 75.
4. F.Yuldashev. "Ma'naviyat" leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi valeksikograifik talqini". Filol.fan.dok(DSc)…diss. Avtoreferati. Qarshi, 2023. – B. 56.
5. Фалсафа қомусий луғати. – Тошкент: "Шарқ" НМАК, 2004. –468 б.
6. Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 25.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Ж. II. – Тошкент: O'zbekiston nashriyoti, 2020. – Б. 587
8. Пешковский А. Избран труды. М., 1959. – Б. 83.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati:80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmalari. J. I. – O'zME. 2022-yil. – B. 148-bet
10. Babaeva E.V. *Lingvokul'turologicheskie kharakteristiki russkoy i nemetskoy aksiologicheskikh kartin mira* [Linguistic and Cultural Characteristics of the Russian and German Axiological Pictures of the World]. Dis.... d-ra filol. nauk. Volgograd, 2004. 438 p.
11. F.Yuldashev. "Ma'naviyat" leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi valeksikograifik talqini". Filol.fan.dok(DSc)…diss. Avtoreferati. Qarshi. 2023.
12. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya.
13. https://staff.tiiame.uz/storage/users/640/presentations/PjNpGoefFkC87KrWq6Fqo0rk3su5GnO6dnsGT9k0.pdf.
14. https://kitobxon.com/oz/kitob/abdulla-oripov-saylanma.

[1] Babayeva E.V. Lingvokulturologicheskie kharakteristiki russkoy i nemetskoy aksiologicheskikh kartin mira [Linguistic and Cultural Characteristics of the Russian and German Axiological Pictures of the World]. Dis.... d-ra filol. nauk. – Volgograd, 2004. – 438 p.

[2] Yuldashev F. "Ma'naviyat" leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi valeksikograifik talqini". Filol.fan.dok (DSc)…diss. Avtoreferati. – Qarshi, 2023.

ЎРТА ОСИЁДАН САФАРБАР ҚИЛИНГАН МЕҲНАТ АРМИЯЧИЛАРИНИНГ САНИТАРИЯ-ГИГИЕНА ҲОЛАТИ ВА ТИББИЙ ХИЗМАТ

Хуршид Қурбонов,
тарих фанлари номзоди, доцент

Инсоният тарихи миллион йиллар билан ўлчанса-да, аммо инсон қадри, унинг шаъни ва меҳнатини йиллар билан сарҳисоб қилиб бўлмайди. Ҳар қандай жамиятни у ёки бу жабҳада ўзгартирадиган, унинг тараққиёти ёки таназзулига сабабчи бўладиган ҳам – инсондир.

Инсоният тарихини ўрганар эканмиз, унинг меҳнати, келажак авлодларга қолдирган мероси ва жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиётидаги ўрнини таҳлил қиламиз.

XX аср – ўз бошидна иккита жаҳон урушини бошидан ўтказган ва инсониятнинг ҳақиқий синовларда тобланган даври ҳисобланади.

Тарихдан маълумки, Иккинчи жаҳон уруши йилларида Россиянинг европа қисмида кўчирилган минга яқин корхоналарни қуришда, уларда меҳнат қилиб, ғалабага муносиб ҳисса қўшишда минг-минглаб инсонлар қаторида 150 минг ўзбекистонлик юртдошларимизнинг ҳам ҳаёти ва қисмати аянчлидир. Иттифоқ Давлат мудофаа қўмитасининг 1942 йил 14 октябридаги № 2414-сонли Қарори асосида Ўрта Осиё республикаларидан Ўрта Осиё ҳарбий округи (ЎОҲО) қўмондонлиги кучи билан Россиянинг Урал (асосан Жанубий Урал) ҳудудларидаги саноат корхоналарида фаолият қилган меҳнат армиячиларининг ҳаётида маиший шароитлар муҳим рол ўйнаган. Бу борада иш ҳажми ва иш соатининг охири бўлмаган бир даврда ишлаган юртдошларимизнинг соғлиги, яшаш ва емиш шароитларидаги санитария-гигиена ҳолатларини таҳлил қилиш тарих учун долзарб вазифалардан биридир. Иккинчи жаҳон уруши йилларида соғлиқни салаш тизимининг асосий эътибори ва моддий-техник таъминоти фронтга қаратилган эди. Урал ҳудудларидаги ишчиларнинг саломатлиги ва санитария ҳолатини таҳлил қилишда айнан шу жиҳатга эътибор қаратиш лозим.

Урушнинг биринчи кунлариданоқ армия сафларини тўдириш, ярадорларни даволаш ва кўчма тиббиёт пунктларини жорий қилиш, умуман олганда тиббий хизматнинг асосий эътиборини урушга қаратиш мақсдага мувофиқ эди. Бу ҳолат 1943 йилнинг охирига қадар давом этди.

1944 йилдан давлатнинг соғлиқни сақлаш соҳасидаги устувор вазифаси оналик ва болаликни ҳимоя қилиш, “меҳнат заҳиралари” тизимида банд бўлмаган ўсмирлар, қаромоғда бўлганлар, болаликдан ногиронлар, меҳнат армиячилари, маҳбуслар ва ҳарбий асирларга қаратилган[1].

Шундай ҳолатда Урал ҳудудларидаги аҳолининг соғлигини тиклаш ва беморларни даволашда камёб дори-воситалари ўрнига асосан гиёҳлар ва маҳаллий воситалардан фойдаланилган.

Ваҳолангки, Челябинскдаги ўрта осиёлик меҳнат армиячилари бу даводан мосуво эдилар ва оддий қилиб айтганда касал бўлишга “ҳақлари” йўқ эди. Худди шунингдек, сифатли тиббий-санитария хизмати кўрсатилишидан умид деярли бўлмаган. Бундан ташқари, ўрта осиёдан борган меҳнаткашларга кўрсатилган тиббий ёрдам ва муолажа учун “тил билиш” муаммоси бу жараёнларни янада оғир кечганлигига далолат эди. Манбаларда: “рус тилида гапира олмайдиган ўзбеклар ва бошқа миллатлар ўртасида даволашни амалга оширишда қийинчиликлар”[2] туғилган, ишчиларининг айрим жамоаларида таржимон йўқлиги натижасида “....шифокордан рецептни олган меҳнат армиячиси уни нима қилишни билмасдан чўнтагида олиб юрган”[3]лиги қайд этилган.

Умуман Иккинчи жаҳон уруши йилларида соғлиқни сақлаш тизими аҳоли учун ҳам, жумладан саноат секторида ҳам талабларга жавоб бермаган. Моддий таъминот, тиббий ва хўжалик эҳтиёжларини таъминлашнинг сезиларли даражада ёмонлашуви натижасида, нафақат дори воситалари ва боғлов материаллари, балки хўжалик инвентарлари, транспорт, автоэҳтиёт қисмлари, тўшак жиҳозлари, ёнилғи маҳсулотлари ҳам камёб бўлган. Касалхона фонди сифати эксплуатация нормаларига умуман жавоб бермаган.

1941 йилда Челябинскда 1755 та касалхона койкаларидан 1000 таси ёки 56,98% фоизи баракларда жойлаштирилган. Ккасалхоналарнинг юмшоқ инвентарлар (ёстиқлар, матраслар) билан таъминланиши ўртача 30% фоиз бўлган. Ҳудудда яшаш фондининг ҳаддан ташқари тиғизлашуви, тупроқ ва сувнинг саноат ҳамда маиший чиқиндилар билан ифлосланиши, ҳаммом, кир ювиш, сартарошлик хўжалигининг етишмовчилиги вилоятнинг санитария аҳволининг ёмонлашувига сабаб

[1] Ратников, К. В., Усольцева Н. Л. Здравоохранение Челябинской области / Челябинская область: энциклопедия. Челябинск, 2008. Т.2. -С.414.
[2] ОГАЧО. Р-1595-фонд, 1-рщйхат, 60-иш, 49-варақнинг орқа томони.
[3] Ўша архив, П-297-фонд, 2-рўйхат, 876-иш, 36-варақнинг орқа томони.

бўлган. Уруш арафасида Челябинск вилоятининг 51 та шаҳар ва ишчи шаҳарчаларидан фақат иккитасида сув таъминоти, иккитасида канализация тизими, 11 тасида жамоат ҳаммомлари, 4 тасида кирхоналар бўлган холос. Бу эса инфекциялар тарқалишига ва ошқозон-ичак касалликларининг кўпайишига шароит туғдирган.

1943-1944 йилларда Жанубий Уралда инфекцион касалликларнинг тарқалишига иккита омил сабаб бўлган. Яъни, биринчидан тиббиёт ходимлари, дори-воситалари, дезинфекция воситалари, ёнилғи маҳсулотларининг етишмаслиги бўлса, иккинчидан аҳолининг эвакуация қилинганлар ва ишлаб чиқаришга сафарбар қилинган ишчилар ҳисобига аҳоли сонининг ортиб кетиши сабаб бўлган. Бунинг натижасида фуқаро ва ишлаб чиқариш секторида санитария-гигиена хизмати кўрсатилиши даражасининг жуда пасайиб кетишига сабаб бўлган.

Шунингдек, шифокорларнинг етишмаслиги ҳам яна бир омил бўлиб, биргина мисол Киров заводи медицина бўлимида 224 врачлик штати ўрнига 98 нафар шифокорлар ишлаганлигини қайд этиш лозим[1]. Касаллиқ манбаларининг ўкпайлишига сабаблардан яна бири, Ўрта осиёнинг турли ҳудудларидан юборилганларнинг иқлим шароитига мослашмаганлиги ва юборилишида тиббий кўрикларнинг тўлақонли ташкил қилинмаганлиги сабабли венерик, инфекцион ва ошқозон-ичак касалликлари сони кўпайган[2]. Қолаверса, ҳудудда касалликларнинг учрамаган, янги турларининг кириб бориши ҳам кузатилган.

Жумладан, Челябинск ва Могнитогорскда 1936 йилдан буён учрамаган такрорий терлама инфекцияси, безгак касалликлари 1943 йилга келиб қайд этилган[3]. Бу даврда Магнитогорск металлургия заводининг 501 нафар ходимида безгак қайд қилинган. 1943 йилнинг охирида Орскда ишлаб чиқариш объектларида ўрта осиёлик ишчиларининг 1792 нафарида безгак, шунингдек қорин терламаси қайд қилинган. Қорин термласи ва дизентерия касалликларининг кўпайишига сабаб саноат корхоналари ва меҳнат армиячиларининг яшаш қўрғонларидаги санитария-гигиена шароитларининг сифатсиз (деярли йўқ) эканлиги эди. Зотан, 1942-1943 йилларда Челябинск Киров заводининг №5-участкасида яшовчи ишчилар учун бирорта ҳам жамоат ҳожатхоналари бўлмаган[4]. Шунингдек, ахлат ва чиқиндилар ушбу участка ҳудудидаги ягона ичимлик сув манбаси бўлган кўлга оқиб турган.

Тиббиёт ходимлари, дори-дармонлар ва транспорт воситаларининг етишмаслиги сабабли меҳнат армиячиларига ўз вақтида ёрдам кўрсатилмаган. Аксарият ҳолларда касалланган ишчилар бараклар ёки ертўлаларда ётиб қолишган ва бунинг натижасида касалланиш бошқа ишчиларга ҳам ўтган[5].

1943 йил кузига келиб айрим корхона раҳбарлари ўз ишчиларининг соғлиги ва яшаш шароитларидаги гигиена ҳолатларини бироз яхшилашга ҳаракат қилишган. Челябинск металлургия заводи тасарруфида бўлган соғломлаштириш-профилактика пунктлари соғломлаштириш пунктларига айлантирилган. У ерда белгиланган ишлаб чиқариш нормасини бажарган ва ошириб бажарган меҳнат армиячилари учун тиббий ёрдам ва таъминот кўрсатилган. Соғломлаштириш пунктларида даволаниш ётиш икки ҳафта муддатда ва даврийлиги бир йилда бир марта бўлган[6]. 1943 йилнинг октябридан бошлаб витамин етишмаслиги (Цинга) касаллигини олдини олиш мақсадида бутун лагер контингенти, шу жумладан ЎОҲО меҳнат армиячилари учун мажбурий тартибда кунига қатронли дамлама олишга мажбур қилинганлар.

Челябинск ва Чкалов вилоятларидаги ишчиларнинг яшаш ва меҳнат фаолиятидаги шароитларнинг яхшилашга қаратилган ҳаракатларнинг сустлиги маиший, озиқ-овқат ва кийим-кечак таъминоти, тиббий хизмат масалаларининг етишмаслиги ВКП (б) МҚ матбуот органининг ҳисоботларида: “.... аҳолига хизмат кўрсатишнинг ёмонлашгани озиқ-овқат ёки ёнилғи йўқлиги сабабли эмас, ... балки маҳаллий партия ва совет ташкилотлари раҳбарларининг - ҳар куни аҳолининг эҳтиёжларига доимий ғамхўрлик қилиш тўғрисидаги энг катта мажбуриятини эсдан чиқариб қўяётганлиги учун,”[7] - деб қайд қилинган.

Вужудга келган вазиятнинг сабаби, Челябинск ва Чкалов вилояти совет ташкилотлари ва саноат корхоналари бир гуруҳ раҳбарларининг жойларда ЎОҲО меҳнат армиячиларини қабул қилиш,

[1] ОГАЧО. П-124-фонд, 1-рўйхат, 455-иш, 51-варақ.
[2] ЦДНИОО. 7480-фонд, 1-рўйхат, 644-иш, 111-варақ.
[3] ОГАЧО. Р-1595-фонд, 1-рўйхат, 60-иш, 8-варақ.
[4] ОГАЧО. П-124-фонд, 1-рўйхат, 348-иш, 2-варақ, 2-варақнинг орқа томони, 8-варақнинг орқа томони, 40-варақ.
[5] Ўша архив, ўша манба, 32-варақнинг орқа томони.
[6] ОГАЧО. Р-1619-фонд, 1-рўйхат, 22-иш, 92-варақ.
[7] // Правда газетаси, 1942 йил 5 января.

жойлаштириш, яшаш ва меҳнат қилиш шароитларининг талаб даражасида таёрланмаганлиги, санитария-маиший шароитлари тайёргарлик кўрилмаганлиги эди.

Қабул қилувчи саноат корхона ва қурилиш бригадалари раҳбарларининг асосий эътибори “белгиланган режа”ларнинг бажарилиши ва фақатгина шунга қатъий амал қилиниши бўлган. Аҳолининг маиший шароитлари, санитария-гигиена қоидалари ва тиббий хизмат кўрсатиш сифати эса кейинги (сўнгги) ўринларда бўлган.

Шу ўринда, Челябинск Киров заводининг етакчи мутахассиси Я.Е.Гольдштейн бронетанк ишлаб чиқаришининг йиғувчи конвейерига бутловчи деталларни етказиб бериш графигига риоя қилиш масаласида ва ЎОҲО меҳнат армиячиларининг ҳаётининг баҳоси тўғрисида маъмуриятнинг ёндашуви ҳақида ўз фикрини айтиб: “.... график, қандайдир “қора меҳнаткашлар” ҳаётидан кўра қадрлаган”,[1] - деб қайд қилган эди.

Шундай қилиб, “....уруш шароитларида ҳар бир ишчининг саломатлигини асраш учун кураш, унинг меҳнат қобилиятини сақлаб қолиш корхонанинг муваффақиятли ишлашининг ҳал қилувчи шарт-шароити, раҳбар сиёсий етуклигининг, унинг одамларга нисбатан ҳалол ва ғамхўр муносабатининг кўрсаткичидир,”[2] - деган сўзлар амалда бўлмаган. Бу эса саноат ва хўжалик корхоналарининг айрим раҳбарларида “сиёсий етуклик”, “ижтимоий инсоф”, “маънавий қудрат” бўлмаганлигидан далолат.

Шундай шаротларга қарамасдан, меҳнат армиячилари ўзларига берилган вазифаларни сидқи-жилдан бажаришга ҳаракат қилишган ва юрт озодлиги, тинчлиги ва фаровонлиги учун жонларини аямасдан меҳнат қилишган.

BADIIY MATNDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING NAMOYON BO‘LISHI

Mashhura Yuldosheva Zokirjon qizi,
NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ijtimoiy muloqotda odamlar o‘zlarining his-tuyg‘ularini hisobga olib, munosabatlarni saqlab qolish uchun boshqalarning face - yuzlaridan xabardor bo‘lishlari kerak. Insonning yuzini saqlab qolish uchun odamlar xushmuom alalikdan foydalanishlari lozim. Maqolada xushmuomalalik tamoyili sotsiopragmatikaning o‘rganish obyekti ekanligi, xushmuomalalik turlari va uni yuzaga chiqish omilllari Tohir Malik asarlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pragmalingvistika, sotsiopragmatika, pragmalingvistik resurs, xushmuomalalik tamoyili, donolik, saxiylik, minnatdorchilik, kamtarlik, hamkorlik, hamdardlik maksimallari.

Аннотация. В социальном общении людям необходимо узнавать лица других людей, чтобы поддерживать отношения с учетом собственных чувств. Чтобы сохранить лицо, людям следует проявлять вежливость. В статье рассматривается тот факт, что принцип вежливости является объектом изучения социопрагматики, анализируются виды вежливости и факторы ее возникновения на основе работ Тахира Малика.

Ключевые слова: прагмалингвистика, социопрагматика, прагмалингвистический ресурс, принцип вежливости, мудрости, щедрости, благодарности, смирения, сотрудничества, максимы симпатии.

Annotation. In social communication, people need to be aware of other people’s faces in order to maintain relationships, taking into account their own feelings. People should use courtesy to save face. In the article, the principle of politeness is an object of study of sociopragmatics, the types of politeness and the factors of its appearance are analyzed based on the works of Tahir Malik.

Keywords: pragmalinguistics, sociopragmatics, pragmalinguistic resource, the principle of politeness, tact maxim, generosity maxim, approbation maxim, modesty maxim, agreement maxim, sympathy maxim.

Xushmuomalalik ijtimoiy tartibni vujudga keltirish uchun asos bo‘lib, jamiyat a’zolari hamkorligining dastlabki shartidir. Insonlarning o‘zaro munosabatlarida umuminsoniy tamoyillar mavjudki, sotsial mavqeyidan qat’iy nazar jamiyatning barcha jabhalarida amal qiladi, lekin turli - tuman guruh, qatlamlarda har xil namoyon bo‘ladi. Xushmuomalalik hodisalari sotsolingvist va pragmalingvistlar tomonidan doimiy o‘rganib kelinayotgan mavzu bo‘lib, jumladan jahon tilshunoslari Lakoff, Braun, Levinson, Freyzer, Lich va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

[1]Гольдштейн. Указ. соч. С.162.
[2] ОГАЧО. Ф. П-288. Оп. 42. Д. 23. Л. 335.

Xushmuomalalik keng ma’noda tilda va madaniyatda juda keng tarqalgan kommunikativ xatti-harakatlar shaklidir. Xushmuomalalikni ifodalashda turli til resurslaridan foydalanib ifodalanish - pragmalingvistika, ma’lum bir ijtimoiy muhitda ma’lum darajada xushmuomalalikni ifodalanishi hamda ijtimoiy yo‘naltirilganligi esa sotsiopragmatikaga tomonidan o‘rganiladi.

Pragmalingvistika va sotsiopragmatikani bir-biridan ajratib o‘rganish kerak emas. Ularning ikkalasi ham pragmatikaning qirralari bo‘lib, biri tilga, ikkinchisi esa jamiyatga qaratilgan. Xushmuomalalik tamoyili ikki sohaning ham o‘rganish obyektidir. Tilning pragmalingvistik resurslari madaniy qadriyatlarni qanday ifodalash imkonini beradi. Kommunikativ kompetensiya kommunikatorlar tildan to‘g‘ri va muvaffaqiyatli foydalanish uchun ega bo‘lgan bilim va qobiliyat turini ifodalash uchun xizmat qiladi. Pragmatik kompotensiya lingvistik kompotensiyaning asosini tashkil etadi va uni pragmalingvistik, sotsiopragmatik kompotensiyalarga ajratishimiz mumkin.[1] Xushmuomalalik tamoyili, haqiqatan ham, pragmalingvistika va sotsiopragmatikaning birlashadigan nuqtalaridir biridir. Xushmuomalalik shakllari va strategiyalarini tanlash pragmalingvistikaga tegishli bo‘lsa, qachon va kimga nisbatan qo‘llanishi sotsiopragmatikaga taalluqlidir.[2]

Muloqotda xushmuomalalik tushunchasi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan hamda har bir millat, xalq va nutq jamoasining nutqiy obod tamoyillaridan biridir. Samarali muloqot uchun bu qiymatni e’tiborsiz qoldirmaslik lozim. Xushmuomalalik tamoyillariga e’tibor bermaslik kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradigan omillardan biri bo‘lib, bunga rioya qilmaslik natijasida nutq samarasiz tugaydi.

Amerikadagi oq tanli politsiyachi shifokorni tekshirayotgan edi:

– Isming nima, nak?

– Doktor Pussen. Men shifokorman.

– Isming nima, Nak?

“Alvin”.[3] Ushbu suhbatdan ko‘rinadiki, politsiya xodimi salomlashish va xushmuomalalik tamoyillarini buzdi. Bu konteksda suhbat a’zolari ingliz jamiyatiga mansub bo‘lib, ularning jamiyatida salomlashish shakli odatda “janob” so‘zi bilan birga keladi. Ingliz tilida so‘zlashadigan jamoalarda hurmat bilan salomlashish “profesor” yoki “doktor” kabi kasbiy izofalar, unvonini aytish bilan salomlashiladi. Bunday izohlovchilardan foydalanish akademik va kasbiy yutuqlar uchun minnatdorchilik sifatida qabul qilinadi. Ammo yuqorida keltirilgan parchada politsiya xodimi qayta-qayta sotsiopragmatik xatolikka yo‘l qo‘ydi, ya’ni yoshi kattaroq insonga “nak” – o‘g‘il bola deya murojaat qildi. Bu murojaat shifokorga yoqmaganligi uchun o‘zining kasbini ham qo‘shimcha qildi, ammo politsiyachi sotsiopragmatik bilimga ega emasligi uchun nutq odobini buzdi.

G.Lich (1983) hamkorlik va xushmuomalalik prinsiplarini universalligi haqida yozar ekan, ularning hamma jamiyatlarda bir xil tarzda qo‘llanmasligini aytadi: darhaqiqat, sotsiopragmatikaning asosiy maqsadlaridan biri… turli jamiyatlar qanday qilib maksimallarni turli yo‘llar bilan qo‘llashni aniqlashdir, masalan, xushmuomalalikni muayyan vaziyatlarda hamkorlik qilishda ko‘ra yuqori baho berish yoki ustunlik berish orqali bir maksimali.

G.Lich tilda xushmuomalalikni olti turdagi maksimallarga ajratadi: donolik, saxiylik, minnatdorchilik, kamtarlik, hamkorlik va hamdardlik. Nutq harakatda o‘z foydasini kamaytirish orqali donolik maksimali qo‘llaniladi. Saxiylik maksimali donolik maksimaliga o‘xshaydi, ya’ni uhbatdoshga foyda keltirishga tayyorlik orqali namoyon bo‘ladi. Minnatdorchilik maksimali boshqa tomonlarni maqtash, nutq sherigiga mutanosib yordam berish orqali amalga oshiriladi. Kamtarlik maksimalida esa so‘zlovchi o‘z yutuqlarini eslatish, ta’kidlashdan qochadi va boshqa nutq birliklaridan foydalanib so‘zlaydi. Hamkorlik maksimali suhbatda yozilmagan qoidalarga bo‘ysunish tushunchasini anglatadi. So‘zlovchi muloqot maqsadlariga erishish uchun atrof-muhit sharoitlariga moslashishga harakat qiladi. Ilmiy darajasi pastroq bo‘lgan tinglovchilar bilan muloqot qilganda, adresat (so‘zlovchi) tilning qiyinlik darajasini kamaytirishga harakat qiladi. Masalan, ko‘proq ilmiy atamalarni izohi bilan aytish yoki soddaroq tushuntirish usulidan foydalanadi.

Hamdardlik maksimali bu – tashvishni ifodalash qobiliyati, go‘yo suhbatdoshi (so‘zlovchi) his qilayotgan narsani, voqea-hodisani, qayg‘u-iztiroblarni tinglovchi ham his qilishi. Suhbatdoshining qayg‘usi yoki quvonchi uning ham qayg‘usi va baxti deb hisoblaydi, uning psixologik vaziyatiga tashvish va hurmat ko‘rsatishga harakat qiladi.

Xushmuomalalik darajasi so‘zlovchi va uning suhbatdoshining ijtimoiy mavqeyi bilan belgilanadi. Xushmuomalalik tamoyili – komunikatorlar o‘rtasidagi ijtimoiy, psixologika, muvozanat do‘stona

[1] Geoffrey Leech. The Pragmatics of Politeness. – Oxford University Press, 2014. – B. 56.

[2] Wolfram Bublitz Andreas H. Jucker Klaus P. Schneider. Handbooks of Pragmatics, - Walter de Gruyter GmbH & Co. KG, Berlin/Boston, 2011. – B. 86.

[3] Fathur Rokhman, M.Hum Surahmat. Mengelola kesalahpahaman perspektif sosiopragmatik, 2017. – B. 56.

munosabatlarni saqlash uchun zaruriy muloqot qoidasi.[1] Ya'ni ijtimoiy jihatdan suhbatdoshidan baland mavqega ega bo'lgan adresat buyruq mazmunida gaplardan foydalanadi.

Xushmuomalalikning turli darajalarini belgilashning lingvistik shakllari mavjud bo'lib, bu jamiyat a'zolarining maqomi, yoshi va jinsiga qarab aniqlanadi. Turli til madaniyatlarida yosh, ijtimoiy mavqe, ma'lumoti, jinsi va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlar xushmuomalalik strategiyalariga sezilarni ta'sir qiluvchi sotsial o'zgaruvchilardir.

Braun va Levinson (1987) tomonidan taklif qilingan xushmuomalalik strategiyalarining to'rt turi mavjud: bald on record (bevositalik), ijobiy xushmuomalalik, salbiy xusmuomalalik, off record (bilvositalik). Shundan *bald on record (bevosita) strategiyada* komunikatorlar bir-biriga yaqin bo'lgan holatlarda (bir oilala vakili, do'st, yaqin munosabatga ega bo'lganlar nutqida) namoyon bo'ladi. Iltifotsiz, ochiq, to'g'ridan to'g'ri direktiv nutq aktidan foydalanadilar:

1) Vahm pardasiga o'ralgan kampir uni yelkasidan ushlab turgizmoqchi bo'ldi:

- Tez milisa chaqir, uyni o'g'ri uribdi!

- Qanaqa o'g'ri? – dedi Suhrob esnab.

- Ko'zingni ochib qara, mebellarni o'g'irlabdi.

- Qanaqa mebellar? – Suhrob shunday dedi- yu qilgan qilig'ini eslab, bir seskanib tushdi. Lekin o'zini yo'qotib qo'ymadi, avvaldan tayyorlab qo'ygan bahonasini aytdi: - Mebellarni tuzatishga berib yuborganman.

- Yap-yangi mebellarning nimasini tuzatasan, qayeri sinibdi?

- Bilmayman, adam telpon qilib aytdilar, men bajardim. Qayeri singanini o'zlaridan so'rang.[2]

Demak, yuqoridagi suhbat tahlilidan shunisi anglashiladiki, buvi va nabirasi o'rtasidagi suhbat bevosita – to'g'ridan to'g'ri (direktiv) ifodalangan. Komunikatorlar o'rtasidagi muloqot simmetrik bo'lib, bir oilaga mansub shaxslar suhbati aynan social distance (ijtimoiy masofasi) yaqin ekanligini ko'ramiz va bevosita strategiyadagi bu suhbat xushmuomalalik deya baholanishi mumkin.

2) … - Sen bu tomonga sho'ng'ima, bo'ladigan gapni ayt.

- Diskotekaga kirgan odam bir ozdan keyin o'zgaryapti. G'alati holga tushyapti. Men ham o'zimni boshqacha his qildim.

- Nega ajablanasan? Muzikaning shovqini gangitib qo'yadi, Rok – muzika ham o'ziga xos narkotik hisoblanadi.

- Men boshqacha xulosaga keldim. Diskotekaga qoradori kukuni sochilsa kerak.

- Qanday qilib?

- Havo sovitgichlar puflab berishi mumkin. Bu yerga keladiganlar ana shu yengil kayfga o'rganishganga o'xshaydi. Bunaqalarni qoradoriga o'rgatish osonroq bo'ladi.

- Taklifing?[3] *...* Ushbu suhbat endi qarindosh bo'lmaganlar o'rtasidagi, ya'ni tergovchi Shuhrat va uning boshlig'i o'rtasida bo'lib, adresat hamda adresant orasida ijtimoiy maqom jihatdan farqlanganini, jinoyatni ochish bilan shug'ullanuvchi davlat xizmatchilari bir – birlari bilan "siz" lab, iltifot bilan emas, balki bevosita suhbat qiladilar. Ularning ish faoliyatida yuqori mansabdor shaxsning quyi pag'onadagi shaxsga "sen" lab murojaat qilishi tabiiy qabul qilinadi. Tinglovchi interaktiv munosabatdan ranjimaydi, demak, bu nutqni ham bald on recordda xushmuomalalik deya qabul qilinishi mumkin.

3) Rajabning bu sirli harakatidan ajablangan Suhrob mashinaga o'tirishi bilan:

- Ha, tinchlikmi, it quvlagan gadoyday hovliqib qolding? – deb so'radi.

- It quvlagan gadoy men emas, sensan, ahmoq! – dedi Rajab jerkib.

- Ha, men ahmoqman. Bugun meni rosmanisiga ahmoq qilding. Mehmoningni ikki soat kutdim, - dedi Suhrob. (115-bet) Ushbu muloqot giyohmand moddalar sotish, yoshlarni yo'ldan uish bilan shug'ullanuvchi jinoiy to'daga mansub ikki jinoyatchilar suhbati bo'lib, ular FTA – yuzga tahdid soluvchi *it quvlagan gadoy, ahmoq* kabi disfemik xarakterdagi birliklardan foydalanishgan. Suhbat esa negative politeness (salbiy xushmuomalalik) sifatida baholanishi mumkin.

Bevosita strategiyada qarindoshlik nomlari – umuman, shaxs otlarining qo'shilib kelishi buyruq ta'sirini yumshatish uchun xizmat qiladi.[4]

1. Sabriyya, *qizginam,* bo'ldi, bunchalik yonib *kuyaverma.*

2. *Xonim,* "yig'la, yig'la" deb *qiytayvermang.*

---

[1] Fathur Rokhman, M.Hum Surahmat. Mengelola kesalahpahaman perspektif sosiopragmatik, 2017. – B. 83.

[2] Tohir Malik Eng kichik jinoyat, qissa. www.ziyouz.com. – B. 111.

[3] Tohir Malik. Ko'rsatilgan manba. – B. 94

[4] Arin Bayraktaroglu, Maria Sifianou, Linguistic politeness across boundaries. -John Benjamins Publishing Co., 2011. – B. 222.

3. E *sodda bola-e, surishtiravermaysanmi,* oshna – og‘aynisi chiqib qolarmidi…[1]

Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e’tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda o‘zlovchi tinglovchi o‘rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch; hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo‘ladi. Shunga ko‘ra, doimiylik belgisiga ega bo‘lgan murojaat birliklari nutqda appelyativ (xitob va murojaat orqali muloqotni boshlash), konnotativ (subyektiv munosabat –salbiy va ijobiy munosabatlarni ifodalash), emotiv (hissiy munosabat) funksiyalarni bajaradi.[2]

Demak, hamkorlik maksimali suhbatda yozilmagan qoidalarga bo‘ysunish tushunchasini anglatadi. So‘zlovchi muloqot maqsadlariga erishish uchun atrof-muhit sharoitlariga moslashishga harakat qiladi. Ilmiy darajasi pastroq bo‘lgan tinglovchilar bilan muloqot qilganda, adresat (so‘zlovchi) tilning qiyinlik darajasini kamaytirishga harakat qiladi. Komunikatorlar bir-birlari bilan muloqot davomida ijtimoiy masfa, ijtimouy maqom, kuch kabi sotsial omillarga bog‘liq holda suhbat quradilar. Bevosita strategiya ham suhbatdoshlarning qayerda, qanday va kim bilan so‘zlashyapganiga qarab turlicha namoyon bo‘lar ekan.

ADABIYOTLAR:

1. Geoffrey Leech. The Pragmatics of Politeness. – Oxford University Press, 2014. – B. 56.

2. Wolfram Bublitz Andreas H. Jucker Klaus P. Schneider. Handbooks of Pragmatics, - Walter de Gruyter GmbH & Co. KG, Berlin/Boston, 2011. – B. 86.

3. Fathur Rokhman, M.Hum Surahmat. Mengelola kesalahpahaman perspektif sosiopragmatik, 2017. – B. 56.

4. Penulis; Harun Joko Prayitno. Studi Sosiopragmatik. – Surakarta: Muhammadiyah University Press, 2017. – B. 83.

5. Arin Bayraktaroglu, Maria Sifianou, Linguistic politeness across boundaries. -John Benjamins Publishing Co., 2011. – B. 222.

7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007. – B. 64.

6. Tohir Malik, Voy onaginan. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 216.

7. Tohir Malik Eng kichik jinoyat, qissa. www.ziyouz.com. – B. 111.

ДУНЁҚАРАШ ВА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЁШ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДАГИ РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ

Эшдавлатов О.Ғ.,
НДПИ ўқитувчиси

Аннотация: *Мақолада дунёқараш ва қадрият тушунчалари, уларнинг мазмун-моҳияти, ёш авлод тарбиясидаги роли ва аҳамияти баён этилган.*

Таянч сўзлар: *дунёқараш, қадрият, глобаллашув, ёшлар, таълим-тарбия, маънавият, камолот, баркамол шахс*

Аннотация: *В статье раскрыты понятия мировоззрение и ценности, их сущность, роль и значение в воспитании молодого поколения.*

Ключевые слова: *мировоззрение, ценности, глобализация, молодежь, образование, духовность, зрелость, всесторонне развитый человек*

Annotation: *The article describes the concepts of worldview and value, their essence, role and importance in the education of the young generation.*

Key words: *worldview, value, globalization, youth, education, spirituality, maturity, well-rounded person*

Давлатчилик тарихий тараққиёт йўлидан маълумки, ҳар қандай давлатнинг жадал ривожланиши, муайян ютуқларга эришиши, халқнинг фаровон бўлиши ўша давлатда ёшлар таълим-тарбияси ва келажагига бериладиган эътибор даражасига чамбарчас боғлиқ.

Маълумки, инсоният ҳаётида унинг келажаги ҳисобланган авлодлар, фарзандлар, ёшлар тарбияси муҳим аҳамият касб этиб келган ҳолда, XXI асрга келиб ёш авлод тарбияси масаласи ҳар қачонгидан ҳам долзарб масалалардан бирига айланиб улгурди. Бугунги шиддатли замон, глобаллашув жараёнлари ва унинг салбий таъсирлари, дунёдаги кескин рақобат муҳити, турли хавф-хатарлар биздан жуда катта масъулият ва сафарбарлик билан ишлашни, ҳамма соҳаларда янгича ёндашувни, шу билан бирга, ёш авлод таълим-тарбияси борасида ҳам фарзандларимизни жисмонан

[1] Tohir Malik, Voy onaginan. – T: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 216 (252).

[2] Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007. – B. 64.

соғлом, маънавий етук ва баркамол қилиб тарбиялашга алоҳида эътибор қаратишни, жамиятимизда бу борадаги ишларни тизимли ва изчил амалга оширишни тақоза қилмоқда.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда янги дунёқарашга эга, мустақил фикрлашга қодир бўлган баркамол ёш авлод тарбияси борасида кенг қамровли чора-тадбирлар белгиланиб, самарали ишлар амалга оширилди ҳамда бу борадаги ишлар тизимли равишда давом эттириб келинмоқда. Шу маънода, Ўзбекистонда ёшлар масаласи давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев бу борада тўхталиб шундай дейди:

Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган.

Аммо биз яшаётган XXI асрда ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда.

“Тарбия қанчалик мукаммал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди”, дейди донишмандлар. Тарбия мукаммал бўлиши учун эса бу масалада бўшлиқ пайдо бўлишига мутлақо йўл қўйиб бўлмайди.[1]

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий соҳадаги кенг кўламли ислоҳотлардан кўзланган асосий мақсадлардан бири баркамол авлодни тарбиялаб вояга етказиш, ёшларнинг юксак маънавиятга эришувини таъминлаш, ижтимоий тараққиёт жараёнида ҳар томонлама камол топган инсонни шакллантириш, миллий ва умуминсоний қадриятларни ўзида мужассам этган ҳамда етук баркамол шахсни вояга етказишдир. Шундай мақсадни кўзлаган кўпмиллатли Ўзбекистонда бир мақсад сари интилиш, ёшларнинг келажагини ўйлаш, фуқаролик жамиятини ривожлантиришда ёшларнинг ўрни ва роли ҳамда уларда янгича дунёқарашни шакллантириш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев БМТнинг 72-сессиясидаги сўзлаган нутқларида ёшлар масаласига тўхталиб шундай деган эди:

Бугунги дунё ёшлари – сон жиҳатидан бутун инсоният тарихидаги энг йирик авлоддир, чунки улар 2 миллиард кишини ташкил этмоқда.

Сайёрамизнинг эртанги куни, фаровонлиги фарзандларимиз қандай инсон бўлиб камолга етиши билан боғлиқ.[2]

Маълумки, мамлакатимиз аҳоли ёш динамикаси бўйича ёшлар мамлакати бўлиб, ёшлар аҳолининг катта қисмини ташкил этади.

Мамлакатимизда 30 ёшгача бўлган ёшлар 19 миллиондан ортиқ ёки аҳолининг 55 фоизини ташкил қилади.[3]

Маълумки, ёш авлодни тарбиялашда, уларнинг таълим-тарбиясида, баркамол шахс сифатида камол топишида дунёқараш ва қадриятларнинг роли ва аҳамияти бениҳоя каттадир. Дунёқарашни дунёни англаш, идрок этиш деб қарайдиган бўлсак, аввало инсон дунёни ҳиссий сезади. Кейин ҳиссий инъикос этилган воқелик хақида тўплаган билимлари асосида инсоннинг дунёқараши пайдо бўлади. Шу тариқа шахснинг дунёни англаши орқали унинг ўзини англаши ҳам шаклланиб боради. Дунё ҳақидаги барча билимлар юксак даражада умумлаштирилади ва яхлит дунёқараш шаклланади. Инсон дунёқараши ундаги мафкура билан боғлиқдир. Чунки инсон воқеликка муайян мақсад, манфаат ва қизиқишлардан келиб чиқиб ёндашади. Дунёқараш кишиларнинг ахлоқ меъёрлари, ҳаётдаги интилишлари, қизиқишлари, меҳнат ва турмушларига таъсир кўрсатиб, катта амалий маъно касб этади.

Ўзбекистон миллий энциклопедиясида дунёқараш тушунчасига қуйидагича таъриф берилган:

Дунёқараш - дунёга ва инсоннинг ундаги ўрнига, кишиларнинг ўз атрофидаги воқеликка ва ўз-ўзига муносабатига бўлган умумий қарашлар тизими, шунингдек, бу қарашларга асосланган одамларнинг эътиқодлари, идеаллари, билиш ва фаолият тамойиллари. Дунёқараш кишининг ёши, ҳаётий тажрибаси, билими, мафкураси билан боғлиқ. Дунёқарашда жамиятда шаклланган фалсафий, илмий, диний, сиёсий, ахлоқий, ҳуқуқий, эстетик билимлар, қарашлар ўз аксини топади. Шахснинг дунёқараши ижтимоий муносабатлар биланн чамбарчас боғланган. Дунёқараш инсоннинг ўзини ва

---

[1] Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б. 504-505.

[2] Ш.Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б. 252.

[3] https://president.uz/uz/lists/view/6145. Ёшлар учун янги имкониятлар белгиланди. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида ўтказилган ёшлар сиёсати соҳасидаги ишлар натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши

дунёни зарурий равишда англаши ҳамда баҳолаши асосида шаклланади. Бу жиҳатдан дунёқараш воқеликнинг инсон онгидаги субъектив инъикосидир. Айрим индивиднинг онги билан боғланган индивидуал дунёқараш, муайян ижтимоий гуруҳ, қатлам, синф, миллат ва жамият миқёсидаги ижтимоий онг билан боғланган ижтимоий дунёқараш мавжуд. Булар бир-бирини тўлдиради, бир-бирига таъсир қилади, бир-бирини ривожлантиради.[1]

Дунёқараш тушунчаси ўзликни англаш, ватанпарварлик, миллий ғоя, миллий ғурур, тарихий онг ва хотира, ижтимоий-сиёсий ва фалсафий тафаккур, маънавий баркамоллик каби туйғу ва тушунчалар билан узвий боғлиқ ҳолда шаклланади. Чунки, дунёқараш айнан ана шу руҳий-ижтимоий ҳодисалар орқали ойдинлашади, умуминсоний қадриятларнинг тарихий бир бўлагига айланади.

Ёш авлод камолотида дунёқарашнинг роли ва аҳамияти бениҳоя каттадир. Кенг дунёқарашга эга, маънавий-маърифий жиҳатдан камол топган ёшлар демократик ислоҳотларни истеъмолчисигина бўлиб қолмай, уларнинг фаол яратувчиси ва ҳимоячисига айланади. Ёшларнинг янги жамият қуриш ва янгича яшаш тарзига асосланган миллий тафаккури ва дунёқарашини шакллантириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Янги Ўзбекистонда ёшларни мустаҳкам ва қатъий дунёқарашга эга, Ватанга ҳамда ота-она ва яқинларига меҳр-муҳаббатли, садоқатли, мустақил, эркин ва инновацион фикрлайдиган, рақобатбардош, жисмоний ва маънавий соғлом ҳамда баркамол қилиб тарбиялаш муҳим ва устувор вазифаларимиздан бири сифатида ушбу масала тизимли ёндошувни тақозо этади.

Президентимиз Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асарида бу борада шундай таъкидлайди:

Бизнинг Тараққиёт стратегиямизда ҳар жиҳатдан баркамол ривожланган, эркин фикрлайдиган, Ватанга содиқ, қатъий ҳаётий қарашларга эга йигит-қизларни тарбиялаш энг устувор вазифаларимиздан бири сифатида белгиланган.[2]

Қадриятлар авлодларнинг маънавий-ахлоқий, ғоявий сифатларини шакллантириш, яъни интизомлилик, иродалилик, ўз олдига қўйган улкан мақсадга интилиш, фарзандларни одоб-ахлоқ қоидалари ва тартиблари билан яқиндан таништириб бориш, яхшини ёмондан, оқни қорадан ажратиб олиш, ҳаётни севишга ўргатиш, умуман, баркамол авлодни тарбиялашда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, ҳамма замонларда ҳам асосий талаблардан бўлиб ҳисобланади.

Маълумки, давлатимиз мустақилликка эришгач, қадриятларга инсон ва жамият тараққиётининг муҳим омилларидан бири сифатида катта эътибор қаратила бошланди. Қ.Назаров қадриятни фалсафий категория сифатида эътироф этиб, XX асрнинг 90-йилларигача алоҳида мавзу сифатида фалсафий қўлланма ва дарсликларда ўз ўрнини топмаганини таъкидлайди[3] ҳамда ўз қарашларида қадрият тушунчасини қуйидагича ёритади: “Қадрият” - воқеликнинг турли кўринишлари, нарса, воқеа, ҳодиса, жараён, табиат ва жамиятга оид турли жиҳат, хусусият ва бошқаларнинг бирор субъект(шахс, синф, миллат ва бошқа) учун ижтимоий қадри ва аҳамиятини англатадиган фалсафий-аксиологик тушунчадир.[4]

Юқоридагиларга асосланиб айтиш мумкинки, қадрият дейилганда инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган миллат, элат ва ижтимоий гуруҳларнинг манфаатлари ва мақсадларига хизмат қиладиган ва шу туфайли улар томонидан баҳоланиб, қадрланадиган табиат ва жамият неъматлари, ходисалари тушунилмоғи лозим.

Дарҳақиқат, қадриятларнинг ҳаётдаги ўрни ва аҳамияти баҳолаш туфайли белгиланади. Баҳолаш эса инсонларнинг эҳтиёжлари, манфаатлари, мақсадлари, қизиқишларидан келиб чиқади. Биз ҳозирги глобаллашув ва унинг салбий оқибатлари, ёшлар таълим-тарбияси, ёшларнинг камолоти нуқтаи-назаридан келиб чиқадиган бўлсак, ёшлар таълим-тарбиясида қадриятларнинг роли ва аҳамиятини нечоғлик катта эканлигини теран англаймиз.

Президентимиз Ш.Мирзиёев “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси” асарида маънавий янгиланиш, маънавий-маърифий жабҳалардаги ислоҳотлар хусусида тўхталиб, иқтисодий ислоҳотлар билан бир қаторда бу борада қадриятларга асосланган кучли маънавиятга таянишимиз кераклигини алоҳида таъкидладилар.

---

[1] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. 382-бет

[2] Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. –Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2022. – Б. 245.

[3] Қ.Назаров. Қадриятлар фалсафаси. - Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2004. –Б.6

[4] Қ.Назаров. Қадриятлар фалсафаси. - Т.: 2011. –Б.27

Биз Янги Ўзбекистон тараққиётининг ҳозирги ривожланиш босқичида ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий омиллар билан бирга, маънавий-маърифий жабҳаларда амалга оширилаётган ислоҳотлар ҳам муҳим аҳамиятга эга эканини яхши англаймиз.

Менинг назаримда, жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи – маънавиятдир. Биз янги Ўзбекистонни барпо этишда ана шу иккита мустаҳкам устунга, яъни, бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиётга ҳамда аждодларимизнинг бой мероси, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланган кучли маънавиятга таянамиз.[1]

Дарҳақиқат, ҳозирги глобал муҳит, "замонавий ҳаёт" ёш авлодни жисмонан соғлом, маънавий етук, интеллектуал салоҳиятли, рақобатбардош, кучли фуқаролик позициясига эга баркамол шахс қилиб тарбиялашга алоҳида эътибор қаратишни, жамиятда бу борадаги ишларни тизимли, изчил ва узлуксиз амалга оширишни талаб қилмоқда. Шундай экан, ҳозирги глобаллашув ва унинг салбий оқибатлари, ёшлар таълим-тарбияси, ёшларнинг камолоти нуқтаи-назаридан келиб чиқадиган бўлсак, ёшлар таълим-тарбияси ва камолотида қадриятларнинг роли ва аҳамиятини нечоғлик катта эканлигини теран англаймиз.

Хулоса қилиб айтганда, ёшларни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш, ҳар томонлама соғлом ва баркамол қилиб вояга етказиш, дунёқараши ва фаол фуқаролик позициясини шакллантириш ҳамда фаоллигини кучайтириш, уларни мустақил фикрлайдиган, замонавий билим ва касб-ҳунарларни пухта эгаллаб, халқаро майдонда рақобатга кириша оладиган баркамол шахслар этиб тарбиялаш уларнинг ижтимоий фаоллигини оширишга хизмат қилиб, маънавий комилликка эришувида асосий ва белгиловчи омил вазифасини ўтайди.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017.
2. Ш.Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2018.
3. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. –Т.: "Ўзбекистон" нашриёти, 2022.
4. https://president.uz/uz/lists/view/6145. Ёшлар учун янги имкониятлар белгиланди. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида ўтказилган ёшлар сиёсати соҳасидаги ишлар натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши
5. Қ.Назаров. Қадриятлар фалсафаси. - Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2004. –Б.6
6. Қ.Назаров. Қадриятлар фалсафаси. - Т.: 2011. –Б.27
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002

MILLIY MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY TARIXIY ASOSLARI (Navoiy viloyati misolida)

Ashirov Valijon,
NavDPI Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

O'zbek xalqi boy milliy ma'naviy merosga ega bo'lgan xalqdir. O'zining boy tarixi, uzoq o'tmishi, ilmiy va ma'naviy merosi bilan jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega. Xalqning tarixi qancha boy bo'lsa, ma'naviyati ham shuncha mustahkam bo'ladi. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Chunki har bir avlod, har bir davr kishilari ma'naviyat ravnaqiga o'z ulushini qo'shib boraveradi.

Yangi O'zbekistonda milliy qadriyatlarning tiklanishi – demokratik jamiyat qurishning muhim sharti. Demokratik jamiyat konsepsiyasida milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, diniy qadriyat shu jumladan milliy madaniy maskanlarning o'rniga ham alohida etibor qaratilmoqda. Negaki, ular o'rtasida qatiy chegara yo'q.

[1] Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. –Т.: "Ўзбекистон" нашриёти, 2022. – Б. 249

Zero, “O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqaror, umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo‘lgan, ma’naviy meros va diniy qadriyatlarni tiklab, inson huquqlarini ustuvor soha darajasiga ko‘tara olgan mamlakatdir”[1].

Bunday fikr bildirishimizga muayyan tarixiy sharoitlarda ob’ektiv zaruratlar tufayli jamiyat rivojlanishi uchun milliy qadriyatlar diniy qarashlar bag‘rikenglik tamoyili asosida shakllanganligidir. Shunga ko‘ra bizning milliy qadriyatlarimiz faqat islom zaminida vujudga kelmagan, balki zardushtiylik, buddaviylik kabi dinlardan ham ko‘p narsalarni olgan.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak ikkinchi jahon urushi yillarida yurtimizga bir qancha millat va elat vakillari ko‘chirib keltirilgan. Usbu millat vakillari keyinchalik yurtimizda qolib demografik o‘zgarishlarni ko‘payib borishiga shuningdek, o‘zlarining milliy madaniy maskanlarini rivojlantirib milliy qadriyatlarini va tub aholining qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirib o‘zaro do‘stlik va birodarlik rishtalarini takomillashtirib borishgan. “Xalqlar do‘stligining buyuk kuchi jang maydonlaridagina, emas balki boshqa sohalarda ham namoyon bo‘ldi. Rus, qozoq, o‘zbek, gruzin, boshqird xalqlari va boshqa xalqlar og‘ir damlarda Ukrainaning dushman tomonidan vaqtincha bosib olingan territoriyasidagi millionlarcha kishilarni o‘z diyorida keng quloch ochib kutib olishdi, o‘zlarining bir burda nonini ham ular bilan baham ko‘rishdi”[2]. Mana shu millat va elat vakillari keyinchalik Zarafshon vohasidagi sanoat shaharlariga asos solinishida, shuningdek, sanoat korxonalarini qurilishiga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shishgan.

Navoiy yosh va navqiron viloyat bo‘lsa-da, uning insoniyat tamadduniga katta hissa qo‘shgan qadimiy va boy tarixi bor. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning viloyat ahliga qarata: “Aziz birodarlar, baraka topkurlar, aytinglar-chi, sizlar har kuni ko‘rib va kezib yuradigan Karmana shahrining yoshi nechada? Yoki Cho‘li Malikdagi eski rabot va sardoba qachon paydo bo‘lgan? Sarmish darasi va g‘oridagi ibtidoiy suratlar bu o‘lkaning eng qadimiy madaniyat beshiklaridan biri ekanligidan darak bermaydimi?”[3] –degan fikrlari bu diyor tarixining eng qadimiy davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida ham milliy qadriyatlarni rivojlantirish va viloyatda istiqomat qilib kelayotgan millat va elat vakillarining ma’naviy boyliklari hisoblanuvchi madaniy maskanlar faoliyatiga e’tibor oshib bordi. “Viloyatimiz va unda yashovchi xalqlar o‘ziga xos tarixga ega. Hozir viloyatimiz hududida 2 ta davlat muzeyi, Nurato tumani va Zarafshon shahrida, 5 ta jamatchilik asosida tuzilgan xalq muzeylari mavjud bo‘lib, ular Xatirchi, Tomdi, Qiziltepa, Konimex tumanlari va Navoiy shahrida faoliyat ko‘rsatib turibdi”[4].

Binobarin, har qanday qadriyatlarning bosh manbai ijtimoiy hayotdir va diniy e’tiqod masalalariga e’tiborni qaratilishi milliy tolerantlikni rivojlantirishga sabab bo‘lishi tabiiydir. Buning isboti sifatida hozirgi davrda mamlakatimizda ko‘pgina tarixan din bilan bog‘liq qadriyatlar o‘zlarining diniy mazmunini o‘zgartirib, dunyoviy milliy qadriyatlarga aylanganligidir. Ayni paytda, demokratik jamiyatni barpo etishda din har doim ham uning tarafdori bo‘lavermaydi. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrining murakkab o‘tish jarayonlarida islom g‘oyalari va qarashlaridan bir-biriga tubdan qarama-qarshi maqsadlar yo‘lida foydalanishga urinishlar jonlangan bir paytda, ana shu omilning o‘rnini alohida tahlil etish zarur. Viloyatda joylashgan tarixiy madaniy obida inshoatlarni himoyalash, ularni respublikaning madaniy meros obektlari ro‘yxatiga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro va milliy jihatdan asrab avaylash sayyohlarni madaniy maskanlarga tashrif buyurishini kengaytirish borasida ham bir qancha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish lozim.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 12-13 mart kunlari Navoiy viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshirig‘i va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 11-sonli yig‘ilish bayonining 107-bandiga muvofiq “Buyuk Ipak Yo‘li”ning Zarafshon—Qoraqum qismida joylashgan “Qosim Shayx”, “Mirsaid Bahrom”, “Raboti Malik”, “Sardoba”, “Mavlono Orif Deggaroniy” madaniy meros obyektlarini YuNESKOning Butunjahon madaniy merosi yodgorliklari ro‘yxatiga kiritish vazifasi topshirilgan. “Mamlakatimizda bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish, millatlar va konfessiyalararo o‘zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanadi”[5]. Keyingi yillarda ham milliy madaniy markazlar viloyat bo‘yicha ko‘payib borgan ya’ni 2017 yilgacha ularning soni 10 tani tashkil etgan bo‘lsa bugungi kunda bir oz pasayib

[1] Xoliqov Yunus Ortiqovichning “Yoshlarda bag`rikenglik madaniyatini shakllantirishning axloqiy masalalari” mavzusidagi falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2020. –B.13.

[2] Т.Я.Киселев Qardoshlik qudratli kuch.// Sovet O‘zbekistoni gazetasi. 1972 yil 16 may.

[3] R.Sulaymonov, R.Haydarov, S.Inoyatov “Navoiy – o‘tmishi qadim, kelajagi nurli diyor” kitob-albom –T.: Ma’naviyat, 2012. – B.3.

[4] Navoiy viloyati hokimligi arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 29-ish, 10-varaq.

[5] Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: O‘zbekiston, 2018. – B.455.

6 tani tashkil etadi. Ba’zi sohalarda kamchiliklar ham ko‘zga tashlanadi ya’ni Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlarida yoki biror bir tuman markazlarida ham milliy teatr hozirgi kungacha qurib bitkazilmagan.

Davlatimiz rahbarining 2021 yil 13 oktyabrida Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida viloyatdagi milliy madaniy markazlar vakillari bilan muloqotida ham ko‘p millatli Navoiy viloyati - xalqlar do‘stligi va o‘zaro anglashuvining yorqin ifodasi. O‘zbek, qozoq, qoraqlpoq, tojik, rus, koreys va ko‘plab boshqa millat vakillari bir oila a’zolaridek yashab, yurtimiz rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Viloyatda 8 ta milliy madaniy markaz faoliyat yuritmoqda. Maktablarda o‘qitish 7 tilda yo‘lga qo‘yilgan.

Prezidentimizning tashabbusi bilan keyingi yillarda millatlararo munosabatlarga, milliy madaniy markazlarga e’tibor kuchayib bormoqdai, 30 iyul mamlakatimizda Xalqlar do‘stligi kuni etib belgilangani qayd etildi. Ayniqsa, 2022 yilda Navoiyda ko‘p millatli xalqimiz birligining ramzi sifatida Do‘stlik bog‘ini barpo etilishi milliy va diniy bag‘rikenglikning o‘zaro himoyasidir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda milliy madaniy markazlarning alohida o‘z o‘rni bor albatta. Zero, viloyatning shahar va tuman markazlarida milliy teatrlarni qurish viloyatda istiqomat qilib kelayotgan yuzdan ortiq millat va elat vakillari o‘zlarining milliy qadriyatlarini sahnalashtirib sanoat ishchilariga va yosh avlodni barkamol avlod bo‘lib tarbiyalanishda muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatda, shu jumladan, uning tarkibiy qismi bo‘lgan Zarafshon vohasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohada qo‘lga kiritilgan yutuqlarni tarixiy jihatdan ilmiy tahlil qilib, mustaqillik yillaridagi tajribalardan xulosa chiqarish, tarixiy-ilmiy mulohazalarni bildirish Uchinchi Renessansning boshlanishi uchun tarixchi olimlarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Navoiy viloyati ko‘hna madaniyat, nodir san’at, go‘zal me’morchilik, qadimiy qoyatishlar markazidir. Shuning uchun viloyatning qadimiy yodgorliklarini YUNESKO ixtiyoridagi makonga aylantirish va turizm turlarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR IMOM AL-BUXORIY SABOQLARIDA

Qarshiboyeva Zuxra Abduvaxabovna,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Movarounnahr hududida IX-XII asrlarda yuz bergan renessans jarayonining eng yorqin vakillaridan biri, dinning ulug‘ vakillaridan- Imom al-Buxoriyning hayot yo‘li va ilmiy faoliyatiga to‘xtalib o‘tiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi Imom Buxoriyning ibratli hayoti va samarali faoliyatini yanada chuqurroq tadqiq etish va kitobxonlar orasida ommalashtirish hisoblanadi. Bundan tashqari Imom al-Buxoriydek buyuk insonlarning avlodi sifatida ularning faoliyatini tadqiq etish hamda kreativ yondashish bugungi kunda har bir tadqiqotchining burchi bo‘lishi kerak, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Imom al-Buxoriy, muhaddis, Qur’oni karim, hadis, Buxoro, Samarqand, Xartang, sahih, nosahih, Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy, roviy, sahoba.

Annotation. This article focuses on the life and scientific work of Imam al-Bukhari, one of the brightest representatives of the Renaissance in the region of Mowarannahr in the 9th-12th centuries, one of the great representatives of religion.

The main goal of the research is to further study the exemplary life and fruitful activities of Imam Bukhari and popularize them among readers. In addition, it is necessary to study the activities of such great people as Imam al-Bukhari as a descendant, as well as their creativity

Keywords: Imam al-Bukhari, muhaddith, Qur’an, hadith, Bukhara, Samarkand, Khartan, sahih, nosahih, Khalid ibn Ahmad al-Zuhali, narrator, companion.

Sharq mutafakkirlari insoniyatni ilohiy va dunyoviy ilmlardan xabardor etishda, ularning aql-u zakovatini oshirishda tinimsiz izlanganlar va samarali ijod qilganlar. Ular yaratgan bebaho asarlardan olam va odam, borliq hayotning mazmun-mohiyati singari falsafiy tasavvufiy mavzular yuzasidan bilim berish uchun madrasalarning asosiy o‘quv qo‘llanmasi sifatida foydalanilgan. Shu bois yuksak salohiyat sohiblari asrlar osha avlodlar ardog‘ida yashab kelgan, insoniyatni hayajonga solib kelgan muammolarning nazariy va amaliy jihatlarini hal etishga yordam bergan.

Xalqimizning qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan axloq-odob fazilatlari, ma’naviyatimizni asosini tashkil etgan. Ayniqsa, Qur’oni Karim va Hadisi Shariflar tasaffuv kabi umriboqiy sarchashmalar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ko‘xna amaliy gultoj asarlar sifatida bebahodir. Buyuk hadisshunos alloma Imom

al-Buxoriyning “ Al jome al sahih“, “Al adad mafrat“ kitoblarida jamlangan hadislarda kishilik jamiyati hayotida xususan, har bir davr yoshlarini tarbiyalashda, ularning ma’naviy dunyosini boyitishdagi o‘rni haqidagi qimmatbaho fikrlar va o‘gitlar bayon qilingan. Inson ma’naviyati tarbiyasi bevosita komil inson shaxsini tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan muhim fazilatlar hadis ilmiga tayangan holda amalga oshirilgan. Hadis ilmining xalq orasida keng tarqalishiga asosiy sabab, dastlabki tashkil etilgan maktab va madrasalar o‘quv dasturlariga asosiy islomiy, diniy manba sifatida kiritilganligidir. Mazkur fikrni tasdiqlovchi manbalardan biri Qoraxoniylar davri ta’lim tizimi tarixi haqida ma’lumot beruvchi Ahmad al-Nasafiyning “ Matla’an nujum va majma al ulum “ yulduzlarning chiqishi va ilmlarning to‘planish joyi asaridir.

Asar muallifi Ahmad Nasafiy bu asarni yozishda asosan XI asrda Nasaf shahrida shakllangan Hadis maktablarining mashhur muhaddislaridan olgan ilmiga tayangan holda yaratadi. Bu asar asosan Ahmad Nasafiyning Samarqanddagi Ibrohim Tavg‘achxon madrasasida mudarrislik faoliyati davrida yaratilgan bo‘lib, talabalar uchun mo‘ljallangan darslik vazifasini ham o‘tagan. Darslikda muallif 23 ta ilm sohasini qamrab olgan. Har bir ilm o‘z navbatida 57 ta qismni tashkil etadi. Darslikning asosiy diniy ilm sohasini Qur’oni Karim bilan bir qatorda hadis ilmini o‘rganish tashkil etadi. Muallif shu o‘rinda 360 ta hadis jamlanganini zikr etib o‘tadi. Ammo al-Buxoriyning Hadis ilmiga doir asarlari haqida ma’lumot bermaydi. Muhimi Hadis ilmi X-XI asrlardan boshlab ta’lim tizimida keng o‘rganilganligini yuqoridagi ma’lumotlar tasdiqlaydi. Imom al-Buxoriyning “Al-Jome’ as sahhih “ (Ishonarli to‘plam) asari va unga yozilgan 54 ta sharhlar madrasalar ta’limida keng o‘rganilganligi manbalar tasdiqlaydi[1]. Darhaqiqat, 4 ta jilddan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadislar to‘plamlari orasida alohida o‘rin tutadi. Muallifning eng ishonarli va mukammal hadislar to‘plami musulmonlar uchun Qur’oni Karimdan keyin ikkinchi manba hisoblanadi. Shu bois, Imom al-Buxoriy to‘plagan hadislar to‘plami har bir davr uchun o‘qib o‘rganiladigan va keng targ‘ib qilinadigan ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy xazina sifatida qimmatlidir. Shu bois asosan ta’lim maskanlarida, xususan madrasalarda hadislarni o‘rganishda katta ahamiyat berilgan. Chunki hadislarning markazida, xususan shu avlod uchun zarur bo‘lgan inson va insoniylik, vatan va vatanparvarlik, do‘stlik va birodarlik, ilm va hunar, odob-axloq, saxiylik va mehribonlik, adolat va tantilik, sabr- toqat va qanoat kabi hayotiy masalalar, asosiy qadriyatlar jamlangan. Ayniqsa, asosiy hadislarda ilm va ma’rifat, inson zehni va idrokini o‘tkir qilishi, uning yuksak ahamiyati, inson ma’naviy dunyosida beqiyos o‘rni haqida qimmatbaho fikr va o‘gitlar bayon qilingan. Hadislarning mazmun mohiyatida hayot haqiqati, jumladan “ Ilm talab qilishi har bir musulmon uchun farzdir”, “ Beshikdan to qabrgacha ilm izla”, “ Garchi chinu mochinda bo‘lsa ham ilmni izlanglar” kabi ilmga da’vat etuvchi hikmatomuz g‘oyatda ibratli fikrlar zikr etilganki, bu har bir madrasa talabasi uchun g‘oyat zarur va ahamiyatlidir.

Madrasalarda o‘tiladigan asosiy diniy ilmlar farz, vojib, sunnat, mustaxab, halol, harom, makruh, mubox kabi inson uchun vojib bo‘lgan jihatlarni tanishtirishda Imom al-Buxoriy to‘plagan hadislar to‘plami asosiy qo‘llanma vazifasini o‘tagan. Shunisi muhimki, aksariyat hadislar qisqa, mazmunan aniq, shaklan puxta bo‘lib uni tushunish ham yodlash ham osondir. Zotan, Rasululloh Sallolohi Alayxi vassallamning o‘zlari “ Diniy nasihatlar” degan edilar. Uning diniy va axloqiy ko‘rsatmalarini o‘z ichiga jamlagan muborak hadislar va asarlarda odamlarning diqqat e’tiborini jalb etib kelmoqda. Chunki hadislarda: “ Hikmat bu mo‘min kishining yo‘qotgan narsasidir” deyiladi. O‘z o‘zidan ma’lumki, inson har bir makonda, har bir zamonda hayotiy jumboqni yechishga intilgan. Bitta hikmatni o‘rgansa, yo‘qotgan narsasini topganday bir jumboqni yechganday quvongan. Muborak hadislar inson uchun zaruriyatlarni, ehtiyojlarni yechib beradigan bebaho xazina hamdir. Ana shu xazinani ulkan ummonga qiyoslash mumkin. Ummonning tubida esa ajdodlarimizning aql-u zakovatining bezavol gavharlari mavjuddir. Ular bilan xalqimizni, xususan yosh avlodlarimizni bahramand etish eng ezgu ishlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, madrasalar tarixi, ulardan o‘rgangan ilmlar o‘qitish usullari o‘ta murakkab bo‘lib, ularni o‘rganish masalasi jiddiy izlanish va tadqiq etishni talab qilishini tasdiqlaydi. Aslida bu ma’naviy-ma’rifiy ilm xazinasini bugungi kunda o‘rganishning ahamiyati beqiyosdir.

ADABIYOTLAR:

1. U.Uvatov. “Buyuk muhaddislar” (Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy). 1998-yil. 39-43 betlar

2. N.Komilov. “Irfon nuri Abdul ma’oniy”. Bedil va o‘zbek ma’naviyati to‘plam. To‘plam. Tehron-Toshkent. 2005-yil 06-07 betlar.

3. B.Valixo‘jayev “Temuriylar qurgan madrasai oliylar”. “Zarafshon” gazetasi 2001-yil 17 aprel

4. U.Dolimov “Milliy uyg‘onish pedagogikasi”. T.n.. 2012-yil.86-bet.

[1] U.Uvatov. “Buyuk muhaddislar” (Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy). 1998-yil. 39-43 betlar

ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ УМЕНИЯМ И ЛИЧНОСТНЫМ КАЧЕСТВАМ ПЕДАГОГА

Хайитмуродова М.Ф.,
Навоийский государственный педагогический институт преп.

Аннотация: В статье рассматривается проблема педагогических способностей педагога, особенности педагогического мастерства, личностные качества учителя, раскрывается специфика деятельности педагога.

Ключевые слова: способность, деятельность учителя, педагогический такт, педагогическая наблюдательность.

Annotatsiya: maqolada o‘qituvchining pedagogik qobiliyati, pedagogik mahoratining xususiyatlari, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari muammosi ko‘rib chiqiladi va o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi

Kalit sozlar: qobiliyat, o‘qituvchi faoliyati, pedagogik takt, pedagogik kuzatish.

Abstract: The article examines the problem of a teacher’s pedagogical abilities, features of pedagogical skill, personal qualities of a teacher, and reveals the specifics of a teacher’s activity.

Key words: ability, teacher activity, pedagogical tact, pedagogical observation.

Любая профессия, обладая специфическими особенностями, предъявляет к человеку особые требования. Чем больше эта профессия имеет значения для общества, тем выше требования к профессионалу. Круг этих требований не может ограничиваться только знаниями, умениями и навыками, он значительно расширяется в сферу личностных характеристик.

К личности учителя общество предъявляет особо высокие требования - учитель должен быть не только умным и знающим, но и добрым, отзывчивым, культурным, любящим детей и т.д. Поэтому только на личностном уровне учитель может рассматриваться как активный субъект, реализующий в педагогической профессии свой способ жизнедеятельности, готовность доопределять задачи, принимать ответственность за их собственное и самостоятельное решение.

Способности– это индивидуальные особенности личности, являющиеся субъективными условиями успешного выполнения определенного вида деятельности. Педагогические способности - это совокупность индивидуально-психологических особенностей личности преподавателя, которые отвечают требованиям педагогической деятельности и определяют успех в овладении этой деятельностью. Профессия учителя требует всесторонних знаний, безграничной душевной щедрости, мудрой любви к детям. Только каждый день с радостью отдавая себя детям, можно приблизить их к науке, приохотить к труду, заложить незыблемые нравственные основы.

Деятельность учителя - это всякий раз вторжение во внутренний мир вечно меняющегося, противоречивого, растущего человека. Надо всегда помнить об этом, чтобы не поранить, не сломать неокрепший росток детской души. Никакими учебниками нельзя заменить содружество педагога с детьми и далеко не каждый может стать учителем. Именно психология рассматривает педагогические способности, помогает человеку определиться с выбором профессии педагога.

Способный педагог делает содержание любого учебного вопроса доступным для учащихся трудное сделать легким, сложное – простым, непонятное – понятным) преподносит им материал ясно, вызывая интерес к изучаемому предмету.

В основе данной способности лежит учет педагогом психологии учащихся, уровня их подготовки, предвидения возможных затруднений учащихся при усвоении учебного материала. Некоторым учителям объясняемый материал кажется простым и не требующим разъяснений – в этом случае они ориентируются на себя, а не на учащихся, рассматривают материал применительно к себе. Хороший педагог способен представить себя на месте учащихся, исходя из того, что ясное и понятное ему может быть совсем неясным и непонятным. Под этим углом зрения продумывается и планируется характер и форма изложения материала. В процессе изложения педагог по целому ряду признаков (поведение, выражение лица, поза и т.д.) может составить верное впечатление о том, как ученики усваивают то, о чем он говорит, и перестроиться в случае необходимости.

Хороший педагог всегда стремится внести в свою работу новое, оригинальное, используя опыт работы лучших учителей-новаторов, заимствуя у них все ценное, но, никогда не копируя их слепо и бездумно. Хороший опыт необходимо перерабатывать применительно к своим условиям, своим психологическим особенностям, понимая, что у него иной класс, другие ученики и сам он – другой человек.

Отличие педагогических способностей от педагогических умений заключается в том, что педагогические способности - это особенности личности, а педагогические умения - это отдельные акты педагогической деятельности, осуществляемые человеком на высоком уровне.

Каждая способность имеет свою структуру, в ней различают ведущие и вспомогательные свойства.

Ведущими свойствами в педагогических способностях являются:

- педагогический такт;
- наблюдательность;
- любовь к детям;
- потребность в передаче знаний.

Педагогический такт - это соблюдение педагогом принципа меры в общении с детьми в самых разнообразных сферах деятельности, умение выбрать правильный подход к учащимся.

Педагогический такт предполагает:

- уважение к школьнику и требовательность к нему;
- развитие самостоятельности учащихся во всех видах деятельности и твердое педагогическое руководство их работой;
- внимательность к психическому состоянию школьника и разумность, и последовательность требований к нему;
- доверие к учащимся и систематическая проверка их учебной работы;
- педагогически оправданное сочетание делового и эмоционального характера отношений с учениками и др.

Педагогическая наблюдательность - это способность учителя, проявляемая в умении подмечать существенные, характерные, даже малозаметные свойства учащихся. По другому можно сказать, что педагогическая наблюдательность - это качество личности педагога, заключающееся в высоком уровне развития способности концентрации внимания на том или ином объекте педагогического процесса.

К важным профессиональным качествам, относятся: педагогическая эрудиция, педагогическое целеполагание, педагогическое (практическое и диагностическое), мышление педагогическая интуиция, педагогическая импровизация, педагогическая наблюдательность, педагогический оптимизм, педагогическая находчивость, педагогическое предвидение и педагогическая рефлексия.

Многие исследователи занимаются изучением данного вопроса, они приводят разные классификации и разные описания тех качеств и способностей, которыми должен обладать педагог.

Приведем список этих свойств: вежливость, вдумчивость, взыскательность, впечатлительность, воспитанность, внимательность, выдержка и самообладание, гибкость поведения, гражданственность, гуманность, деловитость, дисциплинированность, доброта, добросовестность, доброжелательность, идейная убежденность, инициативность, искренность, коллективизм, критичность, логичность, любовь к детям, наблюдательность, настойчивость, ответственность, отзывчивость, организованность, общительность, политическая сознательность, порядочность, патриотизм, правдивость, педагогическая эрудиция, предусмотрительность, принципиальность, самостоятельность, самокритичность, скромность, справедливость, сообразительность, смелость, стремление к самосовершенствованию, тактичность, чувство нового, чувство собственного достоинства, чуткость, эмоциональность.

Этот общий перечень составляет психологический портрет идеального учителя. Стержнем, сердцевиной этого портрета являются собственно личностные качества: направленность, уровень притязаний, самооценка, образ «Я». Пройти испытание этой профессией могут только поистине искренние, радушные, терпеливые, мудрые и жизнелюбивые люди.

ЛИТЕРАТУРЫ

1.Адамова У.К., Кутлимуротова Н.Р., Каландарова М.А. Педагогические способности преподавателя и методы их развития / У.К. Адамова, Н.Р. Кутлимуротова, М.А. Каландарова // Молодой ученый. — 2016, — №13. — С. 760-763.

2.Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство: учебное пособие для магистров / Н.Н. Азизходжаева. — Ташкент, 2005. — 192 с.

3.Бордовская Н. В., Розум С. И. Психология и педагогика: Учебник для вузов /Н.В. Бордовская. — СПб.: Питер, 2011. — 624 с.

4.Зимняя, И.А. Педагогическая психология / И.А. Зимняя. – М.: Логос, 2000. – 384 с.

“AXLOQIY TARBIYA” MA’NOVIY GURUHINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Karimova Latofat,
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti magistranti
Ilmiy rahbar: dots. R.Sharopova

Tildagi semantik maydonlarning iyerarxiyasini belgilash, mazkur maydonlardagi makro, medio va mikro qurilmalarni aniqlash uchun, avvalo, tilning falsafiy asoslariga e’tibor berish lozim.

Falsafada olamga narsa va hodisalarning bog‘lanishlari, aloqadorligi, munosabatlarning tartibli, tadrijiy rivojlanishi, makon va zamondagi birligiga asoslangan yaxlit bir sistemasi sifatida qaraladi. Mazkur sistema ichidagi aloqalarni ta’minlaydigan mustaqil tarkibiy qismlarning har biri element sanaladi [2, 206-207].

Inson o‘z sezgi a’zolari yordamida olamni idrok qiladi: ko‘zi bilan ko‘radi, qulog‘i bilan eshitadi, burni bilan hid ajratadi, tanasi yordamda sezadi, tili bilan maza-ta’mni biladi. U shu tariqa narsa va hodisalarga xos bo‘lgan miqdor hamda sifat o‘zgarishlariga asoslangan holda ularni bir joyga yig‘ishga, to‘plashga, ya’ni tasniflashga urinadi. Narsalarni umumiy belgilar asosida bir guruhga birlashtiradi, so‘ngra shu guruh ichidagi har biri a’zoning o‘ziga xos xususiyatlarini topib, mazkur belgi yordamida uni boshqalardan farqlaydi, ajratadi. Insonga bu jarayonda olam, ong va tilning dialektik birligi yaqindan yordam beradi.

Yana shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, insonning bilish jarayoni hech qachon chegara bilmaydi. Insonning hissiy (irratsional) bilimlarini negizida mantiqiy (ratsional) bilimlari hosil bo‘lib boraveradi. Buning natijasida insonda yangidan yangi amaliy bilimlar va malakalar shakllanadi.

Aristotelning iyerarxik olami metafizika xarakterda bo‘lib, dunyoni maydonlariga ajratishda muhim ahamiyatga egadir. U oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga tamoyiliga amal qilganligi bilan xarakterlidir. Tildagi semantik maydonlarni belgilashda aynan mana shu tamoyilga amal qilinadi. Olamni semantik maydonlarga ajratish bo‘yicha bajarilgan ishlar ichida R.Xallig va V.Vartburglarning tasnifi alohida qiymatga ega. Ular o‘zlarining 20 yillik kuzatishlari zamirida “Olamning lisoniy manzarasi” (das Weltbild Der Sprache)ni yaratdilar [3, 255-259].

O‘zbek tili leksikasini ideografik jihatdan to‘liq tasniflash uning makro, media va mikro qurilmalarga ajratib chiqish qiyin va murakkab ishlardan biri sanaladi. Bunda xalqimizning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy xususiyatlarini, milliy o‘ziga xosligini, uning boshqa xalqlarga birlashib ketadigan umumiy tomonlarini, shuningdek, o‘zligini ko‘rsatib turadigan alohida belgilarni hisobga olishimiz, albatta, shart bo‘ladi.

Xalqimizning turmush tarzi tilimiz madaniyatimiz san’atimizning tarixiy ildizlari milliy qadriyatlarimizga, iymon-e’tiqodimizga, birinchi galda tarbiyaga borib taqaladi. Shunday ekan, “tarbiya” leksik semantik maydoni atrofida birlashadigan so‘zlar guruhini ko‘rib chiqamiz.

Tilshunosligimizda mustaqil tizim sifatida shakllanayotgan “tarbiya” ma’noviy maydoni, uni ifodalovchi leksik birliklar tizimi, mazkur tizimning ichki tuzilishi o‘ziga xos tarzda shakllanib bormoqda. Tarbiya ma’noviy maydoni tarkibi ham boshqa semantik guruhlar singari o‘ziga xos shakl, mazmun va semantik strukturasiga ega. Xususan, mazkur ma’noviy maydoni alohida leksik tizim sifatida yadro, markaz, qurshov, chekka qismlardan iborat.

Tahlil etilayotgan “tarbiya” ma’noviy maydoni yadrosi atrofida *vijdonlilik, rahmdillik, do‘stlik, halollik, sabr-matonat, to‘g‘risozlik, sadoqat, minnatdorchilik , oliyjanoblik, nomus* kabi ma’nolar bilan “axloqiy tarbiya” makro guruhini hosil qiladi. Uning markaziy qatorini *mehr-oqibat, milliy an’analar va qadriyatlarga sodiqlik, yaratuvchanlik, tafakkur qilish, o‘zini o‘zi anglash, fidoiylik, qat’iyat, vatanparvarlik* guruhi egallaydi. Mazkur ma’no maydoni markaziy birliklarining shakllanishida ularga ma’noviy bog‘liq bo‘lgan o‘z qurshoviga ega bo‘ladi.Bunday markaziy qatorni ifodalaydigan birliklar ma’nosiga ko‘ra: a) ijobiy xususiyatni bildiruvchi so‘zlar: *fidoiylik, qat’iyat, vatanparvarlik, to‘g‘risilik, rahmdillik, do‘stlik, halollik, sabr-toqat, olijanoblik*; b) salbiy xususiyatni bildiruvchi so‘zlar: *qat’iyasizlik, yolg‘onchilik, sabrsizlik, berahmlik, qo‘pollik* v.h.lardan tashkil topadi.

“Tarbiya” umumiy semali atov birliklari ana shunday semalar asosida quyidagicha markaz qatorini hosil qiladi. Markaziy birlik hisoblangan “axloqiy tarbiya” semantik jihatdan *yuqori darajada odobli, xulq-atvori, odamgarchiligi juda baland, ulug‘, asl bo‘lgan oliyjanoblik*; [5. 112]; *chin qalbdan berilganlik, sodiqlik, vafodorlik, sadoqat* [5, 418]; *biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat qilish – sabr* [5, 411]; to‘g‘riso‘zlik, xushmuomalalik, vijdonlilik semalarini o‘z atrofida birlashtiradi. Bu so‘zlarning qurshovida vijdonlilikdan *rahmdillik* semasi, xushmuomalalikdan *minnatdorlik, shukronalik* semasi, sadoqatdan *do‘stlik* semasi, olijanoblikdan *mehribonlik* semasi, sabr-matonatdan *fidoiylik*, to‘g‘riso‘zlikdan *qat’iyat* semasi qurshov atrofida kengayadi.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar. Agar nafs tarbiya topib yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa,

yaxshilikka tavsif bo‘lib, yaxshi xulq agar tarbiyatsiz ustida yomon ishlaydigan bo‘lib ketsa, yomonliqa tavsif bo‘lib, yomon xulq deb atalur... Yaxshi xulq bir qismni o‘z nafsimizga, bir qismni bir-birimizga qarshi ishlatmak uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar fatonat, diyonat, islomiyat, nazorat, hayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok, hifzi lison, iqtisod, itoatshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdir... Insonlarni saodat abadiyadan mahrum qiladigan janobi haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hordiq hayoti jovidonimiz uchun mavsumum bo‘lgan axloqi zamimalar: g‘azab, shahvat, jaholat, safoat, ammo qat adolat asosida raqobat, anoniyat, adovat, namimi haqorat, jibonad, hasad, nifoq, tama, zumdir...” [1]. Abdulla Avloniy bobomiz tarbiya mazmunini ochib berishga harakat qilgan ushbu jumlalardagi ko‘pgina leksemalar eskirgan yoki kitobiy uslubga xoslanaib qolgan. Qanoat, shijoat, ilm, sabr, intizom, vijdon, Vatanni suymak, iffat, hayo; shuningdek, g‘azab, jaholat, adovat, g‘iybat, haqorat, hasad, nifoq, tama, zulm kabi so‘zlar hozirgi kunimizda ushbu semantik kategotiyada faol ‘llanib kelmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq . www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Falsafa o‘quv qo‘llanma. T.: “Sharq” nashriyoti matbaa bosh tahririyati, 1999.
3. Karaulov Y.Русская и общая идеография. M.: Наука,1976. C. 255– 259.
4. Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi asosida tadqiq etish. T.: Ma’naviyat, 2004.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildlik). 4-jild. T.: – “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

ABDULLA ORIPOV SHE’RLARIDA SATIRANING KO‘RINISHI

Ashurova Nozima Sobirjon qizi,
NavDPI talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d. R.N.Yusubova

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Oripovning she’rlarida keltirib o‘tilgan satiraning namunalari va ularning hajviy yo‘l bilan insondagi yomon illatlarni fosh qilishdagi ahamiyati.

Kalit so‘zlar: satira, yumor, mubolag‘a qilish, komiklik turi, hajviya, badiiy tasvirlar.

Ma’lumki, XVII-XIX asrlarda hajviy ruhdagi she’rlar Muqimiy, Hamza, Gulxaniy, Maxmur, Turdi, Zavqiy kabi bir qator shoirlar ijodida ham uchraydi, ayni shu vaqtdan satira ostida zolimlarga qarshi xitob, uqtirish kabi she’rlar ko‘p yozilgan hisoblanadi. “SATIRA (lot. satira — qurama, har xil narsa) — komiklik turi, tasvir obyektini ayovsiz kulgi vositasi orqali anglash. Voqelikni badiiy aks ettirishning o‘ziga xos usuli bo‘lib, unda jamiyatdagi bema’ni, asossiz, noto‘g‘ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi. Voqealarning real ko‘rinishini o‘zgartirib, oshirib, bo‘rttirib, mubolag‘a qilish, keskinlashtirish va shartlilikning boshqa ko‘pgina turlari yordamida yaratilgan obraz orqali obyektga «ishlov» beriladi. Satira muallifi komiklikning boshqa turlaridan {yumor, hikoya va b.) ham foydalanishi mumkin, biroq satira salbiy tuyg‘u berib, keskin ifodalangan estetik obyekt xarakterli hisoblanadi”[1] .

Badiiy adabiyotda ijodkor badiiy maqsadini ba’zan pand-nasihat yo‘li bilan voqelantirsa, ba’zan hajv yo‘li bilan o‘quvchiga yetkazishni samarali deb hisoblaydi. Bu, albatta, satirik va yumoristik asarlarning dunyoga kelishiga turtki bo‘ladi. Shular qatorida lof, askiya, komediya, xalq kulgisi, latifa kabi adabiy turlar o‘quvchida kulgi uyg‘otish bilan birgalikda voqeaning fojeaviy rivojini ko‘rsatib beradi. Hajviya badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladigan tur hisoblanadi. U ikki xil yo‘nalishda satira va yumorda ko‘rinadi. Yumor kinoya, hazil-mutoyiba orqali tanqid qilish usulidir. Satiradan farqli ravishda u yengil kulgu orqali tasvirlanadi. “Hajviy asarlar ko‘proq tanqidiy ruhda bo‘ladi. Hajviy asarlarda voqeani bo‘rttirib tasvirlash, mubolag‘a fantaziyadan keng foydalanish xarakterlidir. Hajviya jamiyat hayotidagi ayrim illatlarni yo‘qotishga, kamchiliklarni tuzatishga, oldini olishga xizmat qiladi”[2]. Hajviy yo‘l bilan yozilgan she’rlarda ko‘proq insondagi yomon illatlar, mavjud mafkuraning adolatsiz ko‘rinishlari qattiq kulgu ostiga olinadi. “Hajviylik me’yoriy tushunchasining mazmuni fojeaviylik tushunchasining mohiyati orqali anglashiladi. Chunki mazkur tushunchada ijtimoiy ahamiyatga molik ziddiyatlarga estetik ideal nutqda iborat bo‘lgan

[1] www.ziyouz.com kutubxonasi, O‘zbek milliy ensiklopediyasi. 22-bet.
[2]https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Hajviya

tanqidiy munosabat ifodalanadi”[1]. Abdulla Oripovning bir qator she’rlari ham hajvga boy bo‘lib, yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Uning “Dorboz” she’rida buni yaqqol isbotini ko‘rish mumkin.

Odamlar, odamlar, uni olqishlang ,
Qarang, u naqadar epchil va o‘ktam,
Biz-chi, eh... ba’zi bir ko‘zi ochiqlar
Eplab yurolmaymiz katta yo‘lda ham.[2] (23-bet)

Dorboz – [f. ذاب د ار] dorda o‘ynovchi, o‘yin ko‘rsatuvchi kishi[3]. Baland dor ustida tomosha ko‘rsatish san’ati, Sharq xalqlarida milliy sport o‘yinlaridan biri, keyinchalik sirk san’ati janri. Dor ustida har qanday noturg‘un holatda ham gavda muvozanatini saqlash mahorati namoyish etiladi. Dorbozlik taxminan 2,5 ming yil muqaddam Sharqda paydo bo‘lgan, so‘ng butun dunyoga tarqalgan. Dor dastlab past qurilgan, mashqlari ham sodda bo‘lgan. Davr o‘tishi bilan dor tobora balandroq qurilib, o‘yinlari murakkablashib borgan. Dorboz o‘yinlari avval ochiq maydonlarda, XVIII asr oxiridan esa sirk sahnasida namoyish etiladigan bo‘ldi va sirk san’atining ajralmas qismiga aylandi, yangi taraqqiyot davrini boshladi. Ushbu she’rda dorda yuradigan kishi va katta yo‘lda yuradigan kishilar o‘zaro qiyoslanib, katta yo‘lda ham eplab yurolmaydiganlar ahchiq kulgi ostiga olingan. Shoir hayotiy tasvir asosida holatni o‘ta mahorat bilan ochib bergan. Bu o‘rinda tanqidiy fikr o‘quvchiga tezroq va tushunarli yetib borishi uchun ixcham tarzda ifodalangan, biroq ijodkorning badiiy niyati achchiq kulgiga yo‘g‘rilganligi sezilib turibdi.

Hajvning yana bir yo‘nalishi hisoblangan satirada ayovsiz fosh qilish holatlari ko‘proq uchraydi. A.Oripovning quyidagi “Suv” she’rida satira namunalarini ko‘rib o‘tamiz.

Juda ajoyibdir inson udumi,
U suvni juda ham, juda ham suyar.
Deylik, biror joyda nihol ko‘rdimi,
Albatta, tagiga suv qo‘yar. (97-bet)

Insonning qanchalik oqibatli va mehribon xalq ekanligi tasviri bilan boshlangan yuqoridagi she’r so‘nggida ba’zi vijdonsiz insonlarning nafsini jilovlay olmasliklari oqibatida bir-birlariini ko‘rolmasliklari, hasad va ig‘vo qilishlari *tagiga suv qo‘ymoq* iborasi vositasida lo‘nda ifodalangan:

Xo‘sh, undan keyin-chi,
Xo‘sh undan keyin,
Inson suvdan yana qanday zavq tuyar?
Bekor qolganida, ba’zida sekin
Bir-birin tagiga suv quyar.

Bu orqali shoir insonlardagi salbiy illatlarni qoralagan.

Shoirning ikki cholning gurungiga asoslanib yozilgan “Hangoma” hajviy she’ri xalqona ohangda bo‘lib, allegorik usulda bayon qilingan:

Yo‘lni eshak boshladi,
Ot ergashdi lo‘killab (98-bet).

misralarida eshak va ot misolida manzilga tomon qay yo‘sinda borayotganliklari kulgili tarzda ifodalangan. Hech zamonda ot eshakning ortidan ergashganmi?! Ikki chol qizg‘in suhbatga berilib manzilni qanday topib borishni hayvonlarga yukladilar, natijada eshak oldinga o‘tib ketib, ularni manzildan adashtirdi, natijada ular to‘rt chaqirim yo‘lni bir kunda ham izlab topisholmaydi va jahllari chiqib to‘y egasini aybdor qilib qattiq koyishlari badiiy uslubda satirik yo‘l bilan ochib beriladi:

Qora qishda to‘y qilmay,
Battar bo‘lgur nokas, gov
Bachchag‘arning aslida
Fe’li sovuq edi-yov.

“Hajviy asarlarda jamiyatdagi illatlarni, yomon xulqli kimsalarning kirdikorlarini yaqqol fosh etish uchun voqealar bo‘rttirib ko‘rsatiladi, mubolag‘a, fantaziya, sifatlash, o‘xshatish, qarshilantirish kabi badiiy

[1] Olloyorov M Estetikaning asosiy kategoriyalari. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand SamDU nashri 2012.17- bet
[2]Oripov A Men nechun sevaman O‘zbekistonni : She’rlar va dramatik doston(boshqa she’rlar ham shu manbadan olinib, qavsda izogi beriladi) T.: G‘afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
[3] https://uz.wikipedia.org › D... Wikipedia.

tasvir vositalaridan keng foydalaniladi”[1]. Shoirning "Turg‘unboy" she’rida Turg‘unboy obrazining ish topish jarayonida hech qayerga qabul qilinmasligi va buning sababi uning turg‘unlik yillarini eslatgan ismiga borib taqalashi achchiq kulgu bilan tasvirlanadi:

Qayga borsa keling, deb
Xushnud qarshi olishar.
Lekin suhbat so‘nggida
O‘ylanishib qolishar.

Buning yechimi sifatida sobiq ittifoq hukmronligi paytidagi qoldiqlardan butunlay xalos bo‘lish uchun o‘z ismini "Urg‘unboy" tarzida o‘zgartirganligi xalqning hali ham o‘z erkinligi va ongli fikrlash qobiliyatining naqadar past ekanligidan kuyunib, Turg‘unboy misolida xalqimizning qismatini quyidagi misralarda aks ettiradi:

Majlislarda endi u
Fursat poylab turadi.
Ur desa bas, Urg‘unboy
Duch kelganni uradi. (154-bet).

“Tulki falsafasi” she’rida esa hayvonga xos jihatlar orqali inson xarakteri allegorik tarzda hajv qilinadi. Atrofdagi insonlarning qilayotgan ishlari bir-birini aldash yomon ekanligini ko‘rsatsa “Tilla baliqcha” she’rida tilla baliqchaning dunyoni bir ko‘lmak hovuz deb bilishi achchiq kulgi bilan tasvirlangan va satiraning yuksak namunasi hisoblanadi. Shoirning “Turmush tashvishlari” deb nomlangan she’rida qassob og‘aynisining “Axir, qofiyani yeb bo‘lmas, brat” deb qilgan xitobi beixtiyor o‘quvchida she’rga nisbatan kulgi va achinish tuyg‘usini uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda, hajviya tanqid yo‘li bilan yomon illatlarni yo‘qotishga, adolatsiz siyosatchilarni to‘g‘rilikka chaqirishga, insondagi qusurlarni yaxshilashga da’vat etadi. Majoziy obrazlar orqali shaxslardagi kamchiliklarni fosh qiladi. Hozirgi kunda ham bir qator hajviy asarlar dunyoga kelmoqda. Bu o‘quvchilarda hozirgi adabiyot talabi bilan pand-nasihat ruhidagi asarlardan farqli ravishda tanqidiy asarlarga talabni yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Hajviya.

2. Olloyorov M. Estetikaning asosiy kategoriyalari. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand SamDU nashri 2012.17-bet.

3.Oripov A. Men nechun sevaman O‘zbekistonni : She’rlar va dramatik doston(boshqa she’rlar ham shu manbadan olinib, qavsda izogi beriladi) T.: G‘afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

4.www.ziyouz.com kutubxonasi, O‘zbek milliy ensiklopediyasi. 22-bet.

5.https://studmate.ru/hajviy-asar-haqida-tushuncha.

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONI LUG‘OTIT TURK” ASARIDA QIPCHOQ LAHJASIDA QO‘LLANILADIGAN SO‘ZLAR

Durdona Qurbonova Adxamovna
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Nuritdinova R.S
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotasiya: Maxmud Koshg‘ariyning ,,Devoni lug‘otut turk “ asari XI asrda nashr etilgan tilshunoslik sohasidagi salmoqli asardir. U turkiy tilning eng qadimgi lug‘atlaridan biri bo‘lib, 1072 ga yaqin leksemalardan iborat. Asarning eng muxim jihatlaridan biri ayrim qipchoq lahjasidagi so‘zlarning bugungi kunda ham mavjud ekanligidir. Ushbu maqola “ Devoni lug‘otut turk”da qipchoq lahjasida qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar:"Devoni lug‘otit turk", turkiy til, leksikografiya, tilshunoslik, affikslar, etimologiya.

Maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” (Turkiy so‘zlar devoni) asaridagi tilga olingan bir necha o‘nlab so‘zlarning o‘zbek tili va shevalarida saqlanish darajasiga to‘xtalib o‘tiladi. O‘zbek tili qarluq, qipchoq va o‘g‘uz kabi lahjalarni o‘z ichiga olib, ulardan har biri “Devon”dagi eski turkiy so‘zlarni u yoki bu darajada saqlab qolgan. O‘zbek tilining o‘ziga xos tomonlaridan biri – bu tilning uchta

[1]https://studmate.ru/hajviy-asar-haqida-tushuncha/

yetakchi shevasi borligi, uzoq yillar davomida ushbu tarmoqlar uzluksiz o‘laroq aralashib kelganligi, ikkinchi tomondan esa deyarli ming yildan beri yozma adabiy tilga ega bo‘lib kelgani tilimizning qadimiy so‘zlarni birmuncha yaxshi saqlab qolishiga turtki bo‘lgan. Shuningdek, har uchala tarmoqning o‘zining eski o‘zanidan birmuncha uzoqda bo‘lishi ularning eski o‘zgachaliklari saqlanib qolishiga olib kelgan.

Ayniqsa, XI yuzyillikda yashagan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” (Turkiy so‘zlar devoni) asaridagi “Xoqoniya turkchasi” deb atalgan turkiy til tarmog‘ining bugungi izdoshi qarluq shevasi o‘zbek adabiy tilini tashkil qilishi bilan birga so‘zlashuvchilarining salmog‘i ancha yuqori bo‘lgan til o‘laroq bilinadi. O‘zbek tilining qipchoq tarmog‘i ko‘proq qishloqlarda kuzatilib, O‘zbekiston viloyatlaridagi qishloqlarning deyarli yarmidan ko‘pi bu shevada so‘zlashadilar. Samarqand, Nurota, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida bu shevada so‘zlashuvchilar talay. Shuningdek, Farg‘ona, Andijon va Naman- gan viloyatlarida bir necha qishloqlarda qipchoq shevasi saqlanib qolgan, biroq qipchoqcha so‘zlashuvchilarning ko‘pchiligi qarluq lahjasiga o‘tayotgani kuzatiladi. Xorazm viloyatining Yangibozor va Gurlan kabi ikki tumanida qipchoq shevasi yetakchilik qilib, Qoraqalpog‘istonda turg‘unlarining sezilarli bir bo‘lagi o‘zbek-o‘g‘uz va o‘zbek-qipchoq tarmoqlarida so‘zlashadilar.

Samarqand viloyati Paxtachi tumani hududida qo‘llaniladigan hamda "Devoni lug‘otit turk" asarida mavjud bo‘lgan ayrim so‘zlarni quyida keltirib o‘tamiz.

Эн- har narsaning eni Эр- er kishi, erkak kishi
Эркак- jinsga ko‘ra Эрлик- erlik, mardlik
Эрта- erta tong Эсди- esdi
Эски- eski Этик- oyoq kiyim
Эснади- esnadi Этак- etak
Эссиз- hayf, afsus Эт- go‘sht
Этлатти- go‘sht qildi, etlatdi Этти- etdi
Эшик- eshik ostonasi Эшилган- eshiladigan, cho‘ziladigan
Эштилди- eshitildi Балик- baliq
Бараси жер- boradigan joy Бакирди- bo‘kirdi
Ингратти- ingratdi Илик- ilik
Иш- ish Ишчи- ishchi
Идиш- idish Илинди- ilindi
Имлади- imladi Ириди- chiridi
Иринг- iring Исиди- isidi
Искади- titdi, hidladi Ишанди- ishondi
Ишлатти- ishlatdi Жаз- yoz
Жазди- yozdi Жазишди- yozishdi
Жазиглиг- yoziqlik Жаварди- yolvordi
Жалдиради- yoritdi Жалдирук- yaltiroq
Жалган- yolg‘on Жамади- yamadi
Жамалди- yamaldi Жаман- yomon
Жамгур- yomg‘ir Инак- sigir
Жаман yomon Жана- yana
Жанчилди- yanchildi Жанга- yanga
Жанги- yangi Жангшатти- ko‘p so‘zlab bosh og‘ritdi
Жапинди- yopdi Жапишди- yopishdi
Жапти- yopdi Жапилди- yopildi
Жаш- yosh Жаш- ko‘z yoshi
Жашади- yashadi Жашил- yashil
Жашин- chaqmoq Жашнатти- yashnatti
Жака- yoqa Жакин- yaqin
Жаг- yog‘ Жагди- yog‘di
Жагир- yag‘ir Жеди- yedi
Желим- yelim Желпинди- yelpindi
Кепак- kepak Керишди- kerishdi
Кесак- kesak Кетти- ketdi
Кечди- kechdi Утти- o‘tdi
Сакал- saqal Синатти- sinatdi
Тамди- tomdi Тапчан- uch oyoqli shoti
Тартти- tortdi Титти- titdi

Тушатти- to‘shatdi Тунатти- tunatdi
Тутатти- tutatdi Узак- uzoq
Улатти- ulatti Кулак- quloq
Куритти- quritdi

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, "Devoni lug‘atit turk" turkiy tildagi shevalar, jumladan qipchoq lahjasini chuqur o‘rganish imkonini beruvchi keng qamrovli asardir. Lug‘at turkiy til haqidagi tushunchamizni shakllantirishga yordam berdi va uning so‘z boyligini kengaytirishda muhim rol o‘ynadi. Kitob turkiy til va tilshunoslikni o‘rganishga qiziquvchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Qoshg‘ariyning "Devoni lug‘atit turk" asari turkiy tilshunoslik uchun qimmatli manba bo‘lib, turkiy tilni shakllantirgan so‘z yasalishi, tuzilishi va ijtimoiy lingvistik omillar, shevalar haqida tushuncha beradi. Uning hissasi boshqa tilshunoslar va akademiklarga ta’sir ko‘rsatdi va uning tadqiqoti turkiy tilshunoslik sohasidagi zamonaviy tadqiqotchilar uchun muhim ma’lumotnoma bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Mahmud Qoshg‘ariy "Devoni lug‘otit turk"
2. Suxanberdiyeva, S. (2022). "DEVONU LUG‘OTIT TURK" ASARINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLAR.
3. Usmonov, A., & Mizomova, F. (2021). O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI XUSUSIDA. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 3(3).

“AT-TUHFATUZ ZAKIYATU FIL-LUG‘ATIT TURKIYA” ASARIDAGI MAISHIY TURMUSHDA ISHLATILGAN AYRIM SO‘ZLARNING QIYOSIY O‘RGANILISHI (“DEVONI LUG‘ATIT-TURK”, “SHAJARAI TURK”, “TARJUMON” ASARLARI MISOLIDA)

Fotima Muxammadiyeva Mansur qizi,
NavDPI o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: Nuritdinova R.S.
NavDPI o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: “At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiya”asari tarkibidagi so‘zlarning “Devoni lug‘atit-turk”(XI asr), “Shajarai turk”, “Tarjumon”(XIV asr) asarlaridagi lug‘atlar bilan qiyoslanishi va hozirgi ahamiyati.

Kalit so‘zlar: “At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiya”, “Devoni lug‘atit-turk”, singarmonizm, efemizm, antonimlik, omonimlik, sinonimlik, ma’no kengayishi.

Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida o‘zbek, uyg‘ur adabiy tillari mustaqil til sifatida bir-biridan ajraldi. Bu davrda turkiy tillar lug‘atiga oid bir qator asarlar maydonga keldi. Ana shunday asarlar qatoriga turkiy tillar lug‘ati va grammatikasiga bag‘ishlangan, muallifi noma’lum bo‘lgan “ Kitob at-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiya” (“Turkiy tillar lug‘ati haqida noyob tuhfa”) asari ham kiradi. Asar muallifi va yozilish sanasi ma’lum emas. Ba’zi manbalarda asar XIII-XIV asrga oid deb keltiriladi. Ushbu maqolada “At-tuhfa”dagi maishiy turmushda keng ishlatilgan so‘zlarni asosan “Devoni lug‘atit-turk” va boshqa asarlarda uchrashini qiyoslab ko‘rib chiqamiz. “At-tuhfa”dagi lug‘atlarning ko‘pchiligi bugungi tilimizda deyarli o‘zgarishlarsiz uchraydi. Asarda 400 dan ortiq o‘tgan zamon fe’llari keltirilgan. Shuningdek, hayvonlarning rangiga, yoshiga qarab nomlanishi (masalan: a:l–yol va dumi to‘q sariq ot; yapag‘li–toycha), qushlar, o‘simliklar, kasb-hunar nomlari (sabanchï–dehqon; tanïshman-donishmand), kishilarga xos xususiyatlar (soqur –bir ko‘zli/ hozirda ko‘zi ojizlar so‘qir deyiladi; qïngïrayak–qiyshiq dahan), yulduz nomlari (yatïkar–yetti qaroqchi yulduzi; yashıq yamlı–suxayl; arıqtak–cho‘lpon; ōlkar–hulkar yulduzi), omonimlik, sinonimlik, grammatikaga oid boy lug‘at jamlangan.

“At-tuhfa” va “Devoni lug‘atit-turk “asarlari leksikasini quyida ko‘rib chiqamiz.

"At-tuhfa"	"Devoni lug‘atit-turk"	"Tarjumon"
öku/öxu	ökï/öhï (ukki)	
ordak	ördak(o‘rdak)	ørdək
sağsağan	sağızğan (zag‘izg‘on)	sağızğan
shırshıq	sığırchıq (chug‘urchuq)	sığırchıq
shïrshä	qushğach (chumchuq)	sərchə/sırcha
ubuk	ubkök/ubub(sassiq popishak)	soğan
	soğun(piyoz)	alma

Suğan	almila/a:lma	sarımsaq
a:lma	surmusaq(sarimsoq)	kəshur
sırımsaq	sarığ turma(sabzi)	tuturğan
kashur/turp	tuturqan (guruch)	
tuturğan/tuturqan	ukur(tariq)	avsaq (turkmancha)
täri	a:q térâk	alü
térak	qara eruk(olxo‘ri)	sârü orik
qora erik	tölüg eruk(shaftoli)	qamısh
sar eruk	qamısh	qatır/alır
qamısh	qatir (xachir)	inək
atir	sığır	tulku
enäk/sırğır	tilkü	itük
tulki	enuk (it,sher,tulki bolasi)	boğra
kuchuk/anuk/uruk	buğra (erkak tuya)	titir/inken
bisräk	titir (urg‘ochi tuya)	shishek
tishi tevâ	tishak (2 yoshli echki)	
shishak	tonguz	kəltə
tonğuz	kelär	chétôk (mushuk)
kasaltirgi	chétôk	
machi/chatuk	bijin/bichin (maymun)	
yapji(n)	yünd ot (chipor ot)	
yüntävli	tumağu	bəshik
tumov/tumoğ	beshik	bäzîrkän
bâchik		qoturğan
bäzîrkän(savdogar)		købri
qotur	kopruk	qabarchaqlı bağa
köpri		(toshbaqa)
qabarchaqlı bağa		ýikiz
	ïkkïz(egizak)	qurut
ïkkïz	qurut	
qurut	öqluq (o‘q idish)	ıshıq
temırqalqan	ashuq	pıchaq
yashıq(temir qalpoq)	bichâk	kərpik
pıchaq	kirpik	qılıch
kirpik	qılıch	bıchqu/sïndü
qılıch	qıftu/sïndü	banbuq/mamıq
qıftu/bıchğu/sïndü	pamuq(paxta)	
mamıq	kirpi (tipratikan)	tutqun
kirpi	tutğun/bulun (asir)	
tutqun/tutsaq/bôlun/tütü	aqsaq	øgut
aqsaq	ötluk/övüt(nasihat)	qonaq
ögut	qonuq (mehmon)	suchu
qonaq	süchik/sôchuk	qırqan
süch/süchik(may)	qırnaq	aru
qırnaq	arığ	ağu
Aru (toza)	ağu (zahar)	õtruk
avu	õtruk	
yalanchı/yalğanchı	sachuq	tugmə
sashıq	tügmä	
tüymä	eliklik (qo‘lqop)	səmiz
qolluq	semiz	
semiz	kõluk	kønglək
koluk	kõnglak	chømchə
kõmlak	chõmcha	chaqır
chomchi	shağır	
shağır	munchuq	qulach
bonshuq	a:qın	batman
a:qın (sel)	qulash	
qulash	batman	kent
batman	avut/azut	qoturğan
avuch	kend	sünü
kent		qut

"At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiya" asarida musiqa asboblaridan tıq (karnay) , tumon (mis nay), sıbızğ ı (sibizg‘a) nomlari ham uchraydi. Bugungi kundagi sibizg‘a so‘zida faqat oxirgi unli o‘zgargan. sıbızğı–sıbızğu (DLT)–sibizg‘a. Tänïshmän (donishmand), tuturqan singari ko‘plab so‘zlarda singarmonizm hodisasini ko‘ramiz. Yana tutqun/tutğun/tutsaq/tütü so‘zlarida yasalish asosi tut so‘zidir. Shuningdek, qabarchaqlı bağa (toshbaqa), a:qın (sel), bıchqu,sïndü(qaychi),mamıq(paxta),qora erik(olxo‘ri), sar eruk (shaftoli)kabi so‘zlar o‘xshashlik asosida yuzaga kelgan. "Devoni lug‘atit-turk" va "Tarjumon"asarida kelgan aywa(behi) so‘zi rus tilida mavjud. Xorazm leksikasida mavjud kashur/turp (sabzi)so‘zi ham "Devoni lug‘atit-turk " da o‘xshashlik asosida sarığ turma deyilgan. Unga ko‘ra turma(turp) ,sarığ turma "sariq turp" esa sabzi deyilgan.Antonimlardan uchmaq(jannat) va tamu(do‘zax), alqısh/qarğısh so‘zlari ham keltirilgan. "At-tuhfa"dagi qolluq va "Devoni lug‘atit-turk"da keltirilgan eliklik(qo‘lqop) so‘zi qo‘lga kiyish uchun, öqluq so‘zi o‘q idish uchun mo‘ljallanganidan shu nom berilgan."At-tuhfa"da soya kolaka deyilsa, "Devoni lug‘atit-turk"da bu kolika(katta soya) va koshika (kichik soya) deb batafsilroq berilgan.Har ikki asarda uchraydigan köluk(yuk ortiladigan hayvon orqasi) so‘zi hozirda Qashqadaryo shevasida ma’nosi biroz kengayib"yuk tashish uchun mo‘ljallangan ulov, ba’zan taksi ma’nosida" ishlatiladi. Bu so‘z " Shajarai turk " asarida shunday keladi: " O‘g‘uzxonning lashkarining qo‘lina o‘ljali o‘luk mol tushdi, kim yuklamakka kolik ozliq qildi". Shuningdek, tumav so‘zi "At-tuhfa " asarida "burni hid bilmaydigan " ma’nosini beradi. Hozirda bu so‘z tumov (surunkali burun yallig‘lanishi, infeksion kasallik) shaklida uchrab, ma’no kengayishiga uchragan. Kasaltirgi (kaltakesak) so‘zi "Devoni lug‘atit-turk"da kelär, sheshäk (A.T) so‘zining chigilcha chäkäk(DLT) shakllari efemizm asosida yuzaga kelgan degan xulosaga keldim. "At-tuhfa"asarida ichimlik, sharob ma’nosida kelgan such so‘zi XI asrda suchik shaklida, "Devoni lug‘atit-turk"da esa süchik/sôchuk shaklida keltirilgan. Shu bilan birga shağır(A.T) va chağır(DLT) so‘zlari ham bir so‘zning turli variantlari sifatida keltirilgan."Devoni lug‘atit-turk"da pichoq so‘zining kezlik varianti uchraydi. Kezlik ayollar,qizlar yonida olib yuradigan kichkina,ixcham pichoq hisoblanib, "At-tuhfa"da bu so‘z uchramaydi. "Turkiy tillar haqida noyob tuhfa" asarida keriyâv(sariyog‘) so‘zi ham uchraydi. Sariyog‘ pishitib olinadigan idish keli, kivi(Karmana),guppi(Nurota) deyiladi. Bularning ichida keli so‘zi keriyâv so‘ziga yaqinroq. Demak, keli/keri idishi ichidagi yog‘ (yav) ma’nosida keriyâv so‘zi yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiya" asari "Devoni lug‘atit-turk" lug‘atiga o‘xshash yozilgan. Asardagi lug‘atlar bugungi qipchoq tiliga yaqin.Unda qipchoq tili elementlari tugal yoritilgan. Til va tafakkur, grammatika borasidagi fikrlar ham berib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiya" "Fan"nashriyoti Toshkent -1968.
2. Mahmud Qoshg‘ariy "Devoni lug‘atit-turk" Toshkent–1960.
3. "Tarjumon" XIV asr yozma obidasi Toshkent "Fan" nashriyoti –1989.
4. Abulg‘oziy Bahodirxon "Shajarai tarokima" Toshkent –1995.
5. Shavkat Rahmatullayev "O‘zbek tilining etimologik lug‘ati" Toshkent –2000.
6. Aliyev.A,Sodiqov.Q " O‘zbek tili tarixi " Toshkent–1994.

"DEVONI LUG‘OTIT-TURK" ASARIDA UCHROVCHI ZOONIMLAR TASNIFI

Shermatova Sabina
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4- kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Nuriddinova Ra’no Sevdiyevna
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya : Ushbu maqolada Mahmud Koshġariyning " Devoni lug‘otit-turk" asarida uchragan ayrim zoonimlar haqida ma’lumot beriladi va ularni bir nechta guruhlarga bo‘lgan holda nomlari keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Onomastika, zoonim, yovvoyi hayvonlar, qushlar, uy hayvonlari, hasharotlar, kemiruvchilar.

"Devoni lug‘otit-turk" ("Turkiy so‘zlar devoni") — Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari hisoblanadi. Bu asarda XI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan. "Devoni lug‘otit-turk"ning qo‘lyozmasi 1914-yil Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo‘lyozma hozirda Istanbulda saqlanadi. Ushbu nusxa "Devoni lug‘otit-turk" yozilganidan salkam 200 yil so‘ng , ya’ni Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxadan 1266-yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy al-Damashqiy tomonidan ko‘chirilgan.

Tilshunoslikning asosiy bòlimlaridan biri bu -onomastika. O‘tgan asrning 60-yillari boshlarida ushbu bòlim tilshunoslik fanining eng faol o‘rganiladigan sohalaridan biriga aylandi. Ilmiy izlanishlar davomida tadqiqot obyekti va predmeti aniqlandi, hozirgi vaqtda esa onomastika fanining uslubiy qo‘llanishini tadqiq etuvchi soha faol rivojlanmoqda. Onomastika bòlimining tarkibiga maqolamizga aloqador zoonim va fitonimlar ham kiradi.

Zoonim atamasi ilk bor yunoncha tilida vujudga kelgan va hayvonlar nomlarini òrganuvchi soha hisoblanadi. Tilshunoslikda zoonimlarga oid ilk tadqiqot N.K Dmitriev tomonidan olib borilgan [1].Xalqimizda qadimdan urug‘- qabila, suv havzalari, hayvonlar nomlari va shu kabilar mavjud bòlgan. Ushbu maqolamizda ham " Devoni lug‘otit-turk " asaridagi zoonimlarni kòrib chiqamiz va ularni quyidagi guruhlarga bo‘lgan holatda ko‘rib chiqamiz:

1. Yovvoyi hayvonlar
2. Uy hayvonlari
3.Qush nomlari
4.Sudralib yuruvchilar
5.Kemiruvchilar
6.Hasharotlar
7.Suv jonzotlari

Yovvoyi hayvonlar

1.Aba- ayiq
2. Azïg‘-ayiq
3.Ayïg‘-ayiq
4.Azïg‘ merdäg‘i- ayiq bolasi
5.Arju - shoqol, chiyabòri
6. Arjulayu- shoqol
7.Arslan- arslon
8.Burslan- qoplon
9. Asrı- qoplon
10.Alanïr- qo‘shoyoq
11.A: s -oq suvsar
12.Bag‘ïrlïq (bag‘ïrlaq)- loyxo‘rak
13.Borsuq- bo‘rsiq
14.Börı- bo‘ri
15.A:r bo‘ri - sirtlon
16.Enuk- yosh arslon, yollik bo‘ri,tulki,it bolalari
17. Äjäjäpcry- ko‘rshapalak
18. Jersgu- ko‘rshapalak
19.Bıchın-maymun
20.Kejlık- maymunga
21. Ïvïq- ohu
22. Janan- fil
23.Keyik-kiyik
24. Keyik- tog‘ echkisi
25.Keläku- qo‘shoyoq

Ushbu qatordagi ayiq sòzining turli xil ko‘rinishlari mavjud. Chunki ushbu so‘zlar har bir qabilalarda har xil, ya’ni shevasiga ko‘ra farqlangan. Shu sababdan birgina ayiq, ko‘rshapalak, maymunga va shu kabi so‘zlarning bir necha shakllari mavjud.

Uy hayvonlari

1.Arqun- yovvoyi otdan qochgan xonaki baytal bolasi
2.At- ot
3. Erkak taqag‘u- xo‘roz
4.Erkäch- taka
5.Echku -echki
6.Eshkäk- eshak
7.Buqa-buqa
8.Ït- it
9.Inak- sigir
10.Inän-urg‘ochi tuya

Qushlar nomlari

1. An - qush turi
2.Anït - flamingo
7.As- karkas qushi, burgut
8.Balïqchïn- qarqara

[1] Марудова А.С . К вопросу о содержании термина Зооним. М;1980

3.Boz- tuyaqush 9.Büdürsïn- Bedana
4.Dünüshkä- tunbosh qushi(kanjak) 10.Jabaqulaq- boqish
5. Janan- chipor qush(olaqarg‘a) 11.Jün qush-tovus
6.Ko‘kürchgün- kattaroq 12.Ko‘ti qïzlaq- qizilishton

Suv jonzotlari

1.Balïq- baliq
2.Baqa- qurbaqa
3.Bashg‘an- katta baliq

Xulosa qilib aytganda, " Devoni lug‘otit-turk " asari biz uchun muhim qo‘llanma va biz undagi ochilmagan qirralarini ochishga urinishimiz zarur. Xususan, yuqoridagi zoonimlarning ham ayrimlari bizga tanish va tilimizga hozirgacha o‘zgarishsiz saqlangan. Bizga notanish bo‘lganlari ham mavjud. Ular bizga yangilik va bu yangilikni o‘rganish bizning vazifamiz hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1.M.Koshg‘ariy. Devoni lug‘otit-turk. T.1960
2.Марудова А.С . К вопросу о содержании термина Зооним. М.1980
3.A. Aliyev, Q. Sodiqov . O‘zbek tili tarixi. T.1994.

OILADA USTOZ-SHOGIRD AN’ANASI

Sanoyeva Nasiba,
Navoiy shahar 6-maktab o‘qituvchisi

Bu yorug‘ olamda har bir odam o‘zining mehribon ota-onasiga, ustoz va muallimlarga nisbatan hamisha minnatdorlik tuyg‘usi bilan yashaydi. Inson o‘z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, dastlab oilada, so‘ng maktab dargohida olgan ta’lim-tarbiyasi uning yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo‘lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega ekani shubhasiz. Ko‘rinadiki, inson dastlabki saboqlarini oiladan, ota-oansidan oladi, ustoz – shogird an’analari murg‘ak vujudda ana shu tarzda shakllanadi.

Biz bugun farzandlarimizning xohish – istaklarini to‘la – to‘kis ado etyapmiz, ularning “darsxona”sini so‘nggi rusumdagi texnika bilan jihozlayapmiz, ammo ma’naviy yetuklikning muhim belgisi bo‘lgan ta’lim va tarbiya jarayoniga nechog‘lik ahamiyat beryapmiz? Aslida bola uchun ilk tarbiya maskani oila emasmi? Yoshlarning to‘g‘ri yo‘ldan adashishiga ham nosog‘lom oila muhiti, yoki haddan tashqari to‘kinchilik sabab bo‘lmayaptimi?

Aytishlaricha, ko‘chada yurgan bir bolakay yeb turgan nonini yoniga kelgan itga berdi. Buni ko‘rgan onasi:

- Nega noningni itga berding? Men o‘zim yemay senga bersam, sen itlarga berasan. Sen bola odam bo‘lmading, boshimga balo bo‘lding, - deb koyidi.

Ittifoqo, shu atrofda buvasi bilan aylanib yurgan kichkina bola bunu ko‘rib buvasidan so‘radi:

- Buva, odam bo‘lish uchun nima qilish kerak?
- Tug‘ilish kerak.
- It ham tug‘iladi, u odammi?
- Yo‘q, tushunmading, odam bo‘lib tug‘ilish kerak.
- Odam bo‘lib tug‘ilib, keyin odam bo‘lmay qolish mumkinmi?
- Mumkin, - dedi buvasi o‘ylanib turib.
- Anavi bola odam emasmi?
- Hozircha odam, lekin onasi uning odam bo‘lishini xohlamayapti.

Darhaqiqat, bugun turmush tashvishlari bilan og‘rigan boshimizga farzandimizning kichkinagina muammosi og‘irlik qiladi go‘yo. Topib keltirgan luqmamizni ham ba’zan ularga ta’na qilib beramiz. Lekin ota-onaning vazifasi faqat ularning qornini to‘ydirishdan iborat emas-ku. Bugun biz murg‘ak ko‘ngillarga mehr ulashib, ularni pok tuyg‘ular bilan tarbiyasakgina, ertaga o‘zimiz muhabbat nashidasini tatiymiz. Negaki, inson umri daraxtga qiyoslanadi. Daraxt taqir yerda unmaydi, shoxlari kesib parvarishlanmasa, nobop bo‘lib qoladi. Inson umri ham shunday. Yoshlikda yo‘l qo‘yilgan xatosi, bosgan nojo‘ya qadami, bilib-bilmay qilgan gunohi yoshi ulg‘ayganida “achchiq” mevasini berishi hech gapmas. Shuning uchun biz “dehqonlar”, yerni to‘g‘ri tanlab, niholni avaylab parvarishlaylik.

Oilada farzand tarbiyasi haqida gap ketganda, ko‘pni ko‘rgan kishilar xonadoningizda keksalar bormi, deya so‘rashadi. Ijobiy javob olishgach, “Siz baxtli inson ekansiz,”- deya e’tirof etishadi. Zeroki, dunyo tashvishlaridan to‘yib ketsangiz, shularni ziyorat qiling: hayot abadiy emasligini o‘ylab taskin topasiz. Bu taskindan so‘ng serzarda qiyofangizga muloyimlik yuguradi. Aytaylik, farzandingiz ular bilan bir uyda

ulg‘aysa ortiqcha muammo sizni bezovta qilmaydi. Negaki, ular har bir masalani obdon o‘ylab, hayotiy tajribalari asosida mushohada etib hal qiladilar. Ularning falsafasi: bu dunyoda ham, u dunyoda ham hech kimga bo‘yso‘nmaydigan, oqni oqqa, qorani qoraga bexato ajratadigan Oliy hakam bor. Bu – Tangrining hukmi!

Bugungi yoshlarimizga razm solamiz. Ular boshqacha fikrlaydigan kishilar bo‘lib o‘smoqdalar. Biz kelajakda har bir insonning xonadoni obod va farovon bo‘lishini, har bir kishi o‘z ishi, umridan rozi bo‘lib yashashini istaymiz. Yurtimizda chin ma’noda ishbilarmonlik, aqliy salohiyat kuchini ko‘rsatishini,taraqqiyot inson qo‘li bilan bo‘lar ekan, jamiyat sog‘lomligi taraqqiyot kafolati ekan, mehr-oqibat, muruvvat va saxovatning ko‘proq qalblardan joy olishini, “Mening yaxshi yashashim boshqalarning ham yaxshi yashashiga xalaqit bermasin, aksincha, yordam bersin”, degan tamoyilning tantana qilishini, dunyo xalqlari o‘zbeklarni ko‘rganda: “Bulardan ko‘ra ahil xalq yo‘q!” degan bahoni berishini, ishimizga, yashashimizga xalaqit berayotgan hasad, hirs, ko‘ra olmaslik, beparvolik illatlarining tobora kamayib borishini xohlaymiz...

Tangri shunday jannatmakon, boy va betakror maskanni bizga hadya etgan ekan, yurtimiz ravnaqi va hayotimiz farovonligi yo‘lida mardonavor tura oladigan aqli va vujudu sog‘lom avlodni tarbiyalashdek oldimizda turgan muhim vazifani sidqidildan ado etaylik.

ЁШЛАР ЭСТЕТИК МАДАНИЯТИНИНГ ФАЛСАФИЙ-МАФКУРАВИЙ МАСАЛАЛАРИ

Навоий инновациялар университети
Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси
доценти в.б. У.Имомов

Инсониятнинг ижтимоий тараққиёт жараёнида ёшлар тарбиясига доимо эътибор қаратиб келинган. Бунда халқнинг асарлар давомида шаклланган эстетик маданияти ва миллий мероси ўзига хос мафкуравий қарашлар асосида хилма-хиллик касб этиб келган. Мана шундай жараёнлар кишилик жамияти ривожида глобаллашув учун хизмат қилиб келган. Бу борада Форобий ўзининг фикрларини баён этар экан, “Инсон барча зарур нарсаларни бир ўзи ҳосил қила олмайди, буларни топиш учун у турли касбдаги одамларнинг хизматига эҳтиёж сезади. Бошқа инсонлар ҳам шундай ҳолатда бўладилар. Инсонлар ўз эҳтиёжларини қондириш ва камол топиш учун жамоага ва жамиятга бирлашувлари зарур бўлади”[1], дейди. Демак, мана шундай фалсафий дунёқараш негизида бирлашиш глобаллашув учун кенг имкониятлар яратиб, ёшларнинг эстетик маданияти ривожига хизмат қиладиган миллий тафаккур ва фалсафий-мафкуравий масалалар шаклланишига олиб келади.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ёшлар эстетик маданиятининг шаклланишига ҳам янгича фалсафий тафаккур асосида ёндашилди. Янги асрга келиб вояга етаётган ёшларни юксак эстетик идеаллар асосида тарбиялаш, уларни ҳар томонлама етук шахс бўлиб етишишини таъминлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратишни талаб этмоқда. Глобаллашув шароитида келажак авлодга алоҳида эътибор ва завқий муносабат шаклланди.

Жамиятнинг шиддат билан жадал суръатлар асосида ривожланиб боришида глобаллашув алоҳида аҳамият касб этиб, ҳар бир давлат, халқ, миллат, ёхуд соғлом авлод эстетик маданиятида янгича маъно-мазмун касб этмоқда. Жамият ривожида «бугунги глобаллашув шароитида ҳар қандай давлат ва жамиятнинг асосини ташкил этадиган асл ва фундаментал қадриятларни унутмаслигимиз лозим. Ўсиб келаётган авлод айнан оилада маънавий-ахлоқий тарбия олади, масъулиятли бўлишни ва лоқайд бўлмасликни ўрганади»[2]. Ана шундай бир вазиятда ўзлигини, миллий ғояси ва мафкурасини мустаҳкам қилган соғлом авлодгина ўтмиш мерос ва қадриятлардан ажралмаган ҳолда глобаллашувга тайёр ҳолда замонавийликни эстетик маданият даражасига кундалик турмуш тарзига тадбиқ этади. Глобаллашув жараёнининг асл моҳият-мазмунини ёшлар эстетик маданиятидаги ролини аниқ ва равшан қилиб олиш жамиятимизнинг долзарб вазифалардан бирига айланди. Глобаллашув шароитида фалсафий-мафкуравий жараёнларни ҳар бир шахс, хусусан ёшларимизнинг онгу-тафаккурида ривожлантириш, таълим-тарбия тизими орқали замонавий усуллар асосида реал воқеликка айлантиришнинг механизмларидан оқилона фойдаланиш тақозо этилмоқда. Бугунги кунда глобаллашувнинг ижтимоий ҳаётимиз билан нафада уйғунлашиб кетганлигини Президент

[1] Форобий А.Н. Фодил одамлар шаҳри. –Тошкент, Янги асар авлоди, 2018. 238-бет.
[2] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. -Т.: Ўзбекистон, 2-жилд, 2018. 331-бет.

Ш.М.Мирзиёев эътироф этаркан, «Халқимизнинг муносиб ҳаёт кечириши, фуқароларимизнинг бунёдкорлик салоҳиятини руёбга чиқариш учун зарур шарт-шароитлар яратилди. Айни вактда, бугунги глобаллашув даврида жаҳон миқёсида чуқур молиявий-иқтисодий инқироз давом этаётган, рақобат тобора кучайиб бораётган кескин бир шароитда биз мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт йўлини ҳар томонлама таҳлил қилиб, давлатимизни барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш, олиб борилаётган ислоҳотлар самарасини янада ошириш мақсадида, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини ишлаб чиқдик»[1], деб таъкидлайди.

Глобаллашув ахборотлашган жамиятда фалсафий-мафкуравий жараёнларни ёшлар онгига сингдиришда таълим-тарбиянинг турли йўллари орқали амалга оширишни олдимизга мақсад қилиб қўйди. Бунда қуйидаги вазифалар негизида ёшларда фалсафий-мафкуравий йўлларни шакллантириш лозим. Биринчидан, барча соҳаларда эстетик маданият ривожига хизмат қиладиган умуминсоний ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг дифференциал педагогик-психологик ва илмий дастурини яратиш; иккинчидан, жамиятда ёшларга оид давлат сиёсатидан келиб чиққан ҳолда эстетик маданиятнинг шаклланиб боришини узлуксиз тарзда назорат қилиб бориш; учинчидан, ахборотлашган жамиятга уйғун ҳолда барча таълим муаасасаларида мафкуравий ва ғоявий тарбияни замон талаблари даражасига кўтариш; тўртинчидан, ҳар бир маҳаллада ёшларни замонавий фалсафий тафаккур қилишга ўргатиш ва миллий эстетик маданиятни аввало уларнинг фалсафий дунёқарашига айлантириш.

Янги асрда глобаллашувнинг шидддат билан ижтимоий тараққиёт жараёнига таъсир этиб бориши натижасида инсониятнинг маданий мероси, миллий қадриятлари, диний эътиқодлари янгиланиб, ҳар бир давлатда ёшлар эстетик маданиятининг хилма-хил бўлишига олиб келди. Бу жараён Ўзбекистонда ҳам ёшларнинг маънавияти шаклланишига ўзининг янгича кўринишини олиб кирди. Оиладаги фарзанднинг эстетик тарбияси, уни ҳар томонлама етук шахс бўлиб етишишини таъминлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратиш, турли маънавий таҳдидлардан сақлаш муҳим аҳамият касб этди. Шу боисдан Ўзбекистоннинг мустақил тараққиёт йўлидаги Ҳаракатлар стратегиясини, ўзбек халқининг буюк давлат барпо этиш борасидаги мақсад-муддаоларини кенг жамоатчиликка ҳар томонлама тушунтириш, глобаллашув жараёнининг асл моҳият-мазмунини ёшлар эстетик маданиятидаги ролини аниқ ва равшан қилиб олиш жамиятимиз аъзоларига етказиб бериш долзарб вазифалардан бирига айланди.

Глобаллашув шароитида ўсиб келаётган ёшларни турли таҳдидлардан асраш, уларнинг қалбига эзгулик ғояларини сингдириш эстетик маданият соҳасида изчилликни талаб этмоқда. Бугунги кунда глобаллашувнинг ижтимоий ҳаётимиз билан боғлиқлиги хусусида Президентимиз Ш.М.Миризиёев ўз фикрларини билдирар экан, “Янги таҳдидлар, жумладан, «оммавий маданият» хавфи ва боқимандалик кайфияти пайдо бўлаётган,одоб-ахлоқ, қадриятларнинг йўқолиш хавфи юзага келаётган ҳозирги глобаллашув шароитида бу ғоят муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу сабабли, менинг фикримча, инсон маънавий олами, халқлар маданиятини белгилайдиган манбаларни асраб-авайлаш ва бойитиш бугунги кунда ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир”[2], - деб таъкидлайдилар.

Хулоса қилиб айтганда ёшлар жамиятда ўзларининг мустаҳкам ғоя ва қарашларини шакллантириш жараёнида глобаллашувнинг асл моҳиятига эътибор қаратишлари, турли оммавий ахборот воситалари орқали тарқатилаётган маълумотларнинг ишончлилик даражасига асосланишлари керак. Бунинг учун жамоатчилик фикрини тўғри англаб етиш, эстетик маданият билан боғлиқ фалсафий тафаккур юритиш муҳимдир. Биз фалсафий-мафкуравий ислоҳотлар жараёнида эстетик маданиятнинг жамият ҳаётидаги турли қирраларига, айниқса, ёшлар онгига сингиб боришидан огоҳ бўлишимиз даркор.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Форобий А.Н. Фодил одамлар шаҳри. –Тошкент, Янги асар авлоди, 2018. 238-бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. -Т.: Ўзбекистон, 2-жилд, 2018. 331-бет.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. -Т.: Ўзбекистон, 2-жилд, 2018. 178-бет.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд –Т.: Ўзбекистон, 2018. 29-30-бетлар.

[1] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. -Т.: Ўзбекистон, 2-жилд, 2018. 178-бет.

[2] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд –Т.: Ўзбекистон, 2018. 29-30-бетлар.

2-SHO‘BA
AREAL LINGVISTIKA VA LINGVISTIK GEOGRAFIYA MUAMMOLARI

DIALEKTOLOGIYANING YANGI PARADIGMALARI HAQIDA

Baxtiyor Mengliyev,
filologiya fanlari doktori, professor

O‘zbek xalq shevalari tadqiqi doirasida an’anaviy yo‘sinda ko‘plab tadqiqot amalga oshirilgan, ayniqsa, shevalar leksikasi bo‘yicha yuzlab dissertatsiya himoya qilingan, ilmiy anjumanlar o‘tkazilgan, yillar davomida universitet va pedagogika institutlari talabalari dialektologik ekspeditsiyaga jalb etib kelingan. Bu jarayonda o‘z davri fani, ta’limi holatiga mos maqsad va vazifalar asosida ish ko‘rilib, konseptual faoliyat yo‘lga qo‘yilgan. Ammo har bir davr o‘z fani oldiga aniq talablarni qo‘yadi. Bugungi globallashuv sharoitida tillarning ijtimoiy mavqe, vazifalari muammosi o‘tkirlashayotgan bir paytda o‘zbek xalq shevalari tadqiqi va ta’limini yangi bosqichga ko‘tarish ehtiyoji kuchaymoqda. Bugungi kunda jahon fanida dialektologiya sohasida quyidagi tendensiyalar va, shunga muvofiq ravishda, ta’limda yangi o‘quv predmetlari bilan ish ko‘rilmoqda.

“Dialektal sotsiolingvistika” – shevalarning sotsial xoslanish xususiyatlarini, jumladan, dialektlarni til va sotsium munosabati asosida tekshiradi. “Dialektal sotsiolingvistika” yosh, jins, ma’lumot, ijtimoiy mavqe kabi sotsial omillar dialektlardan foydalanishga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi;

“Etnolingvistika” – til va madaniyat orasidagi munosabatni shevalar asosida o‘rganuvchi fan. Etnolingvistika dialektlarning madaniy xususiyatlar va an’analarni qanday aks ettirishini tekshiradi;

“Geolingvistika” – shevalarning geografik tarqalishi va mintaqaning geografik xususiyatlari bilan aloqasini aniqlaydi;

“Kognitiv dialektologiya” – borliqni idrok etish va anglashning shevaviy xoslanishini o‘rganadi. Shuningdek, kognitiv dialektologiya bilim dialektlarni idrok etish va ishlatishga qanday ta’sir qilishini ham tekshiradi;

“Korpus dialektologiyasi” – shevalar korpusini tuzish bilan shug‘ullanadigan va dialektlarni o‘rganish uchun korpus ma’lumotlaridan foydalanadi;

“Korpus dialektologiyasi” – dialektlarning turli kontekstda qanday ishlatilishini va vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini o‘rganadi;

“Dialektal leksikografiya” – shevalar lug‘atlarini o‘rganuvchi va ularni yaratish muammosi bilan shug‘ullanuvchi fan sohasi;

“Dialektal fonologiya va grammatika” – shevalar fonematik sistemasi va grammatikasi (morfologiyasi va sintaksisi) hamda ularning standart tildan farqlarini tekshiradi;

“Dialektal neyrolingvistika” – inson miyasining ishlash qonuniyatlarini sheva nutqi xususiyatlari asosida o‘rganadi va u sun’iy intellekt yaratish muammolari bilan bog‘lanib ketadi;

“Dialektal lingvoma’naviyatshunoslik” – xalq shevalaridagi shaxs ma’naviyatini ifodalovchi leksikani semantik-semasiologik va leksikografik nuqtayi nazardan o‘rganib, ta’lim uchun yosh avlodni ma’naviy yuksaltirish uchun muhim lingvistik bazani shakllantiradi.

Mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida bu fanlardan ayrimlarining ta’limi yo‘lga qo‘yilgan. Biroq bu hali yetarli emas. Dialektologiyadagi ushbu yangi fan va yo‘nalishlar shevalarning xilma-xilligi va ularning turli kontekstlarda ishlatilishi haqidagi tushunchamizni kengaytirishga, zamonaviy adabiy til xazinasini boyitish va jonli nutqni modellashtirishga yordam beradi – dialektologiya ta’limini yangi bosqichga olib chiqadi, shuningdek, shevashunoslik ilmini ijtimoiy buyurtmaga muvofiqlashtiradi. Quyida ularning ayrim o‘rinlariga to‘xtalib o‘tamiz.

“Dialektal sotsiolingvistika” – dialekt (sheva) larning ijtimoiy jihatlari va ularning turli ijtimoiy sharoitda qo‘llanilishi yuzasidan bahs yurituvchi fan. U so‘zlovchi va tinglovchilarning yosh, jins, ma’lumot, ijtimoiy mavqe va jo‘g‘rofiy joylashuv kabi ijtimoiy omillar dialektlardan foydalanishga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Bu fanning mohiyati shundan iboratki, u dialektlarning turli ijtimoiy vaziyatda qanday qo‘llanishi va sotsial omillar bilan bog‘liqligi bilan shug‘ullanadi. “Dialektal sotsiolingvistika” turli toifa (qatlam)ga mansub kishilarning sotsial mavqeyi, ma’lumoti va kasbiga qarab shevalardan qanday foydalanishini yoritadi. U, shuningdek, dialektlarning standart (adabiy) til yoki boshqa lahja va til variantlari bilan o‘zaro ta’sirini ham o‘rganadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kishi ma’lum bir kontekstda qaysi til varianti ijtimoiy jihatdan eng ko‘p qabul qilinganiga qarab turli dialektdan foydalanishi mumkin.

“Dialektal sotsiolingvistika” shuningdek, dialektlarning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishi va, umuman, til taraqqiyotiga qanday ta’sir qilishini ham o‘rganadi. Masalan, shevalar adabiy tilda yangi so‘z, grammatik shakl va tuzilmalarning rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin.

Shunday qilib, “Dialektal sotsiolingvistika” dialektlarning turli ijtimoiy kontekstda qo‘llanishi va ularning boshqa lisoniy variantlar bilan qanday munosabatda bo‘lishini tushunishga yordam beradi. Bu bizga shevalarning xilma-xilligi va uning turli ijtimoiy vaziyatda qo‘llanishini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

“Korpus shevashunosligi” – mamlakatimizda zamonaviy tipdagi mutlaqo yangi fan o‘laroq shakllanmoqda. “Korpus shevashunosligi”ning maqsadi bo‘lajak mutaxassislarda etnoslarning yashash tarzi, o‘ziga xos etnomental xususiyatini ifodalaydigan shevaga oid pasportizatsiyalangan og‘zaki she’riy, nasriy, she’riy-nasriy (aralash) nutqining grammatik metarazmetkalangan (sun’iy ong orqali avtomatik tahlillangan) korpusini yaratish bo‘yicha kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Aniqrog‘i, o‘quv fani o‘zbek lahjalariga oid matnlarni maxsus korpusga jamlash va undan foydalanishni yo‘lga qo‘yishning nazariy asoslarini yaratishga poydevor qo‘yadi.

“Korpus shevashunosligi” o‘quv predmeti talabalarda quyidagi masalalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi:

jahon amaliyotidagi dialektal baza tuzish tamoyillarini belgilash va ularni o‘zbek shevalari korpusini tuzishga tatbiq etish;

dialektal baza va korpusda sheva birliklarining o‘zbek tili izohli lug‘atidagi muqobil variantlariga munosabati tahlilini berish;

sheva matnlarining turli tipdagi elektron variantlarini yaratish;

shevalar bazasi va korpusi uchun yagona yunikodga ega transkripsion yozuv belgilaridan foydalanish, transkripsion va transliteratsion shakllardan foydalanish imkoniyatini beruvchi tizimni yaratish;

shevalar korpusining zamonaviy pasportizatsiyasi tamoyillari bilan ishlash;

shevalar korpusining mavzuviy metarazmetkalarini amalga oshirish;

shevalar korpusida ma’lumotlar o‘zgaruvchanligi kesimida ish ko‘ruvchi elektron dialektologik atlaslar tizimlarini yaratish;

o‘zbek shevalaridagi matnlarning fonetik metarazmetkasi va morfololeksikoni uchun yagona ramziy belgilardan foydalanish;

o‘zbek dialektal korpusida mavzulashtirish va teglash amallarini bajarish.

Demak, “Korpus shevashunosligi” fani talabalarda shevalar korpusini tuzish, boyitish va undan foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, dialektologiyaning yangi paradigmalari o‘zining mustaqil sistemasiga ega.

IZOHLI LUG‘ATLARDA DIALEKTAL LISONIY BIRLIKLARNING BERILISHI VA TAVSIFLANISHI MASALASI XUSUSIDA

Jo‘liboy Eltazarov*[*]*,
***Mirjalol Bobotayev*[**]**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili taraqqiyotining turli bosqichlarida shevalarning adabiy til bilan aloqasi, dialektizmlarning badiiy tilga o‘tishi va lug‘at tarkibidan o‘rin olishi masalalari o‘rganiladi. 20-asr boshlarida o‘zbek tilining yetakchi shevalari asosida milliy tilni shakllantirish va rivojlantirish g‘oyasini ilgari surgan jadidlarning qarashlari hamda o‘zbek tilshunosligida bu xususda leksikografiyada olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi. 1980- va 2000-yillarda nashr etilgan o‘zbek tilining izohli lug‘atlari matnidagi dialektizmlar ham ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘zbek tilining izohli va tarmoq lug‘atlari uchun dialektizmlarni tanlash mezonlarini belgilash tamoyillari masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Dialekt, adabiy til, milliy til, eski o‘zbek adabiy tili, izohli lug‘at, sheva lug‘ati, parametrik tahlil

Resume. This article examines the relationship between dialects and the literary language at different stages of the development of the Uzbek language, the transition of dialecticisms to artistic language, and as a consequence, their penetration into the vocabulary. The views of the Jadids are analyzed, who at the beginning of the 20th century put forward the idea of the formation and development of a national language

[*] Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori, juliboy2@gmail.com
[**] Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi.

based on the leading dialects of the Uzbek language. Also, the studies carried out in Uzbek linguistics in the field of lexicography, dialecticisms in the text of explanatory dictionaries of the Uzbek language, published in the 1980s and 2000s are considered. Particular attention is paid to the issue of establishing criteria for the selection of dialecticisms for explanatory and industry dictionaries of the Uzbek language.

Key words. dialect, literary language, national language, Old Uzbek literary language, explanatory dictionary, dialect dictionary, parametric analysis.

Аннотация. В данной статье рассматривается взаимосвязь диалектов и литературного языка на разных этапах развития узбекского языка, переход диалектизмов в художественный язык и, как следствие, проникновение их в словарный состав. Анализируются взгляды джадидов, которые в начале XX века выдвинули идею формирования и развития национального языка на основе ведущих диалектов узбекского языка. Также рассматриваются исследования, проведенные в узбекском языкознании в области лексикографии, диалектизмы в тексте толковых словарей узбекского языка, изданных в 1980-х и 2000-х годах. Особое внимание уделено вопросу установления критериев отбора диалектизмов для толковых и отраслевых словарей узбекского языка.

Ключевые слова. диалект, литературный язык, национальный язык, староузбекский литературный язык, толковый словарь, диалектный словарь, параметрический анализ.

Har qanday tilning lug‘at boyligi o‘n minglab birliklar bilan o‘lchanadi va til tuzilishining bu sathi o‘zining o‘zgaruvchanligi va tashqi ta’sirlarga moyilligi bilan ajralib turadi. Tilning tashqi ta’sirga kam beriluvchan va ko‘proq yopiq bo‘lgan boshqa tizimlaridan (masalan, fonematik yoki grammatik tizimlar) farqli o‘laroq leksik tizim juda keng, murakkab, moslashuvchan va harakatchandir[1]. Shu sababli leksik tizimni tahlil qilish ishi ushbu tizimning tarkibiy qismlari bo‘lgan leksik guruhlarni aniqlashdan boshlanadi, chunki tilning leksik-semantik yadrosini tashkil etuvchi leksika sathi leksik qatlamlardan (guruhlardan) tashkil topadi hamda uning tahlili ham qatlamlar va so‘zlarning boshqa leksik-semantik guruhlarini aniqlashdan boshlanadi, deb hisoblash mumkin. Milliy tilning dialektal lisoniy birliklari ana shunday qatlamlardan biridir.

O‘zbek (turkiy) adabiy tilining butun tarixi davomida uning so‘z boyligi dialektizmlar bilan to‘ldirib borilgani ma’lum. Binobarin, “o‘zbek tili leksikografiyasi o‘n uch asrlik taraqqiyot tarixiga ega, unda davrlar osha katta miqdor va sifat o‘zgarishlari sodir bo‘lgan. O‘zbek leksikografiyasi o‘zining bir qancha taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi”[2]. Jumladan, tadqiqotchilar Alisher Navoiy asarlari tilida ham dialektizmlarning uchrashi, jumladan, ular ko‘pincha uslubiy jihatdan neytral so‘zlar: *qoltuγ* (qo‘ltiq), *olčäk* (o‘lchov), *koprük* (ko‘prik) *alochug‘* (kapa, chodir); ekspressiv ma’noga ega so‘zlar *belgülük* (belgilik, nishonalik), *andog‘/andoq* (shunday), *tug‘* (bayroq), *tomug‘* (do‘zax), *uchmoq* (jannat) sifatida buyuk mutafakkir asarlari tilidan joy olganini qayd etadilar[3].

Yangi o‘zbek adabiy tili shakllanayotgan 20-asr boshlarida ham shevalarga xos so‘zlarni adabiy til lug‘at tarkibiga kiritish, dilektizmlarni adabiy tilni shakllantirish va rivojlantirishning manbalaridan biriga aylantirish g‘oyasi bu davrda til qurilishidagi yetakchi oqim – jadidlar tomonidan ilgari surilgan edi. Jadidlarning yangi adabiy tilni shakllantirishning bir qancha yo‘llarini taklif etgan bo‘lsa-da, asosiy e’tiborni: 1. Milliy tilni “chig‘atoy” tili, ya’ni eski o‘zbek adabiy tili asosida yaratish g‘oyasiga (bu guruhga mansub ziyolilar eski o‘zbek (chig‘atoy) tiliga qaytish, uni tiklash g‘oyasini yoqlar edilar); 2. Milliy tilni o‘zbek xalq shevalari va lahjalari asosida shakllantirish va rivojlantirish g‘oyasiga qaratgan edilar. Jumladan, Turkiston jadidlarining yo‘lboshchisi M.Behbudiy 1915-yildayoq yangi adabiy tilni yaratishning ustivor yo‘llaridan biri haqida “...oddiy turkiy lug‘at ila hozirgi shevalarcha yoza bermoqdin boshqa iloj yo‘qtur”,[4] - deb yozadi, ya’ni eski o‘zbek tili an’analarini davom ettirish va yangilash qatorida shevalarga oid so‘zlarni adabiy tilga “ko‘chirish” maqbul yo‘llardan biridir.

Shu bilan birga jadid adabiyotining yirik vakillari Abdurauf Fitrat, Hamza, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniy, Hoji Mo‘in kabi ijodkorlar o‘z asarlarini jonli xalq tilida yozishga harakat qildilar, badiiy asarlarini xalqning barcha qatlami uchun tushunarli bo‘lgan sodda tilda, xalq so‘zlashuv tilidagi so‘z va iboralardan foydalanib yaratdilar. Ular o‘z asarlarida tilimizga o‘zlashgan qatlamga oid

[1] Сорокин Ю.С. Развитие словарного состава русского литературного языка. 30-90 годы XIX века. - Москва - Ленинград: Наука. [Ленингр. отд-ние], 1965. С. 16 (565 с.)

[2] Shofqorov A. O‘zbek leksikografiyasi tarixidan / Academic research in educational sciences. Volume 2. Issue 2. 2021. pp. 355-359.

[3] Tillabayeva Z. R. Alisher Navoi’s works reviews of the use of Uzbek dialects in Samarkand. Alisher Navoi. 2022, vol. 2, issue 2, 17-22 pp.;.

[4] Беҳбудий М. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчи Б.Қосимов). -Т.: Маънавият, 1997. -Б. 167-170.

so‘zlar o‘rniga qadimgi turkiy tilga hamda xalq shevalariga xos bo‘lgan so‘zlarni qo‘llay boshlaganlar: *aqcha* (pul, mablag‘), *yo‘qsul* (kambag‘al), *yurt* (mamlakat, o‘lka), *bitik* (yozuv), *ochun* (dunyo), *uchmoq* (jannat), *yozug‘* (gunoh), *og‘och* (daraxt, yog‘och), *ayoq* (kosa, idish), *boshmoq* (panja), *ekinchi* (dehqon), *osig‘siz* (foydasiz), *emlog‘* (shifoxona), *orqadosh* (o‘rtoq), *o‘ksiz* (yetim), *o‘ron* (parol), *tonug‘* (gunoh), *tomoq* (taom), *tubchak* (tub aholi), *quramas* (e’tibor bermaydigan) kabi[5].

O‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibini yangilash, soflashtirish, chet tillarga xos bo‘lgan so‘zlardan tozalashni o‘zlarining asosiy maqsadi deb bilgan “Chig‘atoy gurungi” a’zolari, jumladan Fitrat, Cho‘lpon, Botu, Elbek kabi jadid ma’rifatparvarlar o‘zbek tilini o‘z ichki imkoniyatlari asosida boyitishga, ya’ni shevalardan so‘z olishga va eski o‘zbek tilida iste’molda bo‘lib, keyinchalik unut bo‘lgan so‘zlarni muomalaga qaytarishga harakat qilganlar. Shu sababli ularning badiiy asarlari, she’riyati, umuman ijodida bunday so‘zlarni ko‘plab uchratish mumkin[6].

XX asrning birinchi choragi asli oldingi adabiy o‘zbek tilidan hozirgi adabiy o‘zbek tiliga o‘tish davri bo‘lganligi ma’lum. Shunga ko‘ra hozirgi adabiy o‘zbek tilining boshlanishini 1929-yildan – yozma adabiy til me’yorlari – imlo qoidalari qabul qilingan vaqtdan boshlab belgilash to‘g‘ri bo‘ladi. Davr o‘tishi bilan “hozirgi adabiy o‘zbek tili”ni “XX (va undan keyingi) asr adabiy o‘zbek tili” deb nomlash lozim bo‘lib qoladi[7]. Yangi o‘zbek adabiy tili 1930-yillarning boshida o‘z shakllanish bosqichini tugatgan va takomillashuv yo‘liga tushgan bu davrda turli maqsadlarni ko‘zda tutgan ko‘plab terminologik lug‘atlar, o‘quv va imlo lug‘atlari, ikki va uch tilli so‘zlashgichlar yaratilgani ma’lum.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti leksikograflarining respublikadagi tajribali tarjimonlar bilan hamkorlikda yaratgan 5 jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”ning bosilib chiqishi (78 ming so‘z, Toshkent, 1950-55), 50 ming so‘zli 1-jildli “Ruscha - o‘zbekcha lug‘at” (M., 1954) va 40 ming so‘zli 1-jildli “O‘zbekcha - ruscha lug‘at” (M., 1959) kabi lug‘atlarning nashr qilinishi o‘zbek leksikografiyasining tarixida muhim voqea bo‘ldi. Mazkur lug‘atlar, ayniqsa, 1959- yilda nashr etilgan “O‘zbekcha - ruscha lug‘at” o‘zbek tilining dastlabki, birinchi izohli lug‘ati tuzish uchun asos bo‘ldi va uning ilmiy bazasini yuzaga keltirdi. Ushbu lug‘atlarda o‘zbek leksikografiyasining tajribalari umulashtirilgan, hozirgi zamon o‘zbek tilining leksik- semantik tizimi va XX asrda shakllangan me’yorlari birinchi marta keng tavsif etilgan edi[8].

Dialektizmlar tilshunoslik tomonidan leksikografik birlik sifatida o‘sha 1950-yillar boshida tan olina boshlagani ko‘rinadi. Garchi lug‘atlardagi dialektal so‘zlarni alohida izohlash va shevaga xos so‘zlar lug‘ati yaratish xususida ham birinchi marta 20-asrning 60-yillarida dastlabki tashabbuslar yuzaga kelgani ma’lum. Shevaga xos so‘zlarning adabiy tilning lug‘atlarida joy olishi mumkinligi va adabiy tilning u yoki bu turdagi lug‘atida dialektal so‘zning paydo bo‘lishi faktining o‘zi muhim ahamiyatga ega. Adabiy til lug‘at tarkibiga kiruvchi dialektizmlar lug‘atlarga kiritilganidan keyin adabiy til materialiga aylanishi hamda u endi milliy tilning u yoki bu shevasiga aloqadorligini yo‘qotishi xususida, jumladan rus olimi D.N. Shmelev quyidagicha yozadi: “Zamonaviy adabiy tilning izohli lug‘atlarida joylashgan (va shu bilan adabiy til lug‘at boyligining bir qismi sifatida tan olingan) dialektizmlardan farqli o‘laroq “shevaga xos” deb belgilangan (va shu bilan ushbu lug‘atning maxsus, uslubiy jihatdan alohidalashgan unsurlari sifatida tan olingan) dialektal so‘zlar hozirda hech qanday shevalarni ifodalamaydi”[9]. Adabiy til materialiga aylana boshlagan dialektal so‘z o‘z navbatida uslubiy bo‘yoq, normativ bo‘lmagan leksikaga xos boshqa ma’nolarni ifodalaydi hamda adabiy tildagi standart birlikning sinonimiga yoki vazifadosh dubletlariga aylana boshlaydi. U endi mintaqaviy, shevaga xos so‘zdan ijtimoiy – jamiyatning keng qatlamida qo‘llanadigan birlik tomon ifoda va mazmun planida o‘sib va rivojlanib boradi.

Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida 1960-yillardan boshlab ilmiy adabiyotda dialektal so‘zlarning leksikografik jihatdan ta’riflash tamoyillari muhokama qilib kelindi. Muhokama markazida sheva leksikasining milliy til tizimidagi o‘rni va uning adabiy til va adabiy me’yorga munosabati va shunga mos ravishda bunday birliklarga lug‘atlarda joy ajratish hamda ularni ajratib ko‘rsatish, dialektal so‘zlarning

---

[5] Pardayev Q. Jadıdlar ijodıda til masalasi. Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’sirini o‘rganish muammosi (Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari). 2023-yil, 13-oktabr. –Qarshi: “Nasaf” NMIU, 2023. -186-189 bb.

[6] Eltazarov J.D. O‘zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). - Samarqand: SamDU nashri, 2017, 87-91 bb.

[7] Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (darslik).-Toshkent: "Universitet", 2006. -3-4 bb.

[8] Eshonqulov D. X. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanish bosqichlari. Academic Research in Educational Sciences Volume 2 | Issue 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-1088-1094.

[9] Шмелёв Д.Н. Современный русский язык. Лексика. -М., Просвещение, 1977. -С.272.

lug‘atdagi boshqa leksik birliklar orasidagi o‘rni va maqomi (qo‘llanish o‘rni bilan hududiy, funksional-uslubiy, normativ leksikaga oidligi) kabi masalalar turadi. O‘sha davrdan beri 2 marta o‘zbek tilining ko‘p jildli izohli lug‘atlari, shu bilan birga o‘zbek leksikograflari, uslubshunoslari, matnshunoslari tarafidan o‘zbek tilining turli soha, uslub va davrlarga xos izohli lug‘atlari, shuningdek, o‘zbekcha-ruscha, o‘zbekcha-inglizcha, o‘zbekcha-turkcha va hakozo ikki tilli va ko‘p tilli lug‘atlar tayyorlanib, chop qilinganiga qaramay: dialektal til birliklari o‘zining to‘laqonli izoh va ta’rifini keltirish, binobarin so‘zliklarda tutuvchi maqomini belgilashga, bu masalalarni ilmiy o‘rganishga, afsuski muvaffaq bo‘linmadi.

Faqat keyingi yillarda bu muammoga bag‘ishlangan ba’zi tadqiqotlar ham vujudga keldiki, ular xususida alohida to‘xtalish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, N.X. Raimnazarovaning “O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shevaga oid so‘zlarning berilishi” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatssiyasida[10] bu mavzu atroflicha tahlil etilganining guvohi bo‘lamiz. Dissertant o‘zining qamrovi ancha keng tadqiqotida shevalarning sinergetika qonuniyatlari asosida yashashi ularni sun’iy boshqarishning amalda imkonsiz ekanini ko‘rsatishini ta’kidlab o‘tadi. Binobarin, shevani o‘rganish natijasi milliy tilning taraqqiyot dinamikasini kuzatish, muayyan tillarning ta’sir darajasini aniqlash, adabiy til leksikasini boyitish imkoniyatini baholash, umumleksikadagi ayrim so‘zlarning etimologiyasini aniqlash, til taraqqiyotidagi vosita va omillarni belgilash kabi ilmiy faoliyatlarning yakuni o‘laroq o‘rtaga chiqadi.

Hozirgacha mavjud ilmiy tajribada shevaga oid birliklarning izohli lug‘atlarda berilishi statistikasi o‘zbek tilining lisoniy-nutqiy imkoniyatlaridan o‘rinli va samarali foydalanish uchun zaruriy yondashuvlarni ham belgilab berishiga ishora qilgan holda dissertatsiya muallifi shunga ko‘ra, izohli lug‘at uchun shevaga oid birliklarni turli shevalardan tanlab olish mezoni yaratilishi, ular uchun uslubiy belgilarni qo‘llash tartibini, ayrim shevaga xos so‘zlarning leksikografik tavsifini qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqlgini ta’kidlaydi.

Dissserantning tadqiqotda keltirib o‘tgan statistik ma’lumotlari ham diqqatga sazovordir, ya’ni, o‘zbek tilining yangi, besh jildli izohli lug‘atida sof o‘zbekcha dialektal so‘zlar 1028 tani, arabcha so‘zlar 22 tani, forscha so‘zlar 89 tani tashkil qiladi va ayni paytda o‘zbek tilida til boyishining ichki imkoniyatlari asosida yoki turli tildan o‘zlashgan so‘zlarning kombinatsiyasidan yoxud ularni juftlash yordamida hosil bo‘lgan shevaga oid leksemalar ham mavjuddir. 1980-yillarda nashr qilingan 2 tomli izohli lug‘atda sof o‘zbekcha so‘zlar 492 tani, arabcha so‘zlar 9 tani, fors-tojikcha so‘zlar 91 tani, xitoycha so‘z 1 tani tashkil qiladi. Dissertant har ikkala izohli lug‘atlarda shevaga oid so‘zlarning genetik-etimologik, leksik-semantik tavsifini mukammallashtirish, lug‘at maqolalarida dialektal leksik birlik ma’nosini to‘liq va batafsil ifodalash, ushbu leksemalarning dialektal fonetik o‘zgarishlardagi turli shakllarining izohi, funksional imkoniyatlari, shevadagi ma’nodoshlari, so‘zning qo‘llanish o‘rinlari kabi murakkab hamda bahstalab masalalarini jiddiy yoritib bergani ko‘riladi[11].

Yuqorida fikr yuritilgan mavzular bo‘yicha quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin:

1. Adabiy tilning izohli lug‘atlarida berilgan dialektizmlar miqdoriy jihatdan cheklangan, umumiy lug‘atning taxminan 1% ni egallaydi.

2. Tematik jihatdan ular sheva lug‘atini nisbatan to‘liq ifodalaydi.

3. Izohli lug‘atlardagi dialektizmlar lisoniy tafakkurining xususiyatlari haqida tushuncha beradi.

4. Dialektizmlar lug‘atlarda o‘zlarining barcha sturktur- semantik shakllari bilan berilgan.

Demak, adabiy tilning izohli lug‘atlarida dialektizmlarning mavjud bo‘lishi tabiiydir va u umumxalq tilining boyligini hamda xalq lisoniy-kommunikativ madaniyatining arxetipini ifodalaydi. Ularsiz o‘zbek adabiy tili, uning ifoda va ma’no imkoniyatlari, kommunikativ salohiyati xususida to‘g‘ri xulosalarga kelish qiyin. Binobarin, an’anaviy izohli lug‘atlarda dialektizmlarning lisoniy va leksikografik maqomini ko‘rib chiqish, baholash hamda ularni parametrik tamoyillarga asosan o‘rganish fanimiz oldida dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

ADABIYOTLAR:

1. Беҳбудий М. Танланган асарлар (нашрга тайёрловчи Б.Қосимов). -Т.: Маънавият, 1997. -226 Б.

2. Eltazarov J.D. O‘zbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). - Samarqand: SamDU nashri, 2017. -126 И.

3. Eshonqulov D. X. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanish bosqichlari. Academic Research in Educational Sciences Volume 2 | Issue 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF)

[10] Raimnazarova N. X. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shevaga oid so‘zlarning berilishi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatssiya.-Termiz, 2022. -141 B.

[11] Raimnazarova N. X. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shevaga oid so‘zlarning berilishi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati -Termiz, 2022. -51 B.

2021: 5.723 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-1088-1094.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (darslik).-Toshkent: “Universitet”, 2006. -276 B
5. Raimnazarova N. X. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shevaga oid so‘zlarning berilishi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati -Termiz, 2022. -51 B.
6. Pardayev Q. Jadidlar ijodida til masalasi. Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’sirini o‘rganish muammosi (Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari). 2023-yil, 13-oktabr. – Qarshi: “Nasaf” NMIU, 2023. -186-189 bb.
7. Сорокин Ю.С. Развитие словарного состава русского литературного языка. 30-90 годы XIX века. - Москва -Ленинград: Наука [Ленингр. отд-ние], 1965. - 565 С.
8. Tillabayeva Z. R. Alisher Navoi’s works reviews of the use of Uzbek dialects in Samarkand. Alisher Navoi. 2022, vol. 2, issue 2, 17-22 Pp.

LINGVISTIK ATLASLAR – TARIXNI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA

Murodova Nigora Quliyevna,
Navoiy davlat pedagogika instituti
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va dialektlarni lingvoareal yo‘nalishda o‘rganish orqali to‘plangan faktik materiallar asosida lingvistik atlaslar tuzish tamoyillari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: lingvistik atlas, dialektologik prinsip; Umumlingvistik yoki areal-lingvistik prinsip, regional atlas, zonal atlas, derivatsion o‘xshashlik, izoliniya, innovatsiya, dialektal zona, arealogik, eskiz-sxema.

Аннотация. В данной статье рассматриваются принципы составления лингвистических атласов на основе фактического материала, собранного при изучении языков и диалектов в лингвоареальном направлении.

Ключевые слова: лингвистический атлас, диалектологический принцип; Общелингвистический или ареально-лингвистический принцип, региональный атлас, зональный атлас, дериватsионное сходство, изолиния, новаторство, диалектная зона, ареологический, схематический.

Annotation. This article discusses the principles of compiling linguistic atlases based on factual material collected during the study of languages and dialects in the linguoareal direction.

Keywords: linguistic atlas, dialectological principle; General linguistic or real linguistic principle, regional atlas, zonal atlas, derivational similarity, isolation, innovation, dialect zone, areological, schematic.

Bugungi kunda o‘zbek tili boy manba bo‘lgan xalq tilining imkoniyatlari bilan boyib, uning zaminida taraqqiy etib boraverar ekan, xalq tilini har tomonlama o‘rganish zaruratdir.

Tilshunoslik sohasida lingvistik hodisalarning hududiy tarqalishini lingvoareal usulda o‘rganib ,atlaslar yaratish ham dolzarblik kasb etadi

Lingvistik atlas – ma’lum bir hudud shevaviy o‘xshash va farqlarni o‘zida aks ettiruvchi xaritalar majmuasi. Lingvistik atlas yuzlab, hatto minglab xaritalarni o‘z ichiga oladi. Buning sababi lingvistik atlasning har bir xaritasi alohida bir izoglossa asosida tuziladi. Dialektologiya shevaviy farqlarni qayd qiladi va tavsiflaydi. Areal lingvistika hodisalarni xaritada ko‘rsatadi. Shuning uchun xaritalashtirish arealogik tadqiqotlarning ham usuli, ham natijasidir. Ma’lum bir mintaqa (davlat, til) lingvistik atlasini tuzish areal lingvistikaning so‘nggi maqsadidir.

A.Shermatovning asarlarida qayd etilishicha: Lingvistik atlas xaritalari 2 xil prinsipga asoslanib tuziladi (Shermatov, 1991; 9-b.).

1) Dialektologik prinsip;
2) Umumlingvistik yoki areal-lingvistik prinsip.

Lingvistik atlas tuzishdagi umumlingvistik va dialektologik prinsip hamma atlaslarda barobar saqlanadi, ularning o‘zaro munosabati dastlab material tanlashda ham, xaritalashtirishni amalga oshirishda ham asosiy o‘rin tutadi. Lingvistik atlas uchun material keng ko‘lamdagi savollar majmuasi asosida to‘plansa, dialektologik atlas materiali uchun ma’lum dialektal xususiyatlarni modellashtiruvchi programma asos bo‘ladi. Lingvistik atlas, asosan, 2 xil bo‘ladi: 1) Regional atlas; 2) Zonal atlas.

Regional atlasning vazifasi – u yoki bu regiondagi shevalar tuzilishining eskiz-sxemasini aniqlash va detallashtirishdan iborat. Roman-german tillari lingvogeografiyasida milliy atlas, regional atlas, makro va mikro atlas terminlari ham qo‘llaniladi. O‘zbekiston hududini o‘z ichiga olgan o‘zbek shevalari atlasi tuzilsa,

u regional atlas bo‘ladi. Yirik zonadagi bir til xususiyatini o‘zida to‘la aks ettirgan atlas – zonal atlas hisoblanadi. Masalan, Rumin tilining lingvistik atlasi bolqon-roman massivining umumzonal atlasidir. O‘rta Osiyo zonasi hududidagi o‘zbek shevalari materiallarini qamrab olgan o‘zbek tili atlasi yaratilsa, u zonal atlas hisoblanadi.

Tilshunoslik tadqiqotlarida kartalashtirish metodini qo‘llash, dastlab XIX asrga to‘g‘ri keladi. 1821-yilda K.de Monbre tomonidan tuzilgan fransuz shevalari chegaralarini belgilovchi karta Fransiya qirollik jamiyatiga taqdim qilinadi.1823-yilda D.Mone o‘zining lingvistik karta tuzish g‘oyasini oldinga suradi. Shuningdek, Venkker, Vrede tomonidan tuzilgan nemis tili atlasi (1876–1926), Marburgdagi nemis dialektologiyasi Markaziy instituti nashr etgan “Nemis leksikologik atlasi”ni ham keltirish mumkin.

Jahon tilshunosligida eng yaxshi dialektologik atlas XX asrning boshlarida tuzilgan Jan Jil’eron, Edmonlarning 12 jildli “Fransuz tili atlasi” (1902–1912) deb topilgan. K.Yaberg va Ya.Yudning 8 jildli Italyan-shveysar atlasi (1928–1940) o‘sha davrda maydonga kelgan.

Rus tili dialektologik atlasini tuzish XIX asrning ikkinchi yarmida I.I.Sreznevskiy, keyinchalik A.I.Sobolevskiylar tomonidan boshlangan edi. Rus tilshunosligi lingvistik geografiyasi ustida 1903-yildan boshlab A.A.Shaxmatov tashabbusi bilan tuzilgan Moskva dialektologik komissiyasi reja asosida ish olib bora boshlaydi. Ular tomonidan 1915-yili “Rus tili Yevropa qismi dialektologik kartalaridan tajriba” nomli karta nashr ettiradi. Bu kartada hozirgi Sharqiy slavyan (rus, ukrain, belarus) tillari va bu tillarning har qaysisi lahjalarga va sheva gruhlariga bo‘linishi ko‘rsatib berilgan. 1935-yilda B.A.Larin, F.P.Filin boshchiligida Moskva FA rus tili institutida “Rus tili atlasi“ tuzishga kirishiladi. 1944-yilda R.I.Avanesov, B.A.Larin boshchiligida rus tili dialektologik atlasini yaratish ishi boshlanadi. 1951-yilda “Moskva sharqidagi Markaziy oblastlar rus xalqi shevalari atlasi”, 1952-yilda “Shimoliy-g‘arbiy oblastlar rus xalq shevalari atlasi” tuzib chiqildi.

O‘zbek shevalarini hududiy o‘rganish yuzasidan ham ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi. A.K.Borovkov tomonidan “O‘zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar” anketasi tuzildi. O‘zbek shevalarini xaritalashtirish ishini boshlab bergan V.V.Reshetov qurama o‘zbek shevalarining 49 ta lingvistik atlasini yaratdi. M.Mirzayev tomonidan 1955-yilda “Buxoro oblastidagi o‘zbek shevalarini o‘rganish uchun anketa” tuzilib, uni respublikaning viloyatlariga, ilmiy muassasalariga tarqatilgan. 1964-yilda A.Aliyev tomonidan “Namangan dialekti bo‘yicha material to‘plovchilar uchun anketa”si tuzilib, chop etildi. A.G‘.G‘ulomov rahbarligida 1976-yilda A.Yu.Aliyev, K.N.Nazarovlar “O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma” yaratildi.

O‘zR FA huzuridagi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori ilmiy tekshirish institutining dialektologiya bo‘limida o‘zbek shevalarini o‘rganish bo‘yicha Sh.Shoabdurahmonov rahbarligida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, olim tomonidan o‘zbek shevalari atlasini yaratishning nazariy asoslari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi. O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlanishida A.Shermatovning xizmatlari kattadir. 1978-yilda A.Shermatov tomonidan Quyi Qashqadaryo shevalari bo‘yicha 137 ta lingvistik atlasi yaratildi. Q.Muhammadjonov tomonidan 1988-yilda Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarining fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari areal o‘rganilib, 150 tadan ortiq xaritalari yaratilgan. Yu.Ibragimov tomonidan 2002-yilda Janubiy Orolbo‘yi o‘zbek shevalari areal o‘rganildi va xaritalari yaratildi N.Murodova tomonidan 2006-yilda Navoiy viloyati o‘zbek shevalari leksikasi lingvoareal usulda o‘rganilib, lingvo-jug‘rofiy xaritalari tuzilib tadqiqot obyektiga kiritilgan. Ushbu xaritalar 100 tadan ortiq bo‘lib, juda ko‘plab lisoniy birliklarning areal tarqalishini aks ettirgan. Z.Ibragimova tomonidan 2009-yilda Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari qishloq xo‘jalik leksikasi lingvogeografik tadqiq etilib, 30 ta xaritasi tuzilgan. I.Darveshov 2018-yilda Janubi-g‘arbiy Namangan shevalari fonetik- fonologik xususiyatlarini areal tadqiq etgan. N.Rahmonov tomonidan 2020-yilda Navoiy viloyati o‘zbek shevalari morfologik xususiyatlari, so‘z yasalishi bo‘yicha to‘plangan sheva materiallari lingvoareal jihatdan o‘rganilgan. xususiyatlarning muayyan bir hududda qanday tarqalganligi ma’lum geometrik belgilar vositasida xarita tuzish tamoyili asosida berilgan. G.Norova tomonidan 2021-yilda Zarafshon vohasi o‘zbek shevalari leksik xususiyatlarining areali O‘zbekiston hududlari bo‘yicha qiyosiy tadqiq etilib, respublikaning barcha viloyatlarida dialektologik ekspeditsiyalar o‘tkazilgan. Ushbu hudud shevalarining o‘ziga xos leksik-semantik xususiyatlari borligi tadqiqotda keltirilgan 10 ta xaritadagi lingvistik hodisalarning sharhlanishida ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda dialektologiya, lingvistik geografiya, arealogiya sohasida amalga oshirilgan juda katta ilmiy tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikning lingvoareal paragdimasi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Dialektal atlaslar tuzilishi dialektologiyadan lingvistik geografiyaga o‘tish davri hisoblanadi. Shu sababli bu davrda amalga oshirilgan yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarlarida o‘zbek shevalari qiyosiy-tavsifiy va lingvo-geografik usulda o‘rganilib, lingvistik xaritalari yaratilgan. Lingvistik geografiya sohasida katta ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan A.Shermatovning ta’kidlashlaricha,

dialektologiyaning tekshirish obyekti jonli dialektal nutq, dialektal lug‘atlar, ilmiy asarlar, qaysi davrga yoki qaysi hududga oidligidan qat’iy nazar, umuman dialektal tekstlar tadqiqotidan iborat bo‘lsa, lingvistik geografiya lingvistik atlaslar, dialektal lug‘atlar, ilmiy tadqiqotlar va ma’lum hududgagina oid dialektal matnlar bilan ish ko‘radi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbek tilshunosligining ajralmas qismi hisoblangan o‘zbek dialektologiyasi sohasida hozirgi kunga qadar katta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ko‘pgina o‘zbek shevalari yaxlit holda o‘rganilib, lug‘atlar tuzilgan. Shuningdek, yirik monografik asarlarning yaratilganligi endilikda shevalarni qiyosiy-tarixiy va areal tadqiqotning hozirgi zamon aniq va izchil metodi bilan, til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi areal yo‘nalishda ilmiy o‘rganishni taqazo qiladi.Shuning natijasida lingvictik hodisalatning ateal tarqalishini ko‘rsatuvchi lingvistik xaritalarini yaratish amalga oshiriladi/

Lingvistik atlaslar tuzish ishiga ma’lum bir til yoki mintaqa shevalarining hududiy mintaqaviy tavsifi yakunlangandan keyingina kirishish mumkin. Chunki shundan keyingina ma’lum bir til shevalarning yoki tillar oilasi yo guruhidan u yoki bu tilning bir-biridan farq qilishiga xizmat qiladigan eng asosiy fonetik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik, derivatsion o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Har bir o‘xshashlik va farqning (innovatsiyaning) qaysi hududlarda, qaysi shevalarda qo‘llanilishi aniq tavsiflanadi. Shundan keyingina arealogik tadqiqotlarga va lingvistik (dialektologik) xaritachilikka kirishish mumkin.

Har bir kartani tuzishda dastlab kartalashtirilgan til hodisasining tarqalish chegarasi – izoliniyasi aniqlanishi kerak. Keyin turli xil sheva va dialektlardagi bir xil til hodisalari izoglossa sifatida kartalashtiriladi. Izoglossalarning keng hududlarga tarqalishida qadimda aloqa yo‘llari va daryo oqimi katta o‘rin egallagan.

Bugungi kunda o‘zbek shevalari hududini lingvoareal uo‘nalishda tadqiq etish qator dolzarb muammolarni hal etishga yordam beradi. Shevalarning tashqi chegarasini, ichki tasnifini tadqiq etish, tahlil etilayotgan shevalarning dialektal mikrohudud tizimidagi o‘rnini belgilash ana shu muammolardan eng muhimi hisoblanadi.

O‘zbek shevalarini areal o‘rganish va ularning lingvistik xaritalarini yaratish shevalarning tarqalish o‘rinlari, tilning taraqqiyot qonuniyatlari va yo‘llarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, “O‘zbek shevalarining dialektologik atlasi”ni yaratilishi uchun asos bo‘ladi. Albatta, buning uchun o‘zbek shevalarini areal o‘rganish bo‘yicha hali juda katta ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, xaritaning lisoniy materiallari tadqiq etilayotgan hududdagi o‘zbek shevalari tizimining tashqi dialektal chegarasi va o‘zbek tilining boshqa dialektal zonasi bilan aloqasini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida hozirgi kunda tadqiq etilayotgan ilmiy ishlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek xalq shevalarida adabiy tilda ishlatilmaydigan juda ko‘plab so‘zlar saqlanib kelayotganining guvohi bo‘lamiz. Xalq tilidagi bunday o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarni areal yo‘nalishda ularning hududiy tarqalishini o‘rganish zarur. Sababi o‘zbek shevalari areal yo‘nalishda o‘rganilib, “O‘zbek tilining dialektologik atlasi” yaratilmagan. Bunday atlas O‘zbekiston hududida yaratilsa, u O‘zbekistonimizning lisoniy manzarasini yorqin aks ettirish bilan birga o‘zbek xalqi hayoti va turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan minglab so‘zlarni adabiy tilga olib kirishga manba bo‘la oladi. Shuningdek, shunday so‘z va hodisalarning tarqalishini umummilliy boylik darajasida xalqqa yetkazish haqida aniq ma’lumot beradi hamda ko‘p tomli o‘zbek tilining izohli lug‘atlarini yaratish uchun boy manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Аванесов Р.И. Выступление по докладам // Вопросы диалектологии тюрских языков. – Баку, 1958. – С. 139–141.
2. Джураев А.Б. Теоритеческие вопросы ареалной лингвистики // Актуалные вопросы развития науки и техники в Узбекстане: тезисы докладов научной конференции молодых ученых и специалистов АН Уз ССР. – Ташкент, 1987_3. – С. 99.
3. Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание // Избранные труды. – Ленинград, 1976. – 694 с.
4. Ларин Б.А. О лингвистическом изучении города // Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. – Москва, $1977_{1,}$ – С. 175–189.
5. Макаев Э.А. Проблемы индоевропейской ареалной лингвистики. –Москва, Ленинград, 1964. – 59 с.
6. Мухамеджанов К. Ареалное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 44 с.
7. Решетов В.В. О диалектологическом атласе узбекского языка // Второе регионалное совещание по диалектологии тюркских языков. – Казан, 1958. – С. 16–20.

AREAL TILSHUNOSLIK: LINGVISTIK XUSUSIYATLARNING HUDUDIY TAQSIMLANISHI, ETNIK LISONIY XUSUSIYATLAR VA IZOGLOSSLAR

Darvishov Ibrohim O‘rmonovich,
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD

Zamonaviy o‘zbek areal lingvistikasining ilk tadqiqotchilaridan biri professor Aziz Jo‘raev “Areal lingvistika” atamasi jahon tilshunosligida hali hanuz noaniqligicha qolmoqda, deya fikrini davom ettirib, areal tilshunoslik asosan “italyan tilshunoslarining nelingvistik ta’limoti”, “lingvistik geografiya asoschilari” va “tillar ittifoqi haqidagi ta’limot” lar bilan belgilanishini ta’kidlagan edi[1].

Keyinchalik M.A.Borodina tomonidan ilgari surilgan areal tilshunoslikning sintetik konsepsiyasi tobora ko‘proq o‘z huquqlariga ega bo‘ldi. Bu tushuncha mazmuni jihatidan oldingi tushunchalarning atributlarini ma’lum darajada qamrab olgan holda, hududiy bilimlarning evolyutsion rivojlanishi bilan sug‘orilganligi ulardan ustun turadi, degan fikrlar maydonga keldi.

M.A.Borodina areal tilshunoslik dialektologiya, lingvistik geografiya va areologiyaning izchil rivojlanishini ifodalaydi, deb hisoblaydi[2]. Shu bilan birga, lingvistik geografiya dialektologiya va areologiya o‘rtasida oraliq bo‘g‘in vazifasini bajaradi va “uning maxsus o‘rganish predmeti (til – shevaning barcha maqomlari, adabiydan tashqari) mavjudligini lingvistik sohalardan olib tashlab bo‘lmaydi.

Zamonaviy dialektologiyani xaritalarsiz va xaritalashsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki u ma’lum darajada dialektlarning saqlanish darajasiga bog‘liq. Biroq, xaritalash immanent ravishda areallogizatsiyaga olib keladi, ya’ni. izoglossni amalga oshirish, maydon va izogloss arealologiyaning ikkita asosiy tushunchasidir[3].

Demak, areal tilshunoslik tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi bo‘lib, u lingvistik makon – hududning tuzilishi, shakllanish xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi, shuningdek, tillar va dialektlarning o‘ziga xos real – aniq tasnifini tuzadi. Areal tilshunoslik dialektologiya, lingvistik geografiya va areologiyaning elementlarini birlashtiradi, ularning har biri lingvistik makonni o‘rganishdan kelib chiqib, o‘z ob’ektini lingvistik makonga xos bo‘lgan cheksiz xilma-xillik xususiyatlarining o‘ziga xos va cheklangan ro‘yxatiga muvofiq belgilaydi. Ushbu fanlarning atama va tushunchalari bir-biri bilan o‘zaro ta’sirlashib, noyob lisoniy kenglikni tashkil qiladi.

Qadimgi lotin tilida – hudud, makon ma’nolarini anglatgan “areal” so‘zi umumiy tilshunoslikka bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun alohida o‘z sohaviy birliklari, hususiyatlariga ega fan sifatida ancha asrlar avval shakllanib ulgurgan. Buni insoniyat ilm-ma’rifati o‘choqlari bo‘lgan qadimgi Rim, Sharqning Baytul Hikmasi, Xorazm Ma’mun Akademiyasi, Balosog‘uniyu Samarqandu Buxorosi ham tasdiqlab turadi.

Dunyo tilshunoslik ilmiy olamiga tayanch manbalar sifatida Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Mahmud Zamahshariyning “Muqaddimat-ul adab”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”, Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abulg‘ozi Baxodirxonning “Shajarai turk” va boshqa ko‘plab turkiy olimlar asarlari milliy ilmiy-madaniyatimizning bebaho xazinasi deyish bugungi Yangi O‘zbekiston tamaddunining yuksalishi uchun o‘ziga xos yuksalish pog‘onasi desak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zotan, hali yevropada fanlarning aniq bir yo‘nalishlari, aniq bir nazariya va ta’limotlari yaratilmasdan avval yurtimiz qomusiy olimlari o‘zlarining ilm-fan yo‘nalishlari borasidagi ilmiy-nazariy asoslarni yaratib bo‘lgan edilar. Ayniqsa, ularning tilshunoslikning dialektogiya, areal lingvistika, lingvistik geografiya metodologiyasi, etnolingvistik, lingvomadaniyatshunoslik sohalarning ta’limotlarning asl mohiyati ochib berilgan ilmiy me’rosiy manbalari bugungi kunda ham bizga juda ko‘plab asosli nazariy va amaliy ta’limotlarni, ilmiy mulohazalarni oydinlashtirib berayotgani bor haqiqatdir.

Tilshunoslikning lingvistik geografiya usullaridan foydalangan holda, til hodisalarining geografik maydonlar ko‘lamida tarqalishi va tillararo (dialektlararo) o‘zaro ta’siri, etnik urug‘-qabilalar aralashuvi, millat va xalqlarning o‘zaro madaniy va iqtisodiy aloqa-munosabatlarining o‘zaro ta’siri orqali yuzaga kelgan tarixiy evolyusion jarayonlar sharq mutafakkir olimlari tomonidan aniq belgilab va ko‘rsatib berilganligi bugungi turkiy tilshunoslikning o‘ziga xos boy nazariy asoslari borligini isbotlab beradi.

“Devoni lug‘otit turk”, “Muhokamatul lug‘atayn”, “Boburnoma”, “Shajarai turk” asarlarida o‘zaro bir-biriga ta’sir qiluvchi tillar (dialektlar) va urug‘lar, ularning kommunikatsion quroli bo‘lgan lisoniy birliklarni

[1] Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.
[2] Бородина М.А. Проблемы лингвистической географии. – М. – Л., 1966. – 220 с.
[3] Бородина М.А. Проблемы лингвистической географии. – М. – Л., 1966. – 220 с.

hududiy tavsiflashda hal qiluvchi tamoyil vazifasini bajarilishi aniq ko‘rsatib berilgan. Ularda turkiy, fors-tojik va boshqa tillarning bir butun kenglikdagi, maydonlardagi qamrovi amal qilish ko‘lami haqida aniq ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, Koshg‘ariy “Devon”idagi dir. Turonzamindagi Koshg‘ariy lingvogeografiyasidagi me’ros bugungi o‘zbek areal tilshunosligining mustahkam poydevori deb baholashimiz davri kelib yetti. Olimning ta’kidicha, qabila va urug‘larning, millat va elatlarning tili, dialektlari bilan ularning hududiy tarqalish ko‘lamini o‘rganuvchi tilshunoslikning tayanch sohasi bo‘lgan areal lingvistikaning asosiy vazifasi lingvistik xususiyatlarning hududiy taqsimlanish xususiyatlari va izoglosslarni izohlashdan iborat. Buning isboti sifatida geografik tarqalish ko‘lamiga muvofiq o‘zining “Devoni”ga sakkiz mingga yaqin so‘zlarni joylab, ularning maydonlar bo‘yicha bajaradigan lisoniy va nutqiy vazifalarini asoslab berdi.

Ma’lumki, turkiy va turkiy bo‘lmagan etnoslar orasidagi til aloqalari ilk o‘rta asrlarda ham kengayib borgan. Bu davrda mintaqaning bir qator hududlarida aholi turkiy va so‘g‘d tillarida so‘zlagan. Chunonchi, Mahmud Qoshg‘ariy XI asrda Sharqiy Turkistonning janubidagi shaharlarda shuningdek, Chu va Talas vodiysidagi aholi turk va so‘g‘d tillarida gaplashganliklari, aholi ikki tilli bo‘lganlari haqida yozib qoldirgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, X-XI asrlarda Sharqiy Turkistondagi Balasog‘un shahrida bir vaqtning o‘zida aholi ham turkcha, ham so‘g‘dcha so‘zlashganlar. Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Turkiy tillar devoni” asarida Balasog‘undagi so‘g‘diylar haqida gapirib, *“Buxoro va Samarqanddan ko‘chib borgan so‘g‘doqlar Bolasog‘unda joylashib qolgan va turkiylashib ketgan*” deb yozgan edi. Bundan kelib chiqadiki, turli millat va elatlarning birikuvidan tarkib topgan O‘zbekiston aholisi uchun azaldan ikki tillilik xos bo‘lgan. XIX-XX asr boshlarida vodiy hududida o‘zbek-tojik, o‘zbek-uyg‘ur, o‘zbek-qirg‘iz va o‘zbek-qoraqalpoq ikki tillilik holatlarining kuchayganligi yaqqol bugungi davrda ham seziladi va kuzatiladi. Biroq ikki tillilik hodisasi va ularning tarqalish ko‘lami turli hududlarda o‘ziga xos bo‘lib, bu ijtimoiy hodisaning sodir bo‘lishi etnik muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligini isbotlab beradi.

Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy til va sart (fors-tojik) tilini solishtirar ekan, turkiy tildagi ayrim tushunchalarning fors-tojik tilida ifodalanmasligi, madaniy bo‘shliq hosil qilishi haqidagi mulohazalarini bayon etgan. *“Va xo‘blarning ko‘z va qoshlari orasinki,* ***qabog‘*** *derlar, forsiyda bu uzvning oti yo‘qtur. Va husn ta’rifida ulug‘roq xolg‘akim, turklar* ***meŋ*** *ot qo‘yupturlar, alar ot qo‘ymaydurlar”.*

O‘rdakning jo‘rka, erka, suqtur, olmabosh, chokirqanot, temurqanot, aldaldag‘a, olapuka, bog‘chol kabi yetmish turini ifodalovchi turkiy so‘zlar muqobili sart tilida yo‘qligi, leksemalarda gender farqlarning ifodalanmasligi, ularning barchasi uchun birgina murg‘abi so‘zi ishlatilishi qayd etilgan: *“...anda muqarrar va mashhur ilbosun o‘rdakdur. Va sort el ilbosunni xud bilmas. Tog‘i turk o‘rdakning erkagin “so‘na” va tishisin “bo‘rchin” der. Va sort munga ham ot qo‘ymaydur. Va nar va moda ikkalasin “murg‘obi” der”.*

Alisher Navoiy ot turlari, ashyolari nomlari ham turkiy tillarda rang-barang ekanligini ta’kidlaydi:

“Yana ot anvoyidaki, tubuchoq va arg‘umoq va yaka va yobu va totu yo‘sunliq – borini turkcha-o‘q ayturlar. Va otning yoshin dag‘i ko‘prakin turkcha ayturlar. Bir qulunni «kurra» derlar. O‘zga: toy va g‘o‘nan va do‘nan va tulan va chirg‘a va lang‘a deguncha fasihroqlari turkcha derlar va ko‘pragi muni ham bilmaslar. Va otni bilmas”.

Z.M.Bobur tomonidan “Boburnoma”da keltirilgan quyidagi kichik fakt ham o‘zbek areologiyasining o‘ziga xos tarixiy ijtimoiy tarixini ko‘z oldimizda gavdalantirib bera oladi.

Sayhun suyining shimoli tarafidag‘i qasabalar: biri Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar. Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg‘onada. Andijondin so‘ngra mundin ulug‘roq qasaba yo‘qtur. Andijondin g‘arb sori to‘qquz yig‘och yuldur. Umarshayx Mirzo muni poytaxt qilib yedi. Sayhun daryosi qo‘rg‘onining ostidin oqar. Qo‘rg‘oni baland jar ustida voqi’ bo‘lubtur... Mahalloti qo‘rg‘ondin bir shariiy yiroqroq tushubdur. “Deh kujovu darxton kujo” (Qishloq qayda-yu daraxtlar qayda) masalini g‘olibo Axsi uchun aytubdurlar.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, bugungi O‘zbek areologiyasidagi tushunchalar, ya’ni o‘zbek tilining dialektlari, tillari va hududiy jamoalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir yo‘llari – umumiy tarkibiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan til birlashmalari haqidagi qarashlar o‘zimizning tarixiy ilmiy manbalarimizda mavjud.

“Makon”, “maydon tilshunosligi” atamasi birinchi marta M.J.Bartoli va G. Vidossi (1943) tomonidan fanga kiritilgan, uning uning asosiy tamoyillari 1925-yilda Bartoli tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa, turkiy tilshunoslikda uning asoslari ancha asrlar avval mavjud bo‘lgan, deya olishga haqlimiz.

Bilamizki, areal tilshunoslik lingvistik geografiya va dialektologiya bilan uzviy va chambarchas bog‘liq. Areal tilshunoslik lisoniy hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini, ularning bir qator tillarda tarqalish yo‘nalishi va sohalarini o‘rganishi ma’lum. Dialektologiya esa alohida tilning hududiy variantida tuzilishini tavsiflaydi. Shu bilan birga, dialektologik tadqiqotlar hududiy – areal tilshunoslikning faktik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Areal tilshunoslikning markaziy tushunchasi lingvistik dialekt sohasi, ya’ni alohida til hodisalari va ular birikkan til birlashmalarining tarqalish chegaralari, maydonlaridir. “Maydon” – “areal” atamasi tillar va til jamoalarining tarqalish chegaralarini belgilash uchun ishlatiladi: Hind-yevropa hududi, Slavyan hududi, Turkiy hudud va boshqalar kabi. Areal tilshunoslikda tavsifning sinxron va diaxronik rejalarini farqlash zarur. Diaxronik aspekt proto-lingvistik holatning bo‘linish sohalarini va buning natijasida kelib chiqadigan dialektlararo konvergentsiyalarni aniqlashga qaratilgan. Bu davlatlar (umumiy hind-evropa, umumiy slavyan, umumiy turkiy va boshqalar) areal tilshunoslik nuqtai nazaridan ajratilgan genetik jihatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan dialektlarning lingvistik uzluksiz kengligi sifatida talqin qilinadi.

Til tuzilishining turli darajalarida kesishuvchi izoglosslar mavjud. Sinxronik reja bir xronologik kesimlarda dialektlararo aloqalar va hududiy etnolisoniy jarayonlar va aralashuv holatlarini o‘rganish bilan bog‘liq. Shuning uchun areal tilshunoslikning asosiy va muhim tushunchasi bu – izoglosslardir. Turli darajalar uchun ushbu tushunchaga aniqlik kirituvchi atamalar: fonetik izoglosslar – izofonlar, leksik izoglosslar – izolekslar, o‘xshash semantik rivojlanish – izosemalar va boshqalar qo‘llaniladi. Lingvistik dialektal holat uchun “lingvistik-dialektal landshaft” atama belgisi qo‘llaniladi. Shuningdek, areal tilshunoslik vazifalariga hududiy qo‘shni tillar va ular bilan lingvistik aralashuv, lingvistik jalb etilish muammolarini hal etish kirsa, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va sotsiolingvistik tipologiya sohalari u bilan chambarchas bog‘liq holda ish olib boradi.

Istiqlol davri boshidanoq o‘zbek tilshunosligida areal tilshunoslik tamoyillari asosida hududiy dialektlarning o‘rganilishiga keng yo‘l ochildi. Imkoniyatlar yaratildi. Dialektlarning areologik asoslarda tavsiflashning yangi tizimli shakli maydonga keldi. lingvistik atlaslar yaratilmoqda. Til birlashmalari doirasida lingvistik va dialekt sohalarining o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan areal tipologiyasi ishlab chiqilmoqda.

Darhaqiqat, maydonlarning mintaqaviy tilshunosligi umumiy tilshunoslik doirasida hududiy muammolar majmuasini o‘rganadi. Jumladan, Mahmud Koshg‘ariy ilmiy an’analirini davom yettirgan holda lingvogeografik metod asosida o‘zbek shevalari arealogik aspektlarda o‘rganilgan ilmiy faoliyatda quyidagilarni ye’tirof yetish maqsadga muvofiq: Sh.Shoabdurahmonov, V.V.Reshetov, A.Jo‘rayev, Q.Muhammadjonov, A.Shermatov, Y.Ibrohimov, N.Murodova[1], Z.Ibrohimova, I.Darvishov, N.Rahmonovlarning monografik izlanishlari[2], Sh.Norbaeva, G.Norova, A.Turdaliyev, M.Suvanova, Sh.Alimova, Z.Xidiraliyeva, O.Nurjanov, Z.Tillabayeva, A.Allaberdiyevlarning[3] dissertatsion tadqiqotlari o‘zbek shevalari areallarini o‘rganilishining nazariy asoslarining mustahkamlanisiga ilmiy jihatdan munosib ulush bo‘lib qo‘shilgan. Mazkur tadqiqot ishlarida tillar va dialektlar uzviy davomiyligi, ma’lum bir mintaqadagi mavjud tillar va dialektlarning o‘zaro ta’sirining hududiy xususiyatlarini ochib berilib, til aloqalari qonunlari, areal tipologiya tamoyillarini yaratish va tillararo o‘zaro ta’sir nazariyasi – lingvistik

[1] Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек шевалари ва уларнинг ҳақида умумий маълумот: Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ЎзФАН, 1962. – 371 б.; Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – 370 б.; Решетов В.В. Классификация узбекских говоров Ангренской долины // Бюллетень АН Уз ССР. – Ташкент, 1947. –№ 7. – С. 17-27; Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.; Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. – 57 б.; Муҳаммаджонов Қ. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казагистана. Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Ташкент, 1988; Иброхимов Й. Жанубий оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Фил. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Муродова Н.Қ. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингво-ареал талқини (лексика материаллари асосида) Фил. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 258 б.

[2] Иброҳимова З. Қорақалпоғистон ўзбек шеваларида қишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвогеографик тадқиқи: филол. фанл. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009. – 143 б.; Дарвишов И. Жануби-ғарбий Наманган ишевалари фонетик-фонологик хусусиятларининг ареал тадқиқи. Фил. фанл. бўйича фалс. докт. ... дисс. – Фарғона, 1918. – 147 б.; Раҳмонов Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятлари лингвоареал тадқиқи. Фил. фанл. бўйича фалс. докт. ...дисс. –Самарқанд, 2019. – 135 б.

[3] Norbaeva Sh. Xorazm shevalari leksikasining onomasiologik tadqiqi: filol. fanl. dokt (DSc) ... diss avtoref. – Toshkent, 2024; Норова Г. Ўзбек тили Зарафшон воҳаси ўзбек шевалари лексикасининг лингвоареал тадқиқи: фил. фанл. бўйича фалс. докт. ...дисс. автореф. – Жиззах, 2021; Turdaliyev A. Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish: fil. fanl. bo‘yicha fals. dokt. avtoref. – Toshkent, 2024; Suvanova M.O‘zbek xalq shevalari urf-odat, marosim leksikasining lingvoareal talqini: fil. fanl. bo‘yicha fals. dokt. avtoref. – Qarshi, 2023; Alimova Sh. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari: fil. fanl. bo‘yicha fals. dokt. avtoref. – Urganch, 2023; Xidiraliyeva Z. O‘zbek tilining Iqon shevasi: fil. fanl. bo‘yicha fals. dokt. avtoref. – Toshkent, 2023; Нуржонов О. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари этнографизмлари антропоцентрик тавсифи: фил. фанл. бўйича фалс. докт. ...дисс. авторефер. – Жиззах, 2021; Tillabayeva Z. Samarqand shahri o‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari (qarluq lahjasi misolida). Fil. fanl. bo‘yicha fals. dokt. avtoref. – Samarqand, 2023; Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: фил. фанл. бўйича фалс. докт. ...дисс. авторефер. – Тошкент, 2018.

kontaktologiya va lingvistik birlashmalarni shakllantirish topografik hududlarni aniqlash va hududiy aloqalarda substratning roli aniqlangan.

Aytish mumkinki, areal tilshunoslik vazifalariga, shuningdek, hududiy qo‘shni tillarda lingvistik aralashuv va lingvistik jalb qilish muammolari, etnolingvistika va sotsiolingvistik tipologiya ham kiradi. Ikki tillilik va ko‘p tillilik muammolarini o‘rganishda hududiy tilshunoslikning ayrim metodlaridan keng foydalaniladi. Shuning uchun etnografiya va arxeologiyada xalqlarning joylashishi va madaniyatlarning tarqalishi masalalarini o‘rganishda ham areologik usullardan foydalaniladi.

Konvergentsiya va divergensiya hodisalari ham arealogiyaning asosiy tushunchalaridan biridir. Konvergentsiya – shevalar, tillar va dialektlarning yaqinlashishi, o‘zaro kirishishi, birlashishidir. Ikki yoki undan ortiq til unsurlarining bir-biriga o‘tishi. yaqinlashishi yoki mos kelishidir.

Divergensiya – lingvistik evolyutsiya bo‘lib, buning natijasida bir tilning dialektlari ikkinchi bir tilning dialektlaridan ajratib chiqaradi, alohidalanishi – mustaqil sheva, tilning hosil qilingan ko‘rinishidir. Konvergentsiya va divergensiya tushunchasi til aloqalarining tarixiy hodisaning natijasidir.

Til aloqalari – bu tillarda so‘zlashuvchi guruhlar o‘rtasidagi aloqa natijasida yuzaga keladigan tillarning o‘zaro ta’siri, tebranishi – vibratsiya zonalari hamda ma’lum geografik hududlarda yuzaga keladigan etnik, tarixiy va ijtimoiy omillar bilan belgilanuvchi intensiv va uzoq muddatli til munosabatlaridir.

Areal tilshunoslik fanining o‘z termin – faniy atamalari borki, ular substrat, superstrat, adstrat jarayonlar, innovatsion markaz, tillar va dialektlar hamkorligi, dialektal hodisalarining taraqqiyot xususiyatlari, gemogen va geterogen taksonlar, taksonal areallar, ekstensional va ekzistensional taksonlar, taksonlarlarning tarqalishi, migratsion areallar, vikarizm, genetik va konvergent izoglossalar, fokus nuqtalar, izofonema, izomorfema, izoleksemalar, hududiy geografik kengayish, vibratsion (o‘tish) hududlari, lingvistik noturg‘un zonalar, til oilasi munosabatlariga ko‘ra zonalashtirish, lingvistik hudud, til (sheva) massivi, til (sheva) landshafti, til (sheva) guruhi, tillar (shevalar) zonasi, dialektal zona, dialektal azona kabi bir talay alohidalik belgilariga ega.

Xullas, o‘zbek tili areal tilshunosligi o‘zbek tilining maydonlari – hududlari bo‘yicha asosiy lisoniy kengliklarining kommunikatsion amal qilish holatlarini ilmiy-nazariy asoslarda o‘rganadi. O‘zbek tili lingvistik xususiyatlarning hududiy taqsimlanishi aniqlab beradi, etnik lisoniy xususiyatlar va izoglosslarni o‘rganadi. Ularni toksonal lingvistik geografiya metologik tizimi bo‘lgan bosh va asosiy yo‘llar orqali o‘rganadi va bu ishlar o‘zbek tilshunosligida boshlab yuborilgan.

QIPCHOQ LAHJASIGA XOS HARAKAT FE’LLARI

Suvonova R.A.,
SamDU O‘zbek tilshunosligi
kafedrasi dotsenti
Rustamova Dilnoza,
2-kurs magistri

O‘zbek adabiy tilining rivojlanish jarayonida dialektizmlar muhim o‘rin egallaydi. O‘zbek tili uch lahjadan tashkil topgan ko‘p komponentli dialekt bo‘lib, uning shakllanishida qarluq, o‘g‘uz va qipchoq urug‘ uyushmalari barobar ishtirok etgan va yagona umum o‘zbek tilini vujudga keltirgan.

Qipchoq lahjasidagi dialektizmlar xalqlarning hududiy joylashuvi ,shevalardagi darajalanish jarayoni va valentliklariga qarab so‘z turkumlariga xos xususiyatlari o‘rganiladi.

Qipchoq lahjasidagi fe’l so‘z turkumiga xos bo‘lgan harakat fe’llarga xalq orasidan ko‘plab misollar to‘plashimiz mumkin. Ularning adabiy til normalaridan farqlanish xususiyatlari misollar tariqasida o‘rganilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi va yangi bir tadqiqot maydonga keladi.

O‘zbek adabiy tili xalq shevalaridan o‘ziga kuch oladi va rivojlanadi, chunki sheva bo‘lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo‘lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asos bo‘lmasa, har qanday adabiy til o‘lik til hisoblanadi. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosini tashkil etadi, hamda rivojlanish poydevori hisoblanadi.

“Istiqlol yillarida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda”[1].

[1] И.Каримов. Юксак маънавият - енгилмас куч.Т.,Маънавият, 2008. 83-86-бетлар.

Shevashunosligimizning tarixi XI asrning mashhur tilshunosi Mahmud Koshg‘ariyga borib taqaladi. Uning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy xalqlar shevalarining so‘zligini arab tilida izohlab, o‘zida jamlagan mukammal va bebaho lug‘atlardan biri sanaladi.

Ona tilimizning o‘zagi –bo‘lgan shevalarimizni o‘rganish va yangi tadqiqotlar yaratish kun tartibimizning dolzarb muammolaridan biridir.

O‘zbek dialektalogiyasi sohasiga umrini baxshida etgan tilshunoslardan
I. I. Zarubin, K.K. Yudaxin, E. D. Polivanov, G‘ozi Olim, A. K. Borovkov, F. Abdullaev, V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, B. Jo‘raev, S. Ibrohimov, M. Mirzaev, A. Ishaev, Q. Muhamedjanov, K. Nazarov, Yo. G‘ulomov, A. Shermatov, A. Aliev, D. Abdurahmonov, N. Rajabov,X. Doniyorov, S.Ashirboev, B.To‘ychiboev, K. Usmonov, A. Jo‘raev, N. Murodova, T.Enazarov , N.Shoimova, M. Begaliev kabi olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarini e’tirof etmaslik va ulardan bahramand bo‘lmaslik mumkin emas. Shu nuqtai nazardan shevashunosligimiz bo‘yicha keng qamrovli yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati sezilmoqda va tan olish kerakki, hozirgacha lahjalar va shevalararo dialektalogik lug‘atlarning mukammal holda yaratish vaqti etdi.

O‘zbek xalq shevalarining lug‘aviy boyligini o‘zida jamlagan va umumiy holda ifodalaydigan bittagina “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” yaratilgan xolos.

Bizningcha, ular leksikografik nuqtayi nazardan saralangan holda kelajakda yaratiladigan ko‘p tomli “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da qayd etilishi maqsadga muvofiqdir.

Xalq shevalari va dialektlarini ichki imkoniyat sifatida adabiy tilimiz bilan bog‘lab o‘rganish sohasida ham keyingi vaqtlarda jiddiy ishlar qilinmoqda. Tilshunosligimiz uchun bunday ishlarning ham benihoya zarurligi shubhasizdir. Chunki u yoki bu dialektning, u yoki bu guruh shevalarning adabiy tilimizga qo‘shgan hissasi va unga beradigan imkoniyatlarini o‘rganmasdan turib, shu shevalarning yoki, xususan, adabiy tilimizning istiqbolini belgilash, uning kelajagini ta’minlash sohasida biror jiddiy ish qilish qiyin.

Bu shevalarning vakillari hozirgi vaqtda Samarqand, Jizzax, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining asosiy qismida, Toshkent, Sirdaryo viloyatlarining katta bir qismida, Farg‘ona vodiysida, Xorazm viloyatining shimoliy qismida va Qoraqalpog‘istonning bir qismida, shuningdek, Tojikistonning ko‘pgina tumanlarida, Qozog‘iston va Qirg‘izistonning janubiy qismida, Turkmanistonning bir qismida yashaydilar. “O‘zbek” nomi inqilobdan keyin hozirgi o‘zbek millatining hamma a’zolari uchun umumiy nom bo‘lib qolgach, ba’zi olimlar, jumladan akademiklar A.N.Samoylovich, V.M.Jirmunskiy, A.N.Kononov, professorlar N.A.Baskakov, V.V.Reshetov, M.Sh.Shiraliyev, F.A.Abdullayev, Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar ilgari “o‘zbek” nomi bilan atalib kelgan bu aholining shevalarini qipchoq shevalari deb atay boshladilar va bu nomni ilmiy muomalaga kiritdilar.

“O‘zbek adabiy tili va shevashunosligi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan professor Xudoyberdi Doniyorov qipchoq shevalari,g‘arbiy va sharqiy guruh leksikasining o‘ziga xos leksik – semantik,morfologik va stilistik imkoniyatlarini boy faktik materiallar asosida bayon etib bergan atoqli lingvist hisoblandi”.[1]

O‘zbek tilining qipchoq lahjasini uzoq yillar tahlil qilgan shevashunos olim Xudoyberdi Doniyorov edi.U adabiy tilda ham to‘qqiz sof unli tovush mavjud, faqat uning harfiy belgisi yo‘q degan fikrni bildirgan edi. Navbatdagi vazifa ana shu tovushlarning harfiy belgisini berish kerak, degan g‘oyani olg‘a surdi. Ikkinchidan, adabiy til xalq tili jozibasini o‘zida mujassamlashtirardi. Uchinchidan, imlodagi chalkashlik birmuncha tugatilib, savodxonlik yaxshilanardi.

Xudoyberdi Doniyorov tarixiy-qiyosiy metod bilan o‘zbek dialektlarini o‘rganish asosida hozirgi o‘zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyoti va rivojlanishi bosqichlarini belgilashga harakat qildi. Bu boradagi nazariy qarashlarini doktorlik dissertatsiyasida bayon etdi. Ushbu tadqiqot samarasi bo‘lgan “J-lovchi dialektlarni o‘zbek adabiy tili bilan qiyoslab o‘rganish tajribasidan” monografiyasi maydonga keldi. “Qipchoq dialektlarining leksikasi” nomli monografiyasida ham o‘zbek tilining sharqiy va g‘arbiy guruhiga oid dialekt va shevalar leksikasi–so‘z boyligi qiyoslab o‘rganiladi.

Xudoyberdi Doniyorov qipchoq lahjalaridagi sof unli tovushlar haqida xulosalarini bayon etar ekan, ayni paytda grafemalar – yarim unlilar deb ataluvchi belgilarga ham o‘z munosabatini bildiradi.

Biz ushbu o‘rinda o‘zbek xalq shevalarida, xususan, qipchoq shevalarida keng iste’molda bo‘lgan harakat fe’llari xususida to‘xtalmoqchimiz.

Harakat fe’llari qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi xalqlar tilining asosini tashkil etadi va har bir gapimiz harakat fe’llarisiz shakllanmaydi. Qipchoq lahjasidagi shevaga xos harakat fe’llari qiziqarli va sinonimik

[1] Karimov S.Sanaqulov U. “Ko‘p qirrali ijod sohibi”.Istiqlol davri o‘zbek dialektologiyasining dolzarb muammolari.Prof.X.Doniyorov tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.Samarqand,2017-yil,18-18-may,18-19-betlar.

qatorga boydir. Harakat fe’llari turli ma’noda qo‘llanish xususiyatlariga ega bo‘lib, uni quyidagi semantik guruhlarga ajratish mumkin.

Harakat fe’llarining semantik guruhlanishi:

1. Inson kayfiyati bilan bog‘liq harakat fe’llari;
2. Inson harakati bilan bog‘liq holat fe’llari;
3. Ruhiy holat bilan bog‘liq harakat fe’llari;
4. Inkor ma’noli harakat fe’llari;
5. Inson mehnatiga xos harakat fe’llari;
6. Kundalik hayotga xos harakat fe’llari;
7. Tafakkur bilan bog‘liq holat fe’llari;
8. Ijobiy harakat fe’llari;
9. Salbiy harakat fe’llari;
10. Harakat, yarim holat fe’llari;
11. Nutqiy harakat fe’llari.

Turli ma’no xususiyatiga ega bo‘lgan harakat fe’llariga misollar:

Chopti-yugurdi, enkaydi-engashdi, g‘izziladi-tez keldi, iljaydi-tabassum qildi, shiqshaydi-miyig‘ida kuldi, jiladi-yig‘ladi, allandi-aldandi, to‘ng‘illadi-norizo bo‘ldi, jotti-yotdi, jonboshladi-yonboshladi, jamg‘ardi-yig‘di, jashnadi-yashnadi, chupchima-sakrama, jo‘g‘otma-yo‘qotma, javrama-vaysama, jilpilladi-qilpilladi, kulli-kuldi, cho‘milli-cho‘mildi, artinni-artindi, mo‘radi-poyladi, cho‘zilli-cho‘zildi, cho‘milli-cho‘mildi, jumshadi-yumshadi, sonnadi-ko‘p gapirdi, bopladi-to‘g‘ri qildi, bezanni-bezandi, kiyinni-kiyindi, suqatti-sovqatdi, dam olli-dam oldi, qaqqayma-qotib qolmoq, qamalli-qamaldi, suxordi-sug‘ordi, teshaladi-chopti, irjayma-kulma, ovnama-ag‘nama, sang‘ima-bekor yurma, jalpayma-yalpayma, baylama-bog‘lama, chechinma-yechinma, lallayma-bo‘shashma, solishma-urushma, kaypanglama-o‘zingdan ketma, bezrayma-yuzsiz bo‘lma, to‘rama-to‘g‘rama, quvlama-orqasidan yugurma, urma-do‘pposlama, chechma-yechinma, kechma-inkor qilma, zo‘rlama-majburlama, kema-kelma, jog‘otma-yo‘qotma, suvutti-sovutdi, jilitti-ilitdi, isitti-isitdi, shopirdi-qo‘zg‘adi, boshini chayqadi-ajablandi, juvutti-ivitdi, quritti-quritdi, ko‘pchitti-xamirni oshirdi, , sovdi-sog‘di, juvdi-yuvdi, jildirdi-joyini o‘zgartirdi, chaydi-chayqamoq, jaydi-yoydi, osti-ildi, sog‘inni-sog‘indi, kuydi-xato qildi, shipirdi-supurdi, kulli-kuldi, ovdardi-ag‘dardi, jomadi-yamadi, kalladi-qo‘lladi, zingraymoq-qotib qolmoq.

O‘zbek dialektologiyasidagi shevaga xos so‘zlarni XXI asrdan turib mukammal o‘rganish va ilmiy asosda tadqiq etish bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki o‘zbek xalqi va uning adabiy tilining rivojlanishida qipchoq lahjasining o‘rni beqiyosdir. Ilmga chanqoq yoshlarimiz bu sohada ham izlanishlar olib bormoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “Yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kamol toptirish, a’lo o‘qishga da’vat etish ,ularni sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytiramiz. Bu boradagi siyosatimiz yangi qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida “gi Qonun asosida qat’iy davom ettiriladi [1] deb bejiz aytmagan.

Dialektologik olimlarimizning izdoshlari bo‘lgan yosh tadqiqotchilar bugungi kunda shevaga xos so‘zlarning yangi-yangi qirralarini kashf etmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent:,O‘zbekiston, 2017. 134 bet.
2. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008, 139 bet.
3. Istiqlol davri o‘zbek dialektologiyasining dolzarb muammolari. Samarqand,2017-yil,18-18-may,10-11-betlar.
4. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. –. Toshkent :Navruz nashriyoti, 2017,108-109-betlar.
5. O‘zbek dialektologiyasining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari. Toshkent 2018, 38-40-betlar.

[1] Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 134 бет.

IJTIMOIY TILSHUNOSLIK

Alijon Allaberdiyev,
Charos Jumayeva
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Mazkur maqolada sotsiolingvistikaning o‘rganilishi va taraqqiyoti to‘g‘risida fikr yuritiladi. Ilmiy manbalarga asoslangan holda ilmiy nuqatayi nazardan tadqiq qilinishi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: sotsiolingvistika, dialekt, madaniyat, millat, etnografiya, lingvopsixologiya, antropologiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается изучение и развитие социолингвистики. На основе научных источников изучаются исследования с научной точки зрения.

Ключевые слова: социолингвистика, диалект, культура, нация, этнография, лингвистическая психология, антропология.

Annotation: This article discusses the study and development of sociolinguistics. Based on scientific sources, research from a scientific point of view is studied.

Key words: sociolinguistics, dialect, culture, nation, ethnography, linguistic psychology, anthropology.

Tarixdan ma’lumki, har qanday sivilizatsiya iqtisodiy, siyosiy jihatdan rivojlanish bilan bir qatorda tashqi omillarning hamda o‘z madaniyatining ta’siri natijasida milliy tilini shakllantiradi va kundalik turmush-tarzida qo‘llaydi. Ilm-fan taraqqiy etgani sari esa har bir fanda, xususan, tilshunoslikda ham yangidan yangi ufqlar kashf etildi va bu hodisalar davom etmoqda. Ayniqsa, XIX-XX asrlar oralig‘ida lingvistika, ya’ni tilshunoslik faniga ham yangidan yangi tushunchalar kirib kela boshladi. Aynan, yapon va hind olimlari tilning ijtimoiy hodisa ekanligi va uning rivojlanishi yoki barham topishi ijtimoiy hayotga bog‘liq ekanligiga e’tibor qaratishgan. *Sotsiolingvistika* atamasining birinchi tasdiqlangan qo‘llanilishi Tomas Kallan Xodson tomonidan 1939-yilda *Hindistonda* chop etilgan "Hindistonda ijtimoiy lingvistika" nomli maqolasi sarlavhasida bo‘lgan ham ko‘pincha ijtimoiy lingvistika shaklida qo‘llanilgan va keyinchalik ilmiy terminga aylangan. Tilshunoslik tarixida bu masalalar ko‘p bora tadqiq qilingan, ammo XX asrning 60-70-yillariga kelib tilshunoslikda bu muammolarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada kuchaydi. Sotsiolingvistikaga oid bunday muammolarni o‘rganishda tilshunoslik faqatgina jamiyatshunoslik faniga emas, balki falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya singari bir qator fanlar yutuqlarini ham inobatga olish zarur.

Hozirgi globallashuv jarayonida mustamlakachilik siyosatining oqibatlari tufayli Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va bir necha Afrika davlatlarida siyosiy kelishmovchiliklar kuzatilyapti. Shuningdek, ayrim mamlakatlarda mustamlaka qilgan davlatlarning tili davlat tili sifatida, ya’ni milliy til sifatida qo‘llanilmoqda. Buning yaqqol misolini Hindiston, Qirg‘izizston kabi davlatlarda ko‘rishimiz mumkin.

Sotsiolingvistikaning fan sifatida mamlakatimizda o‘rganilishi 1917-yildan keyin boshlandi va rivojlandi. Chunki etnik jihatdan yagona bo‘lgan turkiy xalqlar uchun umumiy til yaratish masalasi ko‘ndalang qo‘yilgandi. Shuning uchun sotsiolingvistika fani bu davrda adabiy tilga asos bo‘ladigan dialektni aniqlash va uning tayanch vazifani o‘tashi lozimligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashi, bo‘lajak adabiy tilning tovushlar tarkibini inobatga olgan holda xalqning milliy alifbosi va imlo qoidalarini yaratishi, yangi barpo etilayotgan adabiy tildan rasmiy til sifatida ma’muriy boshqaruvda va o‘qish-o‘qitish ishlarida keng foydalanishga erishish lozim edi. Shundan so‘ng 30-40-yillarda ham o‘zbek tilshunosligida shu kabi an’analar davom etdi. Xususan, A. Fitrat, Elbek, Botu, Faxri Kamol singari olimlarning qarashlarida ham ana shu mulohazalar o‘zbek ijtimoiy tilshunosligining fan sifatida sifatida takomillashuviga ulkan hissa qo‘shildi.

Tilning ijtimoiylashuvini o‘rganish bu bilan cheklanib qolmadi. Keyingi o‘n yillik davomida milliy tillarni rivojlantirish, tillar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish va har bir xalq uchun milliy tilning ahamiyati naqadar yuqori ekanligi to‘g‘risida ishlar davom etdi. Ammo qilingan tadqiqotlar bilan bir qatorda o‘zbek tilining mavqei va ahamiyati ancha pastladi hamda madaniyat tili sifatida rus tilidan foydalanish oddiy aholi o‘rtasida keng tarqaldi. Shuningdek, tilshunoslar V.Reshetov, V. Borovkov, A.G‘ulomov, F.Abdullayev, O.Usmonov tadqiqotlarida ham shu fikrlar ilgari surilgan va 1972-yildagi Olmaotada bo‘lib o‘tgan konferensiyada ular tomonidan ilgari surilgan.

Mustaqillikdan keyin sotsiolingvistika sohasida samarali ishlar olib borildi. S. Mo‘minov o‘zining “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” nomli monografiyasida ham o‘zbek xalqi kulturologiyasi va lingvistikasi borasida atroflicha keng tadqiqotlar olib borilgan.

Sotsiolingvistika omillarini o‘rganish tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biri sanalishi bilan bir qatorda antropologiya, etnografiya, lingvopsixologiya kabi bir necha fan tarmoqlariga ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun tarixdan uzilmagan holda sotsiolingvistika sohasida tadqiqotlar olib boorish juda muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR:

1. Normurodov R. Sotsiolingvistika (Uslubiy qo‘llanma).Termiz, 2004.
2. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Toshkent, 2000.
3. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning qisqacha lug‘ati. Toshkent, 2001.

O‘ZBEK XALQ SHEVALARIDAGI MILLIY RUH VA MAHALLIY-MILLIY HAYOT NAFASI

Darvishov Ibrohim O‘rmonovich,
NamDU dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiy tilini boyitish yo‘llari va o‘zbek adabiy tili va Davlat milliy tili mavqyeyini oshirish masalalari haqida munosabatlar bildirilgan. Adabiy tilning boyishi ichki omili bo‘lgan o‘zbek shevalari, xususan, Namangan shevalarining milliy-mental jihatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: lison, til, adabiy til, milliy til, mahalliy til, sheva, dialekt, lingvistik muqobillik.

Аннотация: В данной статье описаны пути обогащения узбекского литературного языка и вопросы повышения статуса узбекского литературного языка и государственного национального языка. Обсуждаются национально-ментальные аспекты узбекских диалектов, в частности наманганских диалектов, которые являются внутренним фактором обогащения литературного языка.

Ключевые слова: язык, литературный язык, национальный язык, местный язык, диалект, диалект, языковая альтернатива.

Annotation: This article describes ways to enrich the Uzbek literary language and issues of increasing the status of the Uzbek literary language and the state national language. The national-mental aspects of the Uzbek dialects, in particular the Namangan dialects, which are an internal factor in the enrichment of the literary language, are discussed.

Key words: language, literary language, national language, local language, dialect, dialect, language alternative.

Har bir millatning tamaddun tufayli unutilgan, iste’moldan chiqqan so‘zlari bo‘ladi. Adabiy tilimiz, aniqrog‘i, Ona tilimiz ham bundan holi emas. Tarix qatida qolgan, biz unutgan va unitayotgan, kelgusi avlodimiz e’tiboridan juda ham chetda qolayotgan so‘zlar xalq shevalarida keng qo‘llanmoqda. Afsuski, ularni adabiy tilga olib kirib, adabiy iste’molini yo‘lga qo‘yish muammoligicha qolib ketmoqda.

Bugungi kunlarda millatimiz istiqboli va kelajagi kuyunchaklari bo‘lgan ziyolilarimizning maktab, o‘rta maxsus ta’lim dargohlari, hatto, oliy o‘quv yurtini tamomlayotgan yoshlarimizning ona tilimiz bo‘lgan o‘zbek tilini yaxshi bilmaydi, degan ta’nayu da’volari to‘g‘riga o‘xshab qolyapti. Bir nechta xorijiy tilda biyron gapiruvchi farzandlarimiz ona tilida erkin fikr yuritolmasligi, turkiy o‘zbekcha milliy mental jihatlarimizni ifodaloqchi lisoniy birliklarni to‘laqonli anglab eta olmasliklari, ulardagi lug‘at boyligining juda ham g‘arib ekanligi ko‘zga tashlanib qolmoqda. Jamiyatimiz vakillarining, xoh u katta yoshda bo‘lsin, xoh yosh bo‘lsin kitob va asl milliy adabiyotdan begonalashuvi bir hovuchgina so‘zga andarmonligi, ular o‘rnida ajnabiy – begona til birliklarini qo‘llashlariga sabab bo‘ldi. Axir millatning eng birinchi va asosiy etnik ko‘rinishi uning tili emasmi?! To‘g‘ri, har bir millatning tamaddun tufayli unutilgan, iste’moldan chiqqan so‘zlari bo‘ladi. Ona tilimiz ham bundan holi emas. Ammo, nazarimda, tarix qatida qolgan, biz unutgan so‘zlar erdami yo ko‘kda qandaydir g‘azabnok porlayotgan ko‘zga o‘xshaydi.

So‘zning joni bo‘lmaganda odamni goh o‘ldirib, goh tiriltirarmidi? Atrofga bunday zakiy va teran zehn bilan qarang: kimningdir og‘zidan chiqqan, siz allaqachon aytmay qo‘ygan birgina shirin kalom vujudingizga nurday singib, beqiyos ruhiy quvvat baxsh etganini payqaysiz. Ana o‘shanda xotiraning qaysidir bir puchmog‘ida bolalikmi tirilib ro‘baro‘ keladi. Sizga qamti turgan o‘tmish bobo-momongizning ovozi kelganday bo‘ladi. Ha, unutilgan so‘z – duotalab ruh kabi.

Demak, fikr va mulohazalarimiz sirli ma’vo – so‘z saltanati, milliy til saltanati haqida bo‘ladi.

Turkistonda Sho‘ro hokimiyati zo‘rlik bilan o‘rnatilgandan so‘ng turkiy urug‘larning urf-odat va shevalarini o‘rganishga jiddu jahd bilan kirishiladi. O‘zak-mag‘zida mustabidlik mafkurasi yotgan bu intilishning xayrli tomoni ham bo‘ldi. Salkam bir asr mobaynida o‘zbek shevalari bo‘yicha o‘nlab nomzodlik va doktorlik ishi qilindi, minglab maqolalar yozildi, So‘zning joni bo‘lmaganda edi, odamni goh kuldirib, goh yig‘latarmidi?! Xalqona, biz allaqachon aytmay qo‘ygan, unitilish arafasidagi kalomni eshitsak, u sizu bizga beqiyos ruhiy quvvat baxsh etishini ilg‘aysiz. Ko‘z oldingizda butun bir moziy gavdalanadi. Ular bobolarimiz, momolarimiz o‘tmishining ovozi – tirik tariximiz. Zotan, o‘zbek xalqi milliy tiliga asos bo‘lgan mahalliy tillar – buyuk bir til va so‘z saltanati.

Fattoh Abdullaevning “Xorazm shevalari”, M.Mirzaevning “O‘zbek tilining Buxoro gruppa shevalari”, I.SHamsiddinovning “O‘zbek tilining Qorako‘l shevasi”, Sh.Nosirovning “O‘zbek tilining

Qo‘qon shevasi”, Q.Muhammadjonovning “Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi”, T.Yo‘ldoshevning “Tojikistondagi o‘zbek shevalari orfologiyasi”, A.Ishaevning “Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari”, S.Ibrohimovning “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi”, “O‘zbek tilining Andijon shevasi”, V.Egamovning “Samarqand oblastining G‘allaorol shevasi”, N.Rajabovning “O‘zbek tilining G‘arbiy Samarqand shevalari”, S.Rahimovning “O‘zbek tili Surxondaryo shevalari”, B.Jo‘raevning “YUqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari”, A.Shermatovning “Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari”, Bosim To‘ychiboev va Qozoqboy Qashqirlining “Zominning til qomusi” kitoblari xalqimiz bebaho boyligi bo‘lgan, adabiy tilimizning boyitish manbasi bo‘lgan o‘zbek shevalarini o‘rganishga bag‘ishlangan tilshunosligimizning eng xayrli ishlaridan hisoblanadi.

1930-40-50-60-yillarda turkiy urug‘larning urf-odat va shevalarini o‘rganishga jiddiy kirishildi. Bu ishlarning xayrli tomoni yuqoridagi ilmiy manbalar bizga me’ros bo‘lib qolganligidir.

O‘tgan asrning 30-40-yillaridan boshlangan izlanishlar natijasida o‘laroq “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” degan salmoqli to‘plam 1971-yilda ikki ming nusxada bosilib chiqadi. YAratilganiga salkam ellik yil bo‘lgan kitob esa o‘z bahosini olmadi, to shu kunga qadar bu kitob o‘zgarmadi. Millatimizning olti mingdan ziyod so‘z va iboralariga yana boshqalari qo‘shilmadi. Aslida xalq shevalarida yuz minglab til birliklari bor.

To‘plamda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘izistonning janubiy tumanlari hamda Qoraqalpog‘istonda yashovchi o‘zbeklarning qorluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalarida ishlatiladigan ayrim so‘zlar jamlangan xolos. Tanlab olingan areal ham, so‘zlovchilar ham juda katta. Ammo, shevashunos olimlarimiz tizimga solgan aksariyat so‘zlarningi lug‘atga kiritilmaganiga hayron bo‘lasiz, ular kiritilganda edi bugungi adabiy tilimizga ellik-oltimish yil mobaynida singib ketgan bo‘lardi.

Ma’lumki, dunyodagi katta va juda ko‘p tillar adabiy tili xalqning jonli so‘zlashuv tili asosida shakllangan. Zero, o‘zbek xalq shevalarida chinakam milliy ruh va mahalliy-milliy hayot nafasi yaqqol sezilib turadi.

Quyida Namangan viloyati sheva arealida keng iste’molda bo‘lgan lug‘aviy birliklardan ayrimlarini keltirishni lozim topdik: *madda* – sergap, vaysaqi, *oyg‘oq* – chaqimchi, *soyg‘oq* – piyoda, befoyda yuruvchi, *bo‘jama* (omonim) – yosh qizaloqlarning soch o‘rimi, husunbuzar, *jugal* – ikki labning tutashgan joyiga chiquvchi yara, *go‘micha/yignalovgich* – ko‘z mijjasiga bo‘rtib chiqadigan yara, *keskaltirik/kesatki/kalpista* – kaltakesak, *kirpi* – tipratikan, *jukum* – hafa, *tirriq* – hasis, qizg‘anchiq, *gupu* – to‘la (semiz), *muqamoq* – qiynalmoq, *ravi* – hiyol, bir zumda, *ozitqi* – yaxshi, xayrli ishdan qoldiruvchi va qaytaruvchi odam, *irganmoq* – jirkanmoq, *gangir/qang‘il* –anqov, *ko‘hmak* – ko‘m-ko‘k, *lozimat/yo‘ru/yo‘riq* – marosim, *mo‘ndi/yaloq* – kiyimi kir va iflos odam, *ocharmoq* – rangning ochroq tusga kirishi, *to‘qarmoq* – rangning to‘qroq holga kelishi, *hutum* – xazilkash va beozorlik bilan xazil qiluvchi kishi, *chorpoyli* – to‘ladan kelgan erkak kishi, *shop* – to‘y kuni kelinning ukasiga beriladigan sovg‘a. Bu kabi lug‘aviy birliklarning aksari adabiy tilda mavjud emas. Xalq shevalarida esa har bir harakat, vaziyat, holat, narsa-buyum va belgilarning aynan ifodalab bera oladigan ko‘rinishlari bisyor. Bugungi globallashuv davrida sizu bizning – barcha tilimiz jonkuyarlarining asosiy maqsad va vazifamiz – ularni milliy tilimiz birligi sifatida adabiylashtirishdir. Bugungi kunda bunday so‘zlar nafaqat viloyatlarda, balki mamlakatimizga chegaradosh o‘zbeklar istiqomat qiladigan sheva areallarida ham ishlatiladi.

Taklif va xulosa o‘rnida: milliy va adabiy ona tilimizga tegishli ilmiy manbalarni tilshunos tadqiqotchilarga, magistr va bakalavrlarga sidqidildan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” kitobini, Navoiy va Fitratning tilimiz ravnaqi haqidagi fikrlarini, F.Abdullaev (“Xorazm shevalari”), Qosim Muhammadjonov (“Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari”), Mullatoy Begaliev (“O‘zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi”), Anvar Bo‘ronov (“Oltoylar”), Saidmuso Rahimov ilmiy izlanishlarini... (bularni istalgancha davom ettirish mumkin) tanishtirib, o‘qitishga erishmog‘imiz zarur. Magistr va bakalavrlar uchun dialektologik ekspeditsiyalarni qayta yo‘lga qo‘yish lozim. Xalqimiz shevalari qarida tarixiy yozma yodgorliklarda qoldirilgan manbalardan ham ortiqroq o‘tmishimiz va tilimiz tarixiy belgilari yashirinib yotibdi. SHuning uchun ham tilimiz – shevalarimiz biz bilan yo‘ldosh bo‘lib yurgan tirik tariximizdir.

Dialektal lisoniy xususiyatlarni bolalar bog‘chasidan boshlab, o‘rta, maxsus va oliy ta’lim tizimida tarbiya va bilim oluvchi farzandlarimizga ularning til kompetentligini boyitish va rivojlantirishga, ular ongiga adabiy til me’yorlarini singdirish va nutq madaniyatini shakllantirish uchun dialektal sharoitlar bu jarayonlarga salbiy ta’sir etmaydigan usullar orqali amaliy tilshunoslik masalalarining dolzarbligini kun tartibi qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

XI-XII ASR YOZMA YODGORLIKLARIDA O‘G‘UZ TIL BIRLIKLARINING RADIATSIYASI

Atoullo Rahmatovich Ahmedov,
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Qarluq, o‘g‘uz, qipchoq qavm tillari orasidagi tipologik o‘xshashlik va farqlar turkiy tillarning tasnifiga bag‘ishlangan har bir tadqiqotning markazida turadi. Shuning uchun nafaqat o‘zbek tilida, balki boshqa guruh tillarida ham o‘zga qavm tillari ta’sirini aniqlash va sharhlash xalq tarixini, til birliklarining ifoda imkoniyatlarini o‘rganishda dolzarb muammo bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Chunki qadimgi davrlardan hozirgi kungacha yozuvchi va shoirlarning bu uch – bir-biriga yaqin lahja xususiyatlaridan foydalanish mahorati va natijasi masalaning muhimlik darajasiga mutanosib ravishda tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada XI-XII asr yozma yodgorliklari asosida o‘g‘uz til birliklarining qo‘llanish sabablari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘guz, qarluq, areal lingvistika, aruz, hijo, qofiya, bo‘g‘in.

Аннотация. Типологические сходства и различия карлукского, огузского и кыпчакского языков находятся в центре каждого исследования, посвященного классификации тюркских языков. Поэтому определение и интерпретация влияния иностранных языков не только на узбекский язык, но и на языки других групп было и остается актуальной проблемой в изучении истории народа, выразительных возможностей языковых единиц. Потому что умения и результаты использования этих трех тесно связанных диалектных особенностей писателей и поэтов с древнейших времен до наших дней не исследованы пропорционально важности вопроса. В данной статье на основе письменных памятников XI-XII веков объясняются причины использования единиц огузского языка.

Ключевые слова. Огуз, карлук, ареальное языкознание, аруз, хижо, рифма, слог.

Resume. Typological similarities and differences between the qarluq, oghuz, and kipchak languages are at the center of every study devoted to the classification of Turkic languages. Therefore, determining and interpreting the influence of foreign languages not only on the Uzbek language, but also on the languages of other groups has been and remains an urgent problem in studying the history of the people, the expressive possibilities of language units. Because the skills and results of using these three closely related dialect features of writers and poets from ancient times to the present day have not been researched in proportion to the importance of the issue. In this article, the reasons for the use of the units of the Oghuz language are explained based on the written monuments of the XI-XII centuries.

Key words. Oguz, qarluq, areal linguistics, aruz, hijo, rhyme, syllable.

Areal lingvistika til tarixi va uzoq tarixga ega adabiyot uchun katta yutuq sifatida yuzaga keldi va rivoj topmoqda. Areal lingvistika tushunchasi bir qaraganda yangi tushunchadek ko‘rinsa-da, ammo uning ilk alomatlari til – sheva paydo bo‘lgan davrga borib taqaladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur tahliliy ish XI-XII asr yozma yodgorliklari va ularda O‘g‘uz til birliklarini keltirilishini o‘rganish orqali turkiy lisoniy arealda O‘g‘uz til birliklari tarqalgan va amalda bo‘lgan hududlarni aniqlashda juda samarali natija ko‘rsatadi.

Areal lingvistika haqida gap borar ekan yana shuni yodda tutish kerakki, turkiy xalqlar va ularning tillari bir-biriga yaqin bo‘lganligi sababli hamisha qadim davrlardan XIX asrning oxirlarigacha o‘zaro katta qorishuvda bo‘lgan. Bu esa ilmiy izlanishlar davomiyligida nisbiy tushunchalarning ortishiga “xizmat qilgan”. Turkiy xalqning etnogenezi haqida aniq ma’lumot aytib bo‘lmaydi. Chunki turkiy xalqlarning o‘zaro aralashuvi juda kuchli bo‘lgan. Shuning uchun turkiyshunoslikda areologik tadqiqotlarga ehtiyoj juda katta. Areologik tadqiqotlar amalga oshirilib, turkiy areal atlas tuzilgach, har bir turkiy mintaqaning yozma yodgorliklari qayd etolmagan uzoq tarixi haqida so‘z yuritish mumkin. Tahlil jarayonida mazkur fikrimizni dalillar orqali oqlaymiz.

Hozirgi turkiy tillarning shakllanishi ko‘p holda turli qabila va elat lahjalarining qorishuvi natijasi bo‘lganligi sababli, qarluq guruhiga mansub tillarda (chunonchi, o‘zbek, uyg‘ur) o‘g‘uz va qipchoq lahjalarining, o‘g‘uz guruhi tillarida (chunonchi, ozarbayjon, turk, gagauz) qarluq va qipchoq lahjalarining, qipchoq guruhi tillarida (chunonchi, qozoq, qoraqalpoq, tatar) qarluq va o‘g‘uz lahjalarining salmog‘i tadqiqotchilarni hamisha qiziqtirib kelgan. Qarluq, o‘g‘uz, qipchoq qavm tillari orasida qat’iy tipologik farqlarning mavjudligi hech bir turkiyshunosda shubha tug‘dirmaydigan haqiqatdir.

Adabiy tilimizning butun tarixi davomida qarluq va o‘g‘uz til xususiyatlarining yonma-yon qo‘llanilishining bosh sababi, barcha turkiyshunoslarning, jumladan, o‘zbek adabiy tili tarixi bilan chuqur shug‘ullangan S.Mutallibov, G‘.Abdurahmonov, F.Abdullaev, E.Fozilov, A.Rustamov, X.Doniyorov,

B.O‘rinboev, U.Tursunov, S.Ashirboev, H.Dadaboev, A.Matg‘oziev, A.Muxtorov, U.Sanaqulov kabi tilshunoslarning fikriga ko‘ra, qarluq-uyg‘ur va o‘g‘uz qavmlarining o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lganligi, o‘zbek etnosi va uning tili shakllanishiga o‘g‘uz komponenti muhim tarkibiy qism bo‘lib ishtirok etganligidadir. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri va to‘laqonli asoslangan fikrdir. Lekin bu qarash, birinchidan “O‘zbek adabiy tilining butun tarixi davomida o‘g‘uz til birliklarining qo‘llanilishi nega bir xil emas?” degan savolga, ikkinchidan, “nima sababdan juda ko‘p holda me’yoriy qarluqcha til birliklari bilan ularning o‘g‘uzcha ko‘rinishlari yonma-yon qo‘llanib kelingan?” degan savolga javob berolmaydi.

XI-XII asrlar yozma yodgorliklarida qarluq, qipchoq va o‘g‘uz kabi turkiy qavmlar aralash yashaganlar. Shuning uchun turkiyshunoslar, jumladan, o‘zbek turkiyshunoslari bu davr tilini mushtarak til, ya’ni, qarluq-uyg‘ur, o‘g‘uz va qipchoq lisoniy birliklarining bir-biridan keskin farqlanmasdan qo‘llanish davri va tili sifatida baholaganlar. Shuning uchun bu davr yozma manbalari bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Adib Ahmadning “Hibat ul-haqoyiq” asarlarida qarluq-uyg‘ur, qipchoq va o‘g‘uz leksik-fonetik shakllarining aralash qo‘llanilganligini ko‘ramiz.

Mushtarak holatlar:

Kezin o‘ngdin ermaz ya so‘ldin o‘ngun,
Ya astin, ya ustun, ya o‘tru o‘run [6, 66].

So‘ngakka ilikdir, erang‘a bilik,
Biliksiz eran ul so‘ngaksiz ilik [1, 50].

Bu Bug‘raxan vaqti ichra ani,
Yema xan tilincha bu etmish muni [6, 52].

Keltirilgan misollardagi o‘g‘uz leksik-fonetik shakllari (so‘l, ilik, etmoq) o‘rnida uning qarluqcha variantlari (yilik, qilmoq) qo‘llanilsa, she’riy shakl yoki mazmunda hech qanday o‘zgarish bo‘lmas edi.

Mahmud Koshg‘ariy “Kuzaku uzun bo‘lsa, alik kuymas” [4.II,55] maqolini keltiradi. Bu maqolni keltirib, o‘g‘uzlardan olganligini ta’kidlamaydi. Bu maqolda ishlatilgan alik shakli maqolning o‘g‘uzlardan olinganligiga ishorat qilib turibdi.

Teshik inju yerda qolmas [4.II,37]. Yuqorida keltirilgan maqol singari bu maqolda ham inju shakli uning o‘g‘uzlarga tegishli ekanligini ko‘rsatib turibdi. Bu esa qarluq til birliklari bilan birga o‘g‘uz shakllarining ham adabiy me’yor sifatida qo‘llanganligidan dalolat beradi.

Ammo ushbu davr yozma manbalari tilida turli turkiy dialektlarning til birliklari aralash, ma’lum bir me’yorga amal qilmay qo‘llanilgan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Aks holda, Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devon” ida qarluq va o‘g‘uz dialektlarini muttasil farqlab bormas edi (chunonchi, Mahmud Koshg‘ariy yinju shakli turklarga (ya’ni, adabiy til – hoqoniy tiliga – eski turkiy adabiy tiliga), inju shakli esa o‘g‘uz tiliga xos ekanligini alohida uqtirib o‘tadi [4.I,67]).

Bundan biz xulosa qila olamizki, bu davrda yaratilgan asarlar tilida o‘g‘uz leksik-fonetik shakllari mushtarak holatda qo‘llanilgan. Qarluqlar va o‘g‘uzlar aralash holda yashagan sharoitda bunday shakllar, albatta, tabiiydir.

Lekin o‘zbek adabiyoti ming yillik tarixida nazm nasrdan ustunlik qilib keldi. Nazmda esa mohiyatan metrik tabiatli aruz vazni hukmron edi. Aruz vaznida, xususan, turkiy nazmda bo‘g‘inning cho‘ziq/qisqaligi ko‘p holatda uning ochiq va yopiqligi bilan belgilanadi va o‘g‘uz unsurlari yopiq bo‘g‘inni ochiqqa, ochiq bo‘g‘inni yopiq bo‘g‘inga aylantirishining eng qulay vositalaridandir. Shuning uchun bu davr yodgorliklarida ham o‘g‘uz unsur va ko‘rinishlarining vazn va qofiya talablari bilan qo‘llanishi keng tarqalgan:

1. Yopiq bo‘g‘inni ochib, cho‘ziq hijoni qisqa hijoga aylantirish uchun;
2. Ochiq bo‘g‘inni yopib, qisqa hijoni cho‘ziq hijoga aylantirish uchun;
3. Qofiyani ta’minlash uchun;
4. Rukndagi hijolar sonini tenglashtirish uchun;
5. O‘ta cho‘ziq hijoni oddiy cho‘ziq hijoga aylantirish uchun.

Vazn unsurlariga ko‘ra

a) cho‘ziq hijoni qisqa hijoga aylantirish uchun:

Qara chumg‘uq utti suta tumshuqi,
Uni o‘g‘lag‘u qiz uni-teg taqi [6, 74].

Aruzning mutaqoribi musammani mahzuf tarmog‘ida yozilgan bu baytda utti o‘g‘uz shakli rukndagi cho‘ziq hijoning qisqa hijoga o‘tishida ishtirok etgan. Chunki ushbu so‘zning yutti qarluq tillariga xos bo‘lgan shakli qo‘llanilganda, bu so‘zdan oldingi hijo (-g‘uq) cho‘ziq bo‘lardi. Vaznda esa yutti so‘zidan oldingi hijo qisqa bo‘lishi kerak. Shuning uchun shoir bu so‘zning o‘g‘uz shaklini (utti) qo‘llab, oldingi hijoning qisqa bo‘lishini (chum-g‘u-qut-ti) ta’minlagan.

Yana bir misol:

Koʻni soʻz asalteg, bu yalgʻan-basal,

Basal yeb achitma agʻiz, ye asal.

Bu yalgʻan soʻz igteg, koʻni soʻz –shifa,

Bu bir soʻz oʻzagʻi urulmish masal [1,72].

Aruzning mutaqoribi musammani mahzuf tarmogʻida yozilgan bu toʻrtlikda oʻgʻuz leksik-fonetik shakli boʻlgan igteg soʻzi oʻzidan oldin kelgan “soʻz” lafzining vaznga mos boʻlishini (soʻ-zig-tek) ta’minlagan.

Turkiyshunos olimlarning ma’lumotlariga qaraganda, son soʻz turkumiga mansub (e)ikki, yetti, sekkiz, toʻqqiz, ellik kabi shakllar qarluq lahjasiga va ularning muqobili boʻlgan (e)iki, yeti, sekiz, (d)tOʻquz, (a)elli kabi shakllar oʻgʻuz lahjasiga tegishlidir.

“Qutadgʻu bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”asarlarida bu soʻzlarning har ikkala koʻrinishi ham uchraydi. Chunki (e)iki, yeti, sakiz, toʻquz oʻgʻuz koʻrinishlari vaznda bir qisqa, bir choʻziq hijoga teng va (e)ikki, yetti, sakkiz, toʻqqiz qarluqcha shakllari esa ikki choʻziq hijoga teng keladi. Bularning oʻzaro almashinishi mumkin emas va qanday shaklning qoʻllanilishi, albatta, vazn talabi bilan belgilanadi:

Bularda eng ustun Sekantir yurir,

Eki yil sekiz ay bir evda qalir [6, 80].

Keltirilgan baytda eki, sekiz oʻgʻuz koʻrinishi vazn talabi asosida qoʻllanilgan. Ya’ni, aruzning mutaqoribi musammani mahzuf tarmogʻida yozilgan bu baytning beshinchi va oltinchi ruknlari birinchi hijolarining qisqa boʻlishini taqozo qilgan. Ikkilangan undoshlarga misollar keltirilgan bu baytlarda esa, sanoq sonlarning ikkilanganlik deminantalar bilan qoʻllanilishi ham hijolar xususiyatlari bilan bogʻliqdir.

b) rukndagi hijolar sonining teng boʻlishida:

Koʻturdi sav altun kumush nang tavar,

Ayur oʻz mungadsa menga bu yarar [6, 130].

Keltirilgan baytga e’tibor qilsak, oʻgʻuz shakli (tavar) rukndagi hijolar sonining tengligini va qofiyaning toʻliq boʻlishini ta’minlagan. Chunki aruzning mutaqoribi musammani mahzuf tarmogʻida yozilgan ushbu baytda bu soʻzning qarluqcha varianti boʻlgan mol (buyum) shakli mutlaqo boshqa rukn va qofiyani talab qiladi.

Qofiya unsuriga koʻra:

Elig koʻz qulaq tutti elda qamugʻ,

Achildi angar barcha beklig‘ qapugʻ. [6, 122].

Keltirilgan bu baytda qofiya talabi asosida oʻgʻuz til birligi boʻlgan qapugʻ soʻzi qoʻllanilgan. Shu oʻrinda eshik qarluq shakli qoʻllanilganda edi, birinchi misradagi qamugʻ soʻziga qofiyalana olmas edi.

Umuman olganda, oʻzbek xalqi va uning adabiy tili ma’lum bir tilning (bobo tilning) divergentsiyasi asosida emas, balki qarluq qavmlari va tilining yetakchiligida uygʻur, oʻgʻuz, qipchoq kabi turkiy qavmlarning tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va lisoniy konvergentsiyasi asosida shakllangan. Bu konvergentsiya jarayonida hosil boʻlgan oʻzbek xalqi va adabiy tili qator noturkiy etnoslarni, jumladan, eroniy, arabiy, moʻgʻul urugʻ va qavmlarni oʻziga singdirgan. Bu konvergentsiya tarixiy haqiqat ekanligi hozirgi oʻzbek xalq shevalarining boʻlinishlarida, hozirgi Oʻzbekiston hududida oʻzbekcha-tojikcha, oʻzbekcha-arabcha, oʻzbekcha-turkmancha, oʻzbekcha-qozoqcha, oʻzbekcha-qoraqalpoqcha, oʻzbekcha-qirgʻizcha ikki tillilikning mavjudligida va oʻzbek xalq shevalari ichida oʻgʻuz va qipchoq lahjalarining mavjudligida oʻz aksini topadi. oʻgʻuz lahjalariga mansub shevalarning Oʻzbekistonning butun hududida tarqalganligi, oʻzbek etnosi va adabiy tilning shakllanishida oʻgʻuz komponenti ham muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Yugnakiy. Hibbatul haqoyiq. (Q.Mahmudov nashri) T.: Fan, 1972. – 301 b.
2. Akhmedov A. R., Sevara P. Theoretical and practical issues of creating uzbek areal linguistics //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 12. – C.142-146.
3. Akhmedov A. R., qizi Poʻlatova S. M. O ʻzbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish //Conferences. – 2021.
4. Koshgʻariy M. Devonu lugʻotit turk. I tom.T.: Fan, 1960. 622 b; II tom. T.: Fan, 1961. – 428 b;
5. Rahmatovich A. A. Poʻlatova S.M. Vobkent tumani shevasida soʻzning morfemik tarkibi //scientific reports of bukhara state university. – c. 123.
6. Yusuf xos Hojib. Qutadgʻu bilig. Q. Karimov nashri. T.: Fan, 1972.

XORAZM VILOYATI O‘ZBEK SHEVALARINI AREAL O‘RGANISH MUAMMOLARI

Alimova Shahnoza Maqsudovna,
Urganch davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyati o‘zbek shevalarining areal o‘rganishning nazariy hamda amaliy asoslari haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, areal tadqiqning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: sheva, lahja, o‘zbek shevalari, areal tadqiq, Xorazm shevalari, Xorazm viloyati o‘zbek shevalari.

Hozirgi kunda o’zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san’at sohalarida faol qo’llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 4-oktabr kuni “Davlat tili haqida”gi qonunning 30 yilligini munosib nishonlash to’g‘risida”gi qarorida o’tgan yillar davomida ona tilimiz mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo’lgani qayd etiladi. Bundan tashqari, 80 ming so’zni o’z ichiga olgan 5 jildlik “O’zbek tilining izohli lug‘ati”ning nashr etilishi, 100 tomlik o’zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarining nashriga kirishilgani, respublikadagi gazeta va jurnallarning soni 2 mingdan oshgani va nihoyat O’zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o’rni va nufuzini oshirish bo’yicha keng ko’lamli ishlar amalga oshirilgani, xususan, so’nggi yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilgani ona tilimizning tarixiy ildizlarini chuqur o’rganish, uni ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish va qo’llanish doirasini kengaytirish, filolog kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarni yangi pog‘onaga ko’tardi.[1]

Bu masalada J.Eltazarovning quyidagi so’zlari muhim ahamiyatga ega: “Millat sifatida uyushmaganimizning asosiy sabablaridan biri ham so’zlarimizning umumiy mulkka aylanmaganidadir. Shevalarni mensimaslik, adabiy tilning bebaho boyish xazinasini tan olmaslik fenomeni asosida ham ana shu hol yotibdi. Ziyolilarimiz va farzandlarimiz chet tillarga chechan, xorijiy so’zlarning aslini ham biladi, ammo ona tilining jozibasini, uning tirikligini ta’minlab turgan xalqona so’zlarni bilmaydi. O’zbek xalq shevalarida ruh bor, hayot nafasi ufurib turadi, u milliy tilimizning jonli shakli, axir! Keyingi paytda o’zbek shevalarini o’rganish va uning boyliklarini to’plash va nashr qilish borasida birmuncha ishlar amalga oshirilgan bo’lsa-da, biz o’zbek tilshunoslari va o’zbek intelligensiyasi zamonaviy tushunchalarni ifodalash uchun shevalarning boyligini adabiy tilga transformatsiya qilishni uddasidan chiqmadik. Xullas, til siyosati va til o’qitish borasidagi keyingi 30 yillik tajribalarimiz, xato va kamchiliklarimizdan xulosa chiqarib, o’zbek tilini jamiyatimiz hayotida ustuvor qilish va uni ilmiy texnologiyalar tiliga aylantirish uchun qo’limizdan kelgan barcha ishlarni amalga oshirishimiz lozim”[2].

Keyingi yillarda ona tilimiz har tomonlama ravnaq topib, huquqiy maqomi mustahkamlanishi bilan birgalikda qo’llanish doirasi kengayib bormoqda. Istiqlol yillarida milliy o’zlikni anglashda, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalarni tadqiq etishda, bugungi kunda jahon iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy yutuqlari bilan tanishishda ona tilimiz ko’prik vazifasini o’tashi bilan birgalikda jamiyat tafakkuri shakllanishiga ham o’z hissasini qo’shmoqda. Shu bilan birga, adabiy tilimizning bir bo’lagi hisoblangan o’zbek dialektlari bo’yicha bugungi kunda fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish, turkiy tillar ichida eng boy, rang-barang lahjalarga ega bo’lgan o’zbek shevashunosligi bo’yicha ilmiy ekspeditsiya va izlanishlarni uzviy amalga oshirish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi O’zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil qilinganligi ayni muddao bo’ldi. Aytish kerakki, sheva va lahjalarning ko’plab lisoniy birliklarida tilimizning qadimiy va ko’hna xususiyatlari hamon saqlanib kelmoqda. Ularda xalqimiz tarixi, etnografiyasi, madaniyati va ma’naviyatining ko’plab qirralarini o’zida yorqin ifoda qilgan noyob dalillar bor. Xorazm shevalarini hozirgi o’zbek adabiy tili bilan qiyoslab o’rganish birgina shevashunoslik uchun emas, balki bir qator turkiy tillar dialektologiyasi uchun ham ilmiy qimmatga ega.

[1] Элтазаров Ж. Она тилимизнинг жозибаси шеваларда. – Самарқанд, 2020. https://www.facebook.com/2127795750570043/posts/3693749297308006/

[2] Элтазаров Ж. Она тилимизнинг жозибаси шеваларда. – Самарқанд, 2020. https://www.facebook.com/2127795750570043/posts/3693749297308006/

O’zbek xalq shevalarini o’rganish sohasida rus tilshunosligida Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, V.V.Reshetov va boshqa olimlarning xizmatlari benihoya katta ahamiyatga ega[1]. O’zbek dialektologiyasida o’zbek xalq shevalarini dialektal aspektda o’rganish masalasi XX asr boshlaridan boshlangan. O‘zbek xalq shevalarini areal aspektda o‘rganish esa XX asr 2-yarmidan boshlandi. Xorazm shevalarining tadqiqotchisi Fattoh Abdullayev ilmiy ishlari[2] o’zbek adabiy tilining tarixi, dialektologiyasi, leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, shuningdek, badiiy nutq masalalariga bag‘ishlangan. F.Abdullayev Xorazm shevalarini tadqiq qilib, ularning dialektologik xaritasini tuzgan va tasnifini bergan.

A.Ishayev tadqiqotlarida, asosan, Qoraqalpog‘istondagi o’zbek shevalari o’rganilgan bo’lishiga qaramay, shevalarning tarqalish areali hamisha ma’muriy bo’linishlarga muvofiq bo’lmasligi e’tiborga olinsa, undagi materiallar, xususan, Qoraqalpog‘iston hududidan to’plangan faktlar Xorazm shevalari tadqiqi uchun ham obyekt bo’la oladi. Olimning “Qoraqalpog‘istondagi o’zbek shevalari” monografiyasi[3], unda berilgan lug‘at bugungi kunda ayni shu sheva vakillari nutqida ham kam ishlatiladigan, deyarli iste’moldan chiqib ketgan ayrim so’zlarni o’zida aks ettirgani bilan ahamiyatlidir.

Xorazm viloyatidagi o‘zbek shevalari anchagina tadqiq qilingan bo’lishiga qaramay, Xorazm shevalari leksikasi va grammatikasi tizimli ravishda dialektal tarzda ko‘p o‘rganilgan bo‘lsa-da, areal jihatdan hali tadqiq etilmagan. Bu masala ayrim olimlar tomonidan umumiy tarzda yoki yo’l-yo’lakay tilga olingan, xolos.

Xorazm shevalarini areal o‘rganish muhim ahamiyati shundaki, Xorazmda og‘uz va qipchoq lahjasi vakillari istiqomat qiladi. Har ikkala lahja vakillari aralashuvi natijasida esa Xorazmda oraliq lahja ham yuzaga kelgan. Bu esa o‘z-o‘zidan Xorazm viloyati o‘zbek shevalarini arealini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xorazm viloyati aholisining asosiy qismi o‘g‘uz lahjasida muloqot qiladi. Xorazm viloyatining deyarli barcha (Xiva, Urganch, Xonqa, Xazorasp, Bog‘ot, Qo‘shko‘pir, Shovot, Yangiariq) tumanlarida o‘g‘uzlar istiqomat qiladi.

Til xususiyatlariga ko’ra o’zbek tilining qipchoq lahjasiga mansub kishilar esa Xorazm viloyatining Gurlan, Yangibozor, shuningdek, Shovot va Bog‘ot tumanlarining ayrim qishloqlarida yashaydilar. Mazkur shevalar ayrim lingvistik belgilariga ko’ra bir-biridan ma’lum darajada farqlanadi. Shu sababli tadqiqotchilar ularni Beruniy-Mang‘it, Xo’jayli-Qipchoq va Qo’ng‘irot shevalari deb tasnif qiladilar. Ushbu tasnifda Xorazm viloyati hududida joylashgan Gurlan-Yangibozor shevalari, shuningdek, boshqa tumanlardagi sheva vakillari e’tibordan chetda qolgan. A.Ishayev bu shevalarning to’liq tasnifini boshqa bir ishimizda mufassal yoritamiz[4], deb qayd qilgan bo’lsa ham, negadir keyinchalik olimning bu masalaga bag‘ishlangan tadqiqotini uchratmadik.

Aynan shuning uchun ham Xorazm viloyati o‘zbek shevalarini areal o‘rganish ehtiyoji mavjud bo‘lib, bu ko‘p shevali Xorazm viloyati o‘zbek shevalarini dialektal atlasini yaratish uchun zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961.–348 б.
2. Боровков А.К. Ўзбек шева-лаҳжаларини текширишга доир савол-жавоблар. – Тошкент, 1944. – 11 б.
3. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 176 б.
4. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933.– 45 с.
5. Решетов В.В.Кураминские говоры Ташкентской области (фонетическая, морфологическая система): Автореф. дисс...д-ра филол.наук. – Ташкент:1951. – 20 с.
6. Элтазаров Ж. Она тилимизнинг жозибаси шеваларда. – Самарқанд, 2020. https://www.facebook.com/2127795750570043/posts/3693749297308006/
7. Юдахин К.К. Некоторые особенности Карабулакского говора/Ўзбек диалектологиясидан материаллар, Т 1. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б.31-57

[1] Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933.– 45 с.; Боровков А.К. Ўзбек шева-лаҳжаларини текширишга доир савол-жавоблар. – Тошкент, 1944. – 11 б.; Юдахин К.К. Некоторые особенности Карабулакского говора/Ўзбек диалектологиясидан материаллар, Т 1. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б.31-57; Решетов В.В.Кураминские говоры Ташкентской области (фонетическая, морфологическая система): Автореф. дисс...д-ра филол.наук. – Ташкент:1951. – 20 с.

[2] Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961.–348 б.

[3] Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 176 б.

[4] Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент, 1977. – Б.5.

NAVOIY VILOYATI O‘ZBEK SHEVALARINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARIGA DOIR

Navro‘z Raxmonov,
f.f.f.d. (PhD)

Navoiy viloyati dialektal lisoniy muhitining hozirgi holatini o‘rganishda mazkur hududda tarqalgan o‘zbek shevalarining morfologik xususiyatlarini areal o‘rganish o‘zbek tili grammatik qurilishining lisoniy tabiatini belgilash uchun qimmatli materiallar berishi shubhasiz. Mazkur hudud o‘zbek shevalarida morfologik shakllarni qo‘llashda o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu, albatta, u yoki bu sheva tarqalgan hududning joylashish o‘rni, tarixiy sharoitlari, etnik xilma-xillik, aholi migratsiyasi, shuningdek, qo‘shni hudud o‘zbek shevalarining ta’siri kabi omillar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Mazkur hudud o‘zbek shevalarida morfologik shakllarni qo‘llashda o‘zbek tili va boshqa o‘zbek shevalaridan ma’lum darajada farqlanadigan xususiyatlarni so‘z turkumlarining grammatik formalarida, sheva so‘zlarining fonetik va morfologik tuzilishida, yasalishida ham ko‘rish mumkin. To‘plangan lisoniy dalillar tahlili o‘zbek shevalari o‘zida tilning ko‘plab fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarini saqlab kelayotganini ko‘rsatdi.

Har bir dialektning ma’lum darajada o‘ziga xos morfologik xususiyatlari mavjud. Shu bilan birga, muayyan lahjaga oid bo‘lgan ayni xususiyatlarning barcha dialektlar uchun umumiy bo‘lgan jihatlari ham borki, bu hududlarning tarixiy sharoiti, qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarning ta’siri kabi omillar bilan izohlanadi. Buni Navoiy viloyati o‘zbek shevalari materiallari ham to‘la tasdiqlaydi.

Navoiy viloyati o‘zbek shevalarida kelishik qo‘shimchalarining qo‘llanishida o‘zbek adabiy tilidan farqlanadigan ba’zi jihatlar mavjud. Jumladan, qarluq va aralash tipli shevalarda qaratqich va o‘rin-payt kelishiklari barqaror emas. Boshqa qarluq tipli shevalardagi singari, qaratqich kelishigi vazifasida tushum kelishigi shakli, o‘rin-payt kelishigi shakli vazifasida ko‘pincha jo‘nalish kelishigi shakli qo‘llaniladi.

Viloyatning qarluq tipli shevalarida u yer, bu yer, shu yer kabi o‘rin ravishlari -a jo‘nalish kelishigi shakli qo‘shilganda be:ra, she:ra tarzida ko‘rinish oladi. Bu shakl Buxoro viloyati shevalarida keng tarqalgan bo‘lib, aslida o‘g‘uz tipli shevalarning ta’sirida paydo bo‘lgan. Qiziltepa, Karmana, Navbahor tumanlarining qarluq tipli shevalarida ko‘pincha o‘rin-payt kelishigi shakli -da o‘rnida jo‘nalish kelishigi shakli -ga qo‘llaniladi: ko‘chada o‘ynamoq // ko‘chaga o‘ynamoq kabi. Bu hodisa Samarqand, Buxoro, Qarshi, Kattaqo‘rg‘on, Urgut, Shahrisabz shevalarida ham keng tarqalgan.

Tadqiq etilayotgan hudud shevalarida hozirgi zamon davom fe’li shaklining -(a)yəp, -(a)yɔp shakllari mavjud. Viloyatning qarluq tipli Qiziltepa, Karmana tumanlaridagi qishloq shevalarida hozirgi zamon davom fe’li shaklining -ɔp // -yɔp shakllari keng qo‘llanadi. Hozirgi zamonning bu shakli qo‘shni Buxoro viloyati shevalari uchun ham xos bo‘lib, hududlarning o‘zaro ta’siri natijasida yaxlit sheva chizig‘ini hosil qilgan.

Navoiy viloyatining qipchoq tipli ba’zi shevalarida, jumladan, Nurota tumanining Qizilcha, Cho‘ya, Soykechar, Baroq, Qadoq, Ajrim, Chashma, Eski qishloqlarida; Xatirchi tumanining Xonaqa, Bo‘g‘irdoq, Polvonota, Kapa, Simitan, Oltinsoy, Maydonsoy, Toroma, Sayyod kabi qishloqlari shevalarida kuchaytiruv-ta’kid yuklamasining -qu, -g‘u shakllari uchraydi: bordi-qu, aytti-g‘u kabi. Ba’zan –ku yuklamasi II shaxs buyruq maylidagi fe’lga ham birikadi: Qarang-ku (Toshrabot q.)

Navoiy viloyatiniing qipchoq tipli aksariyat shevalarida qanikey, anakey, manakey // manakay olmoshlari tarkibida -key / -kay kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi uchraydi.

-dani / -dag‘in yordamchisi viloyatning qipchoq tipli shevalarida biriktiruv bog‘lovchisi vazifasini bajaradi: *Bozorg‘a bordidani bitta ena-bola siyir oldi.* shevalarda biriktiruv bog‘lovchisi vazifasida qo‘llanadi. Bu shakl qadimgi turkiy tildagi biriktiruv bog‘lovchisi (dag‘i) bo‘lib, qipchoq shevalarida saqlanib qolgan. Yuqoridagi kabi lisoniy dalillar juda ko‘p bo‘lib, shevalar tilning ko‘hna holatini hali-hamon o‘zida saqlab kelayotganini tasdiqlaydi. Biz shevalar morfologiyasiga doir 40 dan ortiq xaritalar yaratdik va ularda sheva hodisalarining tarqalishini tasvirladik.

Navoiy viloyati o‘zbek shevalari morfologik xususiyatlarini o‘zida ifodalagan xaritalar tadqiq etilayotgan hududning lisoniy tabiatini aks ettirishi bilan birga hudud shevalarining ichki tasnifini berishga, morfologik hodisalarning tarqalish areallarini belgilashga imkon berdi. Kelajakda bunday ilmiy tadqiqotlarni boshqa o‘zbek tilli hududlarda ham olib borish natijasida yaratilajak lingvistik xaritalarning o‘zbek tili va shevalarining grammatik tabiati xususida to‘laqonli tasavvur bera olishiga shubha yo‘q.

OZARBAYJON SHEVALARIDA O‘ZLASHGAN LEKSIK QATLAM

Norova Gulsanam Maxsutovna,
Navoiy davlat pedogogika instituti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbek va ozarbayjon tillari leksikasida makon-zamon ma’nosining ifodalanishi badiiy nutq misolida o‘rganilganda, umumturkiy leksik birliklarning faol qo‘llanishi bilan bir qatorda, o‘zlashma leksemalarning ham fol qo‘llanishda ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: frazeosemantik guruhlar, qiyosiy-tipologik, frazemalar, lingvistik, qiyosiy-chog‘ishtirma, frazeologik modellar, struktural-tipologik.

Umumturkiy so‘zlar o‘zbek tili leksikasining eng qadimgi lug‘aviy biriklari bo‘lib qolmasdan, ularning askariyati hozirgi ozarbayjon tillarida ham saqlangan. Leksika sohasida qiyosiy-chog‘ishtirma, struktural-tipologik va areal tadqiqotlar olib borish leksikayaning umumnazariy muammolarini hal etishga keng yo‘l ochadi. Umuman, leksik birliklarning shakllanish manbalarini aniqlash turg‘un birikmalarni etimologik tahlil qilishga nisbatan ancha keng mazmunga ega, bu umumfilologik muammo bo‘lib, eng qadimgi, dastlabki so‘zlarning, frazeologik modellarning shakllanish bosqichlarini aniqlash muhim lingvistik masala sanaladi. So‘nggi paytlarda turkiyshunoslar xuddi ana shunday dolzarb muammoni tadqiq etish bilan ham shug‘ullana boshladilar.

O‘zbek va ozarbayjon tillaridagi leksik birliklarni semantik va struktur jihatdan tahlil qilish, shakl va mazmun mutanosibligiga e’tibor qaratish, semalarning so‘z va frazemalarda aks etish darajasini aniqlash turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti xususida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Shuningdek, makon va zamon masalalari tahlil qilingan lingvistik tadqiqotlarda ushbu kategoriyalarning yuzaga kelish yo‘llariga keng e’tibor qaratilgan. Bunga sabab har qanday narsa va hodisaning makon va zamonda mavjud bo‘lishi, makon va zamon materiyaning mavjudlik shakli ekanligi, materiyadan ajralmasligidadir.

O‘zbek va ozarbayjon tillarida makon-zamon tushunchasini ifodalovchi lingvistik birliklar monografik planda o‘rganilgan, ushbu monografiyada makon-zamon tushunchasi qiyosiy-tipologik tarzda tahlilga tortildi.

Ozarbayjon shevalarida vaqt, makon, zamon semalarini o‘rganish natijasida tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, frazeosemantik guruhlarga dunyo, koinot va tabiat kiradi. Osmon, dunyo, koinot so‘zlari o‘rtasida kesishuv mavjudligiga guvoh bo‘lish mumkin. Ular quyidagicha ifodalanadi:

1. Dunyo, olam va tabiat frazeosemantikasi mikromaydonidan iborat tuzilma: *yetti iqlim, quyosh ostida, tabiat qo‘ynida, ochiq osmon ostida.*

2. Dunyo, koinot va hamma joy, hamma joyda iboralar semantik mikromaydondan iborat tuzilma: *keng dunyo, yengil dunyo, dunyo bo‘ylab, butun dunyodan, yer bilan osmon orasida* kabilar.

Frazeosemantik mikromaydonlar o‘zaro bir-biriga antonimlik munosabatida bo‘ladi.

1. Uzoq va yaqin frazeosemantik mikromaydonlar antonimligi:

qo‘l yetarli emas joy – ikki qadam, ba qadam.

2. Nisbatan uzoq va nisbatan yaqin bo‘lgan frazeologik mikromaydondan iborat antonimlik:

dunyoning u boshida –eshik og‘zida;

dunyoning oxirida – qulog‘ingizning pastki qismida;

dunyoning omon qolgan joyi – burunning uchida;

Allohu Akbar eshitilmaydigan joy – og‘iz ichidadir Ollohu Akbar.

3. Aniq joy va yashirin joy ma’nosini ifodalovchi frazeologik antonimlik:

Ko‘rinar-ko‘rinmas – ko‘z oldida.

Makonni bildiruvchi frazeologik birliklarning aksariyati ikki komponentdan tuzilgan, ba’zilari esa uch va yoki to‘rt so‘zning sintaktik munosabatiga asoslanadi.

Ikki komponentli frazeologik birliklar:

– *qo‘ltiq ostida;*

–*quloqning tagida;*

– *bosh uchida;*

– *bosh tepasida.*

Uch komponentli frazeologik birliklar:

– *dunyoning qutqaruvchi joyi;*

– *bu dunyoning boshi;*

– *do‘zaxning issiq burchagi* va boshqalar.

To‘rt komponentli frazeologik birliklar:

– *qo‘l yetarli bo‘lmagan joy;*

– *aholi yashamaydigan dasht-u biyobon;*

– *Allohu Akbar eshitilmaydigan joy;*

– *Xudoning nazaridan uzoqda joylashgan.*

Makonni bildiruvchi frazeologik birliklar grammatikasini uning tuzilishiga ko‘ra tasniflash qiyin, chunki frazeologik birliklar tuzilishi va semantikligi jihatdan bir butundir. Grammatik jihatdan makonni bildiruvchi frazeologik birliklarni shakllanishi tufayli quyidagicha guruhlash mumkin:

1) Sifat+ot modelli;

2) Ot + ot modelli;

3) Olmosh+ot modelli;

4) Ot + yordamchi so‘z modelli;

5) Son modelli.

Ushbu modellar asosida shakllangan makon uzvli frazeologik birliklarning bir necha turlari mavjud. Yuqorida aytib o‘tilgan model va biz turlari bo‘yicha guruhlangan frazemalar ham ma’lum guruhlarga bo‘linadi.

1. Sifat+ot modelli frazeologik birliklarning turlari:

a) sifat +ot:

– *keng dunyo;*

– *abadiy dam olish uyi;*

b) ko‘chma ma’noli sifat + ot:

– *ochiq havoda;*

– *ochiq osmon ostida;*

– *yengil dunyo.*

2. Ot + ot modelli frazeologik birliklar:

– *jannat bog‘i;*

– *tabiat qo‘ynida;*

– *olovlar mamlakati.*

3. Olmosh+ot modelli frazeologik birliklar:

– *o‘sha dunyo;*

– *har biri harakat ostida* .

4. Ot + yordamchi so‘z modelli frazeologik birliklar:

– *qo‘l/i ostida;*

– *iyak ostida;*

– *yer osti;*

5. Son modelli frazeologik birliklar:

– *to‘rt devor ichida;*

– *bitta tomning ostida;*

– *yetti iqlim;*

O‘zbek va ozarbayjon tillari leksikasida makon-zamon ma’nosining ifodalanishi badiiy nutq misolida o‘rganilganda, umumturkiy leksik birliklarning faol qo‘llanishi bilan bir qatorda, o‘zlashma leksemalarning ham fol qo‘llanishda bo‘lishi aniqlandi.

O‘zbek-ozarbayjon madaniy aloqalarining bir ko‘rinishi bo‘lgan, bir bobo til zamirida shakllangan ikki tilning asrlar osha do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlab borishi uchun ushbu ma’naviy merosni asrab-avaylash, hali o‘rganilmagan jihatlarini qiyosiy tarzda tadqiq etish muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev F. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. – T.: Fan, 1978. – 144 b.

2. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. –T.: O‘qituvchi, 1982. – 168 b.

3. Abdurahmonov D. Qarluqlar va ularning tili. // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1987. – 6-son. – B. 30-56.

5. Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – T., 1969. – 168 b.

6. Ishayev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. – T., 1977. – 175 b.

7. Kosmos tushunchasining lingvistik ifodalarining boyligi va xilma-xilligi // - Boku: Til va adabiyot, Boku davlat universiteti, -2017 yil.

8. Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar lug‘ati (Devonu lug‘otit turk). – T., 1960. T.1. – 499 b., 1960. T.II. – 427 b., 1963. T.III. – 466 b.

9. Muhammadjonova G. O‘zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba’zi masalalari. – T.: Fan, 1982. – 88 b.

10. Nosirov Sh. O‘zbek tilining Qo‘qon shevasi. – T.: Fan, 1980. – 176 b.
11. Odilov M. Qiziqarli tilshunoslik. Boku: Fan va ta’lim, 2014 yil, 324 va boshqalar.
12. Ozarbayjon tildan tushuntirish lug‘at (tahrir: prof. A. Oxundov), 3 jildda. II asr, Boku: Chirag, 1999 yil
13. Ozarbayjoncha – o‘zbekcha,O‘zbekcha –ozarbayjoncha lug‘at.Baki-“Savad” -2019.

DIALEKTIZMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Yuldashev Jo‘rabek Uralovich,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada Usmon Nosir she’rlarida dialektizmlarning lingvopoetik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: dialekt, dialektizm, leksik dialektizm, etnografik dialektizm, semantik dialektizm, poetik jozibadorlik, estetik qimmat.

Резюме: В статье рассматриваются лингвопоэтические возможности диалектизмов в стихотворениях Османа Насира.

Ключевые слова и понятия: диалект, диалектизм, лексический диалектизм, этнографический диалектизм, смысловой диалектизм, поэтическая привлекательность, эстетическая ценность.

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan o‘zining shevalarga boyligi bilan ajralib turadi. Dialektal so‘zlar milliy tilning asosini tashkil etadi va milliy-ma’naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Dialektal so‘zlarning ko‘pchiligi tilimizning uzoq o‘tmishini, xalqimizning turmushi, madaniyati, urf-odatlari va shu kabilarni o‘zida yorqin aks ettiradi. Dialektlar qator tilshunos olimlar ta’kidlaganlaridek (N.Mahmudov, S.Ashirboyev, M.Yo‘ldoshev) badiiy nutqda muhim stilistik vazifalarni bajaradi. Odatda, dialektlar muayyan badiiy asarda alohida qahramonning nutqini individuallashtirish, hududiy mansublikni anglatish hamda mahalliy koloritni berishga xizmat qiladi. Dialektal so‘zlarning badiiy asarda qo‘llanishi qahramonlar nutqining rang-barangligini ta’minlab, nutqning jonli va ta’sirchanligini oshirish hamda badiiy asar tilining poetik xususiyatlarini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Shoir Usmon Nosir ham she’rlarida dialektal so‘zlardan muayyan badiiy maqsadni ko‘zlab foydalangan. Aslida, Usmon Nosir she’r va dostonlarida juda kam o‘rinlardagina shevaga xos so‘zlarga murojaat qiladi. Shunday bo‘lsa-da, biz ushbu dialektal birliklarning semantik-stilistik, lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishni ahamiyatli deb bildik. Taniqli tilshunos olim M.Yo‘ldoshev dialektizmlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganadi: sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar, semantik dialektizmlar. Usmon Nosir she’r va dostonlarida leksik va fonetik dialektizmlarni uchratdik va tahlilga tortdik. Bunday dialektizmlar shoir she’rlarida o‘ziga xos jarangga egaligi hamda poetik jozibadorligi bilan ajralib turadi. Masalan:

Salmoq qadam
Tashlab bardam
Bag‘riga yerning,
Tilka-tilkasini chiqarib
Qora tuproqning,
Ostin-ustun qilib,yana
Bazo‘r ***ontarib,***
Egar urgan
Oddiy bir yigit.

“Bodom gullagan kechasi” she’ridan olingan nutqiy parchadagi *ontarmoq* dialektizmi adabiy tilda *ag‘darmoq* ekvivalentiga to‘g‘ri keladi. Mazkur dialektizmning satrda poetik aktuallashganligi ko‘rinib turibdi. Shoirning “Safarbar satrlar” va “Traktorobod” to‘plamlari davr taomiliga ko‘ra, mamlakatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni xalqqa yetkazish va o‘zgarishlarni madh etishdan iborat “muqaddas burch” talabi bilan yozilgan. Shuning uchun ushbu to‘plamlardan o‘rin olgan she’rlarining ko‘pchiligi mamlakatdagi qurilishlar, mehnatkashlarning kundalik hayoti yoki ish jarayonini aks ettirgan. Yuqorida keltirilgan she’r parchasida ham mahalliy mehnatkashlar leksikasida uchraydigan dialektizmdan foydalanib, tinglovchiga tasvirning yanada aniq va yorqin bo‘lishida foydalangan. Zero, *ontarmoq* dialektizmida *ag‘darmoq* leksemasiga nisbatan poetik joziba ancha yuqori.

Taniqli tilshunos N.Mahmudov “Ma’lumki, tilimiz rango-rang shevalarga boy, shevalar xalq tili sifatida tilimiz takomili va tarovatini tirik saqlab kelayotgan, adabiy til quyushqonlarini ko‘pda pisand

qilmaydigan, ammo uning boqiyligining zimni zaminini ushlab turadigan, adabiy til deyiladigan muazzam va muhtasham birlikning boyishiga tirgak tutadigan tuganmas manbalardir” deya ta’kidlab, Usmon Nosir asarlarida xalq tilining sheva qatlamlaridagi so‘zlardan o‘zining badiiy niyatiga muvofiq tarzda o‘rni bilan foydalanganligini qayd qiladi. Shoirning mashhur “Naxshon” dostonini tahlil qilar ekan, unda vodiy shevalarida *narvon* o‘rnida qo‘llanadigan *shoti* so‘zidan mahorat bilan foydalanganini alohida ta’kidlaydi.

Shoti bo‘lib
Ko‘kka chirmashgan nola.
Shunday poyadorki,
Ko‘rinmas tagi...

Olimning fikr bildirishicha, nolaning ko‘kka chirmashishining o‘zi bir obraz, *shoti* so‘zi ana shu obrazning yana to‘lg‘in bo‘lishiga ko‘mak bergan, ayni paytda *shoti* va *chirmashmoq* so‘zlaridagi sirg‘aluvchi “sh” tovushi eshilib ko‘tarilishni ta’kidlaganday bo‘ladi.

Ba’zan dialektizmdan shoir she’rda qofiyadoshlikni ta’minlash hamda o‘quvchiga aytilmoqchi bo‘lgan fikrni yanada tushunarli qilib berish maqsadida foydalanadi. E’tibor bering:

Salom kunduz, salom,
Salom parig‘um,
Sening toza nuring
Ko‘zimga singgan,
Salom turmush, salom,
Salom mehribon,
Sening yo‘llaringda
Mehnatim ***ingan.*** (“Salom, kunduz!”)

Aslida *ingan* dialektizmi bir ma’nosi bilan adabiy tilda *singgan* so‘ziga to‘g‘ri keladi. Ammo she’r parchasining dastlabki satrlarida quyosh nurining ko‘zga o‘rnashishi, jo bo‘lishi, singib ketishi haqida gap ketmoqda. Keyingi misralarda esa shoir *singmoq* leksemasi o‘rnida *ingan* dialektizmidan foydalanadi. Bu usul bilan, birinchidan, ortiqcha takrorning oldi olinadi, ikkinchidan, she’riy qofiya ham ta’minlanadi.

Shoir hayotini sinchiklab o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, uning hayoti nihoyatda qiziqarli va kutilmagan voqea-hodisalarga to‘la. Barchamizga ma’lumki, shoir turmush qurish va farzand ko‘rish baxtini totib ulgurmadi. Lekin u 1932-yilda bir tush ko‘rgan va tushiga suqsur o‘g‘il – uning o‘g‘li kirgan edi. Uning ismi ham aniq, ya’ni Qunduz. Shoir tug‘ilajak o‘g‘liga atab bir necha she’r ham yozadi. Mana bu she’r parchasi ana shu she’rlarning biridan olingan:

G‘uncha to‘kkan yuzingga
Suq va suzik
Qarashlarim to‘kilar...
Qulochingni kattarak ker, ***achoqlay,***
Mening yurak
Yuragingga mos tepsin. (“Qunduz sochlaringni tarat”)

She’riy parchada keltirilgan *achoqlay* dialektizmi adabiy tilda *quchoqlay* ekvivalentiga to‘g‘ri keladi. Bu o‘rinda *achoqlay* dialektizmi bolalarni erkalatish, suyish va ulardan zavq olish ottenkalarini bildirmoqda. Yoki shoirning “Norbo‘ta” dostonidan olingan ushbu namunada ham *acha* dialektizmi muayyan maqsad bilan qo‘llanilgan:

Idish emish, ammo bir yo‘la
Yaxshi ko‘rgan piyolachamni,
Birov olgan emish***...achamni...***

Acha Namangan shevasiga mansub birlik bo‘lib, adabiy tildagi ekvivalenti *ona, buvi*dir. Bu o‘rinda shoir doston qahramonlaridan biri Sarvarning tush ko‘rishi, tushida yaxshi ko‘rgan piyolachasini birov olib ketgani va buni buvisiga so‘zlab berayotganini tasvirlaydi. She’riy parchada *piyolacha* leksemasiga ohangdosh sifatida *acha* dialektizmi qo‘llanilgan. O‘quvchi esa asar qahramonining qaysi hududga mansubligi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Shoir she’rlarida *apch urmoq* (mavjlanmoq, mavj urmoq), *abdiramoq* (aljiramoq, javramoq), *chingillamoq* (chinqirmoq), *shimg‘imoq* (sho‘mg‘imoq) kabi fe’l; *birushta* (doimo), *jichcha* (oz, kam), *bag‘i* (bu yog‘i) kabi ravish va *asti* (aslo), *satta* (nuqul) yordamchi so‘z turkumlariga oid sheva so‘zlar uchraydiki, ular ham shoir she’riyati tilining ranginligi va ifoda nozikligi uchun xizmat qiladi. Shoir Usmon Nosir she’r va dostonlarida qo‘llangan shevaga xos so‘zlar xalqona usulda oddiy xalq tiliga yaqin bo‘lganligi uchun asarning badiiy estetik qimmatini va badiiy tasvir jozibasini yanada oshirishga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR:

1 Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1980.

2. Умаров Э. Миртемир шеъриятида шевага оид сўзлар // Тил ва адабиёт таълими, 2006. – №3. – Б. 33-36.
3. Маҳмудов. Н. Юракка созланган сўзлар синоатлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2022 йил 19 август..
4. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2000.
5.Тошхўжаева Ш.Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филология фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)....дисс. – Фарғона, 2017.

NAVOIY VILOYATIDAGI TOPONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (Navbahor tumani misolida)

Suvanova Mavjuda Xamrakulovna,
f.f.f.d (PhD), dotsent v.b.
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. Toponim va nekronimlarning grammatik xususiyatlari hamda tuman hududidagi joy nomlarining yasalish xususiyatlari tahlil qilingan

Kalit so‘zlar. Toponegiz, tub toponim va nekronimlar, yasama toponim va nekronimlar.

Аннотация. Проанализированы грамматические особенности топонимов и прозвищ, а также особенности формирования топонимов в регионе.

Ключевые слова. Топонимы, оригинальные топонимы и прозвища, искусственные топонимы и прозвища.

Annotation. Grammatical features of toponyms and nicknames, as well as features of formation of place names in the region were analyzed.

Key words. Toponyms, original toponyms and nicknames, artificial toponyms and nicknames.

Navbahor tumani toponimlari grammatik tuzilishiga ko‘ra tub va yasama tuzilmaga ega. Shunga ko‘ra tuman hududidan to‘plangan toponim va nekronimlarning grammatik xususiyatlari tahlilini xuddi ana shu tub va yasama tuzilmali toponim hamda nekronimlarni o‘rganishdan boshlash o‘rinlidir.

Tub toponim va nekronimlar. Tub toponim, odatda, tuzilishiga ko‘ra tub bo‘lgan leksemaning joy nomi vazifasiga ko‘chishidan hosil bo‘ladi. Tub toponimlar asos leksemaning tub so‘zlilik darajasiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1) asli tub tuzilmali bo‘lgan leksemadan iborat toponimlar. *Saroy (mahalla), Burqut (qishloq), Ravot (mahalla), Ming (tepa)* kabilar. Bu tip joy nomlari biz o‘rgangan hududda nihoyatda kam uchraydi. Chunki, toponimiyada tub leksemalarga qo‘shimcha elementlar qo‘shib toponim yasash tamoyili kuchlidir;

2) nisbiy tub leksemadan iborat toponimlar. Bu tipga leksema sinxron hollariga ko‘ra tub deb hisoblanuvchi tarixan (diaxron jihatdan) qo‘shimcha morfemalarga bo‘linishi mumkin bo‘lgan leksemadan yasalgan nomlar kiradi. Chunonchi: *Mang‘it (qishloq), Sarmish (soy), Qatag‘on (mahalla)* kabilar.

Yasama tuzilmali toponimlarning tarkibida so‘z yasalish asosi bo‘lgan qismdan tashqari so‘z yoki shakl yasovchi qo‘shimchalar (formantlar) ham mavjud bo‘ladi. Yasama tuzilmali toponimlar uchga bo‘linadi: a) sodda toponimlar; b) qo‘shma toponimlar; v) birikmali toponimlar.

Sodda toponimlar tarkibida uchraydigan yasovchi morfema nomni hosil qilishdagi roliga ko‘ra ikki xil xarakterga ega: a) toponim yasashga xizmat qiluvchi morfemalar: *Sovungar (qishloq), Qurama (mahalla)* kabilar; b) nom tarkibida formal holda keluvchi morfemalar: *Kelachi (mahalla), Ayronchi (qishloq), Dasturxonchilar (qishloq)* kabilar. Bunday morfemalar yangi toponim yasamaydi va aslida nom uchun asos bo‘lgan leksemani yasashga xizmat qiladigan qoldiq (rudiment) sanaladi.

Toponimik qo‘shilmadan iborat tuzilmali nomlarning aksariyati toponimik tizimning o‘z original mahsuloti hisoblanadi: *Beshrabot (qishloq), Yangiobod (mahalla), Kelintushdi (mahalla), Sho‘rovul (yer), Qirqariq (soy), Sarmishsoy (soy), Qoraungursoy (dara), Mingchinor (mahalla), Zahchiqqan (yer), Arabsaroy, Otchopar, O‘razobod, Chorvoqguzar, Davriqo‘rg‘on, Yangiqishloq, Anorboqi, Qo‘shqochdi, Chaqmoqtepa, Toshrabot, Islomkent, Qalqonota* kabilar.

Navbahor tumani toponimiyasi miqdorining ma’lum qismini (asosan, yangi joy nomlarini) birikma tuzilmali nomlar tashkil qiladi. Ushbu tip nomlar qo‘shma toponimlardan, ma’no jihatidan yaxlit nomlik xususiyati bilan hamda uni tashkil etgan leksema (qism)larning grammatik jihatdan birikib ketmaganligi, imloda komponentlarning ajralgan holda yozilishi bilan xarakterlanadi va ko‘proq antrotoponimlarda uchraydi: *Salim Sulton (qishloq), Ahmad Yassaviy (masjid), Adham Sahoba (masjid), Avliyoi sangizard (mahalla), Halim Qodirov (ko‘cha), Qizil tong (mahalla), Qizil sharq (qishloq), Qizil oy (mahalla)* kabilar.

Tuman hududidagi joy nomlarining ma’lum qismi forscha-tojikcha izofali birikma shakliga egadir. Nomlar tarkibidagi bunday izofalar ochiq holatda va yashirin holatda uchraydi. Ochiq holatda nom tarkibidagi izofa ko‘rsatkichi aniq ko‘rinib turadi: Labiro‘d arig‘i, G‘oyibon yeri, Arabi saroy mahallasi kabilar. Yashirin holatdagi izofada izofa ko‘rsatkichi tushib qoladi: *Hazornur – Hazori nur qabristoni, Halovattepa – Halovati tepa (tepa nomi), Jo‘yrabot – Jo‘yi rabot mahallasi* kabilar.

Umuman, tilda, jumladan o‘zbek tilida toponimlarni yasashning, shakllantirishning tamoman yangi usuli yo‘q. Bunda ham o‘sha tilda mavjud bo‘lgan so‘z yasash usullari[1] va vositalaridan foydalaniladi. Ammo, tilda toponimlarning hosil bo‘lishi, shakllanishi ayrim o‘ziga xos tomonlarga ham ega. Bu, avvalo, qayd qilingan so‘z yasash usullaridan, affikslaridan ba’zilarining toponim yasashda faol yoki nofaolligida ko‘rinadi.

Toponimiya til lug‘at tarkibining ajralmas qismlaridan biri sifatida ma’lum o‘zgarishlarga uchrab turadi. Toponimiya jamiyatning ijtimoiy hayoti, mafkurasi va ma’naviyatiga yaqin aloqada bo‘lgan lug‘aviy qatlam bo‘lgani uchun davlatning siyosati, jamiyatning dunyoqarashida yuz beruvchi yangilanish va o‘zgarishlar mavjud joy nomlarini doimo baholash, qayta baholashga olib keladi. Bunga yaqqol misol sifatida O‘zbekiston davlatining mustaqillik davrida olib borayotgan toponimik siyosatini keltirish mumkin[2].

Istiqlol davridagi toponimik siyosat tufayli O‘zbekistondagi ko‘pgina joy nomlari tarkibida ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Sho‘rolar davri g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha joy nomlari iste’moldan chiqdi, aksincha, o‘sha davrlarda kommunistik mafkura tazyiqi ostida siqib chiqarilgan, unutilishga yuz tutgan ko‘pgina tarixiy, milliv hamda o‘zbekona, xalqona nomlar qayta tiklandi. Shuningdek, o‘zbek toponimiyasi tizimi mustaqillik davri g‘oyalarini, intilishlarini ifoda qiluvchi yangi nomlar bilan boyidi.

Har qanday tilning toponimlar tizimi ma’lum bir davrninggina, ma’lum bir ijtimoiy-siyosiy qarashlarninggina mahsuli emas. Toponimlar tizimi o‘sha til onomastik sistemasining ko‘p asrlik rivoji mahsulidir. Shu sababli, o‘zbek toponimiyasi tizimida eng qadimiy toponimlar, tarixiy toponimlar, yaqin o‘tmish toponimlari, yangi davr toponimlari va tamoman yangi toponimlar yonma-yon yashab kelmoqda. Bunday xususiyat Navbahor tumani hududidagi toponimlar tizimi uchun ham xarakterlidir. Chunonchi, *Sarmishsoy, Qoraungursoy, Bironsoy nomlari eramizdan avvalgi VI asrlarga mansub bo‘lsa, Qalqonota, Mexchagaron, Qo‘tirbuloqtepa* kabi nomlar undan keyingi davr mahsuli bo‘lmish tarixiy nomlardir. Xuddi shuningdek, *Yangihayot, Gidrouzel* singari nomlar XX asrda sho‘rolar davrida paydo bo‘lgan bo‘lsa, *Istiqlol, Navro‘z* kabi toponimlar mustaqillik davri mahsulidir.

Albatta, toponimlar tizimidagi barcha nomlarning qachon paydo bo‘lganini aniq belgilashning iloji yo‘q. Chunki ko‘pgina joy nomlarining, toponimlarning qachon va kim tomonidan berilgani hozirga kelib biroz unutilgan. Shu sababli ko‘pgina joy nomlarining ijodkori xalq, deb baholanadi hamda bunday nomlar tabiiy toponimlar, xalqona nomlar, deb yuritiladi.

Nomlarning paydo bo‘lish tarixi va asoslari unutilsa-da, har qanday toponimning til mahsuli sifatidagi xususiyatlari saqlangan bo‘ladi. Bu ko‘pincha nomning yasalishi va grammatik strukturasini tahlil qilish orqali belgilanadi. Ayniqsa, iste’moldan chiqqan, arxaik nomlar o‘rnini to‘ldirish, ya’ni toponimik obyektlarga yangi nomlar berish muayyan lisoniy qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Bunda asosan ikki yo‘l aniq ko‘zga tashlanib turadi: a) yangi nom ijod qilish, yasash usuli; b) o‘zga tillardan nom o‘zlashtirish usuli. Ana shu ikki yo‘l bilan u yoki bu hududning toponimik fondi to‘xtovsiz boyib, yangilanib boradi.

Toponimik tizimning o‘zgarishi va boyishida yuqorida ko‘rsatilgan ikkala usul ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo yangi nom ijod qilish, yangi nom yasash yo‘li tilning o‘z ichki resurslariga. imkoniyatlariga tayangani, unda tilning milliylik ruhi saqlanadigan bo‘lgani uchun bu usul nom yasashda afzalroq, ilg‘orroq, deb baholanadi.

Toponimiya tildagi mavjud leksik negizlarga tayanadi. Shu bilan birga toponimiyaning boyish yo‘llari ham tilda bor bo‘lgan boshqa imkoniyatlardan ham foydalanadi. Ammo oddiy leksika bilan atoqli otlarning yasalishida u yoki bu usul ustunlik qilishi jihatidan farqlar bo‘lishi mumkin. Masalan, Navbahor tumani toponimiyasida nomlar yasalishida sintaktik va morfologik usuli ustunlik qiladi, onomastik konversiya usuli esa kammahsuldir.

Navbahor tumani toponimiyasi yuzasidan olib borilgan kuzatishlarimiz toponimlar asosan affiksatsiya usulida va sintaktik usulda yasalishini ko‘rsatdi. Quyida ana shu ikki usul Navbahor tumani mikrotoponimiyasi materiallari asosida tahlil qilinadi.

Toponimlarning morfologik usulda yasalishi

Toponimlarning morfologik (affiksatsiya) usulida yasalishi masalasi nomshunoslikdagi eng chalkash, munozarali muammolardan biridir. Chunki hozirga qadar o‘zbek nomshunoslari yozgan ko‘pgina

[1] Hojiyev A. O‘zbek tilida so‘z yasalishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989. – B. 29.

[2] Bagmatov E. Joy nomlari – ma’naviyat ko‘zgusi. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 33 – 34.

tadqiqotlarda toponimga asos bo‘lgan so‘zning yasalishi bilan toponimning yasalishi farqlanmaydi, toponegizni yasayotgan so‘z yasovchi morfemalar toponim yasovchilar deb talqin qilinadi. Biz bu o‘rinda masalaga aniqlik kiritish uchun ikkita ishdagi shu masalaga oid talqinlarni keltiramiz.

N.Oxunov “Qo‘qon gruppa tumanlari toponimiyasi” mavzusidagi ishida joy nomlarining morfologik usulda yasalishi haqida gapirib, *O‘qchi, Dasturxonchi, Temirchi, Ozodlik, Hurlik, Shodlik, Degrezlik, Misgarlik, Nonvoylik* kabi nomlarni toponimlarning morfologik usulda hosil qilinishi, deb talqin qilgan edi. Xuddi shuninigdek, N.Mingboyevning “Mirzacho‘l toponimiyasi” mavzusidagi ishida *Sirg‘ali, Achamali, Oo‘shtamg‘ali* kabi nomlar -li qo‘shimchasi yordamida; *Qo‘shchi, Qarapchi* kabi nomlar esa -chi yordamida; *Shodlik, Do‘stiik, Birlik* nomlari -lik yordamida yasalgan toponimlar, deb izohlangan.

Yuqorida qayd qilingan bunday yasama ko‘rinishdagi toponimlarning negizida aslida o‘zbek tilida avvaldan mavjud yasama etnonimlar (sirg‘ali, achamali, qo‘shtamg‘ali, qo‘shchi, darakchi kabi), kasb-hunar leksikasi (o‘qchi, dasturxonchi, misgarlik, nonvoylik kabi) yoki tipda o‘sha shaklda tayyor holda uchraydigan turdosh, mavhum otlar (shodlik, do‘stiik, birlik kabi) yotibdi.

Demak, keltirilgan holatlarda nom tarkibida kelgan, qayd qilingan qo‘shimchalar toponimlar emas, balki ular uchun asos bo‘lgan toponegizlar, apellyativlarni yasagan va bu apellyativlar o‘sha shaklda tayyor holda toponimlar vazifasiga ko‘chgan. Mana shu kabi chalkashliklar o‘zbek toponimikasida hozirgacha bajarilgan ilmiy tadqiqotlarning deyarli barchasida uchraydi. Demak, toponimlarning morfologik usulda yasalishi haqida gap borganda, atoqli otlarning yasalish jarayonini to‘g‘ri belgilash muhimdir. Bu o‘rinda prof.Z.Do‘simovning ushbu fikrlari haqqoniy, deb o‘ylaymiz: “Shuni qayd qilish lozimki, toponimika muammolariga bag‘ishlangan ishlarda toponimlarning yasalishi va tuzilishi turlicha talqin qilinadi. Bu hol ushbu masalaning biroz chalkashishiga olib keldi. Ba’zi qo‘shimchalar hech bir asossiz toponim yasovchi morfema deb talqin qilinadi. Shunisi aniqki, toponimlarning yasalishini tadqiq qilish toponimikaning dolzarb muomolaridan biridir”[1].

Ko‘pgina ishlarda -lik, -chi, -lar kabi qo‘shimchalar toponim yasovchi qo‘shimchalar deb talqin qilinishiga va *Bazzozlik, Konchilik, Meshgarlik, Ozodlik, Tanglik, Tinchlik* kabi toponimlarni -lik yordamida yasalgan atoqli ot deb izohlanishiga prof. Z.Do‘simov umuman qo‘shilmaydi va shunday yozadi; *“Konchilik, Zargarlik, Paxtakor* kabi toponimlar tarkibidagi qo‘shimchalarning atoqli ot yasayotgani haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Ular nol qo‘shimchali toponimlardir”[2].

Biz ham prof. Z.Do‘simovning yuqoridagi fikrlariga to‘la qo‘shilamiz, ammo shu bilan birga, qayd qilingan qo‘shimchalar toponim yasashda mutlaqo ishtirok etmaydi, deb hisoblash ham unchalik o‘rinli emas, deb bilamiz. Chunki, mavjud ba’zi ishlarda bu qo‘shimchalar toponimlar hosil qilgan holatlar ham to‘g‘ri talqin qilingan. Masalan, *Tepalik. Zanjirli, Chetanli, Zarkentlik, Toshkentlik (mahallalar nomi) Oumlik. Toshlik (joylar nomi) Olmaliq, Quduqli. Archali, Terakli, Munchoqlik* kabilar.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosa chiqadiki, toponim tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalar uchrashi mumkin. Ammo bu so‘z yasovchi affiksal morfema funksional jihatdan yo toponegiz (apellyativ)ga, yo toponimga tegishli bo‘ladi. Shu sababli har safar u yoki bu toponimning yasalishi xususida aniq materialdan kelib chiqqan holda fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

Bizning kuzatishlarimiz Navbahor tumani toponimiyasi uchun affiksatsiya usulida nom yasash unchalik xarakterli emas, balki bu usul kammahsuldir, degan xulosaga olib keldi.

Toponimlarning sintaktik usulda yasalishi

Birdan ortiq negizlarni qo‘shish orqali yangi so‘z hosil qilish so‘z yasashning sintaktik usuli deb yuritiladi. Bu usul, tilshunoslikda sintaktik usul, so‘z qo‘shish usuli, negizlarni qo‘shib so‘z yasash usuli, analitik usul, morfologik- sintaktik usul, kompozitsiya usuli deb turlicha nomlanib kelinmoqda[5].

Sintaktik usul til leksikasini boyitishining eng mahsuldor usullaridan biridir. Bu fikr tilning onomastik sathi uchun ham taalluqlidir. Navbahor tumani hududidan to‘plangan toponimik materialning asosiy qismini qo‘shma toponimlar tashkil qilishi ham bu mulohazaning to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Biz to‘plagan 120 nomdan 57 tasi qo‘shma toponimlar bo‘lib, ular umumiy materialning deyarli 50 foizini tashkil qiladi.

Shunday qilib, sintaktik usul tilda qo‘shma toponimlarni yuzaga keltiradi.

Qo‘shma toponimni yuzaga keltiruvchi lug‘aviy birlik (toponegiz)lar ma’no va grammatik jihatdan yaxlit bir so‘z, fonetik va orfoepik jihatdan bir butunlikka ega leksema (nom) hisoblanadi.

[1] Dusimov Z. Istoriko – lingvisticheskiy analiz toponimov Xorezma. Avtoref dis.. doktora filol. Nauk. – Toshkent, 1986. – S. 24.

[2] Dusimov Z. Istoriko – lingvisticheskiy analiz toponimov Xorezma. Avtoref dis.. doktora filol. Nauk. – Toshkent, 1986. – S. 26

Qo‘shma toponimlarning toponegizi birdan ortiq so‘zdan tashkil topgani tufayli, bu negizni tashkil etgan komponentlar toponimlikka ma’lum sintaktik munosabat asosida o‘tgan bo‘ladi. Buning asosiy ko‘rinishlari quyidagilar:

1. Sifatlovchi va sifatlanmish (bitishuv) munosabatidagi toponegizlar: *To‘qmang‘it, Yangiobod, Yangiqishloq, Sho‘rovul Oqoltin, Qizilrabod, Yangiyol, Qo‘tirbuloq* kabilar.

2. Qaratqich va qaralmish (moslashuv) munosabatidagi toponegizlar: *[Arabtepa (arablar yashaydigan tepa, ularga tegishli bo‘lgan tepa)* kabilar.

3. To‘ldiruvchi (boshqaruv) munosabatidagi toponegizlar: *Chorvoqguzar (chorvoqdan o‘tadigan guzar)* kabilar.

4. Ega va kesim (moslashuv) munosabatidagi toponegizlar: *Qo‘shqochdi (qishloq), Otchopar (qishloq, mahalla)* kabilar.

Tuman hududidan to‘plangan qo‘shma toponimlarning toponegizlari (komponentlari) asosan moslashuv, bitishuv, boshqaruv yo‘li bilan birikadi.

Toponimlar hosil qilishning sintaktik usuli birdan ortiq toponegizlarni qo‘shish orqali toponim yasash jarayoni ekan, bunga ko‘ra qo‘shilayotgan negiz birdan ortiq, kamida ikkita bo‘lishi shait. Shu bilan birga ba’zi hollarda uchta *Qo‘tirbuloqtepa; Qamarotatepa, Dovudotatepa* kabi] va undan ortiq (juda kam uchraydi) toponegizlar ham bo‘lishi mumkin. Chunonchi: *Sarmishsoy dalasi, Qoraungursoy dalasi, Qalqonota arig‘i* kabilar. Bu nomlarni yaxlit, monolit qo‘shma nomlar deb hisoblash nisbiy xarakterga egadir. Chunki, bu nomlar ba’zi hollarda indikatorsiz qo‘llaniladi va ikki komponentli toponimga aylanadi: *Sarmishsoy // Saimishsoy dalasi, Qalqonota arig‘i* kabilar. Navbahor tumani hududidan to‘planib, o‘rganilgan qo‘shma toponimlarning morfologik tarkibi quyidagicha ekanligi aniqlandi:

a. Ot + ot modelli qo‘shma toponimlar: *Arabxona, O‘razobod, Arabsaroy, Davriqo‘rg‘on, Mirzamo‘min, Etaksaroy, Salim Sulton, Qamarota, Umarota, Dovudota, Arab tepa, Abduariq* kabilar.

b. Sifat + ot modelli qo‘shma toponimlar: *Yangiqishloq, Qiziloy, Sho‘rovul, To‘qmang‘it, Qizilrabod, Yangiyo‘l, Qiziltong* kabilar.

s. Ot + sifat modelli qo‘shma toponimlar: *O‘razobod* kabilar.

d. Sifat + sifat modelli qo‘shma toponimlar: *Yangiobod* kabilar. Qo‘shma toponim yasashning bu modeli (qolipi) unchalik sermahsul emas.

e. Son +ot (va numerativ + ot) modelli qo‘shma toponimlar: *Uchtut, Beshrabod, Qirqariq* kabilar.

f. Ot + fe’l modelli qo‘shma toponimlar: *Otchopar, (q q), Qo‘shqochdi (q q)* kabilar.

So‘z yasashning sintaktik usuli umuman birdan ortiq lug‘aviy negizlarni toponimiyada esa toponegizlarni qo‘shishdan iboratdir. Ammo negizlarning bunday qo‘shilishi turli holatda bo‘lishi mumkin. Bunday usulda qo‘shma toponim yasashda quyidagi ikki struktural tip ko‘zga tashlanadi: a) toponegizning yaxlit, monolit holatida birikishi; b) toponegizlarning erkin, ochiq holda birikishi.

Tuman hududidan to‘plangan qo‘shma toponimlarning asosiy qismi toponegizlar monolit holda birikishining natijasidir: *Uchtut, Yangiobod* kabilar.

Qo‘shma nomlar toponegizlarning erkin, ochiq holda qo‘shiluvchi so‘z birikmasi xarakterida bo‘ladi. Ammo bu birikma yaxlit nom tarzida tushuniladi. Qo‘shma qoponimlarda ushbu model quyidagi ikki ko‘rinishga ega: a) turkiy (o‘zbekcha) izofali modellar asosida hosil bo‘lgan qo‘shma toponimlar; b) forscha-tojikcha izofali modellar asosida hosil bo‘lgan qo‘shma toponimlar.

Turkiy izofali modellar asosida hosil bo‘lgan qo‘shma toponimlarda qarashlilik, mansublik munosabati ifodalanadi. Bunda nomning ikkinchi qismida ifodalangan tushuncha uning birinchi qismiga tobe, tegishli bo‘ladi. Izofaning ochiq shaklida izofani shakllantiruvchi lisoniy vositalar nomning ikkinchi komponentida saqlanadi.

Kuzatishlarimiz Navbahor tumani toponimiyasida forscha-tojikcha izofali qo‘shma toponimlar kammahsul ekanligini ko‘rsatdi.

Toponimlarning sintaktik usulda hosil bo‘lishi haqida gap borganda, chinakam qo‘shma toponimlarni “aldoqchi” qo‘shma shakllardan farqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buni farqlamaslik odatda nomlar yasalishining konversiya va sintaktik usullarini farqlamaslikdan yuzaga keladi. Qo‘shma strukturali toponim ikki xil bo‘ladi: a) qo‘shma toponimning yasalishi, b) tayyor qo‘shma nomlarning toponim vazifasiga o‘tishi. Bularning birinchisigina qo‘shma nom yasalishidir. Ikkinchisi esa toponimlikkacha (toponimlashuvgacha) bo‘lgan qo‘shma so‘z yasalishidir. Birinchi holat onomastik sath mahsuli bo‘lsa, keyingisi apellyativ sath (turdosh leksika) mahsulidir. Masalan: qo‘shma antrotoponimlardan yasalgan toponimlar: Mirzamo‘min (qq) qo‘shma etnonimlardan yasalgan toponimlar: To‘qmang‘it (qq), Arabxona (qq) qo‘shma apellyativ negizlardan yasalgan toponimlar: Oqoltin (qq), keyingi tip nomlar juda siyrak uchraydi.

ADABIYOTLAR:

1. Hojiyev A. O‘zbek tilida so‘z yasalishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989. – B. 29.

2. Bagmatov E. Joy nomlari – ma’naviyat ko‘zgusi. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 33 – 34.
3. Dusimov Z. Istoriko – lingvisticheskiy analiz toponimov Xorezma. Avtoref dis.. doktora filol. Nauk. – Toshkent, 1986. – S. 24, 26.

KITOB VOHASINING QUYOSH SISTEMASI BILAN PAYT MA’NOSINI IFODALOVCHI SO‘ZLARNING AREALIGA DOIR

Nodir Muhammadiyev,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Filologiya fakulteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi doktoranti

Bizda ma’lumki Kitob tumani O‘zbekistonning navqiron tumanlardan biri bo‘lib uning Kiftiob-yoxud ikki daryo o‘rtasidagi voha demakdir. Bu tuman hududini uch tomondan baland tog‘lar jumladan Ziyovuddin, Qo‘rg‘ontog‘ va Taxta Qoracha tog‘lari o‘rab olgan. Ammo jo‘g‘rofiy joylashuvi jihatidan bu tuman shimoldan Samarqand viloyati, sharqdan qo‘shni Tojikiston Respublikasi, janubdan esa Shahrisabz, g‘arbdan Chiroqchi tumanlari bilan chegaradoshdir.Kitob so‘zi asli tijik tilidan olingan bo‘lib, “Kift”- yelka, “ob”- suv, ya’ni yelkadan o‘tgan suv degan ma’nolarga egadir.

O‘tgan asrda o‘zbek shevashunosligi amalga oshirilgan ishlar shevalar fonetikasi, morfologiyasi, leksikasining rang-barang ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, hozirgi kunda o‘zbek shevashunosligi fani oldida turgan eng dolzarb vazifa, shubhasiz, sheva materiallarini xaritalashtirish va pirovardida «O‘zbek shevalari atlasi»ni tuzishdir. O‘zbek shevalarining turli yo‘nalishlarda: tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, lisoniy-jug‘rofiy usullarda tadqiq etilishi va sheva materiallarining xaritalarga tushirilishi natijasida o‘tgan asrda qator ishlar qilindi. Jumladan, U.Tursunov, V.Reshetov, S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, B.Jo‘rayev, A.Aliyev, H.G‘ulomov, X.Doniyorov, A,Shermatov, A.Jo‘rayev, M.Mirzayev, K.Nazarov, F.Abdullayev, N.Murodova kabi olimlarning xizmatlari nihoyatda katta bo‘ldi. Bu esa shevalar atlasini yaratish yo‘lida munosib hissa bo‘lib xizmat qiladi.

Lisoniy hodisalarni areal yo‘nalishda tadqiq etish-bu o‘zbek shevashunosligida yangi yo‘nalish bo‘lib, til hodisalari hali sof arealogik yo‘nalishda tadqiq etilmagan. Areal yo‘nalish aynan bir hodisaning nafaqat O‘zbekiston hududida, balki butun o‘zbekzabon mintaqalarda tarqalishini xaritada tasvirlabgina qolmasdan ularning sinxron va diaxron markazini aniqlash, izoglossalarini belgilash imkonini beradi va shu asosda o‘zbek tili tarixi uchun ham qimmatli ma’lumotlar to‘plash mimkin. O‘z-o‘zidan, bunday tadqiqotlar har bir lisoniy hodisaning masalan o‘lanish, “j”lanish kabi fonetik hodisalar;-ning o‘rnida -ni, -da o‘rnida-ga ishlatish kabi morfologik hodisalar; “payt”, “o‘rin” ma’nosini ifodalovchi so‘zlar tarzidagi shartli guruhlash asosida so‘zlarni tadqiq etishni taqozo etadi.

“Quyosh” tizimi bilan bog‘liq payty ma’nosini ifodalovchi so‘zlar ham aynan shunday shartli guruhlardan biridir. Bunday so‘zlarga adabiy tilde kunning qismlarini bildiruvchi (ertalab, choshgoh, tush, peshin,namozdigar, namozishom, kechqurun kabi so‘zlar), shuningdek, yil, fasl, oy, hafta nomlarini kiritish mumkin.

Ko‘p lahjali Qashqadaryo vohasi Qashqadaryo, Surxandaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlari hududi bo‘yicha mazkur guruhga mansub so‘zlar leksik, semantik, fonetik, ba’zan morfologik jihatdan ham o‘ziga xosligi bilan farqlanib turadi.

Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin:

1) Vohada har uchala lahja; qarluq-chgil-uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘uz guruhi vakillari istiqomatqilishadi.

2) Hududdagi buyuk etnik jarayonlar, ijtimoiy hayot va geografek jihatfdan yonma-yon yashaydigan millat vakillari; tojik, o‘zbek, o‘zaro ta’siri naytijasida payt ma’noli so‘zlarning ham ishlatilishi rang-barangdir.

Buni adabiy tildaishlatiladigan “oqshom” so‘zi asosida ko‘rib o‘taylik.

1) G‘ira-shira payt.

2) Kechqurun, oqshomlab.

Vohaning ko‘plab qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholisi tilida, asosan, “oqshom” so‘zining ikkinchi ma’nosi, ya’ni kechqurun, kechasi ma’nosini qo‘llanadi. Kitob tumani “Ayoqchi”q. ashxam//aqsham, Bashir qishlog‘ida axsham//oqshom, “Rus” qishlog‘i axshom,oqshom va h. Oqshom so‘zi vohaning deyarli barcha qarluq tipli shevalarida ishlatilmaydi, aksincha, bu so‘zning birinchi ma’nosida namozgar, namozshom so‘zlari, ikkinchi ma’nosi o‘rnida esa kechqurun, kechasi so‘zlari ishlatiladi. O‘g‘uz lahjasiga mansub aholi nutqida oqshom so‘zi ag‘sham tarzida ishlatiladi, balki birinchi ma’nosida gech, namozgar so‘zlari keltirilgan. Peshin so‘zi qipchoq lahjasi vakillari tilida “kunning yarimidan oqigan va namozdigar

oralig‘idagi payt” ma’nosida qo‘llanadi. Peshin so‘zi qarluq guruhi vakillari nutqida “tush payti” ma’nosida qo‘lanadi; Peshin bo‘ldi, ke choy ichamiz. Darhaqiqat kuzatishlarimiz natijasida shining guvohi bo‘ldikki, Kitob vohasining qarluq tipli shevalarida tojik tilining ta’sirida bahor, nahor, tiramo kabi so‘zlar ishlatiladiki, buni qipchoq va o‘g‘iz shevalarida deyarli ishlatmaymiz. Qipchoq tipli sheva vakillari nutqida esa asl turkey payt ma’noli so‘zlar ko‘proq ishlatiladi.

Xulosa qiladigan bulasak, har bir hudud o‘ziga xos shevasi bilan farqlanadi.Ammo hozirgi dialektologiyaga bo‘lgan e’tibor kamayib bormoqda. Shuni aytish lozimki sheva ichki manba hisoblanib, tilning boyishida muhim rol o‘ynaydi. Yuqorida aytganimizda biz o‘rganilmagan shevalar ustida tadqiqotlar olib borib, dialektologiyaga hissamizdi qo‘shmoqchimiz.

ADABIYOTLAR:

1. Шоабдураҳмонов Ш. Узбек адабий тили ва узбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962.
2. Maxmudov,N.M. O‘zbek tilining katta imlo lig‘ati. Toshkent: Kafolat print company. Nashriyoti, 2023.
3. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент, Фан. 1962
4. Berdialiyev.A. O‘zbek tili sintaktik paradigmatikasi asoslari. Toshkent, 1991.

OILAVIY-MAISHIY MAROSIMLARGA OID ETNOGRAFIZMLARNING AREALI

Suvanova Mavjuda Xamrakulovna f.f.f.d (PhD), dotsent v.b.
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi

Bugungi kunda tilshunoslikda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli tadqiqotlarda o‘zbek tilining leksik qatlami ham yetarli darajada tadqiq etib kelinmoqda.

Marosim ifodalovchi leksik birliklar uzoq yillar davomida xalq tilida iste’molda bo‘lgan, termin darajasiga ko‘tarilgan so‘zlardir. Marosim leksikasi xalq hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, etnik ma’no ifodalaydigan leksemalar hududlararo o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ma’lum bir ma’noda tarixiylik kasb etadi. Shuning uchun ham o‘zbek shevalari etnografik leksikasining etimologik qatlamlarini umumturkiy so‘zlar va arabcha so‘zlar tashkil etadi. Umumturkiy so‘zlar, ayniqsa, marosimlar va bolalar o‘yinlari leksikasida kuchliroq bo‘ladi. Bunga sabab marosim, o‘yinlar har bir xalq etnik birligining genetik asoslarini tarixiy-ijtimoiy hodisalar sifatida saqlab qoladi. Shu bois bu sohalar tarkibidagi etnografik leksika barqarordir.

Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar sunnat, xatna, potiya(fotiha), mayit, g‘assol, janoza, mulla, hayit va boshqa sh.k. Qayd qilingan so‘zlar ko‘proq marosimlar nomi, ularda ishtirok etuvchi shaxslar, beriladigan narsalar, ommaviy nishonlanadigan bayramlarni ifodalovchi diniy-e’tiqod tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi. Ma’lumki, tilning lug‘at tarkibi shu tilda so‘zlovchi kishilarning barcha faoliyatida asosiy aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Binobarin, inson tug‘ilganidan to vafot etguniga qadar milliy til boyligi uning og‘zaki so‘zlashuvida ham, yozma nutqida ham ishtirok etadi[1]. Har bir xalq leksikasida shunday so‘zlar ham borki, ular bevosita shu xalqning maishiy turmushi, urf-odat va marosimlari, kiyinishi, xo‘jalik yuritish tarziga oid xatti-harakat va tushunchalarni ifodalaydi. Mana shu so‘zlar yig‘indisi tarixiy hodisa sifatida doim o‘zgarib, boyib boradi va uni shartli ravishda etnografik qatlam deb yuritish to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki, ular birinchidan, etnik jihatdan tarixan faqat bir urug‘ yoki qabila kishilariga xos bo‘lib, o‘zga etnoslar tilida uchramaydi. Ikkinchidan, leksik qatlam genetik jihatdan shu etnik birlik tiliga xos so‘zlar asosida shakllanib, keyinchalik zaruriyat tufayli o‘zga etnik birliklar yoki etnos tilidan yangi so‘zlarni olib o‘zlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, etnik birlikning etnografik holatida yangi hodisalarning yuzaga kelishi ham shu etnik hayotda yangi so‘zlarning yasalishi yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Mana shunday tarixiy hayotiy jarayon etnografik leksik qatlamni tashkil etadi[2].

Oilaviy-maishiy etnografizmlar kishilik jamiyatida oilaning shakllanishi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. O‘zbek xalqi tarixiy taraqqiyotining ilk davrlarida oilaviy-maishiy marosimlar to‘y va dafn marosimlaridan iborat ekanligi tilshunos S.M.Abramzon tomonidan qayd etilgan edi[3]. Biroq turkiy qavmlar oilaviy-maishiy marosimlari va an’analarining nomlari bizgacha muayyan lingvistik o‘zgarishlarga uchragan holda yetib kelgan. Ular turkiy tillar bilan qiyoslanganda kuzatildi.

---

[1] Begmatov E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 47.

[2] Bobojonov Y. Ko‘rsatilgan tadqiqot. – B. 7.

[3]Абрамзон С.М. К характеристике шаманства в старом биту киргизов // Краткие сооюшения института этнографии. – М, 1958. – С. 143–150.

I.Jabborov ta’kidlaganidek, jamiyatning eng muhim hujayrasi hisoblangan oila nikohdan boshlanadi. Oila qancha sog‘lom, to‘q va mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shuncha sog‘lom, tinch va farovon rivojlanadi. Shuning uchun nikoh ibtidoiy jamiyat davridan boshlab maxsus urf-odat orqali oilaning bardam va mustahkam bo‘lishiga qaratilgan jamoatchilik tomonidan nishonlanib, dastavval odat, keyinchalik yozma tarzda qonunlashtirilgan marosimdir[1].

Lisoniy va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topgan, semantikasida madaniy axborot yaqqol namoyon bo‘luvchi til birliklari lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Lingvomadaniy birliklarga frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg‘un o‘xshatishlar, nutqiy etiketlar, urf-odat va marosimlarga doir so‘zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxiteplar, mifologemalar, lakunalar, presedent birliklar va boshqalar kiradi”[2]. Demak, urf-odat, marosimlarning nomlari – etnografizmlar ham lingvomadaniy birliklardir.

Etnografizmlar xalqning milliy, diniy urf-odatlari, marosimlari bilan bog‘liq madaniy tushunchalarni ifodalaydi. O‘zbek xalqi hayotida to‘y bilan bog‘liq etnografizmlar alohida o‘rin tutadi. To‘y etnografizmi o‘zbek tilida quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi: to‘y – bazm-tomosha va ziyofat bilan nishonlanadigan xalq marosimlarining umumiy nomi. O‘zbeklarda nikoh to‘yi, beshik to‘yi, xatna to‘yi, hovli to‘yi va boshqa turdagi to‘ylar o‘tkaziladi.

O‘zbek sheva vakillari yashayotgan hududda ham an’anaviy to‘ylarni o‘tkazish bilan bog‘liq bir qator urf-odat va marosimlar: beshik to‘yi, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi, payg‘ambar yoshi (mavlud) to‘yi, shuningdek, aholi hayotida bo‘ladigan dafn etish va undan keyin o‘tkaziladigan marosim va rasm-rusumlar saqlanib kelganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Masalan:

To‘y-tantana nomlarini bildiruvchi etnografizmlar. To‘y dunyoning barcha xalqlari tomonidan nishonlanadigan eng katta va mashhur marosim hisoblanadi. Bu marosimni o‘tkazish davomida milliy urf-odatlar, ma’rakalarni ifodalash uchun juda ko‘p etnografik so‘zlar qo‘llaniladi va bu so‘zlar qadim zamonlardan bizning davrimizgacha turli o‘zgarish va takomillashishlar bilan yetib kelgan.

To‘y marosimiga oid etnografizmlar quyidagi nomlar bilan aytiladi:

a) beshik to‘yiga oid etnografizmlar;

b) sunnat to‘yiga oid etnografizmlar;

d) nikoh to‘yiga oid etnografizmlar.

Beshik to‘yiga oid etnografizmlar. Beshik to‘ylari oilaviy-maishiy marosimlardan bo‘lib, oilada farzand tug‘ilgandan keyin tashkil qilinadi: *Mullajon qozi beshik to‘yi qilgan (Abdulla Qahhor, Anor).* Beshik to‘yi ko‘proq juma va yakshanba kunlari o‘tkaziladi. Beshik to‘yi etnografizmi Samar., Bux., Nav. shevalarida **beshkecha**, Nam., Far., And., Toshk. shevalarida **beshik to‘yi** deb ham yuritiladi. Bolani beshikka solishdan oldin cho‘miltirish marosimi bo‘ladi. Avvallari **kindik momo** (Qoraqal.sh. **kindek sheshe**, Qashq.sh. **meros momo**, Samar.sh. **momochi**), hozirda **Hoji onalar** beshikka solish udumini ado etadilar. Bolaga ko‘z tegmasin deb beshikka tumor va ko‘z munchoq osib qo‘yadilar. Bolaning yostig‘i ostiga non, pichoq va piyoz qo‘yish kabi odatlar amalga oshiriladi. Bu marosim to‘g‘risida B.Sarimsoqov quyidagi fikrlarni bildiradi: “Bu marosim, asosan, birinchi va ikkinchi farzand tug‘ilganda ayollar davrasida keng miqyosda o‘tkaziladi. Oilada qiz tug‘ilsa, yetti kundan keyin, o‘g‘il bola tug‘ilsa o‘n bir kundan keyin beshik to‘yi o‘tkaziladi”[3]. Bu marosim hamma hududlarda bir xil emas. Xor. sheva vakillari bu marosimni juma kuni o‘tkazib, uni o‘tkazuvchilar **anaka mama** yoki **keyvan** deb nomlansa, boshqa sheva vakillari nutqida **vakъl ota** so‘zi qo‘llaniladi.

Sunnat va to‘y so‘zlaridan sunnat to‘yi etnografizmi hosil qilingan. Sunnat to‘yi – o‘g‘il to‘yi, xatna to‘yi. Mazkur to‘y o‘g‘il farzandlarni xatna qildirish sunnati bilan bog‘liq marosimni ifodalashiga ko‘ra, shunday nom olgan. Demak, to‘yning bir turi xalqning diniy, milliy urf-odatlari ta’sirida yuzaga kelgan. Shuni ifodalashi va avlodlardan avlodlarga o‘tishini ta’minlashi jihatidan sunnat to‘yi etnografizmi lingvomadaniy birlikdir.

Sunnat to‘yi bilan bog‘liq marosimlar nomi o‘zbek sheva vakillari istiqomat qiladigan hududlarda ko‘proq bir xil tarzda, ba’zan farqli qo‘llaniladi. Sababi har bir xalqning o‘z moddiy, maishiy turmush tarziga egaligidir. Sunnat to‘yida o‘g‘il bolalar xatna qildiriladi. Bu so‘z Surxan. viloyatida **qolhaləllətish** (xatna qildirish) so‘zi bilan ifodalanadi. Bu marosimda bola uchun maxsus kiyimlar, to‘shaklar tiktiriladi. Xor. o‘g‘uz sheva vakillari bu marosim nomini turlicha atamalar bilan ataydilar: **sunnat, sunnat toy, qolыnы halallash//alini halallash//qarz toyi** va b. Ko‘pgina hududlarda musulmon bo‘ldi deyishadi. Bu

[1] Jabborov I. Ko‘rsatilgan asar. – B. 214.

[2] Qarang. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 26.

[3] Sarimsoqov B. Beshik to‘ylari folklori. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – B.18–25.

marosim o‘g‘il bolaning uch, besh, yetti, to‘qqiz yoshlarida o‘tkazilishi shart bo‘lgan. Respublikamizning ko‘pgina viloyatlarida sunnat to‘yidan oldin o‘tkaziladigan marosimlar ham bor. Masalan: Samar., Bux. va Nav. viloyatlarida **xatim** – to‘ydan oldin va hayit kunlari o‘tganlar ruhiga atab Qur’on tilovat qilish va shu munosabat bilan o‘tkaziladigan diniy marosim, keksalarga beriladigan kichik ziyofat. Qiyos., O‘TILda **xatm**[1]. Surxan.: **ma:rut** – to‘y. Kichənəginə mə:ritimiz barъdi. Yoki Samar. va Nav. viloyatlarida bu marosimlar nomi **mɔuvrut, mərəkə** nomlari bilan ifodalanadi. Xor., Qoraqal. bu marosim nomi **qa:da** deb yuritiladi. To‘ygacha bo‘lgan davrda o‘ziga xos udumlar bilan o‘tkaziladigan kichik marosimlar ham bor. Masalan, bu marosimlar nomi Xor. **nanjapar//qatlama pishar//xъzmata chaqirish**; Nav. va Samar. viloyatlarida **maslahat oshi**, Surxan.sh. **məslə:ətash** deb nomlanadi. Shuningdek, sunnat to‘yi kuni to‘y bo‘ladigan bolaga **sarpo kiydirish** marosimi bo‘ladi. Bu marosimda to‘y bolaga chiroyli to‘n, do‘ppi kiydiriladi. Beliga belbog‘ bog‘lanadi. Shuningdek, ushbu marosim paytida quyidagi kichik marosimlar ham o‘tkaziladi:

Otьınɔsh – to‘yga o‘tin tayyorlovchi hasharchilarga beriladigan ziyofat.

Kөpkəri – uloq chopish.

Alьısh//chavkъ – to‘yda o‘tkaziladigan milliy kurash.

Tɔbɔq – ko‘pkari va kurashda qo‘yiladigan sovrin (mol, pul, materiallar).Bu so‘zlar o‘zbek tilli hududlarda keng tarqalgan.

Qɔrəlъk – ko‘pkarining eng mushkuli, eng qiyini. *O‘rtaga tashlangan uloqni kimki belgilangan chuqurga olib kelib tashlasa, ikkita qo‘y, ellik so‘m pul, bir to‘n oladi. Uloqni qoraliqqa bir olib borib tashlasa, to‘dadan uch marta uloq ayrishdan ziyod (T.Murod, Oydinda yurgan odamlar).*

Sɔvьın – to‘yga qarindosh-urug‘ tomonidan olib kelinadigan to‘yona, ko‘proq qo‘y, echki, qora mol.

Hүydə-hүydə – xatna qilishda bolani chalg‘itish uchun ishlatiladigan undov so‘z. Toshk. shevasida **chil-chil hassa**.

Nikoh to‘yiga oid etnografizmlar. Nikoh to‘yi xalqimizning tarixiy rivojlanishi jarayonida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan milliy ma’naviy qadriyatlarimizdan biridir. Nikoh to‘yi qarindosh-urug‘lar, do‘stlar, tanish-bilishlar, qo‘shnilar ishtirokida o‘tkaziladi. To‘y dasturxoni turli noz-ne’matlar bilan bezatiladi.

Nikoh – erkak va ayolning turmush qurishini rasmiylashtirish shakli, usuli[2]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham bu so‘z o‘z semantik mazmunini yo‘qotgani yo‘q. Hozirda nikoh erkak va ayolning qonuniy oila qurishini anglatadi. Ikki yoshga nikoh o‘qilayotganda kuyovning yaqin qarindoshlaridan bo‘lgan erkak kishi **vakъl ota** ishtirok etadi. Samar.v. Paxtachi shevalarida **oldъga chъqqan ota** deyiladi. Qoraqal. o‘zbek shevalarida nikoh marosimida yigitga barcha narsalarni o‘rgatib boruvchi kishiga **jъgъt og‘asъ**, qipchoq shevalarida **o‘kulata//okylota**[3] leksemasi qo‘llaniladi. Bu leksema Qashq. shevalarida **aqлота**, Surxan. **vəkillatə//vaklɔtə// pədərvəkъl//vəkъlsorag‘ыch** leksemasi bilan ifodalanadi[4].

Motam marosimini ifodalovchi etnografizmlar: Motam – inson hayotining intihosini belgilovchi marosimdir. Jasadni dafn qilish barcha xalqlarga xos xususiyatdir.

Motam marosimlari haqida dialektolog olim S.Rahimov ham o‘z ishlarida ba’zi ma’lumotlarni berib o‘tgan[5].

Vafot etmoq, o‘lmoq, jon bermoq, so‘zlari sinonimik qatorni tashkil etib, qo‘llanilish o‘rni va semantik farqlanishga ega. Agar vafot etgan shaxs keksa bo‘lsa, omonatini topshirdi, uzoq muddatga cho‘ziladigan xastalik oqibatida o‘lim yuz bersa, qutildi deyiladi. Vafot etgan shaxs o‘rta yashar bo‘lsa, qaytish bo‘ldi, mabodo chaqaloq yoki go‘dak bo‘lsa nobud bo‘ldi, yo‘q bo‘ldi deb xabar qilinadi. Murdani yuvadigan moslama sortaxta, yuvib kafanga o‘rovchilar – tozalovchi, murdasho‘y deb ataladi.

Motam marosimlarining marhum vafotidan keyingi o‘tkazilish vaqti bilan belgilanadi va vaqtni bildirishi sonlar bilan nomlanadi. Masalan, uch, yetti, yigirma, qirq, yili kabi. Shu kunlar marhum o‘tgan hovlida **is** – o‘tganlar ruhiga atab pishiriladigan **bөg‘ъrsɔq, chəlpək** pishiriladi (is chiqarmoq).

Motam marosimlariga oid etnografizmlar tarixiylik xususiyatiga ega. Qadimda ota-bobolarimiz o‘limni “jonli” mavjudot sifatida tasavvur qilishlari bilan bog‘liqlik asosida vujudga kelgan.

Motam marosimlariga oid etnografizmlarning ko‘pchiligini arabcha, fors-tojikcha va qadimgi turkiy so‘zlar tashkil etadi. Turkiy, fors-tojik so‘zlaridan tashkil topgan etnografizmlar yerli aholining tili asosida

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik, 2-jild. – Toshkent, 2006. – B. 319.
[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik, 3-jild. – Toshkent, 2006. – B. 38.
[3] O‘zbek ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent, 1972. – B. 472.
[4] Mirzayev N. O‘zbek tili etnografizmlarning izohli lug‘ati. – Toshkent, 1991. – B. 37.
[5] Рахимов С. Лексика узбекских говоров Сурхандаринской области: Автореф.дис...канд.филол.наук. – Ташкент, 1974. – 30 с.

vujudga kelgan bo‘lsa, arabcha so‘zlar asosidagi etnografizmlar islom dinining qabul qilinishi bilan bog‘liq holda iste’molga kirgan. Motam marosimlari kuni aza tutish **kok кыymaq** – boshdan oyoq ko‘k yoki qora rangdagi materialdan kiyim kiyish (aza tutmoq) hududlararo farqlanadi. Toshk.da faqat 3-5 kun, Nav., Samar., Bux. viloyatlarida 9 oy ko‘k kiyganlar. Hozirgi kunda bu marosimlar ham qisqarib, kiyim kiyish (aza tutish) qisqargan.

Motam marosimlarida qadimdan qo‘llanib kelingan urf-odatlarning ba’zilari saqlanib qolgan. Masalan: Surxan., Bux. viloyatlarida **sədъr tγshmaq** – o‘lik chiqqan xonadonda xotin-qizlardan iborat bir guruh ayollarning sadr tushishi – yig‘lashlari kuzatiladi. Bunda o‘rtada go‘yanda (aytuvchi) ayol marhumning sifatlarini qo‘shiq qilib kuylaydi va qo‘shiqning har bir bandi tugagandan keyin aytuvchining “uvv-uvv”iga qolganlar ham jo‘r bo‘lib, yig‘lashadi. Sadrga faqat ayollar tushadi. Sadr – ar. ko‘krak, **gөyəndə** – sadr tushgan vaqtda aytib turuvchi shaxs: f.-toj. – go‘ftan hozirgi zamon fe’l o‘zagiga hozirgi zamon sifatdoshining yasovchi qo‘shimchasi qo‘shilib, aytuvchi – “go‘yande” shaklini olgan[1]. Sadr – vaqf va din ishlari bilan shug‘ullanuvchi amaldor[2].

Motam marosimi insoniyat paydo bo‘lganidan buyon geografik muhit, ijtimoiy hayot va kishilarning imkoniyatlari, shuningdek, tabiiy-ilmiy tasavvurlariga va dunyoqarashiga bog‘liq holda o‘zgarib borgan. Bundan 40–18 ming yil oldingi paleolit davridayoq motam marosimi oshkora diniy tus olgan. Keyinchalik motam marosimi har bir dinning tarkibiy qismi hisoblangan diniy marosim va urf-odatlar bilan qorishib ketgan. Motam marosimi hamma xalqlarda o‘ziga xos rasm-rusumlarga, qoidalarga ega. Masalan, slavyanlarda vafot etgan kishi bilan vidolashuv 3 kungacha davom etadi, marhum qabrga tobut bilan qo‘yiladi; hindlarda marhum jasadini maxsus gulxanda kuydirib, kulini daryoga tashlaydilar. Dafn gulxani marhumning o‘g‘illari yoki eng yaqin qarindoshlari tomonidan yoqiladi. Keyinchalik gulxan o‘rnida marhumga bag‘ishlangan marosimlar o‘tkaziladi; zoroastrizmga e’tiqod qiluvchi Janubiy Osiyodagi bir qancha xalqlar marhumning jasadini maxsus minoradaxmalarga qo‘yib, quzg‘unlarga yediradilar (shunday daxmalar Bombay sh. ning g‘arbiy chekkasida hozir ham bor).

O‘zbeklarda motam marosimi katta yig‘in hisoblanadi. Marhumning boshini qiblaga qaratib yotqizib qo‘yadilar. Ko‘zlari ochiq qolgan bo‘lsa, yumib qo‘yadilar, engagini bog‘laydilar, oyoqlarining bosh barmoqlarini birlashtirib bog‘lab qo‘yadilar. Marhumning qarindoshlari uzoq-yaqindan yig‘ilib kelgunga qadar (ba’zan bir kecha-kunduzgacha) kutiladi. Mahalla, qishloqlarga motam soati to‘g‘risida xabar beriladi. Yaqin qarindoshlar yig‘ilishadi, uydagilar har bir yangi kelgan qarindoshlarga qo‘shilib dam-badam marhumga madh aytib, uning fazilatlarini gapirib yig‘lashadi. Motam marosimi, odatda, bomdod, peshin yoki asrga mo‘ljallanadi. Maxsus yuvuvchi (g‘assol, murdasho‘y) murdani sartaxtada yuvib (g‘usl), oq mato (maxsus doka)dan qilingan kafanga o‘raydi. Motam marosimi qatnashuvchilari yig‘ilib bo‘lgach, mayit tobutga olinadi. Tobut eshikdan emas, balki derazadan oyoq tomoni bilan chiqariladi. Masjidda yoki marhumning hovlisida janoza marosimi o‘tkaziladi. Marhumni faqat erkaklar ko‘tarib, hovlidan ko‘chaga (agar marhum yosh bo‘lsa amakilari yoki akalari, keksa bo‘lsa o‘g‘illari yoki eng yaqin qarindoshlari) chiqarishadi. Ko‘chada shoti singari yog‘och anbar ustiga tobutni qo‘yib, to‘rt kishi yelkasiga ko‘taradi (marhumning yoshi va jinsiga qarab anbar motam pardasi — keksa erkaklarga oq surp, ayollarga — oddiy mursak, paranji; yigitlarga qizil rangli yoki duxoba mato, juvon-qizlarga duxoba paranji yoki qizil duxoba mato bilan o‘rab qo‘yilgan), qolgan kishilar tobut ortidan boradi. Boshqalar ularga ko‘maklashadi. Tobutkashlar tez-tez almashinib, tezlikda qabristonga olib boriladi. Qabristonga borgach, tayyorlab qo‘yilgan go‘r oldida marhum tobutdan olinib, kafanga o‘ralgan holda go‘rkovga uzatiladi, go‘rkov uni go‘rga yuzini qibla (g‘arb)ga qaratib yotqizib qo‘yib chiqadi (aksariyat yaqin qarindosh-urug‘larni maxsus ajratilgan joyga — xilxonaga ko‘mish odati ham bor). O‘lik go‘rga qo‘yilgach, kishilar go‘rkov tutgan ketmonga bir siqimdan tuproq tashlaganlar. Go‘rkov tuproqni marhumning boshi ostiga to‘kkan. So‘ngra go‘rning og‘zi berkitilib, tuproq tortilgan. Dafn tugaganidan so‘ng go‘rkov yoki boshqa kishi motam marosimi qatnashuvchilariga murojaat qilib, o‘likning nomini aytib: “Qanday odam edi”,-deb so‘raydi, hozir turganlar esa “yaxshi odam edi”,-degan javobni beradilar. Bu so‘roq va javob faqat erkaklarga taalluqli (xotinlar erining ixtiyorida bo‘lgani uchun, xotinlarga yaxshi yoki yomon deb baho berishga erdan boshqa hech kimning haqqi yo‘q). Shundan keyin go‘rkov hamma kelganlarga rahmat aytib, tarqalishga ruxsat beradi. Ba’zan dafnga kelganlarga pul, ro‘molcha, sochiq, sovun, kiyimlik ulashiladi, bu odatni xayrot, isqot deb ataydilar. Mozorga borganlar marhumning uyiga kelib fotiha o‘qib tarqaladilar.

Yig‘i marosimi – o‘lim va dafn marosimi bilan bog‘liq udumlardan biri. O‘lim oila boshiga tushgan og‘ir musibat. Ko‘p yerlarda, xususan, qishloq joylarda Yig‘i marosimi odat tusiga kirgan bo‘lib, ma’lum

[1] Fayziyeva X. O‘zbek tili Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarining lug‘at xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022. – 125 b.

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi, 3-jild. 2006. – B. 419.

tartibda o‘tadi. Ayollar yakka tarzda yoki bir-birlari bilan ko‘rishib yoki davra qurib o‘tirib (ba’zan tik turib) yig‘laydilar. O‘tirib yig‘lashda katta davra quradilar. Odatda, qishloqda, shahar mahallalarida aza qo‘shig‘ini aytuvchi yig‘ichi (go‘yanda) ayollar bo‘lgan. Ta’ziya marosimida yig‘ini go‘yanda boshlaydi, o‘rtaga tushib va vafot etganning belbog‘i, marhum, ayol bo‘lsa, ro‘molini bo‘yniga tashlab, uning yaxshi xislatlarini, tirikligida qilgan ishlarini yaqinlari tilidan ta’sirli qilib aytib yig‘laydi. Azador qiz va kelinlar yig‘iga qo‘shiladilar, boshqa ayollar ham jo‘r bo‘ladilar. Yig‘i marosimining ikkinchi ko‘rinishi sadr (sadr tushish) nomi bilan ma’lum. Bunda marosimga yig‘ilgan ayollar tik turib, davra qurib yig‘laydilar. Aytuvchi davraning o‘rtasida turadi, u bilan davra ichida shu xonadonning ayollaridan biri (onasi, xotini, qizi va b.) ham bo‘lgan. Aytuvchi yuqoridagi tartibda, marhum nomini va uning yaxshi xislatlarini aytib yig‘i boshlaydi. Ayollar aylanib, tepinib davrani buzmasdan, gir aylanib yig‘laydilar. Aytuvchi yig‘ining bu ko‘rinishi qishloqda yoki mahallada bir yil davomida o‘lgan kishilarning nomini navbat bilan aytib bo‘lmaguncha davra yig‘isi davom etgan. Bu odatlar Movarounnahr va Xorazm o‘lkasida qadimdan mavjud bo‘lib, bizgacha yetib kelgan. Ko‘p joylarda, masalan, O‘zbekistonning jan. viloyatlarida **sadr tushish** etnografizmi kam uchraydi. Lekin islomda, hadisi shariflarda marhumga faryod urib yig‘lash ma’qul sanalmaydi. Marhumning el-yurtga qilgan yaxshi amallarini xotirlab, unga Allohdan rahmat tilashga chaqiriladi. Yuqoridagi keltirib o‘tilgan ta’ziya marosimidagi urf-odat va an’analar negizida inson qadri, uni oxirgi manzilga ham e’zoz, hurmat ila kuzatish yotadi.

SAMARQAND VILOYATI QARLUQ SHEVALARI VA ULAR LEKSIKASIDAGI PARONIMLAR YUZASIDAN MULOHAZALAR

***Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna*[1]**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili qarluq shevalarining shakllanishi, tarqalish hududlari va o‘ziga xos jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan. Ma’lumki, qarluq lahjasi vakillari, asosan, shahar hamda shahar tipidagi dialektlar, shevalarni qamrab oladi. Mazkur shevaga doir til birliklaridagi paronimlar o‘zbek adabiy tilidagi so‘zlar bilan qiyosiy aspektda solishtirilgan. Farqli, umumiy jihatlar ajratilib, mavjud holat yuzasidan xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: qarluq-chigil-uyg‘ur, lahja, leksika, grammatik qurilish, fonetik talaffuz, lug‘aviy tarkib, paronim, fonologik-fonetik belgi.

Abstract: This article focuses on the formation, areas of distribution and specific aspects of the karluk dialects of the uzbek language. It is known that representatives of the karluk dialect mainly cover urban and city-type dialects and dialects. Paronyms in the linguistic units of this dialect are compared with words in the uzbek literary language in a comparative aspect. Different, general aspects were distinguished and conclusions were made regarding the current situation.

Key words: karluk-chigil-uyghur, dialect, lexicon, grammatical construction, phonetic pronunciation, lexical content, paronym, phonological-phonetic sign.

Tarixdan ma’lumki, qarluqlar tili va lahjasi butun o‘lka qabilalari uchun umumiy bo‘lgan. Bu haqda olim Karim Shoniyozovning aynan shu masalaga bag‘ishlangan ishlaridagi ayrim mulohazalariga to‘xtalib o‘tsak: “Qarluq lahjasi tarixan qarluq urug‘larining rivojlanishi asosida shakllangan va ular qadimgi tukyu (turk) qabila birlashmasiga mansub bo‘lib, uzoq o‘tmishda Oltoyning g‘arbiy tumanlarida yashaganlar. Turk xoqonligining tashkil topishi bilan (552-yilda) g‘arbiy Oltoydan chiqib, Irtish daryosi sohillarini, Jung‘oriyani, Mo‘g‘ul tog‘ining janubiy yon bag‘ridan to Ile daryosining shimoligacha bo‘lgan hududni egallaydilar. Qarluqlarning katta qismi VI asr o‘rtalarida Sharqiy Turkistonni, Farg‘onani, Toxaristonning ayrim hududlarini tasarrufiga kiritgan edilar. X asarda Yettisuvni ishg‘ol qilgan va katta hududda hukmronlik qilganlar. Shunday qilib, VIII-X asrlarda Ile daryosidan to Sirdaryogacha, hozirgi Chimkent shahridan to Sharqiy Turkistongacha bo‘lgan o‘lkada yashagan barcha turkiy qabilalar qarluqlar hukmronligi ostida bo‘lgan. Qarluqlarning tili shu o‘lkadagi barcha qabilalar uchun umumiy bo‘lgan. Yettisuv, Farg‘ona vodiysi, Sharqiy Turkistonning Torim daryosigacha bo‘lgan hududda qarluqlar bilan birga chigil, xalaj, yag‘mo qabilalari ham yashaganlar, uyg‘urlar ham qarluqlar tarkibida bo‘lgan” [Shoniyozov K, 1962: 481-490].

[1] filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi tillabayeva87@bk.ru, +998979169261

Shuningdek, Samarqand hududidagi qarluqlar elatining o‘rni, aloqasi, o‘troqlashuvi haqida ham ma’lumotlar diqqatga sazovor: “Movarounnahrda qariyb 200 yil hukronlik qilgan Qoraxoniylar (qarluq) davlati 1041-yilda ikkiga bo‘linadi. Natijada g‘arbiy qismining markazi Buxoro, keyinchalik Samarqand bo‘lgan” [Shoniyozov K, 2001: 237].

Hozirgi Samarqand viloyati O‘zbekistonning o‘rta qismida joylashgan bo‘lib, shimoliy-g‘arbdan Navoiy, janubdan Qashqadaryo, shimoliy-sharqdan Jizzax viloyatlari hamda janubiy-sharqdan Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. U 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Xususan, biz tadqiq qilayotgan Samarqand shahri viloyat statistika boshqarmasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, 564500 ming kishi (2022) ni tashkil etadi. Aholining asosiy qismi o‘zbeklar, tojiklar va eronliklardan iborat bo‘lib, shuningdek, rus, arman, tatar, boshqird, turk, koreys, ozarbayjon, ukrain, yahudiy millatiga mansub kishilar ham bor. Samarqand shahrida 215 ta mahalla bo‘lib, Samarqand shahar kengashiga qarashli 3 shaharcha (Kimyogarlar, Farhod, Hishrov) mavjud. Maydoni 0,12 ming km² .

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, Samarqand shahrining ayrim mahallalarida deyarli adabiy tildan farqlanmaydigan, asosan, o‘zbek tilida muloqot qiluvchi aholi istiqomat qiladi. Bular sirasiga “Bog‘bonlar”, “Beshchinor”, “Damariq”, “Yoshlik”, “Maqsud Shayxzoda”, “Yangi Hayrobod”, “Navbog‘chiyon”, “Istiqlol”, “Eski Qalandarxona” , “Alizoda”, “Botir Zokirov” kabi mahallalarni kiritib o‘tishimiz mumkin. Shaharning boshqa hududlarida esa ikki tilda muloqot qiluvchi aholi yashaydi. Bunday mahallalarga “Zominiy”, “Go‘ri Amir”, “Dahbediy”, “Sadriddin Ayniy”, “Chaqar”, “Urguti”, “Yominiy”, “Registon”, “Istiqbol”, “Ko‘l” kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, dunyodagi turkiy tillar ichida o‘zbek tilichalik ko‘p shevali tillar kam uchraydi [Polivanov Y, 1933]. Bu fikr turli amalga oshirilayotgan tadqiqotlar orqali o‘z isbotini topib kelmoqda. Jumladan, o‘zbek adabiy tilining takomilida muhim ahamiyatga ega qarluq lahjasi vakillari, asosan, shahar va shahar tipidagi dialektlar va shevalami qamrab oladi. Bu lahjaning boshqa lahjalardan farqi uning singarmonizmni saqlashiga ko‘ra, ikki guruhga ajralishidir, ya’ni shahar va shahar tipidagi shevalarda singarmonizm qonuni amal qilmaydi (uning ayrim ko‘rinishlarigina mavjud bo‘ladi), shuning uchun ham shahar va shahar tipidagi shevalarda unlilar 6, 7tadan (a, o, u, a, i, e) oshmaydi, shimoliy o‘zbek va Andijon shevalarida singarmonizm saqlanadi va ularda a(a), a, o, 6, u, i, i(I), i:(i), e unlilari (9 ta) qatnashadi. Bu lahja shevalari 5 va 4 kelishiklidir. Bundan shimoliy o‘zbek shevalari mustasno bo‘lib, faqat Chimkent shahar shevasigina 5 kelishiklidir. Lahjaning boshqa singarmonizmli shevalarida oltita kelishik saqlanadi. Fe’l shakllarida ham o‘ziga xosliklar mavjud.

Bu lahja shevalari to‘rt guruhga bo‘linadi. Xususan, Samarqand-Buxoro guruh shevalariga Samarqand, Buxoro, Qarshi, Koson, Chust, Xo‘jand kabi shevalar kiradi [Ashirboyev S. 2021: 85].

Tilning omonimiya, sinonimiya, antonimiya, polisemiya kabi munosabatdosh leksik-semantik guruhiga kiruvchi paronimiya hodisasi o‘zbek tilining, shevashunosligining milliy xususiyati va ontologik tabiatini o‘zida namoyon qiluvchi hodisa sifatida ahamiyatli. Xususan, paronimlar ma’lum tovush bilan farqlanuvchi leksemalar qatori hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida polisemiya va unga yondosh hodisalar A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, R.Shukurov, R.Safarova, O.Bozorov, A.Omonturdiyev, Sh.Orifjonova, B.Qilichev, B.T.Suyunov, J.Djumabayeva, F.Jumayeva, V.Nafasova kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Xususan, paronimlarda hal qiluvchi vazifani tovushlarning o‘xshashligi emas, balki farqi birini boshqasidan ajratib turuvchi fonologik-fonetik (va grafik) belgi muhim sanaladi. O‘xshash ikki leksemadan noo‘xshash fonologik-fonetik dalil qidiriladi: chalg‘i-cholg‘u juftligida besh tovushning ikkitasi noo‘xshash. O‘xshash qism miqdoran ko‘p, noo‘xshash qism tarkibi asosan bir, ba’zan ikki tovushdan iborat, ba’zan distributsiya (tansiq-tanqis, qismoq-siqmoq) va shunga o‘xshash lingvistik hodisalar ham farqlanish vazifasini bajaradi [Nafasova V, 2019: 12].

Biz ham mazkur mezonlardan kelib chiqqan holda Samarqand viloyati qarluq shevalari yuzasidan to‘plangan materialimiz tarkibidagi ayrim paronimik juftliklarni ko‘rib chiqamiz.

Doqqi- notekis yoki tekis bo‘lmagan sirtga ega; silliq yoki tekis emas. Ma’nosiga ega sifat turkumiga mansub so‘z. *Hoqqi*- muomalasi qo‘pol, zardali, beandisha bo‘lgan kishi.

Olus- ko‘zlari ikki chetga siljib qolgadigan g‘ilay ko‘z. *Olis*- oraliq masofasi katta, nisbatan narida joylashgan uzoq masofani anglatadi.

Mādä- biror bir parrandaning, qushning urg‘ochisini anglatadi. *Me’dä*- kishining ovqat hazm qilish a’zolaridan biri.

Bā- avval bo‘lgan ish-harakat, narsa-hodisaning takror yuz berishini boshlanishi va davom etishini bildiradigan tag‘in, yana so‘zlarining shevadagi varianti. Be- ajablanishni, hayronlikni yoki norozilikni ifodalovchi iye, iyya kabi undov so‘zlarning dialektal varianti.

Millä- odamning bosh terisida o‘sadigan qil tolalar qoplamasi va ularning har biri, ya’ni soch ma’nosida. *Hillä-* amalga oshirish, bajarish imkoni, chorasi mazmuniga ega lug‘aviy birlik.

Šo:rä- tashlandiq yerlarda, ekin maydonlarida g‘ovlab o‘sadigan yovvoyi o‘t. *Šorā-* sovet hokimiyatining turkiylar va xalq orasida qo‘llangan nomi. *Šolä-* go‘sht, sabzi-piyoz va guruch solib pishiriladigan bo‘tqasimon shovla ovqatining shevadagi shakli.

Fällä- og‘iz suti, ya’ni tuqqandan keyin dastlabki 2-3 kunda keladigan sut. *Pällä-* mazkur omonim so‘z Samarqand shahri qarluq lahjasida, asosan, tarozining narsa yoki tosh qo‘yiladigan har bir taqsimchasi ma’nosida qo‘llanilishiga guvoh bo‘ldik. *Häjlä-* ko‘z o‘ngida turgan, o‘zidan nariroqda bo‘lgan narsaga ishora qiluvchi ana, mana degan ko‘rsatish olmoshining dialektal ko‘rinishi.

Ütti:- kiyim-kechak va matolarni tekislash uchun qo‘llanadigan dazmol. *Xüddi:-* aynan, aniq so‘zining keng tarqalgan sinonimi.

Nilčop- uchi paxtali quloq tozalash va o‘sma qo‘yishda qo‘llanadigan cho‘pcha. *Čilčop-* nisholda tayyorlashda qo‘llanadigan uzun dastali cho‘p.

Či:l- shakldosh so‘z bo‘lib, qirq sonini, marosim ma’nosini anglatadi. *Si:l-* shevada juda qattiq siqilmoq ma’nosida ko‘p uchraydi.

Qärz- ma’lum muddatdan keyin qaytarilishi lozim bo‘lgan narsa. *Qärs-* ayollar boshiga o‘raydigan yupqa, oq matodan tayyorlangan katta ro‘mol.

Nimxām- yaxshi, maromiga yetkazib pishirilmagan degan mazmunga ega so‘z. *Nimxāb-* ko‘zlar yumuq bo‘lsa-da hali to‘la uxlanmagan holat tushuniladi.

Ǯinni:- aqldan ozgan, ruhiy kasalikka chalingan telba degan ma’noga ega so‘z. *Činni:-* chinnidan yasalgan idishlar to‘plami. *Binni:-* hidlash, hid bilish a’zosi bo‘lgan burunning Samarqand qarluq shevalaridagi varianti.

Ämbor- mix sug‘urish, narsalarni qisib ushlash, ko‘tarish, egish, qirqish kabi ishlar uchun qo‘llanadigan ikki jag‘li asboblarning umumiy nomi bo‘lgan omburning dialektal variantdoshi. *Āmbār-* oziq-ovqat, asbob-anjom kabilar saqlanadigan bino.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zbek adabiy tilida bo‘lgani kabi talaygina paronim so‘zlar juftligi mavjud. Ishning ko‘lamidan kelib chiqqan holda faqat ularning ayrimlarigagina to‘xtalib o‘tdik, xolos.

ADABIYOTLAR:

1. Поливанов Е. Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Госиздат, 1933.
2. Шониёзов К. Қарлуқлар ва уларнинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар// Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари.−Тошкент: Фан , 1962. − Б.481-490.
3. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни.− Тошкент: Шарқ , 2001.−Б.237.
4. Нафасова В. Ўзбек тили паронимларининг лисоний таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. - Қарши. 2019.- Б.12.
5. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021.- 176 bet.

МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ДИАЛЕКТОЛОГИК АТЛАСИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА МУҲИМ МАНБА

Турдиев У.К.,
доцент, PhD НавГПИ

Аннотация. Данная статья написана о «Управления физической культурой и спортом», которая преподается в педагогических вузах. Также в статье анализируется управление физической культурой и спортом в педагогических вузах и предполагает применения новых стратегий обучения, инновационных педагогических технологий связанными с профессиональной деятельностью будущих специалистов образовательных программ в физической культуре. В статье использованы такие методы исследования, как работа с научными документами, педагогический анализ, математико-статический анализ, интервью. В заключении даются предложения и рекомендации.

Annotation. This article is written about the "Management of Physical Culture and Sports", which is taught in pedagogical universities. The article also analyzes the management of physical culture and sports in pedagogical universities and involves the use of new teaching strategies, innovative pedagogical technologies related to the professional activities of future specialists of educational programs in physical education. The article uses such research methods as working with scientific documents, pedagogical

analysis, mathematical-static analysis, and interviews. In conclusion, suggestions and recommendations are given.

Annotatsiya. Ushbu maqola pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan "Jismoniy madaniyat va sportni boshqarish" haqida yozilgan. Shuningdek, maqolada pedagogika oliy o‘quv yurtlarida jismoniy madaniyat va sportni boshqarish masalalari tahlil qilingan hamda jismoniy tarbiya bo‘yicha ta’lim dasturlarining kelgusi mutaxassislarining kasbiy faoliyatiga oid yangi ta’lim strategiyalari, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan. Maqolada ilmiy hujjatlar bilan ishlash, pedagogik tahlil, matematik-statik tahlil, intervyu kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xulosa qilib, taklif va tavsiyalar berilgan.

Ключевые слова: физическое воспитание, инновационные педагогические технологии, спорт, педагогические вузы.

Keywords: Physical Education, novative pedagogical technologies, sports, pedagogical universities.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, sport, pedagogika oliy o‘quv yurtlari.

В современной организации деятельности субъектов образовательного процесса важное значение имеют их интеллектуальный уровень, духовное и физическое развитие личности на основе образовательных моделей. В этой связи вопрос управления физической культурой и спортом в педагогических вузах является актуальным, так как в настоящее время наблюдается проблема ухудшения здоровья у молодого поколения в возрасте от 18 до 25 лет. В связи с этим особую актуальность приобретает разработка здоровье сберегающих технологий, которые предназначены для укрепления и сохранения здоровья молодежи.

Переход системы образования на новый уровень требует от специалистов новых идей, в том числе и в физическом воспитании. Эффективное внедрение в учебный процесс комплексного подхода к физическому воспитанию студентов предполагает использование инновационных педагогических технологий.

Управление физической культурой и спортом в педагогических вузах — это совокупность психолого-педагогических установок, определяющих специальный набор и компоновку форм, методов, способов, приему обучения, воспитательных средств.

На данный момент накоплено множество новых образовательных технологий в сфере физической культуры. Среди них можно выделить основные: личностно-ориентированное физическое воспитание, спортивно-ориентированное физическое воспитание, экологическое воспитание, мониторинг состояния физического здоровья, физического развития, олимпийское образование, нетрадиционные методы оздоровительной физической культуры.

Но не все вышеперечисленные технологии нашли применение в сфере физической культуры.

Чтобы соответствовать современным потребностям общества, технологии преподавания физической культуры должны включать в себя современные достижения теории и методики физического воспитания и спортивной тренировки. Инновационная деятельность в сфере физического воспитания молодежи должна быть направлена на увеличение двигательной активности, повышение валеологической грамотности, а также на снижение пагубного влияния учебной аудиторной деятельности, и окружающей внешней среды. Для этого необходимо создать такие технологические модели оздоровительной физической культуры, которые могут изменить данную ситуацию и отношение молодежи к собственному здоровью. При создании педагогических технологий необходимо учитывать все формы организационно- педагогической деятельности как учебную, так и внеурочную.

В настоящее время во всех вузах пытаются организовать учебный процесс таким образом, чтобы он способствовал формированию и дальнейшей реализации личностного потенциала студентов. Организовать учебный процесс помогает преподавателю соблюдение следующих педагогических условий: мониторинг на всех этапах педагогического процесса физического потенциала студента; взаимосвязь нравственного и физического воспитания; использование оздоровительного и общеразвивающего направления с учётом уровня физической подготовленности обучающихся, психофизических особенностей, спортивных интересов; личностно-деятельный подход; гуманизация межличностных отношений.

Занятия следует строить так, чтобы студент сам мог найти решения и, опираясь на них, делал правильные выводы. Для достижения этого, преподаватель должен уметь задавать наводящие вопросы или объяснять так, чтобы обучающиеся, основываясь на собственный опыт, могли делать правильные выводы.

Управление физической культурой и спортом в педагогических вузах предполагает применения новых стратегий обучения, связанными с профессиональной деятельностью будущих специалистов.

В нашей стране, в последние годы в процессе реформирования системы непрерывного образования в соответствии с инновационными тенденциями созданы возможности для повышения качества и эффективности обучения с учетом социально – экономического развития страны и современных требований, основанных на демократических принципах и организации управления модернизированной системой образования. В этом контексте важное значение приобретает разработка эффективных механизмов внедрения в учебный процесс научных и практических результатов исследований, в том числе по овладению будущими учителями физического воспитания профессиональными и личными качествами, основанными на идеях творчества, совершенствованию технологий, формирования и развития у молодежи, наряду с физическими качествами высокой духовной культуры.

Управление физической культурой и спортом на государственном уровне осуществляется трехуровневой системой органов управления – субъекты управления. Наряду с государственным управлением в сфере физической культуры и спорта существует общественное управление. Объектами управления в сфере физической культуры и спорта являются организации физкультурно-спортивной направленности с их ресурсами. Их

деятельность направлена на удовлетворение потребностей населения в физкультурно-спортивной деятельности.

В Узбекистане А.К.Атоев, Ж.Нуршин, Ф.Керимов, Ш.Х. Хонкелдиев,

Ж.М.Тошпулатов, У.И.Иброхимов, А.Н. Абдиев исследовали историю развития спорта, традиции, методы и направления развития спорта в стране; вопросы организации современных уроков физического воспитания и формирования научного потенциала будущих кадров в области физического воспитания нашли отражение в исследованиях К.М.Махкамжонова, И.А.Кушбахтиева, Л.Р.Айрапетянца, Т.С. Усмонходжаева, С.С.Хужаева,

К.Алимова; Х.Холдаров, Р.Абдумаликов, Р.А.Косимов, А.Абдуллаев провели исследования по проблемам развития национальных видов спорта, методике проектирования спортивных кружков, организации походов.

Зарубежные ученые M.O.Maxouny, W.Smit (Великобритания), P.Metyo, J.Xolms, P.Skott,

I.Rapoport (США), Dun Shi Chang (Китай), Charelli Graceo Rini, Sandra Melinder (Малайзия), изучили психологические аспекты социализации студентов в процессе физического воспитания, психологической устойчивости спортсменов, проблемы воспитания молодежи путем закаливания организма, повышения физических навыков Физическая культура и спорт – являются общепризнанными материальными и духовными ценностями для каждого человека в отдельности и общества в целом.

Использование инновационных технологий в педагогическом процессе стало объективной реальностью для нынешнего времени, т.к. заинтересовать студентов занятиями физической культуры становится все труднее, посещения занятий не регулярны, а значит, необходимы новые формы, приемы, методы и технологии проведения занятий.

В настоящее время отмечается довольно повышенный интерес к различного рода проблемам физического воспитания студентов. Физическая культура незаменимая среда для формирования физического, нравственного, интеллектуального и духовного развития личности, а также важное средство укрепления здоровья. Основная задача физической культуры в вузах – это сохранение и укрепление здоровья студентов, и формирование у них привычки регулярно заниматься физической культурой и следить за собственным здоровьем.

Стало очевидно, что традиционные методы построения занятий по физической культуре давно потеряли свою актуальность, поэтому педагоги стали больше времени и сил уделять разработке новых версий построения учебно-воспитательного процесса.

Таким образом, такие преобразования требуют от специалистов педагогических наук нового мышления. Инновационная деятельность – современный методологический подход, позволяющий переосмыслить состояние педагогической деятельности и определить пути ее модернизации.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Аграновский М. А., Лукин Н. С., Качашкин В. М. Современная силовая тренировка.-М.: Физкультура и спорт, 2019.-248 с.

2. Бернштейн Н. А. Биохимические особенности скелетной мускулатуры.-Киев: Вища школа, 2016.-214 с.

3. Bohnishc S. Einige philosophisch-methodologische Fragen- Berlin, 2016.- 175 p.

4. Bloom B. S. A Taxonomy of Eucational Objektives Handbook.- Harvow, 2017.- 83 p.
5.Maxouny M.O. The relationship between innovation and business performance - A comparative study between manufacturing and service firms // Journal of sport and physical education. Bangkok: Ministry of Sport and Tourism, 2015, 125-138.
6.Керимов Ф.А. Спортчиларни мусобакаларга тайёрлаш методикаси.-Т.:Молия,2022.-168с.

“O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI”DAGI DIALEKTAL LEKSIKANING PARAMETRIK TAHLILI MASALASI XUSUSIDA

Bobotayev Mirjalol Ibodulla o‘g‘li,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolda o‘zbek tilida qo‘llanuvchi dialektal leksikaning yangicha yondoshuv va zamonaviy tahlil metodlari orqali tahlil qilish yo‘llari qisqacha yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligining leksikografiya sohasida amalga oshirgan ishlari ko‘lami, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uchraydigan ayrim dialektizmlarni parametrik jihatdan tahlil qilishda nimalarga e’tibor berilishi xususida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Sheva, milliy til, o‘zbek adabiy tili, izohli lug‘at, dialektal lug‘at, parametrik tahlil, paradigmatik tahlil, epidigmatik tahlil.

Resume. This article briefly highlights the methods of analyzing dialectal lexicon used in the Uzbek language through a new approach and modern analysis techniques. It also discusses the scope of work carried out in the field of lexicography in Uzbek linguistics, with a particular focus on the aspects to be considered when conducting a parametric analysis of certain dialectisms found in the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language.”

Key words. Dialect, Literary language, National language, Explanatory dictionary, Dialectal dictionary, Parametric analysis, Paradigmatic analysis, Epidigmatic analysis.

Аннотация. В данной статье кратко освещены пути анализа диалектной лексики, используемой в узбекском языке, через новые подходы и современные методы анализа. Также обсуждается масштаб работы, выполненной в области лексикографии узбекского языкознания, и приводятся размышления о том, на что следует обратить внимание при параметрическом анализе некоторых диалектизмов, встречающихся в «Толковом словаре узбекского языка».

Ключевые слова. Диалект, литературный язык, национальный язык, толковый словарь, диалектный словарь, параметрический анализ, парадигматический анализ, эпидигматический анализ.

Mustaqillik yillarida o‘zbek dialektologiyasining deyarli barcha sohalari bo‘yicha nafaqat tilimizning jonli xazinasi bo‘lgan hamda xalqimizning tarixi, madaniyati, mental xususiyatlari, an’analarini o‘zida aks ettirgan dialektal lisoniy birliklarni chuqur va har tomonlama o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshiriladi. Shu bilan birga barcha o‘zbek shevalari leksik-semantik ko‘lamini qamrab oluvchi ko‘p jildli lug‘atlarni yaratish, shevalarga adabiy tilning va adabiy tilga lahja va shevalarning ta’siri hamda dilektal lisoniy birliklarning milliy tilning izohli lug‘atlarida aks etishi masalasini jiddiy o‘rganish, bunday tadqiqotlar uchun yangi nazariy metodologik asoslarni yaratish fanimiz oldida turgan yangi vazifalardandir. Zero, “O‘zbek tilining shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash...”[1] zarur.

Dialektal til birliklarini (asosan so‘z va morfemalar) o‘zbek tilining 1980-yillarda va mustaqillik yillarida tayyorlangan izohli lug‘atlarida tavsiflanishi nafaqat o‘zbek dialektologiyasining, balki leksikografiya fanining eng murakkab va munozarali masalalaridan biridir. Xususan, o‘zbek tilinining turli lingvistik, izohli hamda sohaviy lug‘atlaridagi dialektizmlar, bunday birliklarning leksik-semantik xususiyatlari hamda ularning adabiy til unsurlari bilan turli leksik-semantik munosabatlari hozirga qadar tizimli o‘rganilmay qolmoqda. Bunday holat “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi dialektizmlarga ham tegishlidir. Shu bois ham o‘zbek tilshunosligida xalq shevalariga xos lisoniy birliklarning xususiyatlari hamda ularning adabiy tildagi maqomi muammolarini an’anaviy metodlar bilan birga tilshunoslikning innovatsion usullari bilan tadqiq etish eng dolzarb masala ekanligi bilan ahamiyat kasb etadi.

[1]Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2020 yildagi PF-6084-son Farmoni - https://lex.uz/docs/ -5058351 (Mart, 2024)

Shunday innovatsion usullar yordamida tahlil qilishni ko‘zda tutuvchi metodlardan biri parametrik tahlildir. Parametrik leksik tahlil lingvistik birliklarni aniqlash va tasniflash uchun statistik va matematik usullardan foydalanadi. Ayniqsa, dialektal leksika kabi tilning o‘ziga xos bo‘laklarini o‘rganishda parametrik yondashuv, turli hududiy variantlarni tasniflash va ularning til tizimidagi funksional vazifalarini aniqlashda qo‘l keladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan dialektal birliklarni parametrik tahlil qilish orqali ularning o‘zbek tili tizimiga ta’sirini chuqurroq o‘rganish mumkin bo‘ladi. Dialektal leksika, odatda, ma’lum bir hududga xos bo‘lgan, adabiy tilda kam qo‘llaniladigan yoki umuman qo‘llanilmaydigan so‘zlar majmuasini anglatadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dialektal so‘zlarni tizimli ravishda tasniflashda muhim manba hisoblanadi. Dialektal leksikani parametrik tahlil qilish orqali so‘zlarning chastotasi, tarqalish geografiyasi va kommunikativ funksiyasi aniqlanadi.

Leksik birliklarning matnlarda qo‘llanishini, shuningdek, ingliz tilshunosligi va matn lingvistikasi, diskurs tahlili bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borgan mashhur ingliz tilshunosi va diskurs tahlilchisi M.Hoeyning “Lexical Priming” asarida leksik birliklarning matnlardagi qo‘llanishi statistik parametrlar asosida o‘rganilgan. M.Hoey, so‘zlarning ma’nosi va qo‘llanilishidagi kontekstual o‘zgarishlarni aniqlashda dialektal birliklarning maxsus algoritmlar yordamida tahlil qilinishi kerakligini ta’kidlaydi[1].

Dialektal birliklarni o‘rganish parametrik tahlilning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, til birliklarining chastotasi va ularning qaysi hududlarda ko‘proq uchrashini aniqlash dialektal tahlil uchun muhim ahamiyatga ega. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uchraydigan dialektal so‘zlarning tahlili hududiy farqlarni ko‘rsatish bilan birga, ularning adabiy tilga qanday ta’sir qilishini ham ochib beradi.

Korpus lingvistikasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borgan tilshunos olimlardan biri J.Sinclair o‘zining “Corpus, Concordance, Collocation” kitobida lug‘at tarkibini o‘rganishda parametrik tahlil usulidan foydalangan bo‘lib, u, dialektal birliklar va adabiy til birliklari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun chastotali tahlil usulini qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi[2]. Bu borada o‘zbek tilshunosligida ham ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Aynan tilshunoslikning zamonaviy tadqiq yo‘llari xususida tadqiqotlar olib borgan olimlarimizdan biri O.Madrahimov o‘zbek tilida dialektal birliklarni o‘rganishda, dialektal so‘zlarni parametrik tahlil qilishning usullarini taklif etadi. Shuningdek, u dialektal birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash uchun ularning chastota va kollokatsiyalarini o‘rganish kerakligini alohida ko‘rsatadi[3].

Dialektal birliklar ma’lum geografik hududlarda keng tarqaladi va bu birliklarning o‘rganilishi tilning hududiy farqlarini tushunishga yordam beradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dialektal so‘zlarning qaysi viloyatlar yoki hududlarda keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Parametrik tahlil usuli yordamida so‘zlarning qaysi hududda ko‘proq ishlatilishi va ularning leksik tizimdagi funksiyalari ko‘proq aniqlanadi. Misol uchun, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qo‘llangan dialektizmlardan biri *Abjo‘shini* olaylik (“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da dialektal so‘zlarga nisbatan ajratib ko‘rsatish maqsadida so‘zlardan keyin *shv* (shevaga oid) tarzida keltirilgan) 1. Objo‘sh[4] (ot), 2. Abjo‘shi (sifat). *Suv berib ishlangan (temir, po‘lat kabilar haqida).* “O‘zbek xalq shevalari” lug‘atida[5] *Abjo‘sh* (Xorazm)- qaynagan suvga botirib olingan mayiz ma’nosida ishlatilishi ko‘rsatilgan. Aynan shu Samarqand viloyati tumanlarida (Urgut) ham *Abjo‘sh* shaklida (*Bunda yetilgan, ya’ni pishgan uzum tokdan uzib olingandan so‘ng mayiz qilib tayyorlash uchun qilinadigan jarayon*) ishlatilishini ko‘ramiz. Mazkur dialekt respublikamizning boshqa hududlarida *obijo‘sh, obdish, objish* shakllarida (qipchoq) Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax viloyatlarida *qaynoq suv, qaynatilgan suv* m’nosida iste’molda ekanligini bilishimiz mumkin. Aslida mazkur dialekt fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, *ob-suv, jo‘sh* esa *qaynagan, qaynoq, qaynagan suv* ma’nolarini bildiradi. Shunigdek, o‘zbek tilida “ko‘nmoq” so‘zi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keng qo‘llaniladi, lekin boshqa hududlarda “rozilik bermoq” ma’nosida ishlatiladigan so‘zlar bilan almashtiriladi. Ushbu dialektal birlikning parametrik tahlili uning geografik tarqalishini aniq ko‘rsatadi. Bu kabi dialektizmlar izohli lug‘atda juda ko‘plab uchraydi, aynan shularni tahlil qilishda parametrik tahlilga tayanish va uning nazariy metodologiyasidan foydalanish maqsadga mufoviqdir.

---

[1] Hoey M. Lexical Priming: A New Theory of Words and Language. London: Routledge. 2005.

[2] Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford: Oxford University Press. 1991. 102 b.

[3] Madrahimov O. Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti. 2010. 84-b.

[4] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Olti jildli.–Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022-yil 37-bet.

[5] Шоабдурахмонов Ш.,Ишаев А., Носиров Ш., Узоқов Ҳ., Абдураҳмонов Д. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971.- 23 бет.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *buvi* dialektizmining quyidagicha izohi keltiriladi: *Buvi* – **1** *shv.* Ona, oyi. – *Yig‘lamang, buvi, xudoning irodasi, -dedi G‘ulomjon, bunay gaplar onasining qalbiga malham bo‘lmasligini bilsa ham.* M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o. **2** Otaning yoki onaning onasi. *Mungli ko‘zlari mehrga to‘la bu nozik kampir Shukurovga marhum buvisini eslatdi.* O.Yoqubov, Diyonat.
3 Tilga olinayotgan kishi ismidan keyin kelib, shaxsning keksaligini, unga yaqinlik, hurmatni ifodalaydi. *Gulsum opa idoradan chiqib, to‘g‘ri Mohira buvinikiga ketdi.* O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa. *Niso buvi, eri o‘lib, ikkita yosh qizi bilan qoldi.* A.Qahhor, Asarlar.

“O‘zbek xalq shevalari” lug‘atida[1] *buvi* (Toshkent) *buvu//buvi* (Farg‘ona) *buv//buvi* (Andijon, Chust, O‘zgan, Jalolobod, Suzoq). 1. Buvi. Buvimlani yo‘qlop keludila. (Toshkent). I.Ismoilovning “Turkiy tillarning qavm-qarindoshlik terminlari” asarida buvi terminiga quyidagicha izoh beriladi. O‘zbek tilidagi buvi so‘zi qon-qarindoshlik termini sifatida nevarsi tomonidan (otasining onasi, onasining onasi) aytiladigan, uning kim ekanligini ifodalab keluvchi so‘zdir. Shuningdek, yana shevalarda *ena, acha, katta, mama* variantlari mavjudligini aytadi. Va So‘z birikmasi shaklidagi *katta buvi, katta oyi, katta ona* shakllari ham onasining onasi ma’nosida ishlatilishini keltiradi. Lekin yuqorida keltirilgan *katta va mama* varinatlari qo‘llanishi ancha nomutanosibdir bizningcha. Chunki *buvi* termini turkman tilida *mama* tarzida qo‘llanilib shu ma’noni anglatadi. *Katta* termini esa shevalarimizda qachonki *katta buvi, katta oyi, katta ona, katta ena, kattana* shakllarida *buvi, oyi, ona, ena, ana* so‘zlaridan oldin qo‘llanib kelsagina qarindoshlik ma’nosini anglatadi, lekin *katta* tarzida alohida qo‘llanishi nomutanosibdir bizningcha. Shuningdek, qipchoq shevalarimizda *momo* termini yoshi katta ayollar ismiga qo‘shib aytilib hurmat ma’nosini bildiradi. *Nortoji momo* kabi.

“Buvi” dialektizmining parametrik tahlilini amalga oshirishda bu so‘zning paradigmatik va epidigmatik parametrlari, shuningdek, hududiy tarqalishi alohida tahlil qilinadi. Paradigmatik tahlilda sinonimik, antonimik qatorlari, morfologik jihatlariga alohida e’tibor beriladi. Epidigmatik tahlilda esa so‘zning ma’nosi, qo‘llanilishi va boshqa so‘zlar bilan bog‘liqligini o‘rganib, epidigmatik tahlilni qamrab oluvchi kollokatsiya va kolligatsiya (qanday birikmalar va sintaktik konstruksiyalar bilan birga ishlatilishi, uslubiy cheklovlari), semantik jihatdan qo‘llanishi chuqur tahlil qilinadi.

Parametrik leksik tahlil lingvistika sohasida dialektal birliklarni tizimli ravishda o‘rganishning samarali usuli hisoblanadi. Bu yondashuv, dialektal so‘zlarning geografik tarqalishi, qo‘llanilish chastotasi va ularning adabiy tilga ta’sirini aniqlashga imkon beradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan dialektal leksikani parametrik tahlil qilish orqali o‘zbek tilining dialektal xususiyatlari va ularning tilda qanday o‘rin tutishi haqida kengroq tasavvur hosil qilinadi.

ADABIYOTLAR:

1. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2020-yildagi PF-6084-son Farmoni - https://lex.uz/docs/ -5058351 (Mart, 2024)
2. Hoey M. Lexical Priming: A New Theory of Words and Language. London: Routledge. 2005.
3. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford: Oxford University Press. 1991. 102 b.
4. Madrahimov O. Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti. 2010. 84-b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Olti jildli. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022-yil 37-bet.
6. Исмоилов И.А., Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. –Тошкент: Фан, 1966. - 150 бет.
7. Шоабдурахмонов Ш.,Ишаев А., Носиров Ш., Узоқов Ҳ., Абдураҳмонов Д. Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1971.- 23 бет.

[1] Шоабдурахмонов Ш.,Ишаев А., Носиров Ш., Узоқов Ҳ., Абдураҳмонов Д. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971.- 336 бет.

O‘ZBEK AREAL LINGVISTIKASIDA QARLUQ LAHJASINING PAYDO BO‘LISH ILDIZI VA TARIXIY TARAQQIYOTI

S.L.Yoqubov,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada qarluq urug‘larining paydo bo‘lishi, yashagan hududi, davlatchilik tarixi va muloqotda bo‘lgan tili haqida ma’lumotlar berilgan. Qarluqlar lingvistikasida qarluq-chigil-uyg‘ur til birligining mavjud bo‘lishi va keng yoyilishiga doir areal zonalari haqida daliliy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qarluq, chigil, uyg‘ur, xalaj, yag‘mo [chigil, khalag, jagma, ujgur, karluk] – qadimgi turkiy qabilalar. Areal lingvistika, lingvistik geografiya, Atlas, Izoglossa.

Аннотация. В статье приведены сведения о появлении карлукских родов, ареале их проживания, истории государственности, языке общения. В лингвистике карлуков имеются сведения о существовании и распространении карлук-чигиль-уйгурской языковой единицы и ареалов.

Ключевые слова: Карлук, Чигил, Уйгур, Халадж, Ягмо [Чигил, Халаг, Джагма, Уйгур, Карлук] - древнетюркские племена. Ареал языкознания, лингвистическая география, Атлас, Изоглосса.

Annotation. The article provides information about the appearance of the Qarluq clans, the area where they lived, the history of statehood, and the language used in communication. In the linguistics of the Qarluqs, there is evidence about the existence and spread of the Qarluq-Chigil-Uyghur language unit and the areal zones.

Key words: Qarluq, Chigil, Uighur, Khalaj, Yagmo [Chigil, Khalag, Jagma, Ujgur, Karluk] - ancient Turkic tribes. Areal linguistics, linguistic geography, Atlas, Isoglossa.

O‘zbek dialektologiyasida bu lahja tarixan qarluq urug‘larining paydo bo‘lishi va rivojlanishi asosida shakllangan va tarixiy taraqqiy topgan. Ular qadimgi tukyu (turk) qabila birlashmasiga mansub bo‘lib, uzoq o‘tmishda Oltoyning g‘arbiy tumanlarida yashaganlar. Tarixda mavjud bo‘lgan yirik imperiya, Turk xoqonligining tashkil topishi bilan (552 yilda) g‘arbiy Oltoydan chiqib, Jung‘oriyaning, Irtish daryosi sohillarining, Mo‘g‘ul tog‘ining janubiy yon bag‘irlaridan to Ile daryosining shimoligacha bo‘lgan maydonlarni egallaydilar.

Qarluqlar Xitoy manbalarida gelu; arab, tojik, fors, manbalarida esa xarluq, xarluj nomlari bilan qayd qilingan. Bu xalqlar VIII asrda (aniqrog‘i 766- yilda) Oltoydan Yettisuvga hamda Amudaryoning yuqori oqimidagi yerlarga kelib o‘rnashganlar.

Amudaryoning yuqori oqimidagi yerlar tarixan Toxariston (Hozirgi Janubiy Tojikiston) hududi hamda Surhob-Vaxsh daryolari va Shimoliy Afg‘oniston hududigacha borganliklari haqida ma’lumotlar bor. B.X Karmisheva, I.P.Magidovich, M.E Masson, N.G. Malliskiylar Hozirgi Tojikistondagi qarluqlarni VII-VIII asrlarda turkiy qabilalar bilan birga Toxariston qarluqlari qoldig‘i deb hisoblaydilar.

Yettisuv, Farg‘ona vodiysi, Sharqiy Turkistonning Torim daryosigacha bo‘lgan hududda qarluqlar bilan birgalikda chigil, xalaj, yag‘mo qabilalari bilan bir bo‘lib yashaganlar.

Uyg‘ur qabilalari ham qarluqlar davlati tarkibida bo‘lgan. Chigil qabilasi IX-X asrlarda Ile daryosining janubida, Issiqko‘l atroflarida yashaganlar. Mazkur lahja vakillari, asosan, shahar va shahar tipidagi, uning atroflaridagi shevalarni va dialektlarni qamrab oladi. Bu lahja fanda qarluq lahjasi deb ham yuritiladi. Qarluqlarning jonli tili shu o‘lkadagi barcha qabilalar uchun umumiy til bo‘lgan. Bundan shimoliy o‘zbek shevalarigina mustasnodir. Bu lahjaning boshqa lahjalardan farqi uning singarmonizmni saqlashiga ko‘ra ikki guruhga ajralishidir, ya’ni shahar va shahar tipidagi shevalarda singarmonizm qonuni amal qilmaydi (uning ayrim ko‘rinishlarigina mavjud bo‘ladi), shimoliy o‘zbek shevalarida esa singarmonizm saqlanadi. Shuning uchun ham shahar va shahar tipidagi shevalarda unlilar 6, 7 tadan (ə/ä, o/o, y/u, ъ/i, e/e, a/a,ɔ /ā) oshmaydi, shimoliy o‘zbek shevalarida esa 9, 10 unli a(ɔ)/a(ā), ə/ä, o/o, ө/ö, y/u, ү/ü, ы(ь)/ї(ї), и(ъ)/i:(i), e/e qatnashadi. Qarluq guruhi lahja shevalari 4 va 5 kelishikli shevalardir. Bulardan shimoliy o‘zbek shevalari 4 kelishikli bo‘lib, faqatgina Chimkent shahar shevasi 5 kelishiklidir. Lahjaning boshqa singarmonizmli shevalarida 6 kelishik ham saqlangan.

Bu lahja shevalari uch guruhga bo‘linadi:

1 . Toshkent guruhi shevalari. Bunga Toshkent, Parkent, Piskent, Yangiyo‘l kabi shevalar kiradi.

2.Farg‘ona guruhi shevalari. Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatining deyarli barcha tumanalari shevalari kiradi.

3.Samarqand-Buxoro guruh shevalari. Bu guruhga Samarqand, Buxoro, Qarshi, Koson, Chust, Xo‘jand kabi shevalar kiradi.

Qarluq lahjasiga oid shevalarda fonetik hodisalardan undoshlar assimilyatsiyasi ko‘proq uchraydi. Undosh tovushlar qator kelganda biri ikkinchisiga ta’sir qiladi, uni o‘ziga moslashtiradi va tovushlarni singishi(assimiliyatsiya) hodisasi yuzaga keladi: : кәммәғәл (камбағал), шуннәй (шундай), сәннуқ (сандуқ), куннуз (кундуз), әннɔзә (андоза), әлләс (атлас), мәккәм (маҳкам), мәссъ (махси), ҳәлләмә (ҳатлама), қәлләмә (қатлама).[7.]

Matn transkripsiyasidan namunalar. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi shevalaridan namuna.

An’anadagi transkripsiyada: …Пɔшшәнъбугәпъелйурттъджәqъйнәпqойъптъ.Пɔшшәдәнбезɔрбоптъхәлɔйъq. Бър кәммәg‘әлшɔйърбɔрәкән. Упɔшшәнъɔлдъгәбɔръптъ. Пɔшшәундән, hъгәдɔй, нәгәкелдъң, дъпсорәптъ. Кәммәg‘әлшɔйърɔдәмләтɔртъвɔткән qъйънчълъйлә:нъ, тɔммә-тɔмолу:(в)нъкотәръпмɔзɔргәɔбръш әзɔбләрънъшъg‘ърqъппɔшшәгә оqъверъптъ-де, сәнгәмунъ нъме пɔйдәсъв ,ɔдъптъ.

Yangi o‘zbek transkripsiyasida: …Pɔлъдni bu gapi el-jurtti ђд qijndp qojipti. Pɔлъддdn bezɔr bopti xdlɔjiq. Bir kdmmdгdl лъɔjir bɔrdkdn. U pɔлъдni ɔldigd bɔripti. Pɔлъд undдn, hi gddɔj, ndgd keldiз, dip cordpti. Kdmmdгdl лъɔjir ɔddmld tɔrtvɔtkdn qijinиilijld:ni tɔmmd-tɔm olu(v)ni kotdrip mɔzɔrgd ɔbɔriљ dzɔbldrini лiгir qip pɔлъдgd oqiveripti-de, sdngd muni nime pɔjddsi v ,ɔdipti.

ADABIYOTLAR

1 .Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: NAVRO‘Z, 201 6.
2.Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1 996 .
3.Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: TDPU, 201 1 , 201 3.
4.To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004. – B. 1 1 2.
5.Ernazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. G‘. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 201 2.
6. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent. Fan, 1 997.
7. Fayzullayev B., To‘ychiyev A., Haydarov Sh., Xidirov O. O‘zbek shevashunosligidan o‘quv amaliyoti. (o‘quv-uslubiy qo‘llanma) Jizzax. 201 0.

BARQAROR RIVOJLANISH MANFAATLARI YO‘LIDA TINCHLIKSEVAR VA OCHIQ JAMIYATLAR BARPO ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Pulatov Jaxongir Nazirovich,
Navoiy viloyati PMM dotsenti

Annotatsiya: maqolada Barqaror rivojlanish maqsadlarining tichliksevar va ochiq jamiyatlarni barpo etish, xavfsizlikni ta’minlashning **ijtimoiy jihatlariga** oid tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘lar: tinchlik, barqarorlik, tashqi siyosat, hamkorlik, konsensus.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritib, mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagach, jahon hamjamiyatining teng huquqli a`zosi sifatida xalqaro munosobatlarda faol ishtirok etib kelmoqda. O‘zbekiston o‘zaro munosabatlarda tenglik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, o‘zaro foydali va teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada va butun jahon miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash kabi tamoyillarga tayangan holda jahon hamjamiyati safiga o‘z o‘rni va maqomiga ega bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida dunyo mamlakatlari orasida o‘zining mustahkam o‘rnini egalladi va tashqi siyosatning xalqaro huquq me`yorlariga asoslangan va jahon hamjamiyatiga asta-sekin integratsiyalashuv strategiyasiga mos keladigan huquqiy tizimini yarata boshladi. Tariximizning ana shu o‘tgan davrini aniqrog‘i 34 yillik mustaqil taraqqiyotimiz sarhisob qilinar ekan, tashqi siyosat va diplomatik xizmatni shakllantirish borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlarni ham alohida qayd qilish lozim. Shuningdek, o‘tgan qisqa davrda Vatanimizning mintaqa va jahon miqyosidagi siyosiy o‘rni va nufuzi keskin oshdi, dunyoda O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi, mintaqamizdagi davlatlar bilan do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari yo‘lga qo‘yildi, chegaralar ochilishi natijasida odamlar qavmu qarindoshlari bilan aloqalarini tiklab, bir mamlakatdan ikkinchi davlatga emin-erkin borib kela boshlangligi mamlakatda o‘zaro manfaatli tinchliksevar davlatni qaror topganligiga ishoradir.

Darhaqiqat, mamlakatimizning qulay geosiyosiy o‘rni, uning birinchi navbatda o‘z milliy manfaatlarini inobatga olgan holda olib borayotgan, har tomonlama chuqur o‘ylangan, mustaqil va izchil

tashqi siyosati davlatimizning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi, xalqaro maydonda obro'-e'tiborining ortib borishini ta'minladi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom Konferensiyasi tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va qator ixtisoslashgan xalqaro tuzilmalar ishida faol ishtirok etib, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda ekstremizm, terrorizmga qarshi kurash yadro qurolidan holi hudud barpo etish, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq, shuningdek, xalqaro hamjamiyat oldida turgan boshqa dolzarb muammolarni hal etish ishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston geosiyosiy jihatdan ancha murakkab va shu bilan birga qulay makonda joylashgan. Ya'ni u, birinchidan, Markaziy Osiyo mintaqasining transport, boy hamda mustaqil energetika omillari markazida joylashgan. ikkinchidan, O'zbekiston aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi qo'shnilardan ma'lum darajada ustun turadi. uchinchi tarafdan, O'zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega. Bu yerda qadimiy dehqonchilik madaniyati va boy mineral-xomashyo resurslari bor. Respublika oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlashga, texnika ekinlarining eng qimmatli turlarini, jumladan paxta tolasini yetishtirish va eksport qilishga imkoniyati katta. Shuningdek, jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatga bardoshli meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishga hamda ularni qayta ishlangan holda yetkazib berishga qodir. to'rtinchidan, davlatimiz nafaqat o'zini o'zi ta'minlaydigan, balki chetga chiqarishga neft, neft mahsulotlari, gaz va umuman, iqtisodiyotning asosi bo'lmish muhim tarmoqlarga ega. O'zbekistonda sanoatning eng zamonaviy tarmoqlari, deylik, mikroradioelektronika kabi murakkab sohani rivojlantirish imkoni bor. beshinchidan, O'zbekistonning insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'rni bor. Yurtimiz ma'naviy-tarixiy merosga boy. U oldindan nafaqat mintaqada, balki dunyoda ham turli ma'naviy va siyosiy jarayonlarga, jahon sivilizatsiyasiga kuchli ta'sir o'tkazib kelgan. Shu jihatlarni hisobga olsak, O'zbekiston o'zining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha jahondagi madaniy, ilmiy texnologiya va iqtisodiy yuksaklikka erishib, bemalol Markaziy Osiyoda integratsiya markaziga aylanishi mumkin. Geografik-siyosiy o'rni jihatdan O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashganligi ayni ana shu mintaqada barqarorlikni ta'minlash, o'zaro hamkorlik va birodarlikni chuqurlashtirish uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi. Mustaqillikning tarixan qisqa davrida u o'zining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qudratini to'la-to'kis ko'rsata oldi. Ayni ana shu mintaqa taqdirini hal qilishga qodir bo'lgan kuchli davlat sifatida o'zini namoyon etdi.

Bugungi kunda O'zbekiston Osiyo va Yevropa qit'alari o'rtasida munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, siyosiy iqlimni mo'tadillashtiruvchi G'arbu Sharq o'rtasidagi azaliy raqobatni aql-idrok, donolik, tafakkurga asoslangan munozaralar va muzokaralar orqali uyg'unlashtirishga da'vat etgan shu mintaqadagi davlat bo'lib maydonga chiqdi. Prezidentimiz tomonidan jahon siyosatshunosligida "Markaziy Osiyo ruhi" degan ibora paydo bo'lganligi, xalqaro maydonda mintaqa nomidan yangi tashabbuslar ilgari surila boshlanganligi haqidagi ma'lumot bejiz aytib o'tilmadi. Darhaqiqat, bugun Yangi O'zbekiston Pokiston, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston muammolari bilan birga Xitoy, Rossiya va umuman Yevropa mamlakatlari munosabatlarini ma'lum bir o'zanga solishga da'vat qilayotgan, uni o'zining amaliy faoliyati bilan yaxshilik sari burishga katta ta'sir ko'rsatayotgan davlatdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatimiz tashqi siyosatining asosiy qoidalari qonun bilan mustahkamlab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tinchligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va me'yorlariga asoslanadi.

Xulosa qilib aytgan, o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi hamda davlat va jamiyat qurilishi, iqtisod, siyosat doirasida tub islohotlarni amalga oshirishga kirishdi va amalga oshirib kelmoqda. Ushbu isloxotlardan ko'zda tutilgan maqsad esa ochiq tashqi siyosatga hamda aniq ijtimoiy yo'naltirilgan kuchli huquqiy davlat va adolatli jamiyati qurishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nuriddinov E. O'zbekiston: eng yangi tarix. – T.: Asr, 2010. – 576 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon. Manba: www.lex.uz

3. Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2021- yil 31-avgustda so'zlangan ma'ruza. www.president.uz

INGLIZ TILIDAGI MAJHUL NISBAT VA UNING ORALIQ GRAMMATIK MA'NOLARI

Profi University Navoiy filiali
o‘quv tarbiyaviy ishlar bo‘yicha prorektor, katta o‘qituvchi
Saodat Qayimovna Xasanova
Tel:(90)501-32-34 email: saodat75@inbox.ru

Annotatsiya. *Ingliz tilida grammatik tizimi o‘ziga xos bo‘lib, bu tilning har bir fe’l shakli turli ma’nolarni ifodalashda va nutqiy vazifalarini bajarishda muhim rol o‘ynaydi. Majhul nisbat (passive voice) o‘zgartirilgan fe’l shakllaridan biri sifatida, harakatni bajaruvchi subyektni ko‘rsatmay, harakatni o‘zi va natijasiga e'tibor qaratadi. Majhul nisbat, o‘zining strukturaviy xususiyatlari bilan o‘zbek va ingliz tillarida ba'zi farqlarga ega bo‘lishi mumkin, ammo uning grammatik ma’nolari va nutqiy ishlatilishi keng qamrovli va qiziqarli tadqiqot mavzusidir. Ushbu maqolada, ingliz tilidagi majhul nisbat va uning oraliq grammatik ma’nolari haqida batafsil ma’lumot beriladi.*

Kalit so’zlar. Majhul nisbat, oraliq grammatik ma’no, ingliz va o’zbek tillari qiyosi.

Annotation. *The grammatical system of the English language is unique, and each verb form in this language plays an important role in expressing different meanings and fulfilling communicative functions. The passive voice, as one of the modified verb forms, does not show the subject performing the action but focuses on the action itself and its result. The passive voice may have some differences in structural features between Uzbek and English, but its grammatical meanings and communicative usage are a broad and interesting subject for research. This article provides detailed information about the passive voice in English and its intermediate grammatical meanings.*

Keywords. *Passive voice, intermediate grammatical meaning, comparison of English and Uzbek languages.*

Аннотация. *Грамматическая система английского языка уникальна, и каждая форма глагола играет важную роль в выражении различных значений и выполнении коммуникативных функций. Страдательный залог, как одна из измененных форм глагола, не указывает на субъект, выполняющий действие, а фокусируется на самом действии и его результате. Страдательный залог может иметь некоторые различия в структурных особенностях между узбекским и английским языками, но его грамматические значения и коммуникативное использование являются обширной и интересной темой для исследования. В этой статье представлена подробная информация о страдательном залоге в английском языке и его промежуточных грамматических значениях.*

Ключевые слова. *Страдательный залог, промежуточное грамматическое значение, сравнение английского и узбекского языков.*

Ingliz tilidagi majhul nisbat, ya’ni *passive voice*, harakat bajaruvchi subyektning o‘rniga harakatning natijasi yoki obyektiga e'tibor qaratadigan fe’l shaklidir. Bu grammatik shakl o‘zbek tiliga qaraganda, ingliz tilida ancha keng qo‘llaniladi va ko‘p hollarda aniq va umumiy ma'nolarni ifodalashda ishlatiladi. Majhul nisbatning umumiy grammatik ma’nosi, harakatni bajaruvchi subyektning ishtirok etmasligi natijasida, harakatning o‘zi va uning natijasi bo‘yicha gaplar tuzish imkoniyatini beradi. Ingliz tilidagi passive voice ning oraliq grammatik ma’nolari ko‘p holatda harakat bajaruvchisi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’nolarni ajratadi. Quyida m**ajhul nisbatning oraliq grammatik ma’nolarini tahlil qilamiz:**

- Harakat bajaruvchisi muhim bo‘lmagan *passive voice*.

Ingliz tilidagi majhul nisbatda, ba'zan harakat bajaruvchisi nutqda muhim emas. Bu holatda, harakatning o‘zi va uning natijasi ko‘rsatiladi, ammo bajaruvchi haqida gapirilmaydi. Masalan, *The product was delivered on time* (Mahsulot o‘z vaqtida yetkazildi). Bu gapda mahsulotning yetkazilganligi muhim, lekin harakatni kim bajargani haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Bunday turdagi gaplar ko‘p hollarda umumiy xabar yoki e'lonlarda qo‘llaniladi.

- Harakat bajaruvchisi noma’lum bo‘lgan *passive voice*.

Ba’zi hollarda, harakat bajaruvchisi noma'lum bo‘ladi. Bu holatda, faqat harakatning o‘zi va natijasi ajratiladi, ammo bajaruvchi noma'lum bo‘lib qoladi. Masalan, *The neighbor’s car was stolen at night* (Qo’shnining mashinasi tunda o‘g‘irlangan). Bu holatda, o‘g‘irlagan odamning kimligi noma’lum va gapda bu haqda so‘z yuritilmaydi. Bunday gaplar ko‘pincha jinoyat yoki noma'lum holatlar haqida so‘z borganda ishlatiladi.

- Harakat bajaruvchisi mantiqan ma’lum bo‘lgan *passive voice*.

Ba'zan, harakat bajaruvchisi mantiqan ma’lum bo‘ladi, lekin gapda u ko‘rsatilmaydi. Bunday holatlarda, subyektning harakati to‘g‘risida umumiy bilish mavjud bo‘lsa-da, bajaruvchi gapda bevosita ifodalanmaydi. Masalan, *Students are taught based on new methods* (Talabalar yangi metodlarga asoslanib o‘qitiladi). Bu gapda, kim o‘qitayotganini bilish mumkin bo‘lsa-da, bu haqda gapirilmaydi. Bunday holatlar ta'lim, mehnat va umumiy faoliyatlarda keng qo‘llaniladi.

- Harakat bajaruvchisini ko‘rsatish imkonsiz bo‘lgan *passive voice*.

Ingliz tilida ba'zan majhul nisbatda, harakat bajaruvchisi ko‘rsatilishi mumkin emas. Bu holatda, ba'zi grammatik cheklovlar sababli, bajaruvchi nutqda qatnashmaydi. Masalan, *Long hairs are bought at high prices* (Uzoq sochlar yuqori narxlarda sotib olinadi). Bu holatda, kim sotib olganligi noma'lum yoki ularni kim sotib olayotgani ta'riflanmaydi.

Ingliz tilida majhul nisbatning zamon shakllari bilan bog‘liq oraliq grammatik ma’nolar ham ajratiladi. Majhul nisbatni turli zamon shakllarida ishlatish mumkin, ammo ba'zi zamon shakllarida u ishlatilmaydi. Masalan, *Future Continuous*, *Present Perfect Continuous*, *Past Perfect Continuous*, va *Future Perfect Continuous* kabi zamonlar majhul nisbatda ishlatilmaydi. Bunday holatlarda faqat predlogli birikmalar orqali majhul nisbatni hosil qilish mumkin.

Ingliz tilida majhul nisbatni ifodalashda, o‘timli va o‘timsiz fe’llar ham muhim rol o‘ynaydi. Majhul nisbat ingliz tilida ko‘p hollarda nutqiy voqelanishlarni ifodalashda ishlatiladi. Bu grammatik shakl, o‘zining tuzilishi va ma’nosi bilan, harakatni bajaruvchi subyektni yashirib, faqat harakatning o‘zi yoki uning natijalarini ifodalashga yordam beradi. Natijada, majhul nisbatdan foydalanish, gapning ma'lumot berish funksiyasini o‘zgartiradi va so‘zlovchining o‘z fikrini qanday ifodalashini ta’minlaydi.

Majhul nisbat (Passive Voice) grammatik struktura bo‘lib, unda subyekt harakatni o‘zi bajarish o‘rniga, harakatni qabul qiladi yoki unga nisbatan ta’sirni ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi majhul nisbat o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, ular o‘zaro grammatik jihatlarda ba'zi farqlarga ham ega. Quyida majhul nisbatni qo‘llashda ikki tilda kuzatiladigan grammatik farqlar tahlil qilinadi:

O‘zbek tilida majhul nisbat: O‘zbek tilida majhul nisbat fe’lning o‘zgartirilgan shakli yordamida ifodalanadi. Bu shakl o‘zgarishsiz, faqatgina fe’lning shakli yoki so‘z tarkibi orqali amalga oshiriladi. O‘zbek tilidagi majhul nisbatda fe’lga "ilmoq" qo‘shimchasi yoki boshqa ifodalovchi so‘zlar qo‘shilishi mumkin. Masalan:

- *Kitob o‘qildi.* (The book was read.)
- *Dars o‘tilmoqda.* (The lesson is being taught.)
- *Maktabda o‘qituvchilar ish bilan band.* (The teachers are busy with work at the school.)

Bu yerda, fe'lning zamon va ifodalanish shaklini o‘zgartirish orqali majhul nisbat hosil bo‘ladi.

Ingliz tilida majhul nisbat: Ingliz tilida majhul nisbat aniq grammatik qurilma orqali ifodalanadi. Bu shakl "to be" (bo‘lish fe'li) yordamida hosil qilinadi va harakatni bajarish vaqtida fe’lning ma'lum zamoniga mos ravishda o‘zgartiriladi. Ingliz tilida majhul nisbatda "to be" fe’li va asosiy fe’lning 3-shakli (past participle) ishlatiladi. Misollar:

- *The book was read.* (Kitob o‘qildi.)
- *The lesson is being taught.* (Dars o‘tilmoqda.)
- *The teachers are busy with work at school.* (O‘qituvchilar maktabda ish bilan band.)

Ingliz tilida majhul nisbatda fe'lning zamoni va holati aniqlik kiritilgan bo‘ladi.

O‘zbek tilida majhul nisbat: O‘zbek tilida majhul nisbat odatda zamon yoki fe’lning o‘zgarishi orqali ifodalanadi. O‘zbek tilida "bo‘lmoq", "yetmoq", "bormoq" kabi yordamchi fe'llar qo‘llanadi. Fe’lning shakli o‘zgarmaydi, faqatgina kontekst va qo‘shimchalar yordamida majhul nisbatni tushunish mumkin.

- *U keldi. → U kelindi.* (He came → He was brought.)
- *Biz kitob o‘qidik. → Biz kitob o‘qildik.* (We read the book → The book was read by us.)

Ingliz tilida majhul nisbat: Ingliz tilida majhul nisbatning fe'l shakli to‘liq va aniq ravishda o‘zgaradi. Bu yerda "to be" yordamchi fe’l va asosiy fe’lning past participle (3-shakl) ishlatiladi. O‘zbek tiliga nisbatan ingliz tilida majhul nisbatni tuzishda qo‘llanadigan yordamchi fe'l ko‘proq murakkab va aniqdir.

- *She is studying the book.* (U kitobni o‘qiyapti.)
- *The book is being studied.* (Kitob o‘qilmoqda.)

O‘zbek tilida majhul nisbat: O‘zbek tilida majhul nisbatda zamon shakli faqatgina fe’lni o‘zgartirish orqali ifodalanadi, va ba’zan zamon ma'nosini aniqlash uchun qo‘shimcha yordamchi so‘zlar ishlatiladi. Shu bilan birga, ba'zi zamon shakllari faqat bir xil tarzda ishlatiladi.

- *Men kitobni o‘qidim. → Kitob o‘qildi.* (I read the book → The book was read.)
- *Men kitobni o‘qiyapman. → Kitob o‘qilyapti.* (I am reading the book → The book is being read.)

Ingliz tilida majhul nisbat: Ingliz tilida majhul nisbat aniq zamonlar bilan bog‘liq bo‘ladi va "to be" fe’lidan foydalanish orqali har bir zamon uchun alohida shakl yaratiladi. Bu yerda har bir zamonning o‘ziga xos yordamchi fe’li mavjud:

- Present simple: *The book is read.* (Kitob o‘qiladi.)
- Past simple: *The book was read.* (Kitob o‘qildi.)
- Present continuous: *The book is being read.* (Kitob o‘qilmoqda.)
- Future simple: *The book will be read.* (Kitob o‘qiladi.)

O‘zbek tilida majhul nisbat: O‘zbek tilida majhul nisbatda ba'zan subyektni aniq ko‘rsatish mumkin, lekin ko‘p hollarda u e'tiborsiz qoldiriladi yoki aytilmaydi. Masalan, umumiy ifodalarda yoki e'lonlarda subyekt haqida gapirmaslik mumkin.

- *Yangi qonun qabul qilindi.* (The new law was adopted.)

Ingliz tilida majhul nisbat: Ingliz tilida majhul nisbatda subyektning yo‘qligi yoki aniq ko‘rsatilishi mumkin. Ba'zan subyektni ko‘rsatmaslik orqali umumiy ma'no beriladi, lekin subyekt faqatgina yordamchi fe’l orqali ko‘rsatiladi.

- *The letter was written by him.* (Xat u tomonidan yozildi.)
- *The letter was written.* (Xat yozildi.)

O‘zbek va ingliz tillarida majhul nisbat o‘rtasidagi asosiy farq, fe'lning shaklini o‘zgartirish usulida yotadi. O‘zbek tilida fe'lni o‘zgartirish orqali majhul nisbat hosil qilinadi, ingliz tilida esa "to be" yordamchi fe’li qo‘llanadi.

O‘zbek tilida majhul nisbatda ba'zan subyekt aniqlanmaydi yoki e'tiborsiz qoldiriladi, ingliz tilida esa bu hol aniq grammatik tarzda ifodalangan bo‘ladi.

Ingliz tilida majhul nisbatning har bir zamoni uchun o‘ziga xos yordamchi fe'l qo‘llanadi, o‘zbek tilida esa bu asosan fe’lning o‘zgarishi bilan ifodalanadi.

Umuman olganda, majhul nisbatning o‘zbek va ingliz tillaridagi ishlatilishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, lekin ikkala til ham bu grammatik struktura orqali ma'lum bir harakatni bajaruvchi bilan bog‘lanmagan yoki ta’sirlangan holatlarni ifodalash imkoniyatiga ega.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi majhul nisbat, o‘zining ko‘plab oraliq grammatik ma’nolari va ularni ifodalash usullari bilan o‘zbek tiliga nisbatan ancha murakkabroq va kengroqdir. Majhul nisbat, faqat fe’lning shaxsini emas, balki harakatning bajarilishini yoki natijasini ta'kidlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ingliz tilida majhul nisbatning zamonlar bilan bog‘lanishi, o‘timli va o’timsiz fe’llar bilan aloqasi, hamda bajaruvchi subyektning rolini yashirish kabi xususiyatlar, tilshunoslarga bu grammatik shaklni chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Bu o‘zbek va ingliz tillarining grammatik tizimlaridagi farqlarni o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, M. (1995). English Syntax: A Grammar for English Language Professionals. Cambridge University Press.
2. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. Longman.
3. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge University Press.
4. Collins, P., & Hollo, D. (2014). English Grammar: An Introduction. CUP.
5. Tense, Aspect, and Mood in the Syntax of English. (2011). Oxford University Press.
6. Akhatov, A. A. (2010). O‘zbek tilining grammatika nazariyasi. T: O‘qituvchi.
7. Safarov, M. (2003). O‘zbek tilidagi fe’lning sintaktik tizimi. T: Fan.
8. Baxtiyorov, A. (2020). O‘zbek tili va grammatik strukturalar. T: Universitet.

YETTI RAQAMI ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEMALARNING BADIIY MATNLARDA QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

Orifova Marjona Elyor qizi,
2-bosqich talabasi,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola tilshunoslik fanining muhim tarmog‘i hisoblangan frazeologiya borasida fikr yuritiladi. Yetti raqami asosida shakllangan frazemalarning badiiy matnlarda qo‘llanish xususiyatlari tahlilga tortiladi va bu frazeologik birliklarning o‘ziga xos bo‘lgan lingvomadaniy jihatlari ilmiy asoslangan mulohazalar asosida yoritiladi

Kalit so‘zlar: Frazeologik birlik, lingvomadaniy birlik, raqamlar tarixi, raqamlar asosida shakllangan frazema, badiiy ijodda qo‘llanishi.

Аннотация: В данной статье рассматривается фразеология, являющаяся важной отраслью лингвистической науки. Анализу подвергаются особенности употребления фразем, образованных на основе числа семь, в художественных текстах, а лингвокультурные аспекты, присущие этим фразеологизмам, освещаются на основе научно обоснованных рассуждений.

Key words: Phraseological unit, linguistic feature, history of numbers, phraseology formed on the basis of numbers, its application in artistic creation.

Bugungi kunga kelib frazeologiya sohasi tilshunoslikda olib borilayotgan ko‘plab izlanishlarning tadqiqot vositasi sifatida fanda mustahkam o‘rin egallab, uning taraqqiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi. Frazeologiya tilning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi turg‘un birikmalar, ya’ni frazeologizmlarni o‘rganuvchi sohasi bo‘lib, u qadimgi yunon tilidan olingan va “frasis’’-ibora “logos’’-tushuncha, ta’limot demakdir. Rus tilshunosi B.A.Larin fikricha : *“ Tongda yorug‘lik shudring tomchilarida qanday aks etsa, frazeologik birliklar ham xalq dunyoqarashi, ijtimoiy tuzum, o‘z davri mafkurasini shunday aks ettiradi’’.* Shu sababli FBlar dunyo tilshunos olimlarini doimo qiziqtirib kelgan. Rus tilshunosi V.N.Teliya va uning lingvistik maktabi vakillari FBlarning milliy - madaniy ko‘chma ma’nolarini tavsiflash va mentalitetini xarakterlovchi qirralarini ochib berishga diqqat qaratgan. FBlarning yaratilishi, qachon va qaysi ma’noda ishlatilishi, ularda so‘zlarning qo‘llanishini o‘rganish o‘zbek xalqi tarixi, ijtimoiy ahvoli, turmush tarzi, urf-odatlari, turli toifaga oid shaxslarga bo‘lgan munosabati haqida ba’zi fikrlarga kelishda yordam beradi. Shuning uchun FBlarda umummilliylik, umumxalq ahamiyatiga ega bo‘lish ko‘proq ko‘zga tashlanadi.So‘z san’atining go‘zal namunasi hisoblangan frazeologik birliklar tilning leksik qatlamida ahamiyatli o‘rin egallar ekan, demak, ular tilning badiiy vositasi sifatida ham muhim lingvomadaniy ahamiyat kasb etadi.

Lingvokulturologiya fanining asoschilaridan biri, Moskva frazeologik maktabining rahbari V.N.Teliyaning yozishicha, tilning frazeologik tarkibi *“lingvomadaniy jamoa milliy o‘zligini ko‘radigan ko‘zgudir’’.* Aynan frazeologizmlar til egasining dunyoni, hodisalarni o‘ziga xos ko‘rishini namoyon etadi.[1] Til va madaniyatning bog‘liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog‘liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardangina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlari xizmat qiladi. O‘zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo‘nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, "O‘xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli", N.Sayidrahimovaning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasi, “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”ni belgilash mumkin.

Raqam arabcha so‘z bo‘lib, *“yozuv”, “bitish”, “son”* ma’nolarini ifodalaydigan, miqdorni anglatadigan shartli belgidir. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da raqamlar, ularning paydo bo‘lish tarixi, tadrijiy taraqqiyot yo‘llari haqida muxtasar ma’lumot keltirilgan. Unda aytilishicha, “Eng qadimgi raqam bobilliklar va misrliklarga mansub. Misr iyeroglif raqamida sonlarni ifodalash uchun maxsus rasm belgilar, keyinroq neratik va demotik yozuvlari paydo bo‘ldi. Misr neratik yozuvidan Yaqin va O‘rta Sharqdagi barcha yozuvlar hamda Yunon-Ioniya yozuvi, shu bilan birga alifboga asoslangan raqam kelib chiqdi”.[2]

Xalqning dunyoqarashi va estetik tafakkuridan o‘rin olgan raqamlar muqaddasligi haqidagi turli xil qarash asta-sekinlik bilan yozma adabiyotga ham kirib kela boshladi. Sharq mumtoz she’riyati, jumladan, o‘zbek mumtoz she’riyatida ishlatilgan raqamlarning ramziy mohiyatini ochish, raqamlarning sirli-silsilaviy ifodalarini yoritish, raqamlar vositasi ila ifoda etilajak fikrlar bayonida badiiy tasvir usullaridan foydalanishda ijodkor mahoratini ko‘rsatib berish mavzuning yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Badiiy ijodda raqam qo‘llash, raqam yordamida fikr bayon aylashdan ko‘zlangan bosh maqsad olam orqali odam, odam vositasida olam sir-asrorini ochish, komil insonga xos xususiyat va fazilatlarni ifodalash bo‘lgan. Alisher Navoiy ijodida qo‘llangan *yetti* yoki *to‘qqiz* ko‘k, *o‘n sakkiz ming* olam kabi birikmalarni tekshirganda, raqamlar zamiridagi ramz va majoz orqali komil inson mohiyatini yoritishga qaratilgan fikr-mulohazalar bayon etilganligi ayon bo‘ladi.

Har bir xalq atrofidagi borliqni o‘ziga xos o‘lchovlarda aks ettiradi. Shunga ko‘ra, raqamlar asosida shakllangan frazeologizmlar ma’lum guruhlarni shakllantirgan. O‘tmish adabiyotimizda, ayniqsa, tasavvuf adabiyotida ancha keng qo‘llanilgan “yetti falak”, “yetti sayyora”, “yetti iqlim”, “yetti daryo”, “yetti tavr”, “yetti ruh”, “yetti nishon” singari o‘nlab iboralarning ramziy-majoziy mazmunini to‘g‘ri anglamasdan turib, matn tahlilida ko‘zlangan natijani qo‘lga kiritish qiyindir. Shulardan ba’zilarining izohiga diqqatni qaratsak:

Yunus Emro she’rlaridan birida “Haqiqatga toliblarga yetti turli nishon kerak”, - deydi. Boshqa bir shoir esa “Eranlardan sir so‘rashga yetti turli nishon kerak”, - degan fikrni ilgari suradi. Bunda nima nazarda tutilgan? Bu savolga aniq javob berish uchun tasavvufga doir manba va lug‘atlarga murojaat etish zaruriyati paydo bo‘ladiki, bu “yetti tavr” - nafsning ammora, lavvoma, mulhima, mutmainna kabi nomlar bilan atalgan

[1] Usmanova Sh. Lingvokulturologiya darslik – T.: 2019. -92b

[2] Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she’riyatida raqam ramzlari va ularning ma’no talqini. – T.: Fan, 2010. -4 b.

yetti martabasi, deb sharhlangan. Shuningdek, buxl, hirs, jahl, kibr, hasad, shahvat, g‘azab ham aqobati sab’a - nafsi ammoraning yetti tavri sifatida qayd qilingan.

Yulduzlar harakatini tekshirgan olimlarning fikriga ko‘ra, har bir inson, hatto hayvon, o‘simlik va ma’dan ham yulduzlarning ta’sirida ulg‘ayar ekan. Sayyoralarning har biri hissiyot, axloq, tabiat va sog‘likka ta’sir o‘tkazar ekan. Hatto ularning rang va xususiyatlari ham o‘zaro bir-biridan farqlanarmish. Inson bolasi qaysi yulduz ta’siri ostida bo‘lsa, qismati ham shunga qarab voqe bo‘lar ekan. Quyoshdan yuqorida bo‘lgan Zuhal, Mushtariy va Mirrixga nujum ahli afloki salosai ulviya, Quyoshdan pastdagi Zuhro bilan Utorudga afloki sufliyyun deb nom berishgan. Bularning beshalasiga esa “xamsai mutahayyira” deyilgan. Agar bularga Oy va Quyosh ham qo‘shilsa, Sab’ai sayyora nihoyasiga yetadi, deb hisoblangan. Bu yetti sayyoraga “Kavokibi sab’ai sayyora”, “Haft oyna” yoki “Haft bonu” nomlari berilganki, bu xususda alohida dostonlarda ham bahs yuritilgan. Tasavvufda afloki sab’a yetti sifat mazmuniga ega bo‘lib, hayot, ilm, eshitish, ko‘rish, qudrat, kalom, iroda e’tiborga olingan va bunga “ummahoti asmo” nomi berilgan.

Ibrohim Haqqiyning yozishicha, Yetti yulduz bu - janobi Haqning yetti ismi hamdurki, anfus (nafs)dagi o‘n ikki burj masobasidagi o‘n ikki a’zoni sayr aylaydi. Bu a’zolar ko‘z, yuz, og ‘iz, ikki qo‘l, ikki oyoq, ikki tizza, teri va ko‘krakdir... Yetti sayyora bilan botiniy malaklar ila munosabat qurilurki, bular: mutaxayyila, mutavahhima, mutafaqqira, hofiza, zokira, mudabbira va hissi mushtarai sifatlaridir.

Yuqorida keltirilgan yetti raqami xususida sirli va qiziqarli ma’lumotlarga qo‘shimcha qilgan holda, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da o‘n birdan ortiq ushbu raqam asosida shakllangan iboralarni badiiy matnlarda qo‘llanish xususiyatlarini tahlil qilamiz: Xalqimizda *“yetti o‘lchab, bir kes’’* degan maqol bor. Ushbu maqol tarkibidagi yetti raqami haqida fikr yuritib, folklorshunos M.Jo‘rayev shunday yozadi: “Xo‘sh, nega endi aynan yetti marta ekan, deb o‘ylab ko‘rganmisiz? Axir sakkiz yoki undan ko‘proq marta “o‘lchansa’’ shoshilmasdan, obdon o‘ylab ko‘rilsa, maslahatlashilsa, yanayam yaxshi bo‘ladi-ku! Ma’lum bo‘lishicha, tilimizda yetti raqami ishtirok etgan ibora va tushunchalar shunaqangi ko‘p ekanki, ularning tarkibidagi raqamni joyidan siljitib bo‘lmas ekan. Chunki yetti raqami bunday iboralar tarkibiga chuqur singib ketgan, ularni bir-biridan ajratish amri mahol ekan”. Bunday fikrni ushbu raqam ishtirok etgan bir qator iboralar tarkibi xususida ham aytish mumkin. Shuningdek, *“yetti iqlimda”* iborasi O‘TFLda “hech qayerda” ma’nosini ifodalaydi. – *Hammasi manga ma’lum. Qambar cho‘loqdek iskovich yetti iqlimda bormikan! Oybek. Qutlug‘ qon.*

“Yetti yot begona” iborasi “mutlaqo qarindoshligi yo‘q, butunlay notanish’’ ma’nosini bildiradi. *Ular pul jinsidan. Durustmi? ... Ha, o‘zing totib ko‘rding-ku. Unday qarindoshlardan yetti yot begona yaxshi. Oybek .Qutlug‘ qon.*

“Yetti pushti” iborasi “bir necha bo‘g‘in ajdodlari yoki avlod-ajdodlari’’ ma’nosini ifodalab, qadimgi sovchilar kuyov bo‘lmishning yoki kelin bo‘lmishning yetti pushtini surishtirishar ekan. *Xo‘ja Abdulla unga tikilib, past tovush bilan dedi: – Mirbadalbek, hushyor bo‘ling, mening qonim yetti pushtingizga sachraydi! P.Qodirov.Yulduzli tunlar.*

“Yetti yashardan yetmish yashargacha’’ iborasi “kattadan kichik – hamma” ma’nosini bildiradi.*Uning qanday kishi bo‘lg‘anini Toshkandning yetti yosharidan yetmish yosharig‘acha bilganlikdan guzar va mahallalarda unga duch kelgan kishilar joylaridan turib salom beradilar, hoji bo‘lsa javob qaytarishni bilmas, go‘yo kishilarni ham ko ‘rmas edi. A.Qodiriy.O‘tkan kunlar; Axir qishloqning yetti yasharidan yetmish yasharigacha bilardi-ku! M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.*

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Xususan, biz tadqiq etgan mazkur raqam ishtirokidagi frazemalar o‘zbek xalqining bevosita o‘ziga xos mentalitetini, madaniyatini, ma’rifatini, urf-odat-u an’analarini ifodalab beruvchi “hikmatlar xazinasi” bo‘lib, ular avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi. Frazeologik birliklarni yig‘ish, tasniflash, lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish o‘zbek tilshunosligi va lingvomadaniyatshunoslikning kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb masalalaridan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Jumayeva S. O‘zbek mumtoz she’riyatida raqam ramzlari va ularning ma’no talqini. – T.: Fan, 2010. -124 b.
2. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa, 2022. -636b.
3. Oybek. Qutlug‘ qon. - Toshkent: “Zukko kitobxon’’, 2021. -368b.
4. Rafiyev A. Iboralar nutqimiz ko‘rki . -T: Fan, 1968.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. -T.:Qomuslar yosh tahririyati.-T: 1992.
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik) – T.: 2019.- 246b.
7. В.Г.Адмони. Полевая природа частей речи. На материале числительных. В кн. Вопросы теории частей речи. -М.-Л,.1968.

VAQIFIN DILINDƏ BƏZI SEMANTIK VƏ QRAMMATIK XÜSUSIYYƏTLƏR

Xədicə Heydərova
AMEA Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu Tətbiqi dilçilik şöbəsinin elmi işçisi fil.ü.f.d.

Резюме. В статье высоко оценивается роль Молла Панах Вагифа в развитии азербайджанского языка, в его способности придавать словам новые оттенки значений в процессе создания новых выразительных средств; анализируются лингвистические особенности его поэзии. Автор статьи анализируя глаголы "yanışmaq", "təmənnəşmək" и "hümmətləşmək" из гошмы "Ayrıldıq", определяет их как окказионализмы, так как не находит их в "Диване" М.Физули (XVI век), в стихах Ш.И.Хатаи (XV-XVI века) и М.В.Видади (XVIII век). Здесь автор высказывает свои суждения о фразеологизме "könlümün pas əli" (ржавая рука души моей) и слове "havalı" (самодовольная, самонадеянная). В статье автором проведено небольшое расследование по аффиксу прошедшего времени -ıb[4] в произведениях М.П.Вагифа (42 гошма), М.В.Видади (20 гошма), "Лейли и Меджнун" М.Физули (42стр.), Ш.И.Хатаи (34 гошмы, варсаги, герайлы и баяты) и Насими (33 газел) и на основе статистических данных составлена таблица, отражающая его использование.

Summary. The article investigates the role of Moll Panah Vagif in the development of the Azerbaijani language, his ability to impart new meanings to the words in the process of creating new expressive means and other linguistic features of his poetry. The verbs "yanışmaq", "təmənnəşmək" and "hümmətləşmək" from the goshma "Ayrıldıq", the author of the article choosing defines them as occasionalisms, as she does not find them in M. Fizuli’s "Diwan" (XVI century), in the poems of Sh.I.Khatai (XV-XVI century) and M.V.Vidadi (XVIII century). Here the author expresses her judgments about the phraseology "könlümün pas əli" (rusty hand of my soul) and the word "havalı" (self-satisfied, cool, swanky). In the article, the author carried out a small investigation into the affix of the past tense -ıb[4] in the works of M.P.Vagif (42 goshmas), M.V.Vidadi (20 goshmas), "Leyli and Majnun" of M.Fizuli (42 pg.), Sh.I.Khatai (34 goshmas, varsagis, geyraylies and bayatis) and Nasimi (33 gazels) and based according to the researches, results are presented in the table form.

Ключевые слова: Гошма, фразеологизм, окказионализм, аффикс прошедшего времени и деепричастии -ıb[4], аффикс деепричастии -ıban[4].

Keywords: Goshma, phraseologism, occasionalism, affix of the past and gerunds -ıb[4], affix of the gerunds -ıban[4].

Dahi Hippokrat demişdir ki, təbabət üç nəhəngin çiyinləri üzərində dayanır: bitki, bıçaq və söz! Suyun molekulyar quruluşunu, insan taleyinin gərdişini dəyişmə qüdrətinə malik olan söz – söz xiridarları, söz ustadlarının bir aləti olmuşdur: onlar gözəlləri, təbiəti tərənnüm etməklə bu gözəlliyi əbədiləşdirəcəklərinə inanmış, haqsızlıqlara şeirlərində etiraz etməklə ictimai-siyasi vəziyyətə təsir edə biləcəklrinə ümid etmişlər. Bu baxımdan bədii söz qüdrətli ideya vasitəsi, əvəzsiz tərbiyə üsuludur.

İncə hisslər, dərin və nikbin duyğular şairi olan Molla Pənah Vaqifin Azərbaycan dilinin inkişafında, sözün müxtəlif məqamlara salınaraq semantik çalarlar qazandırmasında, dilimizin söz-ifadə yaradıcılığı prosesindəki rolu danılmazdır və o, dil tariximizdə seçilən sənətkarlardandır.

Vaqifin yaradıcılığı xalq şeirinin gələcək inkişafı üçün ciddi zəmin olmuşdur. Onun poeziyasının etimoloji baxımdan rəngarəngliyi bizi heyran qoyur. Bir tərəfdən ərəb və fars mənşəli sözlərlə zəngin qəzəl, müxəmməs, müstəzad və müəşşərləri, digər tərəfdən sadə, şirin heca vəznində yazdığı təcnis və qoşmaları şairin fitri istedadından əlavə ərəb və fars dillərini gözəl bilməsi, dərin savad sahibi olmasından xəbər verir.

Gülnəfəs, bixarü xəs, məhbubi-növrəs, eyşbaz,
Xoşliqa, bürqigüşa əbrunüma, xatirnəvaz,
Aşinadil, dosta mail, nazü istiğnası az,
Qəddi nazik, cismi fərbeh, üzü gen, zülfü diraz,
Çeşmi şux, müjganı ox, qaşı kaman sevmək gərək.

Bu cür qəliz ərəb və fars tərkibləri ilə yazmağı bacaran şairin "Ayrıldıq" qoşmasının dili müasir Azərbaycan dili ilə eyniyyət təşkil etməsi baxımından heyrət doğurur. Sanki müasirimiz olan bir şairin şeiridir:

Xeyli vaxtdır ayrılmışıq yar ilən,

Gördük, amma tanışmadıq, ayrıldıq,
Qaldı canda gizli-gizli dərdimiz,
Bircə kəlmə danışmadıq, ayrıldıq!
Yarım saat bir arada qalmadıq,
Eşq atəşin canımıza salmadıq.
Yalvarıban yarın könlün almadıq,
Elə getdi, barışmadıq, ayrıldıq!

Bu qoşmada bir dilçi kimi diqqətimizi cəlb edən məqamlardan biri şeirin hər bəndində qarşılıq növünə aid feillərin işlənməsidir: *tanışmamaq, danışmamaq, yanışmamaq, barışmamaq, qonuşmamaq, sarışmamaq, qucaqlaşmaq, halallaşmaq, hümmətləşmək, təmənnəşmək*. "Yanışmaq", "təmənnəşmək" və "hümmətləşmək" feilləri çox güman ki, Vaqif tərəfindən yaradılmış okkazionalizmlərdir. Texniki inkişafın verdiyi imkanlaradan yararlanaraq Fizulinin "Divanı"nın pdf variantına müraciət etdik və bu sözləri axtarışa verdik, lakin heç bir müsbət cavab ala bilmədik. Düşündük ki, şeirlərində xəlqilik olan Şah İsmayıl Xətainin əsərlərində bəlkə tapa bilərik, amma burda da yox idi. O zaman qərara gəldik ki, Vaqifin müasiri və dostu olmuş Molla Vəli Vidadinin yenə pdf variantlı əsərlərinə müraciət edək, amma burda da həmin sözlər tapılmadı. Bu o deməkdir ki, həqiqətən də, "yanışmamaq", "təmənnəşmək", "hümmətləşmək" feilləri Vaqif tərəfindən yaradılmış okkazionalizmlərdir.

"Yanışmamaq" "yanmaq" feilindən əmələ gətirilmiş qarşılıq növünün inkarıdır və şair "pərvanələrin eşq odunda yanması" semantikasına birgəlik anlamını qatır: "Dönmədik başına pərvanələr tək, Eşq oduna yanışmadıq, ayrıldıq!"

"Təmənnəşib" "arzu, istək, xahiş" ifadə edən ərəb mənşəli *təmənna* sözünə, "hümmətləşib" "əl-ələ verib çalışma" bildirən yenə ərəb mənşəli *hümmət* leksik vahidinə qarşılıq semantikası əlavə edilən düzəltmə feildən yaradılmış feili bağlamalardır: "*Halallaşıb, hümmətləşib dost ilən, Təmənnəşib görüşmədik, ayrıldıq*."

"Ayrıldıq" qoşmasının sonuncu bəndində şair çox maraqlı metoforik məcazlar yaradır:

Vaqifəm, üstümə gəlməz xas əli
Silinmədi heç könlümün pas əli.

Birinci misrada "üstümə gəlməz xas əli" söyləməklə şair yara xas, yara məxsus əli nəzərdə tutur. Qeyri-müəyyən gələcək zaman feilinin inkarında olan "gəlməz" feilini işlədən Vaqif bununla öz inamsızlığını ifadə edir. İkinci misrasında metaforik anlamlı ifadələr yaradır: "Silinmədi heç könlümün pas əli". Məcazi mənada işlənən "könlümün əli" yarın əlinə toxunmadığına görə pas atmışdır və "könlümün pas əli" şair tərəfindən yaradılmış frazeologizmdir.

Dilimizdə "havalı" sözünün dördcildlik izahlı lüğətdə iki semanteması verilib: "1. Azğınlaşmış; ağlı başından oynamış kimi; 2. Yaxşı havası olan; şəfalı" [1, s. 335]. Lakin son zamanlar "havalı" leksik vahidinin türk dilindən "göz alıcı, çəkici, heyranedici; gürurlu" məcazi mənaları da gənclərin dilinə daxil olmuşdur. Maraqlı bir haldır ki, Vaqifin "Sevmişəm" qoşmasında həmin bu mənanı görə bilirik:

Çox gözəlsən, amma xoyundur yaman,
Baxmazsan üzümə mənim çox zaman,
Vaqif deyir, sənin əlindən aman!
Mən biçarə nə havalı sevmişəm!

Maraqlıdır ki, izahlı lüğətdə Aşıq Ələsgərdən misal gətirilir: *Gəzirlər havalı ağalar, bəylər. İşləyir qan-tərdə naxırçı, nökər* [s. 335]. Birinci misrada *havalı* lekseminin "göstərişli, qürurlu" anlamı olsa da, təəssüf ki, izahlı lüğətdə bu izah semlər sırasında öz əksini tapmamış, əksinə sovet ideologiyasına uyğun olaraq "azğın, qudurmuş" mənaları verilmişdir. Belə məlum olur ki, müasir gəncliyin dilinə türk dilindən daxil olan məna əslində Azərbaycanın Qərb dialektlərində işlənibmiş.

Molla Pənah Vaqifin şeirlərində -ıb[4] nəqli keçmiş zaman şəkilçisinin bol işlənməsi araşdırma zamanı diqqətimizi cəlb etdi:

Sənə sığal verib, əcəb tər düşüb,
Hörülüb qəddilən bərabər düşüb,
Sanasan mələkdən balü pər düşüb,
Düzülüb dalında qatara tellər.

Biz bununla bağlı tədqiqat aparmaq qərarına gəldik. Molla Pənah Vaqifin 42 qoşması [9], Molla Vəli Vidadinin 20 qoşma, gəraylı və bayatıları [10], Şah İsmayıl Xətainin 34 ədəd qoşma, varsağı, gəraylı və bayatıları [11], Məhəmməd Füzulinin "Leyli və Məcnun" (42 səh.) [7], Nəsiminin 33 qəzəli [3], "Kitabi-Dədə Qorqud"da 20 səhifə (səh. 31-51) [5] üzərində apardığımız tədqiqat zamanı aşağıdakı statistik nəticələr əldə olundu:

	Vaqif 42 qoşma (səh. 13-33)	**Vidadi** 20 qoşma, gəraylı və bayatılar (səh. 15-35)	**Xətai** 34 ədəd qoşma, varsağı, gəraylı və bayatılar (səh. 330-358)	**Füzuli** "Leyli və Məcnun" (42 səh)	**Nəsimi** 33 qəzəl	**"Kitabi-Dədə Qorqud"** (səh. 19-41)
-ıb[4] nəqli keçmiş zaman şəkilçisi:	23	21	4	6	2	4
-ıb[4] feili bağlama şəkilçisi:	25	19	43	40	10	25
-ıban[3] feili bağlama şəkilçisi:	10	2	2	3	3	9
-ıbanı, -ibəni, -übəni, -ubani feili bağlama şəkilçiləri	–	–	–	–	1	20
-ıbam, I şəxsin təki nəqli keçmiş zaman şəkilçisi	–	–	–	11	1	–
-mış[4] nəqli keçmiş zaman şəkilçisi	17	–	–	26	–	65

Bu müqayisə onu göstərir ki, nəqli keçmiş zaman -ıb[4] şəkilçisi XVIII əsrdə Azərbaycan dilində daha çox işləklik qazanmışdır. Çünki Vaqifin şeirlərində -ıb zaman şəkilçisinin sayı ilə feili bağlama şəkilçisinin sayı arasında fərq yoxdur: 23-25. M.V.Vidadidə də demək olar eyni işlənmə nisbəti müşahidə olunur: 21-19. "Dədə Qorqud" dastanında isə kəskin fərq nəzərə çarpır: -ıb zaman şəkilçisi kimi 4, feili bağlama şəkilçisi kimi isə 25 dəfə işlənir. Müşahidələrimiz əsasında söyləyə bilərik ki, *-ıb* zaman şəkilçisi XI əsrdə *-mış* şəkilçisinə nisbətən çox az intensivliyə malik olmuşdur və əsrlər keçdikcə bu intensivlik artmağa başlamış Vaqif dövründə 6 dəfə artıq işlənmə həddinə çatmışdır. Müşahidələrimizi yuxarıdakı cədvəli izləməklə aydın görmək mümkündür. *-ıb* feili bağlama şəkilçisi isə XI-XVIII əsrlərarası dövrlərdə öz aktivliyini olduğu kimi qoruyub saxlamışdır: KDQ – 25 və Vaqif – 25.

Qeyd etmək lazımdır ki, bu qədim dastanda (KDQ) *-ıb* şəkilçisi *-dır*[4] xəbər şəkilçisi ilə işlənir: *"Oğlu-qızı olmıyanı Allah-təala qarğayıbdır"* [5, s.34], *"Qarıyıbdur otu bitməz", "Qurıyıbdır suyu gəlməz"* [5, s. 49]. *-ıb* şəkilçisinin adyektivləşmə funksiyası, Vaqif dilində olduğu kimi, dastanda da kifayət qədər məhsuldardır: *"Bədəvi ata binüb oğlancuğın istəyi getdi"* [5, s. 38]. *"..qara qaurma bişürüb qırq bəg qızına ilətün"* [5, s. 46].

Professor Q.Kazımov -ıb[4] nəqli keçmiş zaman şəkilçilərinin canlı danışıq dili üçün daha səciyyəvi olduğunu qeyd edir. Bu baxımdan xəlqiliyi ilə seçilən Vaqif dilində bu şəkilçinin daha çox işlənməsi təsadüfi deyil.

-ıb feili bağlama şəkilçisi gördüyümüz kimi, bütün dövrlərdə aktiv şəkildə işlənən məhsuldar bir şəkilçidir. Vaqifin əsərlərində: *"Könlün alıb barışmadıq, ayrıldıq", "Tərk edib dəhrin səfasın xeyrü şərdən keçmişəm", " İncəlib saətbəsaət tarü marın olmuşam", "Şux nigahından düşüb şirin şikarın olmuşam"* və s. bu cür feili bağlamalı misralara rast gəlmək mümkündür.

H.Mirzəzadə -ıban şəkilçisinin -ıb feili bağlama şəkilçisi ilə tam eyni semantikaya malik olduğunu söyləsə də, səhifə 285-də bunlar arasında müəyyən məna incəliyinin mövcud olduğunu qeyd edir,

Azərbaycan dilinin Qazax, Quba, Zaqatala və Şamaxı dialektlərində fonetik variantlarının işləndiyini göstərir. Bu şəkilçinin hələ qədim tatar, türkmən, osmanlı türklərinin dilində mövcud olduğunu, "Dədə Qorqud"da -ibani şəklində işləndiyini bildirir [5, s. 284-286]. Biz *-ibani* şəkilçisini Nəsiminin dilində də müşahidə edirik: "Daş alubani dilbər, könlüm şişəsin atar". [3, s.18]

T.Hacıyev Vaqifin dilində Qazax dialektinə xas dialektizmlərin mövcud olduğunu qeyd edir və bu baxımdan *-ıban* şəkilçisinin Vaqifin dilində çox işlənməsi təbii bir haldır. XIX əsr tatar poeziyasında feilin qrammatik formalarının variativliyini araşdıran tatar dilçisi A.F.Yusupov –üban feili bağlama şəkilçisinin ıb şəkilçisi ilə qrammatik sinonim olduğunu və yalnız təsdiqdə olan köklərə birləşə bildiyini göstərir (Деепричастие на *-ubän* выступает грамматическим синонимом формы на *-yb/-eb*. При помощи данной формы образуются деепричастия только от положительных основ: igre jullarny qujubän tuγry jula warasy «оставив другие пути, надо идти прямой дорогой») [12, s.158]. Həqiqətən də biz -ıban[4] şəkilçisinin Vaqif şeirlərində də yalnız təsdiqdə olan köklərə birləşə bildiyini görə bilirik: "*Yalvarıban vara-vara deməyə", "Yaslanıban eşiyində qalmağa", "Ağlayıban götürərsiz Vaqifi", "Nazlı-nazlı danışıban güləndə", "Günbəgün incəlibən oldu tənim muyə misal", "Çəkibən xəncəri, bağrım başını bir dələsən, Baxıban bəndə çəkən cövrü cəfanı biləsən", "Rişxənd edibən daxi neçün çöp dərən eylər Hatəm xan ağanı", "Bu qədər çəkibən azar, ağlarsan?"*. Vaqif şeirlərində bu şəkilçili feili bağlamaların inkarda olan feilləri açıqlamaq məqsədilə işləndiyinin də şahidi oluruq: "*Görüşübən eyləmədik xoş səfa*".

-ıbam şəkilçisi bizim bu kiçik tədqiqatımızda yalnız Fizuli və Nəsiminin şeirlərində müşahidə olundu. Füzulinin "*Mən həm olubam bu işdən agah, Əmma nə deyim, nə söyləyim? Ah!* " [6, s. 70] və Nəsiminin *"Kəpənək geymişəm, əndişədən azad olubam, Üşümək müşkülünü eylədi asan kəpənək"* [3, s. 117] misralarındakı *-ıbam, -ubam* I şəxsin təki olan nəqli keçmiş zaman şəkilçisi Xətai, Vidadi və Vaqifin şeirlərində müşahidə olunmur.

Vaqif dilinin leksik, semantik və qrammatik tədqiqatı dilçiliyimiz üçün olduqca əhəmiyyətli məsələlərdən biridir, çünki müasir Azərbaycan dilinin inkişafında və formalaşmasında böyük rolu olmuş bu dahi sənətkarın bədii irsi sinxron və diaxron aspektdə aparıla biləcək tədqiqatların sanki giriş və çıxış qapısıdır.

ƏDƏBİYYAT:

1. Azərbaycan dilinin izahlı lüğəti. Dörd cilddə. Bakı: "Şərq-Qərb", 2006-2011.
2. Hacıyev T.İ. Azərbaycan ədəbi dilinin tarixi. I hissə. Bakı: "Elm", 2012, 476 səh.
3. İmadəddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cilddə. I cild. Bakı, "Lidernəşriyyat", 2004, 336 səh.
4. Kazımov Q.Ş. Müasir Azərbaycan dili. Morfologiya. Bakı, "Nurlan", 2010, səh. 400.
5. Kitabi-Dədə Qorqud. Bakı: Yazıçı, 1988. 265 s.
6. Məhəmməd Füzuli. Əsərləri. Altı cilddə. I cild. Bakı, "Şərq-Qərb", 2005, 400 səh.
7. Məhəmməd Füzuli. Əsərləri. Altı cilddə. II cild. Bakı, "Şərq-Qərb", 2005, 336 səh.
8. Mirzəzadə H. Azərbaycan dilinin tarixi morfologiyası. Bakı: Azərbaycan Dövlət Tədris-pedoqoji Ədəbiyyatı, 1962, 370 s.
9. Molla Pənah Vaqif. Əsərləri. Bakı, "Şərq-Qərb", 2004, 264 səh.
10. Molla Vəli Vidadi. Əsərləri. Bakı, "Öndər nəşriyyat", 2004, 128 səh.
11. Şah İsmayıl Xətai. Əsərləri. Bakı, "Şərq-Qərb", 2005, 384 səh.
12. Юсупов А.Ф. Вариативность грамматических форм глагола в языке татарских поэтических произведений XIX века. Ученые записки казанского государственного университета. Том 150, кн. 8, Гуманитарные науки 2008, s. 154-160.

AZƏRBAYCAN ƏDƏBİ DİLİ VƏ KÖMƏKÇİ ADLAR

SEVİNC SƏFƏROVA*

Xülasə. Müasir Azərbaycan dilində köməkçi nitq hissələrinin təsnifi ilə bağlı apardığımız araşdırmalar bizə aşağıdakı nəticələrə gəlməyə əsas verir:

1. Köməkçi nitq hissələrinin təsnifindəki müxtəliflik onların tədqiqi tarixində də özünü göstərir.
2. Tədqiqat bu nəticəyə gəlməyə əsas verir ki, doğrudan da, qoşmalarla idarə mövcuddur və buradan da məntiqi olaraq o qənaətə gəlmək olur ki, Azərbaycan dilində qoşma birləşmələri vardır.
3. Müasir Azərbaycan dilində qoşmalar adlıq, yönlük və çıxışlıq haldakı sözlərlə işlənə bilir. İsmin

* AMEA Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu, Tətbiqi dilçilik şöbəsi, böyük elmi işçi, Email: safarovasevinc@mail.ru

yiyəlik, təsirlik və yerlik halındakı sözlərlə isə qoşmalar əlaqəyə girə bilmir.

Yiyəlik haldakı sözlərlə qoşmalar ona görə işlənə bilmir ki, yiyəlik hallı söz məntiqi olaraq ayrılıqda işlənə bilməz. Yəni *mənim üçün, sənin kimi, onun tək* və s. birləşmələri əslində *mənim özüm üçün, sənin özün kimi, onun özü tək* və s. formadadır. Həmin birləşmələrdə isə *üçün, kimi, tək* qoşmaları adlıq halda olan III növ təyini söz birləşmələri ilə işlənmişdir.

Təsirlik halda isə fel imkan vermir ki, obyekti olduğu sözlə öz arasına hansısa bir söz girsin. Yəni fellə idarə güclü olduğundan digər idarəedici vahidə ehtiyac qalmır.

Yerlik halda isə vəziyyət tamam başqadır. Belə ki, tədqiqatlar nəticəsində sübut olunmuşdur ki, qoşmalar bir nitq hissəsi olaraq daha çox mütəhərrik-diramik hərəkətlə bağlıdır. Ancaq yerlik halın məzmununda isə statik hərəkət aparıcı olduğundan həmin hal şəkilçisini qəbul etmiş sözlər qoşmalarla işlənə bilmir.

Summary. Our research on the classification of auxiliary parts of speech in the modern Azerbaijani language allows us to come to the following conclusions:

1. The diversity in the classification of auxiliary parts of speech is also reflected in the history of their research.

2. The research gives a reason to come to the conclusion that, indeed, there is management with conjunctions, and from here it is logical to conclude that there are conjunctions in the Azerbaijani language.

3. Conjunctions in the modern Azerbaijani language can be used with words in the nominative, adverbial and adverbial cases. Conjunctions cannot be connected with words in the possessive, affective and locative case of the noun.

Conjunctions with possessive words cannot be used because possessive words cannot logically be used separately. That is, for me, like you, his alone, etc. the combinations are actually for my self, as your self, his self alone, etc. is in shape. And in those combinations, for, as, the only conjunctions are used with the III type of determining word combinations in the nominative case.

In the case of influence, the verb does not allow any word to enter between itself and the word of which it is the object. That is, since the control with the verb is strong, there is no need for another control unit.

In the local case, the situation is completely different. So, as a result of research, it has been proven that couplets as a part of speech are more related to dynamic-dynamic movement. However, in the content of the locative case, since the static action is leading, the words that have received that case suffix cannot be used with conjunctions

Key words: literary language, auxiliary nouns, couplets, parts of speech.

Резюме. Наши исследования по классификации вспомогательных частей речи в современном азербайджанском языке позволяют прийти к следующим выводам:

1. Разнообразие классификации вспомогательных частей речи отражается и в истории их исследования.

2. Исследование дает основание прийти к выводу, что управление с помощью союзов действительно существует, и отсюда логично сделать вывод о наличии союзов в азербайджанском языке.

3. Союзы в современном азербайджанском языке могут употребляться со словами в именительном, наречном и наречном падежах. Союзы не могут быть связаны со словами в притяжательном, аффективном и местном падеже существительного.

Союзы с притяжательными словами использовать нельзя, поскольку притяжательные слова логически не могут использоваться отдельно. То есть для меня, как и для вас, только его и т. д. комбинации на самом деле предназначены для меня, как для тебя, только для него и т. д. находится в форме. Причем в тех сочетаниях, для, как употребляются только союзы с III типом определительных словосочетаний в именительном падеже.

В случае воздействия глагол не позволяет никакому слову встать между собой и словом, объектом которого он является. То есть, поскольку управление с помощью глагола сильное, необходимости в другом блоке управления нет.

В местном случае ситуация совершенно иная. Так, в результате исследований доказано, что двустишия как часть речи больше связаны с динамично-динамическим движением. Однако в содержании местного падежа, поскольку статическое действие является ведущим, слова, получившие этот падежный суффикс, не могут употребляться с союзами.

Ключевые слова: литературный язык, вспомогательные существительные, двустишия, части речи.

Həm türkologiyada, həm də Azərbaycan dilçiliyində, qeyd etdiyimiz kimi, qoşmalar 4 qrupda birləşdirilmişdir və həmin qruplardan biri də "həm qoşma, həm də əsas nitq hissəsi kimi işlənənlər" (keçici qoşmalar) qrupudur. Keçici qoşmalara *əvvəl, sonra, qeyri, özgə, qabaq* və s. sözləri daxil edirlər ki, həmin sözlər də ayrı-ayrı əsas nitq hissəsinə aid vahidlərdir. Ancaq bəzən sintaktik şəraitdən asılı olaraq onlar həm də qoşma kimi çıxış edə bilir.

A.Əbilov qoşmaların təsnifindən danışarkən həmin sözləri qoşma bəhsində yox, aid olduqları nitq hissələrinin içərisində izah etməyi təklif edirdi.

Düzdür, *əvvəl, sonra, qabaq, özgə, qeyri, başqa və s.* sözlərə qoşma deyirlər, ancaq onlar müəyyən məqamda qoşma vəzifəsində çıxış edə bilir. Bildirmək lazımdır ki, artıq neçə illərdir ki, həmin sözlər "keçici qoşmalar" adı altında qoşmaların içərisində izah olunur və elə düşünürük ki, ənənə xatirinə onları qoşmaların tərkibində də öyrənmək lazımdır. Həm normativ, həm də akademik qrammatikalarda qoşmalarla qoşma vəzifəsində çıxış edən vahidlərin fərqləndirilməməsi problemi M.Kazımbəydən bu günə qədər həm türkologiyada, həm də milli dilçiliyimizdə mövcud olmaqdadır. İlk dəfə M.Kazımbəy *iç, dib, yan, orta, qıraq* və digər vahidlərdən qoşma kimi söhbət açmış və onları xalis qoşmalar kimi vermişdir [Çobanzadə: 1929].

Türkologiyada birinci dəfə V.A.Qordlevski köməkçi adları xalis qoşmalardan fərqləndirmiş və onları "ad-qoşma" adlandırmışdır [Cəlilov: 1988].

"Köməkçi ad" terminini isə ilk dəfə N.K.Dmitriyev işlətmiş və o, köməkçi adların bir qrup abstrakt məkan mənalı isimlərin qoşmalaşmasından ibarət olmalarını göstərmişdir. Müəllif yazır: "Köməkçi adlar (aşağı, yuxarı, ön, arxa, dib və s.) mənşəcə isimlərdən törədiklərinə görə, onlar qoşma vəzifəsində işləndikləri zaman da öz ilkin mənalarını müəyyən mənada mühafizə edir" [Cəlilov: 1983].

N.A.Kononov türk dilində qoşmaları iki qrupa ayırır: *qoşma-ədat* və *qoşma-ad* [Cəlilov: 1983].

Göründüyü kimi, o, da köməkçi adları xalis qoşmalardan fərqləndirmiş və onların ikili xarakterdə olmalarını göstərmişdir. Müəllif köməkçi adların ismin yiyəlik halı ilə işlənməsini onları qoşmalara yaxınlaşdıran xüsusiyyət kimi qeyd edir [Cəlilov:1983].

Türkologiyada köməkçi adlar haqqında orijinal fikir söyləyən dilçilərdən biri də İ.A.Batmanovdur. O, köməkçi adların əsli qoşmalardan köklü şəkildə fərqlənmədiyini yazır: "Onları ayırıb, ayrıca bir qrup kimi öyrənməyin heç bir elmi əsası yoxdur" [Aslanov: 1978]. Köməkçi adları qoşmaların tərkibində "nisbi qoşmalar" kimi öyrənmək daha faydalıdır. Müəllif *yanında, arasında, üstündə, böyründə, ardında, dışında, kırağında, içində* və s. sözləri köməkçi ad kimi qiymətləndirir [Cəlilov: 1988].

Sonrakı dövrlərdə də bir çox türkoloqlar öz əsərlərində ya birbaşa, ya da dolayısı ilə türk dillərində *köməkçi adlar* məsələsinə toxunmuşlar və onların əksəriyyəti həmin vahidləri qoşmalarla adlar arasında keçid səciyyəli sözlər hesab edir.

Azərbaycan dilçiliyində köməkçi adlardan ilk dəfə S.Cəfərov bəhs etmişdir. O, *alt, üst, iç, orta, yuxarı və s.* tipli sözlərdən köməkçi adlar kimi danışmasa da, onların qoşmalara yaxın məkan münasibəti ifadə etmələrindən söhbət açır və həmin sözlərin qoşmalardan tamamilə fərqləndiyini qeyd edir [Çobanzadə: 1929, s.87].

Azərbaycan dilində köməkçi adlar ətraflı elmi tədqiqata prof. F.Zeynalovun monoqrafiyasında cəlb olunmuşdur. O, Oğuz qrupu türk dilləri kontekstində köməkçi adları qoşmalarla müqayisə edir və onların funksiya etibarı ilə qoşmalara çox yaxın olduqlarını bildirsə də, həm də onların qoşmalardan fərqləndiyini söyləyir. Müəllif köməkçi adları adlarla qoşmalar arasında keçid səciyyəli vahidlər hesab edərək yazır: "Dildə əsasən əşyalıq mənası əks etdirən bir qrup söz hallanma xüsusiyyətini, qismən də məzmunlarını mühafizə edərək məkani halların ifadə edə bilmədiyi münasibətləri bildirməyə xidmət edən, onların mənasını tamamlayan sözlərə çevrilirlər. Cümlə daxilində öz qrammatik-semantikasını mühafizə edən, sintaktik cəhətdən qoşmalara oxşayan bu tipli sözlər köməkçi adlar kimi xarakterizə oluna bilər" [Cəfərov, Abbasov, Quliyev: 1941].

Tədqiqatçı köməkçi adları qoşmaların tərkibində versə də, onlardan ayrıca bir qrup kimi danışır, köməkçi adlar kimi qəbul etdiyi sözlərin qoşmalardan fərqli və oxşar xüsusiyyətlərini maddə-maddə göstərir, eləcə də ayrı-ayrı köməkçi adların mətndə yaratdığı məna və funksiyasını araşdırsa da, konkret olaraq köməkçi adların dildəki mövqeyini müəyyənləşdirmir [Cəlilov: 1988].

A.Həsənov müasir Azərbaycan dilində zərfliklərdən bəhs edərkən, *alt, üst, yuxarı, aşağı, dib, yan, orta, ara, qıraq, qabaq, iç və s.* köməkçi adlar hesab olunan sözləri zərf adlandırmışdır [Cəlilov: 1988].

H.Quliyev müasir Azərbaycan dilində köməkçi adlara xüsusi məqalə həsr etmiş, «onların bir qrup məkan mənalı isimlərin cümlədə abstrakt məkan ifadə etməsi nəticəsində əmələ gəldiklərini» qeyd etmişdir. O, köməkçi adları müasir Azərbaycan dilində xüsusi bir söz qrupu kimi vermiş, onları mətndə yaratdıqları mənalarına əsasən qruplaşdırmışdır. Müəllif, köməkçi adların əsas nitq hissəsi ilə köməkçi nitq hissəsinin arasında dayandığını yazır, ancaq onları xüsusi bir söz qrupu kimi təqdim edir.

“Müasir Azərbaycan dili” dərsliyində “Qoşma və köməkçi adlar” bölməsini də yazan H.Quliyev həmin əsərdə də əsasən ayrı-ayrı köməkçi adların birləşmə daxilində yaratdığı mənaları diqqətlə araşdırır, ancaq onun köməkçi adları qoşmalara və ya isimlərə aid etməsi məlum olmur. O, yazır: “Beləliklə, Azərbaycan dilində bir qrup isimlərin mənası qismən, ya da tamamilə zəifləmiş və onlar getdikcə məkani halların mənalarını dəqiqləşdirən vasitəyə çevrilmişdir”. Sitatdan bir daha aydın görünür ki, müəllif köməkçi adların dildəki mövqeyini dəqiq müəyyənləşdirmir.

Müasir Azərbaycan dilində köməkçi adlar kimi qeyd edilən sözlər haqqında orijinal fikir söyləyən tədqiqatçılardan biri də C.Cəfərovdur. O, 1987-ci ildə qələmə aldığı məqaləsində və N.Abdullayevlə birlikdə yazdıqları dərsliyində köməkçi adların əhatə dairəsini daha da genişləndirir. Onlara *nəzərən, əsasən, sayə, əsas, səbəb, nəticə, hal, dair, məxsus, fayda, yol, isnad, yerinə, hesabına, müddətində, ərzində* və s. sözləri də daxil edib, onları da *uc, alt, üst, bel, dib, arxa, dal, qabaq, qarşı, böyür, orta, kənar, ara, iç, yan, qıraq* və s. sözlərlə birlikdə köməkçi isim adlandırır.

Y.Seyidov isə dilçilik ədəbiyyatlarında köməkçi adlar kimi izah olunan *içəri, irəli, yuxarı, aşağı və* s. bu tipli sözləri yer zərfləri hesab edir.

Türkologiyada və Azərbaycan dilçiliyində köməkçi adlar haqqındakı mövcud fikirləri yekunlaşdıraraq belə qənaətə gəlmək olur ki, həmin söz qrupu 4 istiqamətdə tədqiq olunmuşdur: 1) Köməkçi isimlər kimi 2) Qoşma kimi 3) Zərf kimi 4) Əsas nitq hissələri ilə qoşmalar arasında dayanan qeyri-müəyyən söz qrupu kimi.

Köməkçi adlar kimi öyrənilən sözlər qrupunun bu qədər müxtəlif istiqamətlərdə tədqiq olunmasının əsas səbəbi ondadır ki, ayrı-ayrı mütəxəssislərin hər biri həmin sözlərə kompleks yox, müəyyən yöndən yanaşmışlar. Belə ki, F.Zeynalov, N.Məmmədov və başqaları *alt, üst, yuxarı, aşağı, iç, orta, ara, dib, qabaq, böyür* və s. sözlərin qoşmalara zahiri oxşarlığını əsas aldıqları halda, C.Cəfərov, H.Quliyev və digərləri isə onların daha çox nominativ xüsusiyyətlərini əsas götürmüş, sintaktik xüsusiyyətlərini isə müvəqqəti bir proses (keçid prosesi) adlandırmışlar.

Əvvəla onu deyək ki, biz öz növbəmizdə yuxarıda köməkçi adlar haqqında deyilən fikirlərin hər biri ilə müəyyən mənada razıyıq, ancaq hesab edirik ki, həmin fikirlərin hər birinə tənqidi yanaşmaq olar.

F.Zeynalov köməkçi adlar hesab etdiyi sözləri qoşmalara çox yaxınlaşdırır və bildirir ki, onları birlikdə bir nitq hissəsi hesab etmək lazımdır. O yazır: “Köməkçi adlar elə əslində qoşmaların daşıdıqları vəzifəni daşıyırlar, ancaq köməkçi adlar həm də nominativ-lüğəvi mənaya malikdirlər” [Cəlilov:1988]. Dil materialları isə göstərir ki, heç də köməkçi adlar hesab olunan sözlər qoşmaların yerinə yetirdikləri vəzifəni eynilə yerinə yetirmir. Birincisi, köməkçi adlar həmişə mənsubiyyət şəkilçisi ilə işlənir; məs.: Uzaqdan ağaran sıldırım qayaların *dibi* ilə nazik göy cığır gedirdi (S.Rəhimov). Bir neçə gün idi ki, Ziyad xan öz otağının *içində* tək-tənha otururdu (Elçin). Kətilin *üstündə* büzüşən müəllim yerindən qalxdı (S.Rəhimov). Həmin kənd düz yolumuzun *başında* idi (İ.Məlikzadə).

Göründüyü kimi, yuxarıdakı misallarda *dib, iç, üst* sözləri III şəxs mənsubiyyət şəkilçisi ilə işlənmişdir. Ancaq qoşmalar mənsubiyyət şəkilçiləri ilə heç zaman işlənmir. Eyni zamanda qoşmaların dildə imkanları daha genişdir. Onlar cümlədə səbəb, məqsəd, vasitə, məkan və s. məzmunlar da ifadə etdikləri halda, *yuxarı, alt, üst, iç, dib, orta, ara* və s. sözlər isə yalnız *məkan* anlayışı ifadə edir. Məsələn: Söyüdlər *arxın qırağında* əkildiyindən onlar yaxşı inkişaf etmişdilər (M.İbrahimov). Təhməzlə Şövkətin pəncərəni taybatay açıq qoyub xumar yatdıqları bir yaz gecəsi, mən öz *stolumun dalından* durub ona yaxınlaşdım (İ.Hüseynov). Məni şadlıq məclisinə çağıran Armina saralan payız yarpaqlarının, seyrələn *kölgələrin altında,* atası və əmisi ilə bərabər yatırdı (M.Cəlal). - Bu *qırğının, davanın içində* mən heyvanı neynirəm qardaş? (Ə.Cəfərzadə).

Ayrı-ayrı yazıçıların əsərlərindən gətirilən nümunələrin hamısında *qıraq, dal, alt, iç* sözləri həm mənsubiyyət, həm də yerlik hal şəkilçisi ilə işlənərək məkan məzmunu yaratmışdır.

Müasir Azərbaycan dilində köməkçi adları qoşmalarla bir də ona görə eyniləşdirmək olmaz ki, həmin sözlərin hamısı isimin bütün hal şəkilçiləri ilə işlənə bilirlər:

dağın dibi,
dağın dibinin
dağın dibinə
dağın dibini
dağın dibində
dağın dibindən.

Əgər köməkçi adlar kimi verilən sözlərin hallanma xüsusiyyəti olmasaydı, onları qoşmanın bir qrupu kimi vermək olardı.

F.Zeynalovun və digər dilçilərin köməkçi adlar haqqındakı fikirlərinə bizim münasibətimiz belədir ki, köməkçi adları qoşmaların tərkibində bir qrup kimi izah etmək doğru deyil.

Bir məsələni də nəzərə almaq lazımdır ki, həmin müəlliflər sözügedən problemi rus dilçiliyinin təsiri altında o şəkildə qoymuşlar.

H.Quliyev isə müasir Azərbaycan dilində köməkçi adları ayrıca bir söz qrupu kimi verir və dilimizdə köməkçi adların doqquz məna növünü müəyyənləşdirir, hətta bir sözdən ibarət xüsusi növ də müəyyənləşdirir: "İki əşya arasındakı sahəni, məkanı bildirən: ara" [Cahangirov: 1957]. Əslində elə digər növlərə də bir-iki söz daxildir. Əvvəlki səhifələrdə də qeyd etdiyimiz kimi, müəllif köməkçi adları xüsusi bir qrup kimi təqdim etsə də, onların konkret olaraq dildəki mövqeyini müəyyənləşdirmir. Daha sonra o, köməkçi adlara dəxli olmayan *haqqında, sayəsində, barəsində* və s. sözləri də köməkçi adlara daxil edir. Axı necə ola bilər ki, *barəsində, sayəsində, haqqında* sözləri *alt, üst, dal, ara* və s. sözlərlə eyni cərgədə dayansın [Cahangirov: 1957].

Elə hesab edirik ki, onun köməkçi adları qruplaşdırması da həm elmi, həm də metodoloji cəhətdən yanlışdır. Birincisi, ona görə ki, bir-iki sözdən ibarət qrup olmaz. İkincisi isə, bir neçə sözün 9 məna qrupunda təqdim olunması metodoloji cəhətdən də ağırlıq yaradır.

C.Cəfərov isə müasir Azərbaycan dilində köməkçi adların əhatə dairəsini daha da genişləndirir və "onların əslində köməkçi isimdən başqa bir şey olmadıqları" qənaətinə gəlir. Müəllif həmin nəticəyə gələrkən onların isim mənşəli olmalarını əsas götürür və feillərdə də analoji vəziyyətin olmasını qeyd edir [Aslanov: 1978]. O, köməkçi isimlər kimi *məna, barə, haqq, dair, məxsus, sayə, əsas, səbəb, nəticə, hal, əvəz, vəziyyət, birlik, fayda, xeyr, boy, zaman, vaxt, ad, nam, yerinə, isnad, üz, yol, uğur, uc, alt, üst, bel, təpə, baş, dib, arxa, dal, qabaq, qarşı, böyür, orta, kənar, ara, iç, yan, qıraq, mərkəz, qoyun, sahə, vəziyyət, hal, əvəz, baxımdan, nəzərdən, ərzində, əsasında, dairə, çərçivə* və s.sözləri götürür [Aslanov:1978, s.86-93].

Əvvəla onu qeyd edək ki, yuxarıda göstərilən vahidlərin hamısını eyni cərgədə yerləşdirmək olmaz. Ona görə ki, *birlik, fayda, xeyr, zaman, vaxt, ad, ərzində, nəzərdən, əsasında* və ya digər sözlər *alt, üst, uc, dal, qıraq, qabaq, dib* və s. sözlərlə heç cür eyni qəlibə sığmır. Həmin sözlərin bir qrupunu bəlkə də köməkçi isimlər kimi götürmək olar, ancaq *alt, üst, dib, yan, qabaq, böyür, uc, dal* və s. sözləri fikrimizcə köməkçi isim adlandırmaq doğru deyil. Biz elə hesab edirik ki, əgər həmin vahidlər də, feil bəhsində olduğu kimi bir-iki sözdən (et//elə, ol) ibarət olsaydı və həmin sözlər kimi aid olduqları nitq hissəsinin kateqorial xüsusiyyətlərini özlərində əsasən ehtiva etsəydi onlara da köməkçi isimlər kimi yanaşmaq olardı. Düşünürük ki, əksər hallarda köməkçi adlar kimi izah olunan *qarşı, qabaq, qıraq, aşağı, yuxarı, arxa* sözləri bütün hallarda zərfdir. *Dal, dib, uc, yan, böyür, alt, üst, ara, kənar, iç* və digər sözlər isə müasir Azərbaycan dilində mücərrəd məkan anlayışı ifadə edən isimlər kimi öyrənilə bilər.

Araşdırmalar göstərir ki, müasir Azərabycan dilində köməkçi ad deyilən sözlər qrupu yoxdur, həmin sözlərin isimin əsasən yiyəlik və bəzən də çıxışlıq halları ilə işlənməsi isə onların spesifik xüsusiyyətidir ki, bunu da qoşmalaşma kimi qeyd etmək doğru deyil. Bu problem Azərbaycan dilçiliyində sadəcə olaraq ona görə yaranıb ki, ayn-ayrı mütəxəssislər rus dilçilik ənənəsini mexaniki olaraq dilimizə tətbiq etmişlər. Ə.Abdullayev həmin məsələdən yönlük halın mənşəyindən danışarkən ətraflı bəhs etmişdir [Abdullayev:1992, s.199-207].

Deməli, Azərbaycan dilində qoşmaların tərkibində "köməkçi adlar" deyilən xüsusi bir qrupun verilməsi düzgün deyil və əvvəlki səhifələrdə də göstərdiyimiz kimi, onların bir qismi zərfin, bir qismi isə ismin payına düşür. İsimə daxil olanları isə köməkçi isim yox, isimin bir məna növü kimi izah olunması daha düzgün olardı. Bir də həmin sözlər abstrakt məkan anlayışını həmişə birləşmə daxilində ifadə etdiyindən, onların morfoloji-sintaktik kateqoriya kimi təqdim olunması daha məqsədə müvafiqdir. Onların ismə aid olanlarını isim bəhsində, zərfə aid olanlarını isə zərfin içərisində izah etmək lazımdır və həmin sözlərin mətndə qoşma kimi çıxış etdiyini də göstərmək məsələnin mahiyyətini açdı. Ancaq bir məsələ də var ki, həmin sözlərin hamısı tarixən isim olduğundan, hal-hazırda zərf kimi formalaşanlarında da ilkin mənanın izləri müşahidə olunmaqdadır.

ƏDƏBİYYAT:

1. Abdullayev Ə.Z. Azərbaycan dili məsələləri. Bakı, 1992, 330 s.

2. Aslanov A.Ə. Qoşma və ismin yiyəlik halı məsələsi. "Azərbaycan dili və ədəbiyyatı tədrisi" jurnalı, 1978, № 4, s. 67-72

3. Aslanov A.Ə. Tabelilik bağlayıcılarının mürəkkəb cümlələrdə rolu. "Azərbaycan dilində tabeli mürəkkəb cümlə məsələləri" kitabı. Bakı, 41983, s. 67-72.

4. Dəmirçizadə Ə.M. Müasir Azərbaycan dili. I hissə, Bakı, 1978, 306 s.

5. Cahangirov M.P. Müasir Azərbaycan dilində "yox" sözü və onun derivatları haqqında. Azərb. SSR EA Nizami adına Ədəbiyyat və Dil İnstitutunun Əsərləri, X cild, 1957, s. 5-40.

6. Çobanzadə B., Ağazadə F. Türk qrameri. Bakı, 1929, 202 s.

7. Cəlilov F.A. Azərbaycan dilinin morfonologiyası. Bakı, 1988, 285 s.

8. Cəlilov F.A.Mürəkkəb cümlə sintaksisi. Bakı, 1983, 287 s.

O‘ZBEK VA TURK TILLARI AYRIM GRAMMATIK HODISALARINING INTEGRATSIYASI VA DIFFERENSIYASI XUSUSIDA

Asadov To‘lqin Hamroyevich,
Buxoro davlat universiteti,
O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Tarixchi olimlar – mutaxassislar ota-bobolarimiz sanalgan turkiy uruglar paydo bo‘lgan dastlabki davrni miloddan oldingi o‘ninchi ming yillikka bog‘laydilar. Demakki, turkiy og‘zaki til ham shu davrlarga borib taqaladi. Tilimizning eng qadimgi tarixiga bag‘ishlangan dastlabki ma’lumotlar Xitoy (“Shimoliy sulolalar tarixi”), yunon (Gerodotning “Tarix” kitobi), arab manbalarining (jumladan, Rashiddinning “Jome’ ut-tavorix”) yozma yodgorliklarida uchraydi [4,7-9]. Ko‘rinadiki, turkiy tillar uzoq tarixga ega.

Ma’lumki, til ellarni ellarga, xalqlarni xalqlarga, bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, dillarni dillarga mustahkam bog‘lovchi rishta sanaladi. Bir qancha ajdodlar ko‘z o‘ngida shakllanib, sayqal topgan hamda dunyo tillari orasida o‘zining serjiloligi, ko‘p ma’noligi bilan munosib o‘rin egallagan turkiy tillarni yaratuvchilari, ijodkorlari ulug‘ ajdodlarimiz hisoblanishadi, albatta. Turkiy tillar o‘zining boy tarixiga, uzoq va yaqin o‘tmishiga ega.

Turkiy tillar deganda Sibirdan Bolqon yarim oroligacha bir chiziq bo‘ylab cho‘zilgan ulkan geografik hududda tarqalgan o‘zbek uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, saxa (yoqut), tuva, xakas, oltoy, karagas, shor, turkman, ozarbayjon, turk, gagauz, tatar, boshqird, chuvash, karaim, no‘g‘ay kabi 25 dan ortiq til nazarda tutiladi. Bu tillar genetik yaqinligi, tarixiy taraqqiyoti bilan o‘zaro bog‘liq. Turkiy tillar bir-biriga fonetik, leksik, grammatik jihatdan juda yaqin bo‘lib, bir oilaga mansub tillar sanaladi.

O‘zbek va turk tillari ham necha zamonlardan beri qadimgi turkiy tildan oziqlanib, yashab keldi. Nisbatan keyingi davrlarda bu ikki til vakillari yashash hududi, hayot tarzi o‘z-o‘zicha kechgani bois mazkur tillar doirasida ayrim farqlanishlar ham yuz berdi.

Hozirgi kunda o‘zbek lafzida so‘zlovchilar dunyoning ko‘pgina davlatlarida, jumladan, Germaniya, AQSH, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Afg‘oniston, O‘rta Osiyoning turli hududlarida istiqomat qilmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz ravnaqi bilan birga, bu tilni – o‘zbek tilini organishni istovchilar soni ortib bormoqda. Rivojlangan davlatlar (AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya) da Markaziy Osiyo madaniyati, dini, ma’naviy olami, xususan, tilini o‘rganishga ixtisoslashgan bo‘limlar, muassasalar keng faoliyat ko‘rsatyapti. Xuddi shuningdek, bugungi kunda zamonaviy turk tili qo‘llanish doirasi juda tez o‘sib borayotgan tillardan biri sanaladi. Bu tilda so‘zlovchilar, asosan, Turkiyada, shuningdek, Iroq, Suriya, Eron, Ruminiya, Bolgariya, Gretsiya, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Kipr oroli, Makedoniya, O‘rta Osiyo va boshqa yurtlarda istiqomat qilishadi. Adabiy turk tili XIX asr o‘rtalaridan shakllana boshlagan, XX asrning 20-yillaridagi islohotlardan so‘ng turk adabiy tili umumxalq so‘zlashuv tili bilan yaqinlashtirilgan.

Ma’lumki, o‘zbek va turk tillari bir oila, ya’ni turkiy tillar oialisiga tegishli bo‘lgani bois ularning grammatik tuzilishi ham bir-biri bilan juda uyg‘un. Har ikkala til ham agglyutinativ tillar guruhiga mansub. Shuning uchun so‘zga har qanday grammatik shakl qo‘shilganda so‘zning dastlabki shakli saqlanadi, ma’nosiga putur yetmaydi, so‘zga ketma-ket ulanayotgan affikslar bir-biridan osonlik bilan ajraladi.

Ahamiyatlisi shundaki, ulug‘ bobomiz Mahmud Koshg‘ariy o‘zining ”Devon-u lug‘atit turk” asarida turrkiy tilar va ularning o‘ziga xos tabiati haqida bir qator ma’lumotlar keltiradi[3]. Turkiy lahjalar orasidagi fonetik, morfologik, leksik-semantik va uslubiy farqlanishlarni misollar orqali ko‘rsatib o‘tadi.

O‘zbek va turk tili o‘rtasidagi asosiy farq – o‘zbek adabiy tili turkiy tillarning qarluq (qarluq-chigil) guruhi hamda turk adabiy tili esa o‘g‘uz guruhiga mansubligida ko‘rinadi.

O‘zbek va turk tillarining o‘zaro farqli jihatlari manbalarda ikki asos bilan belgilanadi: a) tabiatan farqlilik; b) har ikkala tilning ichki taraqqiyoti tufayli orttirilgan farqlar.

O‘zbek va turk tillarining farqli jihati singarmonizm bilan ham bog‘liq. O‘zbek adabiy tilida singarmonizm qonuni sust kechadi (ko‘p o‘rinda buziladi). Turk tilida esa singarmonizmga qat’iy amal qilinadi.

O‘zbek imlosida morfologik prinsip yetakchilik qilsa[5], turk tili imlosida esa eski o‘zbek tilida bo‘lgani kabi talaffuzda qanday bo‘lsa, yozuvda ham deyarli shunday yoziladi (fonetik prinsip talablariga muvofiq).

O‘zbek va turk tili alifbosidagi tovushlar miqdori va sifatiga ko‘ra ham farqlanadi (ko‘pgina turkiy ntillarga o‘xshab turk tilida ham 8 ta unli, 21 ta undosh mavjud).

Turk tilida singarmonizm qonuni amal qilgani bois har bir qo‘shimcha so‘z asosi tabiatiga bog‘liq holda fonetik variantlardan iborat bo‘ladi[1;2;6;7]. Masalan, turk tiliga ko‘plik shakli *-lar, -ler*, egalik qo‘shimchasi *-im, -ım, -um, -üm* kabi fonetik variantlarga ega.

O‘zbek va turk tillaridagi qo‘shimcha shakllar sifat va miqdor jihatdan ham, shuningdek, har ikka tilda ayrim affikslarning qo‘llanish chastotasi ham farqlanadi. Masalan, -ajak/(y)ajak (turk tilida: -acak/(y)acak; ecek/(y)ecek) affiksining qo‘llanish chastotasi turk tilida yuqori bo‘lsa, o‘zbek tilida o‘ta passif sanaladi.

Turk tilida qiyosiy daraja hosil qiluvchi -roq affiksi mavjud emas, ya’ni turk tilida asliy sifatlarni nisbiy sifatdan ajratib turuvchi morfologik ko‘rsatkich yo‘q. Bu tilda qiyoslash *daha* yordamchi so‘z vositasi bilan hosil bo‘ladi: Jumladan: *O benden daha küchük – U mendan kichikroq.*

O‘zbek tilida forsiy tillardan o‘zlashgan affikslar, jumladan, old qo‘shimchalar (ser-, be-, ba-, bo-, ham-) bilan yuzaga keluvchi so‘zlar faol qo‘llanadi. Turk tiliga bu kabi affikslar va ular bilan hosil bo‘lgan so‘zlar deyarli uchramaydi.

O‘zbek va turk tillarida yordamchi so‘zlar grammatik jihatdan bir xil vazifani bajarsa-da, ularda so‘z shakli farqlanishi kuzatiladi.

O‘zbek tilida ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari (*ko‘rib qolmoq, aytib yubormoq, yirtib tashlamoq, o‘qib turmoq, aytib chiqmoq* va h.k.) ning qo‘llanish doirasi o‘ta keng bo‘lsa, turk tilida esa buning aksi kuzatiladi.

O‘zbek va turk tillarining leksik qatlamida ham qisman farqlanish kuzatiladi. Qadimgi turkiy tilga mansub ayrim so‘zlar (jumladan: *alin – peshona, kug‘u – oqqush, oksuz – yetim, rushvat – pora* va h.k.) turk tilida saqlanib, o‘zbek tilida saqlanmagan yoki o‘zbek tilida saqlangan bir qator qadimiy so‘zlar turk adabiy tilida kuzatilmaydi.

O‘zbek va turk tillari grammatik tabiatini belgilashdagi ayrim tafovutlar quyidagilarda kuzatiladi:

a) o‘zbek tilida 6 ta kelishik mavjud bo‘lsa, turk tilida 7 ta kelishik qabul qilingan (bosh kelishik – Yalin hali, tushum kelishigi – Belirtme hali, jo‘nalish kelishigi – Yonelme hali, o‘rin-payt kelishigi – Bulunma hali, chiqish kelishigi – Ayrilma hali, Qaratqich kelishigi – Tamlayan hali; turk tilida – ko‘makchi kelishigi – Apac hali, yani *-la,-le;yla,-yle* kabi). Ularning tartiblanishi ham qisman farq qiladi.

b) turk tilida o‘zbek tilidagidan farqli holda (o‘zbek tilida 4 ta mayl bor) 7 ta mayl (kip) ajratilgan.

d) o‘zbek tilida harakat nomini hosil qilishda qo‘llanuvchi *-sh/ish* affiks shakli turk tilida o‘ta kammahsul sanaladi. Mazkur ma’no turk tilida *-ma, -me* affikslari bilan hosil qilinadi; *gitme (ketish), okuma (o‘qish)* kabi.

e) turk tilida nisbiy sifatlar uchga bo‘lib o‘rganiladi: ko‘rsatish sifatlari (işaret sıfatları), so‘roq sifatlari (soru sıfatları), noaniq sifatlar (belirsizlik sıfatları).

f) sonlar turk tilshunosligida *sifatlarning bir turi* (qismi) sifatida olinib, nisbiy sifatlar tarkibiga kiritiladi.

g) turk tilida olmoshlar ma’no jihatdan to‘rt turga ajratilib o‘rganiladi.

h) yuklamalar (Sona Gelen Edatlar) turk tilshunosligida alohida yordamchi so‘z turkumi sifatida ajratilmaydi. Ular umumiy shaklda yordamchi so‘zlar guruhiga kiritilib, *Sona Gelen Edatlar (ya’ni so‘zning oxirida keluvchi yordamchi so‘zlar)* deb o‘tiladi.

i) turk tilshunosligida modal so‘zlar alohida o‘rganilmay, undov so‘zlar (Ünlem Edatları) ning bir turi sifatida qaraladi. Undov so‘zlar *ünlem edatları* deyiladi.

j) o‘zbek va turk tillari imlosi (harflar imlosi, asos va qo‘shimchalar imlosi, qo‘shib va ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, bosh harflar imlosi) da ham ayrim farqlanishlar mavjud. Masalan, chiziqcha bilan yozish imlosida o‘zbek tilida juft, takror so‘zlar, tartib sonlar chiziqcha bilan yozilsa, turk tilida ular chiziqchasiz yoziladi. Masalan: *ota-ona – baba anne, ko‘p-ko‘p – bol bol, 2-uy – 2. ev* va h.k. Turk tilida orttirma darajadagi sifatlar ham chiziqchasiz, odatda, qo‘shib yoziladi: *yemyeşil – yam-yashil, ko‘m-ko‘k – masvavi, kıpkırmızı – qip-qizil, uzun mu uzun – uzundan uzun, tatlı mı tatlı – shirindan shirin* va b.

k) O‘zbek tilidagi juft va qo‘shma alohida-alohida tuzilish turlari turlar turk tilida alohida tur sifatida o‘rganilmaydi. Yozilishida esa chiziqchasiz yoziladi: *açık açık (ochiq-ochiq), abuk sabuk (tez-tez).*

Xullas, bu kabi juz’iy holatlarni, ya’ni qisman farqlanishlarni yana davom ettirish mumkin. Ammo bu kabi holatlar o‘zbek va turk tillarining umumiy, o‘ta o‘xshash tomonlari ham mavjudligini inkor eta olmaydi, albatta.

ADABIYOTLAR

1. Hamidov X., Turk tili grammatikasi. Morfologiya. –T.: Fan va texnologiya. 2006.
2. Hamidov X.X., Tilavov A.X., Yildirim H. Turk tilidan mashqlar to‘plami. Tűrkçe Aliştirmalar kitabi. –T.: Voris-nashriyot, 2009.
3. Кошғарий М. Девон-у луғатит турк. I том, –T., 1960.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. Darslik. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2009.

TURKIY TILLAR LEKSIKASINI QIYOSIY TADQIQ ETISH MASALALARI

Dilmanov I. O‘.,
Nukus DPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Ma’lumki, muayyan ikki va undan ortiq qardosh tillarni qiyosiy tahlil etish muhim masalalalardan biridir. Chunki qardosh tillarni ilmiy o‘rganish, ularning qardoshligini belgilash, tillarning paydo bo‘lishidagi umumiy jihatlarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Muhimi, qardosh tillar materiallarini qiyosiy tahlil qilish - tillar o‘rtasidagi mushtaraklik hamda o‘zgachaliklarni aniqlash imkonini tug‘diradi. Bu esa muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki tillar o‘rtasidagi o‘zgachaliklarni bilish lisoniy interferensiyani engib o‘tishda, ya’ni tillarni oson o‘zlashtirishda imkon yaratadi. Bunday ishlarning tarjimachilik qonuniyatlarini lingvistik asoslashga xizmat qila olishini ham unutmaslik kerak.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, B.Karimov va Sh.Mutalovlarning “... hozirgi davrda shakllanib bo‘lgan turkiy millatlar faqat erkin umumiy faoliyat natijasida yotsiramay, borgan sari yaqinlashishi mumkin, chunki bizlarning turkiy tilimizni, madaniyatimizni, ma’naviyatimizni, dunyomizni rivojlanitirish kabi ko‘plab fundamental umumiy maqsadlarimiz va porloq istiqbollarimiz bor” [Karimov B., Mutalov Sh., 1992. 15], -degan fikrlari masalaning mohiyatini to‘laroq ochib berishga xizmat qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Nukus shahriga kilgan tashriflarida o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining tarixiy ildizlari birligiga ishora qilib shunday degan edilar: “Qoraqalpog‘iston - O‘zbekistonning faxri. Bu shunchaki xo‘jako‘rsinga aytiladigan ta’kid emas. Bu abadiyat qadar davom etajak elkadoshlik va taqdirdoshlik tuyg‘usiga asoslangan barhayot qadriyatdir... Turkiylik qadriyatlari elkadoshlikning asosli, negizgi omili. SHunday ekan buyuk va suyuk davronlar vorisi, ulug‘ madaniyatlar vorisi kelajagini qo‘l bilan yaratishga moyil o‘zbeklar va qoraqalpoqlar isiqlol yo‘lidan o‘ktam boraveradi”.

Ma’lumki, o‘tgan asrning boshlarida qator turkiy adabiy tillar tez rivojlana boshladi. Shu sababli tillarda, xususan, ularning leksikasida fan va texnika, iqsodiyot, ijtimoiy siyosiy va boshqa sohalarga oid ko‘plab yangiliklar paydo bo‘ldi. Bularning barchasi maxsus terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. “Shuning uchun turkiy adabiy tillarning hozirgi terminologiyasi muammolarini ishlab chiqish hamda terminlarga ilmiy va ijtimoiy nuqtai nazardan baho berish nafaqat nazariy bilim jihatidan, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi, terminologik ishlarni yanada takomillashtirishga imkon tug‘diradi” [Musayev, 1992 6], -deb yozgan edi K.Musayev o‘z ishlaridan birida.

Fikrimizcha, o‘zbek va qoraqalpoq tillari ijtimoiy-siyosiy terminlarini qiyosiy jihatdan o‘rganish mana shu ezgu maqsadni amalga oshirish ishiga hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Ma’lumki, 1989- yili oktabrda o‘zbek tili, dekabr oyida esa qoraqalpoq tili davlat tili haqidagi qonunga ega bo‘ldi. Shuningdek, yana bir olamshumul voqeani qayd etib o‘tish o‘rinlidir. 1991- yili 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi sobiq ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo‘lib o‘z mustaqilligini e’lon qildi. Qoraqalpog‘iston esa suveren respublika sifatida O‘zbekistonning tarkibiy qismini tashkil qildi. Bu muhim dalillar har ikkala til o‘rtasida qadimdan qaror topib kelgan lisoniy axborot almashish jarayonini yanada keng miqyosda rivojlantirishdan iborat muhim vazifani ko‘ndalang qildi. Pirovardida, hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan sohalar bo‘yicha yuzaga kelayotgan lisoniy materiallarni o‘zbek tilidan qoraqalpoq tiliga va qoraqalpoq tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, bu jarayonda ijtimoiy-siyosiy hujjatlar va adabiyotlarni tarjima qilish masalalari muhim rol o‘ynaydi. Zero, O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonunining 7-moddasida “ Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi” –deb yozilgan.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy qilish hisobiga ta’minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi”,- deyilgan [Davlat tili haqidagi Qonun,1995].

Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi jamiyatimiz rivojining yangi yo‘l va usullar bilan davom etishini ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy-siyosiy turmushimizning barcha jabhalari yangi-yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi terminlar bilan boyib borayotganligini ko‘rish mumkin.

Shunga ko‘ra, birinchi galda ijtimoiy-siyosiy terminlarni (kelajakda boshqa terminologik tizimlarni ham) qiyosiy o‘rganishning ahamiyati oshdi va oshaveradi.

Turkshunos olim K.Musayevning e’tirof etishicha, “…hozirgi bosqichda turkologiyaning rivojlanishida, umuman, turkiy tillar leksikasini tadqiq qilish borasida qoloqlik yuz bermoqda; ayniqsa, ... qiyosiy va tarixiy leksikani tadqiq qilish ancha orqada qolmoqda “[Musayev, 1992, 3].

Keyingi paytlarda turkiy tillar leksikasini qiyosiy rejada o‘rganish masalasiga e’tibor berila boshlanganini ko‘rish mumkin. K.Musaevning tadqiqotlari, shuningdek, B.Serebrennikov va N.Gadjievalarning [Serebrennikov B., Gadjieva N.,1979] monografiyalari ana shunday ishlar jumalasidandir.

Shuningdek, turkiyshunoslikda u yoki bu leksik qatlamni qiyosan o‘rganish muammolari ancha ilgari boshlanganini va u yoki bu darajada davom ettirilayotganligini kuzatish mumkin. Bu borada I.Ismailovning monografiyasi muhim ishlardan biri sanaladi. Muallifning o‘zi qayd etganidek, “O‘zbek va uyg‘ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarining bir-biridan farqi, shuningdek, ularning tarixiy taraqqiyoti, shevalardagi ko‘rinishi to‘g‘risida fikr yuritildi”.

D.X.Bazarova va K.Sharipovalar tomonidan yozilgan “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston turkiy tillari leksikasining taraqqiyoti” nomli monografiyasi Markaziy Osiyo hududidagi turkiy tillar va ularning ayrim shevalarida qo‘llaniladigan zoologik terminlar turkiy tillar leksikasini o‘rganish muammolariga bag‘ishlangan muhim monografiya sifatida o‘ziga xos o‘ringa ega.

1990- yili I.Ismoilov, K.Meliev, M.Saparovlar tomonidan “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston turkiy tillar leksikasidan tadqiqot nomli monografiya maydonga keldi. Ushbu tadqiqot ham turkiy tillar leksikasini qiyosiy rejada tahlil qilishga bag‘ishlangan muhim ishdir.

Biroq turkiy tillar, ayniqsa O‘zbekiston hududida qadimdan birga do‘st-inoq yashab kelayotgan o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq hamda turkman tillariga xos materiallarni qiyosiy tadqiq qilish etarli darajada amalga oshirilgani yo‘q. Mazkur turkiy tillar leksikasini tilshunoslikning bugungi kun talablari asosida qiyosiy-tipologik rejada tadqiq qilish muhim masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Каримов Б., Муталов Ш. Ўрта турк тили – Тошкент: Меҳнат, 1992.
2. Ўзбекистон Республикасининг Давлат тили ҳақидаги қонуни. 1989 йил 21октябрда қабул қилиниб, 1995 йил 21 декабрда Қонунга ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган янги таҳрири. –Тошкент, 1995.
3. Мусаев К.М. Лексиклогия тюркских языков.- Москва: Наука, 1992.
4. Серебренников Б., Гаджиева Н. Сравнительно-историческая граматика тюркских языков. -Баку, 1979.
5. Сравнительно-историчесая грамматика тюркских языков.-Москва, 1986.

JAHON TILSHUNOSLIGIDA MUALLIFLIK LUG‘ATLARINING PAYDO BO‘LISHI

f.f.d. (PhD) F.Maxmudova,
Qarshi davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi
G. Toshtemirova,
Lingvistika yo‘nalishi magistri

Annotatsiya. Maqolada jahon mualliflik leksikografiyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi va lug‘atlarning qaysi ijodkorlar tomonidan yaratilgani, mualliflik lug‘ati nima shu davrga qadar yaratilgan mualliflik lug‘atlari, uning tilshunoslikdagi o‘rni va xususiyati, o‘zbek va jahon tilshunosligida mualliflik leksikografiyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, dunyo klassik adabiyotida mualliflik leksikografiyasiga oid asarlar qay tarzda vujudga kelganligi, yozilgan lug‘atlarning bir biridan farqlanishi va lug‘atlarning umumiy xususiyatlari, mualliflik leksikografiyasi oid lug‘atlar o‘zbek va jahon tilshunosligida hozirgi kundagi o‘rni ahamiyati haqida maqolada so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: mualliflik leksikografiyasi, davr, lug‘at, lug‘at tarkibi, leksik qatlam, lingvistik tadqiqot

Ma’lum bir so‘zlarning aynan kelib chiqishi ma’lum bir muallif, yozuvchi, shoir, publitsistga tegishli so‘zlar mualliflik lug‘atlari hisoblanadi. Mualliflik lug‘atlarining ildizi qadim zamonlarga borib taqaladi. Ijodkor shaxsning tili va dunyosini o‘rganish milliy tilda kechayotgan jonli jarayonlarni tushunishga xizmat qiladi. Davr tilini o‘rganish, tilni diaxronik o‘rganish, turli yozuvchilarning asarlarini qiyosiy tahlil qilish - ilmiy tushunishning barcha shakllari tabiiy ravishda lug‘atlarga, shu jumladan alohida mualliflarning lug‘atlariga murojaat qilish bilan birga keladi. Muallif leksikografiyasiga oid ma’lumotnomalarning o‘ziga xos xususiyatlari – so‘zning ravshanligi, so‘z yaratuvchi qatlamlarining mavjudligi, til shaxsining tasvirining ifodalanishi. Mualliflik lug‘atlari qaysi davrda yartilganligiga qarab o‘sha davr adabiy tili tarixini chuqur o‘rganish uchun xizmat qiladi va o‘ziga xos tarzda qo‘llanma vazifasini bajaradi. Yozuvchi ijodini o‘rganish orqali matnni to‘g‘ri tushunish, lingvistik va adabiy uslublarni o‘rganish va boshqa ko‘plab tarixiy va falsafiy tadqiqotlarni amalga oshirishga yordam beradi. Muallaiflik lug‘atlarini o‘rganish vaqtida yozuvchi umumiy til vositalardan qaydarajada foydalanganligi va asarda so‘zlarni individual xususiyatlaridan qay tarzda aks

ettirishi yoki so‘zlar umummilliy fonda ko‘rsatilganligini aniqlab beradi va kelib chiqishi ma’lum bir muallif tomnidan kiritilgan so‘zlar avvaliga ular lingvistik jihtdan foydalanishning chekkasida qoladilar, ammo vaqt o‘tishi bilan ular neologizmlar sifatida qabul qilinishi to‘xtatilib tez-tez ishlatadigan so‘zlar qatoriga kiradi.

Mualliflik lug‘atlari umumiy adabiy til haqida har tomonlama ma’lumot berib, yozuvchi nutq tizimi belgilangan adabiy tilni aks ettiradi va yangi davrning semantik-stilistik kabi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Tilshunos L.V. Shcherba “Yozuvchining individualligi o‘ziga xos yo‘nalishga asoslanadi, aks holda biz uning individualligini, uslubini tushunib yetmagan bo‘lardik”, deb ta’kidlaydi. [1]. Shu jumladan, turli tarixiy davrlarda umumiy va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar haqida R.A.Budagovning tavsifini ham eslash kerak.Uning fikricha, o‘rta asrlarda “yozuvchi tilining o‘ziga xosligi zaif bo‘lgan”, shuning uchun o‘sha davrning adabiy tili bilan badiiy tilini farqlash oson emas. Yangi davrda buyuk ijod arboblarining paydo bo‘lishi bilan adabiy til bilan buyuk adiblar tilini farqlash muhim ahamiyat kasb etdi, chunki yozuvchi va shoirlar “yangi adabiy tilning shakllanishi”da faol ishtirok etib, uning yanada rivojlanishiga hissa qo‘shdilar. Adabiy til mezoni “mutlaqo yaxshi yozuvchi” tiliga tenglashtirildi [2].

Adabiy til me’yorlarini shakllanishida shoirlar va nosirlar faol ishtirok etadilar, biroq yozuvchilar o‘zlariga xos bo‘lgan ifoda vositalarini topish orqali adabiy til me’yor qonun qoidalarini ham buzadilar. Leksikografiyasida mualliflik leksikografiyasi deb nomlanuvchi alohida bir yo‘nalish mavjud. U muallif tili lug‘ati tuzishning nazariy asoslari, yangi turdagi lug‘atlar tuzish g‘oyalari, mualliflik leksikografiyasi asosida zamonaviy adabiy tildagi o‘zgarishlarni qiyosiy - tahliliy tadqiq etish kabi muammolar bilan shug‘ullanadi. Mualliflik lug‘atlari lug‘atchilikning murakkab bir turiga kirib, yozuvchilar tilining lug‘atlari bo‘lib, leksikografiyani ifodalaydi badiiy tilni milliy tilning bir qismi sifatida talqin qiladi. Har bir yozuvchi leksikografiyada o‘z uslubi va yangi bir yo‘nalish olib kiradi, shu orqali lug‘atlarning yangi turlarini paydo bo‘lishi bilan birga leksikografiyani bir pog‘ona yuqoriga ko‘taradi. Yozuvchi leksikografiyasida lug‘atning to‘liqligi muammosini hal qilish qiyin, lekin yozuvchi leksikografiyasida u bir tomonlama hal qilinadi: lug‘atni hisobga olmaganda, yozuvchi tilining lug‘ati barcha lug‘aviy birliklarni o‘z ichiga oladi. Adabiy matn, jumladan, eskirgan so‘zlar, alohida so‘z qo‘llanishlari, atamalar, jargonlar, vulgarizmlar. Bundan tashqari, muallif lug‘atida belgilar, raqamlar, turdagi ko‘rgazmali materiallar, fotokopiyalar, gravyuralar, rasmlar bo‘lishi mumkin.

Amaliy nuqtai nazardan, mualliflik leksikografiyasi ancha yillardan buyon lug‘atlarning turli namunalarini taqdim etdi, bu esa kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan katta yordam berdi. Mualliflar tarkibi sezilarli darajada kengaydi, ularning ishlari leksikograflarning diqqat-e’tiboriga aylanib, lug‘at bilan ishlov berish jarayoni amalga oshirildi va yangi navlarning mualliflik lug‘atlari paydo bo‘ldi.

Lug‘atning asosiy maqsadi har bir tilni uning tarixida o‘rganish uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishdir. Adabiy leksikografiya nazariyasi va amaliyoti, ko‘rib turganingizdek, parallel va o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi. Ushbu sohadagi dastlabki qadamlar bir qator nazariy masalalarni ajratib ko‘rsatdi, ularning dolzarbligi bizning davrimizda ham yo‘qolmagan - bu, birinchi navbatda, lug‘atning to‘liqligiso‘zni qanday tasvirlash masalasi yoritilgan. Mualliflik leksikografiyasi hozirda faol rivojlanish jarayonini boshidan kechirmoqda, biroq u yoki bu tarzda lug‘atlarni yaratish g‘oyasi ancha oldin paydo bo‘lgan.

Muallif lug‘atini yaratish faqat bugun tug‘ilgan va shakllanmagan. O‘z tarixiga ega maydon. Buyuk shoir va yozuvchilar ijodidagi alohida so‘zlar va boshqa so‘z birliklarini izohlash yoki izohlash vositasi sifatida shoir-yozuvchi tilining lug‘atiga bo‘lgan ehtiyoj juda erta davrlarda paydo bo‘lgan. Masalan, miloddan avvalgi uchinchi asrdayoq Qadimgi Yunonistonda Gomer asarlarining lug‘ati yaratilgan. Lug‘at miloddan avvalgi 3-asrda qo‘llanishdan chiqib ketgan eskirgan so‘zlarning ma’nolarini tushuntirish va izohlash uchun yaratilgan.

O‘rta asrda arab, fors va turk lug‘atshunosligida shoir va yozuvchilar ijodidagi leksik va frazeologik birliklarni izohlovchi asarlar ko‘p bo‘lgan. Bu an’ana asrlar davomida davom etib kelmoqda.

Mualliflik leksikografiyasi ingliz tilida uzoq tarixga ega bo‘lib birinchi ma’lumotnomalar XVI asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan, keyingi asrlarda yaratilgan lug‘atlar tizimlilik asosida shakllangan. Ingliz tilida eng ko‘p mualliflik leksikografiyasida Shekspir asarlari asosida tuzilgan. Shekspir asarlari bo‘yicha mualliflik lug‘atlari yuzdan ortiq hisoblanadi. Shekspir haqidagi eng mashhur asarlardan biri, professor Stenli Uells tomonidan yozilgan Shekspirning barcha asarlarini qamrab oladi va lug‘at alifbo tartibida tartiblangan yozuvlarni o‘z ichiga oladi, bu o‘quvchini Shekspirning o‘z davridagi barcha jabhalari va uning keyingi davrdagi ta’siri haqida juda ko‘p ma’lumotlar beradi.

Rus tilshunosligida yozuvchi leksikografiya yangi alohida yo‘nalish sifatida XIX—XX-asrlar bo‘sag‘asida rus milliy adabiy tilining poydevori A.S.Pushkinning asarlariga V.V.Vinogradov tomonidan yaratilgan “Pushkin asarlari tilining lug‘ati” asari birinchi tarixiy leksikografik asar bo‘lib u to‘rt jilddan iborat unda Pushkinning asarlari va xatlari to‘plangan. Lug‘atda so‘zlar alifbo tartibida berilgan bo‘lib,

so‘zlar tushuntirish orqali izohlangan va o‘ziga xos tarzda rus tili tarixini o‘rganish uchun noyob qo‘llanmadir. Lug‘at yaratuvchi A.S.Pushkinning tilini aks ettirishni xohlagan va kam qo‘llangan so‘zlarning talqini ham mavjud bo‘lib so‘zlar xronologik ketma-ketlikda berilgan. Bu lug‘at rus milliy adabiyoti tarixida juda muhim ma’naviy qurol sanaladi. M. Gorkiy, T. Shevchenko kabi yozuvchilar ijodida individual asarlari asosida tuzilgan lug‘atlar ham mavjud.

Qozoq adabiyotida XX asrda Abay Kunanboyev asarlarining lug‘ati (80 ta plastinka) tuzilib Tilshunoslik instituti tomonidan, nashr etildi va qozoq adabiyotida yangi yo‘nalishga tamal toshini qo‘ydi. [1].

O‘zbek tilshunosligida mualliflik leksikografiyasi XV asrdan boshlangan bo‘lib leksikografiyanining ma’lum bir o‘ziga xos yo‘nalishini ochib bergan hisoblanadi. XV asrdayoq esa mualliflik leksikografiyasi dastlabki nazariy ma’lumotlar paydo bo‘ldi. O‘zbek leksikografiyasining shakllanishida Alisher Navoiy va Bobur asarlariga tuzilgan lug‘atlarning roli sezilarlidir. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati ulug‘ shoirning barcha leksik boyliklarini qamrab olgan. Lug‘atlar Navoiyning turkiy asarlari materiallari bo‘yicha leksikgrafiya va tarixiy-filologik tahlil asosida tuzilgan, unda so‘zlarning mukammal izohi berilgan. Husayn Boyqoro tomonidan tuzdirilgan Toli Imoni Hiraviy tomonidan yozilgan birinchi qomus “Badoye ul-lug‘at” nomli lug‘at hisoblanadi. Bu asarda lug‘at tarkibini tuzishda yozuvchi chig‘atoycha-forscha so‘zlardan foydalangan. Lug‘atshunos lug‘at tuzishda o‘rta asr qomuschiligining eng yaxshi an’analaridan foydalangan. Har bir so‘z haqida uch xil ma’lumot qoldirgan, birinchidan so‘zning tovush tuzilishi, ikkinchidan so‘zning ma’nosi, uchinchidan grammatik xususiyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Muhammad Mirza Mehdixonning eski o‘zbekcha-forscha “Sanglox” nomli lug‘at Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha yozilgan lug‘atlarning eng kattasi hisoblanadi. Bu lug‘at “Maboni ul-lug‘at” (“Til asoslari’) nomli grammatik ocherkni ham o‘z ichiga oladi. Lug‘atshunos lug‘atlardagi so‘zlarning imkoniyatlarini ochishda Alisher Navoiyning poetik asarlaridan foydalangan. Buning boshqa lug‘atlardan farqli jihati nasriy asarlardan ham parchalardan keltirilgan.

Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlar ichida “Badoiy al-lug‘at” va “Sangloh” lug‘at tuzish tamoyilining ancha mukammalligi bilan ajralib turadi. Rus tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida A.Tixonov tomonidan ishlab chiqilgan so‘zlarni uayalarga birlashtirish asosida lug‘at tuzish tamoyillari o‘zbek leksikograflari tomonidan XV asrdayoq ishlangan va bu tamoyillar asosida lug‘atlar tuzilgan.[2]

Turkcha “Abushqa” nomli lug‘at chig‘atoy-turkcha so‘zlarning izohi keltirilgan. Lug‘atda 2000 so‘z bo‘lib, bular asosan Navoiyning badiiy, ilmiy va tarixiy asrlaridan olingan. Tushunarsiz har bir so‘zning leksik va ko‘chma ma’nolari Navoiy g‘azallari va dostonlaridan keltirilgan misollar bilan turkiyda izohlanadi. A.Borovkov “Abushqa”ni “Badoye ul-lug‘atning” qayat ishlangan variant, - deb yozadi. [3]

XIX asrda Fathali Kojar Qazviniy tomonidan yaratilgan “Lug‘ati atrokiya” asari uchdan ikki qismi Navoiy asarlaridan olingan.[4]

XX asr o‘zbek lug‘atchiligi rivojiga A.Zohiriy, A.Qodiriy, Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z.Ma’rufov, Sh.T. Rahmatullayev, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov va boshqa munosib hissa qo‘shdilar.[5]

ADABIYOTLAR:

1. Abdushukurov B. O‘zbek tili tarixi. Nodirabegim nashriyoti Darslik Toshkent, 2021–68 bet.
2. Болғанбайұлы Ә., Қалиұлы Ғ. Қазіргі қазақ тілінің лексикологиясы мен фразеологиясы. Оқу құралы. – Алматы, Санат, 1997 – 256 бет.
3. Karimov Q, Bektemirov H, Hayitmetov H. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati O‘zbekiston, Fan 1983.
4. Нұржанова Б. Әдеби тілдің түсіндірме сөздігі мен жеке жазушы сөздігінің арақатынасы жайында // Ұлт тағылымы = Достояние нации. 2010. - № 4. – 266-270 б.
5. Pardayev A, Urinboyeva D, Islamova D. O‘zbek terminalogiyasi Samarqand, 2020–68 bet.
6. Словарь автобиографический трилогии М. Горького: В 6-ти вып.: Сприл. словаря имен собств. / [Авт. – сост. Е.В. Агаркова и др.]. – Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1977. – 495 с
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)

USING BLENDED LEARNING IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE

Tojiyeva Matluba Mahmud qizi,
student of NSPI, English teacher of NIU in Navoi

Abstract. The article is dedicated to the consideration of the use of blended learning in foreign language teaching. The author analyses domestic and foreign experience in the use of this pedagogical approach, paying particular attention to the way in which digital tools help to develop different types of language activities and what the use of blended learning brings, and concludes that the application of this pedagogical approach to foreign language teaching is is appropriate.

Keywords: blended learning, informatisation of education, general education, teaching methods, information technology education, teaching methods, information technology.

In a modern school, a student has to learn and practice amount of information, and therefore traditional ways of working do not allow for to achieve high results. This is particularly true when language teaching, because mastering all the language skills (speaking, listening, reading and writing) as well as lexical and grammatical aspects requires a lot of practice. In this context, the question of the implementation of new technologies in the system of teaching schoolchildren, which would increase of the educational process. In our opinion, this can be facilitated byblended learning. The Clayton Christensen Institute defines blended learning as "an approach to education that combines learning with the participation of a teacher (face-to-face) with online learning and face-to-face) with online learning and incorporates elements of student control over the student's path, time, place and pace of learning, and the integration of learning experiences with a teacher and online" [2, p. 18]. In this article we will analyse the national and foreign experiences in introducing blended learning in foreign language teaching,Let's analyse the digital tools used by teachers for their work with different language skills, and also draw conclusions about how these tools have helped to have helped to improve learning outcomes.

Researchers from China Ziyu Jia, Yuhao Chen, Zhuhui Ding and Meixian Ruan used a "lab rotation" model to teach English to teenagers.

One lesson a week was held in the computer lab, where the students worked with a special program, and the rest of the lessons were held without the use of digital content.

To implement the online component, the researchers created a course on the platform

Moodle platform, which contained a variety of learning materials. Test tasks were designed to make it easier to work with the vocabulary.

The researchers note that in traditional work, the teacher is forced to check a lot of work is done manually, so students wait a long time for results. However using Moodle, students received immediate feedback, the system offered assignments for the sections where mistakes were made. Thanks to the feedback students did not experience the connection that children receive in real time fossilised errors [4].

The American researchers Kazakof, Macaruso and Hook used mixed in an American elementary school to help students master the skill of reading in English. They used a rotational model stations" in which students are divided into small subgroups and work with a teacher during with a teacher, with specialised software, or in a group with other children. Machine learning was organised using Lexia Reading Core5 programme, which was tailored to each child's needs, taking into individual characteristics and also took into account the student's mistakes and offered errors and offered tasks to correct them. Features of the Core 5 programme Includes phonological, phonetic, structural analysis and fluency tasks,vocabulary building and reading comprehension testing. The teacher could each child's progress with a report automatically generated by theautomatically generated by the programme, and adjust the course of training according to the data received.

Another aim of the experiment was to learn at a higher level children who read better than their peers. This was achieved by a differentiated approach to learning, which made it possible to educational process. The researchers believe that the effectiveness of this approach can be explained by the fact that teachers were able to monitor the progress of each pupil with the help of a special programme and to help them personally in overcoming difficulties that arise [5].

Awad Soliman Keshta and Ismail Ibrahim Harb described their experience of using blended learning of English for second grade students at Nadar Preparatory School in Riyadh (Saudi Arabia). The model used by the teachers - the "flipped classroom": students in the experimental and control groups studied in person, and the online component of blended learning was organised through a special website, where participants in the experimental group also practised their literacy skills and received feedback from the teacher.

The researchers believe that the use of the website, namely the maintenance of an electronic motivated the students in the experimental group and gave them more practice and allowed them to get more practice, which led to their higher academic achievement than those in the control group.

The same researchers give an example of the application of English language teaching in a mixed format for first-year secondary students in Egypt city of Kafr el-Sheikh. When teaching creative writing, the teacher used online discussion to discuss ideas for future essays. The model used in this case is the 'flipped classroom'. The online discussion was organised using online communication software. The scientists did not specify which programme they were using, but there is a large similar applications - Skype, Zoom, Google Meet, Microsoft Teams and others.

Writing a test essay showed that the students in the experimental groups performed better than the control students. This can be explained by the fact that the students in the experimental group practised more productive practiced how to articulate their ideas and received immediate feedback from the teacher [6].

Ilham Mohamadi and Seyid Saeed Mirdehan, researchers from Iran, investigated how impact of blended learning on high school students' English language acquisition. They used the flipped classroom model. Students attended face-to-face classes, the material was online and the teacher gave immediate feedback. The online component was organised through a special website, where the teachers theoretical material on grammar, created tasks in the form of tests, and provided forms for communicating with the teacher via voice message and e-mail. Teachers felt that this approach was effective because students had more additional opportunities to practise grammar skills [7]. Busaya Santhikarm and Saovapa Vichade from Thailand have used the"flipped classroom model to teach English to high school students.

Students used the online component at home to prepare for face-to-face lessons.Teachers used the educational social network Edmondo, which allows them to post multimedia materials and interactive tasks and track student progress.

Researchers provided students with video content to learn from, which prepared them to participate in class discussions. While preparing for a face-to-face lesson Students were able to discuss the videos they had watched online with each other and with the teacher.

As a result of the experiment, students noted that they had become more independent and more involved in the educational process. The researchers emphasised that teaching in such a format made it possible to devote more time to speaking in class. In addition, training using a social network additionally motivated the students [8].

A. Ishchenko from secondary school no. 6 in the city of Taganrog, Rostov region uses blended learning in teaching German. As a teacher was chosen "Flipped classroom" model. The online component is carried out via pupils have their own computers to which the teacher sends tasks by e-mail.

In addition, A. Ishchenko maintains an educational blog where he posts authentic video and audio materials, as well as video and audio materials, as well as texts to develop listening and reading skills. The teacher believes that thanks to blended learning, the motivation to learn a foreign language and also broadens the students' horizons [3]. A.P. Avramenko, E.D. Kataya conducted an experiment on the introduction of mixed education during the study of the course "US Regional Studies" in the specialised class of the State Budgetary Educational Institution "Lyceum No. 1535" in Moscow. The introduction of the "flipped classroom" model made it possible to actively involve students in the educational process, to create an active and personalised nature of oriented nature of learning. To familiarise students with the theoretical material and to develop listening skills, the authors chose the Youtube service and the Eliademy service and the Eliademy service for the creation of electronic educational resources.

In addition, the authors used the mobile applications Kahoot! and Quizlet,which made it possible to introduce an element of play into the educational process, thus promoting students' motivation to learn. Students worked with the online component on computers and mobile devices. More attention was paid to working in groups during the lesson working in groups and carrying out creative tasks. At the end of the course, students noted development of language skills and abilities as well as skills in working with information. The final tests also showed a high level of knowledge in the course [1]. Analysis of national and international experiences in the use of blended learning in the process of teaching a foreign language showed that blended learning makes it possible to develop all types of language activity as well as lexical and grammatical skills.

Depending on the type of activity, teachers chose the optimal forms of work,digital tools that allow them to implement these forms of work in the context of blended learning.

For example, when teaching receptive language skills activities such as listening and reading, and when practising vocabulary and grammar skills,teachers preferred tools that allowed them to Give tasks in the form of tests with automatic checking. With such tools were Moodle, Lexia Reading Core5, Youtube

Eliademy. Kahoot! Quizlet. Students received more opportunities to practise and immediate feedback, allowing them to correct errors immediately. At the same time, when listening and reading tasks to produce an essay or monologue, students were offered open-ended tasks and an electronic mail or a speciallyor a specially created website with a feedback form. For training Teachers prioritised productive activities such as speaking and writing Preference for digital tools that allow online discussion.

Teachers noted that the use of blended learning allowed them toan individual approach and more opportunities to meet the needs of each student. In addition, the introduction of digital tools has helped to increase motivation to learn a foreign language, broadening their horizons through more possibilities of using authentic materials. Blended has also made it possible to increase the amount of practice and, as a result, to improve various language
different language skills.

To summarise the above, we would like to point out that the use of blended learning in foreign language teaching is justified. It helps to achieve better subject and meta-subject learning outcomes.

When choosing digital tools to implement this pedagogical approach the specifics of the types of language activity, and the characteristics of the forms of work offered to students.

BIBLIOGRAPHY

1. Avramenko, A. P. Development of an elective course “USA Regional Studies” based on “flipped classroom” methods in high school / A. P. Avramenko, E. D. Kataya //Bulletin of Moscow State Regional University. Series "Pedagogy".– 2018. – No. 3. – P. 91–98.
2. Andreeva, N.V. The school’s step into blended learning / N.V. Andreeva,L. V. Rozhdestvenskaya, B. B. Yarmakhov. – Moscow, 2016. – 280 p.
3. Ishchenko, A. “Flipped classroom” - an innovative teaching model /A. Ishchenko [Electronic resource] // Independent pedagogical publication “Teacher’s newspaper". – URL: https://ug.ru/perevernutyj-klass-innovaczionnaya-model-obucheniya-opyt-prakticheskoj-realizaczii-na-urokah-nemeczkogo-yazyka/?ysclid=ldnivea0di897587686 (dateaccess: 02/01/2023).
4. Jia J. et al. Effects of a vocabulary acquisition and assessment system on students’performance in a blended learning class for English subject. [Electronic resource] /Jiyou Jia, Yuhao Chen, Zhuhui Ding, Meixian Ruan // Computers & Education. – 2012. – Vol.58.– P. 63–76. – URL: https://doi.org.10.1016/j.compedu.2011.08.002 (date of access: 12/07/2022).
5. Kazakoff E. et al. Efficacy of a blended learning approach to elementary school reading instruction for students who are English Learners [Electronic resource] // Education Tech Research Dev. – 2018. – Vol. 66. – P. 429–449. – URL: https://doi.org/10.1007/s11423-017-9565-7 (date of access: 12/07/2022).
6. Keshta A.S. et al. The Effectiveness of a Blended Learning Program on Developing Palestinian Tenth Graders’ English Writing Skills. [Electronic resource] //Education Journal. – 2013. – Vol. 2. – No. 6. – P 208–221. – URL:
https://doi:10.11648/j.edu.20130206.12 (date of access: 12/07/2022).
7. Mohammadi E. et al. A CMC Approach to Teaching Phrasal-Verbs to Iranian EFL Senior High School Students: The Case of Blended Learning. [Electronic resource] // Procedia –Social and Behavioral Sciences. – 2014. – Vol. 98. – P. 1174–1178. – URL:https://doi.org.10.1016/j.sbspro.2014.03.531 (date of access: 12/07/2022).
8. Santikarn B. et al. Flipping the Classroom for English Language Learners: A S

O‘ZBEK VA TURK TILIDAGI OLMOSHLAR INTEGRATSIYASI VA DIFFERENSIATSIYASI

Shohsanam Kurbanova,
Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek va turk tilidagi olmosh so‘z turkumining o‘xshash va o‘ziga xos farqli jihatlari yoritilgan. Turk tilidagi ba’zi so‘zlar o‘zbek tilida yo‘q bo‘lishi mumkin yoki uning mutlaqo aksidir. Ikki tildagi ana shunday lingvistik jarayonlar haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: turk tili, o‘zbek tili, qardosh tillar, nazariya, grammatika, olmosh, bog‘lovchi olmoshi, ism.

Annotatsiya. В статье описаны сходства и уникальность узбекских и турецких местоимений. Некоторые слова турецкого языка могут отсутствовать в узбекском языке или являются его полной противоположностью. Обсуждаются такие лингвистические процессы в двух языках.

Ключевые слова: турецкий язык, узбекский язык, родственные языки, теория, грамматика, местоимение, соединительное местоимение, существительное.

Annotatsiya. The article describes the similarities and uniqueness of Uzbek and Turkish pronouns. Some words of the Turkish language may be absent in the Uzbek language or are its complete opposite. Such linguistic processes in two languages are discussed.

Key words: turkish language, uzbek language, related languages, theory, grammar, pronoun, connecting pronoun, noun.

O‘zbek tili va turk tili qarindosh tillar hisoblanadi. Sababi, ular turkiy bir til hisoblanadi.

Olmosh so‘z turkumi mustaqil so‘z turkumi hisoblanib aniq ma’noga ega emas. Ot, sifat, son kabi mustaqil so‘z turkumlarining o‘rnida almashib qo‘llana oladi. Olmosh ‘redmetni yoki shaxsni bildirayotganini esa matn mazmuniga qarab bilib olish mumkin. Turk tilida ham xuddi shu tarzda keladi va mana shu vazifalarni bajaradi, ammo ularning turi o‘zbek tilidan farqlidir.

O‘zbek tili grammatikasida olmoshning ma’no va mazmunuga ko‘ra yettita turi mavjud. Bular: kishilik olmoshi, o‘zlik olmoshi, ko‘rsatish olmoshi, belgilash olmoshi, bo‘lishsizlik olmoshi, gumon olmoshi. Bu olmoshlar vazifasiga va xususiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Turk tilida olmoshlar zamirler yoki adillar deb yuritiladi. Bu olmoshlarni yana “aktyorlar” deb ham atashadi. Sababi, bu olmoshlar har xil ko‘rinishga ega va shuningdek, ular vazifalari, shakllariga ko‘ra ham turlichadir. Yana shuni ta’kidlash kerakki, olmoshlardan ismlarni qayta nomlash uchun ham foydalaniladi.

O‘zbek tili grammatikasidan farqli ravishda turk tili grammatikasida olmoshning oltita turi mavjud va ular nomlarining atalishi bilan ham farq qiladi.

Olmoshlar olti xususiyatiga ko‘ra farqlanadi: 1) ma’no; 2) kenglik; 3) so‘z yasash; 4) egalik; 5) turlanish; 6) yordamchi so‘zlarga bog‘lanish[1].

Masalan: mening ruchkam. Benim kalemim (egalik ma’nosida), ya’ni ruchkaning egasi ta’kidlangan. Turk tilidagi olmoshlar: Sahis zamirleri (kishilik olmoshi), iyelik zamirleri (o‘zlik olmoshi), Isaret zamirleri (ko‘rsatish olmoshi), soru zamirleri (so‘roq olmoshlari), belirsizlik zamirleri (gumon olmoshlari), baglama zamirleri (bog‘lovchi olmoshlar).

Agar biz olmoshlardan foydalanmasak ga’larimizda har xil g‘alizliklar uchrashi mumkin. Masalan: Shodiya kitob o‘qidi va Shodiya dars tayyorladi. Shodiya kita’ oku ve Shodiya ders hazirladi. Bu ga’da Shodiya ismi takror-takror kelgan va ga’ning mazmunida, ma’nosida g‘alizlikni yuzga keltirgan. Shodiya kitob o‘qidi va u dars tayyorladi. Shodiya kita’ oku ve o ders hazirladi. Bu ga’da esa g‘alizliklar yo‘q, ma’no-mazmun aniq, qisqa va lo‘nda, eng asosiysi ga’ chiroyli tuzilishga ega.

Olmosh va uning turlarida farqli jihatlar, o‘xshashliklarni izohlaymiz. Kishilik olmoshida uchta shaxs bor va ularning ko‘’lik va birlik shakllari bor. Bular: O‘zbek tilida Turk tilida Birlik : 1-shaxs Men Ben 2-shaxs Siz Sen 3-shaxs U O Ko‘’lik 1-shaxs Biz Biz 2-shaxs Siz(lar) Siz 3-Shaxs Ular Onlar Bu yerda nazariy tomondan tahlil qilinsa, 1-shaxs so‘zlovchi, 2-shaxs tinglovchi, 3-shaxs esa ismi tilga olinganlar ya’ni birinchi va ikkinchi shaxslarga kirmaydiganlar.

Ikkinchi shaxs ko‘’likdagi olmoshlar ikki qardosh tilda ham bir xil aytiladi va yoziladi. Boshqa olmoshlarda esa harflardan farq qiladi. Bu olmoshlar ga’larda ismlar o‘rnida qo‘llanilib, ularning ga’larda ixchamliligini ta’minlaydi. O‘zbek tilida kishilik olmoshlarida “Men” o‘rniga “Biz” olmoshi, “kamina” so‘zi qo‘llansa kamtarlik ma’nosida keladi. Masalan: Men siz aytgan barcha ishlarni bajardim. Ga’ mazmuni va ma‘nosida maqtanish, o‘zini ko‘rsatish kabi holatlar uchraydi.

Kamina siz aytgan barcha ishlarni bajardi. Bu ga’da esa kamina so‘zi kamtarlik, o‘zini maqtamaslik ma’nosini bildirgan. “Sen” o‘rniga “Siz”, “U” o‘rniga “Ular” olmoshi qo‘llanilsa hurmat ma’nosida keladi. Dadam safardan keldi. So‘ng ular menga shirinlik olib berdilar. Ga’da keltirilgan ular olmoshi aslida yakka shaxsga ishora qilingan, ammo hurmat ma’nosida kelganligi uchun ko‘’lik shaklda keltirilgan. Ikkinchi olmosh turi bu – O‘zlik olmoshi – iyelik zamirleri. Bu olmoshning bir shakli mavjud ya’ni o‘z – kendi olmoshidir. O‘zim qildim. Kendim ya’dim. O‘zlik olmoshi kishilik olmoshidan ko‘ra ma’no va mazmunga boy. Bu olmosh kishilik olmoshlari bilan birga kelib shaxsning o‘zini va unga tegishli bo‘lgan narsa, buyum, ‘redmetni ta’kidlab ko‘rsata oladi. Masalan, Mening o‘zim she’r o‘qidim. Benim kendim şiir okurum. Bu ga’da o‘zining she’r o‘qiganini alohida ta‘kidlab ko‘rsatya’ti. Uchinchi olmoshimiz ko‘rsatish olmoshi bo‘lib, bu olmosh turk tilida Isaret zamirleri deb ataladi. Bu olmoshning xususiyati narsa va ‘redmetlarning, shaxslarning joylashgan o‘rniga ishora qiladi.

O‘zbek tilida ko‘rsatish olmoshlari kimsani va narsa-buyumni ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Bular: bu, shu, u, u yerda, bu yerda, o‘sha yerda omoshlari hisoblanib manavi, anavi kabi so‘zlar ham qo‘llaniladi[1]. Bu

[1] Hamidov X. Turk tili grammatikasi - Toshkent, 2006: 64-bet.

olmoshi yaqinni, u olmoshi uzoqni, shu olmoshi o‘rtacha yaqinni ko‘rsatadi va ishora qiladi. Unaqa-bunaqa so‘zlari belgining ortiqligini, uncha-muncha so‘zlari belgining oz miqdorda ekanligini bildiradi.

Turk tilida Isaret zamirleri bu, şu, o, bunlar, sunlar, onlar. Ko‘rsatish olmoshlarining bu, şu, o kabi turlariga ko‘’lik qo‘shimchasi ler (lar) qo‘shilsa bitta “n” harfi ortadi va bunlar, sunlar, onlar kabi qo‘llaniladi.

Bu olmoshi yaqinni, şu o‘rtacha yaqinni, u olmoshi uzoqni ko‘rsatadi. Bu jihatdan ikkala til grammatikasi ham o‘xshash. Ammo o‘zbek tili grammatikasida ko‘rsatish olmoshiga -lar ko‘’lik qo‘shimchasi qo‘shilsa ularda “n” harfi ortmaydi. Bu esa turk tilidagi ko‘rsatish olmoshining o‘zbek tilidagi farqli jihati hisoblanadi. To‘rtinchi olmoshimiz so‘roq olmoshimiz ya’ni soru zemirleri.

So‘roq olmoshlari shaxs, narsa, ‘redmet, rang, miqdor kabi so‘zlar haqida so‘roqni bildirib shaxsga kim?, narsaga nima?, belgi-xususiyatga qanday? qanaqa? qaysi?, tartibga nechanchi?, miqdorga qancha?, nechta?, necha?, ‘aytga qachon?, mavjudlikka qani? sabab-maqsadga nega?, nimaga?, o‘rin joyga qayerda?, qayda?, qayoqqa? kabi so‘roqqa javob bo‘ladi.

Masalan: Qachon kelding? bu ga’da ‘ayt haqida savol berilgan va shu ma’noda javob kutilmoqda. Buni esa so‘roq olmoshining qay ma’noda kelganligi, qaysi ma’nodagi so‘roq ishlatilganidan farqlash mumkin. Nega kulding? ga’da sabab so‘rog‘i berilgan va xususiyatiga ko‘ra ham sababni izohlagan. Turk tilida soru zemirleri aslida ikkita va bu olmoshlar boshqa so‘zlarga qo‘shilib soru olmoshini hosil qiladi. Bu ikki olmosh kim, ne olmoshlari hisoblanib, kim? olmoshi faqat shaxsga ishlatiladi, ne? olmoshi esa jonli va jonsiz narsalar uchun ishlatiladi. Masalan: Kim geldi?(kim keldi?) Kim bag‘irdi? (kim baqirdi?) Ga’larida shaxsga so‘roq berilgan va bu o‘rinda shaxs nazarda tutilgan. Ne getirding? (nima olib kelding?) ya’ni narsa-’redmet nazarda tutilgan. Kaç? miqdorni, ne oldu? sababni, nerede? o‘rin joyni bildiruvchi so‘roqlar ham mavjud. Kaç yasindasin? (necha yoshdasan?) miqdor ma’nosini izohlab kelgan. Nerede yaşıyorsun? (qayerda yashaysan?) o‘rin-joy so‘rog‘i berilgan va shu ma’noni ifodalagan. Beshinchi olmoshimiz gumon olmoshi hisoblanib o‘zbek tilida gumon olmoshi shaxs va narsalarning noaniqligini ko‘rsatadi, ularni taxmin orqali ifodalaydi. Bu olmoshlarni -alla yoki -dir qo‘shimchalari orqali hosil qilamiz, ya’ni boshqa olmosh turlariga mana shu qo‘shimchalarni qo‘shamiz va gumon olmoshini yasaymiz.

Masalan, allaqayerdan bo‘rining ovozi eshitildi. Kimdir keldi? Ya’ni bo‘rining ovozi qayerdan eshitilgani va kim kelgani noaniq holda keltirilgan. Gumon olmoshi so‘roq olmoshlariga bir, ham so‘zlari orqali ham yasaladi. Bir nima bo‘ldi. Nima bo‘lgani noaniqligi haqida xabar berilgan. Kim ham borardi. Biror manzilga hech kim bormasligi ya’ni kim borishi noaniqligi izohlangan. Turk tilida esa belirsizlik zamirleri hozirda kimse (hech kim), herkes (hamma) so‘zlari bilan ifodalanadi.

Gumon ma’nosida keluvchi biri (biri), bir cogumuz (bir qanchamiz), (bir) sey (bir narsa), fdanca (‘ismadonchi) hicbiri (hech biri), he’imiz (hammamiz), her biri(har biri), bir kaci (bir nechtasi) kabi so‘zlari ham kiradi. Masalan: bir şey düştü. (nimadir tushdi) Bu holatda ham nima tushgani noaniq. Birisi koştu. (kimdir yugurdi) kim yugurgani aniq emas.

Oltinchi olmoshimiz bo‘lishsizlik olmoshi hisoblanadi. Bu olmosh o‘zbek tili grammatikasida inkor ma’nosida keluvchi olmoshdir va bu olmosh hech so‘zi orqali yasaladi. Masalan: Hech kim kelmadi. Hech qayerga bormadim. Hech narsa o‘qimadi. Ga’ mazmunidan bilib olish mumkinki, bu ga’larning barchasida inkor holatda kelgan. Yo‘q javobini emas, balki uning kengaytirilgan shaklida javob beradi. Hech so‘zi yakka holatda qo‘llansa ko‘’ hollarda fe’ldan oldin qo‘llaniladi ya’ni hech ko‘rmadi. Hech qayg‘urmadi. Turk tilida esa bo‘lishsizlik olmoshi mavjud emas. Hech so‘zi olmosh vazifasida keladi, ammo bo‘lishsizlik emas gumon olmoshi sifatida qaraladi.

Keyingi olmosh turi bu bog‘lovchi olmoshi ya’ni baglama zamirleri.

Bu olmosh ikki narsa yani ikki so‘zni bog‘lab ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Eski turk tilida kim olmoshi qo‘llanilgan, ammo hozirda bu olmosh o‘rnini -ki qo‘shimchasi egallagan. Bu olmosh bir o‘zi qo‘llanilmaydi. Agar yakka holda qo‘llanilsa hech qanday ma’no anglatmaydi. Masalan, bir şiir okudu ki, gormeyin. (bir she’r o‘qidiki, hech ko‘rmayin.) Bu olmoshning yana bir xususiyati shundaki, o‘zidan oldin kelgan narsani, otga ishora qiladi va ko‘rsatadi. Masalan, Bir yer ki seventer sevinlerden eser yok(bir joyki sevgan va sevmaganlardan asar ham yo‘q). Agar bu ga’dan -ki qo‘shimchasini olib tashlasak, birikma sevenler sevilenlerden ese olmayan bir yer(sevganlar va sevmaganlardan asar ham bo‘lmagan bir joy) kabi holat yuzaga keladi.

Birinchi ga’imizda -ki qo‘shimchasi ishlatilganda ma’nosi va ga’ urg‘usi sevgan va sevmaganlar so‘zlariga tushadi va bu holatda -ki qo‘shimchasi otga ishora qilayotgani aks ettirilgan. Ikkinchi ga’da esa ya’ni -ki qo‘shimchasi ishlatilmaganda ga’ urg‘usi joy so‘ziga tushadi va joyni ta’kidlab ko‘rsatyabdi. Natijada bu ga’da tasvir kuchi kamaymoqda. Bog‘lovchi olmoshi o‘zbek tili grammatikasida uchramaydi.

---

[1] Hamroyev M, Muhammedova D, Shodmonqulova D, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent, 2007.

So‘nggi olmosh belgilash olmoshi hisoblanib bu olmosh turk tilida mavjud emas. Belgilash olmoshi ‘redmet va shaxslarni ayirib yoki jamlab ko‘rsatadi. Hamma, bari, barchasi, jami olmoshlari jamlab, har kim, har bir, har narsa olmoshlari esa ayirib ko‘rsatadi. Masalan, Hamma darsga keldi. Ya’ni darsga barcha o‘quvchilar kelganligi haqida xabar beradi. Har kim uyga vazifalarni o‘zi bajarsin. Bu ga’da har bir o‘quvchining o‘zi tayyorlanishi va o‘zi shug‘ullanishi haqida buyruq berilya’ti. Bu holatda o‘quvchilar birgalikda emas ayrilgan holda buyruqni bajaradilar.

Belgilash olmoshi turk tiliga xos emas va bu olmosh turi mavjud emas, ammo bu olmoshlar ishlatiladi. Gumon olmoshi tarkibiga kirib, gumon ma’nosini izohlaydi.

O‘zbek tili va turk tili grammatikasidagi olmosh turkumi solishtirilganda ko‘rinib turibdiki, ikki qardosh tilda ham turli va ko‘’lab farqlar va o‘xshashliklar mavjud. Ayniqsa, bog‘lovchi olmoshi o‘zbek tilida yo‘qligi, turk tilida esa belgilash olmoshi yo‘qligi va o‘zbek tilidagi belgilash olmoshlaridagi so‘zlar turk tilida gumon olmoshiga hisoblanishi juda katta farqlardir. Ya’ni olmoshlarning soni turk tilida nega 6 ta ekanligi ularni izohlaganda birida bor narsa ikkinchisida yo‘qligidan farq qiladi.

O‘zlik olmoshiga ko‘’lik -lar qo‘shimchasi qo‘shilganda “n” harfining ortishi, fe’l bilan kelganda ega yoki ot vazifasida kelishi ham farqli jihatlarni ko‘rsatib beradi. Ikki tildagi o‘xshashlar esa ko‘’roq kishilik, ko‘rsatish va o‘zlik olmoshlarida uchraydi. Bir xil shaxslarda kelishi, uzoq-yaqin olmosh larini bir xil olmosh izohlashi, o‘zlik olmoshi ikki tilda ham bitta ekanligi bular tillarimizning bir-biriga yaqinligini va qardosh til ekanligimizni yana bir bor isbotlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Hamidov X. Turk tili grammatikasi. - Toshkent, 2006.
2. Hamroyev M, Muhammedova D, Shodmonqulova D, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. - Toshkent, 2007.

ERGONIMLARNING ONOMASTIK TIZIMDAGI O‘RNI VA TADQIQI

Abdurasulova Dilso‘z Sherzod qizi,
Qarshi davlat universiteti magistri

Annotatsiya. Maqola onomastik sistema birliklarining tavsifiy tahliliga bag‘ishlangan. Unda mustaqillik yillarida leksikaning onomastika sohasi sezilarli o‘zgarishlarga uchragani, shuningdek, o‘zlashma birliklar tildagi appelyativ leksikasi bilan bir qatorda onomastik leksikada ham faollashayotgani ochib berilgan. Bundan tashqari, ergonimlarning shakllanishida manba til o‘zlashmalarining o‘rni hamda milliy nom tanlashning istiqbolli yo‘llari ergonimlar misolida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, ergonim, neym neologizm, o‘zlashma so‘z, leksika, ijtimoiy taraqqiyot, tilning boyishi

Tilshunoslikning onomastik tizimi o‘ziga xos butunlik bo‘lib, uning makroko‘lami sirasida ergonimlar alohida ahamiyatga ega. Ular nomshunoslik bo‘limi – onomastikadagi korxona, muassasa, tashkilot, kompaniya, idora, do‘kon, korporatsiya, uyushma, jamiyat kabilarning maxsus nomidir. *Ergonim* termini tilshunoslikda ilk marta N.V.Podolskayaning 1979-yil nashr etilgan lug‘atida ishlatilgan[1, 166]. Mashhur tilshunos E.Begmatov antroponim, toponim, gidronim, zoonim, oronim, oykonim, etnonimlarni sanar ekan, bu sistemaga ergonimlarni ham kiritib o‘tadi[2, 37]. Muhimi shundaki, istiqlol davri o‘zbek tili leksikasiga o‘zlashgan ko‘plab ergonimlar inglizcha so‘zlar bo‘lib, bu esa leksikada so‘z o‘zlashish jarayonining o‘ziga xosligini, inglizcha o‘zlashmalarning appelyativ leksika bilan bir qatorda onomastik leksikada ham faol ekanini asoslaydi.

Mustaqillik davri o‘zbek tili leksikasida yevropa tillariga tegishli so‘zlar, xususan, inglizcha o‘zlashmalar fors, arab va ruscha so‘zlar singari alohida qatlam sifatida shakllana boshladi. Inglizcha o‘zlashmalarning leksikadagi o‘rni, shakllanishi va taraqqiyoti, motivlovchi manbalari, semantik evolyutsiyasi hamda boshqa atributlari alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda dunyo tillari uchun donorlik vazifasini bajarayotgan ingliz tilining boshqa tillarga ta’sir darajasi, lug‘at tarkibi, genetik tarkibi hamda manbalari, so‘z qabul qilish imkoniyati haqida ham ayrim fikrlarni bildirib o‘tish joiz.

O‘zbek tilshunosligida ergonimlarni o‘rgangan tadqiqotchilar ularning vazifaviy jihatdan axborot funksiyasi va ta’sirchanlik xususiyatini alohida hisobga oladilar. Axborot funksiyasiga ega ergonimlar bevosita obyektning mohiyatini anglatuvchi birliklar deb qaralsa, ta’sirchanlik xususiyati mavjud ergonimlar obrazli iste’molchiga o‘zisha xos ta’sir o‘tkazishga asoslanadi[3, 93].

Ayniqsa, dunyo yoshlari uchun jozibador bo‘lgan ingliz tilining, aniqrog‘i, lug‘at boyligining ta’siri bu borada boshqa xalqaro tillarni bir muddat ortda qoldirdi. Tilni targ‘ib qiluvchilar orasida ingliz tilining

shuhratini obrazli shaklda ko‘rsatish uchun “XXI asrdagi lotin tili” (English is the Latin of the 21st century) metaforasi bilan nomlashlar ham uchraydi.

Taniqli tilshunos N.Mahmudov so‘z o‘zlashtirishning obyektiv va subyektiv asoslariga ko‘ra farqlanishini inglizcha terminlar asosida misolida tushuntiradi. “... ingliz tilidagi tilshunoslik terminologiyasida ko‘pincha mazkur ikki tipdagi o‘zlashtirish farqli terminlar bilan nomlanadi, ya’ni: tushuncha va uni ifodalaydigan so‘zni birgalikda o‘zlashtirish – “borrowing”, mavjud bo‘lgan “o‘z” tushunchani ifodalash uchun boshqa tildan so‘z o‘zlashtirish – “loaning”[4, 10]. Ko‘rsatilganidek, birinchi tip (borrowing) yangi tushunchani, ikkinchi tip *(loanword)* esa xorijiy so‘znigina o‘zlashtirishga qaratilgan ekan, so‘nggi paytlarda yangi tushuncha ifodalovchi birliklarning o‘zlashish dinamikasi sezilarli faollashdi.

Ingliz tili lug‘at boyligiga sezilarli ta’sir etgan manba tillarning ulushi, tabiiyki, boshqa tillarning genetik tuzilishidagi hissalaridan farqlanadi. Hozirgi ingliz tilidagi lotincha so‘zlar miqdori 29 foiz, shuningdek, fransuzcha so‘zlar miqdori 29 foiz, nemischa (qadimgi ingliz tiliga asos bo‘lgan german tillariga tegishli) so‘zlar miqdori 26 foiz, yunoncha so‘zlar miqdori 6 foiz va yana boshqa til so‘zlari 10 foizni tashkil etadi[5]. Yana bir boshqa manbaga ko‘ra, ingliz tili leksikasidagi o‘zlashma so‘zlar taxminan 80 foiz[6] ga teng.

O‘zlashma so‘zlarni maxsus o‘rgangan O.Shukurov neyming murakkab vazifaga ega jarayon ekani, munosib neym ijod etish esa til uchun ham, millat madaniyati uchun ham manfaatli ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, *“UstaTop”* (qurilish agentligi) neym neologizmi ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘lgan va yoyilgan nomlardan, unda milliylik, originallik va zamonaviylik xususiyati mavjud. Milliyligi shundaki, *neym* tarkibidagi *usta* va *top(moq*) leksemalari xalqimizning umumiste’mol so‘zlari doirasidan tanlab olingan[7, 17].

Shunga qaramay, ingliz tili leksikadagi o‘zlashma qatlam va o‘z qatlam so‘zlarining o‘ziga xos o‘rni bor. Muloqot jarayonida eng keng tarqalgan 1000 so‘zning 80 foizdan ortig‘i inglizcha bo‘lsa, ammo keyingi eng keng tarqalgan 1000 so‘zning 60 foizidan ko‘prog‘i o‘zlashmalardir[8, 8].

Ingliz tili leksikasi tarixan murakkab jarayonni bosib o‘tgan. Buni tillarning taraqqiyot tarixida kadan-kam uchraydigan holat sifatida e’tirof etish mumkin. Aynan shuni nazarda tutib, taniqli leksikograf (Merriam-Webster lug‘atining yordamchi muharriri) Kori Stamper “Ingliz tili bolaligidanoq boshqa til so‘zlarini o‘zlashtirib kelmoqda”, deb bejiz aytmagan edi[9].

Hozirgi ingliz tili lug‘at boyligida bir talay xitoycha o‘zlashmalar ham uchraydi. Ularning ko‘pchiligi xitoy tili orqali emas, balki koreys va yapon tili vositachiligida kirib kelgan. Shuning uchun fransuzcha olinmalar siyosat, iqtisod, diplomatiya, san’at va sport kabi sohalarda faol qo‘llanadi. Bu o‘zlashmalarning aksariyati ingliz tilining fonetik qoidalariga muvofiq talaffuz qilinadi.

Inglizcha so‘zlar matnda diakritik belgi orqali yoki kursiv shaklda berilsa, orfografik jihatdan shakli saqlangan fransuzcha so‘z sifatida tushuniladi. Bir necha asrlik tarixga ega bu o‘zlashmalar ingliz tili leksikasidan mustahkam o‘rin olganki, hanuz orfografik jihatdan shaklini o‘zgartirmay kelyapti.

Ingliz tilida o‘zlashma hisoblangan bu so‘zlarning aksariyati fransuz tilining o‘zida orfografik yoki semantik jihatdan diferensiyaga uchragan. Ya’ni, ular boshqa ma’noni ifodalaydi. Shunday bo‘lsa-da, hozirda Angliya va Amerikadagi ayrim restoran menyularining fransuz tilida berilishi ham bu tilga nisbatan ma’lum qoidalar saqlanib qolganini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda ingliz tili lug‘at boyligiga yana ko‘plab zamonaviy nemischa so‘zlar (oziq-ovqat, ichimlik va boshqa mavzuviy guruhlarda) olinma sifatida qabul qilinyapti. Italyancha o‘zlashmalar orasida, xususan, musiqa, arxitektura, mebelchilik sanoati, oshxona konsepti, modalar olami bilan aloqadorlari ko‘proq kuzatiladi.

Ingliz tilida ruscha o‘zlashmalarning miqdori boshqa o‘zlashma manbalarga taqqoslaganda ko‘p emas. Rus tilidan ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘z olish ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi. Bu so‘zlarning aksariyati rus hukumati siyosati, madaniyati va tarixi bilan bog‘liq tushunchalarni o‘zida aks ettiradi.

Ingliz tili lug‘at boyligidagi lotincha va yunoncha o‘zlashmalarning aksariyati ilmiy atamalardir. Shuningdek, ingliz tiliga arab tilidan ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita so‘z o‘zlashish yo‘llari mavjud. Bunda, asosan, diniy, madaniy, maishiy mavzudagi so‘zlar guruhi yetakchilik qiladi.

Inglizzabon Amerika madaniyati dunyo bo‘ylab o‘zining rang-barangligi bilan tanilgan. Xususan, shu ma’noda Amerika Qo‘shma Shtatlarida millat, elat va madaniyatlar birlashuvini tavsiflovchi “erituvchi qozon”[10, 50] (melting pot) majoziy o‘xshatishi ham mavjud. Metafora bu hududga immigrantlar tomonidan olib kelingan madaniyatlar integratsiyasiga bevosita aloqador sanaladi. Shuningdek, u xorijiy so‘zlarni, tushunchalarni qabul qilish yoki moslashtirishga ham ishora qiladi. Hozirgi ingliz tili leksikasi tarkibi turlicha bo‘lib, unda asosan, fransuz, nemis, italyan, rus, xitoy yapon, yunon, ispan, hind, arab, afrika

tili o‘zlashmalari yetakchilik qiladi. Umuman olganda, hozirgi ingliz tili leksikasida 350 ga yaqin manba til so‘zlari mavjudligi aytiladi[11].

Til va jamiyat uzviylikda taraqqiyot etadi, shundan kelib chiqib, til va madaniyat fenomenlarining bir-biriga ta’sir doiralari ham mavjud bo‘ladi. Bu jarayonda ekstralingvistik omillar leksika uchun muhim rol o‘ynaydi. Tarixan olib qaraganda, davlatlar o‘rtasidagi siyosiy-madaniy aloqalardan tashqari, hatto bosqinchi xalq tilining o‘z hukmi ostidagi millat tiliga ta’siri ham ahamiyatli vazifa bajargan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, istiqlol davri o‘zbek tili leksikasi o‘zlashma so‘zlar hisobiga sezilarli darajada kengaydi. Xususan, leksikaga o‘zlashgan ko‘plab ergonimlar inglizcha birliklar bo‘lib, bunday o‘zlashmalar appelyativ leksika bilan bir qatorda onomastik leksikada ham faollashgani muhim hisoblanadi. Shunday ekan, ularni ham o‘ziga xos tizim sifatida semantik, genetik va leksikografik xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kun tilshunosligining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. –Москва: Наука, 1978. – С. 190
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013. – 200 б.
3. Рўзимбоев С., Янгибаева С. Эргонимларнинг маъно қирралари. // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2017. 11-сон. –Б. 91-96.
4. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. №3. – Б. 3-12.
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Lists_of_English_words_by_country_or_language_of_origin
6. https://www.dictionary.com/e/word-origins
7. Шукуров О.У. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври): Филол. фан. ... доктори (DSc) дисс. автореф – Қарши: 2022. – 62 б.
8. The Secret Life of Words: English Words and Their Origins. The Great Courses, 2012. –P. 120
9. https://www.dictionary.com/e/borrowed-words
10. McDonald, Jason J. American Ethnic History. Edinburgh University Press, 2007. –P. 142.
11. Which Words Did English Take From Other Languages? https://www.dictionary.com/e/borrowed-words/
12. Овсянникова К. В. Особенности номинации предприятий общественного питания (на примере коммерческих названий г. Воронежа и г. Москвы): дис. – Воронеж. гос. ун-т, 2016. –С. 21-29.

QISSA JANRIDA G‘OYA VA OBRAZ

Abduhamid XOLMURODOV,
NavDPI professori, f.f.d.

Annotatsiya: Maqolada yozuvchining badiiy asar g‘oyasi va obraz yaratish mahorati haqida fikr yuritilgan. Shukur Xolmirzaevning "Bukri tol" qissasi qahramonlari samimiyligi bilan ajralib turishi to‘g‘ri qayd etilgan. Asarda ishtirok etuvchi Oyna opa, Sanam, Ma’murjon obrazlarining dinamik o‘zgarib borishi oydinlashtirilgan.

Аннотация: В статье размышляется представление писателя о художественном произведении и его умении создать образ. Справедливо отмечается, что герои рассказа Шукура Холмирзаева «Букри Тол» отличаются искренностью. Уточнены динамические изменения персонажей Ойна Опы, Санам и Мамурджона, участвующих в произведении.

Annotation: The article reflects on the writer’s idea of an artistic work and his ability to create an image. It is rightly noted that the characters of Shukur Kholmirzaev’s short story "Bukri Tol" are distinguished by their sincerity. The dynamic changes of the characters of Oyna Opa, Sanam, and Ma’murjon participating in the work are clarified.

Kalit so‘zlar: qissa, badiiy, obraz, g‘oya, voqelik, yozuvchi, qora, kitobxon, tadqiq, adib.

Ключевые слова: рассказ, художественный, образ, идея, реальность, писатель, черный, читатель, исследование, писатель.

Key words: story, artistic, image, idea, reality, writer, black, reader, study, writer.

G‘oyasiz asar bo‘lmaydi. Bu isbot talab etmaydigan haqiqat. «Badiiy asarda g‘oya - san’at asarining mazmuniga asos bo‘lgan umumlashtiruvchi, emotsional obrazli fikrdir. Oddiy g‘oyalardan farqli o‘laroq, badiiy asardagi g‘oya «badiiy g‘oya» deb ataladi. Badiiy g‘oya - obrazli fikrdir»[1].

Qolaversa, «Badiiy obraz boshqa har qanday ijod namunalaridan o‘zining muayyan emotsional-estetik g‘oyaviy ta’sir kuchiga ega hissiy mazmuni bilan ham yaqqol ajralib turadi»[2]. Bu - qissa janriga ham taalluqlidir.

Shukur Xolmirzaevning qahramonlari soddaligi, to‘poriligi va ayni paytda samimiyligi bilan ajralib turadi. Adibning mahorati shundaki, u har bir qahramonning ichki dunyosini chuqur tahlil etadi. Shu bois ham u yaratgan qahramonlar kitobxon qalbiga yaqin kishilardir. Muhimi, yozuvchi yaratgan obraz xarakterlari bir-biriga o‘xshamaydi. U yozuvchi adabiyotimizga yangi qahramonlarni olib kirdi. Uning qahramonlari milliy o‘zlikni anglagan, yangicha tafakkur ufqlarini o‘zida aks ettirgan insonlardir.

“Adabiy qahramon – yozuvchi qalbining ko‘zgusi. Kitobxon qaysi bir asarni o‘qimasin, unda tasvirlangan qahramon obrazida yozuvchi qalbining zarralarini ko‘radi. Agar qahramon olijanob va mehridaryo inson bo‘lsa, demak, yozuvchi ham shunday ezgu fazilatlar sohibi. Bordi-yu qahramon sho‘x va quv bo‘lsa, shunday insoniy xislatlar asar muallifiga ham begona emas”[3], deydi atoqli munaqqid N.Karimov Oybek ijodiga bag‘ishlangan maqolasida. Darhaqiqat, yozuvchining asarda ilgari surgan g‘oyasining kitobxon ong-shuuriga yetib borishida bu g‘oyani tashuvchi asarning asosiy obrazlari talqini hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shukur Xolmirzaev o‘z asarlarida bolaligi kechgan qishloq manzaralarini mahorat bilan chizadi. Shu bois yozuvchining Boysun haqidagi asarlari o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

Adibning bolaligi qiyin kechdi. Uning otasi Fayzulla Xolmirza o‘g‘li qirqinchi yillarda qatag‘on qurboni bo‘ldi. Ehtimol shu tufayli Shukur Xolmirzaev qatag‘on davrining jarohatlarini birinchi bo‘lib o‘z asarlarida olib chiqqan o‘zbek adiblaridandir.

Yozuvchi 80-yillarning oxirida yaratgan asarlarida kechagi kun fojialarini qalamga olgan. Sho‘ro tuzumining ayanchli voqealarini yoritishga jazm qilgan yozuvchi badiiy vositalardan foydalanib inson xarakterini ochadi. Uning asarlarida davr iztiroblarini chekkan insonlar taqdiri o‘z aksini topgan.

---

[1] Султон И. Адабиёт назарияси. -Т., 1980. - Б.175.

[2] Адабиёт назарияси. II томлик. I том. - Т.: Фан , 1978. - Б. 107.

[3]Каримов Наим, XX аср адабиёти манзаралари, Биринчи китоб, Тошкент. “O`zbekiston”, 2008 й. Б.311.

Shukur Xolmirzaev yangi-yangi qissalar yaratib o‘zbek prozasining yuksalishiga salmoqli hissa qo‘shdi. "O‘n sakkizga kirmagan kim bor?", "Bukri tol" qissalari buning yorqin dalilidir. Yozuvchi "Tog‘larga qor tushdi" qissa va hikoyalar to‘plamining so‘zboshisida:

"To‘lqinlar" ham, "O‘n sakkizga kirmagan kim bor..." ham studentlik paytimda yozilgan va o‘shanda chop etilganicha qolgan edi. Men hozir o‘shandagi yoshimga yana bir kirib chiqdim desam bo‘ladi. Bu qissalar bilan qayta uchrashish va ularni qayta nashrga tayyorlash men uchun juda hayajonli kechdi. Qalam urushga ko‘p urindim, bo‘lmadi: ayadim. Qanday bo‘lsa, shundayligicha qoldi.

Balki shunday qolishi tabiiydir?

Abdulla Qahhordan "To‘lqinlar" chiqqach olgan xatimda:

"... Menimcha, nomi to‘g‘ri emas", degan fikrni bildirgan edilar. O‘shandayoq bunga iqror bo‘lgan edim.

Endi o‘zgartirdim: "Bukri tol" bo‘ldi.

Muallif, 1986 yil"[1] - deb yozadi.

Sh.Xolmirzaevning bu fikri qissalar misolida ijodiy jarayon masalasini o‘rganish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Shukur Xolmirzaev yoshlik harorati bilan yaratgan o‘z qahramonlaridan voz kecha olmaydi, ular yozuvchi uchun qadrdon bo‘lib ketgan.

"Bukri tol" qissasining qahramonlari samimiy va sodda kishilardir. Sanam qissa qahramonlaridan biri.

Sanam bolalikdan ota mehriga zor bo‘lib o‘sdi. Turmushga chiqib ham baxtli bo‘lolmadi. Turmush o‘rtog‘i Umarjon bevaqt dunyodan o‘tdi.

"Tashqarida qish jonivor ham xirmon sovuryapti-da. U dema, bu dema, bilib turibman, bolam, yana yig‘lagansan. Axir, qo‘y endi, taqdir ekan, taqdir. Yo‘qasam, shuncha yildan beri birovning burnini qonatmagan kon kelib-kelib Umarjonning ustiga ag‘narmidi. Birniki o‘tdan, birniki suvdan deganlariday, eringning peshonasiga bitilgani shu ekan. Sen bo‘lsang, behudaga azob chekib, o‘zingni xarob qilyapsan. Shukur qil, hech narsadan kaming yo‘q. Boshingda pushti panohing-enang bor. Ilohim, Oynajonimning boshini toshdan qilgan bo‘lsin", - deb qaynonasi uni yupatdi (4-bet).

Ushbu parcha kitobxonni Sanamning chigal taqdiridan voqif etadi.

Qissada Oyna opa obraziga alohida urg‘u berilgan. Bu obraz haqida adabiyotshunos Baxtiyor Nazarov: "Bukri tol" nomi bilan yangi nashri e’lon qilingan qissa avval (1962) "To‘lqinlar" nomi ostida bosilib chiqqan edi. Yosh adib bu qissada Ma’murjon singari o‘smirlar hayotining ajib manzaralarini, halollik, poklik muammolarini yosh xarakterlarning toblanish jarayonlarini qalamga oladi. Ayni vaqtda Oyna opa obrazini yaratishga urinadi. O‘zbek ayollariga xos muruvvat, saxovat bilan rahbarga xos talabchanlik va qat’iylikni Oyna opa tabiatida uyg‘un holda biriktirishga intiladi. Shukur Xolmirzaevni mute’larcha qo‘l qovushtirib turish odat bo‘lib qolgan Ma’murjonning asta-sekin o‘z-o‘zini anglay borish jarayoni qiziqtiradi"[2], - deb yozadi.

Haqiqatan ham, olim qayd etganidek, asar qahramoni Ma’murjonning o‘zligini anglash jarayoni dinamik tarzda ro‘y beradi. Yozuvchining asosiy diqqat e’tibori unda bo‘ladi. Qissada Ma’murjonning taqdiri ham qaysidir jihatlari bilan Oyna opa taqdiriga o‘xshab ketadi:

"-Asli... shu yerlikman. - Yigit shapkasidagi suv tomchisini kafti bilan sidirib davom etdi.- Yoshligimda ketib qolganman. Meni bu yerdan bir kishi olib ketgan... Karimov degan kishini eshitgandirsizlar. - Yigitning ovozi allanechuk xiralashib qoldi. Tolalari uzun-uzun qoshlari to‘satdan chimirildi. - Sirdaryoda shunaqa... raysobes raisi bo‘lib ishlardilar". (6-bet).

Sho‘ro zamonining yovuz siyosati qatag‘on qurbonlarining bolalarni ham chetlab o‘tmadi. Ma’murjon shu tuzum qurboni bo‘ldi.

Yozuvchi «Bukri tol» qissasida aks etgan voqealarda qatag‘on qurbonlarining taqdiri badiiy jihatdan to‘laqonli ifodalangan. Shu asnoda asarda yozuvchi biografiyasiga oid ba’zi nuqtalarni aks ettiradi. Qissa janri biografik elementlarni qamrab olishi adabiyotshunoslikda ko‘p ta’kidlanadi. Andersen, L.N. Tolstoy, M.Gorkiy, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Qahhorlar ijodida bunga ko‘plab misol topishimiz mumkin[3].

«Oyna opa yelkasiga tashlab chiqqan telegreykasini apil-tapil kiyganicha, militsionerga ergashdi.

Idorada unga nimalarnidir aytib, ko‘nglini ko‘targan bo‘lishdi. Oyna opa hayron, ularning gapini uqib ololmas edi.

---

[1] Холмирзаев Ш. Сўз боши "Тоғларга қор тушди". Қиссалар, эсселар. - Т., 1987. -Б.2.

[2] Назаров Б. Шукур Холмирзаев. "XX аср ўзбек адабиёти тарихи". – Т.: Ўқитувчи, 1999. -Б. 507.

[3]Қаранг: Словарь литературоведческих терминов. –М., Просвешение, 1974: Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т., 1983.

Nihoyat uni, sahniga pishiq qizil g‘isht yotqizilgan keng hovlining to‘ridagi suvoqlari ko‘chib tushgan binoga boshlashdi. Dim, qo‘lansa hidli koridordan o‘tib, qalin archa eshigiga yetishdi. Eshik ochildi. Ichkariga oqib kirgan xira yorug‘lik nim qorong‘i uyning o‘rtasida chalqancha tushib yotgan kishini yoritdi. Uning yuzi bilinmas, boshining yon-verida qandaydir halqoblar yiltirar, bo‘g‘uvchan iliq qon hidi dimoqqa urilardi. Oynaxon shu on otilib jasadning oldiga bordi, cho‘nqayganicha o‘tirib bo‘g‘iq xirillab u qimirlayvermagach, o‘zi hushidan ketdi...» (34-35-betlar).

Bu kabi tasvir bir tomondan yozuvchining mahoratidan darak bersa, ikkinchi tomondan, o‘sha davr fojialarini his qilishga yordam beradi. Yozuvchi hayotdan olgan materialini davr muammolarini ko‘rsatish g‘oyasini ilgari surar ekan, qamoqxonadagi hayotni butun dahshati bilan tasvirlaydi. Yillar o‘tib, qatag‘on bo‘lganlar oqlanadi. Kunlardan bir kuni qamoqxona darvozasi oldida Oyna opaga teskari qaragan o‘sha militsioner kirib keladi va Normurod akaning o‘limi oldidan yozgan xatini unga topshiradi:

"Oyna ... gazetada arzimagan bir so‘z xato ketgan ekan. Shuning uchun meni ayblashyapti. Go‘yo men ataylab qilgan emishman. O‘zing o‘yla, bu qanday haqsizlik! Soxta guvohlarning gapiga ishonishsa-yu, menga ishonishmasa?! Yuqoriga ariza bergan edim, lekin negadir javob ololmayapman. Ortiq chidolmayman! Oynajon, asablarim sob bo‘ldi... bir gapni takrorlayverish jonimga tegdi. Meni kechir: ko‘p o‘ylama, yig‘lama... Ba’zan hayotda shunday bo‘lar ekan... sen irodali bo‘l! Insonga ishonish kerak. Ba’zilarga o‘xshab hukm chiqarishga aslo shoshilish kerak emas... Hay mayli! Xayr Oynam! Sanamga ehtiyot bo‘l, senga topshirdim uni! Ish deya-deya uning diydoriga to‘yolmadim-a!

Alvido, azizlarim, xayr!" (35-36-betlar).

Hayotda ro‘y bergan bu kabi ayanchli voqealar Oyna opaning irodasini ming bora sinovdan o‘tkazdi. Hayot tashvishlari Oyna opani ulg‘aytirdi.

Oyna opa Sanam, Ma’murjonlarning hayot yo‘li bir-birlariga o‘xshaydi. Oyna opa, Sanam turmush o‘rtoqlaridan erta ajraladi. Ma’murjon ota-ona diydoriga zor bo‘lib o‘sdi. Yozuvchi mahorati shundaki, qissada har bir detaldan asar g‘oyasini ochish uchun unumli foydalanadi. Bahorning kirib kelishi tasvirida ham buni ko‘rish mumkin. Badiiy g‘oya va badiiy obraz uyg‘unligi asar muvaffaqiyatini belgilagan.

"Tepaliklar ortidagi Sanamning chorbog‘iga ham hech kimdan so‘roqsiz, bu hovlida odam bormi, yo‘qmi-surishtirib o‘tirmay bahor kirdi. O‘rik kurtaklarining uchi tors-tors yorilib, jigarrang qobiqlari ichidan oq-qizg‘ish chiziqchalar ko‘rinib qoldi. Loyxonada badbo‘y, lekin chiroyli erta bahor o‘simligi tutalar bir tekis unib chiqdi. Ular ustiga egilib turgan qator olchalar ham uyg‘ondi: guldan hali darak yo‘g‘u, ko‘m-ko‘k, ushoq-ushoq yaproqchalar chiqardi.

Hayot o‘z izida, har kim o‘z dardi, o‘z tashvishi bilan" (27-bet).

Bu satrlar hayot abadiyligiga ishoradir. Bahor qaytib kelaveradi, ular esa bahor kabi o‘tib boraveradilar. Mana shu davrda inson o‘zini anglashdek ulug‘ maqsad sari intilaveradi.

Qissada ana shu ulug‘ niyat alohida mehru muhabbat bilan qalamga olinadi. Peyzaj yordamida yanada yaxshi tasvir etiladi. Psixologik vazifani bu o‘rinda peyzaj va inson ruhiyati, qissa qahramoni o‘rtasidagi munosabat bajaradi. Chunki bu hayotda har kim o‘z baxtini izlaydi. Tabiat bag‘rida yashayotgan inson, uning qonunlaridan chetga chiqib yasholmaydi. Inson ham bahor kabi yashaydi, kuz kabi sarg‘ayadi. Yozuvchi Sanam obrazi timsolida bahorini izlayotgan inson qismatini tasvirlaydi.

Qissa qahramonlari chinakam e’tiqodli insonlardir. Ular bir-biriga mehrli, sadoqatli. Shuning uchun ham ular taqdir zarbalariga dosh berib, toblanib yashaydilar. Ma’murjon ko‘rinishdan sodda, beozor yigit. Yozuvchi uning bizga noma’lum bo‘lgan qirralarini ham ochib beradi. Mehmondorchilik bahonasida Ma’murjon Oyna opaga soxta hujjatlarga qo‘l qo‘ydirmoqchi bo‘ladi. Oyna opa bunday qing‘irliklar bilan kelisholmaydi.

Yozuvchi Ma’murjon obrazini yaratishda avvaliga mehr-muhabbat bilan yondashadi. Kitobxon ham Ma’murjonning sodda va xokisor inson sifatida qabul qiladi. Muallif avvaliga Ma’murjonning ichki dunyosi to‘g‘risida biron narsa demaydi. Ammo Oyna opa Ma’murjonning yigitlarga xos bo‘lmagan qiliqlaridan, xatti-harakatidan ranjiydi. Hatto, bir necha marta tanbeh ham bergan. Hamisha halol va pokiza yashab kelayotgan Oyna opa Ma’murjon kabi xushomadgo‘ylar bilan kelisha olmaydi. Yozuvchi buni dialog orqali ochib beradi.

«-Ma’murjon, kechirasiz, esimda borida aytib qo‘yay: sizning bir odatingiz menga yoqmayapti.

Ma’murjon peshonasi tagidan Oyna opaga mo‘ltirab qaradi va boshini osiltirib, qo‘llarini qovushtirdi. So‘ngra ming‘illagan tovush bilan so‘radi:

- Qanaqa odatim ekan, opajon ?

- Xuddi mana shu odatingiz: qo‘llaringizni qovushtirib, boshingizni egib turishingiz. Men juda hijolat tortyapman. Agar rais opam xijolat tortmasin desangiz, bu odatingizni tashlang» (8-9-betlar).

Yozuvchi mana shu odat zamirida nima yashiringanini ochib beradi, Oyna opa Ma’murjonda qalloblikka bo‘lgan moyillikni sezadi. Unga tanbeh beradi. Lekin baribir Ma’murjonning hayoti Sanamning

ham, O‘lmas opaning ham, Oyna opaning ham e’tiboridan chetda qolmaydi. Ma’murjondagi soddalik Sanamga ma’qul kelib, ular turmush qurishadi.

Yozuvchi Ma’murjon obrazi orqali navqiron bir yigitga turfa xarakteriga xos turli nuqtalarni yoritishga harakat qiladi.

"Ma’murjonning hatti-harakatlarini, Oyna opaning tanbehlari, topshiriqlarini hech so‘zsiz, hech qanday mulohazasiz bajo qilishini O‘lmas opa esa, «ayyorlik natijasi» deb baholaydi. Oyna opa esa, har holda mendan qo‘rqqanidan shunday qilayotgan bo‘lsa kerak deydi. Ma’murjon ilgarigi hatti-harakatlaridan hechqursa, birontasini takrorlaganda ehtimolki, Oyna opa u haqda tezgina bir to‘xtamga kelgan bo‘larmidi" (29-bet).

Ko‘ramizki, Ma’murjonning ichki dunyosi g‘oyat murakkab. Yozuvchi Ma’murjonni qallob ham, ayyor ham deb ayblamaydi. Ma’murjon shunchaki yashash uchun kurashayotgan insonlarning biri. Ma’murjon obrazi orqali insonning ruhiy xolati tadqiq qilinadi. Asar g‘oyasi oydinlashadi. Asardagi har bir obrazning o‘z o‘rni bor, “yuki” bor.

Shukur Xolmirzaev o‘z qissasini avvaliga "To‘lqinlar", keyinroq "Bukri tol" deb nomladi. Qissa yakunida keltirilgan Ma’murjonning iztiroblari asar g‘oyasini belgilagan.

«Shu kungacha o‘tgan to‘rt-besh oylik hayoti -bu favquloddalik oqibati; endi u bu tarzda yashay olmas ekan; u odamlar haqida, ularning dunyoga qarashlari, istak-intilishlari haqida o‘ylashi, o‘ziga hisob berishi kerak ekan!» (53-bet).

Yozuvchi Ma’murjon obrazi yordamida inson qalbini tadqiq etadi. Tadqiq jarayonida qahramonining ruhiy olamiga kirib boradi. Adib qahramonlari g‘oyalar izmida yurmaydi, qalb amriga bo‘ysunadi. Bu borada professor Qozoqboy Yo‘ldoshevning:

"Shukur Xolmirzaev asarlarida personaj-g‘oyaning ifodachisi emas, jonli odam. Yozuvchi sifatida uni asosan odamning turfa tabiati, hissiyotidagi tovlanishlar va ularning namoyon bo‘lishidagi injaliklar qiziqtiradi. Inson ko‘nglining daxlsizligi qadrining balandligi uchun kuyunchaklik tuyg‘ulari ishonarli aks etganligi tufayli adib asarlari kitobxonlar orasida e’tibor topgan. Shukur Xolmirzaev yozuvchi sifatida bir umr odamni tadqiq etadi. Har bitta odam o‘ziga xos dunyo ekanini, uning ko‘ngil mayllari dahlsizligini aks ettirdi"[1], - deb bildirgan fikri o‘rinlidir.

Shukur Xolmirzaev qahramonlarining ko‘ngliga qaraydi. Ularning ezgulik yo‘lidagi kurashlariga hamfikr, hamdarddir.

Qissa qahramonlari tabiat bilan uyg‘unlikda yashaydi. Shukur Xolmirzaev tabiatdagi o‘zgarishlarni inson qalbidagi o‘zgarishlar bilan muqoyasa etgan holda tasvirlaydi. Ammo o‘rinsiz dialoglarga berilmaydi.

"Darvozadan ayvonga eltadigan yo‘lakni qalin qor qoplab yotibdi. Unda faqat qush va hayvon izlarigina ko‘rinadi. O‘ngdagi bostirmaning eshigi qiya ochiq, chumchuqlar don talashyapti u yerda. Devor taglari ham qalin qor-devordan to‘kilgan tuproqlar qorga tushib, uning oppoq yuzini allanechuk cho‘tir qilgan. Chorbog‘ oxiridan, loyxonadan yangroq ovoz bilan qiyqirib bir juft loyxo‘rak uchib chiqdi, devor osha g‘oyib bo‘ldi. O‘rtadagi keksa o‘rik tagida nimanidir cho‘qiyotgan olaqarg‘a halpillab uchib devorga qo‘ndi, og‘zida yong‘og‘i boru, chaqaman deganda, yong‘oq goh u lunjiga, goh bu lunjiga o‘tib ketayotganday "qtrr-qtrr" etib, g‘alati ovoz chiqarardi" (22-bet).

Bu ko‘chirmada yashash uchun kurash harorati o‘z aksini topgan.

Mustaqil hayot yo‘liga kirgan inson o‘zini anglab olishi o‘ta muhimdir. Shu bois yozuvchi mazkur qissada yoshlar va kattalar hayotini qalamga olib, har ikkalasini ham o‘ziga xos tomonlarini mahorat bilan yorita olgan. Muhimi, yozuvchi Ma’murjon obrazini yaratishda quyuq qora bo‘yoqdan foydalanmaydi. Unga hamisha hamfikr, hamdard bo‘ladi. Ana shunday daqiqalarda Ma’murjon bosib o‘tgan yo‘lini sarhisob qiladi. Nojo‘ya ishlaridan iztirob chekadi. Kimgadir orqa qilib yashash og‘ir fojiaga, tuzatib bo‘lmas xatoga olib kelishini tushunib yetadi.

"Ma’murjon ancha turib qoldi. Yana idora tomonga qarab, bir necha odim bosdi. Yana to‘xtadi. Shunda nishab betdagi yakka tolga ko‘zi tushdi-yu, o‘sha yoqqa ketdi. Ketib borarkan, tolga birinchi marta e’tibor bilan qaradi.

Tol hali yosh edi. Do‘nglikdan qulagan xarsang toshning tanasiga suyanib qolgan, shuning uchun tol pastga, daryoga egilib, qiyshiq bo‘lib o‘sgan, bukir edi. Ma’murjon tolning yer betiga turtib chiqib turgan tomiriga o‘tirdi. Tizzalarini quchoqlab, boshini egdi..." (O‘sha kitob, 53-bet).

Yozuvchi "Bukri tol" obrazida egilsa ham sinmaydigan, kurashib yashayotgan haqiqat obrazini yaratadi.

[1] Йўлдошев Қ. Руҳият сувратлари // Ўзбекистон овози. – 2000. - 20 июнь.

"Bukri tol" qissasi qahramonlari o‘tkinchi siyosat yugurdagiga aylanmadi. Ularga xos bu chizgi juda xarakterli chizgidir. Shu bois ham “Bukri tol” qissasi va uning qahramonlarini o‘zbek qissachiligidagi yangilik, qo‘lga kiritilgan yutuq deb baholash mumkin.

Ijodkor qalbi va badiiy haqiqat, g‘oya va badiiy voqelik haqida fikr yuritar ekanmiz, har bir badiiy asar darajasini yozuvchi qalbining teranligi, nigohining o‘tkirligi belgilaydi. Chunki qalamga olingan har bir mavzuda yozuvchining o‘zi ishtirok etadi yoki taassurotlarimizni umumlashtiradi.

ШОМОН АФСОНАЛАРИДА МИФОЛОГИК ҲОМИЙЛАР ТАЛҚИНИ

Қаюмов Олим Садириддинович,
Тошкент амалий фанлар университети профессори
Дармонов Илҳомжон Каримович,
Тошкент амалий фанлар университети тадқиқотчиси

Шомон мифологик ҳомийлари ҳақидаги афсоналар ўзбек шомон афсоналарининг алоҳида бир гуруҳини ташкил этади[1, 2].

Этнограф О.А.Сухарева томонидан Самарқанддан ёзиб олинган бир оғзаки ҳикояда нақл қилинишича, Додарой деган бир қиз ўн икки яшарлик пайтида мозорга зиёратга борганида унга Муллахон исмли пари йўлиққан. Муллахон бошига салла ўраган пастгина бўйли муллавачча қиёфасидаги пари бўлиб, Додаройни севиб қолибди. Пари Додаройнинг ёнига эрини сираям яқинлаштирмабди. Додаройнинг эридан кўнгли совиб кетибди, охири улар ажралишибди. Парининг буйруғига кўра, Додарой товуқ сўйиб, қон чиқарибди ва парихонлик касбини бўйнига олибди. Додаройнинг айтишича, у ўзининг ҳомийси – пари билан бамисоли эр-хотиндай яшашар, жинсий яқинлик тушида содир бўлар экан[3. – С. 48-49].

Мазкур афсона шомоннинг қайтариқа шомонликка эга бўлишини изоҳлагандек кўринади, бироқ, бу эпик матнда шомоннинг ҳомийси ва унинг шомон билан саргузаштлари, мифологик ҳомийнинг қудрати борасидаги маълумотлар ғоявий жиҳатдан етакчилик қилади. Олиманинг айни шу тадқиқотида яна бир факт маълумот тарзида келтирилади. Қайд этилишича, Самарқанднинг Хўжаахрор қишлоғида истиқомат қилувчи ёшгина аёлнинг руҳлар томонидан танланганлиги сабабли унга руҳлар келиб доимий равишда қурбонлик беришини талаб қилади. Порхон бу ҳолни *шомонлик юки* деб атайди. Унинг ҳикояларида қурбонликка бир товуқ сўйиш ва шу билан ҳомий руҳларни боқиш, уларга хизмат қилиши кераклиги айтилади[3. – С. 16]. О.А.Сухарева томонидан келтирилган ҳар икки ҳикоя аслида шомоннинг мифологик ҳомийлари ҳақида маълумотни ташийди. Унинг айтувчиси шомоннинг ўзи. Бунда мифологик ҳомий руҳлар, уларнинг шакли шамойили, вазифалари борасидаги ахборотларни кичик воқеалар тизими орқали ифодаланиши кўзга ташланади. Унда воқеалар шомон ва унинг ҳомий руҳлари ўртасида бўлиб ўтади. Руҳлар гарчи кўзга кўринмас мавжудотлар бўлса-да, худди реал шахслар сингари озиқланиши, шомоннинг уларга хизмат қилиши изоҳланади.

Олиманинг яна бир қизиқ маълумотни қайд этгани эътиборимизни тортди. Хожаахрор қишлоғида кўзи ёрийдиган аёлларга момочилик қиладиган момо хонанинг тўрт бурчагига еттита нукча чироқ ёқиб доялик вақтида момоларини чорлайди. Кўзга кўринмас етти момо келиб дояга ёрдам беради. Туғаётган аёлнинг икки дунё орасида момолар асраб туради ва боласини эсон-омон қўлига олиб бу ҳаётга қайтишида момолар ёрдам беради. Доя хотиннинг вазифаси бор – йўғи воситачилик холос, деб ёзади[3. – *С.19-20*]. Мазкур маълумот ҳам баъзи фольклоршунослар томонидан оғзаки демонологик ҳикоя дея тавсифланган. Аслида бу эпик мантда воқеа – ҳодиса шомон тилидан айтилмоқда, унинг иштирокчилари шомон, унинг мифологик ҳомийлари ва ночор ҳолатдаги кўзи ёриётган аёлдир. Бу воқеаларда асосий ҳаракат момоларнинг зиммасига тушади, доя уларга имкониятлар яратиб беради ва мадад сўрайди.

Жанғил бахши ва унинг мифологик ҳомийлари борасидаги саргузаштларни ифолаган кўплаб афсоналар мавжуд. Шундай афсоналардан бирини бахшининг қизи Манзура Ахмедовадан 2022 йилда ёзиб олгандик. Афсонада айтилишича, “2007 йиллари эди. Онам “Момо оши” маросими ўтказадиган бўлдилар маросимга атрофдаги ***орқали*** момолар таклиф этилди. Маросим материалларини ёзиб олиш учун фольклоршунос О.Қаюмов ҳам келганди. Маросим бўлиб ўтадиган уйнинг даҳлизига О.Қаюмов видео камерасини жойлаштириб маросимни тасвирга олишни режалаштирди. Маросим бошланди. Хонада айланасига кўрпача ташланиб жой қилинган. Ўртада дастурхон ёйилиб унда қурбонлик қилинган жонлиқнинг қони икки уч жойда косага қўйилган, нукча чироқлар ёқилган, чалпак, ширгуруч, ҳалвоитар нон чой каби егулик-ичгулик неъматлар қўйилган. Маросимда бахши ўз

бошидан ўтган ҳасби ҳолини қўшиқ қилиб айтиб, момолари, парилари ёрдами билан соғайганини ҳиргойи қиларди. Қўшиққа доира жўр бўларди. Доирани шогирди Анбар бахши чалиб турарди. Кутилмаганда доиранинг ритми тезлашиб, йиғилган аёллар бирдан ўринларидан туриб, рақс туша бошладилар. Шу пайт О.Қаюмовнинг видео камераси таблосида “омин” деган лотин ёзувида сўз пайдо бўлди ва аппарат тасвирга олишдан тўхтади. О.Қаюмов такрор-такрор “ёзиш” тугмасни босди, аммо фойдаси бўлмади.

Бахши қўлида қамчиси билан хонани тўлдириб рақс тушаётган аёлларни оралаб юрарди. Қайсидир аёллар жазаваси тутиб, ўзини билмас ҳолда қалтираб қилиқ қиларди. Шунда бахши келиб, “Астоғфуриллоҳ дегин”,-деб қамчилаб уриб ҳалиги аёлни хушига келтириб кетарди. Базм ярим соатдан кўп давом этди. Маросимдаги аёллар роса рақс тушдилар. Қизиғи шундаки, улар дастурхон турган ҳудуднинг устида ҳам рақс тушарди. Доиранинг садоси тўхтаб бахши олқиш айтгач, яна ҳамма тик ҳолида девор ости бўйлаб ёйилган кўрпачалар устида сафтортиб омин қилишди ва ўтиришди. Дастурхон устида талотўп рақс бўлганига қарамасдан дастурхондаги бирор нарса жойидан силжимаган, жойи ва ҳолатини ўзгартирмаган эди. Момолар лашкар тортганида шу каби мўъжизалар содир бўлади”[4.]. Мазкур афсона бахшининг мифологик ҳомийлари томонидан содир бўлган мўъжизани изоҳлагандек, аммо бу эпик матнда мифологиқ ҳодиса талқини тингловчини таажжублантиришдан кўра, мифологик ҳомийларнинг қудратига ишонтиришга кўпроқ хизмат қилган. Тингловчини ишонтириш оғзаки матннинг реал замонда, таниқли шахслар иштирокида географик маконда содир бўлганлигини изоҳлаш орқали амалга оширилган.

Эпик сюжетда момоларнинг лашкар тортиши ва рақсга тушиши уларнинг зикрга тушишини, мифологик ҳомийлар уларни зикр тушишга мажбур қилинганлиги англашилади. Ҳикояда фольклоршуноснинг видео камерасини зикр ҳолати бошланиш нуқтасида тасвирга олишдан тўхтаганлиги, маросим иштирокчиларининг дастурхон устида базм қуришларига қарамасдан дастурхондаги ноз-неъматлар, предметлар жойи ва ҳолати ўзгаришсиз турганининг моҳиятини аниқлаштирмоқчи бўлганимизда устоз О.Қаюмов шундай жавоб берди: “Момоларнинг маросим жараёнидаги рақслари аввало ихтиёрий амалга оширилган ҳаракатлар эмас. Уларни рақсга тушишга руҳлар мажбурлаган. Рақс ҳолатида аёлларнинг қайсиларидир экстаз ҳолатга тушиб ҳам қолганди. Яъни улар руҳлар билан мулоқотга киришдилар. Иккинчидан, уларни зикрга мажбурлаган мифологик ҳомийлар уларнинг оёқларини ердан узгандилар, яъни улар учиб юргандилар. Шунинг учун дастурхон устида қанча ўйин бўлса ҳам дастурхонга қўйилган ретуал таомлари ва идишларда ҳеч қандай ўзгариш бўлмаганди”,-деб изоҳлади. Мазкур оғзаки эпик наср намунасида шомоннинг мифологик ҳомийларини шомон ва унинг атрофидагиларга кўрсатган таъсири изоҳланмоқда. Тасвирланган воқеалар ақлбовар қилмас даражада фантастик характер касб этади. Бироқ унинг шомон афсонаси жанр табиатига дахлдор белгилари: шомон маросимининг гувоҳи бўлган шахс тилидан ҳикоя қилиниши, шомоннинг содир бўлган ҳодисалардаги ўзига хос иштироки, тасвирланган ҳодисаларнинг хаёлий уйдирмага асосланиши, воқеа – ҳодисалар реал географик маконда ва аниқ астрономик замонда, реал тарихий шахслар иштирокида содир бўлиши, ҳикоялар мемуар тарзида баён этилишида яққол кўзга ташланади.

М.Ахмедова айни шу маросим иштирокчиларидан икки аёл билан боғлиқ воқеани ҳам ҳикоя қилиб берди: “Онамнинг маросимига келган қишлоқдошларимиздан икки аёл маросимдан қайта туриб, онамни ғийбат қилишган эканлар. Шу кечаси иккаласининг ҳам оғзи қийшайиб қолибди. Эрталаб онамнинг ёнига келиб, тавба қилишиб даволашини сўради. Онамнинг изоҳлашича, момолар уларнинг бахши ҳақида нотўғри маълумотларни тарқатганидан хафа бўлишган ва уларни жазолаганлар”[5].

Афсона сюжетида мифологик ҳомийлар яққол кўринмаса-да, улар ўз ҳимоясидаги бахшининг шаънини ҳимоя қилганлиги, ҳимоясидаги кишига қарши бўлган кишиларни жазолаганлиги талқин қилинади. Бу эпик матнда ҳам воқеалар гарчи икки оддий шахслар билан содир бўлса-да, ҳодисаларнинг мантиқий моҳиятида бахши ва унинг мифологик ҳомийлари муҳим ўрин тутиши туради.

Ўзбек шомон афсоналари, сюжетида тасвирланган воқеа-ҳодисаларда албатта, шомоннинг у ёки бу жиҳатдан иштироки бўлиши лозим. Шомон инициацияси ҳақидаги афсоналарда тасвирланган эпик воқелик асосан шомоннинг қай тариқа шомонга айланиб қолишини изоҳлаш етакчилик қилса, шомон мўъжизаларидаги афсоналарда шомон асосий планда бўлмасдан бадиий тасвирда юз берган ҳодисалар унинг мифологик ҳомийлари томонидан содир этилганлиги, тасвирланган воқеа ва ҳодисаларда фантастик тасвир, хаёлий уйирманинг юқорилиги кўзга ташланади.

Шомон инициацияси ҳақидаги афсоналарда воқеа ва ҳодисалар шомон томонидан ҳикоя қилинади. Шомон мўъжизалари ҳақидаги афсоналарда эса, эпик воқеилик шомоннинг мурожаат

қилган шахс ёки ҳолис гувоҳ томонидан ҳикоя қилинади. Шомоннинг мифологик ҳомийлари тўғрисидаги афсоналар ҳам аксарият ҳолларда шомон томонидан ҳикоя қилинган воқеа ва ҳодисаларга асосланади.

Шомоннинг мифологик ҳомийлари тўғрисидаги афсоналарда тасвирланган воқеа ва ҳодисалар шомоннинг мифологик ҳомийлари, уларнинг магик қудрати, илоҳий имкониятлари, ташқи тузилиши, шаклу шамойили, шомонга муносабатларини изоҳлашга қаратилганлиги билан шомон афсоналарининг бошқа турларидан ажралиб туради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Kayumov O.S. Image of grandfathers in the Uzbek shaman folklore // Достижения науки и образования. 2019. №3 (44). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/image-of-grandfathers-in-the-uzbek-shaman;
2. Qayumov O. O‘zbek shomon marosim folklorida afsun // Orienss. 2021. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-shomon-marosim-folklorida-afsun (дата обращения: 03.04.2024).
3. Сухарева *О.*А. Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков//Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М., 1975. – С. 48-49.
4. Диссертантнинг фольклор экспедицияси материаллари. Ахборотчи: Манзура Ахмедова, 60 ёшда. Тошкент шаҳрида яшайди.
5. Диссертантнинг фольклор экспедицияси материаллари. 2-дафтар. 14-бет.

ЎЗБЕК ХАЛҚ МАРОСИМЛАРИДА УРФ-ОДАТ ВА ИРИМЛАР ТАЛҚИНИГА ДОИР

Насиба Турсунова,
Навоий давлат педагогика институти доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Мазкур мақолада дунё халқлари ва Ўрта Осиё халқларида мотам маросимларининг ўрни ва аҳамияти, одати, ирим-сиримларининг маъно мазмуни, моҳияти юзасидан илмий қарашлар кузатилган. Шунингдек, ўзбек фольклорида инсонни боқий дунёга кузутиш билан боғлиқ мотам маросимлари, урф-одат ва иримларнинг қўлланишига доир масалалар илмий асослар билан таҳлилга олинган.

Annotation: In this article, scientific views on the meaning, meaning, and importance of mourning ceremonies, customs, and rituals have been observed in the nations of the world and the nations of Central Asia. Also, in Uzbek folklore, issues related to mourning ceremonies, customs and rituals related to the observation of a person to the afterlife were analyzed on scientific grounds.

Аннотация: В данной статье рассмотрены роль и значение траурных церемоний, обычаев, ритуалов, смыслов и благ народов мира и народов Центральной Азии. В узбекском фольклоре траурные обряды, традиции и суеверия, связанные с следованием человека в загробный мир, имеют под собой научные основания.

Калит сўзлар: аждодлар, маросим, ирим, марҳум, мифологик, қурбонлик, арвоҳ**.**

Keywords: ancestors, ritual, irim, deceased, mythological, sacrifice, ghost.

Ключевые слова: предки, ритуал, ирим, умерший, мифолог, жертвоприношение, призрак.

Ҳар қандай миллатнинг маънавий қадриятларини тадқиқ этиш, ўша халқнинг мифологик тасаввурлари, олам ва одам ҳақидаги қарашларини ўрганиш орқали тафаккур тадрижи такломилини аниқлаш, миллатнинг миллий ўзига хосликлари борасида аниқ хулосаларни қўлга киритиш имконини беради. Ўзбек халқ иримлари, хусусан, мотам маросими жараёнида амал қилинадиган иримларни тадқиқ этиш, халқимизнинг бадиий -эстетик тасаввурлари тарихий асосини ташкил этувчи эътиқодий қарашларнинг прогматик вазифаларини ойдинлаштириш учун муҳим аҳамият касб этади.

Инсон вафот этиши унга мотам тутиш билан боғлиқ маросимлар уларнинг айтимлари таниқли олимлар томонидан бир қадар тадқиқ этилган[1]. Ер юзида одамнинг пайдо бўлиши ва авлодларининг

[1] Саримсоқов Б. Мотам ёр-ёрлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1983. № 5. 29 - 33-бетлар; *Ўша муаллиф*. Ўзбек маросим фольклори. Тошкент: Фан, 1986. – 213 б.; *Ўша муаллиф*. Мотам маросим фольклори // Ўзбек фольклори очерклари. Тошкент, 1988. Т. 1 208 - 223-бетлар; Ремпель Л.И. Цепь времен. Вековые обряды и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. Ташкент: Изд-во лит. и искусства им. Г.Гуляма,

кўпая бориши ижтимоий ҳаётдаги турли сирли ҳодисалар қадимги аждодларимизни ўзга олам ва Ғайб олам вакилларини англаш, улар билан мулоқот қилишда хушёр бўлишга ундаган. Одамзод бу дунёнинг ўткинчи эканлиги, инсон йўқдан бор бўлиши ва бордан йўқ бўлиши мумкинлигини кўриб, яратганнинг қудратига имон келтирган. Инсон вафот этгач, мотам маросимлари ўтказиш марҳумнинг кўк оламига ўтиб кетаётган руҳини тинчгина сафарга кетиши учун тирикларнинг розиликларини изҳор этиши лозим деб ўйлаганлар. Қадимги аждодларимизнинг марҳум руҳини мангулик сафарига кетишига розилигини ифодалаш мотам маросими орқали амалга оширилган. Мотам маросимлари - кишининг вафоти муносабати билан марҳумнинг хотирасини ёд этиб ўтказиладиган маросимларни ўз ичига олади. Дунёдаги барча халқларда географик шароит, ижтимоий-иқтисодий тузум, кишиларнинг илмий, диний тасаввурлари ва бошқа омилларга асосан бир-бирига ўхшаш ёки фарқланувчи мотам маросимлари ўтказилади. Ўзбекларда мотам маросимлари марҳум вафотининг маълум кунларида ўтказиладиган маросимларни ўз ичига олади. Мотам маросимларида марҳумнинг арвоҳи ёд этилиб, арвоҳни шод этиш учун турли расм-русмлар бажо келтирилган, йиғи -йўқловлар, марҳум руҳига олқишлар ижро этилган.

Ибтидоий давр одамларининг таналарини қора ёки қизил рангга бўяшлари, азадорларнинг қора, кўк либос кийишлари руҳлардан ҳимояланиш, ер ости олами вакилларининг раҳмини келтириш, Ерлик хан номли руҳлар маъбудини ғашини келтирмаслик учун қилинган амаллардан бўлган[1]. Ўрта Осиё халқларида мотамнинг биринчи белгиси овоз чиқариб йиғлашдир. Марҳумнинг энг яқин кишилари (аёл ва эркаклар) жудолик белгиси сифатида бел боғлайдилар. Марҳум дафн этилгандан кейин, уч, етти, марҳум вафотининг 17-19- кунида «йигирма», сўнгра «қирқ» маросимлари ўтказилади. Мотам маросимларининг энг сўнггиси «йил»дир. «Йил» марҳум вафотига бир йил тўлганда (баъзан олдинроқ) ўтказилади. Одатда кекса кишиларда марҳум олтмиш уч ёшдан ўтган бўлса йили эртароқ ўтказилади. Бу ислом мифологик тасаввурлари натижасида шаклланган одат бўлиб, марҳумни пайғамбар Муҳаммад с.а.в. ёшидан ўтса кекса кишилар сафига қўшилишини англатади. Марҳумнинг вафотига бир йил тўлмагунча унинг яқинлари қариндошлари тўй-ҳашамдан ўзларини тийишлари талаб этилган. Ҳатто баъзи қишлоқларда яшовчи ўзбеклар оиласида яқинлари вафот этишса, телевизор экрани, ойна ва марҳумнинг портретига парда тутиб қўйиш одати учраб туради. Буни Хатирчи тумани “Хонақа”, “Уйшун”, “Жалоер”, “Чиғатой” ва бошқа қишлоғида яшовчи ўзбеклар ҳаётида учратамиз. Айни шу одат қадимдан туркий қавмлар мотам маросимлари арафасидаги иримлар таркибида учрайди. Коми халқлари мотам маросимларини ўрганган А.А.Чувьюровнинг қайд этишича, коми халқида марҳум вафот этган хонадонда ойна, телевизор, самовар каби буюмларни “син вуджер” – марҳумнинг “нигоҳи қолиб кетмасин”-деган мақсадда парда билан ёпиб қўйишар экан[2]. Кўринадики, инсон вафот этгач, унинг руҳи ҳаракатда бўлиши билан боғлиқ анимистик тасаввурлар туркий қавмлар учун муштарак аҳамият касб этади. Марҳумнинг жони чиққан хонадонда ойнали буюмлар устини бекитиш орқали арвоҳнинг хонада қолмаслигини ирим қилганлар.

Зарафшон воҳасининг кўпгина ҳудудларида дафн маросими ўтказилгач, марҳумнинг руҳига бағишлаб “жон чиққан жойга жон берайлик”-деб қўй сўйиб қурбонлик қилинади. Марҳумни дафт этгандан сўнг қурбонлик бериш, руҳлар, хусусан марҳумнинг руҳи қурбонлик талаб қилади деб тасаввур қилиш нафақат ўзбек, балки Сибир ненецлари ҳаётида ҳам учровчи одатларданди[3]. Ненецларнинг мотам маросими доирасидаги анъаналарида марҳум дафн этилгач, унинг жони чиққан хонага тутатқи тутатишлари ҳам ўзбеклардаги инс-жинсларни қувиш учун исириқ тутатиш анъанаси билан генетик яқинлигини эътиборда сақлашимиз лозим.

Ўзбек халқида марҳумларнинг ўлими сабаблари билан боғлиқ ирим ва урфлар ҳам мавжуд. Шундай урфлардан бири – марҳумнинг фожиали вафот этган жойига рамзий қабр қилиш ва хотира тоши ўрнатиш анъанасидир. Одатда марҳум фожеали вафот этган жойни (унинг қони тўкилган, жони узилган) муқаддаслаштирганлар. Шунинг учун “Искандар ўлди” каби топонимлар ҳам пайдо бўлган. Хатирчи тумани А.Ёрлақабов ҳудуди қирларидан бири Искандар деган йигит ўлдириб кетилганлиги

1987 – 192 с.; Хакимова О. Ўзбек йиғи-йўқлов қўшиқлари // Guliston. 2001 № 3. 43-бет; Ўраева Д. Ўзбек мотам маросимлари фольклори. Тошкент: Фан, 2004. – 120 б.

[1]Қаюмов О. Ўзбек шомон маросими фольклори. – Тошкент: Молия-иқтисод, 2020. – С. 63; Чувьюров А.А. Похоронно-поминальные обряды печорских коми старообрядцев /Сибирский сборник — 1. Погребальный обряд народов Сибири и Сопредельных территорий.Книга 2. – Санкт-Петербург, 2009. – С.20-28.

[2] Чувьюров А.А. Похоронно-поминальные обряды... – С.21.

[3] Лехтисало Т. Мифология юрако-самоедов (ненцев) / Пер. с нем. и публикация Н.В. Лукиной. – Томск, 1998.– С.104.

учун шундай номланган. Искандарнинг жони узилган жойга биргина оқ тошдан белги қўйилган. Одамлар шу тош турган жойни муқаддас санаб у ерга молларини боқмайди, от уловини яқинлаштирмайдилар. Ўзлари тошга яқинлашгач, “Худо рахмат қилсин”,-деб юзларига фотиҳа тортадилар. Этнограф З.П.Соколованинг тадқиқотларида Олтойлик туркий қавмларда ҳам фожиали вафот этган марҳумларга рамзий қабр қилиш анъанаси мавжуд экан. Олтойликлар марҳумнинг жасади топилмаганда, ёки аянчли ҳолда бўлса, алоҳида қабристонда дафн этишган. Жасадсиз қабрлар ёнига келиб ёд этиш, хотирлаш маросимларини ўтказишган[1].

Ўзбек халқида мотам маросимларида аёллар томонидан асосан йиғи-йўқловлар ва олқишлар ижро қилинган. Мотам қўшиқлари, мотам маросим фольклори ўзбек халқи мисолида таниқли фольклоршунос Д.Ўраева томонидан изчил тадқиқ этилган. Олима ўзбек мотам маросимларининг вербал жиҳатларинигина эмас, балки маросимларнинг этнографик таҳлилини ҳам жуда гўзал шаклда амалга оширган эди.

Халқимизнинг тарихий дунёқараши асосида ўлим ҳодисаси юз берганда ўтказиладиган мотам маросимилари, хусусан, навоийликларда “ўлик юки тушди” -деган ирим бор. Дафн маросимларида ўликдан қўрқадиган, сесканадиган кишилар марҳумни ювишга кирмаслиги ёки уни кўрмасликлари талаб этилади. Аксарият ҳолларда марҳум жасадидан секанган кишилар руҳий хасталик ёки оёқ қўлларини ишламай қолишларидан азият чекишадилар. Фольклоршунос О.Қаюмовнинг тушунтиришича, “ўлик юки тушган” беморларни шомонлар даволашар эканлар. Албатта уларни “Аласлаш”, қонлаб “қоқиш” талаб этилар экан[2].

Мотам маросимлари Ўзбекистоннинг турли ҳудудларида турлича ўтказилиши ва маросим удмларининг мазмун-моҳияти ва одатий иримлари билан фарқланади. Айнан марҳум чиқарилган кундан бошлаб уч кун давомида ўлик чиққан хонадон овқат қилмаслиги, кир ювмаслиги, ўйин-кулги яъни мусиқа эшитмаслиги, теливизор кўрмаслиги, паст овозда гапириши лозимлиги кузатилади. Бу одатий хол шарқ халқларида инсон қадр-қимматини улуғлаш ва эҳтиром юксаклигини ифодалайди. Мотамнинг уч кунлиги магик моҳият касб этади. Халқ қарашларига кўра, етти кунгача марҳумнинг руҳи жасаддан ажралган жойда кезиб юради. Марҳумнинг руҳини тинчлантириш учун ис чиқариш, чалпак пишириш, унинг руҳига осойишталик тилашга қаратилган ибодатларни амалга ошириш одат тусига кирган. Марҳум чиққан хонадонда уч кун ичида кир ювмаслик ирими заминида мифологик таъбу туради. Нега кир ювиш тақиқланади? Халқ қарашларига кўра, марҳумнинг нариги дунёга сафари етти кун давом этади. У сафар чоғида яқинлари кир ювсалар, марҳум сирот кўпригида кирнинг мағзавасига тойринар эмиш.

Ҳатто Сибир туркларида ҳам мотам кунлари уч кун марҳумнинг қавм-қариндошлари ўзларини уриб йиғлашлариб кир ювмасликлари кузатилади[3].

Ўзбек халқида марҳум ва унга даҳлдор предметлар унинг вафотидан кейин муайян магик моҳият касб этади деган тасаввурлар натижасида марҳумнинг кийимлари, уни ювиш учун иситилган сувга нисбатан алоҳида сакрал муносабатлар мавжуд. Карманаликларда узоқ вақт фарзанд кўрмай юрган келинчакни “дафн маросимида ўлик чилла тушган” деб, марҳумни поклаш учун иситилган сувдан олиб, келин-куёв чўмилса, ўлик чилладан воқиф бўлади,-деган ирим қилинган ва ишонч хосил қилган.

Мотам маросимида марҳум ётган кўрпаларни бир сутка далада ёйиб қўйиб, “юлдуз кўрсин”,-деб ирим қиладилар. Кетма-кет ўлик бўлган хонадонда тобутни олиб кетадиган вақт “тобут ортидан тош отиш” ирими мавжуд. Мазкур ирим тобутни бошқа шу хонадонга қайтмаслигини ният қилганликни англатади.

Мотам маросимига иштирок этиб келган шахс бошқа хонадонга бормасдан, уйга келиши лозимлиги, чунки, “борган хонадонида басталик тушиши мумкин”,- дейилади. Халқимизда чиллалик чақалоқ ва келин-куёвнинг уйига бостириб кирмаслик, кўришмасдан туриб қўл-юзини ювиш каби иримлар қадимдан маданий ҳаётимизга сингиб кетган. Қадим аждодларимиз онгимиз қобиғидан ташқарида содир бўладиган сирли воқеа-ҳодисаларнинг моҳиятини билишга интилишлари оқибатида ирим-сиримларни ўйлаб топишган. Ҳар қандай иримнинг моҳиятида ҳам мифологик табу туради. Шунинг учун таъзияли хонадондан чиқиб келган кишига бемор кишини зиёрат қилиш, қўл-юзини

[1] Соколова З.П. О некоторых погребальных обрядах северных хантов и манси // Этнография народов Алтая и Западной Сибири. Новосибирск, «Наука», 1978. С. 169 – 175.

[2] Qayumov O., Qayumova G. O‘zbek sehrli marosimlari folklori. – Moldova: GlobeEdit. 2024. – B.18.(61 b)

[3] Сагалаев А.М., Октябрьская И.В. Традиционное верование тюрков Южной Сибири. Знак и ритуал. – Новосибирск: Наука, 1990. – 200 с.

ювмасдан ёш бола ёки чиллали келиннинг уйига кириш мумкин эмас. Мазкур тақиқ “ёвуз руҳларнинг мотам маросими жараёнида иштирокчиларга чирмашиб олиши мумкин”,- деган анимистик мифологик тасаввур оқибатида келиб чиққан.

Хуллас, ўзбек халқида мотам маросимлари марҳумни ўзга оламга кузатишга бағишланганлиги билан сакрал моҳият касб этади. Шунинг учун мотам маросимлари жараёнида амал қилинадиган иримлар ўзга олам вакиллари саналмиш ёвуз рўҳлар хуружидан асранишга қаратилганлиги билан ажралиб туради. Мотам маросимида амал қилинадиган иримларнинг ёвуз руҳлардан сақланишга қаратилиши айни шу маросим жраёнида нафақат марҳум, балки маросим иштирокчиларининг кўпчилиги ўзга олам вакиллари билан тўқнашишлари мумкин деб тахмин қилиниши натижасида ўзларини ташқи олам вакиллари қутқиларидан асраш мақсадида пайдо бўлган.

O‘ZBEK ADABIY TILINING KAMOLOTIDA ALISHER NAVOIYNING O‘RNI

Jumayev Zafar,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Alisher Navoiy o‘zbek va fors tillari leksikasini qiyoslash uchun tabiat manzaralari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, ov jarayoni, hayvon va qushlarning turlari kabi juda ko‘p sohaga oid yuzlab so‘zlarni keltirib, bu so‘zlarning muqobalasi forschada yo‘qligini, forslar ko‘pincha o‘sha o‘zbekcha so‘zlarning o‘zini ishlatishlarini ta’kidlab, o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida har tomonlama ko‘rsatgan. Maqolada o‘zbek adabiy tilining kamolotida Alisher Navoiyning tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: turkiy til, forsiy til, o‘zbek adabiy tili, til kamoloti, nutq, sinonim, muqobil.

O‘zbek adabiy tilining sohir so‘z ustasi Alisher Navoiyning adabiy merosi ma’naviyat va adabiyot uchun qanchalik muhim o‘rin tutsa, lisoniy merosi tilshunoslik ilmi uchun ham shunchalik mo‘tabardir. Ulug‘ shoir o‘z davrining daho mutafakkiri, til va nutq olamining benazir bilimdoni sifatida ikki xil tuzilish va yaratish tamoyillariga ega bo‘lgan turk-o‘zbek va fors-tojik tillarini qiyoslab “Muhokamat ul- lug‘atayn” asarini yaratdi. Turk-o‘zbek tilining ma’no, mazmun, so‘z, so‘zning ma’no nozikliklari va turlari, so‘z qo‘llash mahorati borasidagi qiyoslar va o‘ziga xosliklar asarning muhim xususiyatidir. Turk-o‘zbek tilining kamolotini namoyon qilish – asarning bosh maqsadi.

Asarda turkiy-forsiy tillar qiyosi oddiy muhokama orqali emas, balki muayyan lug‘aviy birliklar sinonimik qator hosil qilishi bilan tahlil etilgan. Har bir so‘zning ma’no nozikligiga alohida e’tibor bilan qaralgan. “Muhokamat ul-lug‘atayn” da fors-tojik tilidagi **giryand – yig‘lamoq** fe’lining quyidagi muqobillari borligini Alisher Navoiy uqtiradi:

Zohid ishqin desaki, qilg‘ay fosh,
Yiq’lamsinary ko‘ziga kelmas yosh.

Shoir tavsificha “… oshiqlikdin yig‘lamoqdin kulliyroq va doimiyroqamr yo‘qtur va anda tanavvu` bor, yig‘lamsinmoq mazmunida”. Belgining eng kamligi **yig‘lamsinmoq** so‘zi bilan ifoda etilgan. **Yig‘lamoq** fe’lining kuchliroq belgisi turkiy tilda **ingramoq** va **singramoq** so‘zlariga yuklatilgan.

Istasam davr ahlidin ishqimni pinhon aylamak,
Kechalar gah ingramakdurodatim, gah singramak.

“… va **ingramoq** va **singramoq** dard bilan yashurun ohista yig‘lamoqdur va oralarida tafovut oz topilur ”. “Forsiyda bu mazmunkibo‘lmag‘ay, shoir ne chora qilg‘ay? Va **siqtamoqkim,** yig‘lamoqda mubolag‘adur **”** :

Ul oyki, kula-kula qirog‘latti meni
Yig‘latti meni demayki, siqtatti meni.

Belgining yanada ortiqligini ifodalash uchun Alisher Navoiy o‘kurmak so‘zidan foydalanadi:

Ishim tog‘ uzra har yon ishq selobini surmakdur,
Firoq oshubidin har dam bulut yanglig‘ ukurmakdur.

“Chun o‘kurmak mubolag‘asida forsiy tilda lafz yo‘qtur…“

Deya, shuningdek **inchkirmak** fe’lini shu fe’lning sinonimi sifatida qo‘llana olinishini shoir ta’kidlaydi.

Charx zulmidaki, bo‘g‘zumni qirib yig‘larmen,
Igirur charx inchkirab yig‘larmen.

Va yig‘lamoq fe’lining eng yuqori belgisi **hay-hay yig‘lamoq** so‘zi orqali ifoda etilgan.

Demak, yuqorida fe’llar qatori quyidagi paradigmani hosil qiladi: yig‘lamoq- yig‘lamsinmoq, ingramoq- singramoq, siqtanmoq, ukurmak- inchkirmak, hay-hay yig‘lamoq. Ruhiy holat **yig‘lamsinmoq**dan **hay-hay yig‘lamoq** tomon o‘sib boradi. Bu bilan she’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy forsiy tilda mavjud bo‘lmagan turkey so‘zlarni qiyoslash bilan birga, harakat va holatning darajalanishini ham nazardan chetda qoldirmagan. Bunday darajali ziddiyatni tashkil qiluvchi paradigmalarni “Muhokamat ul-lug‘atayn”dan k o‘plab topish mumkin. Har bir so‘zning qudrati, o‘zbek adabiy tilining ma’no nozikligini teran his qilgan ulug‘ shoirning bu yo‘nalishdagi xizmatlari tillarni qiyosiy o‘rganish, jahon tilshunosligida yangilik sifatida targ‘ib qilinayotgan ayrim lisoniy hodisalarning VI asr muqaddam e’tirof etilganligining yorqin dalilidir.

AJDAR OBRAZINING MIFOLOGIK XUSUSIYATLARI

D.O.Fayziyeva,
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o‘qituvchisi, f.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ajdar obrazining ginezisi va badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Abstract: This article discusses the genesis and artistic features of the image of the dragon.

Аннотация: В данной статье рассматриваются генезис и художественные особенности образа дракона.

Kalit so‘zlar: Ajdar, mifologik, totemizm, sinkretik, Chjou yozma yodgorliklari.

Key words: Dragon, mythological, totemism, syncretic, Zhou written monuments.

Ключевые слова: Дракон, мифология, тотемизм, синкретизм, письменная память о Чжоу.

Ajdarho - ilon obrazi zaminida tashkil topgan mifologik obraz. Binobarin, tashqi ko‘rinishi afsonaviy tasvirga ega bo‘lgan va totem sanalgan ilonsifat jonzotlarning atributlari ezgulik ato etuvchi ajdarho obrazida umumlashtirilgan. Shuning uchun totemizm izlari saqlanib qolgan folklor namunalarida u jonivor ko‘rinishiga ega bo‘lgan homiy kuch sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ajdar-ilon dunyo xalqlari mifologiyasida asosan ikki xil ko‘rinishda: ezgulik va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Afrika, Osiyo, Avstraliya qit’asida joylashgan mamlakatlarda yashovchi ko‘pgina xalqlar mifologiyasida ajdar ijobiy obraz sifatida talqin etiladi. Bu xalqlar folklorida saqlanib qolgan miflardagi ajdar obrazi ezgulik timsoli, muqaddas homiy, faoliyati xayrli va savob ishlarni bunyod etishga qaratilgan xayoliy personaj sifatida namoyon bo‘ladi. U Qayri oddiy qudratga ega bo‘lgan, mahobatli mifik jonzot ko‘rinishida tasvirlanadi.

Chin (Xitoy) mifologiyasida katta e’tiborga ega bo‘lgan ajdar obrazi aslida eng qadimgi totemik qarashlaridan biri sifatida yuzaga kelgan va ilohiylashtirilgan. Ba’zi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, qadimgi xitoy mifologiyasida ajdar obrazi keng qo‘llanilishining sababi bir vaqtlar u Sya qabilasining totemi hisoblanganligidir. Bu qabila asotirlari esa keyinchalik butun Xitoy madaniyatiga asos bo‘lgan.

Xitoy mifologik afsonalarida tasvirlangan ajdar o‘z mohiyatiga ko‘ra sinkretik obrazdir. Bu personaj kamida to‘qqiz xil ko‘rinishni o‘zida birlashtiradi. Uning kallasi tuyaniki, bo‘yni ilonniki, tirnog‘i burgutniki, yelkasidagi tig‘simon bo‘rtmalari karp balig‘iniki, oyoqlari yo‘lbarsniki, quloqlari sigirniki, shoxlari kiyikniki, ko‘zlari shaytonniki, qorni chig‘anoqnikiga o‘xshash holda tasvirlangan. Ajdarho Qayri tabiiy, ya’ni turli xil jonzotlar haqidagi xalq qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan mifologik jonzot - ezgulik timsoli sifatida tasvirlangan. Bu xayoliy-mifologik jonzotning har bir a’zosi alohida vazifani bajaradi.

Olimlarning fikricha, ajdar qiyofasiga xos sinkretiklik bu obrazning mifologik asosi qabila totemlarining birlashtirilgan umumiy obrazidan tashkil topganligi va bu obraz qadimda qabilalarning muqaddas kulti hisoblanganligi bilan belgilanadi. Shubhasiz, bu obraz o‘zida boshqa jonivorlarga xos xususiyatlarni yaxlit holda birlashtirib, yagona timsol sifatida muqaddaslashtirilgangan.

Demak, qadimgi Xitoy mifologiyasida muqaddas jonivorlarga xos belgilarni tashigan va o‘zida umumlashtirgan ajdar yaratuvchi vazifasini ham ado etgan.

Ajdar obrazining tarixiy ildizlarini yoritgan A.M.Reshetov o‘z maqolalaridan birida «hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, bu obraz Xitoy madaniyati bilan bog‘liq hamma narsalarning ramzi hisoblangan», -deb yozganida ham ana shu fikrni nazarda tutgan ko‘rinadi.

Xitoydan topilgan Chjou madaniyatiga oid arxeologik yodgorliklarda ajdar ustida turgan laylak hamda bosh tomoni qushga o‘xshash, ikkinchi tarafi ajdarsifat afsonaviy maxluq obrazi tasvirlangan. Bundan tashqari, Chjou yozma yodgorliklarida ham ajdar to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Xitoy mifologiyasidagi eng qadimiy obrazlardan biri - yaratuvchi qahramon Pangu taxminan miloddan avvalgi III asrda paydo bo‘lgan afsonaviy personaj bo‘lib, miflar talqinicha, uning tanasi ilonnikiga o‘xshagan va boshi ajdarniki singari bo‘lgan. Demak, ajdar qiyofali Pangu obrazi asosan, ilon bilan bog‘liq e’tiqodlar zamirida tashkil topgan. Shuning uchun ham uni ajdar obraziga xos xususiyatlarga ham ega deb tasavvur qilingan. Binobarin, ayrim miflarda ilon ham yaratuvchi sifatida tan olingan. Xitoy miflarida aytilishicha, Pangu o‘lgach, uning jasadi janubiy dengizga dafn qilingan emish. Shundan keyin bu yer Pangu davlati deb atala boshlangan hamda shu joyda yashovchilar tasavvurida ajdar, shubhasiz totem deb talqin qilingan.

Xitoy mifologiyasi va mumtoz adabiyotida ajdar obrazining badiiy talqiniga keng o‘rin berilishi uning chinliklar hayoti va madaniyatida katta ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Qadimgi xitoyliklarning mifologik e’tiqodlarga ko‘ra, ajdar obrazi ilohiylashtirilgan hamda unga daryo va ko‘llar xudosi sifatida qaralgan. Oilaviy-maishiy marosimlarda turli xil ramziy - ritual raqslar va aytimlar vositasida ajdarni chaqirib, xonadonlariga tinchlik, baxt ato etishini tilaganlar. U homiy sifatida tasavvur qilingan ajdar timsoli paydo bo‘lishi uchun, marosimni boshqarib turgan shaxs shamlarni yoqib, maxsus idishlarga ajdarning tanasiga o‘xshatib guruchdan pishirilgan taom solib chiqqan. Uning usti ajdar ramzi tushirilgan tangalar bilan qoplangan. O‘tirganlar guruchni terib yeyishgan va tangalarini yig‘ib olib, yonlarida avaylab olib yurishgan va uni magik xususiyat kasb etuvchi ramziy vosita sifatida e’zozlaganlar.

MA’NO TUHFASIDAN IBORAT KISHVAR

Xudoyorova Munira,
NavDPI dotsenti.

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy qit’alaridagi tasavvuf maslagi bilan bog‘liq tushunchalar tahlilga tortilgan.Tahlil jarayonida bu istilohning qit’a janrining poetik jihatidagi o‘ziga xosligiga,Navoiy shaxsiyatini kengroq mushohada etishga imkoniyat yaratganligiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: fano,foniylik,faqr,solik;

O‘zbek mumtoz adabiyotida har bir lirik janr o‘zining tabiati,qonun-qoidalari va albatta mavzu ko‘lamiga ko‘ra farqlanadi. Alisher Navoiy ijodi ana shu lirik janrlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan ham qadrli.Ayniqsa,qit`a janrining mumtoz adabiyotimizda janr sifatida o‘zining qat`iy kanoniga ega ekanligini,shakl,timsol,mavzu va badiiylik nuqtai nazaridan boshqa lirik janrlardan aslo qolishmasligini o‘z ijodidagi qit`alari bilan to‘la isbotlab berdi. Shoir qit`alari tahliliga bag‘ishlangan barcha tadqiqotlarda bu jihat alohida ta’kidlangan. Shoirning o‘zi esa “Badoyi’ ul-bidoya” devoni debochasida “barcha latofatomiz va nofi’ muqattaot”-deb ta’rif bersa,shu janrdagi asarida mana bunday baho beradi:

Mundoq muqattaotkim,men yig‘misham,erur,
Har biri hadiqai xirad aylar uchun farog‘.
Majmuin o‘yla kishvare anglaki,sathini
Hikmat suyidin aylamisham qit`a-qit`a bog‘[1]

Darhaqiqat,Navoiy qit`alarini yaxlit holda aql,fikr,ma’no tuhfasidan iborat bir kishvar deb tasavvur etadigan bo‘lsak,uning sathini shoir hikmat va donolik suvi bilan sug‘orilib ko‘kartirilgan bo‘lak-bo‘lak bog‘ va gulshanga aylantirgandir. Shuning uchun ularda mavzular ham turkum-turkum bo‘lib ajraladi.Tasavvuf tushuncha va haqiqatlari talqin etilgan qit`alarni shunday turkumlardan biri deyish mumkin deb o‘ylaymiz. Bunday she’rlarning soni esa “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida ko‘proqdir.Ulardan bir nechtasi tasavvuf va hayotning asosiy,ayni paytda murakkab masalasi fano haqidadir.

Kimki o‘zluk imoratin buzdi,
Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi,
Ul imoratni buzmayin solik
Bo‘la olmas bu naqdg‘a molik.[2]

[1] Alisher Navoiy.To`la asarlar to`plami.10 jildlik.4-jild.Xazoyin ul-maoniy.Favoyid ul-kibar.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013,732-bet.

[2] Alisher Navoiy.To`la asarlar to`plami.10 jildlik.1-jild.Xazoyin ul-maoniy.G`aroyib us-sig`ar.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013,719-bet.

Bu satrlarda tariqat yo‘lchisi,ya’ni solikda erishilishi zarur bo‘lgan shart- “o‘zlik imorati”ni buzishga da’vat etilgan.Bunday “imorat”ni vayron etish esa nafsni qiynash va yengish ekanligini tasavvuf sirlaridan xabardor kishilar yaxshi anglashgan.Shuningdek,sayri suluk tajribalaridan voqif tolib yo murid “foniyi mutlaq”lik va “maqsadi kull”- katta maqsadga tegishli quyidagi fikr mazmunini oson anglagan:

Foniyi mutlaq o‘lmayin solik,
Anga yo‘qtur umidi maqsadi kull.
Qora tufroqg‘a sinmagan qatra,
Andin imkoni yo‘q ochilmoq gul.[1]

Fano va fanovashlikning bir talabi tark holiga yetishish,ya’ni mosivodan kechishdirki,tariqat tili bilan bunga kasbi kamol deyilgan.Navoiy “Navodir ush-shabob”dan o‘rin olgan tarkibbandda:

Ey falak,aytkin ul soliki atvor qani,
Faqr atvori aro koshifi asror qani?
Tashlab o‘zlukni fano bodiyasin qat’ etgan,
Ushbu yo‘l holidin ogoh-u xabardor qani?[2] - deydi.Faqri fano kashfi esa Ollohga qullik maqomiga yuksalishdirki, “mundin o‘zga tama’i kasbi kamol aylamangiz”, degan xulosani bildiradi Navoiy.Va botinan mosivodan to‘la-to‘kis forig‘ bo‘lmaslikni hammomga kirib nopok chiqishga qiyoslaydi.

Kamol et kasbkim,olam uyidin
Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.[3]

O‘zlikdin kechib ma’naviy hurlik va komillik bosqichiga ko‘tarilish o‘z-o‘zidan erishiladigan ish emas.Bu yo‘lda ranj va riyozatdan judo iste’dod va bilimga ega murshidi komilning rahnamoligi zarur:

Ey ko‘ngul,tan taxtasin bu qa’ri yo‘q girdobdin
Istasang sohilg‘a chekmak,bilki,bu oson emas,
Piru iste’dod-u tavfiq o‘lmasa bo‘lmas bu ish,
Kimdururkim bag‘ri bu hasratdin oning qon emas?[4]

Ishq va ma’rifatda zo‘r yutuqlarni qo‘lga kiritganlar ayni paytda ilohiy fayzga sohib zotlar hisoblanib,ularga orif deyilgan.Tasavvufga bag‘ishlangan asarlarda ham, tasavvuf adabiyotida ham orif to‘g‘risida takror-takror so‘z yuritilgan.[5] Navoiy esa orif dengizga o‘xshatilgan qit’asida uning bir muhim xususiyati - sukut odobi va ehtiyojini chuqur his qilib,unga rioya etishdan so‘zlaydi:

Erur orifqa ganji fayz yetsa,
Ishi dam urmayin ani yoshurmoq.
Quyosh aksi tushib daryo ichinda,
Ne mumkindur aning suyin toshurmoq.[6]

Ma’rifat va orif to‘g‘risida Navoiy boshqa asarlarida, masalan, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Lison ut-tayr”da ham gapiradi.Lekin ularning hech biri oriflik mohiyati va orif obrazini yuqoridagi misralar qadar aniq va teran tarzda yoritib berolmagan desak, xato qilmasak kerak.

Navoiy bir g‘azalida “Tengri Razzoq keldi ro‘ziy uchun aylama o‘zni xalq aro muhtoj”deya orifona ko‘rsatma beradi.Bu ayni paytda qanoatli bo‘lish,Odam qavmidan hech birovga muhtojlik sezmaslik uchun boshga qanoat tojini kiyishga chorlov hamdir.Navoiy o‘zi mansub bo‘lgan naqshbandiylik yo‘lini “Qanoat naqshining ifshosi-yu naqshbandiya tariqining adosi” deb nomlagan qit’asida “qanoat tariqi”deya ta’riflaydi va uning ta’lim-tarbiya tizimida sir saqlanganini birma-bir izohlab beradi:

Qanoat tariqig‘a kir,ey ko‘ngul,
Ki,xatm o‘lg‘ay oyini izzat sanga.

---

[1] Alisher Navoiy.To`la asarlar to`plami.10 jildlik.1-jild.Xazoyin ul-maoniy.G`aroyib us-sig`ar.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013,706-bet.

[2] Alisher Navoiy.To`la asarlar to`plami.10 jildlik.1-jild.Xazoyin ul-maoniy.Navodir ush-shabob.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013,677-bet.

[3] Alisher Navoiy.To`la asarlar to`plami.10jildlik.1-jild.Xazoyin ul-maoniy.G`aroyib us-sig`ar.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013,710-bet.

[4] Alisher Navoiy.To`la asarlar to`plami.10jildlik.1-jild.Xazoyin ul-maoniy.G`aroyib us-sig`ar.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013,707-bet.

[5] Qarang:Komilov N.Tasavvuf.Toshkent.2009; Murodova D. “Orif obrazi haqida mulohazalar ”//O`zbek tili va adabiyoti.2003.2-son; Haqqul I.Irfon va idrok.Toshkent.1998;Shabustariy M.Gulshani roz. Jamol Kamol tarjimasi.Toshkent.2013.

[6] Alisher Navoiy.To`la asarlar to`plami.10jildlik.2-jild.Xazoyin ul-maoniy.Navodir ush-shabob.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013,687-bet.

Desang shoh o‘lay yer-u ko‘k basdurur,
Bu bir taxt-u chatri rif’at sanga.
Fano shu’lasida yoshur jismni,
Kerak bo‘lsa zarbaft xil’at sanga.
Yetar lola butkan qoya qullasi,
Murod o‘lsa gulgun hashmat sanga.
Erur bas arig‘ nuktavu qon yoshing,
Dur-u la’ldin zeb-u ziynat sanga.
Desang xilvatim anjuman bo‘lmasun,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.
Vatan ichra sokin bo‘lib soyir o‘l,
Safardin agar bo‘lsa mehnat sanga.
Nazarni qadamdin yiroq solmag‘il,
Bu yo‘l azmi gar bo‘lsa rag‘bat sanga.
Damingdin yiroq tutmag‘il hushni,
Ki yuzlanmagay har dam ofat sanga.
Bu to‘rt ish bila rub’i maskun aro,
Chalinmoq ne tong ko‘si davlat sanga.
Bu ohang ila bo‘lg‘asen naqshband,
Navoiy, agar yetsa navbat sanga.[1]

Ushbu qit’a qator ustoz navoiyshunoslar, jumladan, akademik A.Qayumov, professorlar O.Usmonov, N.Komilov, I.Haqqul, S.Olim kabilar qatori bir necha xorijlik tadqiqotchilar tomonidan ham sharh va talqin qilingan.Biz ulardan oshirib, albatta,bir nima deyolmaymiz.Ammo she’rda boshdanoq ma’naviyni moddiydan(fano shu’lasida yoshur jismni kerak bo‘lsa, zarboft xil’at sanga),moddiyni ma’naviy holatdan ustun qo‘yib (Yetar lola butkan qoya qullasi murod o‘lsa gulgul hashmat sanga) naqshbandiylikning to‘rt asosiy shart va talablarini sharhlanishi o‘quvchini baytlarning ham zohiriy,ham botiniy ma’nolari ustida keng mulohaza yuritishga majbur qiladi.

Mana:

Vatan ichra sokin bo‘lib soyir o‘l,
Safardin agar bo‘lsa mehnat anga.

Albatta,inson o‘z vatanidan boshqa yurtlarga safar etganida har turli qiyinchilik, og‘ir yo yengil mashaqqatlarga yuzlashadi.Shuning uchun naqshbandiylikda moddiy manfaat ,dunyoviy huzur-halovatlarni ko‘zlab safarga otlanish uncha qo‘llab-quvvatlanmagan.Ular safar dar vatan deyilganda insonning yomon xulq,bashariy sifatlardan go‘zal axloq va malokiy sifatlarga safar aylab,xulqiy komillikka yetishishni nazarda tutishgan,xalqdan Haqqa safar deb ham qaralgan va odamni hoy-u havas,shahvat va tuban orzulardan butkul xalos qiladigan ushbu sayri sayohatga “safari sano” ham deyilgan.

“Hush dar dam” tushunchasining talqini berilgan:

Damingdin yiroq tutmag‘il hushni,
Ki yuzlanmagay har dam ofat sanga.

Baytidan ko‘zlangan maqsad va haqiqat esa yanada chuqur holda ibratlidir. Hush-aql,dam-nafas.Agar inson har bir nafasini aql-idrok bilan boshqarib, g‘aflatdan muhofaza eta bilsa, u o‘zini har turli ofatdan asray oladi. Naqshbandiylikdagi shu tajribada suyanib “Hayrat ul-abror”da hech narsaning qadri nafaschalik yo‘qligi, har nafasning holidan ogoh bo‘lib yashash zarurligini ta’kidlab deydi:

Jon bila sen to nafas imkoni bor,
Qadrini bilgilki,nafascha ne bor.
Har nafasing holidin ogoh bo‘l
Balki anga hush ila hamroz bo‘l…

Tariqatda nafas bilan birlikning kamoli tajrid va tafrid holida deb qaralgan. Navoiy yozadi:

Ey Navoiy,anglakim, xush olamedur fardliq,
Gar quyosh vaslin tilarsen, fard bo‘l zarrotdin.
Ul emastur fardliqkim, juftdin fard o‘lg‘asen,
Fard uldurkim,mujarrad bo‘lg‘ay har zotdin. (6,513)

Fard, fardlik so‘ziga lug‘atlarda yolg‘iz, yakka, kimsasiz, ajralgan mazmunda izoh berilgan.Navoiyga ko‘ra fardlik xush bir olam Olloh diydoriga talabgor kishi har zarradan yiroqlasha olishi

[1] Alisher Navoiy.To`la asarlar to`plami.10jildlik.1-jild.Xazoyin ul-maoniy.G`aroyib us-sig`ar.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013,708-709-betlar.

lozim.Biroq bu oila qurishdan kechib juftlikdan ham qochish degani emas.Tasavvuf istilohida “tafrid mamluk bo‘lmoq,ya’ni Haqning shaniga mos kelmaydigan sifatlardan kechish va Uni toq,qiyossiz Tangri o‘laroq ko‘rishdir ”[1]

Xullas,Navoiy ijodiyotining tasavvuf ta’limoti bilan bog‘liqligi,tasavvufiy g‘oya, ma’no va timsollardan foydalanish tadqiqi sobiq sovet davridagiga nisbatan tasavvur etib bo‘lmas darajada kengaydi va kuchaydi.Navoiyning tasavvufga munosabati va qiziqishi adabiy janrlarning g‘oyaviy-badiiy talab,imkon,nazariy qonun-qoidalariga ham aloqador bo‘lganligini uning qit’alari misolida ham kuzatish mumkin.Navoiy qaysi janrda,qanday ma’noni yoritmasin hamisha majozni haqiqatga xizmat ettirgan va oxiratni bu dunyoga qarshi qo‘ymagan.

ALISHER NAVOIY “XAMSA”SI GERMENEVTIKASI

Quvonov Zarif Omonboevich,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Milliy mustaqillik Alisher Navoiy ijodiyotini keng qamrovda tadqiq etish imkonini berdi. Alisher Navoiy “Xamsa”sining g‘oyaviy-badiiy olami, an’ana va ijodiylik, o‘zaro ta’sir va san’atkorlik, syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi, genezisi, tipologik jihatlari, janr, vazn, uslub masalalari bilan bir qatorda, asarning germenevtik jihatdan o‘rganishi adabiyotshunos Aftondil Erkinov tadqiqotlari misolida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: germenevtika, matn, tahlil, tadqiq, poetika, lug‘at, minatyura.

Abstract: National independence made it possible to research Alisher Navoi’s art in a wide scope. The ideological-artistic world of Alisher Navoi’s “Khamsa”, tradition and creativity, interaction and artistry, plot and composition, system of images, genesis, typological aspects, along with issues of genre, weight, style, hermeneutic study of the work, studies of literary critic Aftondil Erkinov analyzed in the example.

Key words: hermeneutics, text, analysis, research, poetics, vocabulary, miniature.

Hazrat Navoiy “Xamsa”siga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan, bu beshlik haqli ravishda jahon adabiyotining nodir badiiy durdonasi sifatida tahlil va tadqiqi munosibdir. “Navoiy “Xamsa”si o‘z davrida eng mashhur asarlardan biri bo‘lganligi, uning leksik qatlami tadqiqi o‘sha davrdayoq boshlanganligi, Navoiy hayotligi davrida ko‘chirilgan nusxalar jahon kutubxonalari fondida eng ko‘p saqlanadigan nusxalardan ekanligi Navoiyning zamondosh shoirlar ijodiga ta’sirini eng avvalo xamsachilik an’analari bilan bog‘liq holda tekshirishni taqozo etadi” [2].

Milliy mustaqillik Alisher Navoiy ijodiyotini keng qamrovda tadqiq etish imkonini berdi. Bu borada shoir asarlarining mukammal matnlarini yaratish, janr xususiyatlari, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiyasi, uslubi va tasviriy vositalarini o‘rganish sohasida katta yutuqlarga erishilganini e’tirof etish mumkin. Navoiy asarlaridagi diniy-irfoniy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar, asarlari g‘oyaviyligini biror ijtimoiy maslakka ko‘ra emas, badiiy barkamolligi o‘laroq talqin va tadqiq etish imkoni yaratildi. Ilg‘or adabiyotshunoslik mezonlariga tayangan holda shoir asarlarini tahlil va talqin etish yetakchi xususiyat kasb etmoqda.

Alisher Navoiy asarlarining o‘rganilish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, “Abushqa”, “Sangloh”, lug‘atlaridagi talqinlarda, “Xamsa” dostonlari asosida Umar Boqiy, Mahzun, Mulla Siddiq Yorkandiyning nasriy qissalarida, keyingi asrlarda, ayniqasa, XX asr boshlaridan bugungacha navoiyshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlarda sharh, matn tahlili va talqinining ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan. Adabiyotshunos Aftondil Erkinovning Navoiy “Xamsa”sining talqin manbalariga bag‘ishlangan tadqiqoti mumtoz adabiyotshunosligimizda, jumladan Navoiy ijodiyotini germenivtik jihatdan o‘rganilgan ishlardan biri. “Germenevtik tahlilni o‘zbek adabiyotshunosligiga olib kirgan adabiyotshunos olim Aftondil Erkinov bo‘ldi, –deb yozadi M. Abdulxayrov. Mazkur matniy tadqiq etish usuli matnshunos olimlar tomonidan o‘z davrida ham ijobiy baholandi. Keyinchalik ham badiiy asar matnini o‘rganishda bu usuldan keng miqyosda foydalanildi”[3]. Hozirgi o‘zbek matnshunosligida germenevtikaning muhim ahamiyat kasb etishi e’tirof etilmoqda. Mazkur tadqiqotda olim Alisher Navoiy “Xamsa”si talqini muammolari sifatida badiiy matn

[1] Go`zal Ahmad Yassaviy “Faqrnoma”si.Toshkent, 72-bet.

[2] М.Муҳиддинов. Навоийдан кейин «Хамса» яратилмаганми? // https: // zarnews. Uz / post / navoiydan - keyin-xamsa-yaratilmaganmi

[3] Абдулхайров М. Навоий асарлари матни табдилини амалга ошириш усуллари, тамойиллари ва амалий масалалари. Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Тошкент. 68-бет.

talqiniga doir nazariy qarashlarni, islom mintaqasida adabiyot talqini masalasi (tasavvuf ta’limoti, tavsir va sharh), “Xamsa” talqini muammosi va manbalari (buni, ya’ni manbalarni olim uchga bo‘ladi: 1) muallifning o‘zi (Navoiy), 2) zamondoshlari (Jomiy, Husayn Boyqaro, Xondamir), 3) keyingi davr kishilari (Bobur va boshq.); manbalarga esa Navoiy “Xamsa”si, tazkira, tarixiy va ilmiy asarlar lug‘at, xalq kitoblari va boshq.), Navoiy va Abdurahmon Jomiy “Xamsa”si bilan bog‘liq talqinlar, “Xamsa”ning badiiy, ilmiy, tarixiy asarlardagi talqini va uning turli qo‘lyozmalardagi talqiniy manbalariga ko‘ra o‘rganadi.

Aksariyat manbalarda matnni talqin qilish nazariyasi sifatida e’tirof etiladigan germenevtika, tom ma’noda juda keng doirada qo‘llaniluvchi sohalararo ta’limotdir. Chunki, ma’noni talqin qilish, tushunish, tushuntirish, izohlash, sharhlash kabi hodisalar falsafa, tarix, psixologiya, filologiya, san’atshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarning asosini tashkil qiladi. Dastlab – “ruh haqidagi fanlar metodologiyasi” deya e’tirof etilgan germenevtik metodologiya bugun o‘zining keng qamrovli (ya’ni, ham ratsional, ham irratsional (divinatsion)) xususiyati bilan o‘ziga xos tafakkur tarzini shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, obrazli tafakkurni rivojlantirib, tanqidiy va tahliliy mulohaza qobiliyatini kuchaytirishda ramziy ifodalar genezisi, belgi va tasvirlar mazmunini germenevtik metodologiya asosida o‘rganish muhim. Bu usul ikki tushunchani o‘zida mujassam etgan: 1) matn talqini nazariyasi va amaliyoti; 2) zamonaviy falsafadagi oqim. Demak, badiiy asarni matniy tadqiq etishning yana bir usuli germenevtika deb nomlangan. U yozuv yodgorliklar matnining tagma’nosini ochish usuli bo‘lib, hozirgacha muayyan o‘zgarishlar bilan yetib kelgan qadimgi matnlarning dastlabki ma’nosini qayta tiklashga qaratilgan bir ta’limot hisoblanadi. Shuningdek, u o‘tmishda yaratilgan yozma yodgorliklarning haqiqiy, asl matnini tiklashga va uning mumtoz adabiyotimiz tarixidagi o‘rni, ahamiyatini ko‘rsatib berishga qaratilgan matniy tadqiqot usullari majmuini tashkil etadi.

Matn talqini nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liq germenevtika, o‘z navbatida, talqin etish san’ati hamdir. Badiiy matn talqini bilan shug‘ullanuvchi germenevtika esa adabiy germenevtika, deb ataladi. U qadimiy matnlarning asl ma’nosini ochish usul va yo‘llari hamda o‘zgarishga uchrab yetib kelgan adabiyot namunalari ma’nosini tiklashga qaratilgan ta’limotdir.

XIX asr G‘arb germenevtikasida qo‘llangan zarurat va tasodif, butun va qism, shakl va mazmun, miqdor va sifat, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, xususiylik va umumiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, ratsionallik va irratsionallik, mohiyat va hodisa kabi kategoriyalar Sharqda ming yil oldin, sharh ilmining dastlabki namunalaridayoq amalda qo‘llangan edi. Keyinchalik bu tajriba asarlardan asarlarga o‘tib, to bugungacha ta’sirini yo‘qotmasdan, lozim darajada o‘z funksiyasini bajardi va bajarmoqda[1].

Navoiyshunoslik yangicha tahlil va tadqiqlarga ehtiyoz sezmoqda. Aftondil Erkinov to‘g‘ri qayt etganidek, “Inson yangi sharoitda o‘z xarakterining yangi qirralarini namoyon qilganidek, badiiy matn ham turli yondashuv asosida yangi mazmun kasb etib boradi”[2]. Yaqin o‘tmishda yaratilgan aksar tadqiqotlar muayyan tuzum talablariga bo‘ysundirildi. Lekin navoiyshunos olim A. Hayitmetov ta’kidlaganidek, “aksariyat hollarda, Navoiy ijodini siyosiylashtirib talqin etib keldik... Yaqin o‘tmishdagi tadqiqotlarda hukmron mafkura belgilab bergan metodologiya ta’siri aniq sezilib turadi. Biroq o‘sha davr navoiyshunosligida qo‘lga kiritilgan yutuqlardan ko‘z yummasligimiz darkor”[3].

“Bizningcha, germenevtika – talqin nazariyasi va ta’limotini o‘zbek adabiyotiga keng tatbiq etish davri kelgan. Aslida, har bir adabiyotshunos olim o‘z tadqiqotida asar matni talqini bilan shug‘ullanadi, qaysidir darajada germenevtika bilan munosabatga kirishadi, – deb yozadi A.Erkinov. – Biroq olimlarimiz interpretatsiya masalasida muayyan ishlarni amalga oshirgan bo‘lsalar-da, bu atama va falsafiy ta’limot fanimiz uchun nisbatan yangilikdir. Germenevtika ta’limot sifatida G‘arbda shakllangan, biroq o‘zimizda matn talqinining o‘ndan ortiq yo‘nalishlari, jumladan, tafsir, ilmi hoshiya, sharh bitish, miniatyura... kabi talqin bilan bog‘liq mustaqil sohalar avvaldan mavjud bo‘lgan. Germenevtikani o‘zbek klassik adabiyotiga doir manbalarga tatbiq etish, uni zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligiga olib kirish lozim”[4] . “Xamsa”ning germenevtik jihatdan tadqiq qilish asarning matniy strukturasi, nazariy tarixi hamda badiiy barkamolligi, ijodkorning san’atkorlik mahoratini kabi masalalarga oydinlik kiritadi. Germenevtik tadqiq “matnning badiiyligi, emotsionalligi, ta’sirchanligi, tasviriyligi ortida ijodkorning, u tegishli bo‘lgan xalq va umuman insoniyatning fasohati, anglab yetilgan yoki anglab yetilmagan fasohati zamirida, minglab avlodlarning orzu-

[1] Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмийтанқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Филология фанлари доктори диссер., -Тошкент, 2017. 86-бет.
[2] Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV-XX аср боши). Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30-жилдлик. 19-жилд. Тошкент, 2021. 13-бет.
[3] Ҳайитметов А. “Шеърки, ҳам тушти менинг шонима” // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1996 йил, 9 февраль.
[4] Ko`rsatilgan asar, 31-бет.

umidlari, tilaklari, estetik dunyosi, qalb manzaralari tasviri mujassam bo‘ladi. Mana shularning hammasi germenevtikaning badiiy tilga asoslangan matn imkoniyatlari zamirida o‘rin topadi”[1] .

Aftondil Erkinov Navoiy “Xamsa”sining matniy talqinini Sharq adabiyotidagi boshqa shu an’anada yaratilgan asarlar bilan qiyosan o‘rganadi. Jumladan, turk adibi Ahmadiyning (XIV–XV asrlar) “Iskandarnoma” dostonidagi Doro elchilari bilan Iskandar o‘rtasida munozara, tortishuv lavhasini tahlili asosida Ahmadiyning izohi asnosida Iskandar – ruh, Dorob – nafs, kunjut – gunoh, xato, xo‘roz – tavba ma’nosini anglatishi “Ahmadiy asaridagi voqelik, davr ruhi va ma’no tadqiqotchi yoki o‘quvchiga Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonini talqin etishda yordam berishi mumkin”[2], – deb ko‘rsatadi.

Olimga ko‘ra, Sharq adabiyotidagi an’anaviy lavha talqini vositasida shu kabi boshqa an’anaviy lavhalarni ham talqin qilish mumkinligi Ahmadiy dostonida Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni ikkinchi hikoyati – Zayd Zahhob to‘g‘risidagi voqeaning ramziy ma’nolarini yechishga yordam beruvchi yana bir hikoyat tahlili orqali o‘rganishga yo‘l ochadi. Uning mazmuni quyidagicha: Iskandar yangi shahar qurdirib, unga Iskandariya, deb nom beradi. Yangi minora ustiga oinai getinamo o‘rnatadi. Shu o‘rinda hikoyat ichida yana bir hikoyat keltiriladi: Bani Abbos davrida Mag‘ribdan bir farang keladi. Uning tashi mo‘min, ichi kofir bo‘lib, o‘zini yon-atrofdagilarga zohidsifat qilib ko‘rsatadi va odamlar unga ishonadi. Xalq uni imom va karomatgo‘y, deb o‘ylaydi. Lekin u Bani Abbosni aldab minora ostiga oltinlarni ko‘mdirib, bir kechada olib qochib ketadi. Ahmadiy rivoyatdagi o‘zi keltirgan ramzlarni shunday sharhlaydi: yangi qurilgan shahar – vujud, jomi getinamo – ko‘ngil ko‘zgusi, xalifa (Bani Abbos) – nafs, farang – dunyo ziynati. Asarning botiniy ma’nolariga batafsil to‘xtalmay, mazkur hikoyat talqinidan Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi Zayd Zahhob to‘g‘risidagi hikoyat mazmunini sharhlashda, qaysidir darajada, foydalanish mumkinligini qiyosan ochib beriladi[3]. Navoiy “Xamsa”sining XX asrgacha bo‘lgan davrdagi talqini manbalarini tasniflash, bu jarayonda ana shu davrni keyingilaridan ajratuvchi tomonlariga e’tibor qaratiladi. Talqinshunos ta’kidicha: “Biz diqqatimizni qaratgan davr – Navoiy “Xamsa”si yaratilganidan XX asr boshlarigacha bo‘lgan oraliqni masalamiz nuqtayi nazaridan yaxlit bir bosqich sifatida olib o‘rgangandik. Bizning bosh maqsadimiz Sharqona talqinni ko‘rsatuvchi asos – manbalarni aniqlashdan iborat bo‘lgandi. Navoiy “Xamsa”si talqini, har qanday asar talqinida uchrashi mumkin bo‘lganidek, uch xil tomondan talqin etilgan. Bular: a) muallifning o‘zi (Navoiy); b) zamondoshlar (masalan, Jomiy, Husayn Boyqaro, Xondamir); v) keyingi davr kishilari (masalan, Bobur, xattotlar, kitobxonlar, noshirlar va boshqalar). Keyingi ikki guruhni o‘z ichida yana qismlarga ajratish mumkindir. Biroq biz talqinni tashuvchi shaxs va guruhlarni emas, talqiniy informatsiyaga ega manbalar – talqiniy manbalarni o‘rganishga e’tibor qaratish maqsadida bo‘lganmiz”[4]. Aftondil Erkinov bu manbalarni: Navoiy “Xamsa”si, dostonlarning kirish qismidagi fikr-qarashlar, tazkiralar (Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush shuaro” (1486 yili yozilgan) hamda Som Mirzo Safaviy “Tuhfai Somiy” va boshq.), tarixiy asarlar (Xondamirning “Makorim ulaxloq”, Abdulmo‘minxonning “Tom ut-tavorix” va Mir Said Sharif Roqimning “Tarixi Roqimiy” va boshq.), ilmiy asarlar, memuar asarlar (Navoiy “Xamsa”siga doir ko‘plab fikr-munosabat uchraydigan Husayn Boyqaroning “Risolai Husayniy” va Xondamirning “Makorim ul-axloq”), Navoiy “Xamsa”si qo‘lyozmalari, lug‘atlar, nasriy bayonlar, “Xamsa”ga ishlangan minatyuralar kabilarni talqiniy manba sifatida o‘rganadi. Ko‘rinadiki, germenevtik tadqiq matnni til (lingvistik), tarix, hatto san’at (miniatyura) sohasi doirasida tekshirishga yo‘l ochadi.

Aftondil Erkinov Navoiy “Xamsa”si talqini davrini ikki bosqichga bo‘lib o‘rganishni ta’kidlar ekan, ularni XV asrdan XX asr boshlarigacha bo‘lgan bosqich va. XX asr boshidan bugungacha bo‘lgan bosqichga bo‘ladi. Ularning birinchisini shartli ravishda sharqona, keyingisini g‘arbona yondashuv davri, deb ko‘rsatadi. “Ikki bosqich o‘rtasidagi, taxminan, chorak asrlik muddat o‘tish davri hisoblanadi. Bizning bunday klassifikatsiya tuzishimizga talqinlarda mavjud bo‘lgan ikki davrga taalluqli farq, badiiy did va adabiyotshunoslik sababchi bo‘ldi. Bosqichlar xarakteri ta’rifi ularning xususiyatini oydinlashtiradi”[5].

Alisher Navoiy “Xamsa”sining g‘oyaviy-badiiy olami, an’ana va ijodiylik, o‘zaro ta’sir va san’atkorlik, syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi, genezisi, tipologik jihatlari, janr, vazn, uslub masalalari bilan bir qatorda, asarni germenevtik jihatdan o‘rganish, o‘ziga xos poetikasini tadqiq qilish, ijodkor badiiy mahoratini namoyish qiluvchi yetakchi tasviriy vositalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada

[1] Тожибоев М., Юсупова Ш., Бўриева Э. Адабий герменевтика ва мумтоз бадиий тил. – Т.: Университет, 2013. 48-бет.

[2] Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV-XX аср боши). Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30-жилдлик. 19-жилд. Тошкент, 2021. 31-бет.

[3] Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV-XX аср боши). Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30-жилдлик. 19-жилд. Тошкент, 2021. 33-бет.

[4] Ko`rsatilgan asar, 183-бет.

[5] Ko`rsatilgan asar, 38-бет.

navoiyshunoslikda olib borilayotgan ishlar, jumladan adabiyotshunos Aftondil Erkinovning “Xamsa”ning germenevtik yo‘sindagi tadqiqotlari fikrimizni dalillaydi.

ADABIYOTLAR:

1. М.Муҳиддинов. Навоийдан кейин “Хамса” яратилмаганми? // https:// zarnews. Uz / post / navoiydan - keyin-xamsa-yaratilmaganmi
2. Абдулхайров М. Навоий асарлари матни табдилини амалга ошириш усуллари, тамойиллари ва амалий масалалари. Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Тошкент. 252 б.
3. Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмийтанқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Филология фанлари доктори диссер., 86-бет. Тошкент, 2017. 256 б.
4. Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (15-20 аср боши). Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30-жилдлик. 19-жилд. Тошкент, 2021. 360 б.
5. Ҳайитметов А. “Шеърки, ҳам тушти менинг шонима” // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1996 йил, 9 февраль
6. Тожибоев М., Юсупова Ш., Бўриева Э. Адабий герменевтика ва мумтоз бадиий тил. – Т.: Университет, 2013. 160 б.

ИЖТИМОИЙ-МАЪНАВИЙ МУҲИТ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА САЪДУДДИН ТАФТАЗОНИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЎРНИ

М.Норқобилов-
Навоий давлат педагогика институти
Тарих кафедраси доценти

Аннотация. Мақолада буюк мутафаккир Саъдуддин Тафтазоний асарларида келтирилган маънавий-маърифий, сиёсий-ҳуқуқий мавзулар юзасидан жамият ҳаётида пайдо бўлган ижтимоий муаммоларга холис ва оқилона ечим топиш, яъни «ижтиҳод қилиш» масаласи ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар. Мужтаҳид, давлатнинг иқтисодий-маънавий қиёфаси, ақлий тафаккур, давлат бошқарув аппарати.

Маълумки, жаҳон миқёсида ўрганиладиган ҳар қандай билимнинг асосий мақсади инсон фаолиятининг муайян соҳасида юзага келган масалага ечим топишдан иборат бўлади. Билимлар ўзига хос тарзда ғоялар, назариялар, таълимотлар ва бошқа шакллар асосида объектив оламдаги нарса ва ҳодисаларнинг моҳиятини очиб беради. Бу борада ижтимоий ҳаёт маҳсули бўлган умуминсоний урф-одат, қадрият ва билим рационал тафаккур ривожига хизмат қилган.

Шунингдек, «мужтаҳид» олимнинг рационал тафаккурини, яъни шахсий раъйини юксак маҳорат билан ишга солиши натижасида жамиятда ижтимоий интеллектни шакллантириш ва ривожлантириш масаласи кенг тарғиб қилинган. Мужтаҳиднинг илмий савияси бирор-бир масала юзасидан қарор қабул қилиш жараёнида нақлий ва ақлий далиллардан нечоғлик фойдаланганлик даражаси билан белгиланади. Қолаверса, мутафаккир яшаган даврда муайян масала юзасидан қарор қабул қилишда мужтаҳидларнинг ижтимоий статуси хақида фикр юритилади. Мунозарали масала юзасидан қабул қилинган оқилона қарорлар жамият тараққиёти учун хизмат қилиши ва ижтимоий аҳамияти очиб берилган. Мазкур жараёнда мутафаккир даставвал, нақлий билимларга, кейин ўзидан олдинги юқори савиядаги илмий давра вакиллари қарашларига, охирида эса, ўзининг рационал билимларига ва ақлий тафаккурига таянганлигини англаш мумкин.

Хусусан, тарихий жараёнда яратилган алломалар мероси билан замонавий билимларни уйғунлаштириш асосида маънавиятимизни қайта тиклаш, уни ёшлар онгига сингдириш мамлакатимиз ҳаётидаги устувор вазифа қилиб белгиланди. Бу борада республикамизда олиб борилаётган ислоҳотлар, ислом дини ва жаҳон илм-фани ривожига беқиёс ҳисса қўшган алломаларимизнинг бой илмий-маданий меросини мукаммал ўрганиш ҳамда холисона тадқиқ қилишга чорлайди. Зеро, улуғ аждодларимиз қолдирган маданий мерос асрлар оша умуминсоний қадриятлар ривожига хизмат қилиш билан бирга ижтимоий-маънавий муҳит камолотига ижобий таъсир кўрсатди.

Бир гуруҳ мужтаҳид олимларнинг маълум бир масалани ижтиҳод қилишлари натижасида исломнинг асосий манбаларидан бири – ижмоъ пайдо бўлди. Манбаларда «...ижмо фақат

мужтаҳидлар тарафидан содир бўлади»[1], - дея таъкидланган. Мазкур жараёнда мужтаҳидларнинг якдил фикри қарор қабул қилишда адолат ва ҳақиқат, холислик каби инсоний фазилатлар соҳиби бўлиш талаби муҳим аҳамият касб этади. Шу жиҳатларни инобатга олганда, «...ижтиҳод – исломдаги янги пайдо бўлган муаммоларни ҳал қилишнинг ўзига хос йўли»[2] сифатида фиқҳий масала ёки ижтимоий воқеликни далилловчи олимдан жуда чуқур мантиқий мушоҳада ва интеллектни талаб қилади.

Айтиш мумкинки, илм аҳлининг мақсади жамият маънавий қиёфасини шакллантиришдан иборат бўлар экан, бу йўлдаги барча сайъи-ҳаракатлар эътирофга лойиқ масала сифатида баҳоланади. Ҳаттоки, масалага ечим излаш жараёнида кичик бир жузъий хато ёки камчилик ҳам мутафаккирнинг фойдасига хизмат қилиши мумкинлиги Тафтазоний томонидан далилланган.

Асар таҳлилидан маълум бўладики, ҳар бир фуқаро ўз зиммасидаги ҳуқуқ ва мажбуриятларни адо этишда ёки бирор масала юзасидан низолашаётган одамлар орасида адолат билан ҳукм юритишда, умуман олганда, жамият ҳаётидаги иштирокида «ишбоши»ларга итоат этмоғи лозимлиги таъкидланган. Раҳбарга итоатсизлик эса, давлатнинг ижтимоий барқарорлигига раҳна солувчи, жамият аъзолари орасида деструктивликни тарғиб қилувчи омил сифатида баҳоланади. Хусусан, мутафаккирнинг сиёсий қарашлари ва «уламолар ихтиёр этган сўзларга кўра, ишбошиларга қарши чиқилмайди»[3]. Мазкур сиёсий масала давлат ва унинг бошқарув аппарати ходимларини тизимли шакллантириш нуқтаи назаридан бугунги кун учун ҳам долзарб ҳисобланади.

Хусусан, жамият аъзоларининг ақлий қобилияти ёки тафаккур даражасининг турличалиги сабабидан ўрнатилган ижтимоий меъёрларга риоя этилмаслик ҳолатлари юзага келади. Натижада, жамиятда тартиб-интизом бузилиб, ижтимоий ихтилофлар, парокандаликни келтириб чиқаради ва давлатнинг таназзулига сабаб бўлади. Бундай вазиятларда, асарларида жамият қатламлари орасида ижтимоий тенглик ғояларини тарғиб қилган Саъдуддин Тафтазонийнинг «ишбошилар» ва уларга бўйсунувчилар фаолиятидаги конфликтологик ҳолатларни бартараф этишда юксак намуна эканлигини эътироф этамиз. Шу жиҳатдан олганда, мутафаккирнинг мазкур мавзудаги ғоялари жамият қуйи ва юқори қатлам вакиллари орасида ижтимоий барқарорликни таъминлашда назарий манба вазифасини бажаради.

Тафтазоний ғояларини бугунги кун нуқтаи назаридан баҳолаганимизда, давлатнинг барча структурасидаги «замонавий ишбоши»лар ва улар бўйсунувидаги ходимлар ўртасида муроса маданиятини шакллантириш жамият фаровонлиги ва ижтимоий барқарорликни таъминловчи муҳим омил эканлиги тушунилади. Инсонлар ўртасида, қолаверса, бутун жамиятнинг қуйи ва юқори қатлам вакиллари орасида илиқ муносабат ўрнатилиши, давлат ва жамият тараққиётини таъминлашнинг муҳим омили эканлиги таъкидланган.

Бугунги кунда Республикамизда ижтимоий-сиёсий ва ҳуқуқий соҳада олиб борилаётган ислоҳотларнинг самараси ўлароқ, мамлакатимизда ўзининг шахсий фикри, қарашлари ва соҳага нисбатан креатив ёндашувига эга бўлган замонавий «ишбоши»ларни масъулиятли лавозимларга тайинлаш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Раҳбар кадрлар онгида мутафаккирлар тарихий мероси ва замонавий билимларни уйғунлаштириш бугунги куннинг объектив заруриятига айланмоқда. Хусусан, замонавий «ишбоши»ларнинг бошқарув тизимида адолат тамойиллари устуворлигини таъминлаш борасида Президентимиз Ш.Мирзиёев шундай таъкидлайди: «Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар... фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиб қолиши керак»[4]. Тафтазонийнинг «ишбошилар» мавзусидаги қарашлари мазкур нуқтада бугунги кун учун долзарб мавзу сифатида амалий эътироф этилади.

Хулоса қилиб айтганимизда, раҳбар кадрларда халқ дардини тинглай олиш қобилиятини, шу билан бирга, қуйи қатлам вакилларида давлат бошқарув аппаратига нисбатан ишонч туйғусини шакллантириш масаласида Тафтазоний ғояларининг ўрни ва аҳамияти юқори эканлигини асосли деб баҳолаймиз. Республикамизда олиб борилаётган бугунги демократик ислоҳотлар замирида ҳам худди шундай эзгу мақсад мавжудки, унда халқнинг розилигига эришган раҳбар масаласи давлат сиёсати

---

[1] Ислом энциклопедияси. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2004. –Б.119.

[2] Пўлатов С., Алохунов А. Икки буюк аллома (Имом ал-Ғаззолий ва Ибн ал-Арабий). –Фарғона, 2017. –Б.132.

[3] Саъдуддин Тафтазоний. Шарҳ ал-ақоид ан-Насафий. –Карачи: Мактабат ул-бушро, 2009. 1-нашр. سعد الدين تفتزاني ؛ شرح العقائد ، كراتشي ، باكستان ، مكتبة البشرى ، ٢٠٠٩ ميلادي، طبعة الاولى ، صفحة: –Б.367-368.

[4] Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиб қолиши керак. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б.6.

даражасидаги ижтимоий воқеликка айланди. Уларда асрий анъаналар ва замонавий билимларни уйғунлаштириш масаласи бугунги куннинг объектив зарурияти дир.

Адабиётлар.

1. Уватов У., Оқилов С., Даминов Э. Мотуридия таълимоти ва Абу Муин Насафий илмий мероси. –Тошкент, 2018. 308 бет.
2. Зиёдов Ш. Ал-Мотуридий ҳаёти ва мероси. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. 26 бет.
3. Sirojiddinov Sh. Islom falsafasiga kirish: kalom ilmi. –Тошкент: Iqtisod-moliya. 2008.134 bet.

ERTAKLARDA SO‘Z SEHRI

Sanoyeva Muhtabar Nabiyevna
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zbek xalq ertaklarining voqelikni aks ettirish mezonlarini o‘rganish xalqning ma’naviy madaniyati, ma’rifiy-axloqiy, badiiy-estetik qarashlarini tadqiq etish imkonini beradi. Xususan, yoshlar qalbida Vatan tuyg‘usini o‘stirish va mustahkamlash, adolatparvarlik va mardlik ko‘nikmalarini tarbiyalash orqali tinchlik va ezgulikni yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy qadriyatlar haqida to‘xtalib, shunday degan edi: “Xalqning madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O‘zbekiston xalqi avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi”[1]. Ma’naviyat tarixini o‘zida mujassam etgan o‘zbek folklori, xususan, xalq ertaklari milliy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

E’tiborli jihati shundaki, kitobxonlarning yosh avlodi odatda ertak kitoblarni maroq bilan o‘qishadi. Ertak xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri**;** to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli-sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Uning dastlabki namunalari M. Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma’nosini bildiradi. Ertakning Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona o‘zbeklari orasida matal, buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho‘pchak deb atalishini hatto bolajonlar ham bemalol ayta oladi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-u g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan ularda katta qiziqish uyg‘otadi. Ertak bolajonlarning nutqini ravon qiladi. Obrazli fikrlashini o‘stiradi. So‘zni o‘z o‘rnida, mahorat bilan qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi.

So‘zda bir ma’noni xilma-xil so‘zlar orqali turli nozik ma’no qirralari bilan ifodalashda, so‘z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta’sirchanlikni ta’minlashda ma’nodosh so‘zlar katta ahamiyatga ega.

Ma’nodosh so‘zlar haqida tilshunoslikda turlicha ta’riflarga duch kelamiz. Ilmiy adabiyotlarning ba’zilarida “sinonimiya – leksemalarning bir xil ma’no anglatishiga ko‘ra guruhlanishi[2]” deyilsa, boshqa birida “bir xil yoki bir – biriga yaqin ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar[3]”, degan ta’rif keltiriladi.

Ma’nodosh so‘zlar bir umumiy ma’noni ifodalasa ham, shu umumiy ma’noni qanday ifodalash nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. Masalan: shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo‘kirmoq so‘zlari so‘zlash umumiy ma’nosi bilan bir xil bo‘lsa ham, ular ovozning baland-pastligiga ko‘ra farq qiladi. Shuningdek, to‘ng‘illamoq, ming‘illamoq, vaysamoq, javramoq so‘zlari ham so‘zlash umumiy ma’nosi bilan yuqoridagi so‘zlar bilan birlashadi, lekin ulardan salbiy bahoga egaligi bilan farqlanadi.

Ko‘ramizki, bir ma’noni o‘zimizning maqsadingizga muvofiq bir necha so‘zlardan bittasini tanlash orqali ifodalashimiz mumkin. Bu bilan nutqning ta’sirchanligini oshirish orqali so‘z sehrini namoyish qilishga erishiladi.

Ma’nodosh so‘zlar tilning lug‘aviy jihatdan boylik darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so‘zlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yanada to‘liq bajara olishini

[1].Karimov I.Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida.6-jild T:”O‘zbekiston”,1998.125-bet
[2] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: “Talqin” nashriyoti, 2005.
[3] Irisqulov M. T. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2009.

osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o‘rganilgan. O‘zbek tili ma’nodosh so‘zlarga juda boy. Ertaklarda ma’nodosh so‘zlarni qo‘llash so‘z ma’nosini kuchaytirishga, fikrni ta’kidlab aytishga yordamlashgan:

Picha reja tuzdi-da, o‘rmonga qaytdi,
Yetib keldi zum o‘tmay do‘stlarin boshlab-
Birgalashib jo‘jani tortib oldilar
Ahillikda, birlikda, haq rost, ko‘pdir gap.(“Ertaklar karvoni” to‘plamidan)

Yoki: Mamlakatda shunday bir **tinchlik, osoyishtalik** o‘rnatgan ekanki, hamma xotirjam kun kechirar ekan. (“Oymomoning ertaklari” kitobidan)

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ertakni mahorat bilan aytib berayotganda, yoki ifodali o‘qiyotganda o‘qituvchi o‘quvchining e’tiborini shunday so‘zlarga qaratib, ularning mag‘zini chaqib bersa, ma’nosini yaxshi tushungan o‘quvchilar o‘z nutalarida ularni belalol qo‘llay boshlaydilar:

Yana qushlarning nag‘masi bilan uyg‘oning qulfi-dilingiz ochiladi, **na qayg‘u, na g‘am** qoladi. (“Oymomoning ertaklari” kitobidan)

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, ezgulikni tarannum etuvchi ertaklarning har bir so‘zining mag‘zini chaqib o‘rganish, yosh avlodning so‘zdan mahorat bilan foydalanish malakasini oshiradi, ularning ham og‘zaki, ham yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizlat qiladi.

PROFESSOR NURBAY CABBAROV

(“Azərbaycan elminin-ədəbiyyatının dostu” seriyasından 8-ci məqalə)

Almaz Ülvi (BİNNƏTOVA)

AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu
“Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələri” şöbəsinin müdiri, filologiya elmləri doktoru, professor
Bakı, e-mail: almazulvi1960@mail.ru
ORCIDiD – 0000-0001-7991-3969.

XÜLASƏ. Türk ədəbiyyatının yeni inkişaf mərhələsinə yüksəlməsində Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri mühüm rol oynayır. Belə bir həyati və ədəbi-estetik ehtiyacı dərindən dərk edən, türk dünyası ədəbiyyatının tədqiqində mühüm elmi nəticələr əldə edən özbək alimlərindən biri, filologiya elmləri doktoru, professor Nurbay Cabbarov Azərbaycan ədəbiyyatının və ədəbiyyatşünaslığının yaxın dostu olaraq elmi yaradıcılığına nəzər salmaq diqqətəlayiqdir. O, XIX əsr klassik özbək ədibi Furqat əsərlərinin əlyazma mənbələri və onun xaricdəki həyatı və yaradıcılıq irsini tədqiq edərək mətnşünas alim kimi tanınmışdır. O, elmi fəaliyyətini genişləndirərək müxtəlif istiqamətlərdə tədqiqatlar aparıb: əlyazma mənbələri və mətnşünaslıq problemləri; nəvaişünaslıq və klassik ədəbiyyatın nəzəri məsələləri; türkologiya sahəsindəki tədqiqatlar; özbək cədid ədəbiyyatının tədqiqi; müasir özbək ədəbiyyatı və hazırki ədəbi proses. Bu elmi istiqamətlərin hər biri üzrə Nurbay Cabbarov diqqətəlayiq tədqiqatlar yaratmışdır.Nurbay Cabbarov türk xalqlarının ədəbiyyat tarixinə dair dərin araşdırmalar aparır. Alimin “Əhməd Yasəvi və Yunus Əmrə hikmətlərində ədəbi təsir və ardıcıllıq”, “Hüseyn Cavid yaradıcılığının Özbəkistanda öyrənilməsini təkmilləşdirmək” kimi tədqiqatları bu fikri təsdiqləyir. tədqiqatçının cədid ədəbiyyatına dair elmi araşdırmaları göstərir ki, Nurbay Cabbarov akademik-elmi təhlil təcrübəsinə malik ədəbiyyatşünasdır.

Təqdim olunan məqalədə bütün bu məsələlər alimin yaradıcılığı kontekstində şərh edilir. Nurbay Cabbarovun araşdırmalarında, bundan başqa, Şərq klassik ədəbiyyatının fəlsəfi-estetik əsası olan əruz, qafiyə, bəlağət, fəsahət, məani, bəyan və bədii elmləri ilə bağlı diqqətəlayiq elmi fikirlər vardır. Əlişir Nəvainin və özbək klassik ədəbiyyatının başqa şairlərin əsərlərini məhz bu baxış bucağında təhlil edilir. Bütün bunlar göstərir ki, alimin əsərlərinin nəzəri bazası möhkəmdir və ədəbiyyatşünaslığın yüksək tələblərinə cavab verə bilir.

Açar sözlər: Nurbay Cabbarov, Furqat, türkologiya, özbək cədid ədəbiyyatı, Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri.

ABSTRACT. Azerbaijani-Uzbek literary relations play an important role in the rise of Turkish literature to a new stage of development. NurbayJabbarov, Doctor of Philological Sciences, Professor is one of the Uzbek scientists who deeply understand the need for literature-aesthetics and achieved important scientific results in the study of the literature of the Turkic world; and it is remarkable to take a look at the

scientific creativity of NurbayJabbarov as a close friend of Azerbaijani literature and literary criticism. He was known as a textual scholar by researching the manuscript sources of the works of Furgat, classical Uzbek writer of the 19th century and his life abroad and his creative legacy. He developed his scientific activities and conducted research in various directions: manuscript sources and textual problems; Navoi studies and theoretical issues of classical literature, studies in the field of Turkology; the research of Uzbek Jadid literature, modern Uzbek literature and current literary process. NurbayJabbarov has created remarkable research in each of these scientific fields. NurbayJabbarov made in-depth research on the literary history of the Turkic peoples. The scholar's researches such as "Literary influence and consistency in the wisdoms of Ahmed Yasevi and YunusEmre" and "Improving of the learning of HuseynJavid's creativity in Uzbekistan" confirms this idea. The researcher's scientific studies on Jadid literature show that NurbayJabbarov is a literary critic with academic-scientific analysis experience.

In the presented article, all these issues are explained in the context of the scientist's creativity. Nurbay Jabbarov's research contains remarkable scientific ideas on aruz, rhyme, balâgat (rhetoric, eloquence), fasâhat (purity and perfection of language), meani, beyan and artistic sciences, which are the philosophical-aesthetic basis of Eastern classical literature. The works of Alisher Navoiy and other poets of Uzbek classical literature are analyzed from this point of view.. All this shows that the theoretical basis of the scientist's work is solid and it is able to cater the high demands of literary studies.

Keywords: Nurbay Jabbarov, Furgat, Turkology, Uzbek Jadid literature, Azerbaijani-Uzbek literary relations.

РЕЗЮМЕ. Азербайджано-узбекские литературные связи играют важную роль в подъеме турецкой литературы на новый этап развития. НурбайДжаббаров, доктор филологических наук, профессор – один из узбекских ученых, глубоко понимающих необходимость литературоэстетики и добившихся важных научных результатов в изучении литературы тюркского мира; Примечательно взглянуть на научное творчество НурбаяДжаббарова как близкого друга азербайджанской литературы и литературной критики. Он был известен как ученый-текстовед, исследовавший рукописные источники произведений Фургата, классика узбекского писателя XIX века, его жизнь за границей и его творческое наследие. Он развивал свою научную деятельность и вел исследования в различных направлениях: рукописные источники и текстологические проблемы; Навоийские исследования и теоретические вопросы классической литературы, исследования в области тюркологии; исследование узбекской джадидской литературы, современной узбекской литературы и современного литературного процесса. Нурбай Джаббаров провел замечательные исследования в каждой из этих научных областей. Нурбай Джаббаров провел углубленное исследование истории литературы тюркских народов. Исследования ученого, такие как «Литературное влияние и последовательность мудрости Ахмеда Ясеви и » и «Улучшение изучения творчества ГусейнаДжавида в Узбекистане», подтверждают эту мысль. Научные исследования исследователя джадидской литературы показывают, что Нурбай Джаббаров является литературным критиком с опытом научно-аналитического анализа.

В представленной статье все эти вопросы объяснены в контексте творчества ученого. В исследованиях НурбаяДжаббарова содержатся замечательные научные идеи по арузу, рифме, балагату (риторике, красноречию), фасахату (чистоте и совершенству языка), меани, беяну и художественным наукам, которые являются философско-эстетической основой восточной классической литературы. С этой точки зрения анализируется творчество Алишера Навои и других поэтов узбекской классической литературы. Все это показывает, что теоретическая основа творчества ученого прочна и способна удовлетворить высокие запросы литературоведения.

Ключевые слова: Нурбай Джаббаров, Фургат, тюркология, узбекская джадидская литература, азербайджано-узбекские литературные связи.

Giriş / İntroduction

Yaşadığımız yeni dövr türk dünyasının "Dildə, fikirdə, işdə birlik" (İsmayıl bəy Qaspiralı) ideyasının həyata keçirilməsi, türk ədəbiyyatının yeni inkişaf mərhələsinə yüksəlməsi ilə seçilir. Bu baxımdan Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri mühüm rol oynayır. Belə bir həyati və ədəbi-estetik ehtiyacı dərindən dərk edən, türk dünyası ədəbiyyatının tədqiqində mühüm elmi nəticələr əldə edən özbək alimlərindən biri, filologiya elmləri doktoru, professor Nurbay Cabbarov Azərbaycan ədəbiyyatının və ədəbiyyatşünaslığının yaxın dostudur.

Nurbay Cabbarov 1966-cı ildə Özbəkistan Respublikasının Qaşqadərya vilayətinin dağlıq Dehqanabad rayonunda anadan olub. Daşkənd Dövlət Universitetinin (indiki Mirzə Uluğbəy adına Özbəkistan Milli Universiteti) özbək filologiyası fakültəsində ali təhsil aldıqdan sonra Özbəkistan Elmlər Akademiyasının

Həmid Süleymanov adına Əlyazmalar İnstitutunda aspirant, kiçik elmi işçi, baş elmi işçi kimi vəzifələrdə çalışmışdır (1990-1998). O, "Furqat əsərlərinin əlyazma mənbələri" mövzusunda namizədlik (1994) və "Furqatin xaricdəki həyatı və yaradıcılıq irsi: mənbələr, mətnşünaslıq, poetika" (2004) mövzusunda doktorluq dissertasiyalarını uğurla müdafiə etmişdir.[*Zakirjon Molla Xalmuhammad oğlu (1859, Kokand – 1909, Şərqi Türküstan, Yarkent) milli intibah dövrünün özbək ədəbiyyatının aparıcı nümayəndələrindən biri olmuşdur, Furqat təxəllüsü ilə yazıb-yaratmışdır (sözünün bir anlamı da vətəndən uzaqda yaşayan). O, şair və yazıçı, ədəbiyyatşünas və tarixçi, filoloq və tərcüməçi kimi zəngin mənəvi irs qoymuşdur*].

1999-2016-cı illərdə "Milli intibah dövrü özbək ədəbiyyatı" kafedrasının dosenti, kafedranın müdiri, Özbəkistan Milli Universitetinin "Özbək filologiyası" fakültəsinin dekanı vəzifələrində çalışıb. 2006-2016-cı illərdə Özbəkistan Milli Universitetində elmlər doktoru elmi dərəcəsinin verilməsi üzrə İxtisaslaşdırılmış Şuranın sədri vəzifəsində çalışıb. 2016-cı ildən Əlişir Nəvai adına Daşkənd Dövlət Özbək Dili və Ədəbiyyatı Universitetinin "Özbək ədəbiyyatı tarixi" kafedrasının müdiridir.

2005-ci ildən Özbəkistan Yazıçılar Birliyinin üzvü olan alim 2018-ci ildən Yazıçılar Birliyinin Ədəbi Tənqid Şurasının sədri vəzifəsində çalışır. Eyni zamanda "Fədakar" və "Özbəkistan ədəbiyyatı və incəsənəti" qəzetlərində şöbə müdiri, baş redaktorun müavini, "Təfəkkür" jurnalında baş redaktor müavini vəzifələrin daşıyıb.

Əsas hissə / Main Part

Nurbay Cabbarov Nizami Gəncəvi və Əhməd Yəsəvidən Yunus Əmrə və Əlişir Nəvaiyə, Zahirəddin Babur, Məşrəb və Agahidən Əmiri, Müqimi və Furqətəcən, Behbudi, Fitrət və Abdulla Qədiridən Hüseyn Cavid,Cəlil Məmmədquluzadə və Çolpanacan, Səməd Vurğun və Maqsud Şeyxzadədən Erkin Vahidov və Abdulla Aripovacan, onlardan tutmuş ta müasir Azərbaycan və özbək ədəbi sənətkarlarının yaradıcılığı haqqında sanballı tədqiqatlar yaradan, elmi araşdırmalarını mütəmadi olaraq davam etdirən görkəmli alimdir. Onun elmi əsərləri vətəni Özbəkistandan başqa Türkiyə, Azərbaycan, Qazaxıstan,Rusiya, ABŞ, Çin, Malayziya, Hindistan və Cənubi Koreyanın nüfuzlu elmi jurnallarında dərc olunub. Alim ali təhsil müəss**i**sələri üçün bir dərsliyin, üç tədris-metodiki vəsaitin, on iki kitabın və 700-dən çox elmi və elmi-kütləvi məqalənin müəllifidir.

Onun elmi fəaliyyəti çoxşaxəliliyi ilə seçilir. Əsasən aşağıdakı elmi istiqamətlərdə tədqiqatlar aparır:

– əlyazma mənbələri və mətnşünaslıq problemləri;

– nəvaişünaslıq və klassik ədəbiyyatın nəzəri məsələləri;

– türkologiya sahəsindəki tədqiqatlar;

– özbək cədid ədəbiyyatının tədqiqi;

– müasir özbək ədəbiyyatı və hazırki ədəbi proses.

Bu elmi istiqamətlərin hər biri üzrə Nurbay Cabbarov diqqətəlayiq tədqiqatlar yaratmışdır. Bu tədqiqatlar müəyyən dövr ədəbiyyatına xas estetik qanunauyğunluqların inkişafına,ədəbiyyatşünaslığın yeni nəzəri baxışlarına, maraqlı fakt və məlumatlar, yeni şərhlər və elmi ümumiləşdirmələrlə zənginləşməsi baxımından qiymətlidir.

Əlyazma mənbələri və mətnşünaslıq problemləri. Nurbay Cabbarov elməFurqat ədəbi şəxsiyyəti və irsi konteksində mətnşünas alim kimi gəlib. Onun tədqiqatlarına söykənərək,məşhur özbək şairi Zakircan Furqatın tərcümeyi-halı, yaradıcılığının nəzm, nəsr və publisistik yaradıcılığı kontekstində özbək milli intibah ədəbiyyatının tədqiqində yeni mərhələyə qədəm qoyduğunu söyləmək olar. Əlyazma mənbələrinin tədqiqi nəticəsində Furqatın qəzəl, müxəmməs, tərcibbənd, fərz, "Həccnamə" kimi janrlarda 500 beytdən çox şeiri, "Qavaidi Çin və umorati politiki" nəsr əsəri elmi dövriyyəyə buraxılmışdır. İlk dəfə orijinal və çap olunmuş nüsxələrin müqayisəli təhlili əsasında şairin şeirlərinin mövcud nəşrlərindən çıxarılan 400-dən çox misrası bərpa edilib. Furqatın xaricə gedib ölkəyə qayıtmamasının səbəbləri yeni dövrün ruhunda, gerçəklik kontekstində şərh olunur. Arxiv sənədləri əsasında şairin səyahət marşrutu, Türkiyə və Yunanıstanda, ərəb ölkələrində, Hindistan və Çində olduğu tarixlər dəqiqləşdirilib. Onun bu ölkələrdə yazdığı əsərləri sistemli şəkildə təhlil edilib. "Muazzam Rusu Çin..." ilə başlayan dördlük və "Tuf" rədifli qəzəli şairə aid edilsə də, əslində onun qələminə aid olmadığı sübut edilmişdir. Müəllifin "Furqat" təxəllüsü seçməsinin onun əqidəsi və peşəsi ilə bağlı olması, şeirlərində islami-mistik fikirlərin yüksək bədii şəkildə ifadə olunması elmi meyarlara əsaslanır. Onun xaricdə yazdığı əsərləri saf estetik qanunlar əsasında şərh olunur.

Nurbay Cabbarov mətnşünaslığın nəzəri problemlərinə də yeni elmi mülahizələr irəli sürüb. O, əlyazmaların genealogiyası, mətn tarixi, elmi-tənqidi mətni, mətnin şərhi kimi məsələlərlə bağlı nəzəri fikirlərini özbək klassik ədəbiyyatı misalında zənginləşdirmiş və təkmilləşdirmişdir. O, hədislərin etibarlı mətnlərinin bərpasında yüksək effektli olan müqabilə üsulundan mətnşünaslığa dair tədqiqatlarda istifadə mexanizmi işləyib hazırlamışdır. Bununla bağlı elmi qənaətləri onun nəzəri alim kimi yüksək potensialını təsdiqləyir.

Nurbay Cabbarov həm də praktiki mətnşünaslıqla ciddi məşğul olur. Alim XIX əsr özbək şairi Məhəmməd Rza Agahinin "Zubdətut-təvarix" ("Tarixi hadisələrin qaymağı") əsərini, Əbdürrəhman Caminin "Yusif və Züleyxa" dastanının Agahi tərəfindən tərcüməsini, Furqatın, Muqiminin, İbrətin "Seçilmiş əsərləri"ni, Molla Alimin"Türküstan tarixi" əsəri və "Baba Rövşən" xalq dastanını əlyazma mənbələri əsasında elmi şərh və göstəricilərlə birgə çap etdirmiş, tədqiqata cəlb etmişdir. Bu nəşrlər Nurbay Cabbarovun diqqətli mətnşünas, ərəb və fars dillərini, Qurani-Kərimin və hədislərin bədii ədəbiyyata təsirini bilən alim olduğunu göstərir.

*Nəvaişünaslığın və klassik ədəbiyyatın nəzəri məsələləri.*TədqiqatçıÜmumşərq və xüsusən də türk xalqlarının ədəbiyyat nəzəriyyəsini yaxşı bilir. Onun böyük şair və mütəfəkkir Əlişir Nəvainin həyat və yaradıcılığına həsr olunmuş "Məani əhlinin sahibi" *("Maoniy ahlining sohibqironi")*monoqrafiyası buna əyani sübutdur. Yaradıcılıq konsepsiyası – şübhəsiz ki, ən mühüm nəzəri məsələlərdir. Nurbay Cabbarov bu mürəkkəb, lakin ədəbi-estetik qanunların əsasını təşkil edən problemi Nizami Gəncəvi ilə Əlişir Nəvainin "Xəmsə"sinin müqayisəli təhlili əsasında dərindən təhlil etmişdir. Alimin fikrincə, bu iki böyük mütəfəkkirin yaradıcılıq konsepsiyasının əsasını aşağıdakı xüsusiyyətlər təşkil edir:

– qələmi və sözü müqəddəs saymaq, onlardan alət kimi istifadə etməkdən çəkinmək;

– mükəmməl sənətkarlıqla yanaşı, dərin məna təcəssüm etməyin zəruriliyi;

– bədii əsər Haqq və həqiqət meyarlarına əsaslanmalı;

– sənətkarın öz müstəqil yolu ilə getməsi və təqliddən uzaq olması.

Nizami Gəncəvi "Xosrov və Şirin" poemasında qələmin[1] müqəddəsliyini vurğulayaraq, sözdəki xətaların qələmlə düzəldildiyini dilə gətirir:

Sözümdə nə xətalıq varsa, keç,
Qələm çək üstünə, qalmasın heç.

– tərzində ifadə etməsi, böyük şairin sözünün müqəddəs sayılmasına səbəb asimana üz tutması, qələminixəzinələrin qıfılını açan almaz nizə ilə müqayisə etmək kimi bəlağət və yetkinliyin əsası olan fikirləri dərk edir və dərindən araşdırır.Belə müqayisədə, Əlişir Nəvai fikrincə, qələm ən sürətli yoldur, ona görə də onun üçün məsafə önəmli deyil, qələmin gedəcəyi yer (fələkdən) səmadan ucadır – Ərşdir. Böyük mütəfəkkirə görə, Qələm əhlinin bunu nəzərdə tutması məskəni fələk fövqündə olan qələmin şərəfini yerə vurmamalı, onunla ancaq və ancaq layiqli sözlər bitirməli olduğu estetik anlayışın mahiyyətini ortaya qoyur. Alimin ən mühüm mülahizələrindən biri budur: "Qələmi mədh edərkən, Həzrət Nəvai qələm əhlinin ustadıŞeyx Nizami Gəncədə rahatlıq tapsa da, atdığı hər addımı xəzinələr üzərində olması fikrini irəli sürür. Ulduzlar səmanı bürüdüyü kimi, onun xəzinəsindən səpələnmiş ləl-cəvahiratların bütün dünyanı bürüməsi, buna sübutdur. Bu xəzinədəki ləl-cəvahiratın dəyəri ondan ibarətdir ki, onu xərcləyən heç vaxt geri qaytarılmayacaq. Kim bu qiymətli daşlardan sərvət əldə edə bilsə, yüz ildə mində birindən az olmaz". Nurbay Cabbarovun bu mənada xidməti ondan ibarətdir ki, ondan əvvəl ortaya qoyulmuş tədqiqatlarda eyni məsələlər bu cür təhlil olunmayıb.

Monoqrafiyada Nəvainin məna və obraz ahənginə, dünya və ona bağlı rəmzlərə, irfani məzmun və bədii formanın harmoniyasına dair bədii-estetik baxışları dərindən öyrənilmişdir. Təsəvvüfi obraz və rəmzləri təhlil edən Nurbay Cabbarov ondan əvvəl aparılan araşdırmaları təkrarlamır. Problemin həllinə yeni mənada yanaşır, klassik ədəbiyyatın özəyi olan Qurani Kərim və hədislərə, təsəvvüf elminə dair ilkin qaynaqlarına əsaslanır. Elə buna görə də klassik poeziyada təsəvvüfiobraz və istilahların mahiyyətini dərindən açıb göstərir. Alimin bununla bağlı fikirləri nəvaişünaslığı və bütövlükdə ədəbiyyatşünaslığı yeni nəzəri qənaətlərlə, maraqlı elmi şərhlərlə zənginləşdirmək baxımından dəyərlidir.

Nurbay Cabbarovun araşdırmalarında, bundan başqa, Şərq klassik ədəbiyyatının fəlsəfi-estetik əsası olan əruz, qafiyə, bəlağət, fəsahət, məani, bəyan və bədiielmləri ilə bağlı diqqətəlayiq elmi fikirlər vardır. Əlişir Nəvainin və özbək klassik ədəbiyyatının başqa şairlərin əsərlərini məhz bu baxış bucağında təhlil edilir. Bütün bunlar göstərir ki, alimin əsərlərinin nəzəri bazası möhkəmdir və ədəbiyyatşünaslığın yüksək tələblərinə cavab verə bilir.

Türkologiya üzrə tədqiqatlar. Hər bir alimin əsərlərinin dəyəri, ilk növbədə, mənsub olduğu xalqın estetik təfəkküründün təkmilləşdirilməsinə nə qədər töhfə verə biləcəyi ilə müəyyən edilir. Türk dünyası ədəbiyyatının estetik idealının əsasını təşkil edən türk ruhunun bədii ifadəsi Nurbay Cabbarovun elmi araşdırmalarının əsl mahiyyətini müəyyən edən elmi problemlərdən biridir. Bu baxımdan alimin "Əlişir Nəvai yaradıcılığında türk ruhunun ifadəsi" araşdırması xüsusi əhəmiyyət kəsb edir. Seyid Həsən Ərdəşirə

[1]Bu misranın azərbaycancası belə təqdim edilir: *"Bu söylədiyimdə nə ki, səhvim varsa, Üstünə qələm çək, ey pərvərdigar!"*

yazdığı poetik məktubun əhəmiyyətinə diqqət yetirən alimin sözlərinə görə, ilk növbədə, bu məsnəvi 1465-ci ildə Əlişir Nəvai iyirmi dörd yaşında ikən yazılmışdır. İkincisi, bu məktubda böyük mütəfəkkirin həyat və yaradıcılığının əsas konsepsiyası – türk ədəbi dilinin yüksək potensialını sübut etmək, millətin şərəf və ləyaqətini qorumaq ruhu güclü şəkildə ifadə olunub.

Poetik bir məktub üçün Şərq şeiriyyətinin nadir nümunələri sayılan Əbülqasım Firdovsinin məşhur "Şahnamə"si, Yusif Xas Hacibin "Kutadqu Bilig"i, cəngnamə ruhunda olan əsərlər mütəqərib bəhri – mütəqəribi musmuli mahzuf vəzni(fauvlun fauvlun alim fauvlun faal V – – / V – – / V – – / V –) seçilməsinin səbəblərini alim hərtərəfli elmi əsasını göstərir. Onun fikrincə, bunun birinci səbəbi mütəqərib bəhrinin türk xalqlarının poetik sistemi –hecanın ən fəal formalarından biri olan on bir hecalı vəznə çox uyğun olmasıdır. İkincisi, o zaman iyirmi beş yaşında olan Nəvainin türk dilini və türk millətinin namusunu qorumaq üçün mübarizə meydanına çıxdığını elan etməsi idi. Qeyd edək ki, bu poetik məktub indiyədək əksər nəvaişünas alimləri tərəfindən araşdırılıb. Amma Nurbay Cabbarova qədər əsər türk ruhunun ifadəsi baxımından təhlil edilməmişdir. Bu xüsusiyyət alimin hər hansı elmi problemi öz elmi konsepsiyası baxımından özünəməxsus şəkildə şərh etmək bacarığından xəbər verir.

Nurbay Cabbarov türk xalqlarının ədəbiyyat tarixinə dair dərin araşdırmalar aparır. Alimin "Əhməd Yasəvi və Yunus Əmrə hikmətlərində ədəbi təsir və ardıcıllıq", "Hüseyn Cavid yaradıcılığının Özbəkistanda öyrənilməsini təkmilləşdirmək" kimi tədqiqatları bu fikri təsdiqləyir. Nizami Gəncəvinin "Xəmsə"sinin Özbəkistanın xalq şairi Camal Kamalın özbək dilinə tərcüməsindəki nəşri zamanı beşinci dastan "İskəndərnamə" Nurbay Cabbarovun ön sözü ilə çap olunub. Bu ön söz Nizaminin "İskəndərnamə"sinin Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələri kontekstində təhlili baxımından xüsusi əhəmiyyət kəsb edir. Alimin XX əsrin əvvəllərində Azərbaycan-özbək ədəbi əlaqələrinə dair analitik məqalələri onun Azərbaycan maarifpərvərləri Nəriman Nərimanov, Hüseyn Cavid, Cəlil Məmmədquluzadə yaradıcılığına dərin analitik təhlili münasibətini əks etdirir.

Özbək cədid ədəbiyyatının tədqiqi. Nurbay Cabbarov cədidçilik və cədid ədəbiyyatı ilə bağlı araşdırdığı tədqiqatların da elmi səviyyəsi yüksəkdir. Nurbay Cabbarovun elmi fəaliyyətində "Mərifət nadir" kitabı, Mahmudxoca Behbudi, Abdulla Əvlani, Abdurrauf Fitrət, Həmzə Həkimzadə Niyazi, Abdulla Qədiri, Əbdülhəmid Çolpanın yaradıcılığına dair analitik məqalələr xüsusi yer tutur. Alimin cədid poeziyası, nəsri, dramaturgiyası və bədii publisistikasına dair onlarla elmi əsərləri çap olunub.Onlarda cədidədəbiyyatın da ictimai gerçəkliyin bədii şərhinin xüsusiyyətləri, millət və milli məsələlərin aydınlaşdırılması, yaradıcı niyyət və estetik idealın ahəngdarlığı, obraz və rəmzlərıın poetikası, Şərq və Qərb mədəniyyətində konseptual münasibətin ifadəsi yeni perspektivə əsaslanan unikal elmi problemlərdir. Alimin "Müasir mətbuatda millət və milliməsələlərinin işıqlandırılması", "Fitrət yaradıcılığında Şərq və Qərb mədəniyyətinin şərhi", "Maarifçilik nədir, cəhalət nədir?" kimi yazılar buna əyani sübutdur. "Ötən günlər" də milli ruhun ifadəsi" sərlövhəli məqaləsi bu sıradaəsərin təhlilinin dərinliyi və dəqiqliyi, ifadə tərzinin aydınlığı və axıcılığı ilə seçilir.

Məqalədə milli ruhun özünəməxsus ifadəsini təmin edən meyarlar bunlardır: milli ruhun özünəməxsus adət-ənənələr, milli dəyərlər, millətin ruhunu təcəssüm etdirən arzu və istəklərinin şərhi; millətin özünə tənqidi ruhda baxmaq imkanlarının ifadəsi və milli şəxsiyyətlərə xas olan sabit inancların poetik təsviri formasında təsnifat əsasında tədqiq edilməsi. Nurbay Cabbarovun fikrincə: "birincisi, millətin əxlaqı, ikincisi, iradəsi, üçüncüsü isə inancını təcəssüm etdirir və bu üçü bütövlükdə milli ruhu formalaşdırır. Milli ruhun əsası sayılan bu üç xüsusiyyətin bir əsər daxilində poetik sintezi istisnasız olaraq fenomenal poetik hadisə sayılmağa layiqdir. Əsərlərin əksəriyyətində bu xüsusiyyətlərin bir-ikisinin təcəssüm etdirildiyi müşahidə olunur. Müvafiq olaraq, milli ədəbiyyat tariximizdə nadir bir əsər bu ədəbi-estetik meyara tam cavab verə bilər. Abdulla Qədirinin "Ötən günlər" romanı da belə nadir əsərlərdəndir.Təbii ki, belə yanaşma alimin fikirlərinin sistemli və əsaslı olmasını təmin edirdi.Nurbay Cabbarovun Çolpan lirikasındakı bəzi rəmzlərin poetikası ilə bağlı məqaləsi analitik təhlil baxımından mühüm elmi dəyərə malikdir.Məqalədə şairin lirikasında tez-tez müşahidə olunan *xəyal, bulud, ulduz, şübh* kimi simvolların bədii funksiyası yaradıcı yanaşma əsasında təhlil edilir.

Ümumiyyətlə, tədqiqatçının cədid ədəbiyyatınadair elmi araşdırmaları göstərir ki, Nurbay Cabbarov akademik-elmi təhlil təcrübəsinə malik ədəbiyyatşünasdır.

Müasir özbək ədəbiyyatı və mövcud ədəbi cərəyanların təhlili Nurbay Cabbarovun yaradıcılığında mühüm elmi istiqamətlərdən biridir.Onun "Zaman, meyar, şeiriyyət" kitabı və 100-dən çox məqaləsi bu fikri təsdiqləyir. Onun Aybek, Şeyxzadə, Mirtemirdən Zülfiyyə, Erkin Vahidov və Abdulla Aripova qədər, Rauf Pərfi, Şövkət Rəhman, Osman Əzimdən Məhəmməd Yusifə, Siracəddin Səyyid və bugünkü gəncliyin poeziyasının təhlilinə aid məqalələri alimin elmi fəaliyyəti haqqındageniş təsəvvür yaratmasına sübutdur. Onun Pirimqul Qədirov, Erkin Əzəm, Xayriddin Sultan kimi müasir özbək nəsr ustadlarının yaradıcılığı ilə

bağlı araşdırmaları epik təsvirin özünəməxsusluğu, yaradıcılıq laboratoriyasının sirləri, bədii bacarığı müəyyənləşdirməkmeyarlarını dərindən təhlil etdiyinə görə qiymətlidir.

Alimlər çoxdur, amma onların hamısı elmi məktəb yarada bilmir. Nurbay Cabbarov özbək klassik ədəbiyyatşünaslığı üzrəetiraf olunan məktəbin yaradıcılarındandır. Əlişir Nəvai adına Daşkənd Dövlət Özbək Dili və Ədəbiyyatı Universitetinin saytında və yaratdığı elmi məktəb haqqında ayrıca səhifənin olması da buna sübutdur. Alim mətnşünaslıq və ədəbi mənbəşünaslıq,özbək klassik və müasir ədəbiyyatı, ədəbiyyatın tədrisi metodikası sahələri üzrə elmlər doktoru və fəlsəfə doktoru (RhD) elmi dərəcələri olan 30-a yaxın elmi kadr hazırlayıb.Bunlardan biri Tursun Qurban – Çin Xalq Respublikasının Sincan Universitetinin professoru olması alimin xarici təhsil ocaqları üçün elmi kadrlar hazırladığının sübutudur. İndi də onun elmi rəhbərliyi altında bir çox tədqiqatçılar müxtəlif mövzularda tədqiqatlar aparırlar.

Nəticə / Conclusion

Nurbay Cabbarov elmi və pedaqoji fəaliyyətdəki uğurlarına görə Özbəkistan Prezidenti tərəfindən layiqincə təltif edilib. Alim 2002-ci ildə "Şöhrət" medalı, 2023-cü ildə "Dostluq" ordeni ilə təltif edilib. Nizami Gəncəvi və Əlişir Nəvainin ədəbi irsinə dair bağlı araşdırmalarına görə Azərbaycan Mədəniyyət Nazirliyinin "Nizami Gəncəvi" xatirə medalı ilə təltif edilib.

Azərbaycan ədəbiyyatının və ədəbiyyatşünaslığının yaxın dostu, tanınmış alim Nurboy Cabbarov bu gün də daim və intensiv şəkildə elmi fəaliyyətlə məşğuldur. Gələcək elmi fəaliyyətində alimə böyük uğurlar arzulayırıq.

ƏDƏBIYYAT / REFERENCES

1. Nurboy Jabborov. Maʹrifat nadir. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
2. Nurboy Jabborov. Zamon. Mezon. She'riyat. – Toshkent: "G'ofurG'ulom"NMİU, 2015, 304 bet.
3. Nurboy Jabborov. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2015
4. Nurboy Jabborov. Maoniy ahlining sohibqironi. Monografiya. – Toshkent, "Adabiyot", 2021.
5. Nurboy Jabborov. "Jahon bastik ushadi ilm birla" , (Furqathayotivaijodiningxorijda oʹrganilishi) Jahon adabiyoti, 2001, 8-son, 122–129-betlar.
6. Nurboy Jabborov. Furqat nega Furqat? Yoshlik, 2001, 5-6 son. 39–41-betlar.
7. Nurboy Jabborov. Furqat merosi va Xitoy manbalari, Sharq yulduzi. 2001, Ikkinchi fasl, 121–127-betlar.
8. Nurboy Jabborov. Furqat "Tanlanma asarlar"ning Shinjong nashri xususida. Oʹzbektilivaadabiyoti, 2001, 5-son,61–64-betlar.
9. Nurboy Jabborov. Vatan ishtiyoqin tortaram. Tafakkur, 2002, 1-son, 48–57-betlar.
10. Nurboy Jabborov. Tiramohda bahor orzusi. Yoshlik, 2002, 3-son.
11. Nurboy Jabborov. Furqat istilochi nimaqtaganmidi? Oʹzbekiston adabiyoti va sanʹati. 2002-yil 22-fevral.

UMUMLISONIY SISTEMA TERMINI XUSUSIDA

Abdiyev M.B.,
filologiya fanlari doktori, professor

O'zbek tilshunosligida o'zbek tili leksikasi, o'zbek adabiy tili leksikasi, o'zbek tili lug'at boyligi, hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi, o'zbek tili lug'at tarkibi, tilning lug'at tarkibi, umumxalq o'zbek tili leksikasi, o'zbek tilining lug'at fondidagi so'zlar, sovet davri o'zbek adabiy tili leksikasi, shevalar leksikasi, o'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi, qipchoq dialektlari leksikasi, kasb-hunar leksikasi, eski o'zbek adabiy tili leksikasi, yozma yodgorliklar tili leksikasi, Alisher Navoiy asarlari leksikasi kabi bir qolipdagi terminlar ko'plab qo'llanadi. Bu terminlarning har biri o'ziga xos nozikliklarga ega bo'lib, ilmiy adabiyotlarda mufassal sharhlangan (Kamolov, 1953, 1966; Pinxasov, 1960; Shoabdurahmonov, 1962; Tursunov va b., 1975, 1992; Muhammadjonova, 1982; Bafoyev, 1983; Begmatov, 1985; Asqarova va b., 1989; Ishaev, 1989; Alieyev va b., 1994 va b.).

O'zbek tilshunosligida sheva materiallarini o'rganishga katta ahamiyat berib kelindi. Shu bilan birga, shevalarda qo'llanayotgan leksik qatlamlar ham ayrim tadqiqotlarning tekshiruv obyekti bo'lib xizmat qila boshladi. Natijada *shevalar leksikasi* (O'zbek shevalari leksikasi, –Toshkent, 1991), *lahja leksikasi* (Madrahimov, 1973), *dialektlar leksikasi* (Doniyorov X., 1979) kabi terminlar yuzaga keldi.

O'zbek adabiy tili va uning shevalarida qo'llab kelinayotgan kasb-hunarlarga doir leksik qatlamning o'rganilganligini va ko'plab ishlarda «... *leksikasi*» terminidan foydalanganligini ta'kidlash lozim. Qiyoslang: «Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi» (Ibrohimov, 1956, 1959), «O'zbek tili amaliy

san’ati leksikasi» (Tursunova, 1978), «O‘zbek tilining etnografik leksikasi» (Mirzayev, 1971), Samarqand viloyati kasb-hunar leksikasi(Abdiyev, 2004) va b.

Keyingi 20-30 yil ichida badiiy yoxud boshqa asarlarning leksik tarkibini o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar paydo bo‘ldi. Ularda «...umumiste’mol leksika» (Mukarramov, 1979), «...umumiste’moldagi leksika», «...umumiste’moldagi so‘zlar» (O‘zbek tili leksikologiyasi, 1981, 11-12), «...poeziya tilining lug‘ati» (Qo‘ng‘urov, Karimov, 1981), «...asarlari leksikasi» (Bafoev, 1983) kabi ishlarni ko‘ramiz.

Tilshunoslikda o‘zbek tili leksikasini quyidagi ikki asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish tavsiya etilgan:

1. Umumiste’mol doirasi chegaralanmagan leksika.
2. Iste’mol doirasi chegaralangan leksika.

Umumiste’mol doirasi chegaralanmagan leksikaga umumturkiy va O‘zbekcha sO‘zlar hamda o‘zlashma (tojikcha, arabcha, ruscha) so‘zlar kiritilgan. Iste’mol doirasi chegaralangan leksikaga esa dialektal leksika, terminologik leksika, jargon va argolar kiritilgan (qarang: Shoabdurahmonov va b., 1980, 128-133).

Quyidagi terminlarga ham e’tibor beraylik: *qo‘llanish doirasi chegaralanmagan leksika, qo‘llanish doirasi chegaralangan leksika* (Abdurahmonov va b., 1992, 86-92).

Ikkinchi guruh olimlar esa o‘zbek tilining mazkur lug‘at tarkibini quyidagi guruhlarga ajratishni ma’qul deb bilganlar:

1. Tarixiy jihatdan hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi. Bunga o‘zbekcha, umumturkiy, tojikcha, arabcha va ruscha so‘zlar kiritiladi.

2. Ijtimoiy-dialektal tarkibi jihatdan hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksikasi (aktiv va passiv sozlar, arxaizmlar, istorizmlar, neologizmlar, dialektizmlar, jargon va argolar) [Qarang: Pinxasov, 1960, 32-44]. Yana bir manbaga murojaat qilaylik:

1. O‘zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti [Asqarova va b., 1989, 29-32]; 2. Hozirgi o‘zbek tili leksik sostavi.

E.Begmatov: O‘zbek tilidagi keng iste’mol so‘zlar; professional so‘zlar; dialektal so‘zlar; hozir tilda iste’moldan chiqqan, ammo ba’zan nutqiy va uslubiy talablarga binoan ishlatiluvchi so‘zlar; ilmiy terminologiya; jargonlar; adabiy va dialektal frazeologiya; atoqli otlar [Begmatov, 1985, 6-22].

Til jamiyatning barcha a’zolari uchun umumiy, majburiy, tayyor hodisa bo‘lishi barobarida, jamiyatning turli saviya va kasb-kor vakillariga baravar xizmat qiladi. Binobarin, tilning leksik tarkibini ilmiy asoslangan holda tasniflash masalasini ham xolisona hal qilish zarurati tug‘ilmoqda.

Yuqorida sanalgan va ma’lum bir til leksik boyligining umumiy nomini atovchi terminlarning barchasi XX asr tilshunosligi emas, balki XIX asr tilshunosligi tahlil usullariga xos terminlardir. Zero, XIX asr tilshunosligida (masalan, Frans Bopp, YA.Grimm, K.Fossler), asosan, tarixiy-qiyosiy (komparativistik) tahlil usullari bilan ish kO‘rildi va bu davr tilshunosligida adabiy til bilan jonli xalq shevalari, shuningdek, tarixiy yodgorliklar tili materiallari, ko‘pincha, bir-biridan ayri va, hatto, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan holda tahlil etilar edi (Qarang: Амирова и др., 1972;). Sistem tilshunoslik asoschilaridan biri Boduen do‘ Kurtene ayrim yosh grammatikachilarning «adabiy til sun’iy va tahlil uchun mutloq yaroqsiz, haqiqiy til savodsiz, shahar madaniyatidan uzoqda bo‘lgan mujiklarning tiliginadir»,–degan shiorlar ustidan O‘zining « Некоторые обшие замечания о языковедении и языке» maqolasida «syurtuk kiygan janobning savodsiz mujikka sirtdan sig‘inishi»,–deb kulgan edi (Zveginsev, I, 1964, 273).

XX asrning 20-yillarida ko‘p millatli sho‘ro davlatida zamonaviy adabiy tillar va zamonaviy yozuvlar yaratishga juda katta e’tibor berildi.

Bunday ultraurinishlar tufayli jonli xalq tili bilan adabiy til va ularning me’yorlari orasiga juda katta va, ko‘pincha, sun’iy to‘siqlar qo‘yildi. Jonli xalq tili va shevalar maxsus siyosiy maqsadlarda kamsitildi, xo‘rlandi va buning bosh sababi, deyarli, IX asrdan boshlab, sho‘ro davri hokimiyatigacha bo‘lgan davrda birga yashab, birga ijod qilib, bir xil madaniyatni rivojlantirgan o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq va boshqa turkiy qardosh xalqlar bir-biridan ajratildi, Markaziy Osiyoda eramizning boshidan XIX asrgacha kuchli davlatni tashkil qilgan O‘lka parchalab tashlandi. Markaziy Osiyoda uzoq yillar davomida hamkorlikda yashab kelgan O‘g‘uz, uyg‘ur, qarluq, qipchoq va boshqa etnik guruhlar tillaridagi lisoniy farqlarga qaramay, ular ko‘p yillar davomida umumiy mushtarak adabiy tildan foydalanib kelgan edilar. Sho‘ro hukumatining Markaziy Osiyoning kuchli davlatini parchalashga qaratilgan siyosati natijasida mahalliy shevalardan ancha uzoq bo‘lgan adabiy tillar va yozuvlar joriy etildi va adabiy til bilan xalq shevalari orasidagi ajralish paydo bo‘ldi. Shu kabi omillar adabiy til va xalq shevalariaro tafovutni kuchaytirdi va yagona o‘zbek tili tushunchasi barham topdi, ya’ni o‘zbek tili deganda, asosan, o‘zbek adabiy tili tushuniladigan bo‘ldi.

Bularning barchasi o‘zbek adabiy tilini uning cheksiz xazinasi bo‘lmish jonli xalq tilidan uzoqda saqlash uchun muhim dasturamal vazifasini o‘taydi. Bunday siyosat o‘zbek lug‘atchiligida ham o‘z aksini topdi. 1923 yildan yangi taraqqiyot yo‘liga kirgan Turkiyada 80 yil davomida o‘ndan ortiq izohli lug‘at, yuz jilddan ortiq «Tarama so‘zlugi» hamda ayrim mintaqalar shevalari va sohalari leksikasi lug‘atlari nashr ettirilib, ommalashtirildi (Kononov, 1976, 80). O‘zbek tilshunosligida esa bu borada boshqa tillarga nisbatan passiv darajada ishlar amalga oshirildi. Olti jildli «O‘zbek tilining izohli lug‘ati», 10000 ga yaqin so‘zni qamrab olgan «O‘zbek xalq shevalari lug‘ati» nashr ettirildi, xolos. XX asrning 30–90-yillarida nashr etilgan turli xil «Ruscha-o‘zbekcha», «O‘zbekcha-ruscha» ikki tilli va sohaviy izohli lug‘at va ma’lumotnomalar, tamoman, boshqa maqsadlarda – lingvistik milliy qadriyatlarni tiklash va ommalashtirish uchun emas, balki ilmiy tushunchalarni, asosan, ruscha ko‘rinishda o‘zbek fani va xalqi orasida keng targ‘ibni nazarda tutgan edi va buning oqibatida, o‘zbek xalqining ming yillik boyligi asta-sekin unutila bordi. Ijtimoiy hayot, xo‘jalik tarzining o‘zgarishi natijasida yuzlab kasb-korlar, ular bilan bog‘liq narsa-predmet, qurol, vosita, texnologik jarayonlarni anglatuvchi so‘z/terminlar nutqiy iste’moldan chiqib ketdi. Shunga qaramasdan, sohaga doir ayrim materiallar to‘plandi hamda tahlil qilindi va natijada Farg‘ona shevalari metallsozlik terminlarining izohli lug‘ati yuzaga keldi (Ibrohimov, 1956, 1959).

1925-40 yillarda mahalliy xalqni bir mintaqadan ikkinchi mintaqaga zo‘rlab ko‘chirish asosida shevalar orasidagi farqlar yo‘qola bordi. Ko‘chmanchi xo‘jalik sifatida badarg‘a qilingan aholining ko‘pchiligi o‘zlarining kasb-korini, hunarini ma’lum darajada yo‘qotdi. Xalqimizning muhim qadriyatlaridan biri bo‘lgan mana shunday boylikning funksional doirasi toraydi. O‘zbek xalq jonli tilida bo‘lgan yuz minglab leksemalar unutilayozdi va buning «oqlovchi» tushunchalaridan biri «O‘zbek tili leksikasi», «O‘zbek adabiy tili leksikasi» qabilidagi sun’iy tushuncha bo‘ldi, deyish mumkin. CHunki bu terminlar ostida xalqning butun so‘z boyligi emas, balki saralangan, barcha uchun me’yor sifatida qabul qilingan, imlo va izohli lug‘atlarda o‘z aksini topgan so‘zlargina tushunildi. Agar hozirgi turk yoki rus, nemis, fransuz tillarining normativ (me’yoriy) imlo lug‘atlarida o‘z aksini topgan so‘zlar miqdorini shu tillarning shevalari leksemasi miqdori bilan solishtirilsa, keyingisining me’yoriy leksikasi to‘rt-besh baravar ko‘p ekanligining guvohi bo‘lish mumkin. Yevropa xalqlari madaniyat bo‘sag‘asiga XVI asrda qadam qo‘ydi. Xalqimizning madaniyati esa kamida bir necha ming yillik tarixga ega. Demak, rasmiy lug‘atlarda aks etmagan so‘zlarimiz miqdori evropaliklarnikidan bir necha o‘n baravar ko‘p bo‘lsa, ko‘pki, oz emas.

XX asrning o‘rtalarida sistem tilshunoslik rivojlanib, fanda etakchi mavqeni egallay boshlaganidan keyin ham, O‘sha davr tilshunosligida qotib qolgan yuqoridagi terminlar saqlanib keldi. Holbuki, bu davr tilshunosligining eng asosiy tushunchasi – «til va nutq» dixomotiyasi nuqtai nazaridan lisoniy hodisalarning adabiy til va sheva tili, sheva nutqi xususiyatlari kabilarga bo‘linishini qat’iy nazariy asoslarga ega emas, deb hisoblash mumkin. Chunki, adabiy til ham, sheva ham umumxalq tilining turli ko‘rinishlaridir.

Til materialidan ham moddiy farqlar orasiga katta tafovut bilan sistem munosabatlar aynanligi holatini tasdiqlovchi minglab misollar keltirish mumkin. Masalan, XIX asrning oxirigacha oliy ta’lim (madrasa)da dars beruvchilar – mudarris, ta’lim oluvchilar – mullavachcha, mudarrisga yordam beruvchi faol talaba – xalfa deb atalar edi. Demak, oliy ta’lim o‘chog‘i va uning ishtirokchilari tizimi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan:

madrasa
mudarris
xalfa
mullavachcha

Hozirgi kunda esa bu tizim mana bu shaklga keltirilgan:

oliygoh/oliy o‘quv yurti
domla
sardor
talaba

Elementlar yuz foiz o‘zgargan, biroq, ular orasida munosabatlar mutlaqo o‘zgarmagan va quyidagicha saqlangan:

Munosabat	So‘z/termin	
	Ilgari	Hozir
1. Oliy ta’lim beruvchi dargoh	madrasa	oliygoh/oliy O‘quv yurti
2. O‘rgatuvchi	mudarris	domla, dotsent, professor
3. Tashkilotchi	xalfa	sardor
4. O‘rganuvchi	mullavachcha	talaba

Yuqorida bayon qilinganlardan shunday xulosaga kelish mumkin: sistema invariant sifatida yuksak barqarorlik va ustuvorlikka ega. Biroq, uning variantlari o‘zgaruvchan va harakatchandir. Binobarin, til invariant bo‘lsa, uning lug‘at tizimi o‘zgaruvchandir. Masalan, Mustaqillik davrida mingdan ortiq leksema iste’moldan chiqdi yoki o‘zgasi bilan almashtirildi va shuncha, hatto, undan ko‘proq miqdordagi leksema iste’molga kirib keldi. Bu jarayonni quyidagi chizmadan ham ko‘rish mumkin:

1989 yilgacha	1990 yildan keyin
vrach	hakim//shifokor
pechat	muhr
sudya	hakam
rayon	tuman
oblast	viloyat
sekretar	kotib
ministr	vazir

So‘zlarning oddiy almashinuvi lisoniy sistemaga jiddiy ta’sir etmaydi. Biroq, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’muriy-boshqaruv va xo‘jalik sohalaridagi inqilobiy burilishlar tilning lug‘at tarkibini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Keyingi paytlarda tilimizga iqtisod (investitsiya, menejment, menejer, mulkdor, o‘zbek modeli, bozor iqtisodiyotiga o‘tish), huquq (huquqiy davlatchilik, huquqiy kafolat, sud hokimiyati, teng huquqli hamkorlik), ma’muriy boshqaruv va xo‘jalik (hokim, hokimiyat, Vazirlar Mahkamasi, dalolatnoma, kafolat xati), ijtimoiy-siyosiy faoliyat (xavfsizlikka tahdid, ma’naviy-ruhiy poklanish, jamiyat mafkurasi, favqulodda fenomen, ustuvor yo‘nalishlar, islohot tamoyillari, yalpi xavfsizlik)ga oid leksemalar ko‘plab kirib keldi.

Bu kabi g‘ayrilisoniy o‘zgarishlar tilning lug‘at tarkibiga ta’sir qilsa va ayrim holatlarda, hatto, yangi lug‘aviy tizimchalar va lug‘aviy paradigmalarni vujudga keltirsa-da, lisoniy tizimning o‘ziga ta’sir etmaydi. Bu erda ham sistema o‘z ustuvorligi va barqarorligini saqlab qoladi.

Xulosa qilib aytganda, rus tili ta’sirida «o‘zbek tili leksikasi», «o‘zbek adabiy tili leksikasi», «o‘zbek umumxalq leksikasi» singari terminlar biroz noqulayliklar tug‘dirayotgan bir paytda, ularning o‘rnida qanday termin va tushunchadan foydalanish mumkin, degan masala ko‘ndalang bo‘ladi. Bizningcha, yuqoridagi terminlar o‘rnida o‘ z b e k u m u m l i s o n i y l e k s i k a s i tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Chunki, umumlisoniy lug‘aviy tizim o‘zbekning barchasi uchun ham, alohida bir guruhi uchun ham (ular ham o‘zbek va o‘zbek tilidan foydalanuvchilar bo‘lishi mumkin) xos leksik birliklarning barchasini o‘z ichiga oladi. Bu termindan foydalanish nafaqat, zamonaviylik belgisi, balki an’anamizga, jumladan, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabatiga hurmat va ehtiromdir. Zotan, buyuk bobokalonimiz «Farhod va Shirin» dostonida shunday deb yozgan edi:

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Olibmen taxti farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin, to Xuroson [Navoiy, 1989, 356].

Alisher Navoiyning bu to‘rtligi o‘sha davrda Xitoydan Turkistongacha bo‘lgan ulkan hududda turkiy tilning ifoda vositalari umumiy bo‘lgan, degan fikrni to‘liq isbotlaydi. Binobarin, o‘zbek ULSi ham o‘zbek tilining barcha leksik vositalarini o‘zida birlashtirmog‘i lozim

ADABIYOTLAR

Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси, II-III том. –Тошкент: Фан, 1959.

Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985.

Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 1980. -448 б.

Абдураҳмонов Х., Рафиев А., Шодмонқулова Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. –Тошкент: ўқитувчи, 1992.

Пинхасов Я. Ҳозирги замон ўзбек тили лексикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1960.

Асқарова М.,Қосимова К., Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1989. -274 б.

Амирова Т.А., Ольховников Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. –М.:Наука, 1972.

Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях. Часть I. –М.: Просвещение, 1964.

Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси.–Тошкент, 1995. -1

Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. –М. –Л., 1960.

O‘ZBEK VA RUS AFSONALARIDA TANIMASLIK MOTIVI KOMMUNIKATIV VAZIFALARI ASPEKTIDA

Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna,
Chet tili-2 kafedrasi v.b. dotsenti
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va rus afsonalarida tanimaslik motivi kommunikativ vazifalari aspektida ko‘rib chiqildi. Rus va o‘zbek folklorshunosligida afsona janrida podshoh obrizining tanimaslik motivi sirli voqealik tahlili asosida izoh berildi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ, motiv, obraz, xalq og‘zaki ijodi, afsona

Аннотация. В данной статье мотив неузнаваемости в узбекских и русских легендах рассмотрен в аспекте коммуникативной функции. А также в русской и узбекской фольклористике проанализирован мотив неузнаваемости образа царя в легендах, которые повествуют о загадочных событиях.

Ключевые слова: коммуникатив, мотив, образ, фольклор, легенда.

Abstract. In this article, the motif of familiarity in Uzbek and Russian legends was considered from the aspect of communicative functions. In Russian and Uzbek folklore studies, the motive of unrecognizability of the image of the king in the myth genre was explained based on the analysis of mysterious events.

Key words: communicative, motif, image, folklore, legend.

Har qanday og‘zaki matn o‘ziga xos kommunikativ vazifani ado etadi. Jumladan afsonalar ham xalq tilida shunchaki ijro qilinmaydi. Afsona matni o‘z mohiyatida u yoki bu ma’lumotni tashishga xizmat qiladi. Bu esa, uning kommunikativ vazifasiga xosdir. Filologik ta’limda kommunikativ vazifa aksariyat hollarda nutqiy birliklarga nisbatan qo‘llaniladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak ko‘pchilik bu vazifani tilshunoslik muammosi sifatida talqin qiladilar [1].



Bu odamlarning til yordamida muloqot qilish va bir-biriga ma’lumot yetkazishini o‘z ichiga oladi. Kommunikativ funksiya uslubiy xususiyatlar bilan bog‘liq: qulaylik, hissiy o‘ziga xoslik, hissiy va baholash ma’lumotlarining mazmuni. Elliptiklik (so‘zlar, tovushlar, bo‘g‘inlar, jumlalar qismlari qoldirilishi) ham ma’lumotni iloji boricha tezroq yetkazish va suhbatdosh bilan aloqa qilish istagi bilan bog‘liq. Mantiqiy nuqtayi nazardan, nutqning uzilishlari va nomuvofiqligi ma’ruzachining diqqatini qandaydir fikrga qaratish, u yoki bu tushunchani yanada to‘g‘riroq yetkazish istagi bilan bog‘liq. Aynan shunday og‘ishlar nutqning mantiqiy nuqtayi nazardan uzilishi va nomuvofiqligini keltirib chiqaradi.

Afsona o‘zining janr tabiati bilan rivoyatlardan ajralib turadi [2]. Afsonalarda tasvirlangan voqealar xayoliy uydirmaga asoslansa, rivoyatlarda hayotiy uydirma yetakchilik qilishi o‘zbek folklorshunosligida

ma’lum [3]. Masalan, V.Ya. Propp afsona va rivoyatlar janrlarini (ko‘pincha terminologik jihatdan bir-birining o‘rnini bosuvchi) ajratib ko‘rsatib, qahramonlarning turlarini farqlash mezoni sifatida ajratib ko‘rsatadi: “Xalq afsonasi qahramonlari”, deb yozadi V.Ya. Propp, – Odam Ato va Momo Havo, Nuh, Sulaymon, payg‘ambarlar, Masih va uning havoriylari, masalan, Yahudo, shuningdek Nikola, Yegoriy, Kasan va boshqalar kabi Eski va Yangi Ahdning turli qahramonlaridir. Bu janrga tavba qilib, zohid bo‘lgan buyuk gunohkorlar, zohidlar, taqvoning barcha turlari haqida hikoyalar ham kiradi. Yana: “Bu so‘z tarixiy shaxslar haqidagi hikoyalarga to‘g‘ri kelmaydi. Bunday hikoyalarni afsonalar yoki tarixiy hikoyalar deb atashadi. Bunga Razin, Pugachev, Pyotr, dekabristlar va boshqalar haqidagi og‘zaki folklor hikoyalari kiradi” [4]. Shunday qilib, V.A.Propp afsonalarni og‘zaki hikoyalardan ajratib olish zaruratini urg‘ulaydi. Uning e’tibor qaratayotgani afsona yoki hikoya qahramonlarining tarixiy shaxs bo‘lishi va ular atrofida sodir bo‘lgan hodisalarning xayoliy yoki hayotiyligi masalasi turadi.

M.R. Raxmonova o‘z asarida afsona va og‘zaki hikoya kabi “bir-biriga yaqin janrlar” ning voqelikka turlicha munosabatda bo‘lishini ta’kidlaydi: “Og‘zaki hikoya va afsonaning voqelikka munosabati boshqacha. Agar afsona “kollektivning tarixiy ongini” to‘liq ifodalab, “uning tarixiy xotirasini mustahkamlashning bir turi” bo‘lsa, unda og‘zaki hikoya, birinchi navbatda, zamonaviylikni tushunishning og‘zaki shakli, folkloriy ongning estetik rivojlanishini boshlang‘ich bosqichidir” [5]. Biroq, bu holatda, bizningcha, afsona va og‘zaki hikoyada voqelikning o‘ziga munosabat emas, balki ulardagi haqiqatga kirish darajasi (diaxronik - afsonalarda, sinxron – og‘zaki hikoyalarda)ga e’tibor qaratish lozim. Folklorshunos S.N.Azbelev yozganidek, Aslida rivoyatda ham, og‘zaki hikoyada ham voqelikka munosabat ratsionalistikdir, ikkala janr ham voqelikni “bilish va haqiqatdan ham tushuntirishga” [1] xizmat qiladi, muayan hodisa to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlarni yetkazadi.

Xalq og‘zaki ijodidagi pragmatikaning predmeti, pragmatik vaziyatdagi folklor matni, ya’ni uning jonli faoliyat ko‘rsatishi, ijrochi va tinglovchi o‘rtasidagi jonli muloqotidir. Folklor matnining semantikasi, eng avvalo, u ijro etilayotgan vaziyatga ya’ni, xuddi shu pragmatikaga bog‘liq. Bundan tashqari, matnning janrga tegishliligi uning pragmatikligi bilan belgilanadi: ijro uchun hozirgi vaziyatga eng mos keladigan janr tanlanadi.

Bo‘rtirilgan, ammo yorqin misol tariqasida marosim falklorining bir turini ko‘rishimiz mumkin: dafn marosimida maxsus ayollar (Toshkent shahrida erkaklar ham shuni kasb qilgan) yig‘laydi motam qo‘shig‘ini kuylaydilar. Marosim qo‘shiqlarining boshqa turi “chastushka” –xushchaqchaq kayfiyatda xazil tariqasida kuylanadi. Shunday qilib, folklor matnining pragmatik va semantikasi vaziyatga, umuman olganda, matn vazifasini bajaruvchi muhitga (biz uni an’ana, marosim deb ataymiz) qarab belgilanadi. Xush chaq-chaq, kayfiyatni ko‘tarishga qaratilgan rus chastushkalari, o‘zbek o‘lanlari pragmatik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgani kabi motam marosimidagi yig‘i yo‘qlovlar ham mushtarak funksional vazifa va progmatik belgiga ega.

Afsonalarning pragmatikasi garchi ularning qahramoni bir xil tarixiy shaxs bo‘lsa ham ijrochilarni o‘z matnlarining ifodasini turlicha taqdim etishga majbur qiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan, tinglovchilar tomonidan folklor matnini talqin qilish muhim - haqiqiy, obyektiv (hikoyalar) yoki yolg‘on, uydirma (afsonalar) sifatida. Lekin shunday matnlar ham borki, ular pragmatik va janr nuqtayi nazaridan noaniq bo‘lib, ularni tasniflashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Bunday matn turiga rus folklorshunoslari tomonidan 1956-yilda Buratiya Respublikasi hududidan yozib olingan podshoh Pyotr I ning tan olinmaganligi motivini o‘z ichiga olgan og‘zaki matn kiradi [6].

Turli xalqlar folklorlarida podshoh, hukmdor, rahbar obrazlarining oddiy xalq vakillari tomonidan tan olinmaganligi (tanilmaganligi) to‘g‘risidagi tipologik o‘xshash motivlar mavjud. Rus folklorida tan olinmagan hukmdor obrazi tarixiy afsonalarda qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Tan olmaslik motivi, hamisha, ushbu janrlarda adolatli hukmdor obrazi bilan bog‘liqdir. Ivan IV Grozniy, Yekaterina II, Aleksandr I, kamdan-kam hollarda – Boris Godunov va Ivan III an’anaviy rus folklorida "adolatli" hukmdor obrazida uchraydi. Ammo rus halq og‘zaki ijodida asosan adolatli qahramon sifatida Pyotr I obrazi ishlatilgan, uning timsolida xalqning mehribon va adolatli hukmdor haqidagi orzusi mujassamlashgan. Hukmdor obrazi va uning adolatli siyosati borasidagi afsonalar o‘zbek folklorida ham mavjud. Iskandar Zulqarnayn, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur haqidagi tarixiy afsonalarda tan olmaslik yoki tanimaslik motivi ko‘zga tashlanadi. Amir Tarag‘ay Bahodir Buxoroga borib, bir shayxning qiziga uylanibdi. Xotini xomilador bo‘lib, oy-kuni yaqin qolganida Buxoro amirining bashoratchilari amirga Buxoro shahri. Uning sitiqboli haqida bashorat qila turib: “Ertalab falon qishloqda falonchining uyida bir o‘g‘ib bola tug‘iladi. Bu bola shu qadar bahodir bo‘ladiki, yetti iqlimni qo‘liga qaratadi”,-debdi. Buni eshitgan amir chaqaloq kimning uyida tug‘ilgan bo‘lsa, topib kelib qatl etishlarini buyuribdi. Amir sarkardalari butun Buxoroyi sharifni titkilashtiribdi. Qizini ko‘zi yoriganidan xabardor bo‘lgan shayx amirning hukmini ham daragini topgan ekan. Darhol qizi va uning go‘dagini bekitibdi. Tun yarmida ularni Qarshi tomonga qochirib

yuboribdi. Qarshi Samarqand hududlarida qochqinda yashagan ona va bola o‘sib ulg‘ayibdilar. Bola ulg‘aygan sari, baquvvat bo‘lib ketibdi. U Samarqand va Jizzax orasidagi tog‘ orasida karvon yo‘llarini to‘sib, ulpon undiradigan bo‘libdi. Sarbonlar pul bermasalar katta-katta xarsanglar bilan yo‘lni to‘sib qo‘yarkan. Yo‘l pulini olgach, toshlarni olib karvonni o‘tishiga ruxsat berarkan. Bu pahlavonning ismi Temur ekan. Temur taxtga o‘tirganidan keyin ham gohida janda kiyib xalqni ichiga oralab yurar, Samarqand darvozaga borib, yo‘lda karvonlarni to‘xtatib ulpon olar, ular bilan gaplashib, Samarqand hukmdori Amir Temur haqidagi (o‘zi haqida) gaplarni bilib olarkan. Tong azonda yana shaharga qaytib o‘z taxtiga o‘tirar va odamlarning muammolarini hal qilishda to‘g‘ri qarorlar chiqararkan [5]. Mazkur afsonada Samarqand hukmdori Amir Temur janda kiyib el ichiga oralab yurishi va o‘zi hamda siyosati borasida odamlarni fikrini o‘rganishi g‘oyasining ochilishida hukmdorni qahramonni tanimaslik motivi ko‘zga tashlanadi.

V.Ya. Propp “Sehrli etaklarning tarixiy ildizlari” asarida shunday yozadi: “Ularning (shohlar) har bir harakati butun bir kodeks asosida tartibga solingan bo‘lib, bajarilishi juda qiyin edi. Ushbu kodeksning qoidalaridan biri hech qachon saroyni tark etmaslik edi. Ko‘p joylarda shoh sirli shaxs bo‘lib, uni hech kim ko‘rmagan” [4]. Saroyni tark etmaslik taqiqi keyingi motivning evolyutsion holda maydonga kelishiga zamin hozirlagan. Har qanday taqiq uning buzilishiga olib keladi. O‘z navbatida podshoh ham yuqoridagi sabablardan biriga ko‘ra saroyni tark etadi, shoh saroydan tashqarida ko‘rinmasligi kerak va uni tanimasliklari uchun tashqi qiyofasini o‘zgartiradi(ko‘pincha nochor kishilar kiyimida chiqadi). Natijada qahramonni tanimaslik motivi vujudga keladi. Tanimaslik motivi o‘zbek va rus afsonalari uchun mushtaraklik kasb etadi.

I.N.Raykovaning aniqlashicha, tan olinmaslik motivi “rus tarixiy prototiplarining haqiqiy xususiyatlariga, moyilligiga mos keladi. Podshoh bo‘lishiga qaramay Potr I har doim juda oddiy kiyingan, shuningdek Ivan Grozniy va Potr I larning eng sevimli mashg‘ulotlari bu kiyimini o‘zgartirish, maskarad, qiyofasini o‘zgartirish va boshqalar bo‘lgan” [7]. Demak, tan olinmaslik motivi mifologiyada ham, tarixiy afsonalarda ham chuqur ildizlarga ega. Bizningcha, bu motiv dastlab mifologik tasavvurda shakllanib, keyinchalik badiiy tafakkurga ko‘chgan. Kishilik jamiyatining ilk davrlarida qadimgi odam ongida shakllangan mazkur motiv jamiyat taraqqiyoti va bashariyat tafakkurining tadrijiy takomili natijasida mif sujetidan afsona sujetiga ko‘chgan. Uning o‘zbek va rus folklori matnlarida bir xil uchrashi motivning arxaikligi bilan izog‘lanmog‘i lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Azbelev S.N.Narodnaya proza. – M: Russkaya kniga. 1992.– B.6-7.
2. Kolshanskiy G. V. Kommunikativnaya funksiya struktura yazika. Otv. red. T. V. Buligina. - Moskva: Nauka, 1984. – 175.
3. Mengliyev B. O‘zbek tilini substansial - pragmatik tadqiq qilish - davr talabi/ “O‘zbek tilshunosligi: taraqqiyot tamoyillari, ilmiy muammolar, istiqboldagi vazifalar” mavzusida respublika ilmiy - amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2013. – B.27-28.
4. Propp V.A.Istoricheskie korni volshebnoy skazki. – L.:Izd. Leningradskogo universiteta, 1986.– b. 38.
5. Raxmonova M.R. O‘zbek xalq tarixiy fasonalari. – Toshkent, Fan, 2001. – B.36.
6. Raykova I.N. Russkie predaniya, legendi, skazki, lubok i massovaya literatura o "spravedlivom" sare : Tradis. sujetы, motivi, poetika: dissertatsiya ... kandidata filologicheskix nauk : 10.01.09. - Moskva, 1995. - B. 35.
7. Sattorov U.F. Svoyeobraznie interpritatsi evolyutsionnix motivov v toponimicheskix legendax//Vestnik nauki i obrozovaniya – M.:2019.– B.35-38.

QISSADA YAQIN TARIXNING IN’IKOSI

Farxod Nizomov,
Navoiy davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchisi, tayanch doktorant

Annotatsiya. Maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Bir tomchi yosh” qissasi qahramoni Baxtiyor timsolining istiqlol davri kishilari muammolari, orzulari daraja-siga mos kelishi, uning hayotiy va tipik obraz ekanligi haqida ayrim mulohazalar bayon etilgan. Asar qahramonlari xarakterini ochishda adabiy vositalarning ahamiyatiga diqqat qaratilgan.

Аннотация. В статье некоторые комментарии о Бахтияре, герое рассказа Лукмана Борихана «Одна капля молодости», соответствуют уровню проблем и мечтаний народа периода независимости, а также о том, что он является жизненным и типичным персонажем. Подчеркивается значение литературных средств в раскрытии характера героев произведения.

Annotation. In the article, some comments about Bakhtiyar, the hero of Luqman Borikhan's short story "One Drop of Youth", correspond to the level of problems and dreams of the people of the independence period, and that he is a vital and typical character. Emphasis is placed on the importance of literary means in revealing the character of the characters of the work.

Kalit so'zlar: milliy xarakter, ruhiyat tasviri, detal, motiv, obraz, talqin, fenomen, ijtimoiy hayot, poetik vositalar.

Ключевые слова: национальный характер, мысленный образ, деталь, мотив, образ, интерпретация, явление, социальная жизнь, поэтические средства.

Key words: national character, mental image, detail, motive, image, interpretation, phenomenon, social life, poetic tools.

Luqmon Bo'rixon "Bir tomchi yosh" qissasida voqelik tizimi, syujet halqalari istiqlol davri ijtimoiy hayot masalalari asosida shakllantirilgan. Yozuvchi hayotiy-tarixiy voqelikni badiiy voqelikka aylantirish orqali qissa hayotiyligi va g'oyaviy dolzarbligini ta'minlashga erishgan. Taniqli psixologik-analitik tahlil ustasi bo'lgan M.Baxtinning fikricha, har bir yozuvchining ustamonligi, hayotiy xomashyo voqelikni badiiy-estetik talqinga aylantira olishi bilan namoyon bo'ladi; shu ma'noda ijodkor o'zining so'z san'atkori ekanligini voqelikni estetik tamoyilga aylantira olishi bilan isbotlaydi; L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, A.Balzak, Mopassan kabi yozuvchilar asarlarining salmog'i o'zlari tanlagan voqealarni, tarixiy-ijtimoiy masalalarni badiiy-estetik talqin ko'lamiga aylantira olishi bilan mashhurligi ana shu vazifalar amaliga bevosita bog'liq [2; 7-22-betlar].

Muallif asar qahramonlari xarakterini ochib berish, tabiiy fenomenini talqin etish maqsadida adabiy tasir vositalaridan unumli foydalana oladi. Bu, jumladan, voqelikdan badiiy voqelik yaratish mahoratida ham namoyon bo'ladi. Masalan, yangi davr qarama-qarshiliklari ichra telbavorlanib yurgan rassom yigit Baxtiyorning taqdiri haqida oddiygina shu alfozda olti oycha shunchaki kun o'tkazdi" jumlasidayoq sargardon yigitning ahvolini badiiy ohangda talqin etishga erisha olganligini ko'ramiz.

" - Hozircha sinov muddati bilan olamiz, maoshingiz kamroq bo'ladi, - deydi xo'ppa semiz, yuz-ko'zlariga ayovsiz upa-elik chaplangan ayol, - ishingiz ma'qul bo'lsa, uch oydan so'ng shtat bo'yicha haqingizni olaverasiz". O'shanda kech kuzning izg'irinlari izg'ib turardi. Sovuq. Lekin Baxtiyor quvonchdan qoni qizib, ko'zlarida o't porlab uyiga qaytadi. Baxtiyorning kamtarin va qanoatli xotiniga ko'ngli ilib, mehr bilan qaraydi. "Matluba, senga rahmat. Qiyinchiliklarga sabr qilding, kamimni yashirib, ko'pimni oshirib ko'rsatding", - deydi Baxtiyor [1; 16-bet].

" - Qo'ying-e", - deya pichirlaydi Matluba erining mehr bilan erkalab qarashlaridan xijolatlangan tarzda. "- Non topib kelayotgan siz-ku, men bir tashvishingizni mingga ko'paytirishdan boshqasiga yaramayotgan bo'lsam...", - deya beozor tabassum bilan ohista so'zlaydi Matluba. "Hayotiy va ijtimoiy voqelikdan terib, saralab olingan muayyan g'oya va estetik ideal asosida umumlashtirilgan, tipiklashtirilgan va badiiy asar maydonida mavjud bo'lgan odamlar, voqea-hodisalar va xatti-harakatlar mavjud badiiy voqelik deb atalishini mumkin deb yozadi A.Xolmurodov. Ammo badiiy voqelik ijtimoiy va hayotiy voqelikning aynan nusxasi emas. U go'zallik qonuniyatlari asosida o'zlashtirilgan voqelik, sifat jihatidan yangi hodisadir" [4; 67-bet].

L.Bo'rixon qissada yetakchi qahramon Baxtiyor timsolida yangi o'tish davri bozor iqtisodi mashaqqatlari bag'rida yosh yigit boshidan o'tgan azoblar, shakllanish, odamday yashash tashvishlari hayotdan saralangan real voqelikni estetik ideal, badiiy voqelik darajasiga aylantirib tasvirlay olgan. Bu yollanma ish jarayonidami, rassomlik qiziqishlari yoki oilaviy muhitdami, barcha katta-kichik xarakterli hodisotlar fonida realistik aniqlik, ramziy-poetik vositalar asosida amalga oshirilgan.

Vaqtincha arzimas ishga qabul qilinganigayam Baxtiyor va uning oilasi uchun misoli bayramga aylanib qoladi. O'sha kuni ular er-xotin bolalarini sayr-boqqa olib chiqishadi, xotini bir qop semirib, quvonch ichra osh damlaydi. Shunday quvonchli voqealar chog'idayam Baxtiyorning ko'nglining bir yoni baribir kamdek, nimasidir maqbul emasdek tuyulardi. Chunki barcha ish-faoliyati ming bir qiyinchilik, mashaqqat-u iztirob bilan amalga oshib kelmoqda edi.

Bunday taqdir, bunday og'ir xayol, qalb titroqlari o'sishga-rivojlanishga jon-jahdi bilan intilayotgan navqiron yigit fenomeni kabi e'tiborli. Yozuvchi kitobxonni shu kabi mashaqqatli, ammo, ezgu mulohaza va xulosa sari rag'batlantiradi. Istiqlol asarlari g'oyaviy-falsafiy mag'zida izlanishga, munosib ijtimoiy ishlarni amalga oshirishga da'vat poyetikasi etakchilik qilishini ta'kidlash joizdir. Chunonchi, istiqlol davri ijod ahlining, hatto endigina qo'liga qalam olgan yosh iste'dodlarning asarlarida ham bunday xususiyat etakchilik qiladi.

L.Bo'rixon asarlarida, jumladan, "Bir tomchi yosh" qissasida istiqlol madhi, totalitar tuzum tanqidi, ma'naviy-axloqiy tamoyillar, iste'dod egasining shakllanish jarayonlari, sof muhabbatning shirin iztiroblari

kabi g‘oyaviy yo‘nalishlar uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Qissada xarakter olamini tasvirlashda tabiat vositalaridan unumli foydalanganligi - g‘oyaviy pafoss talqinida qo‘l kelgan.

Adabiyotshunos Umarali Normatovning yozishicha, “Bugungi qissachili-gimizga nazar tashlaganda, birinchi galda undagi mavzu, muammo, shakliy, uslubiy jihatdan rang-baranglik e’tiborni tortadi. Ular orasida tarixiy, zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy, ommaviy-maishiy, ishqiy mavzulardagi ham an’anaviy romantik, realistik, ham modernistik, ham jiddiy, ham yumoristik, sarguzasht-dedektiv yo‘nalishdagi asarlarni ko‘rish mumkin” [3; 157-bet].

Olim istiqlol davri nasriy asarlari, jumladan, qissa janri namunalariga xos o‘ziga xosliklarni ancha batafsil umumlashtirilgan. Bu davr ist’dodli yozuvchilari qatoridan munosib joy olgan L.Bo‘rixon, A.Yo‘ldosh navqiron nosirlar qalamiga mansub asarlarda taniqli va faol munaqqid U.Normatov qayd qilgan xususiyatlar bo‘y ko‘rsatishi bilan muhim.

“Bir tomchi yosh” qissasi qahramoni Baxtiyor timsolining istiqlol davri kishilari muammolari, intilish-orzulari darajasiga mos kelishi uning hayotiy va tipik obraz ekanligidan dalolat beradi. Baxtiyor arzimas ishga joylashgan oqshomi xushnudlik bilan boloxonasiga - rassomlik anjomlari, mashq namunalari qalashib yotgan joyga chiqib boradi. Yozuvchi Baxtiyordagi bolaligidan qiziqqan, ma’lum iqtidori bo‘lgan musavvir faoliyatini, uning muttasil taniqli rassom bo‘lib yetishishi bilan bog‘liq yuksak orzulari talqinini teng ravishda olib boradi.

Asarda Baxtiyor hali hech kimning ko‘zi tushmagan kartinasini to‘la tugallamagan ham, taniqli rassomlarga maslahat uchun ko‘rsatmagan ham. Chunki, hayot, yashash tashvishlari bilan o‘zi sevgan ijod sohasida bafurja shug‘ullanish, izlanish imkoni bo‘lmagan ham, bozor iqtisodi jarayonida ijod ahlining iqtisodiy-moliyaviy ahvoli bir qadar sayozlanib qolganligi Baxtiyor va yana Georgiy otli darveshnamo rassom hayoti misolida badiiy talqin etilgan. Baxtiyor bu ishini hozircha hech kimga ko‘rsatmagan, hech kimga baholatmagan bo‘lsa-da, favqulodda noyob bir san’at asari yaratib qo‘yganini ich-ichidan his etardi.

Yozuvchi Baxtiyorning qalbini rom etgan sirli kartinasi mazmunini, unda nima, qanday noyob manzara yoki portret tasvirlanganligini sir tutish, qiziqtirish san’ati bilan atayin ochiq ma’lum qilmay turadi. Hayotda kuzatishicha, o‘ta fidoyi, kuyunchak, halol yo‘lda yurgan, o‘z kuchi va iqtidoriga ishongan kishilarda taqdirida to‘siqlar, adashishlar ko‘p sodir turadi. “Kambag‘alni tuya ustida it qopar” degan xalq naqliga muvofiqlikda Baxtiyorni ham har adamda xatar kutishi qissada real hayot in’ikosi sifatida talqin etilgan.

Qissada L.Bo‘rixon obraz ruhiy holatiiga xoslikda badiiy-falsafiy fikr-xulosalarini muallif nutqi tarzida ifodalab borgan. “Jazoning beayovlari ham oldinda ekan” - fikr-talqini shulardan biri [1;19-bet]. Bu usul asar arxitektonikasida qiziqarli chizilgan. Baxtiyor uchun yana jonsarak kunlar boshlandi. Qarzga botdi. Qarindoshlar oldida rangi sarg‘ayib qoldi.

Bir vaqtlar otasi uni tanishtirib, rassom bo‘lishiga ko‘maklashsin, deya, oldiga olib borgan darveshnamo rassom Georgiy Baxtiyorga tasodifan duch kelib qoladi. Baxtiyor unga o‘sha sirli kartinasini ko‘rsatadi. Georgiy buni shoh asar kabi noyob yaratma deb baholaydi. Orada Baxtiyorning sinfdoshi - biznesmen yigit O‘ktam uning suratlariga xaridor bo‘lib qoladi. U buni savdo do‘konlariga qorovul qilib olgan Georgiydan eshitgan edi. O‘ktam do‘stining kartinasini Toshkentda boyvachchalarga sotish uchun olib ketadi. Ammo qirmizi ufq fonidagi go‘zal qizning ko‘z yoshi tasvirlangan kartina mohiyatini puldorlar aslo tushunishmaydi. O‘ktamning fikricha, Baxtiyor yalang‘och ayollarning suratini chizsa, xaridorgir bo‘ladi. Shunday qilib, Georgiy shoh kartina darajasida maqtagan kartinasi misoli keraksiz matoh darajasiga tushib qolganligi Baxtiyorning hafsalasini tamom qiladi.

Luqmon Bo‘rixon “Bir tomchi yosh” qissasida Baxtiyor timsoli orqali bozor iqtisodi maydonida ishi yurishmagan, ammo barcha mashaqqatlarni yashash yo‘lida mar-dona yengib o‘tishga tirishgan butun bir avlodning obrazini barcha haqiqati bilan badiiy aks ettirgan.

ADABIYOTLAR:

1. Bo‘rixon L. Bir tomchi yosh.//Quyosh hali botmagan. Qissalar va hikoyalar. T.: “O‘zbekiston”, 2015. 16-19-betlar.
2. Бахтин М. Эстетика словестного творчества. М., Искусство”, 1979, стр.7-22
3. Норматов У. Қиссадан ҳиссалар // “Жаҳон адабиёти”, 1997, 3-сон, 157-бет.
4. Холмуродов А. Қиссада бадиий образ яратиш маҳорати. Т.: “Фан”, 2006, 67-бет.

PROFESSOR SULTONMUROD OLIM ILMIY FAOLIYATIDAGI ASOSIY MEZONLAR

Tillayev Bahodir Odiljonovich,
Namangan davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyot kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola navoiyshunos olim Sultonmurod Olim tadqiqot ishlarining usullari, xususan, olimning tadqiq mezonlari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tadqiq mezoni, an’anaviylik, tadrijiylik, xolislik, muntazamlik.

Аннотация. В данной статье речь идет о методах исследования ученого Султанмурада Олима, в частности о критериях исследования ученого.

Ключевые слова: критерии исследования, традиционализм, постепенность, объективность, закономерность.

Annotation. This article discusses the research methods of the scientist Sultanmurad Olim, in particular the criteria for the scientist’s research.

Key words: research criteria, traditionalism, gradualism, objectivity, regularity.

Dunyo adabiyotshunosligi tendensiyalari, barcha sohalarda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar qatorida badiiy ijod mahsuli bo‘lgan hodisalarni yangi tadqiqot usullari bilan tahlil etishga qaratilmoqda. Ayni damda, adabiyotshunoslik rivoji, mumtoz asarlar tahlilida tarixiylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirishga erishish hamda muayan olim tadqiqot usullari va ilmiy-adabiy faoliyati davomida belgilagan mezonlarni o‘rganish orqali aniq nazariy xulosalarga kelish zaruriyati sezilmoqda. Ayniqsa, dunyo adabiyotshunosligida turli maktab vakillariga xos ijodiy izlanishlarning yangi bosqichga ko‘tarilishi ilmiy meros tadqiqi borasida ham o‘ziga xos yondashuvlarni taqozo etmoqda. Har bir tadqiqotchining o‘ziga xos professional chegarasi, aniqrog‘i, kasbiy-ilmiy etikasi yillar davomida shakllanib boradi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqot olib boruvchi bilan o‘rganayotgan davr yoki ijodkor o‘rtasida murakkab, tushuntirib bo‘lmas bog‘liqlik bo‘ladi. Navoiyshunos Sultonmurod Olim adabiyot tarixini o‘rganishni asosiy maqsad qilgani hamda bu sohada o‘ziga xos tadqiqot yondashuvlarini tanlashi olimning e’tiqod, hurmat, g‘urur kabi hislatlari bilan bog‘lanadi. S.Olim mumtoz adabiyot tarixi tadqiqiga yondashuv mezonlarining birinchi va olim ilmiy-adabiy qarashlarini yaqqol namoyon etadigan – an’anaviylikni o‘rganish, ya’ni Sharq adabiyoti boshqa xalqlar adabiy merosidan o‘zining tarixiy shakllanish jarayoni va o‘ta poetik badiiylikka boyligi bilan ajralishiga ahamiyat qaratish hamda shu mezon asosida o‘zining ilmiy qarashlarini bayon etish bo‘ladi. Sultonmurod Olim mumtoz g‘azallar shakli va mazmuni jihatidan yagona birlikni hosil qilgan ijod mahsuli ekanligiga ahamiyat qaratgan. Olim Sharqda nazira bog‘lash, tatabbu’ yozish kabi an’analar va uzviylikka e’tibor qaratar ekan, xususan, “Lison ut-tayr” asarining Navoiy tomonidan ijodiy qayta yaratilishiga bo‘lgan turli xil qarashlarga shunday o‘rinli javob beradi: “Navoiyning o‘z asarini “Mantiqut-tayr”ga javoban, nazira tarzida yozgani haqidagi e’tirofini adabiy an’anaga rioya qilish mazmunida tushunish to‘g‘riroq bo‘ladi. Zeroki, asar originallik darajasiga ko‘tarilgan. Bu hol, o‘z navbatida, o‘sha davrlarda nazira bog‘lash masalasiga benihoya keng va anchayin chuqur ma’noda yondashilganidan dalolat beradi. Demak, “Lison ut-tayr” dostoni ko‘chirma asar emas, balki buyuk ustozlar maktabida o‘qish, ularning asarlaridan zaqlanish ta’sirida yozilgan asar hisoblanadi” [Sultonmurod Olim, 6]. Aynan biz olimning “buyuk ustozlar maktabida o‘qish”, degan fikriga e’tibor qaratamiz. Olim bu bilan nazira bog‘lash nafaqat mavzuni takrorlash, balki o‘qish, o‘rganish ham ekanligini aytmoqchi bo‘ladi. Bu masalaga kengroq yondashgan adabiyotshunos Sultonmurod Olimov yozadi: “XX asrning 20-yillarida yirik sharqshunos Y.E.Bertels Navoiyning teng huquqli original shoir ekanini ilman isbotlab ko‘rsatish uchun aynan “Lison ut-tayr”ni tanlagani bejiz emas edi. Bu bilan olim, hatto, Navoiyning olti dostoni orasidagi ta’sir etayotgan asarga nisbatan eng yaqini hisoblangan “Lison ut-tayr” ham mustaqil ijod namunasi bo‘lgan ohoriy badiiy ijod namunasi, demoqchi bo‘lgan. Biroq bundan qariyb bir asr ilgari yozilgan mazkur tadqiqotda muallifning maqsadi ko‘proq Attor va Foniy asarlari o‘rtasidagi farq-tafovutlarni bo‘rttirib ko‘rsatishdan iborat bo‘lib qolgan. Adabiyotshunoslik, jumladan, tarjimashunoslikning endigi vazifasi esa Attor va Foniy dostonlari o‘rtasidagi yalpi vobastalikni to‘la-to‘kis, ya’ni har taraflama ochib berishdan iborat bo‘lishi lozim” [Olimov S., 3]. Albatta, Navoiy va uning salaflari o‘rtasida vobastalik, uyg‘unlik hodisasini o‘rganish orqali shoirning mahoratini to‘la ochib berish mumkin bo‘ladi. Sultonmurod Olimga xos bo‘lgan ikkinchi mezon – badiiy asarlar nashridagi xato, kamchiliklarni tuzatishga xolislik asosida yondashishdir. S.Olim ilmiy faoliyati davomida uchragan ba’zi noaniqliklarni tuzatish va bartaraf etishni lozim deb topadi. Masalan: Huvaydoning “Sabo, yetkur salomimni qadi sarvi ravonimg‘a” olti baytli, hazaji musammani solim bahridagi g‘azal beshinchi bayti birinchi nashrida: Oni dardi firoqi o‘lguncha mandin judo bo‘lmas, Tirilmas jismima ondek tamomi ustuxonimg‘a [Huvaydo,

1961:7] – shaklida yozilgan, keyingi nashrda olima tomonidan baytdagi xatoning tuzatilishi shoir maqsadini aniq ochadi. Ya’ni: Oni dardi firoqi o‘lguncha mandin judo bo‘lmas, Taralmish jismima jondek tamomi ustuxonimg‘a [Huvaydo, 2009: 8]. Olimning xolislik mezoni jihatidan qarashlari uning havola va izohlarida ham ko‘rinadi. Olim biror ijodkor biografiyasiga oid ma’lumot berganida ayni shu shaxsga boshqa asarlarda qanday munosabat bildirilganini aynan keltirib o‘tadi. Masalan, “Majolis un-nafois”ning yettinchi majlisidagi Faridun Husayn Mirzo fiqrasida o‘qiymiz: “Faridun Husayn Mirzo – Faridun hasabliq va Husayn nasabliq. Zoti ta’zim va viqorliq va xulqi adab va hurmat shiorliq, yoy kuchida yagona va o‘q otarda zamona ahliga nishona. Toat va taqviyg‘a moyil. Zikr va tilovatqa mashg‘ul yigitdur. Xub tab’i va muloyim zehni bor. Bu matla’ aningdurkim: Garchi dar ko‘i tu pomoli jafo gardidam, Ba xudo gar sari mo‘e zi vafo gardidam. Bu turkcha matla’ ham aningdurkim: Ey sabo, yetkur manga sarvi ravonimdin xabar, Pahm etib bergil manga oromi jonimdin xabar [Alisher Navoiy, 1997:1]”. Garchi Navoiy bu temuriyzodani alqab, uning yaxshi sifatlariga ko‘proq e’tibor qaratgan bo‘lsa-da, S.Olim “Boburnoma”ga tayanib uning ojiz jihatlarini ham xolisona yoritib beradi: “Faridun Husayn Mirzo – Husayn Boyqaroning o‘g‘li. Bu shahzoda haqida Bobur yozadi: “Yoyni yaxshi tortib, o‘qni yaxshi otar edi. Kamon guruhasin derlarkim, 40 botmon ekandur. O‘zi xeyli mardona edi, vali feruzjang emas edi. Har yerdakim, urushti, mag‘lub bo‘ldi”. Faridun Husayn mirzo Shayboniyga qarshi janglardan birida halok bo‘lgan” [Alisher Navoiy, 1997:1]”. Olim ilmiy ishlariga xos uchinchi mezon – ma’lumotlarni yig‘ish, biror ijodkor hayoti, ijodini yoritish, ya’ni tizimlilik hisoblanadi. Aynan “Adabiyot tarixi” kitobi millatimiz tarixini aks ettiradigan muhim hujjat bo‘lganidan bu jarayon olimdan juda katta mas’uliyat va majburiyat talab etadi. S.Olim “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobi uchun tayyorlagan materiallari mavjud mezonlar asosida tizimli ravishda qisqa, aniq bayon etilgan. Sultonmurod Olim ilmiy faoliyati yaqqol ko‘zga tashlanadigan yana bir mezon – daliliylik, tasdiq keltirish bo‘ladi. Olim mumtoz adabiyotimiz vakillari hayoti va ijodini yoritishda ko‘plab manbalarga murojaat etganligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, Sultonmurod Olim“Navoiyning “yori aziz”i” [Sultonmurod Olim ., 2004:4] nomli maqolasida XV asr ikkinchi yarmi Hirot adabiy muhitida nufuzli shaxs, shoir Ahmad Suhayliy haqidagi mulohazalarini dastlab Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarida Suhayliyga berilgan quyidagi ta’rifni keltirishdan boshlaydi: “Xotamash kori jahoniy bidehi rost kunad, Qalamash ganji maoniy bidehi afshonad. (Ya’ni: Muhriga jahon ishlarini topshirsang, to‘g‘rilaydi, Qalamiga ma’nolar xazinasini bersang, sochadi)” . Olim maqolasidagi ikkinchi manba – B. Valixo‘jayevning Suhayliy ijodiga oid maqolasi bo‘ladi. Uchinchi manba bevosita – Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Layli va Majnun”, “Soqiynoma” kabi asarlarida Shayxim Suhayliyning tilga olinishi bo‘ladi. To‘rtinchi manba esa Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy tomonidan “Kalila va Dimna” asari tarjima qilinib, Shayxim Suhayliyga bag‘ishlab, “Anvori Suhayliy” deb nomlanganligi bo‘ladi. Beshinchi manba Som Mirzoning “Tuhfai Somiy” tazkirasida “Amir Shayx Nizomiddin al-mashhur Suhayliy turkiy nasabli bu shoirning iste’dodi – tab’i yaxshi, idroki o‘shal ufq yulduzidek porloq”, – deya ta’rif qilinishiga ahamiyat qaratish bo‘ladi. Maqolada keltirilgan oltinchi manba bu Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida Husayn Boyqaro umarosi sirasida keltirilagan ma’lumot, yettinchi manba sifatida olima Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida Navoiy va Shayxim Suhayliylar tomonidan bir xil bayt – tavorud bo‘lganligi haqidagi voqeani keltirishi bo‘ladi. Oxirida olima maqolasini shunday yakunlaydi: “Navoiyning yori azizi, “Majolis un-nafois”da Hazrati Mahdumi Nuran, Shayx ul-islom Abdurahmon Jomiydan so‘ng yodga olingan. Shayxim Suhayliy yaxshi do‘st, yaxshi inson, iste’dodli zullisonayn shoir, saxovatli homiy, ibratli davlat arbobi bo‘lgan. Shoyad, uning ona tili turkiyda tadvin qilingan devoni topilsa, deb umid qilamiz”. Ko‘rinadiki, olim Shayxim Suxayliy haqida eng asosli manbalarni keltirish orqali bu shaxsning o‘z davrida mashhur bo‘lganligini daliliy ko‘rsatadi va natijada Shayxim Suxayliy haqidagi tasavvur kengayadi. Mumtoz adabiyotshunoslikda o‘z fikrini tasdiqlash maqsadida manbalarga tayanish va ulardan iqtiboslar olish ko‘p uchraganidek, olima tadqiqotlarida ham dalillash asosiy mezonlardan hisoblangan. Jumladan, olim “Boburning e’tiqodi va irfoniy qarashlarinomli maqolasida fikrini qator daliliy manbalar asosida mustahkamlaydi. Olim Boburning irfoniy qarashlarini uning she’riyati, “Boburnoma”, “Aruz risolasi”, “Mubayyin” kabi asarlari, maktublari, hatto chiqargan farmonlarida aks etishini keltiradi. Jumladan, olim shunday yozadi: “1528 yili Guvalorda Bobur og‘ir isitmalab qoladi. Bir oyu qirq kun bu xastalikdan qutulish niyatida “Volidiya” asari tarjimasini boshlaydi va tarjimani tugatmasdanoq xastalik chekinadi. Olim Boburning e’tiqodi kuchli bo‘lgan, degan fikrni esa Boburning asarlaridan tashqari Gulbadanbegim, Mutribiy kabilar yozgan voqealarga asoslanib yoritib beradi. Olim manba bilan ishlash asosida boburiylar, xususan, shahzoda Shoh Jahonning to‘ng‘ich o‘g‘li Muhammad Doro Shukuh tomonidan Bobur an’analari davom ettirgani, uning orifona asarlar yozgani, Bobur tarjima ishlarini ham davom ettirgani hamda Muhammad Doro Shukuh tomonidan yozilgan 10 ta tasavvuf mavzusidagi asarlariga ham to‘xtaladi. Asosiysi, Sultonmurod Olim tadqiqotlarida keltiriladigan ko‘pdan ko‘p manbalar faqat fikrni tasdiqlash yoki hamfikrni ko‘rsatish uchun emas, balki keyingi ilmiy ishlarga turtki, ilmiy yangiliklarga manba vazifani ham

bajaradi. Adabiyotshunos B.Karimov yozganidek, “bugungi o‘zbek adabiyotshunosligi Sharq adabiyotshunosligi tarixidagi adabiy mezonlar bilan jahon ilm-fanidagi samarali usullarni uyg‘unlashtirgan – sintez qilgan holda taraqqiy etishi mumkin”. O‘zbek adabiyotshunoslari yaratgan ilmiy maktab faoliyatini o‘rganish hozirgi tadqiq jarayonlarining keng yondashuvlar asosida amalga oshishida muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to‘plami. 13-jild. – Toshkent: Fan. – B. 170-171.

2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to‘plami. 13 jild. – Toshkent: Fan. – B. 279.

3. Olimov S. Tarjimaviylik va naziraviylik. https://jahonadabiyoti.uz/2018/ 04/26/

4. Huvaydo. Devon. Rohati dil. – Toshkent: O‘zdavadabiynashr, 1961. – B. 14.

5. Huvaydo. Ko‘ngil dardi. (Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi S.Olim). – Toshkent: “MERIYUS”, 2009. – B. 42.

ARAB TILI VA UNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Yunusxon Rahmatullayev,
NamDU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arablar joylashgan yer, u yerning tabiati, qabilalar va ularning kelib chiqishi, hayvonot olami, arablarning ishlab chiqargan mahsulotlari, qurgan tarixiy obidalari, hukmdorlari, oila ava qabila boshliqlarining jamiyatda tutgan o‘rinlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: badaviy, hayvonlar, tabiat, joy nomlari, hukmdor, relyef, davlatchilik, imorat, dehqonchilik.

Аннотация: В этом произведении даются мысли о земле, на которой живут арабы, природе края, племенах и их происхождении, животном мире, продуктах, производимых арабами, построенных ими исторических памятниках, правителях, должностях глав семей и племен в обществе.

Ключевые слова: бедуины, животные, природа, топонимы, правитель, рельеф, государственность, строительство, земледелие.

Annotation: In this work, thoughts are given about the land where the Arabs live, the nature of the land, the tribes and their origin, the animal world, the products produced by the Arabs, the historical monuments they built, the rulers, and the positions of the heads of the families and tribes in the society.

Key words: Bedouin, animals, nature, place names, ruler, relief, statehood, building, farming.

Arab tilining tug‘ilgan joyi – Qizil dengiz, Hind okeani, Fors ko‘rfazi va Arabiston ko‘rfazining sharqiy chetidan Furot daryosigacha bo‘lgan xayoliy to‘g‘ri chiziq o‘rtasida joylashgan mamlakatdir. Bu mamlakat Arabiston yarim oroli yoki, odatda, Arabiston deb ataladi.

Arabiston yarim oroli, davlat bo‘lib, uning ko‘p qismi cho‘l va dashtlardan iborat. G‘arbda yer usti tuzilishi balandroq, sharqda yer sathi asta-sekin pasayib, keyin yana Ummon tomon ko‘tariladi. Arabiston hududi issiq mintaqada joylashgan bo‘lib, mamlakat iqlimi, balandlikda joylashgan hududlarini hisobga olmaganda, juda noqulay. Faqat vaqti-vaqti bilan uning musaffo osmoni bulutlanadi, yomg‘ir kamdan-kam yog‘adi va faqat ma’lum hududlarda, masalan, Yamanda yomg‘ir yog‘ishi mumkin. Mamlakatning aksariyat hududlarida qurg‘oqchilik keng tarqalgan. Yarim orolda yil davomida to‘lib-toshadigan daryo yo‘q, shuning uchun hammasi quruq daryo o‘zanlari tarmog‘i bilan qoplangan. Yomg‘irli mavsumda ular orqali daryolar oqib o‘tadi. Ushbu daryolarning ba’zilarini to‘g‘onlar bilan to‘sib qo‘yish va shu tariqa suvni ushlab turish uchun har xil hiyla-nayranglarga murojaat qilish kerak bo‘ladi.

Shamollarga kelsak, mamlakatning shimoliy qismida sharqiy yumshoq "as-Saba" shamoli esadi, g‘arbiy shamol O‘rta yer dengizidan yomg‘ir olib keladi, janubiy shamol qishda salqin va yozda issiq. Yilning ma’lum vaqtlarida cho‘lning eng dahshatli shamoli "as-Samum" esadi, arablar uni oltingugurtning o‘ziga xos hidi bilan taniydilar. Ayniqsa, cho‘lning markazida kuchli zarba beradi, havoni quritadi, yo‘lidagi hamma narsani yo‘q qiladi.

Qadimda badaviy va tuya, palma va cho‘l - ko‘chmanchi hayotni tavsiflovchi narsa bo‘lgan. " Tuya cho‘l kemasi" va "Allohning in’omi" deb ataladi. Tuyalar ikki xil bo‘ladi, tez yuradigan tuyalar va yuk tashish uchun mo‘ljallangan tuyalar. Tuya badaviyning do‘sti, usiz badaviy sahroda yashay olmasdi, u badaviylarga go‘sht va sut beradi, uni bir joydan boshqa joyga ko‘chiradi, badaviylar esa uning junidan chodirlarini tikadilar.

Xurmo mevasi cho‘lda topiladigan eng yaxshi va eng ko‘p mevadir, shuning uchun xurmo va sut badaviylarning asosiy oziq-ovqatini tashkil qiladi. Bundan tashqari, badaviylar xurmodan juda mazali ichimlik “nabiz”ni tayyorlashni bilishadi.

Arabistonda eng keng tarqalgan uy hayvonlari - otlar, eshaklar, xachirlar, qo‘ylar va itlar. Yovvoyi hayvonlardan bo‘rilar, sirtlonlar, antilopalar va boshqalar, qushlardan tuyaqush, burgut, kaklik va dumg‘aza, cho‘lda ko‘plab ilonlar bor. Badaviylar ishtahani ochuvchi taom tayyorlashni bilishgan va uni chigirtkalardan tayyorlagani uchun chigirtkalarni ham eslatib o‘tish kerak.

Arablar semit xalqlariga mansub kishilardir. Arablarning qadimiy tarixining izlari yo‘q bo‘lib ketgan, Yamanda nisbatan yaqinda topilgan, eng qadimiysi miloddan avvalgi VIII-IX asrlarga tegishli bo‘lgan alohida yozuvlar bundan mustasno, ammo bu yozuvlar bizga ularning mualliflari - minalar, sabaiylar va ximiyarlar haqida juda kam ma’lumot beradi.

Arab qabilalari orasida ikkita katta guruh ajralib turadi, birinchisi yo‘qolgan qabilalar va ikkinchisi saqlanib qolgan qabilalar.

Yo‘qolgan ketgan arab qabilalari. Bu qabilalarning izlari deyarli saqlanib qolmagan. Bularga Od, Samud, Tasm va Jadiy qabilalari kiradi. Olimlar ular haqida Hijoz shimolidagi Tema shahri yaqinida tasodifan topilgan lihyon, samudiy va sapfiy yozuvlaridan bilib oldilar. Yozuvlar shundan dalolat beradiki, bu qabilalarning o‘zaro muloqot qilgan tili bizgacha yetib kelgan o‘sha arab adabiyoti yodgorliklari tilidan farq qiladi.

Saqlanib qolgan arab qabilalari. Ular o‘z navbatida ikkita katta tarmoqqa bo‘lingan – Qaxtan va Adnan. Qahtan arablari arablarning ajdodlari bo‘lganligi uchun mahalliy arablar hisoblanadilar. Qabilaning nomi uning ajdodi Yorub ibn Qaxtan nomidan kelib chiqqan. Qahtan arablari, yamanliklar, shuningdek, "Janubiy arablar" sifatida ham tanilganlar. Adnan qabilasi arablar tomonidan assimilyatsiya qilingan deb hisoblanadi, chunki ular qo‘shni hududlardan Arabiston yarim oroliga ko‘chib o‘tgan va uning tub aholisi bilan aralashib ketgan. Xuddi shu tarzda, Hijoz, Najd, Tadmor va Nabatiyada istiqomat qiluvchi Nizor (yoki Maadd) qabilasi tashkil topgan.

Aralashgan qabilalar. Iqtisodiy va siyosiy vaziyat bir qator janubiy arab qabilalarini uylarini tark etishga majbur qildi. Mashhur Marib to‘g‘oni vayron bo‘lgandan keyin ko‘chib ketish ayniqsa qizg‘inlashdi (bu voqea tarixiy an’analarda "Sail al-Arim" "سيل العريم"nomi bilan mashhur). To‘fon butun mamlakatni qamrab oldi, ekinlar va chorva mollari vayron bo‘ldi, janubiy qabilalarning muhim qismi Arabiston shimoliga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ldi. Sa’lab ibn Amr qabilasi Yasribga joylashdi va undan keyinchalik ikki qabila - Avs va Xazraj kelib chiqdi. Xuza qabilasi Makkaga yetib kelib, u yerda joylashdi va Jurhum qabilasini u yerdan haydab chiqardi. Jaffna ibn Amr qabilasi Suriyaga joylashdi. Uning vakillari mahalliy lahjada "suv" degan ma’noni anglatuvchi "G‘assan" so‘zidan G‘assoniylar deb atala boshlandi. Lahma ibn A’diy qabilasi Iroqning Hiro shahri tomon yo‘l oldi. Munziriylar sulolasining asoschisi Nasr ibn Robiya shu qabiladan edi. Toyi qabilasi Yasribning shimoli-sharqida, Aja va Sulma tog‘larida joylashdi. Shunday qilib, arablar yarim orol bo‘ylab tarqalib ketishdi, bu esa "Saba’iylarning ajralgan qo‘llari" degan gapni keltirib chiqardi. Ko‘chirish janubiy va shimoliy arab qabilalarining bir biri bilan faol aralashishiga olib keldi, qo‘shnichilik, urushlar va savdo-sotiq uning kuchayishiga hissa qo‘shgan, ammo bu narsalar qabilalar aro nizolarni to‘xtata olmadi, ular uzoq yillar davomida va hatto Islom o‘rnatilgandan keyin ham davom etdi.

Arablar o‘troq arablar va ko‘chmanchi arablarga bo‘linganlar. Yarim orolning janubiy qismida o‘troq arablar yashagan. Ular to‘liq qabul qilgan o‘troq turmush tarzi savdo va dehqonchilikka asoslangan edi. Hunarmandchilikning keng tarqalishi tufayli bu yerda ishlab chiqarilgan yo‘l-yo‘l matolar, to‘nlar, yaman qilichlari va shunga o‘xshash narsalardir. O‘troq arablar ko‘nchilik san’atida ham mukammallikka erishib charmlar ishlab chiqardilar, shuningdek, ular ishlab chiqargan turli mahsulotlar turli mamlakatlarga olib borib sotila boshlandi. Ular tomonidan tayyorlangan tutatqi va xushbo‘y moddalar keng dunyoga tanildi.

O‘troq arablar shaharlar, qal’alar, ibodatxonalar barpo qildilar, mashhur Gumdan saroyi kabi ulkan saroylar qurdilar. Ular rulon orolining janubida, shuningdek, undan tashqarida bir nechta sulolalarni yaratdilar. Ular orasida eng mashhurlari quyidagilar edi: Tubba’a sulolasi hukmronlik qilgan Himiyarlar davlati, milodiy 525 yilda tugaydi. Abu Nuvvos hukmronligi, Iroqdagi Laxmid Munziriylar sulolasining davlati (davlatning poytaxti Xiro bo‘lgan), u milodiy III asr boshidan mavjud bo‘lgan. Laxmidlar fors podsholari xizmatida edilar, Laxmid hukmdorlaridan Xavarnak va Sadirni qurgan podshoh an-Nuamon I (400—418 yillar) mashhur bo‘ldi, yana biri al-Munzir III (505-554 yillar) va uning laqabi “Osmon namligining o‘g‘li”. Hironi shoir va yozuvchilar shahriga aylantirgan Amr ibn Hind (554-569 yillar) bo‘ldi. Siyosiy jihatdan Vizantiyaga qaram bo‘lgan G‘assoniylar davlati (Jaffna avlodlari) Suriyada joylashgan, uning poytaxti Jilliak shahri edi. G‘assoniy hukmdorlari orasida eng mashhuri Cho‘loq laqabli Xoris II (529-569 yillar) bo‘lib, “Halima kuni” "يوم الحليمة" deb atalgan kunda Xironi yenggan. U o‘z saroyiga ko‘plab

shoirlarni to‘plagani bilan ham mashhur bo‘lgan. Va nihoyat, Najddagi Kindit davlati, taxminan milodiy 450 yildan 540 yilgacha mavjud bo‘lgan. Mashhur Shoir Imru-l-Qays kinditlarga mansub edi.

Ko‘chmanchi arablar yoki badaviylar Arabiston yarim orolining shimoliy qismidagi aholining ko‘p qismini tashkil qilgan. Badaviylarning ijtimoiy yo‘li cho‘ldagi yashash sharoiti ta’sirida shakllangan. Ular hunarmandchilik va dehqonchilikka salbiy munosabatda bo‘lishgan, chodirlarda yashaganlar, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar, bu ularni go‘sht va sut, jun va teri bilan ta’minlashda yordam bergan. Ular qayerda tez-tez yomg‘ir yog‘ayotganini bilishar, suv va yaylov izlab u yerdan bu erga sarson bo‘lib ko‘chib yurishardi. Chorvachilik iqtisodiyoti bera olmagan narsaga muhtoj bo‘lib, ular ayirboshlash yo‘liga o‘tdilar. Chorvachilik mahsulotlari va chorva mollari uchun xurmo va kiyim-kechak oldilar. Haddan tashqari ehtiyojning ko‘payib ketishi yoki qon adovati ularni yirtqichona hujumlar qilishga majbur qildi.

Badaviylar bo‘ysunadigan yagona qonunlar ularning qabilasining qonunlari edi. Badaviylar oila va qabiladan tashqari hech qanday hokimiyatni tan olmasdilar. Ijtimoiy aloqalar faqat qabila va ko‘chmanchilar yashaydigan chegaralardagina saqlanib qolgan, ammo boshqa holatlarda esa milliy chegaralar umuman saqlanmagan.

Har bir qabilaning o‘z boshlig‘i bo‘lgan va u qabila boshlig‘i hisoblangan. Qabilaning hukmdori hisoblanardi. Yo‘lboshchi qabila tayanchi, uning birligining ramzi bo‘lib, barcha muhim masalalarni muhokama qilishda so‘nggi so‘zni yetakchi aytgan.

Qabila a’zolari hukmron yoki bo‘ysunuvchi mavqeini egallashidan qat’iy nazar, bir-birini qo‘llab-quvvatlagan va sukut saqlagan. Badaviyning o‘zini himoya qiluvchi qabilaga mutaassib bog‘lanishi asabiyya (عصبية) deb ataladi. Oila boshlig‘i o‘z uyida cheksiz hokimiyatga ega bo‘lgan, barcha holatlarda o‘zi xohlagancha harakat qiladigan ota hisoblanardi. Ayol barcha oilaviy ishlarda erkak bilan teng ravishda ishtirok etgan, uyda alohida hurmatga sazovor bo‘lgan, mustaqil va katta harakat erkinligiga ega bo‘lgan.

Cho‘l bo‘ylab kezib yurgan arab qabilalarining madaniyati shu qadar past ediki, ilm o‘rganishni, din haqida fikr qilishni bilmaganlar. Shu bilan birga, ular o‘z hayotlari va tirikchiliklari uchun kundalik kurashlarda zarur bo‘lgan ma’lum bilim va ko‘nikmalarni allaqachon egallab olishgan. Bu belgilar va ko‘nikmalar ko‘p sinovlar va ko‘p yillik tajribalar natijasidir. Badaviylar arifmetika, tibbiyot va veterinariya bo‘yicha amaliy bilimga ega bo‘lgan, janubiy arablar esa me’morchilikni ham bilishgan, shaharlar qurishni bilishgan, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik asoslarini yaxshi bilishgan.

ADABIYOTLAR:

1. Ханна ал-Фахури. История арабской литературы. - М., 1959.
2. Крачковский И. Ю. Избр. Соч. - М. ,1963.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: - T., 2006.
4. Баранов Х. Арабско-русский словарь. - М ., 1985.
5. Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

BADIIY MATNDA “VAFO” KONSEPTINING LISONIY TALQINI

G.N.Abdullayeva,
Tayanch doktorant, navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy va ingliz adabiyotidagi vafodorlik mavzusi tahlil etiladi. Navoiy asarlarida ahloqiy qadriyatlar, vafodorlik va do‘stlik tushunchalari keng yoritilgan bo‘lib, bu g‘oyalar ingliz adabiyotidagi yozuvchilar, jumladan, William Shakespeare, Jane Austen va John Milton asarlarida ham muhim o‘rin egallaydi. Maqola vafodorlik, sevgi va insoniylik kabi universal mavzularni o‘z ichiga olgan holda, har ikki madaniyatning adabiy asarlaridagi bu tushunchalarning umumiyligi va farqlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar*:* Alisher Navoiy, vafodorlik, insoniylik, ingliz adabiyoti, Shekispir, Austen, Milton, ahloqiy qadriyatlar, do‘stlik, madaniyat.

Аннотация. В данной статье анализируются темы верности и человечности в произведениях Алишера Навои и английской литературы. В произведениях Навои широко освещаются моральные ценности, понятия верности и дружбы, которые также занимают важное место в работах таких английских писателей, как Уильям Шекспир, Джейн Остин и Джон Мильтон. Статья включает в себя универсальные темы верности, любви и человечности, показывая общие черты и различия этих понятий в литературных произведениях обеих культур.

Ключевые слова: Алишер Навои, Верность, Человечность, Английская литература, Шекспир, Остин, Мильтон, Моральные ценности, Дружба, Культура.

Abstract: This article analyzes the themes of fidelity in the works of Alisher Navoi and English literature. In Navoi's writings, moral values, the concepts of fidelity and friendship are extensively explored, which also hold significant importance in the works of English writers such as William Shakespeare, Jane Austen, and John Milton. The article encompasses universal themes of fidelity, love, and humanity, demonstrating the similarities and differences of these concepts in the literary works of both cultures.

Keywords: Alisher Navoi, Fidelity, Humanity, English literature, Shakespeare, Austen, Milton Moral values, Friendship, Culture.

Ushbu maqola Alisher Navoiy va ingliz adabiyotida vafodorlik va insoniylik temalarini tahlil etishga bag‘ishlangan. Vafodorlik va insoniylik, har bir jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu tushunchalar adabiyotda yuksak ahloqiy qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy asarlarida bu mavzular chuqur yoritilgan bo‘lib, u o‘z asarlarida inson ruhiyatini, ijtimoiy munosabatlarni va ahloqiy masalalarni o‘rganadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayotning o‘zgarishi, milliy qadriyatlarni qayta tiklash va yangilash jarayonlari davom etmoqda. Bu jarayonlar o‘z navbatida adabiyotga, xususan, vafodorlik va insoniylik kabi universal mavzularni qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, Navoiy va ingliz adabiyotidagi bu temalarning o‘rganilishi nafaqat adabiy qiziqish, balki zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni tushunishga yordam beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi Navoiy va ingliz yozuvchilari asarlarida vafodorlik va insoniylik g‘oyalarini solishtirib, ularning umumiyligi va farqlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda, bu mavzularning zamonamizdagi ahamiyati va o‘zgarishi ham ko‘rib chiqiladi.

Alisher Navoiy va ingliz adabiyotida vafodorlik va insoniylik temalari bo‘yicha mavjud tadqiqotlar, bu mavzularning adabiy va falsafiy ahamiyatini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Navoiy asarlarida vafodorlik, do‘stlik va insoniylik g‘oyalari murakkab va ko‘p qirralik bilan ifodalanadi. Uning "Mahbub ul-qulub" asarida, masalan, vafodorlik va insoniylikni bir butunlik sifatida ko‘rish mumkin, bu esa jamiyatda muhim o‘ringa ega.

Ingliz adabiyotida ham, masalan, William Shakespeare, Jane Austen va John Milton kabi yozuvchilarning asarlarida vafodorlik va insoniylik temalari keng yoritilgan. Shakespeare’ning "Romeo and Juliet" asarida sevgi va vafodorlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tasvirlanadi. Austen esa "Pride and Prejudice"da insoniylik va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish haqida yozadi.John Miltonning "Paradise Lost" asarida insonning mohiyati va uning o‘z-o‘zini anglash jarayonidagi vafodorlik va ahloqiy masalalar kiritilgan. Ular bir tomondan, vafodorlikni insoniy tuyg‘ular va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘laydi.Shuningdek, bunday mavzular o‘rganilayotgan adabiyotlarda ko‘plab psixologik va falsafiy jihatlar bilan birga, ijtimoiy-siyosiy kontekstda ham tahlil qilinadi. Ushbu adabiyotlar, vafodorlik va insoniylik g‘oyalarining jamiyatdagi roli, ahamiyati va zamonaviy ahvolini ochib beradi.Ushbu tahlil, Navoiy va ingliz yozuvchilarining o‘zaro aloqasi va farqlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu erda vafodorlik va insoniylik temalarining rivojlanishi va o‘zgarishini ko‘rish, shuningdek, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash mumkin.

Yigirmadan oshiq asari bilan tarix, turkiy til, muhabbat, din-tasavvuf, maktub kabi turli janrlarda ijod qilgan Alisher Navoiyning barcha asarlari hayot tajribasini, inson va ijtimoiy tizimlar haqidagi qarashlarini bayon etadi. Jumladan, shoir vafo, do‘stlik, muloyimlik, yoshlik, qarilik, yolg‘on, g‘iybat, qanoat qilish, dunyo foniyligi, mutoyiba qilish, insonning o‘z xatolaridan xulosa chiqarishi kabi mavzularda o‘z fikrini bildiradi.

Navoiyning fikricha, hayo va vafo egizak; do‘stlik, o‘z do‘stini o‘zi bilan teng ko‘rish, o‘ziga ravo ko‘rmaganlarini do‘stiga ham ravo ko‘rmaslikdir; yolg‘on gapiruvchi kishi esa g‘aflatdadir. Aqlli kishi yolg‘on gapirmaydi. Bir joydan boshqa joyda g‘iybat tashiydigan kishi u insonlarning butun gunohlarini o‘z bo‘yniga olgan bo‘ladi. Hayot insonga berilgan bir necha kunlik g‘animatdir. Ertasi tong yoki kechqurun nima bo‘lishini hech kim bilib bo‘lmaydi. Umrni shunga qarab o‘tkazish darkor. Bu qarashlardan ko‘rinib turibdiki, Navoiy ilmga, to‘g‘ri so‘zlikka, insoniylikka, do‘stlikka, vafoga, qanoatga va adolatga alohida ahamiyat bergan, bular haqida fikr yuritgan.

“Mahbub ul-qulub” asaridagi sohir tomonidan bildirilgan har bir fikr va o‘ylar har asrda va hamma joyda dolzarb bo‘lgan universal qarashlardir. Asardan Alisher Navoiyning jamiyat va inson haqidagi qarashlarini, bu tushunchalarni qanday baholaganligini bilib olishimiz mumkin.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida so‘z leksemasini bir nechta ma’nolarini keltirar ekan, uni so‘z - ahd, vafo, so‘zida turish ma’nosida qo‘llaydi: Yana xizmatimda necha yuz hakim, Borining so‘zi poku royi salim.

Navoiy yuksak insoniy fazilat va ezguliklarni madh etish, targ‘ib, tashviq etish bilan cheklanmaydi. U ayni zamonda odamlardagi yomon, xunuk insoniylikka xilof xislatlarni, insonlar uchun, jamiyat uchun zararli sharafli inson sha’niga yarashiqsiz xulq-atvor va sifatlarni qoralaydi, tanqid ostiga oladi. U tanbihlardan birida vafo bilan hayoni uzviy bog‘liklikda ko‘radi: “Har ko‘ngilnikim, - deb yozadi Navoiy, - vafo maskan qilur, hayo ham qilur va har maskandakim, ul topilur, bu ham topilur, Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q”. Mumtoz adabiyotdagi mashuqa qahri qattiqligi va vafosizligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy baytda shu ma’noga urg‘u bergan:

To qildi yuzung havosi jonim,

Yuz sari anga havo bo‘lubtur.

Birinchi misra mashuqa ishqiga mubtalolik dardining e’tirofidan iborat. Buning uchun “yuzung havosi” ifodasi imkon bergan. Ayni paytda u “yuzungning havasi” tarzida ham tushunilishi mumkin. Keyingi misrada esa “yuz”ning “havo” so‘zidan oldinga o‘tkazilishi bilan yangi-yangi ma’nolar paydo bo‘lgan. Unda “yorning yuzi tomon”, “yanada” (“borgan sari” degan ifodani eslang) kabi ma’nolar ko‘zga tashlanadi.

“Sabai sayyor” dostonidagi hikoyada pok muhabbat ulug‘lanib, vafosizlik qoralangan. Amir Xusrav dostonida ham shanba kuni mushkin qasrda hind go‘zali hikoya aytadi. Nomi tilga olinmagan hind malikasining hikoyasida Sarandib podshosi va uning o‘g‘illari bilan bog‘liq voqea-hodisalar yoritiladi. Unda shohning odilligi, shahzodalarning tadbirkorligi ulug‘lanib, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, jasurlik insonga baxt keltirishi ko‘rsatib berilgan. Muhabbat dialektikasi visol va hajr, lazzat va iztirob tushunchalari uyg‘unligida mavjuddir. Navoiyda bunday turmush tarzini ifodalashda shunga muvofiq bo‘lgan vafo qasri, sanam qasri, tun qasri, oy qasri, jahon qasri, falak qasri kabi o‘nlab metaforalar mavjud:

Imorat tarhidur na’lu alifdin har taraf ko‘ksum,

Vafo qasrin qo‘parsang, bu binolar uzra devor et.

Hazrat Navoiy qo‘llagan “vafo qasri” metaforasi zamirida chuqur mazmun ifoda etilgan. “Vafo qasri” va “muhabbatning saroyi” metaforalariga yuklangan ma’noda muayyan farq bo‘lgani singari o‘zaro uyg‘unlik ham borligi kuzatiladi. Bundan tashqari, “Asrlik tosh” birikmasi ifodalagan mazmun, xususan, toshning poetik timsolga aylanishi ham xalq tili bilan birga Navoiy ta’sirida shakllanganidan dalolat beradi.

Sharq mutafakkirlarining ijodida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari mazmunan boy, shaklan rang-barangdir. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida aks etgan mardlik, to‘g‘rilik, adolatparvarlik, vafodorlik, halollik, saxiylik, mehr-oqibat, insonparvarlik kabi xislatlar bugungi kunda kamol topayotgan yosh avlod ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Xullas, Navoiy ta’kidlaganidek, vafo shubha, g‘azab, hasad va g‘azab uchun joy bo‘lmagan sof, ishonchli munosabatlarning kalitidir. Agar sherigingizga sodiqlik va ishonchni saqlasangiz, chinakam yaqin va uyg‘un munosabatlar mumkin bo‘ladi.

Alisher Navoiy asarlaridagi insoniy fazilatlar va ijtimoiy qadriyatlar temalari ingliz adabiyotida ham keng yoritilgan. Masalan, William Shakespearening "Othello" asarida vafodorlik va ishonch masalalari o‘rganiladi. Othello va Desdemona o‘rtasidagi munosabatlar, vafodorlika qaratilgan chuqur tahlil, Navoiy asarlaridagi muhabbat va vafodorlik haqidagi g‘oyalar bilan bir xil.

Shuningdek, Jane Austenning "Pride and Prejudice" asarida do‘stlik va vafodorlik, shuningdek, ijtimoiy konventsiyalar o‘rtasidagi ziddiyatlar ko‘rinadi. Austen o‘z xarakterlarida vafodorlikni va o‘zaro ishonchni muhim ahamiyatga ega deb biladi, bu Navoiy asarlarida ham uchraydi.Bundan tashqari, John Miltonning "Paradise Lost" asarida insonning vafodori va xatolari haqidagi savollarni muhokama qilinadi. Milton Navoiy kabi, insoniyatning ezgu fazilatlari va yomonliklari o‘rtasidagi kurashni tasvirlaydi. U vafodorlik va hayoning bir-biriga bog‘liqligini o‘rganadi, bu esa Navoiy asarlaridagi muhim g‘oyalar bilan birlashadi.

Ingliz adabiyotidagi ushbu asarlar Navoiy asarlarida aks ettirilgan insoniyatning ahloqiy va ijtimoiy qadriyatlariga, xususan, vafodorlik, do‘stlik va insoniylik masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu mushohada va tahlillar orqali, Navoiy va ingliz yozuvchilari o‘rtasida tematik o‘xshashliklar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin, bu esa ularning asarlarining zamonaviy ahamiyatini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy asarlaridagi insoniy fazilatlar va ijtimoiy qadriyatlar temalari ingliz adabiyotida ham keng yoritilgan. Masalan, William Shakespearening "Othello" asarida vafodorlik va ishonch masalalari o‘rganiladi. Othello va Desdemona o‘rtasidagi munosabatlar, vafodorlika qaratilgan chuqur tahlil, Navoiy asarlaridagi muhabbat va vafodorlik haqidagi g‘oyalar bilan bir xil.

Shuningdek, Jane Austenning "Pride and Prejudice" asarida do‘stlik va vafodorlik, shuningdek, ijtimoiy konventsiyalar o‘rtasidagi ziddiyatlar ko‘rinadi. Austen o‘z xarakterlarida vafodorlikni va o‘zaro ishonchni muhim ahamiyatga ega deb biladi, bu Navoiy asarlarida ham uchraydi.

Bundan tashqari, John Miltonning "Paradise Lost" asarida insonning vafodori va xatolari haqidagi savollarni muhokama qilinadi. Milton Navoiy kabi, insoniyatning ezgu fazilatlari va yomonliklari o‘rtasidagi kurashni tasvirlaydi. U vafodorlik va hayoning bir-biriga bog‘liqligini o‘rganadi, bu esa Navoiy asarlaridagi muhim g‘oyalar bilan birlashadi.

Ingliz adabiyotidagi ushbu asarlar Navoiy asarlarida aks ettirilgan insoniyatning ahloqiy va ijtimoiy qadriyatlariga, xususan, vafodorlik, do‘stlik va insoniylik masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu mushohada va tahlillar orqali, Navoiy va ingliz yozuvchilari o‘rtasida tematik o‘xshashliklar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin, bu esa ularning asarlarining zamonaviy ahamiyatini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish bilan birga, ingliz adabiyotidan ham muhim yozuvchilarni ko‘rib chiqish yaxshi fikr. Masalan:

William Shakespeare – Uning asarlari, ayniqsa, sevgi, vafodorlik va insoniy his-tuyg‘ular haqida ko‘plab misollar beradi.

John Milton – "Paradise Lost" asari orqali erkinlik, vafodorlik va xatoliklarga qarshi kurash haqida chuqur fikrlar mavjud.

Jane Austen – U vafodorlik va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi, bu uning romandagi xarakterlar o‘rtasidagi munosabatlarida ko‘rinadi.

lisher Navoiy asarlaridagi insoniy fazilatlar va ijtimoiy qadriyatlar temalari ingliz adabiyotida ham keng yoritilgan. Masalan, William Shakespearening "Othello" asarida vafodorlik va ishonch masalalari o‘rganiladi. Othello va Desdemona o‘rtasidagi munosabatlar, vafodorlika qaratilgan chuqur tahlil, Navoiy asarlaridagi muhabbat va vafodorlik haqidagi g‘oyalar bilan bir xil.

Shuningdek, Jane Austenning "Pride and Prejudice" asarida do‘stlik va vafodorlik, shuningdek, ijtimoiy konventsiyalar o‘rtasidagi ziddiyatlar ko‘rinadi. Austen o‘z xarakterlarida vafodorlikni va o‘zaro ishonchni muhim ahamiyatga ega deb biladi, bu Navoiy asarlarida ham uchraydi.

Bundan tashqari, John Miltonning "Paradise Lost" asarida insonning vafodori va xatolari haqidagi savollarni muhokama qilinadi. Milton Navoiy kabi, insoniyatning ezgu fazilatlari va yomonliklari o‘rtasidagi kurashni tasvirlaydi. U vafodorlik va hayoning bir-biriga bog‘liqligini o‘rganadi, bu esa Navoiy asarlaridagi muhim g‘oyalar bilan birlashadi.

Ingliz adabiyotida Alisher Navoiy asarlaridagi vafodorlik va insoniy munosabatlar kabi temalar ko‘p uchraydi. Masalan, William Shakespearening asarlarida, ayniqsa, "Othello" va "Romeo and Juliet"da sevgi, vafodorlik va xiyonatning murakkabligi ko‘rinadi. Bu asarlar insonlar orasidagi munosabatlarning qanchalik nozik va zaif bo‘lishini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, Jane Austenning "Pride and Prejudice" asarida vafodorlik va ijtimoiy konventsiyalar o‘rtasidagi kurash haqida so‘z boradi. Austen, xuddi Navoiy kabi, xarakterlarining ichki dushmanlari va munosabatlarini chuqur tahlil qiladi.

John Miltonning "Paradise Lost" asarida esa vafodorlik, xato va to‘g‘rilik kabi falsafiy savollar o‘rganiladi. Bu asar, Navoiy asarlaridagi diniy va ma’naviy masalalar bilan hamohang, insonning ichki kurashini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, ingliz adabiyotidagi ushbu yozuvchilar Navoiy asarlaridagi vafodorlik va insoniy munosabatlar mavzularini o‘z asarlarida muvaffaqiyatli tarzda aks ettirganlar.

ADABIYOTLAR:

1. Navoiy, A. "Mahbub ul-qulub." – T.: Fan, 1990.
2. Navoiy, A. "Farhod va Shirin." – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
3. Shakespeare, W. "Romeo and Juliet." – London: Penguin Classics, 2005.
4. Austen, J. "Pride and Prejudice." – London: Penguin Classics, 2003.
5. Milton, J. "Paradise Lost." – London: Penguin Classics, 2004.
6. Akmalov, A. "Alisher Navoiy asarlarida vafodorlik masalalari." – T.: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2015.
7. Gafurov, R. "Ingliz adabiyotida insoniylik temalari." – T.: Sharq, 2018.
8. Khalilov, I. "Vafodorlik va do‘stlik: O‘zbek va ingliz adabiyotida." – T.: Fan, 2020.
9. Rahmonov, S. "Inson va ijtimoiy masalalar: Alisher Navoiy va zamondoshlar." – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 2017.
10. Smith, J. "Themes of Loyalty in English Literature." – New York: Routledge, 2019.

TA’LIM JARAYONINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH ZARURATI

Qurbonova Maftuna Faxriddinovna
Alfraganus universiteti, Pfd (DSc

Annotatsiya ushbu maqolada ta’limni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari asosida ta’lim mazmunini belgilashi ta’limda yangicha yondashuvlar tahlili haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar zamonaviy yondashuvlar, PISA, PIRLS, xalqaro baholash dastur talablari, o‘qishga munosabat, loyihalash faoliyati, mustaqil ishlash qobiliyati

Butun dunyo ta’lim tizimining PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari asosida ta’lim mazmunini belgilashi ta’limda yangicha yondashuvlar, o‘sish, o‘zgarish, yangilanish jarayonlarini paydo qilmoqda.

“Oyog‘i osmondan bo‘lgan sichqonlar”, “Tomdagi gullar”, “Dushman uchun pirog” kabi badiiy asarlar o‘quvchiga estetik zavq berish bilan birga, mantiqiy fikrlashga, kreativlikka undaydi, nostandart vaziyatlarda o‘z bilimidan foydalanishga yordam beradi. “Zumrad va Qimmat”, “Egrivoy va To‘g‘rivoy”, “Baxil va Saxiy”, “Yomonlikning jazosi” kabi didaktik ruhdagi asarlarda faqat tabiyaviy maqsadlar ilgari surilgan, zamonaviy talablarga mos keladigan kreativlik, ijodkorlik tamoyillari kabi zamonaviy mezonlar hamda hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladigan yangi bilimlar va ishtimoiy ko‘nikmalar aks etmagan. PIRLS topshiriqlari uchun tanlangan matnlar ham o‘quvchini mustaqil tarzda yangi bilimlarni izlab topishga, kitobxon o‘quvchiga aylanishiga xizmat qiladi. Buning sababi matnlar mazmuni rang barang va takrorlanmas mazmunga egaligi bilan harakterlanadi.

PIRLS baholash dasturi uchun o‘qish savodxonligi jamiyat talab qiladigan yoki shaxs tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ishlatish qobiliyati sifatida belgilanadi. Yosh o‘quvchilar turli xil matnlardan ma’no tuzishlari mumkin. Ular o‘qish uchun, maktabda va kundalik hayotda o‘quvchilar jamoalarida ishtirok etish uchun o‘qishadi [1].

PIRLS baholash dasturi o‘quvchilar o‘qish savodxonligining uch jihatiga qaratilgan:

o‘qish maqsadlari;

tushunish jarayonlari;

o‘qishga munosabat.

Tushunish jarayonining to‘rt turi PIRLS baholash dasturida baholanadi:

aniq bayon qilingan ma’lumotlarga e’tibor qaratish;

to‘g‘ri xulosalar chiqarish;

g‘oyalar va ma’lumotlarni sharhlash va birlashtirish;

matn tarkibi, til, matn elementlarini o‘rganish va baholash.

PIRLS baholash dasturi o‘qish maqsadlari va tushunish jarayonlarida o‘quvchi ishtirokini o‘rganadi. Biroq, ular bir-birlaridan yoki o‘quvchilar yashaydigan va o‘rganadigan matnlardan ajratilgan holda tahlil etilmaydi. O‘qish savodxonligi insoniyatning qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘qish sabablari bilan bevosita bog‘liq. Umumiy holda, bu sabablar shaxsiy qiziqish va zavq uchun o‘qish, jamiyatda ishtirok etish uchun o‘qish va bilim olish uchun o‘qish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Yosh kitobxonlar uchun bu jihatlar muhim ahamiyatga ega.[2]

PIRLS baholash dasturi talablari yangi bilimlar va ma’lumotlarni tushunish, tahlil qilishda o‘quvchi egallagan bilimlaridan foydalana olish qobiliyatiga e’tibor qaratiladi. O‘quv jarayoniga PIRLS baholash dasturi talablarini tatbiq qilish ta’lim mazmunini o‘zgartirishda, o‘quv jarayoni sifatini oshishiga, pedagogning amaliy ishlarida samaradorlik oshishiga sabab bo‘ladi. PIRLS baholash dasturi tahlili natijalarida “Nimani o‘qitish kerak?”, “Nimaga o‘qitish kerak?”, “Qanday o‘qitish kerak?” savollariga yechim topiladi[6].

Zamonaviy ta’lim tizimida PIRLS baholash dasturi ta’limning sifatini ta’minlaydi. Aslida, ta’lim sifatini boshqarish o‘quv jarayonida ta’lim olish natijalari sifatida o‘zlashtirilishi zarur kompetensiyalarni aniqlash bilan boshlanadi. PIRLS baholash dasturi o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi faoliyati ham hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligi va sifatini oshirish hamda PIRLS baholash dasturida ijobiy natijaga erishish uchun xalqaro baholovchi dasturlarning maqsadi, vazifalari va talablariga mos o‘quv va didaktik materiallari, ta’lim texnologiyalarini o‘quvchilarning umumiy bilim saviyasi, o‘zlashtirishi va qiziqishlarini inobatga olib tanlash lozim. Tanlangan metodni amalga oshirishda bosqichma-bosqich tarzda, o‘quvchini faol hamkorlikka undovchi, guruhlar va yakka tartibda ishlay olish imkoniyatini oshirish uchun o‘qituvchidan katta mahorat va zamonaviy pedagogik bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi. Shundagina o‘quvchilarda tayanch hamda fanga oid kompetensiyalar samarali shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yakimanskaya, I.S. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii: problemi i puti modernizatsii. – Novosibirsk. 2013.- 159s.

2. Baker, L., Scher, D. (2002). Beginning readers’ motivation for reading in relation to parental beliefs and home reading experiences. Reading Psychology, 23(4), 239-269 c.

3. Qurbonova M.F. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ahamiyati // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2020. 3-maxsus son. – B. 29-33. (13.00.00 №17)

4. Qurbonova M.F. O‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda kouching metodikasi // Maktab va hayot. – Toshkent, 2020. Maxsus son №1, – B. 8-10. (13.00.00 №4)

5.Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar // Mug‘allim həm ɣzliksiz bilimlendirio‘. – Nukus, 2021. – B. 112-116. (13.00.00 №20)

6.Mirzayeva S.T. (2023). Zamonaviy yondashuvlar asosida adabiyot darslarini tashkil etish. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 3(1), 130–134. https://doi.org/10.5281/zenodo.

ABDURAUF FITRATNING JADIDCHILIK HARAKATIGA KIRIB KELISHI VA ISTAMBULDAGI TA’LIM

Ixtiyor Qurbonov
NavDPI 2-kurs magistranti

O‘zbek xalqining zabardast farzandi, milliy ozodlik kurashchisi Abdurauf Fitrat Buxoro jadidchiligining eng ko‘zga ko‘ringan yorqin namoyandasi edi. U “Fitrat” taxallusi bilan tirikligida ham, undan keyin ham mashhur bo‘ldi. Fitratning aqlu zakovatini Kavkaz va Volga bo‘yidagi hamkasablarigina emas, Moskva, Leningraddagi sharqshunoslar ham yuksak qadrlaganlar.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida savdogar Abdurahimboy oilasida tug‘ilgan. Fitrat uning taxallusi bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida “Fitrat” so‘zi uchramaydi[1]. “Navoiy lug‘ati”da Fitrat so‘zi “tabiat, tug‘ma tabiat, yaratilish” deb izohlangan[2]. Fitratning otasi Abdurahimboy o‘qimishli, dunyoning baland-pastidan xabardor kishi bo‘lgan. Savdo ishlari bilan Turkiya, Eron, Qashkarga tez-tez borib turgan. Onasining ismi Nastarin Bibi bo‘lib, taxminan 1866-yillarda tug‘ilgan. Oilada Abduraufdan tashqari yana

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2015.

[2] *Бу ҳақда қаранг:* Жамолова.Д Фитрат йўли // “Миллий тикланиш” газетаси. 2022 йил 27 июл.

ikki farzand – ukasi Abdurahmon va singlisi Mahbuba bo‘lgan. XX asrning 20-yillarning faollaridan bo‘lgan, goho she’r ham mashq qiladigan Mahbuba Rahim qizining nomi o‘quvchilarga bir qadar tanish. Abdurahmon esa XX asrning 10-yillarida Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo‘lib ishlagan[1].

Abdurauf eski maktabni tamomlagach, Mir Arab madrasasida o‘qigan. Aynan shu davrda Buxoro hududida jadidchilik harakati vujudga kela boshlagan edi. 1908-yilning oktabrida Buxoro taraqqiyparvarlaridan Sadriddin Ayniy va Abdulvohid Munzimlar tomonidan aynan buxorolik bolalar uchun tojik tilida tahsil beruvchi jadid maktabi tashkil etilgan. Ushbu maktabda 20–30 yoshli kishilar uchun kechki o‘quv kurslari ham tashkil qilinib, katta yoshli talabalarga har kuni 2 soatdan dars o‘tilgan. Qisqa muddatda maktab xalq orasida shuhrat qozongan. Mulla Qamariddin boshchiligida ulamolar bu holatdan norozi bo`lib, jadidlar maktabiga qarshi fitna qo‘zg‘atishga kirishganlar. Vaziyat murakkablashgach, 1909-yil 26-sentabrda Ostonaqul qo‘shbegi, qozikalon Baqoxo‘ja va Burhoniddin raislar Mirzo Abduvohidga maktabning yopilganini rasman e’lon qilganlar[2].

Shundan so‘ng 1909-yili Sadriddin Ayniy, Abduvohid Munzim, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxo‘ja Mehriy, Hoji Rofe’, Mukammal Burhonovlar Buxoroda “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) nomli yashirin jamiyatini tuzganlar[3]. Jamiyat a’zolari tamomila yashirincha ish olib borib, Termiz, Karki, Yangi Buxoro va G‘ijduvonda jamiyatning 28 ta shaxobchasini ochadilar. Bu jamiyatning sa’y-harakati bilan usuli jadid maktablari yana birin-ketin ochila boshladi. Jamiyat nizomida siyosiy masalalar o‘z ifodasini topmagan bo‘lsa-da, unda Buxoro amirligi siyosiy tuzumini isloh qilish, davlat ma’muriyatiga ilg‘or yoshlardan kiritish va shu yo‘l bilan davlat siyosiy tuzumida ilg‘or o‘zgarishlar yasash ko‘zda tutilgan edi. Jamiyatning birlamchi masalasi Buxoro o‘quv muassasalarini tubdan isloh qilish edi. Buxoro eski maktablarini isloh qilish ishi amalda boshlangan bo‘lsa-da, oliy o‘quv yurti hisoblangan madrasalar islohi boshlanmagan, ular ilmli, malakali mutaxassislar tayyorlashdan yiroq edi. Shuning uchun “Tarbiyai atfol” jamiyati iqtidorli yoshlarni Istanbul, Orenburg, Ufa, Qozon, Bog‘chasaroy kabi shaharlarga o‘qishga yuborishni birinchi vazifa sifatida belgiladi. Buning uchun mablag‘ kerak edi. Xalq istiqboli, ma’rifati uchun jon kuydiruvchi mulkdorlar ham, iqtisodiy yordam beruvchi ziyolilar, davlat arboblari ham topildi.

“Tarbiya atfol” jamiyati o‘z faoliyati davrida quyidagi ishlarni amalga oshirgan:

Birinchidan, ilmga chanqoq yoshlarga har jihatdan: ham iqtisodiy, ham ma’naviy yordam ko‘rsatib, Turkiya hamda Rossiyaning Qozon, Ufa, Bog‘chasaroy shaharlariga o‘quvchilar yuborish masalasiga alohida e’tibor berdi. Istanbul shahrida ta’lim olayotgan buxorolik talabalar soni 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda esa 30 dan oshadi.

Ikkinchidan, jamiyat Buxoro amirligida Turkiya va Eronda hamda Rossiya musulmon shaharlarida nashr qilinadigan matbuot namunalari bilan buxoroliklarni tanishtirib borishga katta e’tibor berdi. Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligining har qanday ta’qib va to‘siqlariga qaramay, jamiyatning sa’y-harakati bilan bunday nashrlar amirlikda ham keng tarqala boshladi.

Uchinchidan, hamma jadid mutafakkirlari kabi “Tarbiyai atfol” jamiyati a’zolari o‘rinsiz sarf-xarajatlarga, to‘y va ma’rakalarga sarf qilinadigan katta-katta xarajatlarga, isrofgarchiliklarga qarshi chiqdilar. Bunday mablag‘larni farzandlar tarbiyasiga, ularni chet ellarda o‘qitish uchun sarf qilishga da’vat etdilar. Ushbu jamiyat 1914-yil martda “Ma’rifat” shirkati tuzadilar va 1915-yil 22-dekabrda amir Olimxon bu jamiyatning nizomini tasdiqlab beradi[4]. Bu shirkat kitob savdosi bilan shug‘ullanar, usuli jadid maktablarini darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlashga jamiyatning birlamchi vazifasi sifatida qarar edi.

“Tarbiyai atfol” jamiyatni o‘z faoliyatining dastlabki yilidayoq bir guruh yoshlarni Istanbulga o‘qishga yubordi. Turkiyada ta’lim olishdan maqsad o‘lkadagi “usuli jadid” maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish, “usuli tadris”ning ham amaliy, ham nazariy asoslarini ishlab chiqish, darsliklar, o‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanmalar yaratish edi.

Sadriddin Ayniy Fitrat hayotining ana shu davri to‘g‘risida bunday ma’lumotni bergan: “...Bu davrning ochiq fikrli yoshlaridan biri Abdurauf Fitrat edi. Bu shaxs Buxoro talabalari ichida eng qobiliyatli va fozillaridan biri hisoblanar edi. Mirzo Abdulvohidning maktabiga ko‘p bormagan bo‘lsa-da, mudarris Abdulqodir mahdum vositasida “Siroj ul-mustaqim” jurnalini mutolaa qilishi natijasida fikri ancha ochilgan edi. U Istanbul shahariga (o‘qishga borish uchun) tayyorgarlik ko‘rardi. Bir bahona bilan Buxoro (amirligi) viloyatlariga sayohat qilib, ko‘p narsalarni to‘pladi va Istanbul safariga tayyor bo‘ldi. Nizomiddin

[1] Қосимов Б. Маслакдошлар. Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 71.

[2] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 45.

[3] Ражабов Қ. Тарбияи атфол. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2004. Б. 271.

[4] Ўз МА, И-461, 1-рўйхат, 1919-иш, 12-варақ.

Urganjiyning jiyani Muqimbek Abdurahim bilan birga o‘qir va uning yaqin do‘sti edi. Amakisi bilan munosabati yaxshi bo‘lmagani tufayli Muqimbek Chorjo‘yda mahbus sifatida saqlanardi. U ham Fitrat bilan birga Istanbulga qochmoqchi bo‘lib, qulay fursatni kutardi. Shia va sunniy fojiasidan so‘ng Mirzo Urganjiy Buxoroga kelgach, Muqimbek bu qulay fursatdan foydalanib, 1911-yilning bahorida Abdurauf bilan Eron orqali Istanbulga qochib ketdi”.

Istanbul dorulfunida tahsil olayotgan Abdurauf Fitrat Turkiyada o‘qiyotgan vatandosh o‘quvchi-talabalarga ham iqtisodiy, ham ma’naviy yordam ko‘rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko‘paytirish va muntazamlashtirish maqsadida jamiyat tuzadi va uning mukammal Nizomnomasini ishlab chiqdi[1]. Bu hujjat 1909-yilda Istanbulning Vazirxon ko‘chasida joylashgan “Matin” tipografiyasida nashr qilingan bo‘lib, 4 bobdan iborat. 1-bob “Buxoro ta’mimi maorif xayriya jamiyatining asosiy qoidalari”, 2-bob “Favqulodda yig‘inlar, umumiy yig‘inlar, muntazam yig‘inlar”, 3-bob “Talabalarni jamiyatga qabul qilish” va 4-bob “Buxoro ta’mimi maorif jamiyati xayriyasining xatti-harakatlari” deb nomlanadi.

“Buxoro ta’mimi maorif jamiyati”ning tarkibi doimiy va muxbir a’zolardan iborat bo‘lgan. Jamiyatning bosh organi Kengash bo‘lib, uning 14 kishidan iborat tarkibi doimiy a’zolardan saylangan. 14 kishi orasidan esa jamiyat raisi tayinlangan. Jamiyatga a’zo bo‘luvchilar har oy 10 piastr[2] miqdorida badal to‘lashi shart bo‘lgan[3]. Turkiyada tahsil olishni xohlovchi Buxoro va Turkistondagi kambag‘al oilalarning farzandlariga moddiy yordam ko‘rsatish maqsadida ochilgan bu jamiyat – 10 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan sog‘lom bolalarni qabul qilishni shart qilib qo‘ygan. Jamiyat faol a’zolaridan Hamidxo‘ja Mehriy nafaqat Buxoro va Turkistonda, balki 1910-yilda Xiva xonligiga ham borib, u yerdagi yoshlarni Turkiyaga borib tahsil olishga da’vat etgan[4].

“Nizomnoma”ning “Buxoro ta’mimi maorif jamiyati xayriyasi” xatti-harakatlari bobi jamiyatning maqsadlarini ifodalovchi 14 moddadan tashkil topgan:

“1-modda. “Buxoro ta’mimi maorif jamiyati” Turkistonda, va bilxossa, Buxoroda nashri ulum (ilm yoyish) va ta’sisi makotib (maktablar ochish) maqsadida qurilgan bir xayriya jamiyati bo‘lib, hech qanday siyosiy maqsad ko‘zlamagani kabi mavjud jamiyat siyosatga ham hech bir munosabati yo‘qdir.

2-modda. Jamiyatning ko‘zlagan yagona maqsadi moddiy imkoniyatlari doirasida Buxoro va Turkistondan har yili lozim ko‘rilgani qadar talaba keltirib, ularni Istanbul maktablarida o‘qitmoqdir.

3-modda. Talabalar jamiyatning himoyasi ostida bo‘lib, axloqi va boshqa turli jihatlari nazorat qilinadi.

4-modda. O‘qishni tugatgan talabaning istiqboli va maslaki otiysini (kelajakdagi ish o‘rni) jamiyat hal etadi va bu xususda aksariyat chiqariladigan qarorga hech bir talaba xilof ish tutmaydi. Aks holda, u tahsil uchun sarflangan xarajatlarni qaytarishga majburdir.

5-modda. Buxoroda ochiladigan maktablarning qurilishiga va olib kelinadigan talabalarning yillik tahsil xarajatlariga ko‘mak berish maqsadida Buxoroning fidoyi boylariga murojaat so‘nggida berilajak ionalar qabul qilinadi.

6-modda. Ta’sis etiladigan maktablarning idora hay’ati va ta’limida faqat jamiyat tomonidan tayinlanadigan shaxslar jamiyat qo‘yadigan talablarni qabul qilish sharti bilan faoliyat yurgizadilar.

7-modda. Tahsil xarajatlarini boshqa jamiyatga yillik ellik rubl berishni bo‘yniga olgan ag‘niyoning muxodimi jamiyatning nazorati va himoyasida tahsil ola biladilar.

8-modda. Muxbir a’zoga har uch oyda bir marta jamiyatning chiqarilgan qarorlarini o‘z ichiga olgan hujjatlar to‘plami yuboriladi.

9-modda. Yuborilgan hujjatning ba’zi jihatiga muxbir a’zolar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar muzokara so‘nggida e’tiborga olinadi.

10-modda. Hozircha jamiyatning sho‘balari yo‘q. Biroq bir necha ishonchli vakillari mavjuddir.

11-modda. Vakillarning jamiyat doktrinasiga xilof harakat qilganlari ma’lum bo‘lib qolgan taqdirda a’zoyi mushovari qarori bilan bir umumiy bayonnoma chiqarilib, mazkur kishiga berilgan ishonchnoma hukmi bekor qilinadi.

12-modda. Jamiyatning bir kutubxonasi bo‘ladi va arbobi hamiyat tomonidan sovg‘a etilgan kitob va risolalar bilan to‘ldiriladi.

13-modda. Jamiyatning hujjati rasmiy muhr bilan tasdiqlanadi.

---

[1] Истанбулда Бухоро жамияти хайрияси // “Таржимон” газетаси. 1909 йил 25 декабр.

[2]Пиастр – юнонча сўз бўлиб, “Италия кумуш тангаси” деган маънони англатади. Туркия, Миср, Ҳиндихитой давлатларида амалда бўлган қадимий пул бирлиги.

[3] Ўз МА, И-461 фонд, 1-рўйхат, 949-иш, 17-варақ.

[4] Ўз МА, И-2 фонд, 1-рўйхат, 285-иш, 11-варақ.

14-modda. Jamiyat maqsad-g‘oyalarini amalga oshirish uchun lozim bo‘lsa, nashr ishlariga ham murojaat qiladi[1].

“Buxoro ta’mimi maorifi jamiyati” hech qanday siyosiy maqsadni ko‘zlamagan, uning asosiy vazifasi Buxoroda ilm tarqatish va maktablar ochish, moddiy imkoniyat doirasida har yili Buxoro va Turkistondan Istanbulga tahsil olish uchun talabalar yuborishdan iborat bo‘lgan. Istanbulga tahsil olish uchun ketgan talabalar oldiga bir qator talablar qo‘yilib, ular qonuniy jihatdan asoslangan. Jumladan, talabalar jamiyat himoyasida bo‘lgan va ularning axloqi va boshqa jihatlari nazorat qilingan. Yevropa madaniyatini ko‘r-ko‘rona qabul qilmaslik, kelgusida o‘z yurtlariga yaxshi mutaxassis bo‘lib qaytishlari va uning istiqboli uchun fidoyi vatanparvar sifatida xizmat qilishlari, o`qishni tugatgan talabalarning kelajakdagi ish o‘rni jamiyat tomonidan hal etilishi, talaba jamiyat tomonidan chiqarilgan qarorga xilof ish tutmasligi, aks holda unga sarflangan sarf-xarajatlarning undirib olinishi uqtirilgan.

Ushbu jamiyat haqida Zaki Validiy To‘g‘on quyidagilarni yozadi: “Bu jamiyat (Tarbiyai atfol) Istanbulda bir sho‘ba ocharoq, unga 1911-yil 15, 1912-yilda 30 nafar talaba yubordi. Bu sho‘ba “Buxoro ta’mimi maorif jamiyati” (“Buxoro umumiy maorif jamiyati”) nomi bilan rasmiy bir jamiyat shaklini oldi. 1909-yilda Eron yo‘li bilan Istanbulga kelgan Fitrat ila Muqimiddin va Rusiya yo‘li bilan kelgan Usmonxo‘ja, g‘uljalik Abdulaziz, Sodiq Ashur o‘g‘li bu jamiyatning quruvchilari edi”[2].

Sadriddin Ayniy esa: “Ikmoli tahsil uchun Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, uning ukasi Ato Xo‘ja, Mazhar Mahzum Burhon Mahzum o‘g‘li, Abdurauf Fitrat, Muqimbek Istambulga safar kildilar. Fitrat mazkur talabalarning eng iste’dodlisi va eng fozili edi”[3], bejizga aytmagan.

Istanbulda o‘qiyotgan talabalar, ayniqsa Fitrat tahsil olish bilan birga Turkiyada chiqadigan “Hikmat”, “Ta’rifi muslimin”, mashhur turk shoiri Mehmet Akif muharrirligidagi “Sirot ul-mustaqim” (“To‘g‘ri yo‘l”) kabi gazeta va jurnallarini Buxoroga jo‘natib turadilar va bu nashrlar tez orada o‘z muxlislariga ega bo‘lgan[4]. Inqilobiy Turkiya “Ittihod va taraqqiy” partiyasi bilan yaqinlashuv, usmonli turklarning inqilobiy-demokratik tafakkurida muhim zamin bo‘lib xizmat qilgan islomchilik, turkchilik, usmonchilik g‘oyalari Fitratning ham ijodkor, ham siyosiy arbob sifatida shakllanishiga ma’lum ta’sir ko‘rsatdi. U tahsil olgan Istanbul dorilfununida Turkiya adabiyotidagi islomchilikning 1910-yillardagi eng mashhur vakili “Sirot ul-mustaqim” jurnalining muharriri Mehmed Akif turk adabiyotidan dars berardi. Mehmed Akif 1921-yilda Turkiya milliy madhiyasi matni uchun konkurs o‘tkazilganida, u “Istiqlol marshi” she’ri bilan 724 shoir orasidan birinchi o‘rinni olgan. “Ittihod va taraqqiy”ning nashri afkori “Yangi majmua”ning bosh muharriri, turkchilik g‘oyasining bayroqdori shoir Ziyo Go‘k Alp ijtimoiyotdan kirardi. 1898-yilda “Turkcha she’rlar”i bilan barmoqda she’r yozishni boshlab bergan Mexmed Aminga ergashish avjga chiqqan, “Turk yurdu” (1911), “Ganch qalamlar” (1911) kabi jurnallar maydonga kelib, tilni arabiy va forsiy unsurlardan tozalash boshlangan yillar edi[5].

RUS VA O‘ZBEK ADABIYOTI BADIIY ASARLARI VA TARJIMA MUAMMOLARI

Norboyeva Dilafro‘z Jumaqulovna,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus va o‘zbek adabiyoti badiiy asari namunalari haqida so‘z yuritiladi.Tarjima xalqimizni jahon ilm-fani, texnikasi, madaniyatining ulkan yutuqlari bilan tanishtirish va ijtimoiy tafakkurni rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berishdek muqaddas vazifani bajarishda g‘oyat muhimdir. Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti namunalarida ham, rus adabiyotida uchrovchi turli janrlarda yaratilgan asarlar ham mavjud bo‘lib, ertak, hikoya, qissa, roman va boshqa ko‘rinishdagi asarlardan iboratdir. Mazkur o‘xshash janrlar xaqida o‘quvchilarga ma’lumot berilganda rus va o‘zbek adabiyotini o‘zaro qiyoslash imkoniyati vujudga keladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются образцы художественного произведения русской и узбекской литератур, Переводческое дело очень важно для выполнения священной задачи

[1] Ўз МА, И-461 фонд, 1-рўйхат, 949-иш, 19-20-варақлар.
[2] Заки Валидий Тўғон. Бугунги турк эли. Туркистон ва унинг янги тарихи. 2-босқи. Истанбул, 1981. – Б. 354.
[3] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 69.
[4] Ражабов Қ. XX аср бошларида Туркистон ёшлари. “Ҳуқуқ ва бурч” журнали. № 1, 2008. – Б. 43.
[5] Қосимов Б. Маслакдошлар. Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 79.

приобщения нашего народа к великим достижениям мировой науки, техники, культуры и развития общественной мысли, воспитания его в духе дружбы между народами. Известно, что в узбекской литературе, как и в русской литературе, есть произведения, созданные в разных жанрах, и они состоят из сказок, рассказов, романов и других видов произведений. Когда учащиеся информированы об этих схожих жанрах, появляется возможность сравнить русскую и узбекскую литературу.

Annotation: This article discusses samples of a work of art in Russian and Uzbek literature. Translation is very important for fulfilling the sacred task of familiarizing our people with the great achievements of world science, technology, culture and the development of social thought, educating them in the spirit of friendship between peoples. It is known that in Uzbek literature, as well as in Russian literature, there are works created in different genres, and they consist of fairy tales, short stories, novels and other types of works. When students are informed about these similar genres, it becomes possible to compare Russian and Uzbek literature.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, janr, adabiyot, ertak, hikoya, roman, ijod, manba, o‘zaro ta’sir.

Ключевые слова: художественное произведение, жанр, литература, сказки, рассказы, романы, творчество, источник, взаимное влияние.

Keywords: work of art, genre, literature, fairy tales, stories, novels, creativity, source, mutual influence.

San’at koshonasining shinam va go‘zalligi bino chizmasining qanchalik puxta va aniqligiga, bezaklarning bejirimligiga, me’morning mahorati va quruvchilarning mehnatiga bog‘liq. Ammo bunda binoning qanday materialdan qurilganligi, qurilish materialining sifati ham katta ahamiyatga egadir.

Badiiy tarjimada esa asosiy «qurilish materiali», tarjimaning birinchi va eng zarur elementi bo‘lgan so‘zning o‘rni beqiyos kattadir. Bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning hamma muammolari — badiiylik hosil qilish, uslub yaratish, milliy koloritni aks ettirish so‘z muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Adabiyot mashg‘ulotlarida boshqa millat va xalqlar adabiyotini o‘zaro qiyoslab o‘rganish, o‘quvchilar bilimlarini boyitish, badiiy adabiyot haqidagi tasavvurlarini kengaytirish imkoniyatini beradi.

Ayniqsa, rus adabiyoti namunalarini o‘zbek sinflarida o‘rganishda bir muncha imkoniyatlar mavjud bo‘lib, anchagina rus ijodkorlarining asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Maktab o‘quv dasturiga kiritilgan rus adabiyoti namunalari ham mazkur qilingan tarjima asarlardan olingan namunalardan iboratdir. Ko‘p yillik pedagogik kuzatishlar natijasida chiqarilgan xulosadan kelib chiqib, rus adabiyoti namunalarini o‘zbek sinflarida o‘rganish usullariga doir ko‘zga tashlanarli uslubiy qo‘llanma yoki tadqiqotlarni uchratmadik.

Ilk rus adabiyoti haqida o‘zbek sinf o‘quvchilari 4-7 sinfda tanisha boshlaydilar.Tabiiyki, bu sinflarda o‘quvchilar rus adabiyoti namunalarida aks etgan mavzu va boshqa adabiy-badiiy vositalar hamda ularda keng qo‘llanilgan badiiy janr turlari bilan tanishadilar.

Yuqori sinflarga kelib esa, rus adabiyoti namunalarini chuqurroq o‘rganish imkoniyati keng bo‘lib, hajman yirik, janr jihatdan xilma-xil bo‘lgan asarlar tanlab olingan va o‘zbek adabiyoti darsligi ham o‘quv rejasiga kiritilgan. Chunki tarixan boy, turli janrlarda yaratilgan rus adabiyoti o‘z mazmuni, qalamga olingan rus xalqi tarixi, madaniyati, tili, urf-odatlari baynalminal ahamiyatga ega bo‘lib, barcha xalqlar vujudga keltirgan ma’naviy qadriyatlarning uzviy qismini tashkil etadi.

Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti namunalarida ham, rus adabiyotida uchrovchi turli janrlarda yaratilgan asarlar ham mavjud bo‘lib, ertak, hikoya, qissa, roman va boshqa ko‘rinishdagi asarlardan iboratdir. Mazkur o‘xshash janrlar xaqida o‘quvchilarga ma’lumot berilganda rus va o‘zbek adabiyotini o‘zaro qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Eng muhimi, har ikki millat o‘quvchilarining ijodiy hamkorligi, adabiy hayotning bir-biriga o‘zaro ta’siri xususida umumiy ma’lumotlar manbalarda yetarlicha qayd etilgan.

“Bir xalqning adabiy asarlarini boshqa xalq tiliga tarjima qilish, — deb yozgan edi rus adibi V. G. Belinskiy,— ularning o‘zaro yaqinlashishlariga, bir-birlariga g‘oyalar almashishiga asos bo‘ladi, ana shundan yangi adabiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish yuz beradi”. Darhaqiqat, jahon adabiyotining Shekspir singari ulug‘ siymolari tilimizga tarjima qilingan shoh asarlari bilan birga qonimizga singib ketdi. Badiiy tarjima san’atkorlarning jonbozlik bilan qilgan mehnati tufayli biz o‘z Pushkinimiz va o‘z Lermontovimizga, o‘z Shevchenkomiz va o‘z Tolstoyimizga ega bo‘ldik. Endilikda genial Navoiy bilan birga Gyugo va Shiller asarlarini, Hamza bilan birga Gorkiy va Mayakovskiy kitoblarini, Oybek bilan birga Sholoxov va Mirza Ibrohimov romanlarini o‘qimoqdamiz. A. Qahhor va M. Ismoiliyning tarjimalari orqali buyuk so‘z ustalari L. N. Tolstoy va A. P. Chexovning ajoyib asarlarni o‘qishga muyassar bo‘ldik, G‘.G‘ulom, A.Muxtor va M. Shayxzodalarning tarjimalari orqali V. V. Mayakovskiy ijodiniig inqilobiy ruhi

va g‘oyaviy qudratini sezdik, R. Abdurahmonov va Sh. Tolibov tarjimalaridan N. V. Gogol va N. G. Chernishevskiy asarlarining nafosatini his qildik, Shamsharov va L. Ibrohimovlarning tarjimalaridan I. S. Turgenevni tanidik, Mirtemir va Zulfiya tarjimalari tufayli N. A. Nekrasovga muhabbat bog‘ladik.

Shunday qilib, o‘zbek adabiyotining mundarijasi kengayib, internatsional mazmuni tobora ortib bormoqda.

Xalqimizni jahon fani, texnikasi, madaniyati va ijtimoiy fikr taraqqiyotining buyuk yutuqlaridan bahramand qilish, uni xalqlar do‘stlign ruhida tarbiyalash kabi muqaddas vazifani amalga oshirishda tarjimachilik ishi g‘oyat katta ahamiyatga ega.

Yaqin vaqtlargacha asarning qanday tarjima qilinganini ko‘rsatish uchun uning qanchalik «sodda» va «tushunarli» ekanligini asosiy o‘lchov birligi, mezon qilib olinar edi. Ammo endilikda bunday umumiy va muhmal ko‘rsatkich tarjima muxlislarini ham, tarjimonlarning o‘zlarini ham qanoatlantirmaydi. Boshqacha aytganda, tarjimondan asarning umumiy mazmuni va g‘oyasini emas, yozuvchiiing o‘ziga xos tili va uslubini, uning badiiy mushohada formasini; kitobning tashqi va yuzaki jismi-yu, latofatini emas, balki uning asosiy bisoti: ichki harorati va badiiy xususiyatlarini to‘lato‘kis aks ettirish talab qilinadi.

Ma’lumki, har qanday tarjima, V. G. Belinskiy so‘zlari bilan aytganda, asl nusxa tilini bilmagan kishilar uchun mo‘ljallanadi. Ayni sharoitda badiiy asarni o‘zbek tilida qayta tiklash, ya’ni adekvat tarjima yaratish mas’uliyati yana ham oshadi. Bunday badiiy mukammal tarjima yaratib bo‘ladimi? Buyuk nemis shoiri Gyote o‘zining «Faust» yasarinnng Jerar tomonidan qilingan fransuzcha tarjimasini o‘qib, shunday degan: «Nemis tilida men «Faust»ni qayta o‘qigim kelmaydi, lekin mana bu fransuzcha tarjima meni hamon hayajonga soladi va u sof, yangi va o‘tkir tuyuladi». Demak, shoir o‘zi yozgan asarni o‘z aslida, ya’ni ona tilida emas, balki uning fransuzcha tarjimasida o‘qib, undan chuqur estetik zavq olgan. Binobarin, bundan Gyote fransuz bo‘lib, «Faust»- ni fransuz tilida yozganida, uni xuddi ana shundan qilib yaratgan bo‘lar edi, degan xulosa chiqarish mumkin. Zotan, badiiy tarjima xislatlaridan biri ham shundan iborat. Badiiy tarjima praktikasida hozirgacha jiddiy o‘rganilmay kelinayotgan muammolar juda ko‘p. Bulardan mazkur ishga taalluqli ayrim masalalarni tilga olib o‘tish o‘rinlidir. Chunonchi:

1. Kitobxonga tushunarli va sodda til bilan tarjima qilish avtor va asarning til hamda uslub xususiyatlarini «soddalashtirish»ga, to‘g‘rirogi, siyqalashtirishga asos beradimi?
2. Aksincha, avtorning til va uslub xususiyatlarini aks ettirish asarni hijjalab tarjima qilish lozimligini ko‘rsatadimi?
3. Nima uchun badiiy asarni tarjima qilishning aniq, qat’iy prinsiplari bo‘lsa ham, bir asarni, masalan, o‘n kishi ag‘darsa, bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan o‘n xil tarjima hosil bo‘ladi? Umuman, tarjimada bunday xilma xillikka yo‘l qo‘yish mumkinmi?

Uslub yozuvchining o‘zi, uning butun bor-bisoti, vujudi, yurag tepishi, badiiy mushohada formasi, uning ovozi demakdir. Binobarin, agar tarjimada avtorning uslubi to‘g‘ri berilmagan bo‘lsa, bunday tarjimaning asl nusxa jismiga mosligiga aslo ishonib bo‘lmaydi: unda tarjimon, beixtiyor, avtorning o‘rniga o‘zini qo‘ygan bo‘ladi. Filologiya fanlari doktori, yozuvchi va mohir tarjimon Korney Chukovskiy o‘zining «Tarjima san’ati» («Искусство природы») nomli mashhur asariga quyidagi rus xalq maqolini epigraf qilib olgan edi: «Tarjima xuddi xotinga o‘xshaydi: to‘g‘ri bo‘lsa — chiroyli emas, chiroyli bo‘lsa — to‘g‘ri emas». Bu maqol tarjima san’atining asosiy xususiyatnni, uning zaminidagi mavjud ziddiyatni juda to‘g‘ri aks ettirgan. Zero, to‘g‘ri tarjima etishni maqsad qilib qo‘ygan kishi, ko‘proq, hijjalab tarjima qilishga, muddaosi chiroyli tarjima qilishdan iborat bo‘lgan kishi esa... ko‘proq, o‘zini avtorlashtirishga moyil bo‘ladi.

Bizningcha, ham to‘g‘ri va ham chiroyli tarjimagina mukammal va ideal san’at asari bo‘la oladi, bundan tarjima yaratishnnng o‘zi esa chinakam san’atdir. Bunday san’at tarjimondan to‘g‘ri tarjima «qilish doirasida chiroyli tarjima etishni va chiroyli tarjima etish doirasida to‘g‘ri tarjima qilish mahoratini egallash talab etadi.

Tarjima praktikasida quyidagi xilma-xilliklar uchrab turadi:

1. Tarjimonlarning tajribasi, malakasi va e’tiqodi bir-biridan jiddiy farq qilishi natijasida kelib chiqadigan tafovutlar.
2. Tarjimonlarning tarjima qilish prinsiplarini har xil talqin etishlari tufayli kelib chiqadigan tafovutlar.
3. Tarjimonlarning uslubi avtor uslubiga ta’sir etishi natijasida tabiiy ro‘y beradigan tafovutlar.

Ana shu uchta sabab tufayli, agar bir asarni, masalan, o‘nta tarjimon o‘z tiliga o‘girsa, natijada bir-biridan farq qiladigan o‘n xil tarjima hosil bo‘ladi. (Albatta, bunda qonuniy hodisalargina nazarda tutilib, mas’uliyatsizlik va e’tiborsizlik tufayli yo‘l qo‘yiladigan o‘zgarishlar nazardan soqit qilinadi). Shuning uchun ham har bir tarjimon o‘z tarjimasinnng mutlaq avtori bo‘lsa, ayni asarning o‘z tiliga qilingan va

qilinadigan hamma tarjimalariga avtor bo‘lishni da’vo qilolmaydi. Masalan, V. Shekspirning «Hamlet» tragediyasi rus tiliga o‘n besh marta o‘girilgan bo‘lib, hozir ham shu asarning bir-biridan jiddiy farq qiladigan B. Pasternak va M. Lozinskiy tarjimalari baravar nashr qilinadi. Badiiy tarjima 2X 2 = 4 deb qat’iy hal qilinadigan mexanik ish bo‘lmay, balki ijodiy ish ekanligi, avtor uslubini har bir tarjimon o‘ziga xos uslub bilan tiklashga intilishi tarjimachilik praktikasida yuz berayotgan ana shu tafovutlarga sabab bo‘ladi. «Uslub» tushunchasi keng ma’noda va tor ma’noda talqin qilinadi. Keng ma’noda muayyan yozuvchining yoki ayrim asarning uslubi tushuniladi. Masalan. L. N. Tolstoy bilan A. P. Chexovning badiiy uslubi bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Ayniqsa, rus adabiyoti she’riyati bilan bog‘liq tarjima namunalarini o‘quvchilarga etkazishda o‘qituvchidan har ikkala tilni bir-biriga qiyoslash mahorati, qolaversa tarjimonning she’r matnini aslidan farqli jihatlarini anglash, his qilish qobiliyatini talab qiladi.

Shuningdek, she’r matnini bir-biriga qiyoslar ekan, eng muhim holat she’r matnini o‘quvchilarga ifodali o‘qib berish ham muhim ma’naviy-uslubiy jarayondir.

O‘zbek sinflarida o‘rganilayotgan rus yozuvlari, shoirlari haqida ma’lumot berish jarayonida ular ijod qilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot haqida berilgan obraz shaklidagi ma’lumotlar muhim ahamiyatga egadir. Nazarimizda, rus adabiyoti o‘rganilayotgan mashg‘ulotda, ularning asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan tarjimonlar haqida ham o‘qituvchilar qisqa ma’lumot berib o‘tsalar, o‘quvchilar tarjimonshunoslik sohasidagi katta mehnat talab qiladigan ilm ekanligi haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR:

1.G‘aybulla Salomov “Til va tarjima” o‘quv qo‘llanma “Fan” nashriyoti T., 1996. 98-106b.
2.Шейман Л.А. Основы методики преподавания русской литературы в узбекской школе. Фрунзе, 2001.-с. 80-82.
3.Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык, Изд-во «Укитувчи», Ташкент, 2007.
4.Турьянская Б.И. Материалы к урокам литературы в 5-7 классах. М.: Русское слово, 2006. - 253 с.
5. Реформатский А. О некоторых явлениях словообразования в русской терминологии // Труды МИФЛИ. Т.У. 1999. - 165с.

O‘ZBEK VA INGLIZ ONA ALLASINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Navoiy davlat pedagogika instituti
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi ***N.A.Nematova,***
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 1- kurs talabasi ***Mamatova Charos***

Annotasiya: Butun dunyo folkyorshunos tadqiqotchilari ona allasini umuminsoniy hodisa deb ta’rif berganlar, chunki hamma sevib tinglaydigan alla qadim zamonlardan buyon barcha davlat va xalqlar orasidagi mavjud bo‘lgan xalq folkyoridir. Butun dunyo bo‘ylab folklorshunoslikka oid tadqiqotlarda alla umuminsoniy hodisa deb ta’riflangan, chunki qadim zamonlardan beri deyarli barcha davrlarda va xalqlarda mavjud bo‘lgan. Alla qo‘shiqlari turlicha xususiyatga egadir, U xalqning fikrlashini, dunyoqarashini qo‘shiq orqali ko‘rsatib beradi. Ona o‘z ruhiy kechinmalarini alla orqali go‘dakka o‘z so‘zlari bilan yetkazadi, shu orqali esa oonal ko‘ngli orom oladi.

Kalit so‘zlar: folklor, madaniy, alla, hayotiylik, obraz, qo‘zichoq, toychoq, gul, lola, elf, farishta.

Xalq og‘zaki ijodining avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, bolalar uchun yaratilgan, hamda madaniyat tarixini o‘rganishning eng ajoyib manbalaridan biri bo‘lgan alladir. Alla bolalar uchun yaratilgan xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblanadi. Allada o‘ziga xos tabiiy kuyi, ohangi, so‘zi bilan birgalikda tug‘ilgan xalq qo‘shiqlari ritmik izchilligi bor. Ona allasida obrazlarning so‘zlar bilan uyg‘unlashib, ritm va ohangning bir biriga mos tushishi tinglovchini sehrlab qo‘yadi. uyg‘unligi, so‘zlarning o‘z o‘rnida tanlanganligi, ritm va ohangning mazmunga mutanosibligi tinglovchining diqqatini jalb etadi. Ayniqsa, allalardagi obrazlarning ishlatilishi uni hayotiy voqealar bilan ipsiz bog‘laydi. Insonning qalbiga alladagi ibora va ta’sirchan, mazmunli so‘zlar

hayotiylikni bag‘ishlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Butun dunyo folkyorshunos tadqiqotchilari ona allasini umuminsoniy hodisa deb ta’rif berganlar, chunki hamma sevib tinglaydigan alla qadim zamonlardan buyon barcha davlat va xalqlar orasidagi mavjud bo‘lgan xalq folkyoridir. nButun dunyo bo‘ylab folklorshunoslikka oid tadqiqotlarda alla umuminsoniy hodisa deb ta’riflangan, chunki qadim zamonlardan beri deyarli barcha davrlarda va xalqlarda mavjud bo‘lgan. Alla qo‘shiqlari turlicha xususiyatga egadir, U xalqning fikrlashini, dunyoqarashini qo‘shiq orqali ko‘rsatib beradi. Ona o‘z ruhiy kechinmalarini alla orqali go‘dakka o‘z so‘zlari bilan yetkazadi, shu orqali esa oonal ko‘ngli orom oladi. L. Z. Budakov " Alla"so‘zi chatoyca "allala" shaklida bo‘lib "boshning orqasi" degan ma’noda keladi deb ta’riflagan. ALLA ‘go‘dakni uxlatish paytida kuylab aytiladigan misralar’. Ona allasidan bebahra bo‘lgan go‘daklar ham bor. Bu ot qadimgi turkiy tildagi ‘tinchlanish’ ma’nosini bildirgan ala (ala-ala) undov so‘zidan o‘sib chiqqan (Devon, I, 118); o‘zbek tilida a un-lilari ä unlilariga almashgan, l undoshi qatlangan: ala-ala > alla > ällä. Kuylanadigan misralar oxirida kelganida bu so‘z undovlik xususiyatini saqlaydi, shun-day misralarning nomi sifatida esa otga teng bo‘ladi.

(O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (I-jild) ma’lumotlaridan) Ingliz tilida esa “lullaby” deyilib, a song to quiet children or lull them to sleep. Uni ikki qismga bo‘lish mumkin: etimologik jihatdan from lull + bye-bye, a sound used as a refrain in lullabies; compare with bye-byes ya’ni “lull” so‘zi tinchlanib uxlamoq, degan ma’noni, “aby” esa yaqin, oldida degan ma’nolarni anglatadi.

O‘zbek folklorshunosligida esa bolalar folklorini to‘plash va ilmiy o‘rganishning G‘ozi Olim Yunusovning “Alla to‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z” maqolasi alohida o‘rin egallaydi. XX asr boshlarida esa kasbi o‘qituvchi bo‘lgan Elbek ta’limda bolalar xalq qo‘shiqlaridan foydalanish maqsadida ularni yig‘gan va to‘plagan materiallari asosida “Bolalik qo‘shiqlari” (1936) to‘plamini e’lon qildi. O‘zbek bolalar folklorining nazariy asoslari G‘.Jahongirov, O.Safarov, H.Ro‘zmetov, Sh.Galiyev, N.Safarova, S.Avezovlarning tadqiqotlari orqali birmuncha chuqur ishlandi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

O‘zbek va ingliz alla qo‘shiqlarining lingvomadaniy xususiyatlarini, madaniyatga oid lisoniy birliklarini ochib beradigan bo‘lsak quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek allasida hayotidagi shart-sharoitlar, ayollarning boshidan kechirgan mashaqqatli mehnatlari tasvirlangan.

Olma yuzligim jonim, alla,
Ko‘za yuzligim jonim, alla,
Qora ko‘zligim jonim, alla,
Shirin so‘zligim jonim, alla.

Alla she’rdagi har bir so‘zning matndagi ma’nosi va uning madaniyatdagi kelib chiqish tarixini o‘rganmay turib uni talqin qilib bo‘lmaydi. Yuqoridagi alladan olingan parchadagi Olma obrazi ko‘p xalqlar adabiyotida uchraydi. Tadqiqotchilarimiz "Olma" bola va sevgi ramzlari ma’nolariga ega deb qarashgan.

Alla desam, bog‘im bor, alla,
Biring olma, biri anor, alla,
Shukronalar aytarman, alla,
Qanchalar tirnoqqa zor, alla.

Birinchi va ikkinchi misralarda bog‘, olma, anor so‘zlarini bolaga qiyoslanadi. Bizga ma’lumki o‘zbek adabiyotida bolalarni erkalab mevalarga qiyos qilinadi. Uchinchi va to‘rtinchi misralarni tahlil qiladigan bo‘lsak ma’lumki, o‘zbek xalqi madaniyatida farzand ko‘rmagan oilalarni “tirnoqqa zor” deb tushunadilar va unga Alloh tomonidan tirnoq, ya’ni farzand berganligi uchun shukronalar aytayotganini tushunishimiz mumkin. TIRNOQ ‘ barmoqlar uchining ustidagi muguzsimon qoplama’. Maxsum o‘siq tirnoqlarini Boboqulning bo‘giziga botirishga chog‘lab xezlanib kela boshladi (Sunnatilla Anorboyev). Bu ot qadimgi turkiy tilda ‘tirnoq bilan yuz terisini til-’ ma’nosini anglatgan tïr— fe’lidan — (ï)ŋ qo‘shimchasi bilan yasalgan sifatga (otga) —a qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan fe’ldan —q qo‘shimchasi bilan yasalgan (ЭСТЯ, III, 347); keyinchalik ikkinchi

bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qi-linmay qo‘ygan (Devon, III, 393), ŋ undoshi n undoshiga, q undoshi oldidagi a unlisi â unlisiga almashgan, ï un — lisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: [(tïr— + ïŋ = tïrïŋ) + a = tïrïŋa] + q = tïrïŋaq > tïrŋaq > tïrnaq > tirnâq.

Lekin tirnoq so‘zi ko‘chma ma’noda" Farzand, bola" ma’nosida keladi.

Tog‘lardagi toychog‘im, alla,
Bog‘lardagi gulu lolam, alla,
Bo‘ynimdagi munchog‘im, alla,
Tunda yongan chirog‘im, alla.

Ot o‘’zbek xalqining ezgulik ruhi sifatida tarixda qolgan. Otning yosh bolasi toychoq deb ataladi, shuning uchun ham onalar bolalarini “toychog‘im” deb erkalaydilar. "Toy" ko‘chma ma’noda Erka, erkatoy, toychoq (faqat bolalarga nisbatan). Ishlatiladi. Alla so‘zlari yordamida bolani gulga, ya’ni "gul" eng yaxshisi, sarasi; fayz kirituvchisi hisoblanadi, hamda munchoq, Qimmatbaho va rang-barang shisha, tosh va sh.k. narsalardan yasaladi-gan, asosan ziynat uchun ipga tizib, bo‘yinga, qo‘lga (bilakka) taqiladigan dumaloq yoki boshqa shakldagi donalardan iborat bo‘ladi. Bunda munchoq o‘zbek ayollarining sevimli zargarlik buyumlari hisoblanib, ona farzandini qimmatbaho va o‘zining sevimli buyumiga o‘xshatadi. Chiroqqa o‘xshatishining sababi, bilamizki chiroq bu o‘zidan nur taratib yo‘llarimizi yoritib beradigan vosita, va ona o‘zining umr yo‘llarini yoritib berguvchi vositani farzandi deb biladi. Bundan tashqari o‘zbek folklorida bo‘ri, qo‘zichoq, butaloq, baliq kabi obrazlarni keltirish bilan ona o‘z farzandiga alla aytgan. BO‘TALOQ ‘tuyaning yosh bolasi’. Bu so‘z botä otiga kichraytirish-erkalash ma’nosini ifodalovchi -lâq qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan: botä + lâq = botälâq. Ona o‘z allasida odağını erkalab bo‘taloqqa o‘xshatgan.

Ingliz tillarida ham shu kabi o‘xshatmalar mavjud. Quyidagi misralarga e’tiborimizi qaratadigan bo‘lsak, ularda ham ingliz madaniyatining tarixini ko‘rishimiz mumkin.:

O little elves, her tiny body
Like a white flake of snow it is,
Drooping upon the pale green hood
Of the chill snowdrop.

Bu misralarni o‘qiganimizda nimaga inglizlar bolasini kichkinagina bo‘lgan jonzot elflarga o‘xshatyapti degan savol tug‘iladi. Elf olmon mifologiyasi va folklorida (ayniqsa, Skandinaviya mifologiyasi va folklorida) uchraydigan humanoid g‘ayritabiiy mavjudot turidir. O‘rta asrlarda german tillarida so‘zlashuvchi madaniyatlarda elflar odatda sehrli kuch va g‘ayritabiiy go‘zallikga ega mavjudotlar sifatida tasvirlangan. Ingliz tarixi madaniyatida ular elflar va sehrgarlik haqida turli afsonalar mavjud bo‘lib, inglizlar elflardan qo‘rqqan va ularga g‘ayritabiiy kuch sifatida qaralgan. Inglizlar elflardan bolalarini himoya qilish maqsadida farzandlariga Alfred, Elf deya ismlar qo‘yishgan. Odamlarga o‘xshab ketadigan, katta sehrga ega kichik jonzot deb tasavvur qilingan va bu bolalar qo‘shiqlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Inglizlar bolalar tanasini oppoq qor parchasiga o‘xshatilyapti, bunda albatta biz ingliz madaniyatini ko‘rishimiz mumkin. . O‘zbek millatida esa bolalarni qorga o‘xshatishmaydi. Qor sovuqlik ramzi hisoblanadi. O‘zbek allasi namunalarida esa kichik hajmdagi hayvonlarga, ya’ni hayvonlarning bolasiga o‘xshatiladi.

Angels shall come
And stand closely to keep
Watch over you, little baby.
Bye-bye to sleep, little baby.[8]

Ingliz allalarida " Angel" farishta detalini ko‘p o‘rinni egallaydi. Farishta xudoga yordam beruvchi, insonlar bilan xudo o‘rtasidagi vositachi sifatida qaraladi, ular insonlarni yomonlik, yovuzliklardan himoya qiluvchi deb qaraladi. Farishtalar kechqurun yovuz niyatdan bolalarni qo‘riqlaydi.

Xulosa

Ona bolasining uxlashi tog‘dagi eng serharakat hayvon-quyon, kiyiklarni tanlaydi. Doimo chopib yuruvchi quyonga, qo‘zichoqqa bolasini o‘xshatadi. Bolasi ham kun bo‘yi quyonday, qo‘zichoqday sakrab, oxiri charchaydi. Ona allasini eshitib orom oladi. Butun olam sukunatga tushadi.

Onalik folklori faqat mehr-muhabbat manbayi hisoblanmasdan o‘z davri ijtimoiy muhiti, oilaviy

munosabatlar, millat dardi bilan bog‘liq til unsurlarini ham o‘zida aks ettiradi. Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki ijodida panda, pingvin, koala, elf kabi hayvonlarni uchratish juda qiyin. O‘zbek folklorida bo‘ri, tulki, turna, kabutar obrazlarining umumiyligi shunchalar haqiqatga mos. O‘zbek va turk allalaridagi hayvonlar va qushlar obrazi ham xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoiti va madaniy rivoji jarayonida shakllangan dunyoqarashi asosida umumiylik va xususiylik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi. Elektron darslik.–Samarqand: 2006.
2.Aliqulova H.O‘zbek va qozoq yor-yorlarining qiyosiy tipologik tahlili:Filol.fan. f.d.(PhD) … diss. – Toshkent, 2023.

ZAHIRIDDIN MUHAMAD BOBUR – TARJIMON

Narzulloyeva Marjona Abdullo qizi,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili ta’lim yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d. (DSc) N.J.Yarashova

Bobur (taxallusi; to‘liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) (1483.14.2, Andijon 1530.26.12, Agra) — o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir; tarixchi, geograf; davlat arbobi, iste’dodli sarkarda; boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda.

Boburning otasi — Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hokimi, onasi Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonnint qizi edi. Boburning onasi o‘qimishli va oqila ayol bo‘lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko‘mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo‘yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o‘tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o‘tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqx ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilmfanga, she’riyatga qiziqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» («Sher») laqabini oladi.

Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur sufiy — Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, «Boburnoma» asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizliqdan xalos etganini, eng og‘ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta’kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi (1494 yil iyun).

Movarounnahr XV asr oxirida mustaqil bo‘lib olgan ko‘pdan-ko‘p viloyatlarga parchalanib ketdi.

Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) buysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba’zilari mustaqillik da’vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog‘alariga qo‘shilib, uni yo‘qotish payiga tushadi.

O‘z amakisi Sulton Ahmad Mirzo bilan va tog‘asi Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3 yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni yaxshilash, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni mustahkamlash, Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi.

Bu paytda Samarqand taxti o‘tirgan Sulton Mahmud Mirzo Samarqandda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadi — qisqa muddatli kasallikdan so‘ng 43 yoshida vafot etdi. Uning o‘rniga Buxoroda hokim bo‘lgan o‘g‘li Boysung‘ur o‘tiradi. 1495-1496 yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497 yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so‘ng Samarqandni egallaydi, Boysung‘ur Qunduzga qochadi. Shahardan qamal tufayli egulikka don ham topish mushkul edi.

Bobur qo‘shinni ta’minlashda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Navkarlaridan ayrimlari Andijon va Axsi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o‘girib, uning ukasi Jahongir Mirzo tarafiga o‘tadilar. Andijondan ko‘ngli notinch bo‘lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga

uchragan, ayni zamonda, og‘ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so‘ng, uni tark etishga qaror qiladi.

Ammo Xo‘jandga yetganida Andijon ham qo‘ldan ketib, muxoliflar ixtiyoriga o‘tganini eshitadi. Boburning Toshkent hokimi, tog‘asi Mahmudxon ko‘magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi, Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo‘shiniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ko‘pchilik bek, navkarlar (700-800 kishi) Boburni tark etadi. O‘ziga sodiq kishilar (200-300) bilan qolgan Bobur ma’lum muddat Xo‘jandda turgach, Toshkentga — Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish rejasini tuza boshlaydi. Ma’lum muddat o‘tgach, Bobur Xo‘jandga qaytadi, ko‘p o‘tmay, Marg‘ilonni qo‘lga kiritadi hamda Andijonni egallash tadbirlarini ko‘radi. Nihoyat, ikki yildan so‘ng (1498 yil iyunda) uni qayta qo‘lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan sulh tuzib, uning ixtiyorida «Xo‘jand suvining Axsi tarafi viloyatlarini...» qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o‘z tasarrufiga oladi.

Temuriylarning o‘zaro urushlari kuchaygan kezlarda Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilishga kirishadi. U 1499 yil Jizzax va Samarqand orqali Qarshi va Shahrisabzgacha borib yetadi, katta o‘lja bilan Dashti Qipchoqqa qaytadi. Oradan ko‘p o‘tmay, katta kuch bilan Movarounnahrga qaytgan Shayboniyxon Buxoro va Qorako‘lni egallaydi (1499 yil), Sulton Ali Mirzo kaltabinlik bilan Samarqandni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi (1500 yil). Biroq, shahar aholisi va zodagonlarining ma’lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular Farg‘ona hokimi Boburga maktub yo‘llab, Samarqandni ishg‘ol qilishga da’vat etganlar. Bobur 1500 yil kech kuzida o‘z qo‘shini (240 kishi) bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar darvozalarini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar askari qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, Qarshi va G‘uzor shaharlarida Bobur hokimligi e’tirof etiladi. Ammo shaharda oziq-ovqat zaxiralari tugab, ocharchilik boshlanadi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to‘plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. 1501 yil aprelda Zarafshon bo‘yidagi Saripul qishlog‘i yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘shinlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to‘rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur 1501 yilning 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga – Mahmudxon huzuriga yo‘l oladi.

Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borgan bo‘lsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og‘ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida u maqsadiga erisha olmaydi.

1503 yili Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo‘shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo‘yida tor-mor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501-1504 yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlaridan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504 yil iyun) majbur bo‘ladi.

Bobur 200-300 navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azna va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo‘shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o‘rnatadi. Kobulga, umuman Afg‘onistonga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. «Bog‘i Shahroro», «Bog‘i Jahonoro», «O‘rtabog‘», «Bog‘i vafo» va «Bog‘i Bobur» kabi oromgohlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal’asini o‘z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta’mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal’ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘iladi. 1506 yilning bahorida vafot etgan Qutlug‘ Nigorxonim Mirzo Ulug‘bek shu yerda bunyod ettirgan «Bog‘i Navro‘ziy»ga dafn etiladi.

Bobur Afg‘onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmron sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatdi, uning manfaatlari yo‘lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg‘onistondagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida katta obro‘ orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e’tiborli o‘ringa ko‘tarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig‘iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko‘rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo‘yicha Hirotga otlanadi. Husayn Boyqaroning to‘satdan vafot etishiga (1506 yil) qaramay, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o‘tkazadi. Temuriy hukmdorlarning birlashib Shayboniyxon qo‘shinlariga to‘siq qo‘yish rejalari amalga oshmaydi va tez orada birin-ketin mag‘lubiyatga uchrab, saltanatni batamom qo‘ldan chiqaradilar.

1507 yilning boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi. Ammo, bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi.

Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o‘z qo‘shinlarini doimo shay tutadi. Shayboniyxon Xurosonning yirik markazlarini qo‘lga kiritgach, Eronni zabt etish uchun yurish boshlaydi. Ammo, Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to‘qnashuvda (1510 yil) u yengiladi, o‘zi ham Marvda halok bo‘ladi.

Shoh Ismoil Xuroson va Movarounnahrga qo‘shin kiritib shayboniylarga ketma-ket shikast yetkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511 yilning bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktyabrning boshida esa Samarqandni yana qo‘lga kiritadi. Boburning shia mazhabidagi eroniylar ra’yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug‘diradi. 1512 yil 28 aprelda Ko‘li malik jangida Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512 yil kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o‘tib, avval Huzar (G‘uzor) qal’asini oladi, so‘ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so‘ng taslim bo‘ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi. 1512 yil 24 noyabrda G‘ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e’tiborini Hindistonga qaratadi.

1519 yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5-6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. Nihoyat, 1526 yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qilib, Dehlini egallaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi.

Bobur Hindistonda ham, xuddi Afg‘onistonda bo‘lganidek, ko‘plab ijtimoiy hayrli ishlarni amalga oshirdi, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Tarqoqlik va parokandalikka, o‘zaro ichki nizo, qirg‘inlarga barham berib, viloyatlarni birlashtirdi, markazlashgan davlatni mustahkamlash va yurtni obodonlashtirishga, ilmu hunar va dehqonchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Qurilish ishlariga boshchilik qildi.

TALABALARDA “BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH” FANINI O‘QITISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

G.K.Xatamova -
NavDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti v.b.

Dunyoda ta’lim shakllarini zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablari asosida diversifikatsiyalash, o‘qitish usullarini texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim sifati nazariyasi va metodologiyasining yetakchi g‘oyalarini tatbiq etish uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslangan klasterli yondashuv orqali amalga oshirish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xalqaro tajribalarga ko‘ra, rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlarida ta’lim oluvchilarning iqtisodiy kompetentligini shakllantirish marketing-tadbirkorlik, iqtisodiy-huquqiy va axborot-tahliliy, boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning konseptual tizimli modeliga asoslangan metodik modelini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida iqtisodiy kompetentlikni shakllantirishning didaktik ta’minotini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai-nazardan, iqtisodiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida interfaol ta’lim metodlaridan va iqtisodiy indikatorlardan samarali foydalanish zaruratini taqozo etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda kechayotgan tub islohotlar, hukumatimizning tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratayotgani, har bir oilaga tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga yetarli sharoit yaratilayotgani, ayniqsa, yoshlarga keng imkoniyatlar eshigi ochilgani, aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish, ta’lim muassasalarida biznesga oid iqtisodiy fanlarni o‘rganishga ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Iqtisodiyot sohasidagi o‘zgarishlar bu fanni o‘qitishda xalqaro iqtisodiyot, oila byudjeti, turizm, logistika, davlat byudjeti va tejamkorlik, iqtisodiy madaniyat kabi yo‘nalishlarni o‘quv rejalariga kiritish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim oluvchilarga iqtisodiy bilimlar berish, iqtisodiy xarakterdagi milliy qadriyatlarga hurmatni oshirish, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik malakasiga ega bo‘lishni ta’minlash masalalari bo‘yicha R.X.Djuraev, R.Ismatov, N.A.Kamolova, N.G.Mo‘minov, M.Artiqovalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Iqtisodiy ta’limni tashkil etishga texnologik yondashuv masalalari A.X.Abdullaev, S.Boboqulov, Sh.A.Saipnazarov, B.Sobirov, X.A.Umarova, X.J.Xudoyqulov, O.Hayitovlar tomonidan o‘rganilgan. E.Sariqov, B.Haydarov kabi tadqiqotchilar ta’lim oluvchilarning iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish masalasini tadqiq qilishga e’tibor qaratgan.

Oliy ta’lim muassasalarida “Biznes jarayonlarini boshqarish” fanini o‘qitishda talabalarning yosh hususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularni tadbirkorlik faoliyati va biznes jarayonlarini boshqarishga, iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat ijtimoiy-iqtisodiy yoki ishlab chiqarish munosabatlari jarayonini qamrab olishi kerak deb hisoblaymiz.

Iqtisodiy munosabatlarga kirishish – ta’lim oluvchilarni ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish orqali ularni axloqiy, iqtisodiy, jismoniy, ruhan, irodaviy hamda estetik jihatdan kamolotga yetishishini ta’minlovchi pedagogik jarayon hisoblanadi.

Iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarining rivojlanganligi deganda talabalarning iqtisodiy bilimdonlik, oilaviy tadbirkorlik faoliyati yoki biznes loyihalarda faol ishtirok etishi, mehnat va ishlab chiqarish ko‘nikmalariga, shuningdek, iqtisodiy kompetentlik sifatlari, ya’ni aniq maqsad va harakat rejasiga egaligi, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, liderlik, kreativlik, iqtisodiy masalalarda vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, turli iqtisodiy vaziyatlarda va biznes jarayonlarida oqilona qaror qabul qilish, raqobatga bardoshlilik, muvaffaqiyatsizliklar oldida tushkunlikka tushmaslik, tavakkal qilishga tayyorlik kabilarga egaligi tushuniladi.

“Biznes jarayonlarini boshqarish” fanini o‘qitishda oliy ta’lim muassasalari talabalarining iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘z mohiyatiga ko‘ra tashxis, moslashish, amaliy-faoliyatli, nazorat-baholash hamda refleksiv bosqichlarda kechadi.

Bosqichlarda muayyan pedagogik vazifalar hal qilinadi.

1) tashxis bosqichida – anketa so‘rovi, suhbat, kuzatish yordamida talabalar tomonidan biznes va iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiy, individual ahamiyatining baholanishi, tadbirkorlik va biznesga oid iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlar mavjudligini aniqlash ishlari amalga oshiriladi;

2) moslashtirish bosqichida – amaliy topshiriqlar va interaktiv ta’lim metodlaridan foydalangan holda, talabalar ongiga nazariy iqtisodiy bilimlarni singdirish orqali ularni amaliy biznes faoliyat jarayoniga tayyorlanadi;

3) amaliy-faoliyatli bosqich – rolli va ishbilarmonlik xarakterga ega bo‘lgan o‘yinlarni yaratish, talabalarni oilaviy tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokini o‘rganish, interfaol metodlarga asoslangan ijodiy topshiriqlar yordamida biznes jarayonlariga oid faoliyatni tashkil etish ko‘nikma, malakalarini shakllantirish;

4) nazorat va baholash bosqichida esa – ijodiy va amaliy natijalarga ko‘ra talabalar tomonidan iqtisodiy bilimlarni amalda qo‘llashga doir bilim, ko‘nikma va malakalarning rivojlanganlik darajasini baholash amalga oshiriladi;

5) refleksiv bosqich – talabalarda iqtisodiy munosabatlarga tayyorlik darajasini mustaqil baholash malakalarini rivojlantirish, ular tomonidan refleksiv baholashning izchil yo‘lga qo‘yilishiga erishishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oliy ta’lim muassasalarida “Biznes jarayonlarini boshqarish” fanini o‘qitishda hamda u asosida talabalarning iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishda iqtisodiy ijtimoiylashuv, integratsiya, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojiga moslik, mehnat munosabati bilan bog‘liqlik, shaxsning ehtiyoj va imkoniyatlari birligi, individual xususiyatlarni inobatga olish, tabaqaviy yondashish, jamoa imkoniyatining ustuvorligi kabi tamoyillar ustuvorlik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risidagi PQ-5847-sonli Qarori. httrs://lex.uz/doss/4545884

3. Avazboev A.I. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari // Zamonaviy ta’lim. 2018. №8. –B. 21.

4. Баранников К.А. Формирование экономической и бизнес-компетенций учащихся учреждений среднего профессионального образования и их влияние на экономическую безопасность личности: дис. ...канд. пед. наук. - М., 2009. - 156 с.

ВОСТОК И ЕГО ТРАДИЦИИ В РАССКАЗЕ А. КОЛМОГОРОВА «ЛИСТЬЯ ТУТОВОГО ДЕРЕВА»

Чернова Т. А.,
преподаватель кафедры Узбекского языка и литературы
Самаркандского института экономики и сервиса

Аннотация. В статье рассматривается тематика Востока, воспоминания о красочном детстве, проведенном на любимой Родине. Указываются восточные термины, ярко показывающие весь колорит прекрасной Азии. Анализируются различные символы и образы, связанные с восточными традициями. Изучается роль символа тутового дерева великана в данном произведении. В рассказе «Листья тутового дерева» автор часто использует традиционные национальные термины, чтобы передать всю любовь к своей Родине. Упоминание о свадебных приготовлениях семьи Согдиевых, когда они выдавали замуж красавицу дочь Наргизу, Колмогоров применяет такие термины Востока, как «айван», «рубабы», «дойры», «тюбетейка» и тд.

Ключевые слова: воспоминания о детстве, гостеприимные и сплочённые колорит прекрасной Азии, национальное достояние, тонкая связь между нациями, чистота и величие.

Annotation. The article examines the theme of the East, memories of a colorful childhood spent in our beloved homeland. Oriental terms are indicated, clearly showing the whole flavor of beautiful Asia. Various symbols and images associated with Eastern traditions are analyzed. The role of the giant mulberry tree symbol in this work is studied. In the story “Mulberry Leaves,” the author often uses traditional national terms to convey all the love for his homeland. In mentioning the wedding preparations of the Sogdiev family, when they married their beautiful daughter Nargiza, Kolmogorov uses such Eastern terms as “aivan”, “rubabs”, “doiras”, “skullcap”, etc.

Key words: memories of childhood, hospitable and united colors of beautiful Asia, national treasure, subtle connection between nations, purity and greatness.

Annotatsiya: Maqolada Sharq mavzusi, sevimli Vatanimizda o‘tgan rang-barang bolalik xotiralari ko‘rib chiqiladi. Sharqiy atamalar ko‘rsatilgan bo‘lib, go‘zal Osiyoning butun lazzatini aniq ko‘rsatib beradi. Sharq an’analari bilan bog‘liq turli timsol va obrazlar tahlil qilinadi. Bu asarda bahaybat tut daraxti ramzining tutgan o‘rni o‘rganiladi. “Tut barglari” qissasida yozuvchi o‘z vataniga bo‘lgan barcha mehr-muhabbatni ifodalash uchun an’anaviy milliy atamalardan tez-tez foydalanadi. Kolmogorov So‘g‘diyevlar oilasining go‘zal qizi Nargizaga uylanayotganda to‘yga tayyorgarlik ko‘rishi haqida gapirar ekan, sharqona “ayvon”, “rubob”, “doira”, “do‘ppi” kabi atamalarni ishlatadi.

Kalit so‘zlari: bolalik xotiralari, go‘zal Osiyoning mehmondo‘st va birlashgan rangi, milliy boyligi, xalqlar o‘rtasidagi nozik bog‘liqlik, poklik va buyuklik.

Слияние национальных миров в авторской картине отличает индивидуальный стиль современных прозаиков и поэтов, представляющих русскоязычную литературу Узбекистана. И это явление нуждается в серьезном исследовании. Русскоязычные писатели Узбекистана успешно осваивали свой талант на протяжении всего XX века по настоящее время. В Узбекистане сложилась достаточно авторитетная школа русскоязычных поэтов и прозаиков, представители которой внесли достойный и весомый вклад в мир литературы.

Понятие диалога выступает и применяется в качестве способа «цивилизованного сосуществования» культур, искусств и взаимодействия различных народов и сообществ. Невозможно полно раскрыть проблему диалога культур, не обратившись к теме художественного творчества, природы его влияния на процессы, происходящие в мире культуры. Национальные литературы занимают особое место в диалоге культур, поскольку они, как и национальные языки, одновременно и отражают, и формируют характер и идентичность народа. Представители различных культур видят мир по-разному: такое видение навязано им их родной культурой и родным языком как их носителем и хранителем.

Совершенно по – новому открывается Азия у писателя каждого поколения. Все таинственное и загадочное видится теперь как реальное, но при всех этих условиях сохраняет свою поэтику.

Как справедливо отмечает Гульчира Гарипова, «узбекская литература занимала особое место в системе мирового литературного процесса в силу очень самостоятельного оригинального

синтетизма реализма и модернистских неомифологических явлений, обозначенного в поэтике узбекских просветителей Фитрата и Чулпана, Бехбуди и Гайрати» [2]

Иначе говоря, в русскоязычной литературе Узбекистана по определению Давшан А. Н. в статье « Диалог культур в современном литературном процессе Узбекистана», две литературные традиции. Одна, преобладающая, представляет собой традицию русского классического силлабо-тонического стиха, другая - традиции арабо-персидской поэзии и ее тюркской "ветви".

В своей статье «Диалог культур в современном литературном процессе Узбекистана» Александра Давшан замечает, что «В многонациональном центральном среднеазиатском регионе образ жизни, исторические события, религиозная принадлежность способствовали постоянному взаимодействию нескольких культур.

Говоря о прекрасной творческой одаренности и смелости пера, стоит отметить творчестве писателя, драматурга и актера Александра Васильевича Колмогорова. «Рожденный на окраине империи, где водоворот времени вбирал, закручивал и выбрасывал на другие берега множество причудливых, драгоценных для писателя характеров и судеб, русский москвич и чистокровный ташкентец Александр Колмогоров любит свое прошлое и настоящее...». [4]

В очередном произведении Александра Васильевича Колмогорова «Листья тутового дерева» из цикла рассказов «Прошу ответить девушку», продолжается тема Востока.

«Было время! Было счастье» - такими словами начинается рассказ **Колмогорова,** в котором снова прослеживаются воспоминания о детстве, проведенном на любимой Родине.

Слово «Бесконечно» было ключевым из детских лет, будто это время никогда не закончится и будет продолжаться вечно. «Утром, днем, вечером, на пыльной улице, на заснеженной улице, на залитой лужами улице, мы, пацаны, гоняли в футбол! Мы могли делать это бесконечно! До одури, до темноты, до угрожающих криков взрослых…». [4]

Олицетворением добра и света, совести и чистоты был персонаж рассказа Сёма – дурачок, который принадлежал всей улице, символ традиций того времени, сплочённости и жизненного уклада. Человек без возраста и определенного местожительства, который в любую погода, по словам автора, носил тельняшку, словно моряк дальнего плавания, приплывший к нам будто погостить, чтобы потом вновь уплыть далеко и навсегда.

Шапочка Сёмки была разноцветной, но традиционно похожей на тюбетейку, тем самым автор подчёркивает, что тонкая связь между нациями не оборвана, а крепко переплетена. Автор упоминает о том, что у Сёмы была тюбетейка как у Горького, изображенного на обложке в учебнике. И судьба, по всему видимому, у Сёмы - дурочка была такой же сложной и горькой, как и псевдоним писателя. Добрые люди относились к нему с особой теплотой, пытаясь защитить, а скверные – старались поглумиться над ним и высмеять его странность.

Еще одним ключевым символом данного рассказа является «тутовое дерево», которое олицетворяет силу и стойкость: «…высоко ценится и уважается в разных частях мира на протяжении веков не только за его питательные свойства, но и за его символическое значение. Известно, что тутовые деревья очень устойчивы к различным условиям окружающей среды, в том числе к засухе, резким ветрам и вредителям, что делает их идеальными символами упорства и выносливости» [5]

Чистота и величие данного дерева не только привлекало собой всех соседей, но и приносило достаточно пользы, ягодами могли полакомиться дети всей округи, а мощные ветви скрывали от зноя и палящего солнца.

В рассказе также появляется образ прекрасной восточной красавицы – Наргизы. Все в округе восхищались и гордились ею. Автор так описывает девушку Наргизу: «Смутно помнятся черты лица Наргизы. Но не забыть ощущение, возникавшее при виде нее! Ощущение праздника, радости от того, что есть такая красота на свете! И чувство гордости от того, что эта красота живет рядом с нами, на нашей улице…» [4]

Однажды, увидев прекрасную девушку, Сёма стал чаще мечтать, нежным голосом воспевать восточную красоту и искать в небе ответ, откуда же взялась такая красота в этом дворе.

Автор рассказа хочет донести до нас, что свет и чистота этой прекрасной девушки, праздник, который она дарила своим присутствием, можно соотнести с простодушием и радостью Сёмы. Именно эти герои стали олицетворением особенного настроения и некой «сплочённости» в данном рассказе Колмогорова. Они привнесли чувство вечного праздника и ликования души, идею самозабвенной доброты и доверчивости.

Силами зла в этой истории можно было считать соседа дядю Петю, которого еще называли Живодером, никому не нравился этот персонаж за его грубость и нелюдимость. Многие пытались его вразумить, но безуспешно!

В своем рассказе автор часто использует традиционные национальные термины, чтобы передать весь колорит своей Родины – любимого Востока. Упоминание о свадебных приготовлениях семьи Согдиевых, когда они выдавали замуж красавицу дочь Наргизу, Колмогоров применяет такие термины Востока, как «айван», «рубабы», «дойры», «тюбетейка» и тд.

«…Однажды осенью родители стали приглашать соседей на свадьбу. В их дворе вокруг тутового дерева расставили столы, за которые сели взрослые гости. Зазвучали рубабы, дойры. На айване[1], под занавешенными клетками с перепелками-беданами появился певец. Он был в розовой нейлоновой сорочке и темно-зеленой праздничной тюбетейке. Прикрыв от удовольствия глаза, он запел свадебную песню. Гости чинно пили из пиал водку, которую им разносили в чайниках незаметные помощники хозяев застолья…» [4]

Еще одним национальным достоянием был, конечно же, плов, который всегда готовился по определенному национальному рецепту, церемония приготовления данного блюда и сама трапеза были неотъемлемой частью Востока.

Автор, в своем рассказе, указывает на невосполнимую потерю, восточную красавицу Наргизу увезли далеко и навсегда, теперь тот светлый праздник, который она дарила всему двору, будет на других улицах. Вместе с прекрасной девушкой исчез и Сёма – дурачок, загрустивший по своей мечте, и потерявший всякий смысл жизни без созерцания красавицы Наргизы.

Автор пишет о времени, которое уплывает, все меняется и всему приходит конец: «…Люди посудачили немного о нем. Пожали плечами. И забыли. Было время! Уплыло, как мячик по реке Кара-Су. Укатилось, как стеклянный шарик под кровать…» [4]

Колмогоров указывает нам на то, что с потерей тех особенных и необычных героев, которые являлись символами доброты, уюта и тепла, а именно красавицы Наргизы и Сёмы – дурочка, ушла и та безоблачная, тихая жизнь. На смену тех уютных разномастных домов из детства, были построены современные комплексы, от которых уже не веяло тем теплом, безмятежностью и радостью, ка было раньше.

Соответственно, не было уже на тех улицах и могучего великана – тутового дерева, под которым так любила ребятня играть и веселиться. Растеряли друг друга и те добрые соседи, дружившие домами, имевшие общие традиции, идеи и общую мечту. Они растворились в современном и строящимся Ташкенте. «… Разномастные дома на улице нашего детства однажды снесли. Со всеми их колодцами, садами, виноградниками, банями, курятниками, тандырами и прочими признаками человеческой жизни. Вдоль берега реки Кара-Су встали огромные коробки административных зданий метрополитена…» [4]

Автор сравнивает людей того времени, с листьями тутового дерева, которые разнес ветер, и каждого из них погнал в разные стороны, найти друга друга стало совершенно невозможно. Только однажды, может быть, через много лет, встреча старых знакомых состоится, и они предадутся воспоминаниям о тех счастливый моментах своего детства, где были милые сердцу сады, теплая вода в арыках, виноградники, колодцы и люди, жившие по – соседству, такие гостеприимные, сплоченные и до боли родные!

Таким образом, хочется добавить, что рассказ А. Колмогорова «Листья тутового дерева» является ярким примером демонстрации жизни того времени и тех людей, тоски пот родным местам и незабытой Родине. Все, что передает в своем произведении автор по средствам символов, образов и героев, олицетворяет восточный мир и Восток в целом, который всегда будет жить в его сердце.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М., 1969
2. Гарипова Г. Концептуальные тенденции развития узбекской литературы конца XX – начала XXI вв. // Звезда Востока, 2012. – №2.
3. Давшан А. Диалог культур в современном литературном процессе Узбекистана. // Звезда Востока, 2012. - №3.
4. Прошу ответить девушку / Александр Колмогоров. — Москва : ИП Елена Алексеевна Пахомова, 2015. — 286 с.

[1] Айван — терраса перед домом *(узб.)*

МОЗИЙ САДОЛАРИДАН ТАРАЛГАН УСУЛЛАР СЕМАНТИКАСИ
(“ЗАРБ -УЛ - ҚАДИМ” УСУЛИ МИСОЛИДА)

Саидий Саид Болта-Зода,
НавДПИ Мусиқа таълими кафедраси профессори,
Санъатшунослик фанлари номзоди

Аннотация. Мазкур маколада муаллиф Бухоро “Шашмаком”ининг дойра усуллари семантикасини очиб бериш назарда тутилган. Шунингдек, маколада жахон халклари томонидан кенг кулланиб келинган узаро таъсири хам таккос ва илмий фаразлардаурганилган.

Таянч сузлар: «Нубаи Зулкарнайн»,“Зарб- ул- кадим ”, “Идиофон”, “Паккилдок”, “Чаккилдок”, “Таккилдок”, “Мембронофон”, “Модуляция”, “Бум”, “Бак”, “Дифференциал”, “Онг ва Онг - ости”, “Ийкоот назарияси”, “Космик усул”, “Семантика”,”Кепчик”, “Чаккилдок- даф”, “Мозий садолари”, “Сарахбор”,“Бузрук”, “Мушкулот”, “Наср”,“Тасниф”, Таржеъ”, “Ироки Бухоро”, “Муножот”, “Ушшок”, “Реквен”.

Инсоният маънавияти равнаки мисолида оллох назар солган Узбекистон маданиятининг серкирралиги ва бетакрор санъати, маком ва маконлари; бундай муъжиза улканинг хар томонлама чукур тарихи хамда бугунги кундаги урни ва ахамияти азалдан хозиргача мозийдан садо каби жахонни хайратга солиб бормокда!.

Чунончи, тарихчи ан-Насавий келтирган маълумотга караганда Хоразмшох Алоуддин Мухаммад саройида утказилган тантаналарда, турли мамлакат ва вилоятларнинг асир олинган 27 хукмдори саф тортиб, ногораларда «Нубаи Зулкарнайн» усулини чалиб туришган .

Қадимги тарих рухонийлари улчамида садо унсурларини жумбушга келиши, кон семантикасининг доимий ва бирхиллик реквенлигида + ё - (плюс ё минус) хамрохлигида икки усулнинг бири кучли ва иккинчиси кучсизлигидан дарак бергувчи обьектив ва субьектив харакатлар яъни, табиий ва космик усул муъжизалари мисолида назарлаб келинган.

Жахон олимлари диккати марказида икки мавжудодлардан бири “сабаб” ва иккинчиси “асос” деб билсак, унда биз ва бизга номаълум мозий сирлари ва ундаги садоларининг баъзи асосларидан хабардормиз, аммо сабабларини аниклашга киришсак баъзиларининг ечимига бош котириб келишимиз бу- аник!. Бунда, сабаблардан бири; инсоннинг онг ва онг ости харакатларининг англаш ва англатиб билиш ва куллаш кобилиятига биз хали англаб билмаган меъзонлар кулами талайгина дейиш, уринлидир.

Булар; а) табиийликда инсон юраги зарбларининг хамоханглиги билан боглик жараён;

б) онг ва онг - ости харакатлари меъзонларининг дифференциал холати ва ундаги англаш, англатиш ва идрок этиш йуналишлари мисол була олади.

в) космик унсурларда табиат ва бизга номаълум мозий сирларининг садоларидир.

Демак, энг кадимги усул, бу; “Зарб- ул- кадим ” усули деб номланса, у инсон юрагининг хамоханглигидан келиб чиккан дейиш мумкин. Илмий тилда дойра зарбларининг садоланиш улчамидаги тулкинланишида паст товушда “бум” аммо эшитилишида баланд, кейингиси баланд товуш тулкинида “бак”, аммо эшитилишида паст товуш зарбининг табиийлигидан фойдаланиб келинган. Бундай манзарани улуг алома даврининг жахонда машхур буюк мутаффакири, тиббиёт оламининг шаханшохи Абу Али ибн Сино усул таълимотидаги аруз ваъзнлари “ийкоот назарияси ” тизимининг таснифида курсатилганидек, ушбу усул билан солиштирганда Абу Али ибн Сино тилида “нуктахои жолибий” деб аталади.

“Зарб- ул- кадим” усулининг кулланиш сохасида жуда куп мисоллар келтириш мумкин. Ушбу; одамзоднинг ерга урилишидан бошлаб энг кадимги давр такозосида; “паккилдок”, “чаккилдок”, “таккилдок” ва бошка ёгочли, суяк, кайрок тошлар ва темир буюмларидан тайёрланган, замонавий таснифланишида “Идиофон” -(шовкинли, жарангли, дагал) номусикавий чолгулар сирасига кирса-да, улардан “ов маросимлари”- да, “оммавий тантаналар”-да, “диний одатлар”-да, “жангу жадаллар”-да жуда кенг кулланиб келинган. Шунингдек, Сугдиёна ва Авесто даврларида чакирик, огоҳ тантаналарда, катл ва жазо, аскарларнинг уруш ва юришларида, ов маросимлари, сайлларда кенг фойдаланишган.

Александр Македонский даврида хам аскарларининг муворауннахрга бостириб кириши, юриш ва урушларда кулланилган усули, айнан, шу усул мажмуъасида булиб утган.

Ислом динининг ер юзига таркалишида, Марказий Осиё ва якин Шарк давлатлари ва бошка давлатларга хам “Зарб-ул- кадим ” усулини урма зарбли чолгуларда, аникроги: “дойра, ногора, таблак, кепчик” ва бошка “Мембронофон ” -(урма зарбли, тери тортилган) чолгуларда бир хил ижро

этиб, “оллоху - акбар” рукуни кулланиб, огир кадамларда юриб келганлар ва кулга киритилган хамда буй сундирилган.

12-асрда Эрон Султони Ҳусрав Дехлавий “ногора” чолгусининг мохир ижрочиси ва бастакори булганлиги билан у, куплаб ногорачилар билан турли хил усуллар ижросида бахслар уюштириб, улар устидан талабага эришган. У томонидан кулга киритилган ва асир олинган душман аскарларига “ногоралар”- да чалишни узи ургатган ва эрта тонгдан - бу тонггача алмашилган холда бутун калъа буйлаб, устида саф тортиб “дул ногора, рез ногора, катта ва кичик ногоралар”-да “Зарб- ул- кадим” усулини бир марромда чалиб туришган. Аммо, ушбу даврда “Зу-ул- Қарнайн”, яъни Искандар Зулкарнайн усули номи билан тилга олиниб чалиб келинган эди.

Сохибкирон Амир Темур в Темурийлар даврида аскарларининг юриши ва жангу жадалларда, чакириклар ва тантаналарда, ов ва сайлларда хам ушбу усулдан кенг кулланиб келинган.


Тарих такозоси билан манбаъларда келтирилишича, ушбу усулдан Наполеон хам аскарларининг харбий юришларида кенг фойдаланган. Кейинги даврда эса Бухоро Амирлигида калъа устидан ногорахона томининг устки сахнасида шу усулдан ногоралар ижросида аскарларни, жамоатни “жаъм килиш” ва “чакирик”- турида хамда “ов” ва “сайл”-ларда ижро этилганидек, кенг кулланилган холда чалиб келинган. Бир каторда Миршаб мирзолари томонидан кундузги ва кечки назоратларда ва мирзонинг “чаккилдок- даф” чолгусида “ороми шаб рукуни талаффузида етти кадамдан сунг, бир маротабали бум ва бак товуш садосида ижро этиб келинган.

Мисол тарикасида; 8/8 Шунингдек, Бухоро мумтоз ижрочилигида аждодлар рухи билан чамбарчас боглик кечган усул, айнан “зарб- ул- кадим” -нинг кулланиши, Бухоро Шашмакоми ва Хоразм макомининг “Наср” булимидаги бошлангич кисмида, яъни “Сарахбор” айтим йулида катта ашуладан урин олган. Бузрук макомининг мушкулот кисмидаги “тасниф ва таржеъ”, “ироки Бухоро”, “муножот”, “ушшоки Самарканд” ва бошка классик жанрларда дойра зарбларида ушбу усулнинг модулотини учратиш мумкин.

Иккинчи жахон уруши даврида Адольф Гитлер харбийлари томонидан чалинган ушбу усул оркали давлат ва шахарлар жангсиз таслим булишган эди.

Бугунги кунда эса жахон харбийлари томонидан “Зарб- ул- кадим” усули аскарларнинг юришларида жуда кенг фойдаланиб келинмокда !!.

“Зарб- ул- кадим” усулининг семантик жихатдан дойра ё ногорадаги ижроси ёхуд, икки зарбдан иборат бир усулдир. 2/4 улчовга тенгдир. Ушбу 4/4 куринишида булиб, тавсифланишида хам табиий хамда сунний садоланишларга мисоллар келтириш мумкин. Бунда;



а) Инсон юрак зарбларининг эшитилиши, аммо назарий жихатдан ушбу зарблар модулотга эгадир, яъни: 2/4 иккинчиси инсон юрагининг клапанлар зарбига хос икки зарб эшитилишидаги усул булиб, назарий ечимда бир бутунлик давриясига тенг модуляцияни ташкил этади. ушбу; 5/8 шунга ухшаш икки зарбли усулларни бошка табиий садоланишларга хам учратиш мумкин, булар; отнинг югуриши, фил, туя, кит ва дельфиннинг юрак зарблари, бойкуш чакириги, каккунинг сайраши эса, айнан ухшашдир.

Бир-каторда кон семантикаси билан боглик жинсларда купрок учратиш мумкин. Маънан олганда вакт ажратувчи, улчов ва санок, савол ва жавоб, хаёт манбаъи рамзи сифатида нафакат инсонлар, паррандалар ва хайвонларда табиий харакатлар механизмининг калити ё матори каби рухий тавсифлар белгиларига боглик кечади дейиш мумкин.

б) Космик улчамларда осмон жинсларининг бир - бировига урилиши, чакмоклар харакати, яъни акс садолар куринишининг бошлангич зарби, диккат ё огох маъносида кечса, иккинчи мисол тарикасида; афтомобилда матор булмаса у юрмайди, яна; бомба портланишидан олдин ерга ё бирор обьектга урилишидаги садо ва сунг портлагандаги садо. Сабаб ва асос каби мисоллар келтириш хам мумкин.

Хуллас; юкорида курсатилган “Зарб- ул- кадим” усулини семантикасига жуда куп мисоллар келтириш мумкинким, ушбунинг хаёт ё мамот манзараларидаги рухий таъсири ва тассовурбахш

этилишида фалсафавий ва психологик дунёкарашлардаги у ё бу куринишларининг садоланиш зарбларидаги улчами, чексиз тарих ва сирли мавжудоддан таралган таффовуд меъзонларини англатувчи ё огохлантирувчи ва бизга номаълум унсурлардан иборат мозий муъжизалари бекиёсдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1 Амир Темур тузуклари. Форсчадан А.Согуний ва Х.Кароматов таржимаси.- Т.:Еафур Гулом номидаги нашриёт, 1991.- 104 б.

2 Буниятов М. Государство Хорезмшахов Ануштегини-тов.- М.: Гослитиздат , 1983.- 144 с.

3 Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мавороуннахр тарихи.- Т.:Еафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.- 96 б.

4 Назаров А. Форобий ва Ибн Сино. Ритмика хусусида.- Т.: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.- 123 б.

5 Пугаченкова Г.А. Искусство Бактрии эпохи Кушан. М.: Искусство, 1979.- 310 с.

6 Siobin M. Music in the Culture of Northern Afganistan. -Tucbon, Aricona, 1976.- 126p.

7 Farmet H.G. An outline of History of music and musical theory. -in Pope FA.Asurvey of Persian Art. -London, 1939, vol.3.

FOLKLOR QO‘SHIQLARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI VOKAL-XOR MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING INTERFAOL USULLARI (1-4 SINFLAR MISOLIDA)

Toshmurodov Baxriddin Umarovich,
NavDPI “Musiqa ta’limi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Talabalarga ta’lim - tarbiya berish jarayonida Vokal asarlari va mashqlari ustida ishlash va ularni ijro etishga urgatish uslublari, kuylashni boshlash, darsning hirgoyi qismi, asarlar va mashqlardan unumli foydalanib qo‘shiqni kuylashning usuli, shakl, vositalari, urgatish uslublari ketma - ketlikda yoritib berilgan.

Tayanch iboralar: Bosh va gavdaning asosiy holatlari, Vokal funksiyasi, ToҚ’п xirgoyi, Xonanda xirgoyisi, Kuylashga o’rgatish, Vokal pedagogikasi,

O`quvchilar bilan vokal asarlari va mashqlari ustida ishlash va ularni ijro etishga urgatish jarayoni asosan bosh va gavdaning asosiy holatlari: kuylash chog‘ida gavdaning to‘g‘ri, tabiiy, erkin bir muncha yoyilgan, qo’llar qo’yiladi. Boshni to‘g‘ri, erkin tutish, pastga tushirmay va baland Қ’tarmaslik kerak, yuz mushaklari kuchlanmasligi, oldinga qarab turish lozim.

Dastlabki mashg‘ulotlar uchun sodda, xonandaga tovush hosil qilish jarayonida diqqatni jalb qilish imkonini beradigan mashqlarni tanlash lozim.

Oldinda turgan ijroga ichki tayyorgarlik bilan bir qatorda yaxshi xirgoyi, ya’ni mushak tizimini ishchi holatga keltirish zarur.Xonanda xirgoyisi sportchining chigayozdi mashqlari yoki balerinaning "qizib olishi"kabi.

Xirgoyi - keying! kuylovchilik topshiriqini muvaffaqiyatli bajarilishi. Amalda oҚ ishini hurmat qilgan har bir xonanda har kuni xirgoyi qilishni majburiy biladi, toki to‘liq asarlarni kuylash chiroyli bo’lsin.Xirgoyi uchun mashqlar, vokalizlar yoki ovoz funktsiyasini yaxshi sozlovchi muvaffaqiyatli asarlar sanalanadi. Bu xonandaning didi, odati va tayyorgarligi darajasiga bog‘liq bo‘lib, xonanda yaxshi mashq qilgan Ьо’Қ, xirgoyi kam vaqt egallashi mumkin. Katta tanaffuslardan so’ng xirgoyi te’proq vaqt egallaydi. Tajribali professionalning nerv sistemasi funksional imkoniyatlari yuqori va shuning uchun ishga kirish davri minimal, ayrim professionals xirgoyi qilmasdan ham sahnaga chiqa oladilar. Biroq har bir xonanda hamisha oҚ ovozini "sinash", ya’ni uni ishchi "tayyor" holatga keltirishga intiladi.Bu murakkab asarlarni birdan kuylash kerak paytda ayniqsa zarur.Yaxshi ma’lumki, faqat xirgoyi qilib olgach, tobora murakkab ijro vazifalarini bajarish mumkin.

Vokal funksiyada xirgoyi harakati ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, xirgoyi natijasida (inertnost) juftlik bartaraf etiladi va nerv jarayonlarining zarur faolligiga erishiladi. Boshqa tomondan, xirgoyi xarakteri, mashqlar sur’ati xonanda oҚ oldiga qo’ygan vazifalar va tegishli nerv koordinatsion mexanizmlarni ishga tushiradi, mashqlar tempi, ijro ritmi, dinamik, xarakteri - kerakli stereotiplarini ishga kiritadi va keyingi kuylashga ta’sir etadi.Masalan, E. Karuzo lirik partiyalarni kuylagan yorqin, yengil jarang, qarakatchanlikni talab etgan mashq va vokalizlarni xirgoyi qilsa, dramatik partiyalar ijrosidan oldin xirgoyi mashqlar xarakteri mos ravishda o’zgargan.ular keng jarangli, to‘qroq, massivroq tovush bilan kuylangan.

Amaliyotchilar ta’kidlaganki, xirgoyi xarakterli ayniqsa keyingi kuylash uchun maqbul.Xarakterga te’ra xirgoyi xonandani tegishli asarlar ijrosiga tayyorlashi lozim. Shunday qilib, xirgoyi ma’lum planda tovush va psixologik tayyorlikni yaratadi. Bundan doim foydalanish kerak. Bu xirgoyi xonanda ijro etadigan asarlar xarakterida shart, degani emas. Uning koordinatsiya doirasi keng mumkin, zero xonanda hamma vaqt turli plandagi asarlarni kuylashga to‘g‘ri keladi.

Inertlik qissasi va keyingi ishga avvalgisining ta’siridan konsert

dasturini tuzishga oid xulosalar qilinadi. Doimo asarlarning ketma-ket ijrosidagi sozlik (tayyorlik)ni hisobga olish lozim. Shu sababli, birinchidan, ovoz apparati ishining bir xarakteridan boshqasiga tez o’ta olish lozim, bunga mashq qilganlik bilan erishiladi.ikkinchidan, konsertdan oldin dasturni estrada bajariladigan ketma-ketlikda xirgoyi qilish lozim.

Darsning hirgoyi qismida kuylashga o’rgatish jarayonida uni amalga oshirish xirgoyi qismiga alohida katta e’tibor qaratiladi. Biroq ikki tushunchani farqlash lozim: xirgoyi- ovoz apparatini qizdirish, ya’ni organizmga umumiy ta’sir va xirgoyi ovoz kiritish texnikasini ishlash. Vokal pedagogikasi amaliyotida ba’zan shunday aralashtirish kuzatiladi. Uni sport bilan qiyoslasak, bu chigal yozdi va mashq (mashqulot)ni qorishtirish, demak chigal -yozdi - sporti organizmni ishchi holatiga keltiradigan umumiy mashqlar, chigalyozdi oxirida mashqlarga, gimnastik kombinatsiya yoki mashg‘ulotda bajariladigan boshqa harakat faoliyatiga tayyorlaydigan mashqlar beriladi. Mashg‘ulot -yangi koordinatsiyalarni ishlash, mushak faoliyati oliy natijalarga erishishi.

Xonandalik ham shunday.Dastlabki mashqlar murakkab vazifalardan holi ЬО’ҚЬ Mashqlarning birinchi qismi turli o’rganuvchilar uchun torn ma’noda xirgoyi (ya’ni, chigalyozdi) ЬО’ҚЫ kerak, keyin esa vokal texnik vazifalarni qo’yadigan xirgoyiga o’йҚЬ Sifatli xonandalik ovozini shakllantirish, boshqa barcha asosiy vokal harakatlar: legato, stakkato, katta intervalga sakrash va sh .k., -odatda, mashqlarda ishlanadi. Ovoz silliqligi, unlilar silliqligi, to‘liq diapazon rivoji, dinamikasi - bu hammasi avvalo maxsus - tanlangan mashqlar tizimi bilan ishlash samarasi.

Ovoz hosil qilish va ovoz yuritish texnikasi ustida ishlash - yangi harakat vokal stereotiplarini rivojlantirish va ularni saqlay va turli musiqiy vazifalarga te’ra variatsiyalay olishdir. Harakatlarni aniq farqlash (differensatsiya), koordinatsiyani ishlash nerv jarayonlari inertligi bartaraf etilib, organizm "kuylash" holatiga yetganda muvaffaqiyatli kechadi.

U yoki bu differentsiyalashni ishlashda yuqori natijalarga faqat kuylash holatda erishi mumkin. sinfda "Nega baland nota bugun chiqmayapti o’tgan darsda hammasi yaxshi edi-ku. Nimani noto‘g‘ri qildim" - degan savolga "Sen bugun kam xirgoyi qilding" yoki "kecha ovoz ustida te’p ishlading, charchading, keragini qilyapsan, texnikang to‘g‘ri" degan pedagoglar javobi eshitiladi.

Fiziologiya nuqtai nazaridan buni shunday talqin qilinadi; bugun nerv tizimi yetarlicha faol holatda emas, maksimal qiyin vazifalarni bajara olmaydi. Yetarlicha faol emaslik yo nerv hujayralari inertligi (kuylash holatida emasligi) yo oldingi haddan ziyod, uzoq va kuchli ta’sir oqibatida tormozlanganlikka (charchoqqa) bog‘liq.

Mashg‘ulotni tashkil etayotib, o’rganuvchiga xirgoyi uchun zarur vaqtni, texnikani takomillashtirish mashqlariga o’tish vaqtini hisobga olish muhim.Bu o’rinda metodik yondoshuv turlicha ЬО’ҚЬ 0’rganuvchi ovoz apparatiga asta-sekin yuklama berish lozim bu vokal pedagogikasi alifbo haqiqati ekanini aytmasa ham ЬОҚГ.

Mashg‘ulot (dars) ning "xirgoyi"va "ishchi" qismlari orasidagi metodik tafavut shundan iboratki, xirgoyi qismida boshida odatiy, alohida e’tibor talab qilmaydigan, doim to‘g‘ri bajariladigan, ya’ni yaxshi kuylangan mashqlar berilishi kerak. Ovozning me’yordagi kuchi va diapazon markazida ishlash bu mashqlar to‘g‘ri, barqaror bajarilishi omilidir.Shunday qilib, ovoz apparatini "qizdirish" va nerv sistemasi faoliyatini oshirish odatiy, sodda mashqlar davomida kechadi. shu tariqa inertlikni yengish va yaxshi ОҚШЙҚП koordinatsiyani mustahkamlash uchun sharoit yaratiladi.

Xirgoyining bu birinchi bosqichda pedagog te’p tanbeh bermasligi, haddan ziyod talabchan bo’lmasligi, jarangning oldin eshitilgan maksimal yaxshi sifatini Қzlamasligi lozim.Inertlik tugalmas ekan, bu yaxshi sifatlar, ‘Қ’nggi muvoffaqiyatlar" namoyon bo’lmasligi mumkin.

0’rganuvchini shu jarangni izlashga qat’iy majburlash yetarlicha "kuylash" holatida bo’lmasa, topilgan koordinatsiyalar mustahkamlanishiga emas, balki qo’shimcha kuchlanish, har qanday qilib izlanayotgan tovushni topish istagiga olib keladi.

Jarangning eng yaxshi sifati o’z-o’zidan, izchil xirgoyi natijasida namoyon bo’lguncha tinch xirgoyi qilib, o’rganuvchini qizdirish ma’qul. Bu holatda avval topilgan Қnikmalar hisobiga shu sifatida yuzaga keladi va ularning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Faqat ovozni "kuylash" holatiga yetishga te’ra pedagog murakkabroq vokal vazifalari berishi va maksimal talabchanlik va qat’iy at Қrsatish kerak. Ayniqsa murakkab farqlashlar, оҚ murakkab

kombinatsiyalar (trel, filillash va sh.k.), diapazonning o'ta baland, alohida safarbarlik talab etadigan tovushlarni mashg'ulotning ikkinchi yarmi, darsning kulminatsion fazasida berish lozim. Bu paytda to'liq kuylash holati kuzatiladi va hatto yengil charchoq ham sezilmaydi.

Shunday qilib, talabaning qo'shiq ijro etishida xirgoyi ikki turli vazifasidan iborat ЬO'HЬ, ularning o'ziga xosliklar darajalarini dars metodikasini qurishda hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lib, talabalarni vokal san'atiga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. И.А.Каримов, "Баркамол авлод орзуси". Т.: Узбекистон 1999 й.

2. Sh. M. Mirziyoyrv. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz. T. O'zbekiston. 2017 yil.

3. О.Иброхимов, "Мусика" 4-синф учун дарслик. Т.: 2011 й.

4. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) https://t.me/joinchat/ - Music teacher, https://infourok.ru - music lessons

5. Muminova Muqaddas Riskulovna **International Journal of Mechanical Engineering**. The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022-йил.

6. Muminova Muqaddas Riskulovna Mental Enlightemment Scientific- Methodological Journal. THE ROLE OF SPORT ACTIVITIES, GAMES AND COMPETITIONS IN THE NURTURE OF 6-7 YEARS OLD CHILDRENhttps://uzjournals.edu.uz/tziuj68-78betlar 2022

O'ZBEK XALQ MUSIQASHUNOSLIGI VA ETNOMUSQIQASHUNOSLI SOHASINING O'RNI VA RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Abdualimova Gulsanam Sherali qizi
NavDU "Musiqiy ta'lim" yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Toshmurodov Baxriddin Umarovich,
NavDPI "Musiqa ta'limi" kafedrasi dotsenti

Anotatsiya. Musiqashunoslik barcha musiqaga oid fanlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada O'zbek musiqashunosligiga, etnomusiqasiga hissa qo'shgan allomalar, bastakorlar ularning asarlari ko'rsatilgan va musiqashunoslikning boyishi, musiqaning insonga ta'sir etishi yoritib berilgan.

Kalit so'z lar. Etnomusiqa, Musiqashunoslik, Risola, "landay",Qozoq, Qirg'iz xalqlarida "kyuy", Hind va Pokiston xalqlari "raga" va Kashmir maqomlari, ashula, lapar, maqomlar, "SHashmaqom", "doston", "Xo'sh-xo'sh", "Qo'sh haydash"', "CHarx". Mavsumiy qo'shiqlardan –"Sust xotin", "SHox moylar", "Choy momo", "SHamol chaqirish", Marosim qo'shiqlariga- "Kelin salom", "Yor-yor","Beshik tuyi".

Musiqa bu insonning ichki olami,uning tabiati, estetik didi,ma'naviyati bilan bog'liq. Musiqani tinglash orqali idrok etamiz. Xo'sh ,musiqani yaxlit holda tinglash, kuylash uchun har bir elementlarini o'rganuvchi musiqiy fanlar musiqashunoslikni o'z ichiga oladi. Musiqashunoslik eramizdan oldingi yillardan rivojlangan. Masalan, Pifagor (er.avv VI asr) Evritmiya ta'limotida inson hayot tarzi davomida ritm,usul topishligini aytib o'tgan.Yunon faylasufi Platon(er.avv. V asr) fiktiga ko'ra "Davlatning kuch-qudrati yangrayotgan ohangiga bog'liq"-deb ta'kidlagan. SHuning uchun ham qaysi Davlat yuruqqa erishsa,boshqa bir davlatga tashrif buyursa uning ramzi bo'lmish Madhiyasi yanglaraydi.

Musiqashunoslik o'z ichiga-Musiqa nazariyasi,Musiqa psixologiyasi, Musiqa estetikasi, Musiqa tarixi, Etnomusiqa, Ijrochilik, Xonandalik , Folklorshunoslik v.b yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.Musiqashunoslik boyishida Jomiyning "Risolai Musiqiy"' risolasi musiqa nazariyasini o'z ichiga olgan. Husrav Dehlaviyning" Musiqa tinglash bo'yicha tadqiqot''asarida ijrochilik, musiqa nazariyasiga e'tibor qaratilgan.

1930-yildan boshlab O'z bek musiqa namunalarini notaga olish rivojlandi,50-yilda yirik to'plam bo'lib shakllandi.1955-59-yilda "Ozbek xalq musiqasi" nota to'plami 9 jildlik nashr etildi. 1-5 jildlari Yu. Rajabiy yozuvida, 6-7 jildi M.Yusupov, 8-9 jildi O.Xalilov yozuvida, I.Akbarov,Yu.Kon izohlarida nashr qilindi. 1963-yil J.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" monagrafiyasi nashr etildi. 1961-1966-yil "SHashmaqom" F.Karamatov faoliyati ostida amalga oshirildi. A.Fitratning "O'z bek klassik musiqa va uning tarixi"risolasini yozdi.V.Uspenskiy esa Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdug'oniylardan maqomlar yozishda o'z hissasini qo'shdi.

Etnomusiqa - ma’lum xalqqa xos,uning milliyligini ifodalovchi musiqalar misol bo‘la oladi. Masalan, Arablarda “nuba”, Ozarbayjon xalqlaridan “mug‘om”, Afg‘onistonda “landay”,Qozoq, Qirg‘iz xalqlarida “kyuy”, Hind va Pokiston xalqlari “rag” va Kashmir maqomlari, O‘z bek va Tojik xalqlarida maqomlar milliy merosI hisoblanadi.O‘z bek xalqining etnomusiqalariga misol qilib - ashula,lapar,maqomlar, “SHashmaqom”, dostonlarni aytish mumkin. Xalq tomonidan sevib kuylanadigan, Mehnat qo‘shiqlaridan- “Xo‘sh-xo‘sh”, “Qo‘sh haydash”‘, “CHarx”. Mavsumiy qo‘shiqlardan –“Sust xotin”, “SHox moylar”, “Choy momo”, “SHamol chaqirish”, Marosim qo‘shiqlariga- “Kelin salom”, “Yor-yor”,”Beshik tuyi” v.b milliyligimiz aks etgan qo‘shiqlarni kiritishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1) H.Nurmatov,N.Yo‘ldasheva ‘‘O‘z bek Xalq Musiqa Ijodi’’ Toshkent-2007
2) A.Jabbarov, S.Begmatov,M.Azamova ‘‘O‘z bek Musiqa Tarixi’’ Toshkent -2018
3) SH.Ayxodjayeva,CH.Ergasheva,A.Zokirov ‘O‘z bek Musiqasi Tarixi’’ Toshkent-2021
4) R.G‘.Qodirov ‘‘Musiqa Psixologiya’’ Toshkent-2005

НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА ОММАВИЙ СПОРТ ТУРЛАРИНИНГ ҲОЛАТИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ (ТУМАНЛАР МИСОЛИДА)

Эргашева Гулчеҳра –
НавДПИ Тарих кафедраси ўқитувчиси, Ўзбекистон

Аннотация. Ушбу маколада Навоий вилоятида оммавий спорт турларининг мустакиллик йилларида ривожланиш тенденциялари туманлфр микйосида тахлил етилиб статистик холатлар оркали курсатилиб утилганлигини куриб утамиз.

Абстракт

В данной статье мы увидим, что тенденции развития массового спорта в Навоийской области в годы независимости были проанализированы на районном уровне и представлены с помощью статистических данных.

Abstract

In this article, we will see that the development trends of mass sports in the Navoi region during the years of independence were analyzed at the district level and presented with the help of statistical data.

Калит сўзлар: соғлом турмуш тарзи, “Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида” ги қонун, оммавий спорт, БЎСМ, Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги, ХТБЮ

Ключевые слова: здоровый образ жизни, Закон «О физическом воспитании и спорте Республики Узбекистан», массовый спорт, БОСМ, Министерство физической культуры и спорта Республики Узбекистан, ХТБУ.

Key words: Healthy image, Law "On physical education and sport of the Republic of Uzbekistan", mass sport, BOSM, Ministry of physical culture and sport of the Republic of Uzbekistan, HTBU**.**

Тарихдан яхши маълумки, дастлаб спорт турлари асосан жанг санъатини мукаммал эгаллашга, ҳимояланиш ва рақибни мағлуб этишга қаратилган эди. Замонлар ўтиши билан спорт тинчлик элчисига, ёш авлодни жисмонан соғлом, бақувват қилиб тарбиялаш воситасига айланиб борди. Шунинг учун юрт келажагини ўйлаган давлатлар айниқса, оммавий спортни ривожлантиришга катта эътибор бермоқда[1].

Ўзбекистонда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, миллат генофондини янада соғломлаштириш, баркамол авлодни тарбиялаш борасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш аҳамияти давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири деб белгиланди. Соҳани кенг ривожлантириш ишларига истиқлолнинг дастлабки кунлариданоқ киришилди, 1992 йил 14 январида “Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида” ги қонун қабул қилинди[2]. Ушбу ҳужжат биринчи марта соҳа фаолиятида мустақил ҳуқуқий асосларига эга бўлди.

Аҳолининг барча қатламларини кундалик спорт ҳаракатларига жалб этиб, соғлом турмуш тарзини таъминлаш ва миллат генафондини соғломлаштириш;

---

[1] Aminova G. Sport – tinchlik elchisi / Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. - Navoiy, 2015. - B 117

[2] ЎРҚ-394-сон 04.09.2015. «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида (lex.uz)

- мамлакат аҳолисининг ёши, ҳаётий кўникмаси, билими, ижтимоий ҳолати, имконияти, шароити, мустақил ҳаракатланишнинг инобатга олинганлиги;
- модел барча бўғинлари узвий ва мантиқий боғланганлиги;
- модел ҳар бир бўғиннинг функцианоал мақсадларини аниқ белгилаш асосида уларнинг ўзаро ҳаракат тизимлари ишлаб чиқилганлиги;
- моделда белгиланган функционал мақсадга таъсир этиши ва занжирсимон циклга эгалиги;
- моделнинг функционал мақсади амалга ошиши билан ўқувчи ва талаба-ёшлар орасида юқори малакали, Ватанга меҳр-муҳаббати юксак, ўз мамлакати обрўси учун муносиб кураша оладиган иқтидорли спортчилар етишиб чиқиши[1].

Мазкур тизим 5 та бўғиндан ташкил топган бўлиб, мактаб ёшигача бўлган болаларни, умумтаълим мактаблари ўқувчиларини, ўрта махсус касб-ҳунар таълими тизимидаги ёшларни, олий таълимдаги талабаларни ҳамда ишлаб чиқари соҳасидаги ва ундан ташқаридаги барча ёшдаги фуқароларни жисмоний тарбия ва оммавий спорт ўйинларига жалб қилиш, уларнинг соғломлик даражасини спорт ҳаракатлари орқали оширишга қаратилади.

Навоийда омммавий спорт турларининг ривожи, муаммо ва ютуқлари, имконият ва истиқболларини вилоятнинг туман ва шаҳарлари кесимида таҳлилларни келтириб ўтсак.

1993 йилда Навбаҳор туманида 49 та жисмоний тарбия жамоалари бўлиб, улардан 36 таси умумтаълим мактаблари, 1 таси ҳунар-техника билим юрти ва 12 таси меҳнат жамоаларига тегишли. Мазкур жамоаларда доимий равишда 18591 киши, спорт тўгаракларида 3862 киши шуғулланган. Жисмоний тарбия ва спорт ишларини 55 та жисмоний тарбия ўқитувчилари, БЎСМларда 12 мураббий-устозлар ва 4 та йўриқчи-мутахассислар олиб борган. Статистик рақамлар таҳлили шуни кўрсатди-ки 2021 йилда Навбаҳор тумани ёшларининг 41 фоизи жимоний тарбия ва спорт билан мунтаззам шуғилланишган. Қўл пўпи, белбоғли кураш, стол тенниси, бадиий гимнастика каби спортт турлари ҳудуд ёшлари орасида анча оммалашган[2].

1994 йилда Конимех туманида 55 та спорт жамоалари бўлиб, уларда 10238 киши, спорт тўгаракларида 1858 киши спортнинг 9 тури бўйича шуғулланишган. Туманда 1 та стадион, 8 та спорт зали, 103 та спорт площадка ва майдонлари мавжуд бўлган[3]. 1994 йил якунларга кўра Конимех тумани спортчилари вилоятда 2 ўринни олишган. Туманда спортнинг тўққизқумалоқ миллий ўйинлари ривожлантириш мақсадида Конимех Болалар ва ўсмирлар спорт мактабида мазкур спорт тури бўйича секция очилган. Ушбу спорт тури бўйича биринчи разрядли 2 спортчи тайёрланган.

Конимех туманида спорт соғломлаштириш клубини очиш тўғрисида таъсис конференцияси ўтказилган. Таъсис конференциясида клуб раиси этиб Алибек Холбоев сайланган. Клуб фаолият юритиши учун Алиходжаев номли мактабдан жой ажратилиб, кураш, дзю-до, бокс спорт турларидан гуруҳлар очилган. Гуруҳларда жами 72 спортчи мунтаззам шуғулланган. Спортчиларнинг шуғулланишлари учуун 3 та синф хонаси ва битта кийиниш хонаси ажратилган. Стол тенниси ва бильярд бўйича эса пулли гуруҳлар ташкил этилган. 2017-2022 йилларда Конимех туманида оммавий спорт турлари аҳоли ва ёшлар ўртасида оммалашди. Сузиш ҳавзаси фойдаланишга топширилди, туман Болалар ва ўсмирлар мактаби ҳамда марказий ўйингоҳ қайта реконструкция қилинди. Ҳар бир маҳаллада “Workout” спорт майдончалари ташкил этилди[4].

Қишлоқ аҳолиси ўртасида жисмоний маданият ва соғломлаштириш ишлари ҳолати Хатирчи тумани Спорт бошқармаси йиғилишларида кўриб борилган. Хусусан 1993 йилда К.Маркс колхози ва А. Икромов совхозларида бўлиб ўтган йиғилишларда юқорида келтирилган масала муҳокама этилган. А.Икромов совхозида оммавий спорт тадбирлари режалаштирилган. Жисмоний тарбия билан 158 нафар аҳоли спортнинг 6 тури бўйича мунтаззам шуғулланишади. Шунингдек, соғломлаштириш гуруҳи фаолият юритади. Ҳуддуда 3 та футбол майдони мавжуд, кураш ва кўпкари мусобақалари ўтказилган. К.Маркс колхозида спорт секцияларида 136 нафар аҳоли 7 тур бўйича шуғулланишган. 7-сон умумтаълим мактабида дарсдан ташқари спорт секциялари фаолияти йўлга қўйилган. Уларда спортнинг 5 та тури бўйича 154 нафар киши шуғуланишган. Ёзги таътил даврида 270 ўринли соғломлаштириш лагери йўлга қўйилган. Туманда аҳоли ўртасида соғломлаштириш ва жисмоний

[1] Ахматов М. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. – Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёт матбаа бўлими, 2005. – Б.68

[2] Yoshlar – uchinchi renessans bunyodkorlari. [izomaterial]: kitob-albom/ ma’sul muharir O.Aslonov. – Toshkent: SAHHOF, 2021. – B.186

[3] Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro’yxat, 47-yig’ma jild, 11 varaqlar

[4] Конимех тумани ҳоуимлиги жорий архив материаллари

маданият борасида ижобий натижаларга эришган бўлсада, бир қатор муаммолар ва ишга солинмаган имкониятларни қайд этиш мумкин.

Сўнгги йилларда Хатирчи туманида жисмоний тарбия ва спортга соҳасига бўлган муносабат ижобий дикамик кўрсатгичларни ташкил қилди.

2022 йилга келиб туманда 400 та спорт иншоати фаолият кўрсатган, улардан 59 таси спорт зал, 64 таси баскетбол майдони, 103 таси волейбол майдони, 66 таси гандбол майдони, 49 таси мини футбол, 59 таси футбол майдони ташкил қилади[1]. Шунингдек, маҳаллаларда тадбиркорлар томонидан сунъий қопламали стадионлар, соғломлаштириш марказлари, усти ёпиқ сузиш ҳавзалари ташкил этилиши эътибордаги масалалардан бири бўлди.

1997 йил Нурота туманида соғломлаштириш ва оммавий спорт тадбирлари ўтказиш учун моддий техник базасига эга. Хусусан 9 та спорт заллари, (уларнинг 8 таси мактабларда, 1 таси ХТБЮ га қарашли) 160 та спорт майдончалари (157 таси мактабларда, 3 таси ХТБЮ). Туманда 52 та жисмоний тарбия жамоалари ташкил этилган бўлиб, 51 таси умумтаълим мактабларида, биттадан ХТБЮда фаолият кўрсатган. БЎСМларда 49 та мураббий устоздан 21 таси олий маълумотга эга. Тумандаги мавжуд жамоа ххўжаликларида, ташкилотлар ва корхоналарда спорт йўриқчилари йўқ ва жисмоний тарбия жамаолари тузилмаган[2].

Соғлом турмуш тарзини ҳаётга кенг тадбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш мақсадида туман марказида олти километрлик велосипеддда юриш учун “Саломатлик йўлаклари” ташкил этилганлиги ҳам бу борада муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, Нурота туманидаги 28 та маҳалла фуқаро йиғинларининг барчасига мураббий ўқитувчилар бириктирилди ҳамда корхона ва ташкилотларда жами 153 та спорт тарғиботчиси шакллантирилди[3]. Маҳаллардаги бириктирилган мураббийлар ҳамда спорт тарғиботчилари орқали аҳолини янада спортга кенг жалб этиш оммавий спортни ривожлантиришда муҳум аҳамият касб этди. Бириктирилган мураббийлар ва спорт тарғиботчилари орқали корхона, ташкилотлар учун ҳам маҳалла ҳудудларидаги спорт иншоатларида ҳар шанба куни спорт мусобақалари ташкил этиш тизими йўлга қўйилди

Мустақиллик даврининг дастлабки йилларда Навоий туманида (ҳозирги Кармана тумани) 40 та жисмоний тарбия жамоалари ташкил этилган бўлиб, 18602 нафар киши спорт турлари билан шуғулланишган. Уларнинг 8590 нафари хотин-қизларни ташкил қилади. Туманда 1 та стадион, 190та спорт зали, 23 та бакетбол ва 36та валейбол майдончаси, 24 футбол майдони, 2 та кураш турлари мослаштирилган 2 спорт зали мавжуд. Шунингдек, туманда 54 нафар жисмоний тарбия тарбиячилари, уларнинг 28 нафари олий ва 18 нафари ўрта махусу маълумоли мутахассислар ташкил этади. Болалар ва ўсмирлар спорт мактабидаги 9 нафар тренерлардан 3 нафари олий маълумотли. Тумандаги колхоз ва совхозларда 6 нафар йўриқчи-мутахасисслар, “Узумзор”, “Кармана”, “Шелкплем” совхозларида бундай мутахассилар мавжуд эмас [4]. Спорт жамиятда соғлом турмуш тарзини қарор топтиришда ҳам муҳим аҳамиятга эгалиги боис, Кармана туманида 2017-2022 йилларда спорт турларини ривожлантириш, қишлоқларда янги спорт иншоотлари қуриш борасида жадал ишлар амалга оширилди. Шу вақтга қадар бу каби жараёнлар давлат маблағлари ҳисобидан амалга оширилган бўлса, эндиликда тадбиркорлар ҳам спорт иншоотлари қуришга ўз ҳиссасини қўшмоқда.

1996 йил Томди туманида 29 та жисмоний тарбия жамоалари ташкил этилган бўлиб, жами 6028 нафар, улардан спорт секцияларида 940 киши муттазам шуғулланишган. Уларга спортнинг сир асрорларидан 19 нафар мураббий дарс беришган. Уларнинг 9 нафари олий ва 6 нафари ўрта махсус маълумотли мутахассислар ташкил этади. Туманда 5 та спорт зали, 6 та ўқ отитш тирлари ва 82 та спорт майдончалари мавжуд. Туман ҳокимининг 1995 йил 31 июльдаги К-168 қарори асосида спортнинг 8 тури бўйича федерациялар ташкил этилган. 1996 йилда туманда 15 та турли даражадаги мусобақалар ўтказилган. Миллий спорт турларидан От спорти ва тўқиз қумалоқ турларидан мусобақалар мунтаззам ўтказиб келинган[5]. 2021 йил давомида Томди туманидаги барча овул фуқаролар йиғинларида жами 12 та “Workout”, “Stretball”, “Salomatlik” велойўлакчаси ва 2 та сунъий қопламали футбол майдонлари қурилиб, фойдаланишга топширилди[6].

[1] Хатирчи туман ҳокимлиги жорий архив материаллари
[2] Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro’yxat, 53-yig’ma jild, 7-8 varaqlar
[3] Муаллифнинг Отамурод Хўжамқулов билан шахсий мулоқоти. 17.07.2023
[4] Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro’yxat, 47-yig’ma jild, 22 varaq
[5] Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro’yxat, 52-yig’ma jild, 22 varaq
[6] Томди тумани ҳокимлиги жорий архив материаллари

1997 йил Зарафшон спорт қўмитаси жисмоний тарбия ва спортни янада ривожлантириш мақсадида бир қанча қарорлар қабул қилинган ва амалга оширилган. Зарафшон шаҳрида 16 жисмоний тарбия жамоалари ташкил этилган бўлиб, 10529 та умумтаълим мактабларида, ХТБЮда 859 та, меҳнат жамоаларида 1478 та ва 3823 нафари спорт секцияларида мунтазам шуғулланган. Шаҳарда 24 та спорт тури мавжуд, улардан қўйидаги спорт турлари яхши йўлга қўйилган. Жумладан, футбол 498 нафар, баскетбол 457 нафар, волейбол 276 нафар, енгил атлетика 293 нафар, сузиш бўйича 237 нафар киши мунттазам шуғлланган. Зарафшонда жисмоний соғломлаштириш ва оммавий-спорт ташкилий ишларини амалга оширишда 1 та ўйингоҳ, 3 та бассейн, 52 та спорт майдонлари , 9 та ўқ отиш тирлардан фойдаланган[1].

1998 йилга келиб Навоий вилоятининг барча шаҳар ва туманларида махсуслаштирилган футбол синифлари ташкил этилди. Бу эса яқин келажакда вилоят футбол базасини мустаҳкамлашга ёрдам бериши керак эди. Навоий шаҳрида ҳакамлар ва инспекторлар учун семинар ўтказилди ва уларда 30 киши иштирок этди. Футбол бўйича вилоят биринчилиги ўтказиш низоми ва тақвим режаси ишлаб чиқилди. Ўтказилган чемпионатда 12 та жамоа иштирок эди. Чемпионат якунига кўра 1 – ўринни “Навоийазот” ишлаб чиқариш бирлашмасининг “Химик” жамоаси, 2-ўринни “23 АТП” нинг “Автомобилист” жамоаси, 3-ўринни Хатирчи туманинг “Хатирчи” эгаллашди.

Сўнгги йилларда Навоий вилоятида оммавий спорт тадбирларини ташкил этишда маълум ютуқларга эришиб келмоқда. Бунга Ўзбекистон Республикасида Ҳалқаро болаларни ҳимоя қилиш куни муносабати билан 2009 йилнинг 26 май-2 июнь кунлари “Ҳар бир фарзандга меҳр – эътибор!” шиори остида ўтказилган махсус ҳафталик доирасида ўтказилган оммавий спорт тадбирларида Навоий вилоятида энг кўп мусобақалар ташкил этилганлиги мисол бўла олади. Рақамларга эътбор қаратсак, мазкур тадбирларда вилоятда 24 та мусобақалар ўтказилган ва унда 2212 нафар иштиркочи қатнашган бўлиб, уларнинг 779 нафари хотин-қизлар ташкил этган. Навоий вилоятидан кейин Қорақолпоғистон Республикасида 22 та тадбир ва иштирокчилар сони 1219 нафарни ташкил этган бўлса, Хоразм вилоятида 14 та, Сурхондарё вилоятида 10 та, Тошкент вилоятида 7 та, Тошкент шаҳрида 5 та мусобақа ўтказилган. Андижон, Наманган, Фарғона вилоятлари оммавий спорт тадирларида иштирок этмаган[2].

Хулоса қилиб айтганда: Мамлакатни ҳеч бир нарса спорт ва санъатчалик дунёга танита олмайди. Бу талқин ҳар доим ўз исботини топиб келмоқда. Шу боис ҳам жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш, аҳоли, айниқса ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш ва юртимизни ҳалқаро майдонларда муносиб равишда танинишга муҳим масала сифатида қаралмоқда.

Фойдаланган адабийотлар

1. ЎРҚ-394-сон 04.09.2015. «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида (lex.uz)
2. Aminova G. Sport – tinchlik elchisi / Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. - Navoiy, 2015. - B 117
3. Ахматов М. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. – Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёт матбаа бўлими, 2005. – Б.68
4. Yoshlar – uchinchi renessans bunyodkorlari. [izomaterial]: kitob-albom/ ma’sul muharir O.Aslonov. – Toshkent: SAHHOF, 2021. – B.186
5. Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro‘yxat, 53-yig‘ma jild, 9 varaq
6. Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro‘yxat, 47-yig‘ma jild, 22 varaq
7. Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro‘yxat, 52-yig‘ma jild, 22 varaq
8. Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro‘yxat, 53-yig‘ma jild, 7-8 varaqlar
9. Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro‘yxat, 47-yig‘ma jild, 11 varaqlar
10. Конимех тумани ҳоуимлиги жорий архив материаллари
11. Хатирчи туман ҳокимлиги жорий архив материаллари
12. Томди тумани ҳокимлиги жорий архив материаллари
13. Муаллифнинг Отамурод Хўжамқулов билан шахсий мулоқоти. 17.07.2023
14. Ўзбекистон Республикаси маданият ва спорт ишлари вазирлиги жорий архив материаллари. Фонд – 1, рўйхат-1, сақлов бирлиги – 1367, 3 – варақ.

[1] Navoiy viloyati davlat arxivi. 66-fond, 1-ro’yxat, 53-yig’ma jild, 9 varaq

[2] Ўзбекистон Республикаси маданият ва спорт ишлари вазирлиги жорий архив материаллари. Фонд – 1, рўйхат-1, сақлов бирлиги – 1367, 3 – варақ.

MAKTAB MUSIQA DARSLIKLARINI BRAYL YOZUVIDA YARATISH TEXNOLOGIYALARINING ZAMONAVIY METODLARI

Inatullayev Ma’rufjon Nodirjon o‘g‘li-
Chiqchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchi

ANNOTASIYA
Ushbu maqolada ko‘zi ojiz o‘quvchilarning musiqa savodxonligini ta ‘minlash yuzasidan fikrlar bayon qilinadi.
Kalit so‘zlar: Brayl, tiflopedagogika, tiflometronom, tiflotyuner, solfedjio, garmoniya, polifoniya, xor, orkestr

ABSTRACT
This article discusses ideas for teaching music literacy to blind students.
Key words: Braille, typhlopedagogy, typhlometron, typhlotyuner. solfeggio, harmony, polyphony, chorus, orchestra

KIRISH

“Biz hech kimdan kam emasmiz, kam bo‘lmaymiz ham!” mazmunidagi shijoatbaxsh va ilhombaxsh so‘zlar bugungi kunda bizning ya’ni ko‘zi ojiz insonlarning qalb tubiga shuqadar singib ketdiki, uning mazmun-mohiyati hayotimizning har javhasida (jumladan, musiqa sohasida) o‘zining ijobiy turtkisini, samarasini beribgina qolmay, yuqori cho‘ qqilar va yutuqlar sari yetaklamoqda.

Ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodning kelajak haqidagi orzu-umidlari, intilishlari va qiziqishlari biz kattalarni ya’ni, pedagoglarni, san’at ahlini quvontiradi, hamda, yanada ijod qilishga, o‘z ustimizda muntazam ishlashga, yangiliklar kashf etishga undaydi. Zero, biz kichik izdoshlarimizga sof mumtoz musiqamizni va uning negizida yaratgan ijod mahsulimizni me’ros qilib qoldirishimiz, bu orqali kelgusi avlodning ta’lim-tarbiyasi va madaniyati ravnaqiga o‘z hissamizni qo‘shish baxti bizga nasib etayotganidan mamnunmiz.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mazmunidagi fikrlari ko‘zi ojiz yoshlarni ham musiqa san’atiga jalb qilish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, hududlarda ulug‘ san’atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish yuzasidan amaliy ko‘rsatma sifatida ko‘zi ojiz, yuksak ite’dodli yoshlar qatlamini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha g‘amxo‘rdikdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biroq ularning noyob iste’dodlarini muvofiqlashtirib ro‘yobga chiqarishda haqiqiy tayanch va suyanch bo‘lishi zarur bo‘lgan ijodiy uyushmalarimiz va idoralarimizning o‘rni va ta’siri yetarlicha sezilmayapti. Ijodiy tashkilotlarimiz shiddat bilan o‘zgarayotgan zamonga hamqadam bo‘lib yashash, o‘z faoliyatini samarali tashkil etishda davr talablaridan orqada qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma’qullangan O‘RQ-6411 , “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi” qonunining 8, 38, 40- moddalari asosida bugungi kunda ko‘zi ojiz bolalar ta’lim-tarbiyasiga davlatimiz tomonidan katta e’tibor va imkoniyatlar berilmoqda. Shuningdek, bu qonunning “8-moddasida qayd etilgan “Nogironligi bo‘lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o‘z individualligini saqlab qolish huquqi..”dan kelib chiqib nogironligi bo‘lgan bolalarni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mehnatga bo‘lgan qiziqishiga ko‘maklashish, ta’limga, ilm-fanga, texnikaga, san’at va sportga jalb etish maqsadida nogironligi bo‘lgan bolalar manfaatlari, ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvorlik yaqqol seziladi.

Davlat organlari nogironligi bo‘lgan shaxslarning har biri uchun mosroq bo‘lgan tillarni, muloqot qilish usullari va vositalarini rivojlantirish, Brayl alifbosini, muqobil harflarni, nutq va og‘zaki muomala ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, shuningdek o‘qituvchilarni va maktab xodimlarini inklyuziv ta’lim masalalarida o‘qitish, imo- ishora tilini va Brayl alifbosini biladigan nogironligi bo‘lgan o‘qituvchilarni ta’lim muassasalariga ishga joylashtirish yordamida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ko‘makdosh bo‘lgan

loyihalar tahsinga sazovordir. Shu o‘rinda "Ko‘ngil ko‘zi" loyihasi muallifi, Mass-media fondi raisi o‘rinbosari Saida Mirziyoyeva boshchiligida Respublikamiz bo‘ylab 12 ta ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, hamda ularda ta’lim olayotgan 3000 dan ziyod ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilarga barcha turdagi musiqa cholg‘u asboblari, zarur o‘quv anjomlari tuxfa etildi. Saida Mirziyoyeva o‘zining telegramdagi kanalida "Ko‘ngil ko‘zi" loyihasi doirasida Yangi yil bayrami arafasida "Sovg‘alar karvoni" xayriya aksiyasi boshlanganligi haqida quidagicha yozgan edi:

“Loyiha rahbari sifatida shuni aytamanki, endi har bir internat zamonaviy sport anjomlari, turli musiqa asboblari va Brayl alifbosida ko‘plab chop etilgan bosma hamda audio kitoblarga ega bo‘ladi. Umid qilamizki, Agentlikning ushbu aksiyasi sizning qalbingizga iliqlik olib kiradi, sizga Yangi yilning bayramona kayfiyatini tuhfa etadi va salomatligingizni mustahkamlashda, ko‘zlagan maqsadlaringizni amalga oshirish va hayotda zafarlarga erishishingizda yordam beradi,”3 - deydi Saida Mirziyoyeva.

Ko‘zi ojiz bolalar hayotida ilk bora amalga oshirilgan "Sovg‘alar karvoni" xayriya aksiyasi bolajonlar qalbiga quvonch, ertangi kuniga ishonch shukuhini olib kirdiki, ularning qo‘lida jarang sochayotgan bu cholg‘ularning ovozi turli sahnalarda minntdorlik hissi bilan yangramoqda. Qolaversa, ushbu loyiha tomonidan amalga oshirilgan ishlardan eng quvonarlisi shuki, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar shu yildan e’tiboran Bolalar musiqa va san’at maktablarida bepul o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Buning natijasi o‘laroq ayrim iqtidorli ko‘zi ojiz o‘quvchilar Respublika miqyosidagi xatto, xalqaro ko‘rik-tanlovlarda ishtirok etib faxrli o‘rinlarni egalladilar. Ularga cholg‘u ijrochiligi va xonandalik sirlaridan saboq berayotgan bir guruh ko‘zi ojiz va sog‘lom ustozlarning xizmatlari tahsinga loyiqdir.

Biroq, bugungi kunda ya’ni ta’lim sohasiga kirib kelayotgan inovatsiyalashish jarayoni ilgarilab, o‘zaro raqobatlashib ketayotgan bir paytda ko‘zi ojizlar ta’limi, ayniqsa, musiqa yo‘nalishi anchagina oqsab qolayotganligi sezilmoqda. Chunki, bir tomondan ko‘zi ojiz o‘quvchilarni Brayl nota tizimi orqali o‘qitishda zarur qo‘llanma va darsliklar, bo‘lgan taqdirda ham o‘quvchilarga mos kelmasligi, yetarli emasligi bo‘lsa, ikkinchidan, ularga ustozlik qilayotgan pedagoglarning musiqa tiflopedagogikasidan bexabar ekanligi, ko‘zi ojiz BMSM o‘qituvchilarga o‘z ustida ishlashlari va ijod qilishlari, zamonaviy dars mashg‘ulotlarini olib borishlari uchun yetarli shart-sharoitning yo‘qligi, jumladan, ularga yordamchi kotibalar ajratilmaganligi qator og‘riqli nuqtalarni keltirib chiqarmoqda. Buning natijasida o‘quvchilar qanchalik mohir ijrochi bo‘lmasin, ular nota savodxonligidan, Solfedjio, Garmoniya, Polifoniya kabi fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Orkestr va Xorda ijro etish, shuningdek, unda dirijorlik qilish haqida esa aytmasa ham bo‘ladi. Hozirda ko‘zi ojiz o‘quvchilar noyoob esda saqlash tug‘ma iste’dodiga tayanib, faqatgina an’anaviy ijrochilik yo‘nalishida taxsil olishga majbur bo‘lmoqdalar. Ya’ni ular ko‘proq tinglash orqali biror cholg‘uni chalish yoki qo‘shiq kuylashni o‘rganmoqdalar. Qolgan yo‘nalishlar esa ularga bir orzudek bo‘lib qolmoqdaki, bu muammoning yechimini izlab topish zamon talabi darajasida muhum ahamiyatga egadir.

Ushbu muammoni hal etishda avvalo, ko‘zi ojizlarning musiqiy savodxonligini shakllantirish maqsadida bizgacha mavjud manbaalardan foydalangan holda Brayl nota tizimiga asoslanib, nota savodi bo‘yicha o‘quv qollanma (Brayl nota alifbosi) yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazkur o‘quv qo‘llanmada besh chiziqli nota yo‘li asosida yoziladigan notalar va ularning cho‘zimlari ifodasi, skripka, bas va boshqa kalitlar, intervallar, alteratsiya, dinamika, nota cho‘zimini uzaytiruvchi, hamda nota yozuvini qisqartiruvchi, shuningdek, nota savodxonligiga oid barcha belgilar va alomatlar birgina yo‘ldan iborat bo‘lgan bo‘rtma nuqtalar ko‘rinishida o‘z aksini topishi ko‘zda tutilgan. Ayrim noqulaylik tug‘diruvchi belgilarni qayta ko‘rib chiqish, moslashtirish, mavjud bo‘lmaganlarini esa yaratish zarur bo‘ladiki, bunday izlanishlar natijasi o‘zidan keyingi joriy qilinadigan ko‘plab darsliklarga keng yo‘l ochib beradi. Bu esa kelajak avlodning bizdanda yuqori cho‘qqilarga erishib, musiqa ilmining yetuk namoyondalari, buyuk san’at ustalari bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa tarzida ta’kid o‘rinliki,ushbu mummaolar yechimini topish uchun quyidagi nazariy -amaliy va metodik ishlar yuzasidan faoliyat olib borish maqsadga muvofiqdir:

Brayl nota alifbosini yaratish.

Mavjud Musiqa nazariyasi, Solfedjio, Shashmaqom, , Fortepiano, Ansanbil, Orkestr, Xor uchun bir ovozli va ko‘p ovozli kuy-qo‘shqlarning matnlari va notalarini brayl yozuviga o‘girib, alohida kitob shaklida nashr qilish.

Ko‘zi ojiz o‘quvchilarni musiqa va san’at sohasida o‘qitish uchun maxsus o‘quv dasturlar ishlab chiqish.

Brayl doskalarini joriy qilish, Tiflometronom va Tiflotyunerlarni ko‘zi ojizlar uchun moslashtirish.

Musiqa tiflopedagogikasi metodikasini ishlab chiqish va pedagoglarni bu tizim bo‘yicha qayta tayyorlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 03.08.2017 dagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma’qullangan O‘RQ-641. 8, 38, 40-moddalari
3. O‘RQ-641 “Nogironligi bo‘lgan shaxslaening huquqlari to‘g‘risi” www.lex.uz
4. Loyiha muallifi. “Ko‘ngil ko‘zi” loyihasi muallifi, Nass-media fondi raisi o‘rinbosari Saida Mirziyoyeva. 14:49/ 23.12.2019. www.xabar,uz

ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ УМЕНИЯМ И ЛИЧНОСТНЫМ КАЧЕСТВАМ ПЕДАГОГА

Ҳасанова Маъмура Саитовна-
Преподаватель русского языка Навоийского техникума Здравоохранения имени Абу Али ибн Сино

Аннотация: В статье рассматривается проблема педагогических способностей педагога, особенности педагогического мастерства, личностные качества учителя, раскрывается специфика деятельности педагога.

Ключевые слова: способность, деятельность учителя, педагогический такт, педагогическая наблюдательность.

Annotatsiya: maqolada o‘qituvchining pedagogik qobiliyati, pedagogik mahoratining xususiyatlari, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari muammosi ko‘rib chiqiladi va o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi

Kalit sozlar: qobiliyat, o‘qituvchi faoliyati, pedagogik takt, pedagogik kuzatish.

Abstract: The article examines the problem of a teacher’s pedagogical abilities, features of pedagogical skill, personal qualities of a teacher, and reveals the specifics of a teacher’s activity.

Key words: ability, teacher activity, pedagogical tact, pedagogical observation.

Любая профессия, обладая специфическими особенностями, предъявляет к человеку особые требования. Чем больше эта профессия имеет значения для общества, тем выше требования к профессионалу. Круг этих требований не может ограничиваться только знаниями, умениями и навыками, он значительно расширяется в сферу личностных характеристик.

К личности учителя общество предъявляет особо высокие требования - учитель должен быть не только умным и знающим, но и добрым, отзывчивым, культурным, любящим детей и т.д. Поэтому только на личностном уровне учитель может рассматриваться как активный субъект, реализующий в педагогической профессии свой способ жизнедеятельности, готовность доопределять задачи, принимать ответственность за их собственное и самостоятельное решение.

Способности– это индивидуальные особенности личности, являющиеся субъективными условиями успешного выполнения определенного вида деятельности. Педагогические способности - это совокупность индивидуально-психологических особенностей личности преподавателя, которые отвечают требованиям педагогической деятельности и определяют успех в овладении этой деятельностью. Профессия учителя требует всесторонних знаний, безграничной душевной щедрости, мудрой любви к детям. Только каждый день с радостью отдавая себя детям, можно приблизить их к науке, приохотить к труду, заложить незыблемые нравственные основы.

Деятельность учителя - это всякий раз вторжение во внутренний мир вечно меняющегося, противоречивого, растущего человека. Надо всегда помнить об этом, чтобы не поранить, не сломать неокрепший росток детской души. Никакими учебниками нельзя заменить содружество педагога с детьми и далеко не каждый может стать учителем. Именно психология рассматривает педагогические способности, помогает человеку определиться с выбором профессии педагога.

Способный педагог делает содержание любого учебного вопроса доступным для учащихся трудное сделать легким, сложное – простым, непонятное – понятным) преподносит им материал ясно, вызывая интерес к изучаемому предмету.

В основе данной способности лежит учет педагогом психологии учащихся, уровня их подготовки, предвидения возможных затруднений учащихся при усвоении учебного материала. Некоторым учителям объясняемый материал кажется простым и не требующим разъяснений – в этом случае они ориентируются на себя, а не на учащихся, рассматривают материал применительно к себе. Хороший педагог способен представить себя на месте учащихся, исходя из того, что ясное и понятное ему может быть совсем неясным и непонятным. Под этим углом зрения продумывается и планируется характер и форма изложения материала. В процессе изложения педагог по целому ряду признаков (поведение, выражение лица, поза и т.д.) может составить верное впечатление о том, как ученики усваивают то, о чем он говорит, и перестроиться в случае необходимости.

Хороший педагог всегда стремится внести в свою работу новое, оригинальное, используя опыт работы лучших учителей-новаторов, заимствуя у них все ценное, но, никогда не копируя их слепо и бездумно. Хороший опыт необходимо перерабатывать применительно к своим условиям, своим психологическим особенностям, понимая, что у него иной класс, другие ученики и сам он – другой человек.

Отличие педагогических способностей от педагогических умений заключается в том, что педагогические способности - это особенности личности, а педагогические умения - это отдельные акты педагогической деятельности, осуществляемые человеком на высоком уровне.

Каждая способность имеет свою структуру, в ней различают ведущие и вспомогательные свойства.

Ведущими свойствами в педагогических способностях являются:

- педагогический такт;
- наблюдательность;
- любовь к детям;
- потребность в передаче знаний.

Педагогический такт - это соблюдение педагогом принципа меры в общении с детьми в самых разнообразных сферах деятельности, умение выбрать правильный подход к учащимся.

Педагогический такт предполагает:

- уважение к школьнику и требовательность к нему;
- развитие самостоятельности учащихся во всех видах деятельности и твердое педагогическое руководство их работой;
- внимательность к психическому состоянию школьника и разумность, и последовательность требований к нему;
- доверие к учащимся и систематическая проверка их учебной работы;
- педагогически оправданное сочетание делового и эмоционального характера отношений с учениками и др.

Педагогическая наблюдательность - это способность учителя, проявляемая в умении подмечать существенные, характерные, даже малозаметные свойства учащихся. По другому можно сказать, что педагогическая наблюдательность - это качество личности педагога, заключающееся в высоком уровне развития способности концентрации внимания на том или ином объекте педагогического процесса.

К важным профессиональным качествам, относятся: педагогическая эрудиция, педагогическое целеполагание, педагогическое (практическое и диагностическое), мышление педагогическая интуиция, педагогическая импровизация, педагогическая наблюдательность, педагогический оптимизм, педагогическая находчивость, педагогическое предвидение и педагогическая рефлексия.

Многие исследователи занимаются изучением данного вопроса, они приводят разные классификации и разные описания тех качеств и способностей, которыми должен обладать педагог.

Приведем список этих свойств: вежливость, вдумчивость, взыскательность, впечатлительность, воспитанность, внимательность, выдержка и самообладание, гибкость поведения, гражданственность, гуманность, деловитость, дисциплинированность, доброта, добросовестность, доброжелательность, идейная убежденность, инициативность, искренность, коллективизм, критичность, логичность, любовь к детям, наблюдательность, настойчивость, ответственность, отзывчивость, организованность, общительность, политическая сознательность, порядочность, патриотизм, правдивость, педагогическая эрудиция, предусмотрительность, принципиальность, самостоятельность, самокритичность, скромность, справедливость, сообразительность, смелость, стремление к самосовершенствованию, тактичность, чувство нового, чувство собственного достоинства, чуткость, эмоциональность.

Этот общий перечень составляет психологический портрет идеального учителя. Стержнем, сердцевиной этого портрета являются собственно личностные качества: направленность, уровень притязаний, самооценка, образ «Я». Пройти испытание этой профессией могут только поистине искренние, радушные, терпеливые, мудрые и жизнелюбивые люди.

ЛИТЕРАТУРЫ

1.Адамова У.К., Кутлимуротова Н.Р., Каландарова М.А. Педагогические способности преподавателя и методы их развития / У.К. Адамова, Н.Р. Кутлимуротова, М.А. Каландарова // Молодой ученый. — 2016, — №13. — С. 760-763.

2.Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство: учебное пособие для магистров / Н.Н. Азизходжаева. — Ташкент, 2005. — 192 с.

3.Бордовская Н. В., Розум С. И. Психология и педагогика: Учебник для вузов /Н.В. Бордовская. — СПб.: Питер, 2011. — 624 с.

4.Зимняя, И.А. Педагогическая психология / И.А. Зимняя. – М.: Логос, 2000. – 384 с.

KIMYO O‘QITISHDA LABORATORIYA TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Rahmatova Charos Ilhomiddinovna-
Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
Kimyo fani katta o‘qituvchisi

Yoshlarimizni yuksak manaviyatli, tafakkuri keng yuksak duyoqarashga ega shaxs sifatida hamda buyuk davlatni barpo etish yo‘lida ijodkor va faol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridandir. Bu borada hukumatimiz tomonidan ta’lim tizimida qator islohotlarning amalga oshirilganligini alohida qayd etish lozim. Xususan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 12-avgustdagi №PQ-4805 qaroriga muvofiq “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari” ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta’lim sifati va ilm-fan natjadorligini oshirish “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilandi.

Zero yoshlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha chuqur o‘qitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog‘-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradi hamda xalqimiz tirmush darajasini oshirishga zamin bo‘ladi. Ushbu qarorda 2020/2021 o‘quv yilida umumiy o‘rta ya’lim muassasalarida kimyo va biolobiya fanlariga qiziqishi bo‘lgan o‘quvchilar uchun tajriba-sinov sifatida joriy etilayotgan tabiiy fanlar yo‘nalishidagi o‘zgaruvchan o‘quv rejalarini bosqichma-bosqich o‘quv jarayonida foydalanishni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, o‘quvchilarni amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida tabiiy fanlar o‘quv dasturida amaliy mashg‘ulotlarning ulushini ko‘paytirish choralarini ko‘rish belgilab berildi.

Biz o‘z oldimizga vatanimizning kelajagi bo‘lgan hozirgi yosh avlodniamaliy mashg‘ulotlarda ko‘nikma va malakalarni chuqur egallagan, bilim olishda, kimyo asoslarini o‘zlashtirish uchun amaliy muammolarni yechishda yangi tajriba-tadqiqotlar olib boradigan, tadqiqot yutuqlarini turli sohalarda qo‘llashni biladigan, hozirgi zamonda kimyoning ahamiyatini aniqlashda materialistik dunyo qarashi shakllangan, kimyo amaliyotida hali hal qilinmagan muammo va masalalarni yecha oladigan, atrof muhitni muhofaza qilishda umumiy ilmiy va amaliy bilim hamda mahoratlarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalashdek vazifani qo‘yganmiz. Hozirgi kunda kimyoviy tajribani asosiy vazifalaridan biri-kuzatishni maqsad sari yo‘nalishini tashkil etish, kuzatish mahoratini shakllantirish, kuzatish natijalarini tushuntirish, o‘zlashtirilgan ma’lumotni xotirada saqlashdan iborat. Bundan tashqari o‘quv materialini tushuntira bilish, sababning natijaga bog‘liqligini qonuniyatlari, o‘rganaladigan mavzuni tub mohiyatini aniqlashdan iborat.

Tajriba asosan mavzuning eng muhim tomonlarini turli asbob-uskunaarl, texnik vositalar yordamida ajratish va o‘rganish imkonini beradi. Zarur bo‘lganda tajriba tadqiqotchi tomonidan takrorlanishi mumkin. Bu esa ko‘p jihatdan ilmiy tajribaning asosiy vazifasini bizni qurshab turgan borliq haqida ishonchli dalillar olishda asos bo‘ladi.

O‘quv tajribasining ilmiy tajribadan farqi shuki, o‘quv tajribaning natijasi oldindan ma’lum bo‘ladi. O‘quv tajribasi texnik jihatdan birmuncha sodda va odatda vaqti cheklangan bo‘ladi. O‘quv tajribasi maktab kimyo kursida o‘ziga xos o‘rganish ob’ekti, tadqiqot usuli, yangi bilimning vositasi va manbaidir.

Kimyoda amaliy mashg‘ulotlar- o‘quvchilarning bilim ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy omilidir. Amaliy mashg‘ulotlarda ko‘nikma va malakalarni shakllanishida katta e`tabor beriladi. Amaliy mashg‘ulot VII sinfdan boshlab o‘tkazila boshlaydi. Har bir amaliy mashg‘ulotni o‘tkazishda reaktiv pribor va kimyoviy asbob uskunalar bilan ishlashning texnik qoidalari, muomila qilish ko‘nikmalariga alohida ahamiyat berish, xavsizlik texnikasi qoidalariga amal qilish talab etiladi.Amaliy mashg‘ulotlar ikki hil ko‘rinishda bo‘ladi:

1) berilgan instruksiya asosida o‘tkaziladiganamaliy mashg‘ulotlar.
2) eksperemental masalalar yechish bilan bog‘liq amaliy mashg‘ulotlar.

Instruksiya- berilgan yo‘l- yo‘riq asosida o‘tkaziladigan tajribalar. Unda tajribalarning har bir bosqichi yozma holda berilgan bo‘ladi. Ular darslikda yozilgan holda mavjud. Keyingisi eksperemental masalalar-instruksiya berilmasdan masala sharti beriladi. Shu shartga asosan o‘quvchi ijodiy ravishda mustaqil ish bajaradi. Eksperemental masala yechishda xavsizlik texnikasi qoidalariga amal qilgan holda kerakli reaktiv priborlar stolga quyiladi. Tajribalar yakunida maxsus daftarga hisobotlar yoziladi.

O‘quvchilarni eksperimental masalalar yechishga tayyorlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Dastlab masala nazariy yechiladi, buning uchun masalaning sharti tahlil qilinadi.
2. O‘quvchilardan biri masalaning nazariy yechimini ko‘rsatadi.
3. Boshqa o‘quvchi tajriba bajaradi. Shundan so‘ng sinfdagi o‘quvchilar shunga o‘xshash masalani eksperimental yechishga kirishadilar.
4. O‘quvchilarning faolligi va mustaqil tajriba bajarishiga erishishlari uchun eksperimental tajribalami bir necha variantlarda bajarish muhim hisoblanadi.“Eksperiment” so‘zi lotincha eksperimentum tekshirish, kuzatish degan ma’noni anglatadi. Umuman olganda esa tajriba qilish demakdir.

Kimyodagi tajribaviy masalalarni shunday nomlanishiga sabab, ularni yechish uchun albatta u yoki bu tajribalarni qilib ko‘rish va so‘ngra xulosa chiqarish kerak bo‘ladi. Eng ko‘p uchraydigan tajribaviy (eksperimental) masalalarning xillari quyidagilar:

1) eritmalar tayyorlash;
2) ma’lum moddani tarkibini aniqlash;
3) kimyoviy hodisadagi o‘zgarishlarni kuzatish va uni tushuntirish;
4) moddalarni aniqlash va ajratish;
5) moddalar olish;
6) hisoblashga oid va boshqa masalalar.

Bizning mamlakatda o‘qituvchiga, yosh avlodni tarbiyasiga katta imtiyozlar berilmoqda. Kimyo fani o‘qituvchisi-mukammal shakllangan bo‘lishi kerak. U kimyo fani, kimyoviy bilimlar va amaliy uslublardan tashqari, bolalarning yoshiga qarab psixologiyasini bilish kerak. U oldindan bilim berishning hamma bosqichlarini amalga oshirish uslublarini mukammal egallashi kerak. O‘zi dars beradigan fanning didaktik asoslarini bilib, bilimni berish umumiy uslublarini bolalar yoshlarini hisobga berib, o‘zining hayotiy tajribasiga asoslanib bilimni etkazishi kerak.

TIBBIY VA IJTIMOIY OMILLARNING BIOLOGIK AXLOQ SHAKLLANISHDAGI O‘RNI

Hasanova Dilshoda O‘ktamovna-
Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
Terapiya fanlari yetakchi o‘qituvchisi-

Inson o‘zida biologik va ijtimoiy omillarni mujassam etgan tabiiy mavjudot bo‘lgani uchun ham u doimo turli darajadagi kasb egalarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Biologik axloq haqidagi tasavvurlar eng avvalo tibbiyot va din bilan bog‘liq tarzda rivojlanib borgani hech kimga sir emas. Ammo bu sohadagi siljishlarning keng ko‘lamda ommalashmasligi, depsishi tabobat olami vakillari va din peshvolari o‘rtasida yaxlitlik vujudga kelishidagi barqarorlikka erishmaslik oqibatida vujudga kelgan.

O‘tgan asrlar davomida tibbiyotdagi axloqiy masalalar shifokor va bemor o‘rtasidagi munosabatlardan iborat bo‘ldi. SHifokor kasb odobi, undan kelib chiqadigan xatti harakatlar, masalan shifokor bemorning ahvoli, kasallik tarixi haqida uning o‘ziga va yaqinlariga yetkazishi zarurmi yoki bemorning ruhiyatini o‘ylagan holda unga qo‘yilgan tashxisni yashirishi mumkinmi? SHu va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab masalalar tibbiyot etikasining mavzu doirasi bo‘lib keldi. Ammo XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlari insoniyat hayotiga yangi g‘oyalar, innavatsion texnologiyalar bilan kirib keldi. Bu g‘oyalar va texnologiyalar insoniyatning kelajagi, farovon turmush tarzi, sog‘ligi uchun

xizmat qilish barobarida, ilgari ma’lum bo‘lmagan qator muammolarni ham yuzaga keltirgani ham sir emas. Dinning hukmron mafkura darajasiga ko‘tarilishi tabobat olami vakillarini cho‘chitib kelgani rost. Eng qadimgi davrlardan bizning kunlarimizgacha yaratilgan ijtimoiy ong tarkibidagi g‘oyalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak barchasida shunga juda ham yaqin bo‘lgan xulosalarga kelish mumkin. Mazkur hodisa keyingi yillarda meditsina faniga ilmiy texnik taraqqiyot natijasida kirib kelgan inqilobiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq tarzda sodir bo‘lmoqda.

Shu ma’noda keyingi bir necha o‘n yillar ichida qarab chiqayotgan masala sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi. Bioaxloq tibbiy va axloqiy munosabatlarni birlashtiruvchi omil sifatida dastlab AQSH, so‘ngra G‘arbiy yevropa mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Bioaxloq tushuncha sifatida Van Rensseler Poter tomonidan muomalaga kiritilgan bo‘lsa, uning mustaqil ilmiy yo‘nalish va fan sifatida shakllanishi Edmund Pellegrino nomlari bilan tarix sahifalariga muhrlangan. Mutaxassislar bioaxloqga fanlararo fan maqomini berish mumkin degan g‘oyani allaqachon anglab yetganlar. CHunki ulkan kashfiyotlar, buyuk ixtirolar bir qancha fanlarning kesishgan nuqtasida sodir bo‘lmoqda. Qarab chiqayotgan masala doirasida ham tibbiy, axloqiy, falsafiy, huquqiy va diniy muammolar to‘qnashadi va muhokama qilinadi. Ulardan ayrimlarini qarab chiqish imkoniyati mavjud.

Masalan fanda transplantatsiya hodisasi deyilganda asosan boshqa birovga tegishli bo‘lgan inson tanasidagi turli a’zolarning ma’lum qismini yoki to‘laligicha boshqa bir shunga muxtoj bemorlarga ko‘chirib o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonlar tushuniladi. Dastlab og‘zaki adabiyot namunalarida keyinchalik yozma adabiyotlarda bu jarayon va hodisalar bizgacha yetib kelgan. Fantastik yozuvchilarning tafakkur mahsuli bo‘lgan “Amfibiya odam”, ”Professor Doelning boshi” va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar asta-sekinlik bilan bo‘lsada kundalik hayotga kirib kelayotgani bugun oddiy hodisaga aylanib qolgani xech gap emas.

Bugungi kundalik hayotimizda bunlay ehtiyojlarning soni turli sabablarga ko‘ra ortib bormoqda. Birovning muayyan a’zosini (buyrak, jigar, miya ba’zi kosmetik xarakterga ega bo‘lgan burun, yuz, lablar va qavog‘ osti terilarini torttirish, soch ektirish, jinsiy a’zolarni o‘zgartirish) boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo‘li bilan ko‘chirib o‘tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish va boshqa shakllar berish axloqiy nuqtai nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibda dolzarb bo‘lib turibdi.

“Biologik axloq deganda,-deb yozadi axloqshunoslik sohasida yirik majmua - ma’ruzalar matni, o‘quv qo‘llanmalar, darslik muallifi, taniqli shoir Abdulla SHer,- odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yo‘nalishlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik to‘g‘ri emas. Bizningcha biologik axloq muammolari ikki yo‘nalishdan iborat: biri – insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo‘lgan munosabatlari bilan voqelik “tashqi”, ikkinchisi insonlarning o‘z o‘ziga va o‘zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog‘liq “ichki” axloqiy masalalar” [1]. Biz odatda “ekologik axloqshunoslik” deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Ikki biologik olamning munosabatlarini, ya’ni ekologik axloqiy muammolarni biologik axloq doirasida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin o‘z bilganidan qolmaydi – muammoning murakkabligi shunda. Taniqli faylasuf-ekolog, professor S.Mamashakirov jamiyat taraqqiyotining xozirgi bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa sohalardagi inqirozlar globallashib ketayotganidan xavfsirab, ilmiy jamoatchilikning bu soxadagi masalalarga munosabatlari turlicha bo‘lib qolayotgani, buning natijasida ularni shartli ravishda: optimistlar, pessimistlar, skeptiklar va realistlarga ajratish mumkinligi haqida yozgan edi. Bunday ajralish o‘rniga “Xozirgi davr realligi turli ta’limotlarning “haqiqat talashib” bir-birlari bilan oxiri ko‘rinmaydigan samarasiz munozaralarini davom ettirishi emas, balki o‘tmishning achchiq tajribalaridan xulosa chiqarib mavjud voqelikni bilishda ilmiy nazariy-metodologik asoslarga tayangan xolda umumiy murosaga kelishlari, kelajak avlodlar barqaror taraqqiyotining yaxlit strategiyasini ishlab chiqishlari – insoniyat sivilizatsiyasini muqarrar halokatdan qutqaradi”[2].

Biologik axloqning ikkinchi yo‘nalishi tibbiyot ilmi va amaliyotining tobora taraqqiy etib borishi bilan bog‘liqdir. Totli o‘lim – evtanaziya ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Xudoning ixtiyoridan tashqari o‘limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtai nazardan kechirilmaydi. CHunki sabrli, bardoshli bo‘lishi, bu dunyo iztiroblarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin ahloqiy jihatdan olib qaraganda masala qanday baholanadai? Deylik, muyayyan inson, bemor o‘z kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o‘tishini anglab yetadi. SHu bois u o‘zining ana shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam shifokordan azoblarga chek qo‘yishni so‘raydi. Uning iltimosi va shu

[1] Abdulla Sher. Axloqshunoslik. .Darslik. O`zbekiston faylasyflari milliy jamiyati nashriyoti. T- 2010. 318-bet.
[2] С.Мамашакиров. Вахимами ёки ҳақиқат. Т.: “IQTISOD-MOLIYA” 2012, 61-бет.

iltimosni bajarish uchun shifokor tomonidan qilingan hatti-harakatlarni qanday baholash mumkin? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy miqyosda o‘z yechimini kutmoqda.

Chunki, tabobat borasidagi so‘nggi tadqiqotlar inson o‘limi bir lahzada ro‘y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to‘xtaganda ham, miya o‘lmasa insonni o‘ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya qobig‘i, undan keyin miya tanasi halok bo‘ladi. SHu keyingina insonni o‘lgan deyish mumkin. Zero, hozirgi kunda toki miya o‘lmas ekan, ko‘pgina ichki a’zolarning yangi tabobat texnikasi vositasida ishlashda davom etishini ta’minlash va shu orqali muayyan muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin.

Demak, yurak, buyrakni ko‘chirib o‘tkazilishi hali o‘lmagan odamning minimal tiriklikka bo‘lgan huquqini poymol qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxirurg Pol Pirson o‘z tajribalariga asoslanib, yurak ko‘chirib o‘tkazilganda ruh ham ko‘chib o‘tadi, degan fikrni bildiradi. Biologik axloqshunoslikning anchadan buyon ko‘pchilikka ma’lum muammolaridan yana biri, bu abort. Ma’lumki, to‘rtinchi xaftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo‘ladi. Sakkinzinchi haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq ta’biri bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tirilikka bo‘lgan huquqdan mahrum qilishdir. Xo‘sh, abortni ahloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo‘qmi? YOki AQSH olimlari tomonidan “inson zotini yaxshilashga” qaratilgan tadqiqotlarni olib ko‘raylik. Ularda “yaxshilangan” sog‘lom, kuchli intellekt egasi bo‘lgan odamlar hujayrasini ayol organizmidagi endi rivojlanishga kirishgan nisbatan “oddiy odam” hujayrasi o‘rniga ko‘chirib o‘tkazish tajribalarini olib borish mo‘ljallangan. Ular amalda tadbiq etilsa, asta sekinlik bilan insoniyat irsiyat jamg‘armasining (genofondining) bir yoqlama o‘zgarishiga olib kelishi shubhasiz. Rumo papasi buni inson zotiga, insoniy tabiatga aralashuv, uni zo‘rlik yo‘li bilan o‘zgartirish, nafaqat katta gunoh, balki o‘ta axloqsizlik deb atadi.O‘n to‘rt asrlik taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lgan islom dunyosi ham bu masalada o‘zining qat’iy shakllangan pozitsiyasiga egadir. Xo‘sh, bunday tajribalarni qanday baholash kerak? Bu savollarga ham axloqshunoslik fani javob topmog‘i lozim.

“Tabib jonlar va jismlar hokimidir. Jonlar va jismlar mollardan sharafli ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. SHuning uchun tabib o‘ziga tib ishida zarur bo‘ladigan odob va ilmlarni kasb qilmog‘i lozim” [1].

Shubhsiz aytish o‘rinliki, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi olamshumul miqyosda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa sohalardagi inqirozlar globallashib borayotgan bir davrda odamlarni jami tiriklikka muhabbat va darddoshlik ruhida tarbiyalash borgan sari dolzarb bo‘lib borayotganini anglatuvchi ijtimoiy masaladir. Taraqqiyot sohasida ma’naviyatga erishmay turib insoniyat hech qachon farovonlikni qo‘lga kirita olmaydi. Hademay dunyo 10 milliard inson yashaydigan mega jamiyatga aylanadi. Bu esa so‘zsiz hozirgi holatida ham murakkab bo‘lib turgan masalalarni yanada o‘tkirlashtirib, ko‘lamini ham vertikal, ham gorizontal miqyosda kengaytirib va chuqurlashtirib yuborishi tayin.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-AMALIY, PEDAGOGIK ASOSLARI

Navoiy davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti Suyarov X.B.
NavDPI 70112201-Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1-kurs magistri Ramazonova Gulmira G‘olib qizi

Annotatsiya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda nazariy, amaliy va eksperimental-metodik asoslarni tadqiq etish va bu borada ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
Kalit so‘zlar: Maktablarda jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish, o‘quvchilarni sport mashg‘ulotlariga o‘rgatish yo‘llarining mazmuni, shakli va metodlari, vositalari.
Ключевые слова: Содержание, формы и методы, средства организации уроков физической культуры в школах, пути обучения учащихся спортивной деятельности.

Sportchilarimizning xalqaro sport maydonlarida erishayotgan yutuqlari ayniqsa maxaliy millat xotin-qizlarining sportda jahonga tanilishida, bu bilan esa yurtimiz shon – shuhratini oshirishdagi say harakatlar yurtimiz yo‘l boshchisi va hukumatning bevosita g‘amxurligining ulug‘vor natijasidir. Umumiy o‘rta ta`lim maktablari jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish, o`quvchilarning jismoniy tarbiya va sportga oid nazariy-amaliy bilimlarini oshirish, endi o`sib kelayotgan yosh avlodda sog`lom turmush tarzini sharllantirish, jismoniy tarbiya darslarida sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlariga nisbatan ko`nikma va malakalarni shakllantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.Umumiy o‘rta ta’lim

[1] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Олам ва одам, дин ва илм. – Т,: “HILOL - NASHR” нашриёти, 2019. 187- бет.

maktablarining jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda nazariy, amaliy va eksperimental-metodik asoslarni tadqiq etish va bu borada ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish.Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni sport mashqlarga o‘rgatishning yangicha shakl va metodlarini ishlab chiqish. O‘tkazilgan tajriba, sinov va izlanishlarga asoslangan holda eksperiment natijalarini tahliliy va nazariy asoslash.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish, o‘quvchi-yoshlarni sport mashg‘ulotlariga o‘rgatish jarayoni. Maktablarda jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish, o‘quvchilarni sport mashg‘ulotlariga o‘rgatish yo‘llarining mazmuni, shakli va metodlari, vositalari. Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni sport mashg‘ulotlariga o‘rgatishni tashkil etish va rejalashtirish yo‘llarining muammosi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etildi.Ta’lim-tarbiyaga doir xalq pedagogikasi manbalari Sharq mutafakkirlari ilg`or g`oyalari tarbiya metodlari tajribada aniqlandi hamda ta’lim iste’moliga kiritildi.Jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o‘quvchilarni sport mashg‘ulotlariga o‘rgatish yo‘llarining usul va metodlari ilmiy-nazariy jihatdan ishlandi. Jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o‘quvchilarni sport mashg‘ulotlariga o‘rgatish yo‘llarining samaralorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar berildi. Jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish jarayonida o‘quvchilarni sport mashg‘ulotlariga o‘rgatish yo‘llarining o‘rni aniqlandi. Tadqiqot natijasida umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni sport mashg‘ulotlariga o‘rgatish yo‘llariga oid ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan samarali foydalanish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Buyuk mutafakkirlarimiz, Sharq va G`arb mutaffakkirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari, mavzuga doir ilmiy- pedagogik, psixologik, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi sohasidagi ilg`or tajribalar, “Ta’lim to‘g`risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy yo‘nalishlari tashkil etildi. Kuzatish, taqqoslash, o‘lchash, testlash, pedagogik eksperiment, pedagogik tashxis, matematik statistika. Sportning har bir turida o‘ziga xos maxsus yuqori darajada rivojlangan sifat va mahoratni kamolotga etkazmoq aniq yo‘naltirilgan pedagogik va biologik tarbiya vositasida bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bosqichlarni mensimaslik, yetarli malakalar yig`indisi hosil bo‘lmay turib, yuqori bosqichga ko‘tarilishga zo‘r berish maqsadga erishish muddatini uzoqlashtiradi, tanani jarohatlantirishga olib keladi.

Dasturni qayta ishlab chiqishda ko‘pchilik xatolarga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Bu xatolar maktab jismoniy tarbiya mazmunini chuqur bilmaslikdan yuzaga keladi. Masalan, aksariyat o‘qituvchilar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar salomatligining zaiflashib borishidan xavotirlanib, jismoniy tarbiya maqsadi shu yoshdagi bolalar salomatligini saqlashdangina iborat deb hisoblaydilar.

Yana bir toifadagi o‘qituvchilarimiz jismoniy tarbiyaning asosiy vazifasi o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishdan iborat deb nazariy mashg`ulotni jismoniy mashqlarga aylantirib yuboradilar. Hatto shunday muallimlar borki, butun o‘quv yili davomidagi darslarni alohida sport turiga bag`ishlashadi. O‘z mutaxassisligi bo‘yicha bokschi bo‘lsa, maktabdagi bolalarning hammasi bokschi bo‘lishini istab, darslarni shu tomonga yo‘naltiradi.Uchinchi yo‘nalish tarafdorlari esa jismoniy tarbiya darslarini o‘quvchilar uchun zarur bilim beradigan harakat ko‘nikmalar va malakalarni shakllantiradigan qilib tashkil etishni kifoya deb tushunadilar.Ilmiy tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, agar jismoniy mashqlar sportning alohida turiga taalluqli bo‘lsa va bu mashqlar ketma-ket takrorlanib turilsa, bu holat bolalarning bir tomonlama o‘sishi, rivojlanishiga olib keladi. Masalan, muntazam tosh ko‘tarish yoki shtanga bilan shug`ullanish bola gavdasi va bo‘yini o‘stirmay qo‘yishi mumkin. Sport turlarining murakkab texnik bazasi mavjud bo‘lganda ham, xususan, sport o‘yinlari, gamnastika, yakka kurashlar- bular bola organizmiga, ularning garmonik o‘sib ulg`ayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Bola organizmi jismoniy mashqlarning bir necha turlar yoki majmua (turkum) mashqlar yordamidagina har tomonlama rivojlanishi mumkin.

Ayrim o‘qituvchilar, uslubchilar chet davlatlarda jismoniy tarbiyaning umumiy dasturi barcha uchun majburiyat degan bahonani ro‘kach qilib, sportning ayrim turlari bo‘yicha mashg`ulot olib borishni afzal ko‘rishadi. Aslida xorijiy davlatlarning jismoniy tarbiya bo‘yicha har birining dasturida sportning barcha turlari bo‘yicha mashg`ulotlarning o‘tkazilishi majburiyligi aniq ko‘rsatilgan.Bu ko‘rinishda esa mikrotsikl shu sxemani o‘zgartirmasdan takrorlashi shart. Mikrotsikllar kamida ikki: kumilatsion (yig‘uvchi), (u yoki bu darajadagi charchash bilan bog‘liq) hamda qayta tiklovchi, mashg‘ulotlar harakterida tuzilgan fazodan iborat bo‘ladi. Mikrotsikllarning minimal davom etish vaqti 2 kun. Yuklama olish kuni va qayta tiklash kuni bo‘ladi. Ko‘pincha bu fazalar mikrotsikl ichida takrorlanib, har bir mikrotsikl qayta tiklash fazasi bilan tugallanadi. Qayta tiklash fazasi hamma vaqt ham mikrotsiklni tugallamasligi uning ichida qaytarilishi ham mumkin.

Mashg‘ulotlar mazmuning ketma – ketligi esa tayyorgarlik davriga, vazifasiga va qanday mikrotsikl bo‘lishiga bog‘liq. Katta bo‘lmagan shiddatda bajariladigan, katta hajmdagi ish tez-tez qayta tiklashni talab qilmaydi, balki yuqori shiddatda katta hajmli ish bajarish mashg‘ulotga qayta tiklashni tez – tez kiritishni talab qiladi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. .Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. – Toshkent-2007 yil.
2. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari – Toshkent., O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil - 238 b.
3. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2005 yil - 171 b.
4. Masharipov Y. Sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: 2010-yil.
5. Qosimova R.A., Do‘sanov U.T. Qo‘l to‘pi (gandbol)va uni o‘qitish uslubiyati-Samarqand: 2011-yil.

Chet el adabiyotlari:

1. David Lavallee, John Kremer,Aidan P. Moran and Mark Williams. Sport Psychology, -New York,- 2004 (361 doi)
2. Edmunds J., Ntoumani N. & Duda J. (2006). A test of Self Determination Theory in exercise. *Journal of Applied Social Psychology, 36*(9), 2240– 2265.
3. International Handball Federation These Rules of the Game will take effect on 1 July 2016 -y
4. Allan Lund (DEN), Developed by the IHF working group „Handball at school“: 2011-y
5. V.Ya.Ignateva, A.V. Ignatev A.A.Ignatev Sredstva podgotovki igrokov v gandbol –Moskva: 2015-g.

DEFINITIONS AND SCOPE OF MEDIA DISCOURSE

Kobilova Makhfuza Sherali kizi
Teacher at Profi University
Doctorate at NSPI
maxfuza.qobiova.98@gmail.com

Annotation. This article explores the concept of media discourse, providing a comprehensive understanding of how language and communication in various media formats (such as news, social media, and advertising) interact with societal values, beliefs, and power structures. It defines media discourse as the study of how media outlets use language, symbols, and other forms of communication to construct meanings and influence public opinion.

Keywords: media discourse, symbols, comprehensive understanding, news, social media, and advertising

Annotatsiya. Ushbu maqola media diskursi tushunchasini o‘rganadi va turli media formatlarida (masalan, yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar va reklama) til va kommunikatsiyaning jamiyatning qadriyatlari, ishonchlari va kuch strukturalari bilan qanday o‘zaro ta’sir qilishini keng qamrovli tushunishni taqdim etadi. Maqolada media diskursi, media vositalarining til, ramzlar va boshqa kommunikatsiya shakllarini qanday ishlatib, ma’nolarni yaratish va jamoatchilik fikriga ta’sir qilishini o‘rganish sifatida ta’riflanadi.

Kalit so‘zlar: media diskursi, ramzlar, keng qamrovli tushuncha, yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, va reclama

Аннотация. В этой статье рассматривается концепция медиадискурса, предоставляя всестороннее понимание того, как язык и коммуникация в различных медиаформатах (таких как новости, социальные сети и реклама) взаимодействуют с общественными ценностями, убеждениями и властными структурами. Медиадискурс определяется как исследование того, как медиа-ресурсы используют язык, символы и другие формы коммуникации для создания смыслов и воздействия на общественное мнение.

Ключевые слова: медиадискурс, символы, всестороннее понимание, новости, социальные сети, реклама.

Introduction

Media discourse refers to the interactions between language, communication, and media and their impact on public understanding. It involves the examination of various forms of media—including news articles, television broadcasts, and social media—regarding their use of language and symbolism to convey messages, influence public opinion, and either reflect or construct societal values.

The analysis of media discourse encompasses not only the content itself but also the contextual factors, power dynamics, and cultural frameworks that shape the creation, consumption, and interpretation of media

messages. This field includes multiple genres of communication, spanning journalism to advertising, and investigates the social and political consequences of media practices.

Main body

Through the study of media discourse, researchers can gain critical insights into the ideologies and narratives that the media propagate, assess how those narratives shape public perceptions, and evaluate the broader implications of media representation within society. In this way, media discourse serves as a valuable lens through which to understand the intricate relationship between media, culture, and power. Media discourse is a complex and multifaceted area of study that examines the intricate ways in which language, symbols, and communicative practices are utilized in various media texts to inform, persuade, and shape societal perceptions. At its core, media discourse acts as a significant mechanism through which ideologies, power structures, and cultural norms are not only disseminated but also contested and negotiated. Fairclough (1995) argues that media discourse is "a form of discourse practice that is embedded in the broader socio-political and cultural contexts," which underscores its role in framing public consciousness and influencing collective understanding. Similarly, Van Dijk (1998) emphasizes the importance of media discourse as a tool for the reproduction of elite power, positing that it not only reflects existing societal inequalities but also actively reinforces them through various communicative practices.

The scope of media discourse extends far beyond merely analyzing the linguistic components of media texts; it encompasses an array of visual, auditory, and multimodal elements that contribute to meaning-making. This broad perspective allows for a comprehensive examination of various forms of media, including traditional print media (such as newspapers and magazines), broadcast media (including television and radio), and digital platforms (such as social media, blogs, and online news). Each of these mediums employs distinct methods and strategies for communication, which impacts how content is produced, distributed, and consumed. Thus, understanding media discourse requires an interdisciplinary approach that draws from fields such as communication studies, sociolinguistics, and media studies.

Key areas of inquiry within the realm of media discourse include agenda-setting, framing, and intertextuality—each of which plays a crucial role in analyzing how media influence public debates and shape societal perceptions. Agenda-setting, as articulated by McCombs and Shaw (1972), refers to the media's ability to dictate which topics are considered important by the public, thereby influencing the priorities of political discussion and public opinion. Framing, described by Entman (1993), delves into how issues are presented and contextualized within media narratives, which in turn affects audience interpretation and response. Intertextuality examines the relationships and connections between different texts, offering insights into how meaning is constructed across various media platforms and genres.

Furthermore, media discourse allows for a critical examination of broader socio-political issues, encompassing themes of representation, identity, and power dynamics. These inquiries are vital for understanding how marginalized groups are portrayed in the media and how such representations can perpetuate stereotypes or challenge existing power structures. In today's increasingly digitalized world, where information can be disseminated instantaneously and widely through social networks, the landscape of media discourse is continuously evolving. This phenomenon reflects the complex interplay between technology, society, and communication norms, necessitating an ongoing dialogue about the implications of media practices on public life and individual perception.

By delving into media discourse, scholars can gain valuable insights into the dynamics of communication and its effects on social realities, ultimately contributing to a deeper understanding of the contemporary landscape of information exchange and public engagement.

Conclusion

Media discourse critically examines the complex interplay between media, language, and society. This field investigates how communication through various media platforms not only shapes cultural, social, and political dynamics but is also influenced by them. Through a rigorous analysis of media language, researchers can discern the construction of narratives and their subsequent impact on public perceptions and social conventions. This analysis elucidates the power of media in shaping identities, ideologies, and collective experiences, thereby fostering a deeper understanding of the reciprocal relationship between media and the communities it engages.

References

1. Fairclough, N. (1995). Media Discourse. London: Edward Arnold.
2. Van Dijk, T. A. (1998). Ideology: A Multidisciplinary Approach. London: Sage
3. McCombs, M. E., & Shaw, D. L. (1972). "The Agenda-Setting Function of Mass Media." Public Opinion Quarterly, 36(2), 176–187.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ЁШЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ ЖИҲАТДАН ИЖТИМОИЙЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИ

Хонимов Шарофутдин Баҳодирович
Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги
марказий аппарати бўлим бошлиғи
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
sharofiddin_2017@mail.ru
+998912349595

Аннотация. Мазкур мақолада “Янги Ўзбекистон”, “ижтимоий”, “ижтимоийлашув”, “сиёсий”, “маданият”, “маънавият”, “мафкура” тушунчалари тўғрисида алоҳида адабиётларга таянган ҳолдаги тўғри ва аниқ маълумотлар келтирилган. Шу билан бир қаторда “маданият”, “маънавият” ва “мафкура” тушунчаларининг ҳар бирини таҳлил қилиб мисоллар билан аниқ ва батафсилроқ ёзиб чиқилган. Шунингдек, мазкур тушунчалар хусусида илмий талқинлар мисоллар билан келтириб ўтилган.

Калит сўзлар. Маданият, мафкура, маънавият, янги Ўзбекистон, республика, миллий, сиёсатчи, тарих.

Аннотация. В данной стате даны корректные и достоверные сведения о понятиях «культура», «духовност», «идеология» на основе отделной литературы. Кроме того, каждое из понятий «культура», «духовност» и «идеология» анализируется и расписано более подробно с примерами. Также с примерами даны научные интерпретатсии этих понятий.

Ключевые слова. Культура, идеология, духовност, новый Узбекистан, республика, националный, политик, история.

Abstract. This article provides correct and accurate information about the concepts of "culture", "spirituality", "ideology" based on separate literature. In addition, each of the concepts of "culture", "spirituality" and "ideology" is analyzed and written in more detail with examples. Also, scientific interpretations of these concepts are given with examples.

Keywords. Culture, ideology, spirituality, new Uzbekistan, republic, national, politician, history.

Кириш

Бугунги кунда ёшларга оид давлат сиёсатининг самарадорлиги масаласи бир мунча мураккаб ва кенг қиррали муаммо саналади. Бу уни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш босқичларининг ҳар бирида яққол кўзга ташланмоқда. Айниқса, унинг мақсад ва вазифалари ҳамда эришилган натижани баҳоловчи мезонларини белгилаш борасида баҳсли ёндашувлар мавжуд.

Шунга кўра, Янги Ўзбекистон шароитида ёшларнинг ижтимоий-маданий жиҳатдан ижтимоийлашув жараёнлари самарадорлигини баҳолашнинг муаммоли жиҳати бир томондан ёшларга оид давлат сиёсатининг самарадорлиги тушунчасини аниқ таърифлаш, бошқа томондан эса микро (маҳаллий ёшлар сиёсати), мезо (ҳудудий ёшлар сиёсати) ва макро (миллий ёшлар сиёсати) даражаларидаги самарадорликни ўлчовчи кўрсаткичларни аниқ белгилаб олиш билан боғлиқ тарзда намоён бўлади.

Умуман олганда, ёшларга оид давлат сиёсатининг асосий фундаментал йўналиши бўлган ёшларнинг жамиятга ижтимоийлашуви самарадорлигини баҳолашда унинг мақсадлари ҳамда устувор йўналишларига қараб мўлжал олиш лозим. Ижтимоийлашув самарадорлиги тушунчасини таърифлашда унинг тузилмасидаги натижадорлик ва ресурслар билан боғлиқ элементларни истисно этувчи кўплаб ёндашувлар мавжуд.

Дунёда аҳоли сони ортиб, глобаллашув жараёнлари тезлашмоқда. 2 миллиарддан[1] зиёд ёшларнинг замонавий жамиятга интеграсиялашуви ҳамда интеллектуал салоҳиятининг инсоният тараққиётига таъсири таҳлил қилинса, ёшларни ижтимоийлашиш жараёни аҳамияти янада ортади. Бу борада БМТ Бош Ассамблеяси томонидан ёшларга эътиборни кучайтириш, уларни ижтимоий ҳимоя қилиш глобал мавзу сифатида эътироф этилиб, ҳуқуқий-ташкилий тартиби белгиланган.

Шуни таъкидлаш керакки, ёшлар сиёсати БМТ ислоҳотларининг марказида бўлди. Масалан, 1965-йил БМТ томонидан “Ёшлар ўртасида тинчлик, ўзаро ҳурмат ва халқлар ўртасидаги англашув ғояларини тарғиб қилиш тўғрисида”ги декларация эълон қилинди. Декларация қабул қилинганидан 20 йил ўтгач,

[1] https://yuz.uz/news/ академик-акмал-саидов-янги-ўзбекистон-ёшлар-сиёсатининг-халқаро-этирофи-ҳақида

яъни БМТ 1985-йилни Халқаро ёшлар йили деб эълон қилди. БМТ БА 1999-йил декабрдаги 54/120-сонли резолюсияси орқали 12 августни – Халқаро ёшлар куни деб қабул қилди. 1995-йилда БМТ Бош Ассамблеясининг Бутунжаҳон ҳаракат дастури ишлаб чиқилди. Ёшларни ижтимоий ҳимоя қилишнинг сиёсий асослари ушбу дастурнинг 15 та устувор йўналишида ўз аксини топди. 1999 йилда Ёшлар йилининг 25 йиллиги нишонланиши билан Бош Ассамблея 2010 йил 12-августдан бошланадиган йилни янги Халқаро ёшлар йили деб белгилади. 2015-йил 17-декабрда "Ёшлар ва инсон ҳуқуқлари тўғрисида"ги резолюция қабул қилинди. 2019-йили ёшлар сиёсати ва дастурлари бўйича "Лиссабон+21" декларацияси қабул қилинди. Шу ўринда жаҳонда ёшларни ижтимоий ҳимоя қилишга доир қонунчилик асосларини таҳлил қилиш, ижтимоий ҳимоя қилишнинг механизмлари, шакл ва услубларини тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистонда ёшлар билан ишлаш, уларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш, сиёсий, ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш ҳамда ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, ижтимоий-сиёсий жараёнларга фаол жалб қилиш, ёшлар ўртасида тадбиркорликни ривожлантириш, ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш Янги Ўзбекистоннинг устувор ва стратегик вазифаларидан бирига айланган.

Шу билан бирга, соҳадаги вазият ва амалга оширилган тадбирлар таҳлили ёшларнинг кенг қатламларига даҳлдор бўлган долзарб масалалар, айниқса, Янги Ўзбекистон шароитида ёшларнинг ижтимоий-маданий жиҳатдан ижтимоийлашуви, ҳаётда ўз ўрнини топиши учун муносиб шароит яратиш, уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, касбга йўналтириш ва бандлигини таъминлаш, ташаббусларини рағбатлантириш борасидаги ишлар сифат жиҳатидан янги даражага чиқганлигидан далолат бермоқда.

Ўтган қисқа даврда мамлакатимиз ёшларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда уларни жамиятда ижтимоийлашувига қаратилган 100 дан ортиқ қонун ҳужжатлари[1] қабул қилиниб, уларга турли соҳаларга оид 200 дан ортиқ имтиёз ва имкониятлар берилаётгани буни яққол тасдиқлайди.

Айниқса, ўтган йили умумхалқ референдумида қабул қилинган бош қомусимиз – Янгиланган конституциямизда ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатлари аниқ моддалар билан муҳрлаб қўйилгани ёшлар сиёсатини "Давлат – ёшлар ҳимоячиси" тамойили асосида янги босқичга кўтариш имконини бермоқда. Мазкур сиёсий янгилик - албатта Ўзбекистон жамиятида ёшларнинг ташаббускорлиги, ижтимоий фаоллиги ҳамда жамиятда ижтимоийлашувининг бош ҳуқуқий асосларидан бири бўлади.

Маълумки, ёшларимизнинг интеллектуал ва жисмоний камолоти, жамиятда сиёсий ва ижтимоий жиатдан ҳар томонлама фаоллиги уларнинг сифатли таълим олиб, ҳаётда муносиб ўрин эгаллашлари учун барча замонавий куч ва имкониятларнинг яратилганлигига бевосита боғлиқдир.

Натижа ва методология

Ўзбекистон бу - ёшлар мамлакати, шунинг учун ҳам келажак пойдеворларига ғамхўрлик ва замонавий шароитлар яратиб бериш давлатнинг зиммасига масъулият юклайди. Сўнгги йилларда мамлакатимизда кўплаб янги боғчалар, мактаб ва олийгоҳлар барпо этилмоқда. Охирги етти йилда[2] мактабгача таълим бўйича қамров даражасини 27 фоиздан 72 фоизга, олий таълимда эса 9 фоиздан 42 фоизга, олийгоҳлар сони 77 тадан 212 тага етказилишига эришиди.

Ёшларнинг жамиятнинг асосий қатлами бўлиши учун ҳам таълим соҳасидаги, жумладан Халқаро фан олимпиадаларидаги самарадорлик улушимиз ва натижаларимиз муҳим ижтимоий омил бўлип хизмат қилади, шунга кўра ушбу соҳадаги кўрсаткичлар йилдан йилга ўсиб бормоқда. 2022 йилда ўзбекистонлик ўқувчилар халқаро фан олимпиадаларида 45 та медаль олган бўлса, 2023 йилда бу кўрсаткич 113 тага етди.

Охирги етти йилда 151 минг ёшларга 1,7 триллион сўм имтиёзли таълим кредитлари ажратилди, "Ёшлар дафтари"га кирган эҳтиёжманд оилага мансуб 110 минг талабаларнинг 332 миллиард сўм контракт тўловлари давлат томонидан тўлаб берилди.

Сифатли таълим - бу ёшларни ўзларининг истиқболли фаолиятларини жамиятга интеграция қилиниш ҳамда жамият ҳаётига маданий ва ижтимоий жиҳатдан мослашиши, яъни ижтимоийлашувида муҳим стратегик омилдир.

Шу боис "Эл-юрт умиди" жамғармаси орқали хорижий нуфузли олийгоҳларга бугунги кунга қадар ўқишга 1 900 нафар, шундан 2023 йилда 274 нафарни ташкил этади.

Профессор Эгамбердиеванинг айтишича Ижтимоийлашув – жамиятнинг муваффақиятли ривожланиши учун зарур бўлган намунали хулқ, психологик механизм, социал норма ва

[1] https://gov.uz/oz/yoshlar - расмий веб сайтининг йиллик ахборотидан

[2] https://yoshlarovozi.uz/ газетасининг 2024 йил 29 ноябрдаги 127-сони.

қадриятларни ўзлаштириш жараènидир[1]. Демак, оилада касбий ижтимоийлашувни таъминлаш жамиятнинг истиқболда касбий эҳтиèжларини таъминлаш деганидир.

Ушбу муҳим масаланинг давоми сифатида юртимизда – ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш ва бандлигини таъминлаш устувор йўналишга айланди.

Охирги тўрт йилда 600 минг ёшнинг тадбиркорлик лойиҳалари учун 13 триллион 534 миллиард сўм имтиёзли кредитлар йўналтирилди. Натижада ёш тадбиркорлар сони 7 бараварга ошиб, 734 мингга етди.

Ёшларга тадбиркорлик билан шуғулланишга қўшимча имкониятларни яратиш мақсадида ҳудудларда 205 та Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари ташкил этилди. Ўтган давр мобайнида ёшларнинг қиймати 2 триллион 400 миллиард сўмлик 1 242 та лойиҳалари ишга туширилиб, 26 мингдан ортиқ янги иш ўринлари яратилди.

Жорий йилдан бошлаб ёшларга ер ажратиш орқали уларнинг даромадларини ошириш ва бандлигини таъминлаш ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришдан сотишгача бўлган занжирни қамраб олувчи янги тизим жорий этилди.

Ҳеч кимга сир эмас, сўнгги йилларда ташқи сиёсатимизда ҳам ёшлар масаласи асосий йўналишлардан бирига айланди. Ўзбекистон жаҳонга очилишни бошлади.

Бунинг натижасида, Бухоро шаҳри – Биринчи Туркий дунё ёшлар пойтахти, Тошкент шаҳри – Биринчи Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги ёшлар пойтахти мақомига эга бўлди.

Жорий йилда мамлакатимизда илк маротаба 150 та давлатдан 1 мингга яқин хорижлик ва ўзбекистонлик ёшларни бирлаштирган “Бутунжаҳон ёшлар фестивали” ўтказилди. Албатта бу каби ташкилий тадбирлар Ўзбекистон ёшларнинг хорижлик тенгдошлари билан тенг рақобат муҳитида фаолият олиб бориши ҳамда ҳар томонлама ижтимоий ҳамкорликни ривожлантиришга замин бўла олади.

Бундай улкан марраларни забт этган ёшлар – Янги Ўзбекистоннинг навқирон фарзандлари эканлиги ҳам кенг кўламли ислоҳотларнинг натижасидир.

Дунёда тараққиёт шиддат билан илгарилаб бораётган ҳозирги даврда илғор билим ва технологияларни эгаллаган, хорижий тилларни ва замонавий касбларни мукаммал ўзлаштирган ёшлар ўз Ватанининг ҳақиқий таянчи ва суянчи ҳисобланади.

Хулоса ва таклифлар.

Ҳудду шундай тоифа вакилларини ижтимоий ва сиёсий жиҳатдан фаол бўлишини ҳамда улар Янги Ўзбекистон жамиятининг ҳар томонлама пойдевори бўлишида ёшларнинг ижтимоийлашуви жараёнини самарадорлигини баҳолашда қуйидаги омилларга ҳам диққат қаратиш талаб қилинади: ҳудудлар ўртасидаги фарқ, қишлоқ ва шаҳар ўртасидаги фарқ, аёллар ва эркаклар ўртасидаги фарқ, бирор ҳудудда доимий ва вақтинча яшовчи ёшлар ўртасидаги фарқ ва бошқалар.

Мазкур рўйхатдан қуйидаги кўрсаткичлар ўрин олиши лозим:

1. Ёшлар ҳолатларини баҳоловчи, жумладан:

1.1. Ижтимоий демографик тавсифи.

14-30 ёшдаги ёшлар хиссаси;

Ёшларнинг ёшга ва жинсга доир тақсимоти ҳамда унинг этно-миллий таркиби;

Ўзбекистон Республикаси ичида ёшларнинг кўчиб юриши ҳамда қишлоқ ва шаҳар ёшлари бўйича тақсимоти;

Ёшларнинг хорижий мамлакатлар бўйича миграциясига оид тақсимоти;

Миграциядаги ёшлар миқдори;

Ҳудудлар кесимида ёшларнинг касалланиш кўрсаткичи (барча касалликлар бўйича);

Ёшлар ўртасида рўй бераётган ўлим сабабларининг тузилмаси;

Ўзбекистон Республикасидаги ёшларнинг оилавий ҳолати;

Ўзбекистон Республикасидаги ёш оилаларнинг миқдори;

Ҳудудлар кесимида ёшлар ўртасида никоҳ ва ажримлар миқдори;

Ёш оилаларда туғилиш даражаси.

1.2. Ёшлар бандлиги.

Ёшлар бандлиги шакллари;

Ишлаб чиқаришдаги ёшлар бандлигининг тақсимоти;

Касбий таълим бўйича ўқув муассасаларини тугатган ёшларнинг ишга жойлашиш кўрсаткичи.

1.3. Ёшлар таълими.

[1] Эгамбердиева 2010: 18-сон

Ёшларнинг таълим олганлик даражаси;

Касбга йўналтирилган ўқув муассасаларининг сони;

1.4. Ёшларнинг ҳарбий хизматга алоқадорлиги (ҳарбий хизматга чақирилувчилар сони, ҳарбий хизматга жалб қилинган ва жалб қилинмаган ёшлар).

1.5. Ёшларнинг ижтимоий фаоллиги, жумладан:

Ёшларнинг ижтимоий сиёсий фаоллиги.

Маҳаллий ва умумреспублика миқёсидаги сайловларда ёшларнинг иштироки;

Ёшларнинг ҳудудларда сиёсий партиялар ва ижтимоий сиёсий ташкилотлар шаклланишидаги иштироки;

Ёшларнинг ўзини-ўзи бошқарув органлари ва болалар ҳамда ёшлар жамоат бирлашмаларидаги иштироки.

Ёшларнинг меҳнат ва иш фаолиятидаги фаоллиги.

Ёшларнинг меҳнатда бандлик ва касбга йўналтирилган дастурлардаги иштироки;

Вақтинчалик ташкил қилинган талабалар меҳнат отрядларида ёшларнинг иштироки.

Ёшларнинг ижодий фаоллиги.

Мамлакат ёш аҳолисига нисбатан халқаро, республика ва маҳаллий миқёсида ўтказиладиган конкурс, танлов ва олимпиадаларда иштирок этаётган ёшлар миқдори;

Расмий ва норасмий ёшлар ижодий бирлашмалари фаолиятида ёшларнинг иштироки.

Ёшларнинг спорт соҳасидаги фаоллиги.

Жисмоний тарбия ва спорт ташкилотларида фаолият юритувчи ёшлар миқдори;

Маҳаллий, ҳудудий, республика ва халқаро миқёсидаги спорт мусобақаларидаги ёшларнинг иштироки;

Ёшлар ўзларининг яшаётган жойлардаги ташкилотларда иштироки;

Чақириққача ёшларни тайёрлаш ва ҳарбий ватанпарварлик ташкилотларида спорт ва жисмоний тарбия билан шуғулланувчи ёшлар.

1.6. Вояга етган ёшларнинг жиноятчилик ва ҳуқуқбузарлик содир этишдаги иштироки.

Маъмурий ҳуқуқбузарлик ва жиноят содир этган вояга етган ёшлар;

Ёшлар иштирокида содир этилган маъмурий ҳуқуқбузарлик ва жиноят;

2. Шу тариқа Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширувчи давлат ҳокимияти органлари фаолиятларини йўналишларга кўра баҳолаш. Улар ўртасида қуйидагиларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

2.1. Ўзбекистонг Республикасида иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлаш.

Республика миқёсидаги иқтидорли ёшлар маълумотлар базасининг мавжудлиги;

Иқтидорли ёшлар билан ишловчи дастурлар миқдори;

Илмий фаолият билан шуғулланадиган ёшлар билан ишловчи ташкилотлар.

2.2. Оғир ҳаётий шароитга тушиб қолган ёшларга ёрдам кўрсатиш.

Оғир ҳаётий шароитга тушиб қолган ёшлар маълумотлар базасининг мавжудлиги;

2.3. Ёшларнинг касбий мўлжал олиши ва бандлиги.

Ёшларнинг бандлиги ва касбий мўлжал олишига йўналтирилган дастурларнинг мавжудлиги;

Ёшларнинг касбий мўлжал олиши ва иш топишига ихтисослашган ташкилотларнинг мавжудлиги;

Бизнес инкубаторлар миқдори.

2.4. Ёшлар ўртасида асоциал ҳодисалар профилактикаси.

2.5. Болалар ва ёшларда ватанпарварлик туйғусини шакллантириш ва чақириққача тайёрлаш.

Болалар ва ёшларда ватанпарварлик туйғусини шакллантириш ва чақириққача тайёрлаш дастурларининг мавжудлиги;

Болалар ва ёшларда ватанпарварлик туйғусини шакллантириш ва чақириққача тайёрлаш соҳасида фаолият юритувчи ташкилотларнинг мавжудлиги.

2.6. Ёш оилаларни қўллаб-қувватлаш.

Ёш оилаларнинг миқдори ва ҳолати тўғрисидаги маълумотлар базасининг мавжудлиги;

Ёшларни қўллаб-қувватлашга қаратилган ҳудудий меъёрий ҳуқуқий базанинг мавжудлиги;

Ёшлар оилаларни қўллаб-қувватлаш хусусан уй-жой билан таъминлаш бўйича дастурларнинг мавжудлиги;

2.7. Ёшларнинг мақсадли гуруҳлари билан ишлаш.

2.8. Ёшларнинг субмаданий бирлашмалари билан ишлаш.

Субмаданий ёшлар бирлашмалари тўғрисидаги маълумотлар базасининг мавжудлиги;

Ёшларга оид давлат сиёсати билан шуғулланувчи ташкилотлар билан ишловчи субмаданий ёшлар бирлашмалари рўйхатларининг мавжудлиги;

Ёшлар субмаданиятлари билан ишлашга йўналтирилган дастурлар.

3. Кейинги бўлим ёшларга оид давлат сиёсатини бошқариш ва унинг инфраструктурасига бағишланади:

3.1. Соҳалар бўйича ҳуқуқий меъёрий база.

Ёшлар ва ёшларга оид давлат сиёсати бўйича қабул қилинган қонунлар ва ҳуқуқий ҳужжатлар;

Мақсадли дастурлар.

3.2. Ёшлар билан ишловчи ташкилот ва муассасалар.

Ёшлар билан ишловчи ташкилот ва муассасалар билан ишловчи муасасаларнинг умумий миқдори;

Ёлар билан ишловчи давлат ва нодавлат рўйҳатдан ўтмаган ва ўтган ташкилотлар рўйҳати;

Ўзбекистон Республикасида ёшларнинг ўзини-ўзи ташкиллаш шакллари.

3.3. Ёшлар ишлари бўйича ташкилотлар.

Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширувчи ташкилотлар тузилмасидаги штатлар номи ва миқдори;

Ёшлар соҳасида фаолият юритувчи орган ходимлари сони;

Ёшлар иши бўйича ташкилотлар таркибидаги тузилмалар рўйхати;

Ёшлар иши бўйича ташкилотлар қошидаги коллегиал органлар (Кенгашлар, комиссиялар);

Ёшларга оид давлат сиёсати соҳасини молиялаштириш;

Ёшларга оид давлат сиёсати соҳасини бюджетдан молиялаштириш.

Мазкур кўрсаткичларни ўзлаштириш ва ўзаро таққослаш ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини баҳолаш бўйича умумий манзарани тасаввур қилиш имконини беради.

Шунингдек, ҳудудлардаги соҳалар бўйича ёшлар иши паспортларини яратиш имконини беради.

Шунингдек, ушбу мезон орқали социологик тадқиқот методлари асосида йиғилган маълумотларга таяниб тайёрланган бутун мамлакат бўйича ёшлар аҳволи тўғрисидаги доклад ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини баҳолашнинг муҳим таркибий элементи ҳисобланади. Мазкур докладдан нафақат статистик маълумотлар, балки бу борада амалга оширилган сиёсат тўғрисидаги ёшларнинг умуман жамиятнинг муносабати акс этиб туради.

Юқорида санаб ўтилганларнинг йиғиндиси ёшлар сиёсати борасида давлат ва жамият томонидан амалга оширилган бошқарувнинг турли даражаларидаги ишлар самарадорлигини баҳолашнинг универсал тизимини ташкил қилади.

Шунингдек, таъкидлаб ўтилган ёшлар аҳволи тўғрисидаги доклад ҳар йили кенг жамоатчиликка тақдим этилиши лозим. Мазкур доклад Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган ёшларга оид давлат сиёсатининг жорий йилдаги яхлит манзарасини тасаввур қилиш имкониятини шунга кўра самарасиз соҳалар ҳамда уларда қўлланилаётган механизм ва технологияларнинг натижадорлик даражаси аниқланиб келгуси йилда қолоқ соҳаларни ривожлантириш ҳамда уларда қўлланилган механизм ва технологияларни такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилиб амалиётга тадбиқ қилиниши лозим.

Бундай амалиётнинг яна бир афзал жиҳати шундаки, ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигининг йиллар кесимидаги динамикасини ишлаб чиқиб шунга кўра келгуси йиллардаги истиқболли стратегиясини аниқ белгилаб олиш имконияти яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. 1.1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини та’минлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т:. Ўзбекистон, 2017.– 32.б
2. 1.2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Т:. Ўзбекистон, 2017.– 56 б.
3. 1.3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 496.
4. Ник Бостром: Живем ли мы в компютерной симулятсии. ҳттпс://ҳабр.сом/ру/пост/516598/
5. В.И.Данилов-Данилян, Рейф И.Е. Биосфера и сивилизация: в тисках глобалного кризиса. – Москва: Прогресс, 2018. – С. 34.

ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ЎҚУВЧИ-ЁШЛАР УЧУН ЯРАТИЛАЁТГАН ШАРОИТЛАР

Понсотова Нафиса Уктамовна,
Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Талаба ва ўқувчиларни ижтимоий фаоллигини ошириш маркази бўлим бошлиғи

Аннотация: Мазкур мақолада имкониятлари чекланган ёшлар учун таълим муассасаларида яратилаётган имкониятлар ва шароитлар бўйича маълумотлар берилган. Бундан ташқари, инклюзив таълим жорий этилган умумтаълим мактабларида инклюзив таълим учун яратилган шароитларни янада такомиллаштириш бўйича тавсиялар келтирилган.

Калит сўзлар: инклюзив таълим, инфраструктура, махсус курс, тренинг.

УСЛОВИИ СОЗДАННЫЕ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Понсотова Нафиса Уктамовна,
Начальник отдела Центра социальной активности студентов и учеников при Министерстве высшего образования, науки и инноваций

Аннотация: В данной статье представлена информация о возможностях и условиях, созданных в образовательных учреждениях для молодежи с ограниченными возможностями. Кроме того, даны рекомендации по дальнейшему улучшению условий, создаваемых для инклюзивного образования в общеобразовательных школах, где внедрено инклюзивное образование.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инфраструктура, спецкурс, тренинг.

CONDITIONS CREATED FOR STUDENTS WITH DISABILITIES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Ponsotova Nafisa Uktamovna,
Head of Department, Center for Social Activity students and pupils under the Ministry of Higher education, science and innovation

Аннотация: This article provides information about the opportunities and conditions created in educational institutions for young people with disabilities. In addition, recommendations are made to further improve the conditions created for inclusive education in secondary schools where inclusive education has been introduced.

Ключевые слова: inclusive education, infrastructure, special course, training.

Кириш. Таълим муассасаларида имкониятлари чекланган ўқувчи-ёшлар учун яратилган шароитлар уларнинг таълимга бўлган ҳуқуқини таъминлаш, ижтимоий интеграциясини қўллаб-қувватлаш ва барча соҳаларда муваффақиятли фаолият олиб боришларига ёрдам бериш мақсадида амалга оширилмоқда. Буни таъминлаш учун қуйидаги асосий йўналишлардаги тадбирлар ва шароитлар яратилмоқда:

Жумладан, инклюзив таълим: Инклюзив таълим ўқувчиларга, шу жумладан, имкониятлари чекланган ёшларга таълим беришда барча имкониятлардан тенг даражада фойдаланишга ёрдам беради. Бунинг учун махсус таълим дастурлари, индивидуал педагогик ёрдам, адаптация қилинган ўқув материаллари ва техник воситалар ишлатилади.

Техник ва технологик ёрдам: Имкониятлари чекланган ёшлар учун таълим муассасаларида махсус компьютерлар, планшетлар, экран ўқувчилари, клавиатуралар ва мушакларнинг ҳаракатларини ёрдамчи қурилмалар орқали таълим бериш имкониятлари яратилган. Шунингдек, махсус мобиль дастурлар ва электрон китоблар ҳам таълим жараёнига қўшилади.

Психологик ёрдам: Таълим муассасаларида имкониятлари чекланган ёшлар учун психологик ёрдам хизматлари ташкил этилган. Психологлар ўқувчиларнинг ҳиссий ва ижтимоий муаммоларини ҳал қилиш, уларнинг таълимга бўлган қизиқишларини ва иштиёқларини қўллаб-қувватлашга ёрдам берадилар.

Инфраструктура ва жисмоний шароитлар: Камҳаракатли ёшлар учун махсус шароитлар яратиш муҳимдир. Бу орада ўқув заллари, лифтлар, махсус ўқиш столлари ва жисмоний фаолликни рағбатлантирувчи воситаларни киритиш мумкин. Бу йўл билан ўқувчиларнинг жисмоний ва aqlій ривожланиши учун барча шароитлар яратилади.

Махсус курслар ва тренинглар: Имкониятлари чекланган ўқувчиларга махсус курслар, мастер-класлар, тренинглар ва семинарлар ташкил этиш орқали уларнинг қобилиятларини ривожлантириш ва ўқишдаги имкониятларини кенгайтириш. Бу, шунингдек, уларнинг ижтимоий ҳаётга фаол интеграциясини таъминлашга ёрдам беради.

Мобиль ва онлайн таълим: Интернет ва мобил платформалар орқали таълим бериш имконияти бўлган ўқувчилар учун махсус онлайн курслар ва таълим дастурлари таклиф қилинади. Бу уларга қийинчиликларга қарамай, ўз вақтида ва қулай тарзда таълим олишга имкон беради.

Шунингдек, бундай шароитлар ўқувчи-ёшларнинг ижтимоий ҳаётда муваффақиятга эришишига, ўз қобилиятларини ривожлантиришга ва қийинчиликларни енгишга ёрдам беради.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 октябрдаги “Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4860-сон қарорига мувофиқ Ўзбекистонда инклюзив таълимни ривожлантириш концепцияси қабул қилинди.

Маълумот учун: *БРМнинг 4.5 вазифаси – Таълим муассасалари шароитларини имконияти чекланган болаларнинг манфаатларини ҳисобга оладиган даражада яхшилаш билан ногиронлар учун барча даражадаги таълим ва касбий-техник тайёргарликдан тенг фойдаланиш имкониятини, барча учун хавфсиз ва самарали ўқитиш муҳитини таъминлаш.*

Имконияти чекланган барча ўқувчи-ёшлар асосий таълим муассасаларида инклюзив таълим олиш имкониятига эга бўлишларини, таълим муассасаларни малакали ўқитувчилар билан таъминланганлигини, ногиронлиги бўлган ўқувчи-ёшлар эҳтиёжларига мослаштирилган қулай инфратузилма ва ўқув материаллари бўлишини таъминлаш бугунги кунинг мухим вазифаларидан бири ҳисобланади. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 октябрдаги “Ўзбек имо-ишора тили ва Брайл алифбосини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” **ПҚ-407-сон** қарори билан 2023 йил 1 январга қадар барча даражадаги давлат органларига аҳолига хизмат кўрсатиш йўлга қўйилган бино ва иншоотларда ногиронлиги бўлган шахслар мустақил ҳаракатланиши учун қулай шароитларни яратиш вазифаси қўйилди. Айнан шу масалаларни ҳал этиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар учун ихтисослаштирилган мактаб-интернатларда таълим бериш сифатини ошириш ҳамда улар фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022 йил 18 апрелдаги ПҚ-209-сон қарори билан республикадаги кўришда нуқсони бўлган болалар учун ихтисослаштирилган “Нурли маскан” мактаб интернатларига Ички ишлар вазирлиги масъул этиб бириктирилди. Натижада, Ички ишлар вазирлиги ҳамда маҳаллий ҳокимликлар томонидан барча муассасалар замонавий кузатув камералари билан жиҳозланди ҳамда уланинг барчасига Брайл ёзувида чоп этадиган махсус принтерлар ҳадя қилинди. Барча муассасаларнинг компьютерларига кўзи ожизлар фойдаланишлари учун ўзбек тилидаги нутқ синтезаторлари дастури ўрнатилди.

Бугунги кунда алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган ўқувчи-ёшлар учун ихтисослаштирилган мактаб ва мактаб-интернатлар **90 та** бўлиб, булардан: **50 таси ақли заиф** болалар учун, **19 таси кар** ва **заиф эшитувчи** болалар учун, **17 таси кўзи ожиз** ва **заиф кўрувчи** болалар учун, **3 таси таянч аъзоларида нуқсони** бўлган болалар учун, **1 таси нутқида нуқсони бўлган** болалар учун ихтисослаштирилган мактаб-интернатлари ҳисобланади.

Инклюзив таълим жорий этилган умумтаълим мактабларида инклюзив таълим учун шароитларни яхшилаш, шу жумладан, ногиронлиги бўлган болалар билан иш олиб борадиган педагогларни тайёрлаш мақсадида Буюк Британия, Япония, Финляндия давлатларидаги тажрибани ўрганиш ва жорий этиш йўлга қўйилган.

Имконияти чекланган ўқувчи-ёшлар тоифасини аниқлаш муҳим, чунки уларга таълим беришдаги етарли шарт-шароитлар ва ёрдам кўрсатишнинг ўзига хос хусусиятлари бор. Ушбу тоифага кирган ўқувчилар ўзларининг физик, ақлий ёки эмоционал эҳтиёжларига қараб турли хил категорияларга бўлиниши мумкин. Қуйида имконияти чекланган ўқувчи-ёшларнинг асосий тоифалари келтирилган.

Жисмоний имкониятлари чекланган ўқувчилар:

Бу тоифага кирувчи ўқувчилар турли жисмоний касалликлар, травмалар ёки генетик омиллар туфайли ҳаракатланишда қийинчиликларга дуч келадилар. Уларга ўқиш учун махсус қурилмалар ва шароитлар зарур бўлади. Масалан:

- Мобилликда чекловлари бўлган ўқувчилар (кресло ва ходим ёрдамига эҳтиёж);
- Камҳаракат ёки ногиронликлари бўлган ўқувчилар (масалан, ҳар бир ҳолатга мослаштирилган ўқиш шароитлари).

Ақлий имкониятлари чекланган ўқувчилар:

Ушбу тоифага кирувчи ўқувчиларда интеллектуал ривожланишда баъзи кечикишлар ёки чекловлар бўлиши мумкин. Улар махсус таълим дастурларига ёрдам кўрсатишга эҳтиёж сезадилар. Бу тоифага кирувчи ўқувчиларга қуйидагилар киради:

- Интеллектуал қаришлик ёки ўқишда жиддий қийинчиликларга дуч келганлар;
- Ақлий ўзгаришлар, синдромлар ёки имкониятлар билан боғлиқ бўлган бошқа ҳолатлар.

Эмоционал ва психо-ижтимоий имкониятлари чекланган ўқувчилар:

Бу тоифага кирувчи ўқувчиларда психологик ёки эмоциявий муаммолар бўлиши мумкин. Улар таълим жараёнида қийинчиликлар юзага келтириши мумкин, масалан, стресс, депрессия, айрим ҳодисаларга жавоб реакциясининг нотўғри тарзи. Бундай ҳолатлар қуйидагиларни ўз ичига олиши мумкин:

Психологик муаммолар (масалан, депрессия, анксиозлик);

Халқаро ёки ижтимоий муносабатларда муаммолар (масалан, ижтимоий изоляция ёки оқибатлар).

Иштиёқ ва диққатни сақлаш муаммоларини бошдан кечираётган ўқувчилар:

Бу тоифадаги ўқувчиларда диққат ёки иштиёқни узоқ вақт сақлашда қийинчиликлар бўлиши мумкин. Уларнинг таълимга эътиборини жалб қилиш учун махсус метод ва ёрдам талаб этилади. Ушбу тоифага киради:

- Диққат муаммолари бўлганлар;
- Иштиёқни сақлашда қийинчиликларга дуч келганлар.

Энг яхши талаблар билан боғлиқ бўлган ўқувчилар:

Бу тоифага кирган ёшлар ўқиш жараёнида жисмоний ёки aqlій муаммоларга эга бўлишмаслиги мумкин, лекин уларнинг ҳаёт ва таълимга боғлиқ талаблари алоҳида бўлиши мумкин. Улар махсус шартлар, маданий ёки тил барқарорлигини таъминлашга эҳтиёж сезишлари мумкин.

Шахсий, ижтимоий ёки бошқа турдаги муаммоларга эга бўлган ўқувчилар:

Бу тоифадаги ўқувчиларнинг имконсизликлари аниқ бир физик ёки aqlій муаммо билан боғлиқ бўлмаслиги мумкин, лекин уларда ижтимоий ёки шахсий муаммолар бўлиши мумкин.

Масалан: Жамиятдан ҳеч қачон ёрдам олишига, иштиёқсизликка ёки оилавий муаммоларга эга бўлганлар.

Олий таълим муассасаларида инклюзив таълим — барча талабаларга, шу жумладан имкониятлари чекланган ёшларга, таълимга тенг кириш имконини беришга қаратилган муҳим йўналишдир. Инклюзив таълимда амалга оширилаётган ишлар билим олиш жараёнида барча талабалар учун тенг имкониятлар яратиш, уларнинг шахсий эҳтиёжларига мослаштирилган шароитлар ва педагогик воситаларни таълимга жорий қилишга қаратилган.

Инклюзив таълим дастурларини ишлаб чиқиш бўйича олий таълим муассасаларида инклюзив таълимнинг асосий принциплари талабаларнинг турли эҳтиёжларига мос келиши керак. Мавжуд таълим дастурлари ва курсларининг умумий талабларга қўшилиши, имкониятлари чекланган талабаларнинг талабларига мослаштирилиши ҳамда индивидуал ўқитиш йўналишлари ишлаб чиқилмоқда. Бунда асосий эътибор таълимнинг барча талабалар учун ишлашини таъминлашга қаратилган.

Педагогик ва психологик ёрдам инклюзив таълимда талабаларнинг ҳиссий, ижтимоий ва психологик эҳтиёжларини ҳисобга олиш муҳим. Олий таълим муассасаларида психологик ёрдам хизматлари, тренинглар, психотерапевтлар ва педагогик кўмаклар ташкил этилган. Бу хизматлар талабаларга таълим жараёнида ўзига хос муаммоларни ҳал қилишга ёрдам беради.

Жисмоний имкониятлар ва инфраструктура бўйича олий таълим муассасаларида имкониятлари чекланган талабалар учун жисмоний шароитлар яратишга катта эътибор қаратилаётган. Бу, масалан:

- Мобилликни чектовчи талабалар учун лифтлар, махсус пандуслар ва жисмоний мўжаралар;
- Махсус ўқиш столлари, креслолар ва техник воситалар;
- Биноларнинг инклюзив талабларга мос бўлишини таъминлаш.

Махсус таълим технологиялари ва воситалар бўйча олий таълим муассасаларида инклюзив таълимга йўналтирилган техник воситалар ва технологиялар фойдаланилади. Бу техник ёрдам воситаларига қуйидагилар киради:

- Электрон китоблар, экран ўқувчилари ва махсус компьютер дастурлари;
- Овозли ўқув материаллари;

- Видеолар ва мултимедиа материаллар, уларнинг хавфсиз ва қабул қилинишини таъминлаш.

Олий таълим муассасаларида махсус курслар ва тренинглар бўйича инклюзив таълимни ривожлантириш мақсадида олий таълим муассасаларида махсус курслар ва тренинглар ташкил этилади. Бунда талабаларнинг шахсий эҳтиёжлари ва билим олишга бўлган кўникмаларига эътибор берилади. Масалан, камҳаракатли талабалар учун махсус ўқиш методикалари ёки aqlій муаммоларга эга талабалар учун индивидуал дарслар ташкил қилиш.

Онлайн таълим платформалари ва модуллар бўйича инклюзив таълимнинг муҳим компонентларидан бири онлайн таълимнинг имкониятларидан фойдаланишдир. Бу, айниқса, ҳар хил муаммоларга эга талабалар учун муҳимдир, чунки онлайн таълим дастурлари ўз вақтида ва қулайлик билан таълим олишга ёрдам беради. Олий таълим муассасаларида интернет-ресурслар, видеолекциялар ва интерактив платформа орқали инклюзив таълимни жорий этиш ишлари олиб борилмоқда.Қабул қилиш ва танлов жараёнини мослаштириш бўйича инклюзив таълим концепцияси талабаларни қабул қилиш ва танлаш жараёнида ҳам акс этмоқда. Олий таълим муассасалари имкониятлари чекланган талабалар учун махсус қабул шартлари, тестлар ва имтиҳонларни ташкил этишади. Бунинг ортидан талабаларга мос равишда таълим олишга ёрдам берадиган индивидуал дастурлар ишлаб чиқилади.

Талабаларнинг ижтимоий интеграцияси юзасидан инклюзив таълим на фақат академик билимлар беришга, балки ижтимоий ҳаётга интеграция қилишга ҳам қаратилган. Олий таълим муассасаларида имкониятлари чекланган талабаларга ижтимоий тадбирлар, клублар ва кўнгилочар фаолиятлар орқали жамиятга интеграция қилиш имкони яратилади.

Устозлар ва мутахассисларнинг малакасини ошириш бўйича олий таълим муассасаларида инклюзив таълимни самарали амалга ошириш учун педагоглар ва мутахассисларнинг малакаси доимий равишда оширилиб бормоқда. Устозлар учун махсус тренинглар ва семинарлар, ҳамда инклюзив таълимга йўналтирилган курслар ўтказилмоқда. Бу ўқитувчиларга ўқувчиларнинг индивидуал эҳтиёжларини тушуниш ва уларга мослаштирилган таълим бериш имконини беради.

Бугунги кунда Япониянинг Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги JICA томонидан Ўзбекистонда “Мактабгача таълимда инклюзив таълим амалиётини кучайтириш”номли лойиҳаси доирасида Халқ таълими вазирлиги ҳузуридаги Ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтириш ва психологик-педагогик республика ташхис маркази инклюзив таълим лабораторияси бўлими билан умумтаълим мактабларида тажриба-синов тариқасида ташкил этилган инклюзив ва бошланғич таянч коррекцион синфларда фаолият кўрсатаётган бошланғич синф ўқитувчилари, махсус ўқитувчи, психолог, мактаб раҳбарлари учун ўқув семинарлари ва тренинглар ўтказилиб босқичма-босқич уларнинг малакаси ошириб борилмоқда.

Хулоса:

Имконияти чекланган ўқувчи-ёшлар тоифасини аниқлаш, уларнинг индивидуал эҳтиёжларига мослаштирилган таълим дастурларини ишлаб чиқиш ва ёрдам кўрсатиш учун муҳимдир. Бу ўқувчиларнинг имкониятларини кенгайтириш, таълимга бўлган муносабатларини яхшилаш ва уларнинг ижтимоий ҳаётга фаол жалб этилишини таъминлаш учун муҳим қадамдир.

Олий таълим муассасаларида инклюзив таълим бўйича амалга оширилаётган ишлар имкониятлари чекланган талабаларнинг таълим олиш ҳуқуқини таъминлаш, уларга равнақ топиш ва ижтимоий интеграциясини рағбатлантиришга қаратилган. Бунда таълимнинг ҳар бир талабанинг шахсий эҳтиёжларига мослашган шаклда ташкил этилиши муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И.Мадатов. “Инклюзив таълим”. Дарслик. “BEST PUBLISH” нашриёти. 2024. ISBN рақами: 978-9910-9291-5-1. 239 бет.
2. Д.С.Қахарова. “Инклюзив таълим технологияси”. Монография. “Фан ва технология” нашриёти. 2014. ISBN рақами: 978–9943–4269–2–4. Тошкент. 192 бет.
3. Р.Шомаҳмудова. “Махсус ва инклюзив таълим (Халқаро ва миллий тажрибалар)”. Услубий қўлланма. “Чашма Принт”. 2011. ISBN рақами: 978-9943-350-71-7. Тошкент. 214 бет.
4. Р.Шомаҳмудова, А.Бердиева. “Имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимда ўқитиш услублари”. Услубий тавсиянома. “Ishonch markaz servis” нашриёти. 2008. Тошкент. 90 бет.

O‘QUVCHILARDA FOLKLOR NAMUNALARI ORQALI VOKAL-XOR MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Raximberdiyeva Hojiniso Muqimjon qizi-
Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: maqolada o‘zbek xalq folklor qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarda vokal- xor malakalarini shakllantirish texnologiyalari to‘g‘risida ilmiy-pedagogik qarashlar keltirilgan. Unga ko‘ra, xalq folklor qo‘shiqlarini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda avvalo, milliy xalq folklor merosimizga muhabbat, shuningdek, talaffuzda chiqarish qiyin bo‘lgan ba’zi harflarni jaranglatishni moslashtirishga erishish mumkinligi, shuningdek, darslarda ilg‘or pedagogik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samarali jihatlari haqida ilmiy- pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqish yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Vatan, folklor, estetika, tafakkur, milliy musiqa merosi,vokal -xor malakalari,qadriyat, ma’naviy, an’anaviy ijro uslublari, vatanparvarlik, mehnatga muhabbat,odamlarga ishonch, do‘stlarga sadoqat, axloq.

O‘zbek xalqi azaldan urf-odat va an’analari bilan boshqa xalqlardan ajralib turgan.Mustaqillik sharofati bilan qanchadan qancha milliy qadriyatlarimiz tiklandi.Ayniqsa, milliy folklor namunalari kishiga o‘zgacha zavq bag‘ishlaydi. Insonni fikr mulohazaga undabgina qolmay, vatanparvarlik hissini uyg‘onishiga sababchi bo‘ladi. Shu bois, o‘zbek milliy folklor namunalarini asrash, qayta ishlash va barcha hududlarga targ‘ib qilish , ko‘p asrlik tariximizni kelgusi avlodga to‘la -to‘kis yetkizishda asosiy vosita hisoblanadi. Hozirgi kunda o‘quvchi yoshlarga musiqiy ta’lim berishni milliy xalq folklor namunalaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Ta’limning ilk davrlaridan boshlab, bolalarga shunday namunalarni o‘rgatish va ijro ettirish ularning qalbida milliy tariximizga muhabbat va qadriyatlarimiz davomiyligiga sabab bo‘la oladi. O‘quvchi yoshlarga milliy musiqamizni o‘rgatishni o‘ziga maqsad qilgan pedagog xalq foklor namunalaridan unumli foydalana bilishi lozim.

O‘quvchilarda folklor namunalari orqali vokal-xor malakalarini shakllantirishda o‘qituvchidan chuqur bilim va ijodiy qobiliyatni talab qiladi. Ta’limda zamonaviy metodlardan foydalanib dars jarayonini tashkillashtirish dars samaradorligini oshirishga hizmat qiladi. An’anaviy dars tizimidan chetlashib noan’anaviy mashg‘ulotlar tashkil etish pedagogning ilmiy salohiyatini yanada oshiradi. Shunday noa’naviy uslublarga vokal- xor mashg‘ulotlarini folklor qo‘shiqlari hamohangligida tashkil etishni misol qilish mumkin. Xalq va akademik kuylash elementlarini birlashtirish talabalarni yakkaxon kuylashga o‘rgatishda muvaffaqiyatga zamin yaratadi.

Dastavval, bolalar folklori haqida so‘z yuritar ekanmiz, bolalar folklori keng ma’nodagi tushuncha bo‘lib,bunday poetik namunalarda erkalash xususiyati yetakchidir. O‘z navbatida erkalash she’riyatiga mansub namunalarning ijro maqsadi, o‘rni va bola yoshi, saviyasiga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi: Birinchi guruhga mansub qo‘shiqlar bolaning beshikdagi davri bilan

chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ularni beshik qo‘shiqlari deyishadi. Allalar, aytimlar, olqishlar, ana shunday xususiyatlarga ega. Beshik qo‘shiqlari bola uch yoshga to‘lgunga qadar aytiladi.

Qo‘zi boqqan qo‘y etsin,
Topganimga To‘y yetsin.
To‘y-To‘ylarga ulansin,
Davlat boshingga urnashsin.
Alla-yo, alla.

Ikkinchi guruhga oid qo‘shiqlar bola tug‘ilganidan to 10-11 yoshga to‘lguncha ijro etiladigan aslida beshik bilan bog‘lanmagan onalik mehri tarovatidan yuzaga kelgan badihalardir. Bunday folklor namunalariga yana ko‘plab misollar ayta olamiz. Vokal -xor mashg‘ulotlarida bolalalarning yosh va salohiyatiga qarab folklor namunalaridan to‘g‘ri foydalana olish natijasida talaffuzdagi ba’zi nuqsonlardan xalos bo‘lishga ham erishish mumkin. O‘quvchilarda milliy insoniy fazilatlarni - folklor qo‘shiqlari yordami bilan tarkib toptirmoq barobarida o‘qituvchi ikki tomonlama ijobiy natijaga erishadi. Bunda, avvalo, o‘quvchi dars mavzusini o‘zlashtiradi, ikkinchidan, o‘quvchida milliy musiqamiz, boy va betakror xalq qo‘shiqlarimizga muhabbat uyg‘onadi. Vokal - xor mashg‘ulotlarida xalq qo‘shiqlarining naqorat qismidan foydalanish ham ayni maddao. Misol uchun: “Chamanda gul”, “Chittigul” “Chimchilab-chimchilab” kabi qo‘shiqlarni ovoz sozlash mashqlari tarzida foydalanish mumkin. Darslarda xalq qo‘shiqlaridan foydalanish natijasida, bola ongida singib borilishi, shuningdek, talaffuz noqulay bo‘lgan “F”, ”Q”, ”G‘ ”, ”O‘ ”kabi harflarning jaranglashiga asta-sekin moslashib borishiga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, folklor qo‘shiqlari vositasida vokal - xor mashg‘ulotlarini tashkil etib, bir qancha ijobiy natijalarga erishamiz. Eng avvalo, yosh avlodda milliy tariximizga muhabbat, qadriyatlarimizga mehr uyg‘onadi. Qadim o‘tmishimizdan qolgan boy merosni kelgusi avlodga to‘la to‘kis yetkazishga xizmat qiladi. Talaffuzda nuqsoni bor bolalarda sodda , tilga o‘rnashgan erkalamachoqlar vositasida ko‘zlangan ijobiy natijaga erishish mumkindir.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bejizga xalq folklori haqida quyidagi so‘zlarni aytmaganlar: “Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini , zamonaviy til bilan aytsak, Sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida xaromdan hazar, nopokka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo‘lishi kerak”. Demak , mana shu poklikka , yaxshilikka yetaklovchi yo‘lni yo‘lchirog‘i - pedagog, ustozlardir. Har tomonlama ma’naviyatli, komil inson tarbiyalash - eng oliy maqsadimizdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hodi Zarif. O‘zbek sovet folkloristikasi tarixidan // O‘zbek sovet folklori masalalari. Tadqiqotlar. 1-kitob. T.: “Fan”, 1970.

2. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. **Xalqaro ilg‘or fan va texnologiyalar jurnali,29** (08), 3489-34953495. Http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558

YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA MADANIYATINING AHAMIYATI

Murodullayeva Marjona G‘ayrat qizi-
Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirishda san’atning, xususan, musiqa madaniyatining o‘ziga xos imkoniyatlari, bu boradagi dolzarb muammolar va ularning yechimiga doir ilmiy-metodik tavsiyalar atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, unda musiqa madaniyatining ushbu imkoniyatlaridan maqsadli ravishda, samarali foydalanish yuzasidan o‘ziga xos takliflar kiritilgan.

Kalit so‘zlar: mumtoz musiqa, kasbiy musiqa, ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi, musiqa madaniyati, ijodkor.

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Ma’naviyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan musiqiy madaniyatimiz, an’anaviy qo‘shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma’naviy ozuqa sifatida e’tirof etib kelingan. Xalq og‘ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo‘shiq va musiqa unga hamroh bo‘lgan. Zero, bugungi muborak kunlarimizda, o‘zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma’naviyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an’anaviy qo‘shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy musiqa va qo‘shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo‘qotmagan holda kishilar ongini shakllantirish yo‘lida, barkamol avlod tarbiyasida o‘ta muhim vosita sifatida asosiy omillardan bo‘lib qolaveradi.

O‘zbek xalq musiqa madaniyatining taraqqiyoti davomida xalq mumtoz musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrli an’analarimizga bo‘lgan e’tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo‘nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy boyligimizga bo‘lgan e’tibor davlat miqyosiga ko‘tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o‘tgan ajdodlarimiz tomonidan bizlarga meros bo‘lib kelayotgan ulkan ma’naviy boyligimiz asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san’ati milliy musiqa san’atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san’at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an’anaviy ruhdagi qo‘shiqlari o‘lmas meros bo‘lib, barcha davrlardagidek bugun ham barcha tarbiyaviy talablarga «labbay» deb javob bermoqda. Lekin, shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo‘shiqlar yaratish ishi milliy ma’naviyatimizni rivojlantirishda

bosh omillardan bo‘lmish musiqiy san’at bilan shug‘ullanayotgan barcha mutaxassis va san’atkorlarga muhim vazifa qilib qo‘yilishi tabiiydir. Hozirgi davrga kelib, mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o‘zgarishlar paydo bo‘ldi.

Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, ma’naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an’ana va rasm-rusumlar, milliy madaniyat, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash singari juda ko‘p omillarni o‘z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma’naviy jabhalarning barcha yo‘nalishlari o‘zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo‘ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma’naviy hayotda tutgan o‘ziga xos o‘rnini baholash, uning ta’sirchanlik kuchini Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi tomonga yo‘naltirish uning bosh mezoni ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko‘ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri-zikri ana shu tamoyillar yo‘liga yo‘naltirilgan desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

Musiqa madaniyati, musiqa san’ati o‘zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o‘zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o‘zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo‘q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg‘u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o‘zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo‘shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o‘rin tutadi.

Sog‘lom fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan yosh avlod tarbiyasida tarbiya jarayoni qanchalik maqsadga muvofiq, pedagogik jihatdan to‘g‘ri, samarali bo‘lishi uning qay darajada tashkil etilishiga bog‘liq. Yosh avlodni begona, buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan saqlash, ularning hayotga yengil-yelpi munosabatda bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymaslik, ularda ezgu g‘oyalar va fikrlarni shakllantirish, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlay oladigan shaxs xususiyatlarini tarkib toptirish orqali yoshlarning ma’naviy saviyasini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin. Bu maqsadlarga erishishda musiqa tarbiyasi, yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, juda ko‘p tabiiy hamda samarali imkoniyatlarga boydir.

Ijodkor o‘zbek xalqi badiiy so‘zning va musiqiy ohangning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardanoq ishongan. U o‘zining eng noyob asarlarini so‘z va ohang mo‘jizasi bilan bunyod etgan. Musiqa tarbiyasida xalq qo‘shiqlaridan, ulardagi ajdodlarimizning madaniy-ma’rifiy dunyoqarashlaridan tashkil topgan tarbiyaviy vositalardan sog‘lom tafakkurli yoshlarni tarbiyalash yo‘lida ijodiy foydalanish yaxshi samara beradi. Yosh avlod qalbiga milliy madaniyatimiz va ma’naviyatimiz g‘oyalarini bolalaigidanoq singdirib borish uchun o‘zbek xalq folklor qo‘shiqlaridan foydalanish, ayniqsa, bolalar folklorini maqsadli ravishda qo‘llash oldindan kafolatlangan natijalarga erishishni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. T., - 2020.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018 yil, 6-sentyabrdagi Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. T., - 2018.

3. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova. Xalq so‘zi gazetasi. - 2017 yil 8 fevral soni va internet resurs: www.lex.uz.

4. M.Xayrullayev. “Ma’naviyat yulduzlari” - T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 147-169 betlar.

ABU ALI IBN SINONING BADANTARBIYA VA JISMONIY MASHQLAR TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARI

Umarova Shahlo Faxriddinovna-
Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi terapiya fanlari o‘qituvchisi

Har bir xalqning, har bir yurtning qadr-qiymati, uning bashariyat tarixidagi o‘rni va maqomi jahon ilm-fani va madaniyati rivoji, umumbashariy tamaddun va taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan baholanadi. Butun jahonga mashhur bo‘lgan Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Ulug‘bek, Navoiy va boshqa ko‘pgina allomalar jahon ilm-fani rivojiga hissa qo‘shgan siymolardir. Shunday buyuk siymolardan biri Abu Ali inb Sinodir. Buyuk mutafakkir qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning jahon ilm-fani, adabiyoti va san`ati taraqqiyoti tarixida roli beqiyosdir. U G‘arbda Avitsena nomi bilan mashhurdir. Olim matematika, falsafa, tibbiyot, biologiya, pedagogika, psixologiya, mantiq,

fizika, ilmlari bobiga katta salohiyatga ega bo‘lib, ruboiy va g‘azallar ham bitgan olimdir. Uning she`riy xazinasidan o‘z davrida ham, keyinchalik ham, shoirlar bahramand bo‘lishgan.

Ibn Sino tibbiyot va uning mohiyati va vazifalari haqida so‘zlab, avvalo tibbiyotning o‘zi qanday fan degan masalaga to‘xtaladi. U tibbiyotga bunday ta`rif bergan: “Tibbiyot shunday bir ilmki, u bilan inson gavdasining ahvoli sog‘lik va kasallik jihatidan o‘rganilib, uning mavjud sog‘ligini saqlaydi va yo‘qotilganini tiklaydi. Ibn Sinoning bu ta`rifiga juda bir muhim bir fikr bor. U salomatlikni saqlash masalalarini birinchi o‘rinda qo‘ygan. Demak Ibn Sinoning tushunishicha , tibbiyotning asosiy vazifasi , kishilar sog‘ligini saqlashdan iborat. Bu fikrlar yuksak darajada rivojlangan hozirgi zamon tibbiyotining asosiy qoidalariga butunlay mos keladi. Inb Sino o‘zining fikrlari bilan o‘sha zamondagi ko‘pchilik tibbiyot namoyondalarining fikrlaridan ming yil ilgarilab ketgan edi.

Ibn Sinoning fikricha inson tanasidagi jarayonlar (o‘sish, rivojlanish, ovqat hazm qilish, muskullar harakati, fikrlash h.k.)ni boshqaruvchi quvvatlar (ya`ni kuchlar) mavjud. Aslida bu tushunchaga mashhur Rim hakimi Klavdiy Galen asos solgan edi. Galen har bir a`zoning o‘z boshqaruvchi quvvati bo‘ladi, deb hisoblagan. Ibn Sino quvvatlar haqidagi mulohazalarida shu fikrni asos qilib olgan bo‘lsa kerak. Ibn Sino quvvatlarni uch turga bo‘lgan. Bular nafsoniy, tabiiy va hayotiy quvvatlardir. Bu quvvatlarning har biri o‘ziga xos funksiyani bajaradi. Har bir quvvatdan ma`lum bir harakat , (faoliyat) paydo bo‘ladi. Nafsoniy quvvatning manbai miyadir. Nafsoniy quvvat , idrok etish va fahm qilish jarayonlarini bajaradi. Ibn Sino markaziy va periferik asab tizimining funksiyasini to‘g‘ri ko‘rsatib bergan. Lekin, bu faoliyatning reflektor usulda amalga oshirishni bilmay, uni mavhum quvvat (kuch) bilan bo‘g‘lagan. Ibn Sinoning yozishicha , tabiiy quvvat inson shaxsini saqlaydi , va uning oshishini boshqaradi. Bunda u ko‘payish (urchish) ishini ham yo‘lga solib turadi. Umuman tabiiy quvvat inson navini saqlaydi. Shuning uchun tabbiy quvvatning navi saqlash qismi moyakda joylashgan.

Ibn Sino tibbiyotning vazifasi salomatlikni saqlashdan iborat , degan fikrni asarlarida ko‘p marta ta`kidlagan. Masalan , nazm bilan yozilgan “Urjuza fi-t-tib” (Tibbiy urjuza) nomli kitobida bu fikrni qisqa va ixcham qilib, “ Tibbiyot- sog‘liqni saqlash va kasalliklarni tuzatishdan iborat (fan)”, deb yozgan. “Urjuza fi-t-tib” mazmun va hajm jihatdan “Tib qonunlari” dan so‘ng ikkinchi o‘rinda turuvchi katta she`riy asardir.

Ibn Sino “Tib ilmlari qonuni” asarida bola katta bo‘lib, yetilgan chog‘ida quvvatni oshirish uchun jismoniy tarbiyaga ahamiyat berish zarurligini aytadi. Uning uqtirishicha, odamning yigitlik, yetuklik yoshida hamda ulg‘aygan yoshida sog‘lik-salomatligini saqlash uchun zarur bo‘lgan jismoniy mashg‘ulot bilan shug‘ullanishi kerak. Ulug‘ mutafakkir jismoniy tarbiya deb inson salomatligi uchun zarur bo‘lgan badanni turli xil mashg‘ulot harakatlariga o‘rgatishni nazarda tutadi. Uning fikricha, jismoniy mashg‘ulotlar bilan o‘z vaqtida va mustaqil shug‘ullanib boruvchi odam hech qanday davolanishga muhtoj bo‘lmaydi. Jismoniy mashg‘ulot inson ruhini ham tetiklashtiradi. Ammo jismoniy mashg‘ulotlar ortiqcha bo‘lmasligi kerak, aks holda badanning tezda charchab qolishiga olib keladi. Jismoniy mashg‘ulotlarni butunlay tashlab yuborish esa, badanning qarib, tezda ishdan chiqishiga sabab bo‘ladi.

Buyuk mutafakkir, ensiklopedist olim Abu Ali ibn Sino:“Badan tarbiya-sog‘liqni saqlashda ulug‘vor usuldir”, deydiki, bu fikrda: “Kimki qilsa harakat-sog‘lig‘ida bo‘lar barakat”, - degan naqlni eslatadi. Abu Ali ibn Sino “Tibbiy doston” (“Urjuza’) asarida riyozat-badantarbiyasi haqida to‘xtalib, uning bir necha xillari bo‘lishi, bu jismoniy mashqlar bilan o‘rtacha shug‘ullanish sog‘liqqa foydali ekanligini bunday ta’riflaydi:

“Bilsang riyozat turlari necha-necha
Sharofatli bo‘lur esa u o‘rtacha.
To‘g‘ri va mo‘tadil bo‘lib o‘sgay badan
Kir-chir ila chiqindidan qutular tan[1]

Olim yana jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xiltlarning yig‘ilishiga sabab bo‘lishini alohida uqtirib, bunday deb yozadi:

“Riyozatsiz yotishdan ko‘p topma rohat,
Bu rohatdan topolmassan hech manfaat.
Jim yotsang iflos xilt-la to‘lar badan,
G‘izocha hech hozirlanmas biror maskan”

[1]A. Irisov. Abu. Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari-Dushanbe: Irfon. 2008.-23 bet.

Ibn Sino jismoniy tarbiya orqali yaxshi hulq – atvorni tarbiyalanuvchining ichki, shaxsiy sifatlariga aylantirish zarurligini ta'kidlaydi va u birinchilar qatori tarbiyachilar tomonidan hayotiy vaziyatlar yaratilishi masalasining maqsadga muvofiq ekanligi haqidagi fikrni bayon qiladi.

Mutafakkir sog'lom avlod deganda ham jismoniy, ham ma'naviy tomondan yetuk, bardam, har ishga qodir, ilg'or madaniyatli kishilarni ko'zda tutadi. Darhaqiqat, shunday noyob fazilatlarga ega avlodni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan xalq kelajakda ochiq ko'z, yorug' yuz, katta ishonch bilan qaraydi. Ona tabiat ato etgan oliy mohiyatga ko'ra biz-o'zbeklar hayotimizning, umrimizning mazmuni farzandsiz tasavvur etolmaydigan xalqmiz. Dunyoga kelib farzand ko'rish, imorat qurish nihol ekib, bog' yaratish, ota-bobolarimizdan qolgan nasliy an'ana, ezgu tilak va qutlug' insoniy burchdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqimiz tarixining mashaqqatli sinovlari osha o'zining ana shu oliyjanob xislat-fazilatli an'analariga zavol yetkazmay saqlab kelmoqda. Ajdod-avlodlarimiz o'z nasllarini umumbashariy tuyg'ular, o'lmas Sharq falsafasi, ilmiy qadriyatlariimz ruhida tarbiya qilib kelganlar.

Insonning kuch va qobiliyatlari jismoniy, aqliy va ahloqiylikka ajratiladi. Shunga binoan insonning bu kuch-qobiliyatlarining taraqqiysi, yuksalishini ta'min etadigan tarbiya ham uch qismga ajraladi, bular badan tarbiyasi, aql tarbiyasi, ahloq tarbiyasidir.

Badan tarbiyasining maqsadi har tomonlama yetuk, jismonan chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat'iyatli, Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishdan iborat. Abu Ali ibn Sino asarlarida keltirilgan g'oyalar insonni

ulug'laydi.

Ibn Sino birinchi bo'lib tarbiyaning ilmiy-pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi. Jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish tartibiga rioya etish inson sog'lig'ini saqlashda muhim omillardan ekanligini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan asoslab bergan edi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sinoning jahon ilm-fani, adabiyoti va san`ati taraqqiyoti tarixiga o'rni beqiyosdir. U tibbiyot fanlarining rivojlanishida katta hissa qo'shgan alloma bo'libgina qolmasdan, shular qatorida inson kamoga topishida , uni salomatligini saqlash va mustahkamlashda jismoniy mashqlar va badantarbiyaning o'rni beqiyos ekanligini ta`kidlab o'tgan qomusiy olimdir.

GID NUTQNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

Mirsaidov Abdusamad-
Alfraganus Universiteti Filologiya fakulteti
Xorijiy filologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Bizning ajdodlarimiz bundan bir necha ming yillar oldin, yozuv madaniyatiga ega bo'lganlar. Tabarruk zaminimizdan dunyo fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan bir qancha buyuk allomalar yetishib chiqqan. VIII-IX asrlardayoq bizning yurtimizda fanlar akademiyasi "Bay-tul-hikmat" keyinchalik 1010-yilda esa, Ma'mun akademiyasi tashkil topgan. Bu akademiyalarda dunyo olimlarini lol qoldirgan buyuk kashfiyotlar qilingan, al-Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, al-Farg'oniy, Zayniddin Jurjoniy, Abul Xasan Xammor, Abu Nasr Arrog' singari yuzlab olimlar anashu akademiyalarda faoliyat ko'rsatganlar.

Sohibquron Amir Temur davrida fan markazi Xorazm va Buxorodan Samarqandga ko'chdi. Dunyoning zabardast olimu fozillari sohibquron saroyiga to'plandi. Temuriyzoda Mirzo Ulug'bek rasatxonasida favqulotda buyuk kashfiyotlar qilindi. Shu o'rinda Turizm gidlik ham rivojlanib bordi, shaharlar va davlatlar o'rtasida aloqalar o'rnatildi. Bu borada sezilarli ishlar qilindi: misol uchun Temuriylar davrida shaharsozlik va ilm fanga alohida e'tibor qaratildi; Samarqand, Buxoro, Shahrisabz shular jumlasidan. Turizm gidlik aloqalari tarixda ham, hozir ham taraqqiy topishdan to'xtamagan. Bu esa davlatlar o'rtasida aloqalar o'rnatish orqali iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy va do'stlik munosabatlari yuksalgan. Shuningdek, ularni tili, ananalari, urf-odatlari yashash tarziga bo'lgan qiziqish juda yuqori bo'lgan.

Xusayn Boyqaro saroyida ham fan va madaniyat gullab yashnagan. Ana shunday buyuk madaniy zaminiga ega bo'lgan xalq rus imperiyasi davrida o'z tarixidan, boy madaniy merosidan uzilib qoldi. Asrlar davomida foydalanib kelgan yozuvidan krill alifbosiga o'tkazilishi, xalqimizni ajdodlari qoldirgan yozma yodgorliklardan foydalanishdan bebahra qilib qo'ydi. Natijada buyuk bobokalonlarimiz yaratgan madaniy merosdan keng oziqlanish imkoniyatidan mahrum bo'ldik. Olimlarimizga ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosni ommalashtirishga, ro'y-rost baxolashga yo'l qo'ymadilar. Asta-asta fan va madaniyat ruslar orqali kirib keldi, madaniyatni ruslar berdi degan gaplarga, yoppasiga "savodsiz'' xalq sovetlar davrida savodliga aylanishi degan aqidalarga ko'nikib qoldik.

Nihoyat, 1991-yilning 31-avgustida mo‘jiza ro‘y berdi. Ota-bobolarimizning asriy orzu-umidlari ro‘yobga chiqdi. O‘zbek xalqi rus istibdodidan mustaqilikka erishdi. Istiqlol tufayli endi o‘tmish madaniyatimizga, milliy qadryatlarimizga hurmat-etiqod ruhida yondashish, boy madaniy merosimizga holisona baho berish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Shuning uchun ham ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosni o‘rganish, daholarimizning jahon fanida tutgan o‘rnini holisona belgilash bugungi o‘zbek olimlarining eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Bunday vazifa bevosita tilshunoslikka ham daxldordir. Chunki shu kunga qadar muqaddas zaminimizdan yetishib chiqqan tilshunos olimlarning ilmiy merosini yetarlicha baholay olamdik. Tilshunoslikning nazariy masalalari faqat Ovrupo olimlari nomlari bilan bog‘lab kelindi.

Istiqlol tufayligina oliy o‘quv yurtlari dasturlariga “O‘zbek tilshunosligi tarixi’’ kursi kiritildi. Shu kunga qadar “Lingvistik ta’limot tarixi” nomli o‘nlab kitoblar nashr etildi.

Lekin o‘zbek tilida lingvistika tarixiga bagishlangan yuqorida kabi, bironta kitob yaratilmadi.

Afsuski, ota-bobolarimiz qoldirgan yozma yodgorliklarni sinchiklab o‘rgansak, asarlarda tilshunoslikning bir qancha masalalari Ovrupo olimlaridan ancha oldin bayon qilinganligining guvohi bo‘lamiz. Shuning uchun ham, ajdodlarimiz qoldirgan lingvistik merosni o‘rganish va uni jahon tilshunosligi doirasida baholash, o‘zbek tilshunoslarning jahon tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasini aniqlash bugungi o‘zbek tilshunosligi oldidagi eng hayrli ishdir.

Tilshunoslik ilk Xalifalik davrida taraqqiy topdi: Misol uchun, VII asrda arablar Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) ning safdoshi xalifa Abu Bakr yetakchiligida islom bayrog‘i ostida Arabiston yarim orolini, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini bosib olib, 632 yilda yirik arab xalifaligiga asos soldilar. Bu Xalifalik 1258-yilga qadar, yani mo‘g‘ullar tomonidan bitirilgunga qadar hukumronlik qildi.

Xalifalik rang-barang el-elatlardan tashkil topgan juda keng hududni o‘zida birlashtirgan tufayli, uni boshqarish qiyin kechar, o‘zaro ichki feodal kurashlar xalq qo‘zg‘olonlari tez-tez bo‘lib turar edi. Ana shunday kurashlar va xalq qo‘zg‘olonlari tasiri ostida XIII asrning oxirlaridan mayda-mayda qismlarga bo‘linib ketdi: idrisiylar (789-926), ag‘labiylar (800-909) davlatlari vujudga keldi. Eron va Movarounnahrda IX asrning 20-yillaridan boshlab tohiriylar (821-873), safforiylar (867-1495) va somoniylar (819-1005) o‘zlarining mustaqil boshqaruviga ega bo‘ldilar. Ular arab xalifaligiga nomigagina tobe bo‘lib, aslida alohida-alohida mustaqil davlatlar edi. Bu davlatlarni xalifalik tomonidan yuborilgan noiblar boshqarar va xalifalikka xiroj, juzya (jon solig‘i) va o‘lpon to‘lab turilar edi.

Ana shunday katta hududda islom dini keng quloch yoydi. Arab tili din tili, fan tiliga aylandi. Xalifalik hududida yashagan barcha din va fan ahli, qaysi xalqqa mansub bo‘lishidan qatiy nazar, o‘z asarlarini arab tilida yozdilar. Shuning uchun ham, dunyoga arab madaniyati deb shuxrat qozongan madaniyatning shakillanishi va ravnaq topishida arablardan tashqari arab bo‘lmagan xalq vakillarining ham xizmatlari kattadir. Anashular orasida Forobiy Beruniy, Ibn Sino kabi ko‘plab ajdodlarimiz borligidan faxrlanamiz.

Adabiyotlar:

1. “Profesyonel Turist Rehberliği Yönetmeliği“. TUREB. 27 haziran 2013da asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 22 ocak 2012.

2. “Turist Rehberliği Meslek Kanun Tasarısı” kabul edildi“. *Tourism Today*. Qaraldi: 26 eylül 2012.

3. „Доғистонда Ўзбекистоннинг зиёрат туризм салоҳияти тақдимоти ўтказилди — фото“. *Bugun.uz*. 13-avgust 2021-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 2-aprel 2021-yil.

METAFORALARNING LINGVISTIK TADQIQI

OrcID: Qodirova Shaxlo Qobiljon qizi is an intern-teacher in the Department of Foreign Philology at Alfraganus University; shaxlo.qodirova@list.ru. OrcID: 0009-0005-3426-5036

Annotatsiya. *Ushbu maqolada metaforalarning lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan asosiy jihatlar va ilmiy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Metaforalar inson tafakkurini va til orqali ifodalanadigan tushunchalarni shakllantirish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Lingvistik, kognitiv va sotsiokulturologik yondashuvlar orqali metaforalar tasnifi, ularning jamiyat va madaniyatdagi o‘rni hamda fikrlash jarayoniga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, metaforalar madaniyatga xos ko‘rinishlari va ijtimoiy muloqotdagi roliga urg‘u berilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются основные аспекты и научные подходы к лингвистическому исследованию метафоры. Метафоры анализируются как средство формирования*

человеческого мышления и понятий, выражаемых посредством языка. Классификация метафор, их место в обществе и культуре, влияние на процесс мышления изучаются с помощью лингвистического, когнитивного и социокультурного подходов. Акцент также делается на культурных аспектах метафор и их роли в социальной коммуникации.
Kalit so‘zlar: *Metafora,Lingvistik tadqiq, Kognitiv metafora nazariyasi, Madaniy metaforalar, Til va tafakkur.*
Ключевые слова: *Метафора, Лингвистические исследования, Теория когнитивных метафор, Культурные метафоры, Язык и мышление.*

Kirish

Metaforalar inson tilida chuqur ildiz otgan tushunchalardan biri bo‘lib, u nafaqat badiiy adabiyotda, balki kundalik muloqotda ham keng qo‘llaniladi. Metaforalar yordamida biz murakkab, abstrakt g‘oyalarni yanada aniqroq va osonroq tushunishga erishamiz. Shu bilan birga, metaforalar orqali tilning ijodiy imkoniyatlarini o‘rganish, nutqni yanada obrazli qilish mumkin. Ushbu maqola metaforalarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilishning asosiy jihatlari va usullariga bag‘ishlanadi. Metaforalarni lingvistika nuqtayi nazaridan o‘rganish ularni turli toifalarga ajratish orqali amalga oshiriladi. Lingvistik tadqiqotlarda asosiy e’tibor quyidagi metafora turlariga qaratiladi. Lingvistik metaforalar -so‘z va iboralar vositasida hosil bo‘lgan, til orqali ifodalanadigan obrazli tushunchalar hisoblanadi. Lingvistik metaforalar nutqda ko‘chma ma’nolar orqali qo‘llanilib, murakkab va abstrakt g‘oyalarni obrazli qilishda xizmat qiladi. Kognitiv metaforalar- kognitiv nazariya tarafdorlari metaforalarni inson tafakkurining ifoda usuli deb hisoblaydilar. Masalan, “vaqt — bu pul” degan ibora, vaqtni qimmatbaho narsa sifatida qabul qilishimizni anglatadi. An’anaviy metaforalar- ko‘p yillar davomida til va madaniyatga singib ketgan va kundalik hayotda keng qo‘llanadigan ifodalardir. Masalan, “hayot yo‘li” yoki “og‘ir yuk” kabi iboralar.

Metaforalarni lingvistik tadqiq qilishning bir nechta asosiy usullari mavjud. Tilshunoslik analizi-bu usul orqali tilshunoslar matnlarda metaforik ifodalarning qanday paydo bo‘lishini va ularning sintaktik tuzilishini o‘rganadilar. Metaforalarni lingvistik tahlil qilish jarayonida ular qanday grammatik shaklda qo‘llanilishini, qanday leksik birliklar yordamida amalga oshirilishini aniqlashga e’tibor beriladi. Korpussiy tadqiqotlar-bu usul katta hajmdagi matnlarda metaforalarni avtomatlashtirilgan dasturlar yordamida tahlil qilish imkonini beradi. Korpussiy tadqiqotlar orqali aniq bir metaforaning qo‘llanilish chastotasi va konteksti aniqlanadi. Kognitiv tadqiqotlar- Bu usulda inson ongi va metaforalar o‘rtasidagi aloqalar o‘rganiladi. Kognitiv tilshunoslik sohasida metaforalar insonning dunyoqarashini va qanday fikrlashini aks ettiruvchi vosita sifatida qaraladi. Kognitiv yondashuv, asosan, Leykoff va Jonsonning kognitiv metafora nazariyasiga asoslanadi. Kognitiv metafora nazariyasi 1980-yilda Jorj Leykoff va Mark Jonson tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra, metaforalar inson tafakkurining markaziy elementi hisoblanadi. Leykoff va Jonson metaforalarni nafaqat til birligi, balki inson ongidagi kontseptual tizimning bir qismi deb ta’riflaydilar. Masalan, “hayot yo‘li” iborasi hayotni bir yo‘l sifatida tasavvur qilishimizni anglatadi. Ushbu nazariya orqali biz murakkab tushunchalarni oddiyroq va aniqroq tarzda tushuntirishimiz mumkin. Metaforalar inson tafakkurini va madaniyatini o‘zida aks ettiradi. Har bir jamiyatda o‘ziga xos metaforalar mavjud bo‘lib, ular o‘sha madaniyatning qadriyatlari, dunyoqarashlari va an’analarini ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilida “non ko‘rmagan odam” iborasi biror narsaga qadr bilmaslikni ifodalasa, ingliz tilida “apple of my eye” iborasi yaqin insonni ifodalashda ishlatiladi. Bunday metaforalar jamiyatda ildiz otgan tushunchalar orqali o‘sha madaniyatning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Lingvistik va kognitiv metaforalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Lingvistik metaforalar til orqali ifodalanadigan obrazli ifodalar bo‘lsa, kognitiv metaforalar inson ongida shakllanadigan tushunchalardir. Masalan, “vaqtni yo‘qotish” iborasi lingvistik jihatdan vaqtni qandaydir resurs sifatida ifodalaydi, kognitiv nuqtayi nazardan esa bu vaqtni qadrli narsa deb tushunishimizni anglatadi. Metaforalar har xil sohalarda qo‘llaniladi va turli xil ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy sohada bozorni ushlab turish, bozorni to‘ldirish kabi iboralar iqtisodiy jarayonlarni ifodalashda qo‘llaniladi. Ta’lim sohasida ilm dengizi kabi iboralar o‘quv jarayonini tasvirlash uchun ishlatiladi. Texnologiyada bulutli saqlash kabi iboralar texnologik jarayonlarni tushuntirish uchun qo‘llaniladi.

Xulosa

Metaforalarni lingvistik tadqiq qilish til va tafakkur o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni ochib beradi. Metaforalar insonning fikrlash tizimi, madaniyati va jamiyatdagi roli haqida ko‘plab ma’lumotlar beradi. Lingvistik va kognitiv tadqiqotlar orqali biz metaforalar yordamida inson tafakkurining keng qirralarini o‘rganishimiz mumkin. Bu esa tilshunoslar, psixologlar va madaniyatshunoslar uchun yangi yondashuvlar va tushunchalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Metaforalarni lingvistik tadqiq qilish nafaqat tilshunoslik, balki kognitiv fanlar, psixologiya va sotsiologiya uchun ham muhim ahamiyatga ega. Metaforalar yordamida biz abstrakt tushunchalarni aniqlash, murakkab g‘oyalarni oddiylashtirish va yangi ma’nolar yaratish

imkoniga ega bo‘lamiz. Ular inson tafakkurining ijodiy imkoniyatlarini o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi. Lingvistik va kognitiv yondashuvlar metaforalar orqali tilning qanday ishlashini, inson ongida tushunchalar qanday shakllanishini va madaniyat bilan o‘zaro qanday aloqada ekanligini ko‘rsatadi.Metaforalar tilning doimiy rivojlanishiga xizmat qilib, turli jamiyatlar va madaniyatlar o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ularning tahlili orqali insonning dunyoqarashi, qadriyatlari va kundalik hayotida qanchalik keng qo‘llanilishini chuqurroq anglash mumkin. Shunday qilib, metaforalar orqali til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganish kelajakda tilshunoslik va kognitiv fanlarda yangi tadqiqot yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fauconnier, G., Turner, M. The Way We Think: Conceptual
Blending and the Mind’s Hidden Complexities. Basic Books(2002).
2. Gibbs, R. W The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. Cambridge University Press. (1994).
3. Kövecses, Z. Metaphor: A Practical Introduction. Oxford University Press. (2010).
4. Lakoff, G. The Neural Theory of Metaphor. (2008).

ИЗУЧЕНИЕ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.С.ПУШКИНА

Саидкулова К.Д.,
студентка 4-го курса
Научный руководитель – старший преподаватель
Жамединова В.К., негосударственное образовательное учреждение
Alfraganus University г.Ташкент

Аннотация. В данной статье представлены задания по изучению пословиц и поговорок в творчестве А.С. Пушкина, целью которых было выявление особенностей понимания учащимися малых фольклорных жанров.

Ключевые слова: пословицы и поговорки, развитие речи, упражнения и задания, сказки А.С.Пушкина.

Пословицы и поговорки – исключительно благоприятный материал для чтения, этических бесед, а также для грамматического разбора, диктантов и других упражнений. Они служат образцом краткости и глубины мысли, их синтаксическая структура ясная, отчетливая, обычно симметричная, а лексика разнообразна и образна.

Пословица – это краткое, поэтически образное, ритмически организованное произведение народного творчества, используемое для яркой и углубленной характеристики разных сторон жизни и деятельности человека, а также явлений окружающего мира [1, с. 255].

Поговорки тесно связаны с пословицами. Они примыкают к малым жанрам фольклора и в большинстве случаев еще более кратки. Поговорка является кратким образным изречением или сравнением, для которого характерна незавершенность умозаключения: это отбор речи, выражение, лишь намекающее на вывод.

Отношение литературы к пословицам и поговоркам в различные эпохи было неоднозначным. Их многообразие и экспрессивность, их лаконизм и простота издавна привлекали к себе русских писателей.

Изучение пословиц и поговорок на примере художественных произведений А.С. Пушкина помогает глубже окунуться в народную мудрость, понять значение отдельных пословиц и поговорок, проникнуть в идейно – смысловое содержание творчества писателя.

Особенно пестрят пословицами и поговорками сказки Александра Сергеевича Пушкина: «Сказка о рыбаке и рыбке» (*не садися не в свои сани; жадность всякому горю печаль)*, «Сказка о мертвой царевне и семи богатырях» (*аль товар не по купцам?),* «Сказка о царе Салтане о его славном и могучем богатыре князе Гвидоне Салтановиче и о прекрасной царевне Лебеди» (*жить в совете и любви, пир горой, времени не тратя даром, то на весь крещеный мир приготовила б я пир*), «Жених» (*у вас товар, у нас купец; собою парень молодец; и пир горой*), «Сказка о попе и его работнике Балде» (*это было б лишь времени трата; не гонялся бы ты, поп, за дешевизной*).

Целесообразно на уроках литературного чтения использовать следующие типы заданий:

1. На разграничение смысла пословиц.

- Найди в «Сказке о царе Салтане» пословицу и объясни, как ее понимаешь.

- К кому из героев «Сказки о рыбаке и рыбке» А.С. Пушкина можно отнести пословицы: *не садися не в свои сани; дурачина ты простофиля; что ты, баба, белены объелась?*

2. Задания, направленные на осознание смысла пословицы и соотнесение ее с содержанием текста.

- К тексту «Сказка о золотом петушке» даны пословицы*: не ищи красоты, а ищи доброты; красна ягодка, да на вкус горька; имей шубу теплее, а жену выбирай добрее*; *собой красава, да душа трухлява*; *снаружи красота – внутри пустота* и предлагается ответить на вопрос: какие черты характера

Шамаханской царицы упоминаются в данных пословицах?

3. Задания на соотнесение текста произведения со смыслом пословицы.

- Выбери пословицы, которые подходят к «Сказке о золотом петушке»: *Дело мастера боится*; *долг платежом красе*н; *все в руках горит; не рой другому яму – сам в нее попадешь; не все то золото, что блестит.*

- Соотнеси сказку и пословицу, выражающую ее основную мысль:

«Сказка о золотом петушке»	*Лишнего пожелаешь-последнее потеряешь*
«Сказка о рыбаке и рыбке»	*Завистливый по чужому счастью сохнет*
«Сказка о попе и его работнике попе»	*Хорошо дешево не бывает*
«Сказка о царе Салтане……»	*Не давши слово – крепись, а давши слово – держись.*
«Сказка о мертвой царевне и о Семи богатырях»	*В ком правды нет, в том добра мало.*

Типы заданий при работе с пословицами и поговорками на уроках русского языка:

1. При изучении фонетического материала.

- Спиши пословицу из сказки А.С. Пушкина «Золотой петушок», разделяя слова на слоги. Поставь точку под буквами гласных звуков: *сытый бранится при виде котелка.*

2. При изучении грамматических тем.

- Прочитай пословицы из сказок А.С. Пушкина, измени падеж существительных, которые даны в скобках: *в (корыто) много ль корысти; попляши-ка ты под нашу (балалайка); завистливый по (чужое) счастью сохнет; что за прелесть эти (сказка).*

Образец: человеку (Д.п., 1-е скл.) по работе воздается честь.

3. Работа по развитию речи учащихся.

а) Составление рассказа по пословице.

- Прочитай пословицы*: не садися не в свои сани; дурачина ты простофиля; лишнего пожелаешь – последнее потеряешь; хорошо дешево не бывает.*

Составь рассказ, заголовком которого будет одна из этих пословиц.

б) Соотнесение пословицы и текста.

-Прочитай пословицы.

Добро побеждает зло; много хочешь – последнее потеряешь; тише едешь – дальше будешь; не знаешь, где найдешь, где потеряешь.

Какая из них больше подходит по смыслу к ситуации:

Стал он кликать золотую рыбку.
Приплыла к нему рыбка, спросила: "Чего тебе надобно, старче?"
Ей старик с поклоном отвечает: "Смилуйся, государыня рыбка!
Что мне делать с проклятою бабой? Уж не хочет быть она царицей,
Хочет быть владычицей морскою: Чтобы жить ей в окияне-море,
Чтобы ты сама ей служила. И была бы у ней на посылках".
Ничего не сказала рыбка. Лишь хвостом по воде плеснула.
И ушла в глубокое море.

Долго у моря ждал он ответа,
Не дождался, к старухе воротился.
Глядь: опять перед ним землянка;
На пороге сидит его старуха,
А пред нею разбитое корыто?

Систематическая и планомерная работа по изучению пословиц и поговорок в творчестве А.С. Пушкина позволит учащимся глубже понять смысл произведений писателя, кроме того, устойчивые выражения станут не только доступны их пониманию и осознанию, но и войдут в речь учащихся.

ЛИТЕРАТУРА

1. Коровина В.Я. Изучение сказок Пушкина в школе/ В.Я. Коровина. – М.,1999. – С.200-255.
2. Филиппенко З.И., Нефедова, Л.К. Методика работы над языком «Сказки о рыбаке и рыбке» А.С. Пушкина: Из опыта // Начальная школа. – 1992. - №3. - С.25-30.

MUSIQADA MILLIY QADRIYATLARNING IFODALANISHI

Mustafoyeva Muxayyo Elmurod qizi -
Navoiy davlat pedagogika instituti
1-bosqich Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi Magistranti
Ilmiy rahbar: NavDPI, professor.s.f.n. **Saidiy Said Boltazoda**

Jahon san'atshunosligida qadriyatlarning jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'siri, ijtimoiy ahamiyatini inobatga olib, musiqa ta'limi jarayonlarini umum-madaniy va milliy milliy qadriyatlar yondashuvlar asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ilg'or oliy ta'lim muassasalarida o'qitish samaradorligini oshirishda ajdodlarning musiqa merosini, ular orqali siyosiy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy, badiiy-diniy, huquqiy hamda estetik qarashlari ifodasidan keng foydalanish tendensiyalari kuzatilaidi. Musiqada milliy qadriyatlarning ifodalanishi ko'p qirrali hodisa bo'lib, u madaniy-tarixiy, mafkuraviy elementlarning musiqiy asarlarga integratsiyalashuvini o'z ichiga oladi. Bu jarayon nafaqat millatning o'ziga xosligi va merosini aks ettiradi, balki siyosiy va ijtimoiy ifoda vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bunda xalq og'zaki ijodi, mifologiya va an'anaviy musiqa unsurlaridan foydalanish, o'ziga xos milliy uslub yaratish kiradi.Milliy qadriyatlarimiz o'zining yuksak tarixga ega bo'lishiga qaramay musiqa ta'limi orqali milliy qadriyatlarni o'rgatish va targ'ib qilishning asosiy muammolaridan biri an'anaviy va zamonaviy shakllar o'rtasidagi ziddiyatdir. Mamlakatimizda musiqa o'qituvchilari asosan zamonaviy musiqalarni dars jarayonida o'rgatishadi. Milliy laparlar folklor qo'shiqlar, mavsumga xos kuylar, xalq uslublari, laxchalar,ming yillik tarix ega bo'lgan "Shashmaqom" lar faqatgina umumxalq bayramlarda yodga olinadi

Milliy hududiga mansub musiqa merosi, musiqa namoyondalarining faoliyati va undagi ijodiy muhitga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganish bo'yicha ham qator tadqiqotlar yaratilgan. Xususan, «Shashmaqom», «Buxorcha», «Mavrigi» kabi folklor qo'shiqlari haqida ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, jahonning taniqli san'atshunoslaridan Yuzef Elsner, Artur Yung va Toni Levinlarning tadqiqotlarida "Shashmaqom"ning lad va boshqa nazariy masalalari tavsif etilgan. O'zbek musiqashunos olimlari Ishoq Rajabiy, Fayzulla Karomatov, To'xtasin G'ofurbekov, Otanazar Matyoqubov, Oqilxon Ibrohimov, Ravshan Yunusov va boshqalar «Shashmaqom»ning yaratilish tarixi, uning tuzilishi, ijrochilik uslublari haqida asosli fikrlar bildirilgan. F.To'raevning milliylik, xonanda, sozanda, bastakor va musiqashunoslar hayoti va ijodiga bag'ishlangan kitobida milliy madaniyatimiz tarixida musiqa san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan san'at namoyandalari bilan bir qatorda hozirgi davrda ham elga manzur bo'lgan san'at asarlari yaratgan va yaratayotgan musiqashunos olimlar, xonanda va sozandalar haqida ham qimmatli ma'lumot va kuzatishlar mavjud. Shuningdek, O.Safarov, O.Atoev, F.To'raevlarning «Buxorcha» va «Mavrigi taronalari» kitobida Milliy ashula va raqs turkumlarining paydo bo'lishi tarixi, ularning o'ziga xos poetik xususiyatlari tadqiq etilgan. Biroq yuqorida tilga olingan tadqiqot-larda Millatning boy musiqiy merosi milliy qadriyatlar yondashuv asosida maxsus tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Shu ma'noda ushbu dissertatsiya mazkur mavzu bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar ko'lamini yangi qarashlar bilan boyitadi.

Sharqning ko'pgina xalqlari kabi o'zbeklar o'tmish avlodning musiqa san'atida professionalizm eramizning birinchi asrlaridek vujudga keldi va asrlar davomida rivojlanib borib, ijrochilik madaniyatida ham vokal va cholg'u musiqa janrlarida ham yuksak badiiy natijalarga erishdi. Ammo professional musiqachilar bizning asrimizgacha ya'ni XX asrgacha amalda nota yozuvini qo'llashmadi. Milliy ta'lim va tarbiya o'z mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, axloqiy va umuminsoniy fazilatlarni

mujassam etishi bilan jamiyat rivojida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda milliy ta’lim va tarbiya oldidagi eng muhim vazifalardan biri ham o‘quvchi-yoshlarda milliy ong va milliy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa, birinchi navbatda ta’lim va tarbiya ishlarida milliy-ma’naviy qadriyatlardan unumli, oqilona va o‘z o‘rnida foydalanishni taqozo etadi. O‘zbek xalqi milliy qadriyatlari tizimida xalq musiqa ijodiyoti xalq hayotini barcha tomonlarini aks ettirish qamrovi va ko‘lami bilan o‘tmishning “jonli ensiklopediyasi” hisoblanadi. Unda xalqimiz hayotining turli davrlaridagi tarixiybadiiy ko‘rinishlari bilan birga xalq pedagogikasining eng ilg‘or, oliyjanob g‘oyalari umumlashganligi bois, yoshlarning badiiy-estetik va axloqiy, ma’naviy tarbiyasida foydlanish ta’lim sohasiga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtmani bajarishda qo‘l keladi. Ta’lim tizimida xalq musiqa ijodiyotini o‘rganishda nimalarga e’tibor berish, qanday tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqiy izlanishlar quyidagi pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish ijobiy natijalarga erishish imkonini berishni ko‘rsatdi:

1. a) Xalq musiqa ijodiga mansub asarlarni har bir sinfning musiqiy mavzulari

(yil, chorak,semestr) ga va dastur talablariga mosligi;

b) Asarlarning o‘quvchilarni musiqiy qiziqishi, qobiliyati va ijrochilik imkoniyatlariga to‘g‘ri kelishi;

v) Tanlangan asarlarni o‘quvchilarning musiqiy dunyoqarashi va tafakkurini milliy madaniyatini shakllantirish nuqtai nazaridan tarbiyaviy ta’sirchanlikka ega bo‘lishi;

g) O‘quvchilarda o‘qishga, mehnatga, ijodiy izlanish, ijtimoiy foydali ishlarga rag‘bat uyg‘otishi;

d) Xalq musiqa ijodiyoti namunalarining, hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan umumhalq bayramlari, madaniy-ma’rifiy va ommaviy tadbirlar mavzulariga mosligi;

s) Asarlarni o‘rganish ta’limning boshqa tarkibiy qismlarini (musiqa savodi, musiqa adabiyoti, musiqa ijodkorligi) o‘zlashtirish uchun ahamiyatliligi yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga egaligi;

2. Xalq musiqa ijodiyoti namunalaridan ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda sinfda o‘rganilgan mavzularni mustahkamlash nuqtai-nazaridan yondashish. Bu pedagogik talab musiqa darslarining asosiy faoliyat turlari mazmuni va mohiyatiga muvofiq holda ish yuritishni nazarda tutadi. Ya’ni, erkin tanlov asosida o‘rganilgan asar ayni vaqtdagi asosiy maqsad va hal etilayotgan vazifalarga ijodiy yondashish xarakterida bo‘lishi lozim.

3. Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qituvchisi dars va darsdan tashqari faoliyatda o‘quvchilarni xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishtirib borishga nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan doimiy ravishda tayyorgarlik ko‘rib, o‘z bilim va malakalarini oshirib borishi lozim.

Xulosa Musiqa ta’limida milliy qadriyatlarni ifodalashga, madaniy-tarixiy va mafkuraviy unsurlarni asarlarga singdirishga asosiy e’tibor qaratilishi kerak. Bu jarayon millatning o‘ziga xosligi va merosini aks ettiradi, siyosiy va ijtimoiy ifoda vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, asosiy muammo – an’anaviy va zamonaviy shakllar o‘rtasidagi ziddiyat, milliy bayramlarda an’anaviy xalq qo‘shiqlari va uslublari ko‘pincha ijro etiladi. Ilg‘or oliy ta’lim muassasalari ushbu elementlarni musiqa ta’lim jarayonlariga kiritishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Pages 224-240 | Received 20 Jul 2012, Accepted 13 Feb 2013, Published online: 02 May 2013

2.Brandellero, A., & Janssen, S. (2013a). Popular music as cultural heritage: scoping out the field of practice. *International Journal of Heritage Studies*, *20*(3), 224–240. https://doi.org/10.1080/13527258.2013.779294

3.Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.

4.Talaboyev, A. N. (2019). Uzbek milliy an’anaviy ijrochilik san’atida mahalliy uslublar. Perekryostok kulturы, 1(4).

5. Hyrullayev F.G. Musina ta’limida Buxoro folklor kushiklarini urgatish jarayonini loyix,alash. Buxoro musika folklorining tarixiy-nazariy va amaliy masalalari. Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. 2020 yil, 6 noyabr. Buxoro, 2020- B. 107-111.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR XULQ-ATVORIGA TA’SIR ETUVCHI MILLIY AN’ANA VA TARBIYA VOSITALARI XUSUSIDAGI QARASHLARI

Xolmuratova Gavhar Karim qizi-
Chirchiq davlar pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar haqidagi qarashlari bayon etilgan. Sharqona ta’lim-tarbiya asnosida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik rivojlanishi xususida Sharqning buyuk allomalari fikrlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Sharq mutafakkirlari, bola tarbiyasi, oilaviy tarbiya, shaxsning aqliy va axloqiy shakllanishi

KIRISH. Inson ruhiyatining etnik xususiyatlari unda ijtimoiy ta’lim-tarbiya va muloqot ta’siri muammosi qadimdan jamiyatning eng ilg`or kishilari: olimlar, donishmandlar e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. Jumladan, Sharqning buyuk allomalari Abu Nosir Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Muhammad Rizo Ogahiy, Muqumiy, Abdulla Avloniy kabi olim va fozillar bu masalalar yuzasidan o‘zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirganlar. Bu fikrning hozirgi zamon fani uchun muhim ijtimoiy mafkuraviy ahamiyatga ega ekanligini inkor etib bo‘lmaydi.

Sharq mutafakkirlari bola tarbiyasida va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning salohiyatini asosiy deb hisoblashgan. Ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy shakllanishida oila, ota-ona va yaqin kishilarning ibratli tomonlariga alohida e’tibor berishgan. Ular oiladagi urf-odatlar ta’sirida shakllanishi mumkin bo‘lgan sifatlar: halollik, poklik, mardlik, kelishuvchanlik, uyatchanlik, sermulohazalilik, mehribonlik, haqgo‘ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo‘yganlar. Insoniy munosabatlarda namoyon bo‘ladigan yuksak fazilatlar, eng avvalo, ota-onadan bolaga o‘tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko‘rsatmalar Sharq mutafakkirlarining falsafiy-yetuk, ijtimoiy qarashlarida o‘z aksini topgan.

ASOSIY QISM. Ma’lumki, Islom dinining muqaddas manbalaridan bo‘lmish Qur`oni Karim va Hadislarda ham odob, axloq, bolalar tarbiyasi masalalariga keng o‘rin berilgan.

«Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz».

«Hech bir ota-ona o‘z farzandiga xulqi odobdan buyukroq meros bera olmaydi».

Bu keltirilgan namunalardan diniy manbalarda ham oilaning muqaddas ekanligi, ota-onaning farzand oldidagi, farzandning ota-ona oldidagi burchlari bayon etilgan. Musulmonchilik ruhida tarbiya topgan ota-bobolarimiz turmushda ularga amal qilingan. Bola tarbiyasida sharoit ko‘rsatmalarining aks etishi, ularning xarakterida ijobiy sifatlarini tarkib topishiga ta`sir ko‘rsatib, boshqa xalqlarga nisbatan musulmon ahli o‘rtasida turli tartibsizliklar, jumladan, o‘g`rilik, ta`magarlik, shaxs haqqiga xiyonat qilish kabi salbiy xattiharakatlarning kam bo‘lishi fikrimiz dalilidir.

Qomusiy olim Abu Nosir Farobiyning inson kamoloti, baxti, ta`limtarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi fikrlari umumfalsafiy, psixologik qarashlar va tushunchalardan tuzilgan o‘git-nasihat bo‘lib, axloqiy tarbiya nazariyasini boyitadi. Olim har bir ota-onaning o‘z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo‘l ko‘rsatuvchi sub`yekt ekanligi va aynan ular bolada ta`lim-tarbiyaga psixologik tayyorgarlik holatini shakllantirish to‘g`risida xulosalar chiqaradi [1].

Farobiy «insonlar tarbiyasi, ularning xohish-istaklari, qarashlari faqat Olloh tomonidan beriladi» degan mutafakkirlar fikrlariga qarshi o‘z fikrini «Iso-al-Ulum» kitobining oxirgi bo‘limida quyidagicha bayon etadi: «Inson aqli faqat bilish bilan cheklanmaydi, balki odatlar va qarashlarni o‘zining maqsadlariga bo‘ysundira olishi va yo‘naltirishi, o‘zgartirishi ham mumkin», deb yozadi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning «Minerologiya», «Geodeziya», «Munajjimlik san’atidan boshlang`ich tushunchalar», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» kabi asarlarida pedagogika va psixologiya masalalariga oid g`oyatda qimmatli fikr-mulohazalar mavjuddir [2]. U inson shaxsi, uning kamoloti fe`l-atvori, aql-idroki, sabr-toqat va kamtarlik, go‘zallik va did, poklik va jo‘shqinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta`rif bergan. U shunday yozadi: «Inson jamiyatda o‘z qarindosh-urug`lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo‘llab-quvvatlash hamda har bir kishining o‘zini, ham boshqalarni ta`minlash uchun ishlarni bajarishdir».

Olim bu bilan qarindosh-urug`chilik an’analarini mustahkamlash kelajak avlodlarning jipslashuvi, bir-birlariga hamdard va hamnafas bo‘lishlik, tinchtotuv yashashlik, og`ir kunlarda yordam berishga, quvonchli

kunlariga sherik bo‘lish g`oyalarini ilgari suradi. «Inson o‘z ehtiroslariga xukmron, ularni o‘zgartirishga qodir. U o‘z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagudek narsalarga aylantirishga, uni hulq atvor shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodir».

Beruniy inson ruhiyatini chuqur bilganligi, tufayli u shaxs irodasining kuchi bilan bilan har qanday qiyinchiliklarni enga olish o‘z xarakteridagi kamchiliklarni pand-nasihatlar va axloq haqidagi kitoblarda berilgan usullar bilan o‘zgartirish kuchiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Alloma psixologik ta`limotining muhim tomonlaridan biri shundaki, u oliyjanoblik inson xarakteridagi shunchaki psixologik xususiyat emasligiga, mazkur kechinma shaxsning xatti-harakatlari va ezgu ishlari natijasida vujudga kelishiga qattiq ishonadi. «Hindiston» asarining so‘ngi boblarida XI asr hind xalqining tushunchalariga, dunyoqarashlariga to‘xtalar ekan, o‘sha davrdagi hindlarning diniy marosimlari, rasm-rusumlari va odatlari o‘zaro nikoh, ro‘za, xayitlar, ulug` ayyomlar haqida to‘xtaladi.

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida esa Islom dini ahli musulmonlarning nishonlaydigan mashhur kunlari, xayit va boshqa bayramlari ustida so‘z yuritib, ularning kishi ruhiyatiga ta`siri haqida qimmatli fikrlar bildirgan[3].

Beruniy o‘z asarlarida har qanday jumboqni hal etishda ilm-fanning rolini ifodalashga alohida e`tibor bergan. Uning ilm-fan to‘g`risidagi fikr-mulohazalari, jumladan, axloqqa oid pedagogik va psixologik qarashlari hozirda ham muhim ahamiyatga ega.

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan Sharq mutafakkirlaridan bir Abu Ali ibn Sinodir. Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo‘lib, u bola xarakteri va tasavvurlari tarbiyasida umuminsoniy g`oyalar qo‘llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi, ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma`qulligini ko‘rsatgan. Mutafakkirning «Donishnoma», «Risolai ishq», «Uy xo‘jaligi», «Tib qonunlari» kabi qator asarlari O‘rta Osiyo xalqlari odob-axloqi psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutgan yirik tadqiqotlardan hisolanadi.

Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida bola xarakteri tarbiyasi haqida shunday yozadi: «Bolani qattiq g`azablanishdan, qattiq qo‘rquv, g`am va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladigan yaxshi fe`lli xarakterini shakllantirishga alohida e`tibor berish kerak. Har doim bolaning xohlagan narsasini darhol berishga va yomon ko‘rgan narsasini uzoqroq tutishga tayyor turish kerak. Bu bilan ikki tomonlama naf keladi. Birinchisi bolaning ruhi uchun foydali bo‘lib, bola yoshligidanoq xushfe`l bo‘lib o‘sadi va bu sifat keyinchalik uning doimiy odatiga aylanib qoladi. Ikkinchisi badan uchundir, chunki badfe`llik yaramas mijozdan kelib chiqadi, ya`ni badfe`llik odatga aylanib qolsa, shunga mos yaramas mijozni paydo qiladi. Masalan: g`azab badanni qattiq qizdiradi, g`am qattiq quritadi, qarshilik ruhiy quvvatni so‘ndiradi va mijozni shilimshiqlikka moyil qiladi. Xulqni bosib, vazmin qilish natijasida bir vaqtning o‘zida ruh va badan salomatligiga erishiladi».

Mutafakkirning mehnatsevarlik hissi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovvordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tadbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta`minlaydigan bo‘lsagina, otasi uni uylantirib qo‘ymog`i lozim, deb hisoblaydi. O‘spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, bilan xarakterning irodaviy hislari ham tarkib topib, mustahkamlana boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘spirinlarda sabr-bardoshlilik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi sifatlar vujudga keladi.

Ibn Sino har bir insonning temperamentidan kelib chiqib unga alohida e`tibor berish kerakligini ta`kidlashi orqali juda katta amaliy ish qilganligini ko‘rish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo‘lgan xususiyatlargagina egadi, unga o‘xshagan odam kamdan-kam bo‘ladi.

Hozirgi davrda ham olimning falsafiy qarashlari, ijtimoiy hayotimizda o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Allomaning inson tarbiyasi va temperamenti xususidagi fikrlari katta ahamiyatga ega bo‘lib, insoniy munosabatlar etikasiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan. Uning falsafiy, mantiq, psixologiya, siyosiy-ijtimoiy fanlar bo‘yicha bizga meros bo‘lib qolgan qator asarlari ilm ahli uchun dasturul amal bo‘la oladi.

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg`u bilig» asarida etika va hayotga oid qarashlarini bayon qiladi. Yusuf Xos Hojib Sharq xalqlarining turmush tarzi, urf-odat va an’analarini yaxshi bilgan. Shu sababli u bu xalqlarning turmushidagi urf-odatlar, odob-axloq me`yoriga katta qiziqish bilan qaraydi, kattalarni hurmat qilish kichiklarning burchi ekanligini, o‘z navbatida kattalar ham ularning e`zozlashi hamma uchun insoniylik, qadr-qimmat belgisi ekanligini ta`kidlaydi. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo‘lib voyaga etishishi, ajdodi va kelib chiqishiga hayotda shug`ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatiga bog`liqligini aytib: «Kimning nasli otadan boshlab toza bo‘lsa, undan elga yaxshilik, ko‘p manfaatlar keladi», deb hisoblaydi.

Buyuk shoir Alisher Navoiy xalq pedagogikasi va ruhiyat taraqqiyotini yaxshi bilgan, o‘zbek xalqining madaniyati va adabiy tilini olamga tanitgan. Uning ta`lim-tarbiya, odob-axloq, maishiy turmush muammolariga bag`ishlangan «Mahbub-ul qulub», «Tarixi mulki ajam» asarlarida bu borada qilgan ishlarining sarasidir. Navoiy bu asarlarida butun hayoti davomida ko‘rgan, bilgan voqealar, oddiy xalqning turmush tarzi, fe`l-atvori, ruhiy hayoti, urf-odatlari, an’ana va bayramlarini yaxshi va yomon hislatlari bo‘yicha to‘plagan ma`lumotlarini bayon etgan.

XIV asrda yashab ijod etgan, davlatni boshqarish bilan ijtimoiy hayot borasida buyuk asarlar yaratgan shoir Zahriddin Muhammad Bobur ham o‘z asarlari orqali tarix, jo‘g`rafiya, psixologiya fanlariga katta hissa qo‘shgan. Sharoit taqozosi bilan u jahon kezib turli xalqlarning urf-odatlarini, an’analarini, turmush tarzlarini o‘rganib, o‘zbek xalqi madaniyatiga sezilarli hissa qo‘shgan. Shoirning dunyo adabiyotidan joy olgan «Boburnoma» asarida milliy fazilatlar, xalqning orasidagi qarindosh-urug`chilik, do‘stlik, bahamjihatlikka oid fikrlar bayon etilgan. Bu asarni mutolaa qilgan har bir o‘quvchida o‘zbeklarga xos milliy g`urur shakllanmay qolmaydi. Bobur kishilarda uchraydigan xarakterning ijobiy va salbiy xususiyatlarini ochib, ularning sabab va oqibatlari haqida fikr yuritadi. Chaqimchilik, yalqovlik, ta`magarlik, xudbinlik, adovat, manmanlik kabilarning mohiyatini ochib, ularning sabab va oqibatlari haqida fikr bildiradi: «Men dushmanim bo‘lgan odam adovat qilmayman. Zeroki, mening adovatim dushmanimning xusumatini ziyoda qilur. Men adovatga qarshi do‘stlik ila muqobala (qarshi chiqib) qilib, xusumatni muvaddatga (do‘stlik) aylantirib, dushman kishilarni o‘zimga el qilaman» deb yozadi [4].

Iste’dodli shoir yetuk tarixchi, mohir tarjimon Muhammad Rizo Ogahiy o‘zining ijodiy faoliyatiga xalq o‘yinlarining aqliy, nafosat, jismoniy tarbiya imkoniyatlarini g`oyat ziyraklik bilan fahmlagan holda, o‘yin vaqtida bolaning fe`l-atvorini tezroq bilib olish, uning salbiy va ijobiy sifatlarini osonroq aniqlash be`mani qiliqlarini bartaraf etish mumkin, degan didaktik xulosaga keladi. U kurash, chavandozlik, ot ustida kurash va qilichbozlik, chavgon chillak, sopqon, kamondan otish bo‘yicha merganlik, shatranj, nard, dolbozlik, masharabozlik, tosh ko‘tarish, pichiq o‘yini va boshqa xalq o‘yinlari hamda odatlari to‘g`risida izohlar berar ekan, bolalar o‘yinlarining tarbiyalovchilik tomonlarini birma-bir ta`riflaydi.

XX asr boshlarida ijod etgan ma`rifatparvar shoir Muqumiy ham o‘zining qator she`rlarida yolg`onchilik, firibgarlikni qoralaydi. Bolani yoshligidan rostgo‘ylikka o‘rgatish zarurligini ta`kidlaydi. U odob-axloqda oiladagi urfodatlar, o‘ynaydigan o‘yinlar katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ba`zi bir o‘yinlar, odatlar bolalar tarbiyasiga salbiy ta`sir ko‘rsatishini batafsil sanab o‘tadi va bola tarbiyasi samarasi bevosita otaonaning ibrat namunasiga bog`liqligini ko‘rsatadi.

Asrimizning yetuk o‘zbek ma`rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozgan «Turkiy guliston, yoxud axloq» asari xalq pedagogikasiga qo‘shilgan katta hissasi bo‘lib, bu asarda insonlarda uchrab turadigan yaxshi va yomon xulqlar: sabr-bardoshlilik, or-nomus, hayo, g`azab va adovat kabilarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari haqida fikr yuritiladi [5]. U xalq pedagogikasidan keng foydalangan holda oilada bola tarbiyasi va umuman, uning ijtimoiy rolini ochib bergan. Alloma tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o‘rnini, ularning hamkorligini alohida ta`kidlaydi. Uning fikricha, bola fe`l-atvorida axloqiy sifatlarining tarkib topishi ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitga bog`liqdir. Avloniy o‘zining pedagogik izlanishlari davomida bola fe`l-atvori tarbiyasi oila bilan birga maktab va jamoat tashkilotlarining ham vazifasi ekanligini e`tirof etmagan bo‘lsa-da, lekin axloq masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan.

XULOSA. Buyuk mutafakkirlar asarlarini tahlil qilish jarayonida shu narsa yuza keladiki, ular umumiy fanlar qatori psixologiya fani taraqqiyotiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar. Ularning barchasi bola axloqi, odobi, fe`l-atvori shakllanishida oila ta`sirini alohida ta`kidlaganlar. Atrofdagilar bilan shaxslararo munosabatlar, ularning xatti-harakatlari, xarakterlaridagi ijobiy hislatlarni shakllantirishda urf-odatlar, marosim, rasm-rusumlarni qo‘llash, ularga qat`iy amal qilish allomalarimiz tomonidan tan olingan va ularni hayotiga tadbiq etish tavsiya etilgan [6]

Bu mutafakkirlarimizning asarlari hozirgi kunga kelib ham katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ular o‘z fikrlarini tasdiqlash uchun maxsus tadqiqotlar o‘tkazmagan bo‘lsalar-da, lekin kuzatishlarida analitik ustuvorlik faktologik material funksiyasini bajara olgan [7].

Ko‘rinib turibdiki, Sharq mutafakkirlari shaxs hulq atvor kamolotida atrof-muhit, tarbiya, xususan, oila va mahalla tarbiyasiga alohida e`tiborni qaratganlar. Barcha asarlarda ijtimoiy ta`sir vositasi sifatida tarbiya, ya`ni ataylab tashqaridan ta`sir ko‘rsatish orqali ibratli xulq-atvorni shakllantirish, oila tarbiyasi masalalariga e`tiborning qaratilganligi, bizga bola hulq atvor dunyoqarashi va fazilatlarining asosi aynan shunday ijtimoiy ta`sir omillari ekanligi haqidagi fikrni yana bir karra e`tirof etishimizga imkon beradi. Sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqining bu borada yuksak imkoniyatlari azaldan mavjud bo‘lib, ushbu milliy qadriyatlar va xalq an’analaridan to‘g`ri, unumli va maqsadli foydalanish zarur, degan xulosaga olib keldi.

MUSTAQIL TA’LIM OLISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN METODIKA YONDASHUVLAR, USULLAR VA VOSITALAR

Suyarov X.B.-
NavDPI Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur ishda onlayn ta’lim platformalari orqali ta’lim olayotgan o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi yoritilgan. Bugungi raqamli davrda masofaviy va onlayn ta’limning keng qo‘llanilishi o‘quvchilardan o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini o‘qitish hamda ta’limiy jarayonni mustaqil tashkil etish qobiliyatlarini talab etmoqda. Shu boisdan ham, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan samarali metodik yondashuvlar, pedagogik usullar va texnologik vositalarni aniqlash va tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Onlayn ta’lim masofaviy o‘qitish mustaqil ta’lim o‘z-o‘zini o‘qitish metodik yondashuvlar ta’lim usullari ta’limiy vositalar raqamli ta’lim texnologiyalari konstruktivistik yondashuv interaktiv ta’lim reflektiv o‘qitish loyiha asosida o‘qitish

Аннотация. В данной работе освещен вопрос формирования у обучающихся навыков самостоятельного обучения через образовательные онлайн-платформы. Широкое использование дистанционного и онлайн-обучения в современную цифровую эпоху требует от учащихся навыков самоконтроля, самообучения, самостоятельной организации образовательного процесса. Поэтому актуальное значение приобретает выявление и анализ эффективных методических подходов, педагогических методов и технологических средств, служащих формированию навыков самостоятельного обучения.

Ключевые слова: онлайн-обучение дистанционное обучение самостоятельное обучение самообучение методические подходы методы обучения образовательные инструменты цифровые образовательные технологии конструктивистский подход интерактивное обучение рефлексивное обучение проектное обучение

Annotation in this work, the issue of the formation of independent educational skills in students studying through online educational platforms is covered. The widespread use of distance and online education in today's digital age requires students to have the skills of self-management, self-education and independent organization of the educational process. Therefore, the identification and analysis of effective methodological approaches, pedagogical methods and technological tools that serve to form the skills of independent education are of urgent importance.

Keywords: online education distance learning independent education self-education methodological approaches educational methods educational tools digital education technologies constructivist approach interactive education reflective teaching project-based learning

Kirish. Onlayn ta’lim platformalarida mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Mustaqil ta’lim olish, o‘quvchilarga o‘z vaqtini boshqarish, maqsadlarini belgilash va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Onlayn ta’lim platformalaridagi metodik yondashuvlar, usullar va vositalar orqali bu ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkin. Quyida onlayn ta’limda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun turli metodik yondashuvlar, usullar va vositalar keltirilgan.Metodik Yondashuvlar metodik yondashuvlar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va o‘rganish jarayonini samarali tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ta’lim olish jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun bir qancha metodik yondashuvlar mavjud.Shaxsiylashtirilgan Ta’lim Yondashuvi shaxsiylashtirilgan ta’lim — bu har bir o‘quvchining o‘rganish ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etish. Bu yondashuv yordamida o‘quvchilar o‘ziga mos o‘rganish metodlarini tanlab, maqsadlariga erishishlari mumkin.Shaxsiy o‘rganish rejasi: O‘quvchilarga o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatini berish, ular uchun mos keladigan ta’lim yo‘llarini aniqlash. O‘quvchilar o‘zlari uchun maqsadlar qo‘yib, shunga muvofiq o‘rganish rejasini tuzishlari kerak. O‘rganish uslublarini moslashtirish: O‘quvchilarga turli o‘rganish uslublari (vizual, audial, kinestetik) bo‘yicha tanlovlar taqdim etish. Har bir o‘quvchi o‘ziga qulay uslubni tanlashi mumkin.Masofaviy Yondashuv masofaviy yondashuv o‘quvchilarga o‘rganish jarayonini o‘z vaqtida va o‘z sur’atida amalga oshirish imkoniyatini beradi moslashuvchan vaqt rejimi: O‘quvchilar o‘rganish vaqtlarini o‘zlari belgilaydilar, bu esa ularning individual ehtiyojlariga mos keladi. O‘z-o‘zini boshqarish: O‘quvchilar o‘z bilimlarini o‘zlari baholashlari, o‘z-o‘zini motivatsiya qilishlari va o‘rganish jarayonini boshqarishlari kerak.O‘rganish Usullari mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishda qo‘llaniladigan usullar o‘quvchilarning faolligini va ishtirokini oshiradi. Quyidagi usullar samarali ishlaydi.Aktiv O‘rganish

Usullari aktiv o‘rganish o‘quvchilarni passiv tarzda o‘qitishdan ko‘ra, ular o‘zlari faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi. Bu usul bilimlarni o‘zlashtirishda samarali bo‘ladi. Interaktiv darslar va quizlar: O‘quvchilarga o‘z bilimlarini testlardan o‘tkazish va har bir savolni o‘rganish jarayonida o‘zlashtirish imkonini yaratish.

Forumlar va muhokamalar: O‘quvchilarga kurs materiallarini tahlil qilish va guruh muhokamalarida qatnashish imkoniyatini berish. Bu usul o‘quvchilarning fikr almashish va tajriba o‘rganishlariga yordam beradi. Masala Yechish (Problem-Based Learning) Masala yechish — o‘quvchilarga amaliy vazifalar va muammolarni yechish orqali o‘rganish. Bu usul o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va tahlil qilishga undaydi. Case study (holat tahlili): O‘quvchilarni turli holatlar bo‘yicha tahlil qilishga, qarorlar qabul qilishga va amaliy muammolarni hal qilishga undash. Bu usul o‘rganilgan bilimlarni real hayotda qanday qo‘llashni o‘rgatadi. Guruh ishlarida muammo yechish: O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, muammo yoki topshiriqlarni hal qilishga undash. Bu usul jamoada ishlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Konstruktivistik Yondashuv konstruktivistik yondashuv o‘quvchilarning faol ishtirokini, tajriba va o‘rganishni tahlil qilishni talab qiladi. O‘rganish jarayonini o‘zlashtirish: O‘quvchilar o‘rganish materiallarini o‘z tajribalari va ilgari o‘rganilgan bilimlari bilan bog‘lashlari kerak.

Tahlil va refleksiya: O‘quvchilar o‘rganish materiallarini tahlil qilish va o‘z tajribalari asosida yangi bilimlarni yaratishga harakat qilishlari zarur.O‘rganish Vositalari onlayn ta’lim platformalarida o‘quvchilarga o‘rganish jarayonini samarali o‘tkazish uchun bir qator vositalar taqdim etiladi. Ushbu vositalar o‘rganish jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi. Onlayn Resurslar video darslar: O‘quvchilarga turli mavzularni vizual tarzda tushuntirish. Video darslar mavzuni tushunishni osonlashtiradi. E-kitoblar va qo‘llanmalar. O‘quvchilarga darsliklarni o‘qish va qo‘llanmalardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish. Infografika va diagrammalar: Kompleks ma’lumotlarni qisqacha va aniq shaklda taqdim etish. Bu vosita vizual o‘rganishni kuchaytiradi.Simulyatsiyalar va Virtual Muhitlar Simulyatorlar: O‘quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali o‘rganish imkoniyatini yaratish. Bu turli sohalarda bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi. Virtual laboratoriyalar: O‘quvchilarga turli tajribalar o‘tkazish uchun virtual muhitda o‘rganish imkoniyatini yaratish. Onlayn Baholash Va Testlar avtomatik testlar va quizlar: O‘quvchilarni o‘z bilimlarini o‘lchash uchun interaktiv testlar va baholash vositalaridan foydalanish. Bu vositalar o‘quvchilarning natijalarini tezda baholash imkonini beradi. Boshqa o‘quvchilarni baholash: Onlayn kurslarda o‘quvchilarni bir-birining ishlarini baholashga undash. Bu usul o‘quvchilarga konstruktiv fikr bildirish va tahlil qilishni o‘rgatadi.

Mustaqil ta’limni samarali o‘tkazishning asosiy faktorlar. motivatsiya: O‘quvchilarni o‘rganish jarayonida davom ettirishga rag‘batlantirish. Onlayn platformalarda gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) va mukofot tizimlari motivatsiyani oshiradi. Vaqtni boshqarish: O‘quvchilarga o‘z vaqtlarini samarali boshqarish, kurs materiallarini o‘rganish uchun belgilangan vaqtni rejalashtirish.

Xulosa. Onlayn ta’lim platformalarida mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishda metodik yondashuvlar, usullar va vositalar o‘quvchilarga bilimlarni o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘rganish jarayonini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shaxsiylashtirilgan ta’lim, aktiv o‘rganish usullari, masala yechish va turli vositalardan foydalanish o‘quvchilarga mustaqil ta’lim olish jarayonida samarali natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1.Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.*

2. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age.*

3. Anderson, T. (2008). *The Theory and Practice of Online Learning.*

4. Palloff, R. M., & Pratt, K. (2007). *Building Online Learning Communities: Effective Strategies for the Virtual Classroom.*

5. Horton, W. (2000). *Designing Web-Based Training.*

ФИЛОСОФСКАЯ МЫСЛЬ РАССКАЗА И. А. БУНИНА «ТЕМНЫЕ АЛЛЕИ»

Сапаева Ирода- студентка 3 курса
Негосударственного высшего образовательного
учреждения ALFRAGANUS UNIVERSITY
научный руководитель к.п.н., и.о. профессора
кафедры русского языка и литературы **Азмиева Э.Э.**

Осмысление природы единства художественного произведения всегда было одной из основных задач науки о литературе. В рассмотрении данной проблемы можно выявить широкий спектр мнений, включая противоположные позиции относительно возможности существования единого,

монолитного художественного текста. Специфика единства "Темных аллей" И. Бунина, которая является объектом данного исследования, не осталась незамеченной научной мыслью как в России, так и на Западе.

Приступая к анализу рассказа Ивана Бунина «Темные аллеи» (1938), необходимо прежде всего обратить внимание на название текста и попытаться понять, какой смыл вкладывал художник в понятие-образ «темные аллеи», ибо именно это понятие-метафора становится камертоном всего цикла. Прежде исследователи уже обращали внимание на то, что в качестве заголовка Бунин избирает образ, зафиксированный в лирическом стихотворении Николая Огарева «Обыкновенная повесть» (1842):

«Была чудесная весна!
Они на берегу сидели –
Река была тиха, ясна,
Вставало солнце, птички пели;
Тянулся за рекою дол,
Спокойно, пышно зеленея;
Вблизи шиповник алый цвел,
Стояла темных лип аллея».

На связь названия рассказа с элегией Огарева указал сам Бунин, зафиксировав в одной из заметок «Происхождение моих рассказов» следующее обстоятельство: «Перечитывал стихи Огарёва и остановился на известном стихотворении: “Была чудесная весна!” <…> Потом почему-то представилось то, чем начинается этот рассказ, – осень, ненастье, большая дорога, тарантас, в нём старый военный… Остальное всё как-то само собой сложилось, выдумалось…» . Однако следует задаться вопросом о том, почему цикл рассказов о «светлом» чувстве любви Бунин называет оборотом с использованием эпитета «темные». Можно предположить, что в конце своей жизни, когда художник приступал к созданию рассказов-воспоминаний о любви, чувство влюбленности не виделось ему слишком радужным. К тому же мотив воспоминаний, к которому обращается писатель уже в первом рассказе, заставляет апеллировать к далекому прошлому – к памяти о его грустной (и трагической) любви к Варваре Пащенко, к воспоминанию о тяжелом разрыве молодых людей, о попытке самоубийства начинающего художника и, несомненно, о ранней смерти Вареньки. Таким образом, название рассказа «Темные аллеи» задает ракурс обращения (ориентации) внутреннего творческого зрения художника к прошлому, к былому, к давно прошедшему, изначально формирует одну из главных констант позднего бунинского творчества – категорию памяти. Именно память станет одной из важнейших доминант мотивной структуры первого рассказа и, как следствие, всего цикла. Темные аллеи памяти станут тем поэтическим хронотопом, в котором будут разворачиваться события первого рассказа и сюжетные линии всех последующих текстов цикла.

Сюжетную основу рассказа «Темные аллеи» составляет встреча двух героев, в молодости бывших возлюбленными, но расставшихся на долгие годы. Понятно, что идейный центр рассказа определяет неожиданная встреча героев, выявляющая мотив несостоявшейся, несчастной любви, которую пережили герои, и с наибольшим драматизмом – героиня по имени Надежда. Обыкновенно при анализе рассказа именно на образе главной героини и делается акцент – симпатии исследователей и читателей, как правило, отданы ей. Однако, на наш взгляд, следует рассмотреть систему образов рассказа с учетом принципа симметрии, равнозначности и уравновешенности образов обоих героев.

Повествование в «Темных аллеях» открывает пейзаж – зарисовка дней холодной осени – «холодное осеннее ненастье», когда героям предстоит вновь встретиться после долгих лет разлуки. Прием природно-психологического параллелизма позволяет понять, что Бунин формирует хронотоп осени не только в плане пейзажно-изобразительном, но и в плане метафорическом – как отражение периода человеческой жизни, осени, когда он – уже «старик», ему «под шестьдесят», она – «в возрасте», ей «сорок восемь». Однако живость и открытость чувств постаревших героев показана Буниным с первых строк. О главном герое повествователь говорит: «…в тарантасе <сидел> стройный старик-военный в большом картузе… еще чернобровый, но с белыми усами, которые соединялись с такими же бакенбардами». Эпитет «стройный», номинант «военный», наречие «еще» придают существительному «старик» дополнительные характеристики – сила, стройность, уверенность в себе «старого» героя-персонажа. Герои немолоды, но чувства их (как покажет повествователь) еще способны возродиться, ожить. Герои Бунина постаревшие, но живые, полные чувств и эмоций.

Повествование в рассказе ведется от третьего лица, объективного повествователя-нарратора. Но тональность изложения событий такова, что обращает на себя внимание ощущение близости

героя-повествователя и героя участника событий. Прием несобственно-прямой речи создает в рассказе атмосферу искренности, интимности, подлинности. Голос повествователя и голос героя как будто бы сливаются, накладываются, пересекаются, порождая ощущение исповедальности и доверительности в восприятии изображаемых событий. Субъективная тональность повествования актуализирует психологический план повествования, выдает и передает потаенные чувства и скрытые переживания героев. Повествователь сознательно подчеркивает внешнее сходство героев, намеренно дает им близкие по своей сути характеристики, и эти акценты будут усилены автором впоследствии в ходе сюжетного развития действия. Более того, в моменты общения героев контраст одного будет переходить на другую, и наоборот, ее красный цвет окажется в системе характеристики героя: он «покраснел», «краснея сквозь седину», «покраснел до слез» и др. Она же в свою очередь будет вбирать в свой портрет его краски: ее образ «темнеет».

Как правило, исследователи прибегают к оценочности бунинских персонажей, используют аксиологические ракурсы осмысления их поступков и поведения. Так, о главном герое повествования большинство исследователей пишет так, как это сделал В. Я. Гречнев. По мнению исследователя, герой Бунина «тольков конце жизни уразумел… такую, казалось бы, простую истину: любовь не имеет ничего общего со всякого рода расчетами и логически убедительными соображениями… Николай Алексеевич многое предусмотрел, выбирая себе жену в свой петербургский дом. Не смог предусмотреть он лишь такую “малость”, как взаимная любовь. И наказан он был не только вероломством жены, но и сыном-“негодяем”». Однако, на наш взгляд, Бунин не стремился осудить «вероломство» героя, писатель хотел понять человека (в том числе и себя), найти объяснение противоречивости и неоднозначности человеческой натуры. Потому образы обоих героев рассказа «Темные аллеи» у Бунина оказываются неоднозначными (как уже было отмечено, контрастными): это не «положительная» Надежда и «отрицательный» Николай, а более сложная система отношений людей, более тонкое понимание их взаимоотношений, психологии.

Рассматривая образы Надежды и Николая Алексеевича у Бунина, можно заметить, что они не так однозначны и не столь однобоки, как это часто утверждают исследователи. Обычно литературоведы склонны трактовать образ героя как порочный, а героиню, верную своей давней любви, как почти идеальную. (Здесь можно даже предположить, что образ Надежды мог быть создан в ориентации на образ Татьяны Лариной у А. С. Пушкина из романа в стихах «Евгений Онегин»). Однако философичная позиция автора заставляет более «критично» и одновременно более «благожелательно» отнестись к каждому из персонажей и увидеть их различные противоречивые стороны. Кажется, что Бунин создает образ героини как образ традиционной героини мировой и русской литературы, в котором сочетаются сила любви, верность возлюбленному, но непонимание ее со стороны героя. Действительно, о героине говорится, что Надежда в восемнадцать лет горячо любила героя, но была им «бессердечно» брошена, и даже по прошествии многих лет она продолжала любить своего избранника, по ее словам – «весь век». Верность героини первой любви («все одним жила»), умение сохранить в себе былую любовь, способность пережить обиду и перенести «все прочее» («сколько раз я хотела руки на себя наложить») вызывают читательскую симпатию к героине и свидетельствуют о ее мужественности. Казалось бы, именно такой и выписывает Бунин свою героиню. Однако если вчитаться в текст, то становится ясно, что образ Надежды не столь целен и позитивен, как могло показаться на первый взгляд. Если не быть пристрастными, то станет ясно, что Бунин создает образ более жизнеподобный, более реалистичный. Уже первое появление героини в пространстве рассказа сопровождается коннотациями, которые в малой степени соответствуют образу идеальной героини. Во-первых, героиня названа цыганкой и гусыней, во-вторых – ее внешность изображена скорее отталкивающей, чем притягивающей.

Многие исследователи говорят о том, что причиной расставания героев было социальное неравенство. И это суждение справедливо: действительно, первой и основной причиной было «зависимое» положение крестьянки Надежды. Но только социальным ракурсом Бунин не ограничивается. Писатель пытается разглядеть глубинные корни «несовпадения» героев. Казалось бы, прошедшие годы «сняли» причины социального неравенства героев – Надежда получила вольную, теперь она владеет постоялым двором, по-своему богата, состоятельна. Однако, как показывает Бунин, даже сейчас Надежда не может понять суть и причины расставания героев. Тогда как герой почувствовал это тогда и еще более здраво осознает теперь. И главной причиной невозможности соединения героев (тогда и теперь) Бунин делает духовное неравенство героев.

Понять духовную несовместимость героев помогают стихи, которые молодой герой читал своей возлюбленной в юности. Стихи о «темных аллеях». Герой читал Надежде стихи – она их не понимала. Не понимала тогда и не понимает теперь – вспоминая прежние встречи, героиня очень

просто произносит: «И все стихи мне изволили читать про всякие “темные аллеи”». Эпитет «всякие» маркирован, он обнаруживает черствость героини, ее неумение до конца понять героя. Если Николенька знал и любил эти стихи, то Надежда не могла их почувствовать, проникнуться ими. Для нее они были и остались «всякими». Героиня-крестьянка любила молодого барина, но не понимала его – и Бунин умело показывает это.

Герой не отрицает важности и притягательности для него былых встреч с героиней. Он признает, что она подарила ему «лучшие минуты», «истинно волшебные», но, как показывает Бунин, он и тогда почувствовал, и ныне понял, что Надежда была далека от него (не в плане социальном, а в психологическом, душевном).

Между тем финальные мысли персонажа «Темных аллей» обычно вызывают негативную реакцию критиков и читателей. И, кажется, в этом осуждении есть доля справедливости. В результате случайной встречи со своей первой любовью герой, с одной стороны, с большой силой осознал, что в Надежде потерял «самое дорогое, что имел в жизни», но с другой стороны, он своим поведением (отъездом) как будто бы подтверждал и оправдывал законность прежнего поступка. Гипотетически представляя себе женитьбу на Надежде, уже в тарантасе Николай Алексеевич думал: «Но, боже мой, что же было бы дальше? Что, если бы я не бросил ее? Какой вздор! Эта самая Надежда не содержательница постоялой горницы, а моя жена, хозяйка моего петербургского дома, мать моих детей?». И форма риторического вопроса подсказывает, что ответ на этот вопрос мог быть только отрицательным.

Бунин не осуждает героя, но объясняет его. Новая встреча с былой возлюбленной вновь показала герою, что они разные – как тогда, так и теперь. Как прежде героиня не понимала его (и любимые им стихи), так и сейчас она замирает в своей обиде, даже много лет спустя «не прощая» героя, мучимого совестью, страдающего и несчастного в жизни не менее Надежды. Как показывает Бунин, каждый из героев несет в себе частицу света и тьмы, добра и зла, и каждый из них достоин сочувствия и понимания.

Итак, двусоставность обнаруживается в образах и характерах обоих героев рассказа «Темные аллеи». Такая позиция повествователя (автора) принципиальна как для этого рассказа, так и для всех последующих. Титульный рассказ Бунина задает двойственность - философичность восприятия событий прожитой жизни как автором, так и героем. Стареющий писатель как бы подводит итоги, изливая на страницы своих поздних рассказов глубокие жизненные наблюдения (конститутивный концепт «память»), демонстрируя сложность и неоднозначность человеческих оценок. Таким образом, философский ракурс повествования становится одной из творческих доминант поздней прозы Бунина, заданной уже первым рассказом цикла «Темные аллеи». Этот рассказ не только вводит в позднюю прозу писателя тему любви, но и выделяет концептуальный мотив памяти, предлагая важный ракурс мировосприятия автора, который в своем позднем творчестве избрал философский подход для воплощения и осмысления «обыкновенных» жизненных историй. Права исследователь О. В. Богданова, когда она пишет, что «рассказ “Темные аллеи” должен… стать своеобразным музыкальным ключом, тональным камертоном, по которому следовало настроиться на восприятие “самого лучшего и самого оригинального из того, что <Бунин> написал в жизни».

Список литературы:

1. Собрание сочинений: в 9-ти т. / под общ. ред. А. С. Мясникова, Б. С. Рюрикова, А. Т. Твардовского. М.: Художественная литература, 1966. Т. 7. Темные аллеи. Рассказы 1931-1952. 399 с.
2. Цикл рассказов И. Бунина «Тёмные аллеи» (психологические заметки) // Русская литература. 1996. № 3. С. 226-235.
3. Русская любовь в темных аллеях («Темные аллеи» И. Бунина) // Серебряный век русской литературы: сб. ст. / отв. ред. О. В. Богданова. СПб.: С.-Петерб. гос. ун-т, Фак-т филологии и искусств, 2009. С. 201-220
4. Энергожизнь рассказа И. Бунина «Темные аллеи» // Вестник Пермского университета. Серия «Российская и зарубежная филология». 2010. № 4 (10). С. 156-164.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA IQTIDORLI BOLALARNI PSIXOLOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH MASALALARI

Aliyeva Nargiza Ziyodillayevna-
Navoiy pedagogika texnikumi maktabgacha yoshdagi bolalar psixologoyasi fani katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimidagi islohotlar, ular orqali amalga oshirilayotgan ishlar, psixologik xizmat ko‘rsatishning turlari hamda maqsad, vazifalari yoritib berilgan. O‘zbekiston Respublikasida ta’limning birinchi bosqichi hisoblanmish, maktabgacha ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan bo‘lib kelmoqda

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, psixologik xizmat, psixologik tashviqot, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, psixologik-pedagogik konsilium, diagnostik-korreksion ishlar..

Annotation.This article describes the reforms in the preschool education system, the work carried out through them, the types of psychological services and their goals and tasks. The development of preschool education, which is considered the first stage of education in the Republic of Uzbekistan, is one of the priority tasks of the state policy.

Key words: preschool education, psychological service, psychological campaign, psychological prevention, psychological counseling, psychological-pedagogical council, diagnostic-corrective work.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga berilayotgan e’tibor kundan-kunga kuchaymoqda. Faqaqtgina ularning inshootlarigina yangilanib qolmasdan, balki ularning ichki muhitida ham tub burilishlar sodir bo‘lmoqda. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

- Maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq:
- maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish; maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;

Psixologik xizmatning maqsadi tarbiyalanuvchilarning ma’naviy va aqliy rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida shakllanishi, faol ijtimoiy moslashuvi va ularning yosh davrlari bo‘yicha rivojlanishida salomatligini muhofaza qilish, uzluksiz ta’lim jarayonida o‘zligini anglashi, individual psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Quyidagilar psixologik xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi:

✓ Maktabgacha ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish ishlarini sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarda kasb-hunar haqidagi tushunchalarni shakllantirish;

✓ tarbiyalanuvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida kasb-hunarni to‘g‘ri tanlashlariga ko‘maklashish;

✓ turli yosh davrlarida tarbiyalanuvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta’lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy rivojlanishida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy og‘ishlarning oldini olish; tarbiyalanuvchilar ta’lim

muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

- ✓ pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, jamoa a’zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;
- ✓ iste’dodli va iqtidorli tarbiyalanuvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o‘rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ✓ axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog‘ining salbiy ta’siri, bolalar tarbiyasiga xavf solayotgan “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish;
- ✓ pedagog xodimlar, tarbiyalanuvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko‘maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta’minlash.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish psixologning har bir bolaning ruhiy salomatligi va rivojlanishining to‘laqonli bo‘lishini ta’minlaydigan faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bola ruhining individual, rasmiy-dinamik xususiyatlarini hisobga olish alohida o‘rin tutadi, bolalarning aqliy holati, jarayonlari, xatti- harakatlari va faoliyatining dinamikasini aniqlaydigan turli xil temperamentdagi bolalar bilan muayyan strategiya va taktikalarni ishlab chiqish hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston barpo etilayotgan bir davrda har bir kichik yoshdagi bolaga, bog‘cha tarbiyalanuvchisiga, maktab o‘quvchisiga e’tibor qaratish muhim vazifadir. O‘z ishining mohiri bo‘lgan psixolog uchun maktabgacha ta’lim muassasasida yetarlicha shart-sharoit yaratib berilsa, uning bolalar bilan ko‘proq muloqotda bo‘lishi uchun vaqt ajratilsa, yoki psixolog tomonidan bolajonlar bevosita kuzatib borilsa, vaziyatga mos choralar amalga oshirilsa ,albatta, o‘z ijobiy natijasini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.

2.Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qaroriga 1-ILOVA

3.O.A.Shukurullayev Maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash va psixologik xizmat sohasini takomillashtirish yo‘llari.

ИНТЕРНЕТ ТОБЕЛИГИ МУАММОСИНИ ЎРГАНИШНИНГ УМУМПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ

Шукуров Б.С.
НавДПИ Психология кафедраси катта ўқитувчиси

Маълумки, замонавий ахборот технологиялари ва интернет тармоғи кўплаб фанлар ва жамият тараққиёти учун кенг имкониятлар эшигини очса, иккинчи томондан инсон хулқ-атвори учун ёт бўлган айрим хатти-ҳаракатларнинг пайдо бўлишига замин яратади. Моҳиатан, интернетга тобелик тушунчаси психологик феномен ҳисобланиб, у замонавий психологик адабиётларда «аддикция» тушунчаси билан тилга олинади. «Аддикция» инглизча сўздан олинган бўлиб, тобе бўлиш, боғланиб қолиш, одатланиш каби маъноларда тавсифланади. Гарчи интернетга тобелик тушунчаси кимёвий жиҳатдан тобелик бўлмаса-да, у инсон хулқ-атворида қатор психопатологик ўзгаришларни масалан, патологик тобелик, толерантликнинг ўсиши, абстинент синдром, шахслилик хусусиятларининг ўзгариши кабиларни юзага келтирмоқда.

Айрим психологик тадқиқотларда интернетга тобелик ва психофаол моддаларга тобеликнинг патогенетик механизмлари бир эканлигини исботловчи маълумотлар ҳам мавжуд. Мазкур муаммо бугунги кунда қатор фанлар жумладан тиббиёт, психология, аддиктология, педагогика, социология каби фанларнинг етакчи мутахассислари томонидан кенг тадқиқ этиб келинмоқда. Таъкид жоизки, замонавий таълим-тарбия тизимининг мақсади аввалambор, ҳар томонлама етук, ақлан расо, жисмонан бақувват баркамол ёшларни тарбиялашдан иборатдир. Шундай экан, ҳозирги талаба ёшларни жаҳон андозаларига мос таълим усуллари ҳамда илғор билимлар билан касбий кўникмаларини ошириш, касбий компетенцияларини такомиллаштириш, ҳар бир олий таълим муассасаси олдида турган долзарб вазифалардан биридир. Бу эса, юртимизда фаолият юритаётган психолог тадқиқотчилар олдига ҳам ўзига хос вазифалар юклаши табиийдир. Интернетга тобелик ва

уни бартараф этишнинг психологик чора тадбирларини ишлаб чиқиш, уларда интернет билан тўғри ишлаш кўникмаларини шакллантириш каби масалалар янги психологик тадқиқотларга зарурат сезмоқда. Илмий асосга кўра, тобе хулқ масаласи аддиктология фанининг етакчи олимлари саналган А.В.Борцов, Т.В.Клименко ҳамда А.Ю.Егоровларнинг тадқиқотларида ўз аксини топган[61; с.-768.]. Муаллифлар асосан, муаммонинг тиббий-психологик жиҳатларига эътибор қаратиб, соҳа мутахассисларининг ҳамкорликдаги амалга оширадиган психопрофилактик чора-тадбирлари масалаларига кўпроқ эътибор қаратишган.

Бундан ташқари, интернетга тобеликнинг олдини олиш ва унинг юзага келтирувчи сабабларини аниқлаш масаласи замонавий терапевтик амалиётда ҳам кенг тадқиқ этилган. Тадқиқотчи Д.Г.Рыбалтовичнинг фикрича, интернетга тобелик тушунчаси психология ва тиббиёт фани ютуқлари оралиғида пайдо бўлган илмий категория саналиб, у ҳақиқий ҳаётни тарк этиш ёки онг соҳасининг ўзгариши ҳисобланади, яъни инсоннинг ўзга оламдан ўзига қулай муҳит ва ҳаётий маъно излашга бўлган ҳаракатидир.

Интернет тобелиги муаммоси бўйича амалга оширилган соф психологик тадқиқотлар ичида К.Янгнинг тадқиқотлари алоҳида эътироф этилиб, у мазкур ғоянинг илк муаллифларидан бири саналади. Муаллиф интернетга тобелик масаласини аниқловчи сўровнома ишлаб чиқиб илк бор 1994 йилда веб тармоқ орқали ўз тадқиқотини амалга оширди. Орадан беш йил вақт ўтиб муаммо юзасидан ўз монографисини нашр этди.

К.С.Янгнинг таъкидича, интернетга тобеликни белгиловчи тўрт муҳим сифат мавжуд:[87; с.-123]

– электрон почтани текширишга бўлган мунтазам истак;

– интернет алоқани доимий равишда кутиш;

– шахснинг интернет тармоғида кўп вақтини сарфлаши тўғрисида бошқаларнинг шикояти;

– бирор кишининг интернет учун жуда кўп пул сарфлаётгани тўғрисидаги шикояти ва ҳоказо.

Демак, муаллифнинг назарича, инсоннинг интернетга бўлган муносабати унга бўлган тобелик даражасини аниқлашни осонлаштиради.

Тадқиқотчи М.Ватерс интернетга тобеликни намоён этувчи қуйидаги қўшимча сифатларни киритади:[111; p-3-12.]

– иш жойида ва уйда овқатланиш вақтини камайтириш ёки монитор олдида мунтазам овқатланиш;

– боғлиқ бўлмаган иш жараёнида интернетга тез – тез кириш.

– онлайн тизимда вақтни йўқотиш.

– одамлар билан жонли тарзда эмас, балки онлайн тез-тез мулоқот қилиш;

– интернетга муккасидан кетиш туфайли, оила ва иш жойидаги масъулиятни унутиш шунингдек, ижтимоий ҳаёт, илмий фаолият ёки ўз саломатлиги билан боғлиқ масалаларни эътибордан четда қолдириш;

– интернетда ишлаш вақтини қисқартирмаслик;

– доим интернетда бўлиш имкониятига эга бўлиш учун овқатланиш, дарс тайёрлаш ёки дам олиш вақтларини чеклаш;

– ўз муаммоларини олдини олиш ёки иложсизлик, хавотирлик, тушкунлик каби ҳиссий кечинмаларини йўқотиш учун интернетда бўлиш;

– интернетдан узоқлашганда чарчоқ, асабийлашиш, кайфиятнинг тушиши, интернетга кириш истагининг пайдо бўлиши;

– интернетга махфий асосда кириш ёки тобеликни тан олмаслик (яқинлари ва оила аъзолари бўлмаган тақдирда);

«Интернет тобелиги» феномени рус психологиясида ҳам янги тадқиқотлар туркумидан бири ҳисобланиб, унга оид илк изланишлар А.Е.Личко ҳамда Н.Я.Ивановларнинг тадқиқотларида ўз аксини топган. Муаллифларнинг фикрича, тобелик бу касаллик бўлиб, кимёвий тобеликка яқин хулқ-атворнинг ноодатий кўринишидир[51;с.-112.]. Демак, тадқиқотчиларнинг назарича, интернетга тобелик фақат психология фанининг илмий масаласи эмас, у тиббий жиҳатдан ҳам тадқиқ этилиши зарур, яъни интернетга тобелик психология ва психиатриянинг энг илғор, энг самарадор усуллари орқали ҳамкорликда ўрганилиши лозим.

НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ СОҲАСИ ТАРИХИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ. (1992-2000 йиллар)

Ширинова Фируза Иноятовна-
Навоий педагогика университети

Кўп миллатли Навоий вилоятида мактабгача таълим муассасаларига болаларни қамраб олиш муаммоси ҳалиям тўла ўз ечимини топмаётган эди. 1993 йил Хатирчи туманида дастлабки ислоҳотлар натижаси сифатида 2 та умумтаълим мактаби ва 1 та болалар боғчаси қурилиши бошланган.[1]1995 йил март ойида вилоят халқ таълими бўлими томонидан тузилган тафтиш комиссияси хулосаларида, юқорида қурилиши бошлангани таъкидланаётган болалар боғчаси асосан ҳашар йўли билан қуриб битказилгани, тарбиячи -педагогларнинг етишмаслиги, боғчанинг иситиш тизими, озиқ-овқат таъминоти ва гигиеник ҳолати, мутлақо талабга жавоб бермаслиги, болаларни муассасага қамрови 1980-1982 йиллар даражасида эканлиги таъкидланган.[2] Айнан шу туманда 1996 йилда мактабгача таълим муассасалари сони 17 тага етган, бироқ уларнинг деярли барчасида тарбияланувчилар учун етарли шароитлар яратилмаганлиги аниқланган.[3]

1998 йилга келиб Навоий вилояти мактабгача таълим муассасалари фаолиятида айрим ижобий ўзгаришлар кўзга ташланганини айтиш жоиз. Навоий шаҳридаги 12-сонли “Қалдирғоч”, 24-сонли “Ғунча”, Кармана туманидаги 20-сонли “Баҳор” ва 22-сонли “Қуёшжон”, Навбаҳор туманидаги 6-сонли “Парвоз” мактабгача таълим муассасаларида ота-оналарнинг хоҳиш-истакларини инобатга олиниб, нодавлат хусусий мақомга эга бўлган гуруҳлар ташкил этилган. Бу эса 3-7 ёшли болаларни боғчаларга қамров даражасини 17 фоиз таъминлашига ёрдам берди. Ўтган асрнинг 80 йилларида Конимех туманининг олис чўл ҳудудида жами 3 та, шундан Янгиқазған овулида 2 та, “Алтын” ҳамда “Қизғалдоқ” номли, Учтепа овулидаги мактаб қошида “Салтанат” номли болалар боғчалари фаолият юритган.[4] Боғчалар ижтимоий таъминоти ва методик ҳолатида кўплаб етишмовчиликлар кўзга ташланган. Ушбу мактабгача таълим муассасалари 1998 йилга келиб ўз фаолиятини янги тартибда ташкил этди. “Салтанат” номли болалар боғчасининг илк раҳбари Жарқин Абдибекова бўлиб, у 25 йил давомида мудиралик вазифасида ишлаб келган.[5]

1997 йил охирига келиб Навоий вилоятида боғчалар сони 7546 та, тарбияланувчилар сони эса 68120 та, мактабгача таълим муассасасига болаларни қамраб олиш даражаси 17,6 фоизни ташкил этди. Рақамларни Қорақалпоғистон Республикаси боғчалари билан қиёсий таҳлил қиладиган бўлсак, мазкур йилда Қорақалпоғистонда мактабгача таълим муассасалари сони 327 та, тарбияланувчилар сони 30512 нафар, ҳар битта мактабгача таълим муассасасига ўртача 93 нафар бола тўғри келган. 2 ёшдан 7 ёшгача бўлган болалар сони эса 175812 нафарни ташкил этган. Мактабгача таълим муассасасиларида 538 нафар тарбиячи фаолият юритган.[6]

1998-1999 йилларда вилоятда хусусий сектор фаолиятига кенг йўл очиб берилди. Вилоят миқёсида ота-оналардан тушган аризалар инобатга олиниб, 1999 йил бошида Қизилтепа туманида 30-сонли “Шодлик”, 2-сонли “Бойчечак”, 34-сонли “Ширинтой”, ҳамда 35-сонли “Орзу” номли хусусий мактабгача таълим муассасалари ташкил этилган.[7]

1995 йил 22 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 441-сонли “Болаларнинг мактабгача тарбия муассасаларида бўлишлари учун ота-оналардан олинадиган ҳақ миқдорлари тўғрисида”ги қарори билан ота-оналардан олинадиган ойлик ҳақ миқдори белгилаб берилди. Шунингдек, мактабгача ёшдаги болаларни муассасаларга қамраб олишни кўпайтириш мақсадида нодавлат МТМлар очилишига катта эътибор қаратилди.

Ўзбекистон Республикасида фаолият кўрсатаётган нодавлат мактабгача таълим муассасалари Кадрлар тайёрлаш Миллий Дастури, “Таълим тўғрисида”ги Қонун, Ўзбекистон Республикаси

[1] Наврўз Худойберди. Эл фарзанди. – Тошкент: “Мусиқа”, 2008. – Б.44.
[2] Муаллифнинг Равшан Ражабов билан шухсий мулоқоти. 2023 йил 12 декабрь.
[3] Холмуродов Р. Хатирчи тарихидан лавҳалар. – Тошкент: “Фан”, 1996. – Б.7.
[4] Сабыров А. Сен менинң елимди көр.– Нөкіс: Билим, 2007. – Б.60
[5] Шуқын С. “Қут дарыған Қызылқум. –Тошкент: Абдулла Қадыри атындағы халық мұрасы баспасы, 2004. – Б.47
[6] Уралбаева Г. Развития дошкольного образования в Республике Узбекистан. // Молодой ученый. 2013. №10 (57) - С.401- 403.
[7] Толибов Р. Мустақиллик йилларида мактабгача таълим тизимини ривожлантириш йўллари ва истиқболлари. – Навоий: 2018. –Б.21.

Президентининг фармонлари, қарор ва фармойишлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 22 июндаги 313-сонли "Нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари тармоғини ташкил этиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"[1]ги, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Мактабгача таълим соҳасидаги норматив ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"[2]ги, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг бу борада чиқарилган қарорлари, Мактабгача таълим тўғрисидаги Низомга, ҳамда ўз уставига амал қилиши белгилаб қўйилди.[3]

1992-1998 йилларда Навоий вилоятидаги давлат боғчаларига нисбатан Навоий тоғ-кон металлургия комбинатига қарашли бўлган боғчалар фаолияти, ва таъминоти давлат томонидан қаттиқ назорат қилинган. Навоий вилоятида 1992 йилда мактабгача таълим муассасаларидаги ўзгаришни кўриб чиқадиган бўлсак, вилоят бўйича доимий мактабгача тарбия муассасалари сони 294 та, улардаги ўринлар сони эса 36809 та, ўсиш сурати 100 фоизни ташкил этган. Бу кўрсаткич 1996 йилга келиб мактабгача таълим муассасалари 311 та, ўринлар сони эса 35269 тадан иборат эди. Шундан Навоий шаҳрида жами: 42 та МТМ фаолият юритган бўлиб, ўринлар сони 4292 тани ташкил этган. Бу кўрсаткич Кармана туманида 34 та МТМ ва ўринлар сони 2900 тани ташкил этганини айтиб ўтиш мумкин. Конимех туманида эса жами: 21 та МТМлар мавжуд бўлган, улардаги ўринлар сони 1365 тадан иборат бўлган. Қизилтепа аҳолиси кўп туман бўлганлиги учун 65 та МТМ лар фаолият юритган, улардаги ўринлар сони 5650 тани ташкил этган.[4]

1992 йил 26 июнда Вазирлар Маҳкамасининг 298 – сонли Қарори, 1994 йил ХТВ ва ССВ ларининг 15 сентябр 492 – сонли қўшма буйруғи чиқарилди. Унда ОИТС билан касалланишни олдини олиш чора – тадбирлари белгилаб берилди.[5] Шунингдек, ўқитувчилар, МТМлари ходимларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш бўйича "ишонч хизмати" ташкил этилди. 1996 йил 2 январда ХТВ ва ССВ ларининг 1/1 рақамли қўшма буйруғида Республика реабилитация ва уй шароитларида даволанаётган мактабгача ёшдаги болалар учун махсус дастурларни тузиш бўйича ўқитишни ташкил этиш, ҳамда мактабгача тарбия муассасаларида бола тарбияси шароитларини яхшилаш, вақти-вақти билан текшириб борилиши белгилаб қўйилди. Касаллик аниқланган болалар боғчанинг алоҳида овқатланиш тизими назоратига ўтказилгани қайд этилди.[6]

1995-1996 ўқув йилида Навоий вилоят Хатирчи туманида 45 та доимий болалар боғчаси фаолият кўрсатган бўлсада, уларнинг атиги 6 тасида шароитлар яхши бўлиб, бу муассасалар асосан туман маркази аҳолисига хизмат қилган. Туманда қамров 1235 нафар болани ўз ичига олиб, аслида 3005 нафар мактабгача ёшдаги болалар тарбияланиши керак эди. Туманнинг "Олтинсой" жамоа хўжалигидаги 50 ўринли болалар боғчаси 1993 йилдан буён қаровсиз, ташландиқ бўлиб қолган. Охунбобоев жамоа хўжалигида ҳам 25 ўринли болалар боғчаси яроқсиз ҳолда, ёпиб қўйилган. Боғчалар озиқ-овқат махсулотлари билан вақтида таъминланмаган, тиббий кўрик тарбияланувчилар учун режали жорий этилмаган.[7] Навоий вилоят Қизилтепа туман Меҳнат роҳат жамоа хўжалигидаги "Қалдирғоч" болалар боғчаси ҳамшираси Ҳаловат Рўзиева 1998 йил боғчадаги ҳолатни қуйидагича ҳикоя қилди: "1997 - 1998 ўқув йилида боғчада 57 та тарбияланувчи қамраб олинганди. Улар учун ичимлик суви махсус машинада ташиб келтирилиб, ойлар давомида боғча ёнидаги тик қудуқда сақланарди. Сув сақланадиган идишлар асосан елимдан бўлган. Ўйин майдончаси тор, болалалар кийим жовони ҳам етишмасди. Болалар ухлаб дам олиши умуман назорат қилинмасди. Болалар ётадиган хонанинг деразалари очиб-ёпилмасди. Болаларни тиббий кўрикдан ўтказиш учун болани асосан ота-онаси амбулаторияга олиб борарди. 1997 йилда боғча тарбияланувчиларидан 6 нафари гепатитнинг "А" тури билан касалланган аниқланган."[8]

---

[1]Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари тармоғини ташкил этиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 24.06.1999 йил 313-сонли қарори. https://lex.uz/docs/306724 (мурожаат этилган сана 13.12.2023)

[2] Мактабгача таълим соҳасидаги норматив ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 25 октябрь 225-сонли қарори. https://lex.uz/docs/1259548?ONDATE2=31.07.2017&action=compare(мурожаат этилган сана 15.12.2023)

[3]Толибов Р. Развитие и совершенствование системы среднего специального образование и подготовки кадров специалистов в Узбекистане. (Опыт и проблемы). Автореферат. канд. ист. наук. – Ташкент: 1994. – 36 с.

[4] Навоий вилоят Статистика бошқармаси жорий архиви. 1996 йил маълумоти.

[5] ЎзРИТТҲМА, М-372-фонд, 1- рўйхат, 67-йиғма жилд, 203-варақ.

[6] ЎзРИТТҲМА, М-372-фонд, 1- рўйхат, 67-йиғма жилд, 203-варақ давоми.

[7] Холбоев И. Қишлоқ боғчаларига ким ёрдам беради.//Дўстлик байроғи. 1996 й. 15 сентябрь.

[8]Муаллифнинг Ҳаловат Рўзиева билан шахсий мулоқоти. 2022 yil 11 август.

Халқ депутатлари Кармана шаҳар кенгашининг 1996 йил XII чақириқ VII сессиясида болалар боғчаларини ичимлик суви билан таъминлаш масаласи кўриб чиқилган. Туманда мавжуд 3 та артизиан қудуғи ёнидан яна иккита шундай қудуқ қуриб, биттаси туман марказидаги 14-сонли “Зилола” номли боғчага фойдаланиш учун топширилган. Туманда ҳали ечимини кутаётган муаммолар талайгина. Кармана, Конимех, Навбаҳор туманларида фаолият кўрсатаётган боғчаларнинг ошхона ходимлари-ошпазлар учун махсус кийимлар, ошхона идишлари, сув сақланадиган идишлар, сочиқ ва бошқа буюмлар билан тўла таъминланмаган.

ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЕ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ЕВРОПЕ ОТ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ ДО НОВОГО ВРЕМЕНИ

Навоийкий Государственный университет.
Кафедра «Психология».
Ст. преп**. Ашрапов Равиль Рамзаевич**.

Аннотация. В статье рассмотрены ключевые этапы формирования читательской культуры в Европе от Средневековья до Нового времени. Автор анализирует влияние изобретения книгопечатания, распространения грамотности и развития образовательных институтов на изменение роли книги в жизни европейского общества.

Ключевые слова: читательская культура, Средневековье, Новое время, книгопечатание, социально-философский подход.

Annotatsiya. Maqolada o'qish madaniyati fenomeni ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Muallif zamonaviy jamiyatda kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va o‘zgarishining tarixiy, ijtimoiy-madaniy va aksiologik jihatlarini tahlil qiladi. Globallashuv jarayonlari, raqamlashtirish va ommaviy madaniyatning kitobxonlik amaliyoti va individual qadriyat yo‘nalishlariga ta’siriga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, o'rta asrlar, yangi davr, kitob nashr etish, ijtimoiy-falsafiy yondashuv.

Annotation. The article examines the phenomenon of reading culture from the standpoint of social philosophy. The author analyzes the historical, socio-cultural and axiological aspects of the formation and transformation of reading culture in modern society. Particular attention is paid to the influence of globalization processes, digitalization and mass culture on reading practices and individual value orientations.

Keywords: reading culture, Middle Ages, modern era, book publishing, socio-philosophical approach.

По мере развития культуры общества, мышления, межличностных отношений, совершенствования орудий труда, менялась и усложнялась и сама письменность. Согласно мнению Л.Владимирова, в VII веке до нашей эры греческий алфавит был перенят и переработан в Италии предшественниками римской культуры – этрусками. Это было началом возникновения латинского алфавита, который явился образцом алфавитов Северной и Южной Америк, Европы (кроме греков, восточных и южных славян), Австралии и многих африканских и азиатских народов [1].

Так, в истории Европы появилась традиционная письменность с двумя алфавитами: на Западе Римской империи – алфавит с латинскими буквами, на Востоке – с греческими. Так же, через несколько столетий, в IX веке нашей эры появились два славянских алфавита − глаголица и кириллица; кириллица зафиксировалась в письменности русского, болгарского, сербского и других народов.

Пик мощного развития буквенного алфавита и буквенного письма пришелся на рубеж первого тысячелетия до нашей эры. Вместе с развитием письменности развивалась культура и грамотность государств и народов Европы. В настоящее время разными народами мира

используется около восьми тысяч алфавитов и их разновидности, адаптированных к разным языкам. Одним из самых распространенным считается латинский алфавит с 26 буквами [2].

Таким образом, Древняя Греция и Древний Рим явились источниками развития науки и искусства всей остальной Европы – медицина, история, математика, педагогика, астрономия, литература, риторика, римское право – взявшие начало в двух этих империях, легли в основу знаний всех других государств Европы [3].

Книга в Древней Греции изготавливалась из папирусных свиток, которые доставлялись из Египта. Книга из папирусных свитков была восприимчива к влаге и быстро разрушалась, но благодаря огромной любви греков к литературному искусству и их создателям – писателям, до наших дней дошли достаточно многое количество папирусов. Дело в том, что греки действительно любили читать и часто самостоятельно переписывали произведения любимых авторов и тщательно хранили у себя в домах.

Но в виду неустойчивости папирусных книг и из-за уменьшения вывоза папируса из Египта, греки начали готовить рукописные книги из светлого, гладкого и прочного пергамена – обработанного специальной техникой шкур телят, овец коз и ослов. Рукописная книга из пергамена намного превосходила папирусную рукописную книгу и, начиная со II века нашей эры, более тысячу лет господствовала в Европе. Надо сказать, что в это время же в азиатских странах победоносно «властвовала» книга из бумаги.

Своеобразие древней письменности требовало и своеобразного, умелого чтения текста. Как пишет В.Новикова, «…архаичные тексты писались сплошняком, без деления на отдельные слова, абзацы, без знаков препинания…» [4].

Последующее развитие культуры и просвещения Древней Греции и Древнего Рима, как наиболее развитых стран Европы на рубеже тысячелетий, было ознаменовано двумя знаменательными открытиями в культуре книгочтения. Первым открытием было то, что текст, ранее предназначенный только хранения информации на свитках, кодексах, пергаменах, теперь мог использоваться и для чтения. Сохранившиеся подтверждения того времени – барельефы и вазопись, экспонируют нам факты общения и коммуникации людей, посредством текстов, которые они держат в руках. Чтение, как социальная функция, не только объединяла людей, но и являлась утвердившейся формой общественной жизни. Вторым великим открытием-новшеством того времени было чтение текстов читателями про себя, правильнее, для себя. Читатель, читая про себя, в уединении мог самостоятельно рассуждать, размышлять, анализировать прочитанное. Впоследствии, обсуждать и делиться своим мнением с другими читателями о прочитанном. Кавальо и Шартье называют этот этап перехода от «раздачи текста, умеющими читать, через этап более распространенного чтения, чем «узнавание букв», к углубленному чтению, понимая и истолковывая прочитанное» [5].

В Средние века в Европе в V–XV веках, по мнению современных ученых, было напечатано более миллиона рукописей с латинским алфавитом. И это только то количество произведений, которые через столько столетий – через череду беспощадных, опустошительных войн и разрушительных природных катаклизмов дошли до нас. А сколько рукописей исчезло бесследно… Все это говорит о высокой читательской и книжной культуре в Древней Европе [6].

Согласно исследованиям А.Груши, в средневековой Европе различали четыре группы людей так или иначе относящиеся к культуре чтения: первая группа – неграмотные: они даже не знали о существовании письменности; вторая группа – полунеграмотные: они не умели читать и писать, но знали, что существует устная речь и письменность; третья группа – полуграмотные: примитивно могли читать и писать; четвертая группа – грамотные: свободно и читали, и писали [7].

Таким образом, середина XX века стала началом одного из важных и переломных периодов в истории читательской культуры. Появляются новые средства передачи информации, которые способны охватить намного больший объем читателей, зрителей и слушателей – радио, телевидение, Интернет. Печатные издания уже не в состоянии конкурировать с альтернативными источниками приема и передачи информации.

Итак, социально-исторические и культурные исследования развития культуры чтения в Европе, история появления и развития книги – начиная от глиняных табличек, папирусов, пергамена, свиток, кодексов, книг и электронных носителей – показали, что эволюция читательской культуры в Европе тесно связаны с уровнем экономического развития, грамотностью и образованностью населения, его интеллектуальными потребностями и возможностями. В основе изменения средств восприятия информации, независимо от уровня развитости каждой эпохи, общественного строя является желание большей информированности, познания, понимания происходящего, выживания. И, возможно, когда-нибудь устаревшие к тому времени электронные носители диалектически сменят более продвинутые, обновленные средства получения информации.

Использованная литература

1. Владимиров Л.И. Всеобщая история книги. - М.; Книга, 1988. - С. 16.
2. Говоров А.А., Куприянова Т.Г. История книги: учебник для вузов. - М. 2014. - С, 48.
3. Есипова В.А. История книги. Издательство Томского университета, 2011. - С. 55.
4. Новикова В.Ю. Особенности европейской культуры чтения от античности до современности / Межд. Научн. Журнал Universum. 2015.-№5 (18). - С. 67.
5. История чтения в западном мире от Античности до наших дней / ред.-сост. Г. Кавалло, Р. Шартье. – М., 2008. – С. 19
6. Киселева Л. И. О чем рассказывают средневековые рукописи. - Л.: Наука, 1979. С. 95.
7. Груша А.И. Документальная письменность Великого княжества Литовского (конец XIV – первая треть XVI вв). - Минск: Белорусская наука. 2015 г. - С. 5.

BURHONIDDIN MARG‘INONIY HIDOYA ASARINING YOZISH USLUBI

Ergasheva Hayotxon Samandarovna,
Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada qiyos ilmi, mazhablar, ijtimoiy muammolar, soliq, mulk, majburiyat, farzand tarbiyasi, davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi, adolat, ijtimoiy normalarga oid tushunchalar jamiyatning iqtisodiy va ma’naviy barqarorligini kafoloti bo‘lib xizmat qilishi kabi ilmiy-nazariy manbalarning tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Hidoya, ezgulik, ixtilof, sahli mumtani’, yuksak ma’naviyat.

Burhonuddin Marg‘inoniy Hidoya kitobini yozishda o‘ziga xos uslub yaratdi. Uning har bir iborasi nihoyatda qisqa va muxtasar, fiqhiy hukmlarni ifodalovchi jumlalarning har biri bir umumiy qoida shaklida beriladi. Uning iboralari mo‘’jaz, ya’ni qisqa va sermazmun, so‘zlarining tarkibi puxta, nuqsonsiz bo‘lib, sun’iylikdan uzoq. U ko‘p zarurat sezmasa, sinonim so‘zlardan foydalanmaydi. Hashv va zavoidni (kerak bo‘lmagan ortiqcha so‘zlarni) ishlatmaydi. Uning yozish uslubi “sahli mumtani’”(ya’ni,oson, sodda, lekin uningdek qilib yozish mumkin emas) dir.Muallif, Hidoyani yozishda o‘ziga xos bo‘lgan qisqa so‘zlar, istilohlar (atamalar) va ixcham iboralarni ishlatadi. Ushbu iboralar “Hidoya” ustidan yozilgan ko‘p sharhlar va hoshiyalarda mualliflari tomonidan izohlab berilgan. Mazkur manbalarga asoslanib, Hoji Xalifa (Kotib Chalabiy), Shayx Abdulhaq Dehlaviy va Abdulhay o‘z asarlarida ularni izohlab o‘tganlar. Улардан айримлари қуйидагилардан иборат: Muallif asarda «قال رضي الله عنه» (Undan Alloh rozi bo‘lsin aytadi) desa, o‘zini nazarda tutgan. Usmoniylar qozisi Abu Su’ud aytadi: “Hidoya” sohibi qachon o‘zining so‘zini keltirsa, «قال الا ضعيف فعفا الله عنه»(Zaif banda, Alloh uni afv qilsin, aytadi), iborasini keltirgan. Lekin vafotlaridan so‘ng ba’zi shogirdlari bu iborani «قال رضي الله عنه» (qola rodiyallohu anhu)iborasiga o‘zgartirganlar” .Demak, muallif manmanlik shubhasidan saqlanish uchun o‘zini birinchi shaxsda zikr qilmagan. Kamtarlik ulug‘ faqih va muhaddis rohimahullohning doimiy odati bo‘lgan.Faqih o‘zi ixtiyor qilgan mazhab dalillarini engso‘ngida keltiradi. Yana shunday doimiy odatidan biri, garchi buyuk faqihlarning so‘zlarini sanaganda ko‘pincha birinchi bo‘lib eng kuchli so‘zni keltirsa, ixtilofli so‘zlarga dalil keltirgan vaqtda oxiri keltirilgan dalil oldingisiga javob o‘rnida bo‘lishi uchun eng kuchli so‘zning dalilini oxirida keltiradi.ـفِ انزَايدِ– “fi diyorina”(bizning diyorimizda) deganda, u Movarounnahr shaharlarini nazarda tutadi.لأقأنخياَشمَ“qola mashoyixuna”(bizning shayxlarimiz, ya’ni ustozlarimiz dedilar)dan murod, u Movarounnahr (Buxoro, Samarqand) olimlarini nazarda tutadi.Muallif “fiqh”so‘zi

bilan, aqliy dalilni ifodalaydi. Masalan, «الف قهف يهكذا» (ya’ni ushbu masala haqida aqliy dalil quyidagidek...), Muallif o‘zini xudbinlikdan saqlash maqsadida “men” so‘zini o‘z fikrini bildirishda ishlatmagan.Uning odatlaridan biri shundaki, nazarida ma’qul ko‘ringan mazhab dalilini asar oxirida keltiradi. Qozizoda Rumiy laqabi bilan mashhur bo‘lgan Zayniddin Shayx Muhammad Afandi “Natoijulafkor” kitobida yozishicha, muallif turli mavzular uchun dalil keltirish jarayonida eng kuchli dalilni hammasidan oxirida keltiradi. Bundan uning maqsadi, oxirgi so‘zni yuqorida zikr etilgan masala uchun dalil sifatida qo‘llashdir.Muallif ilgari zikr etilgan oyatga بماتا لوذا “bimo talavna” (tilovat qilganimizga binoan), hadisga بمارويد نا “bima rovayna” (rivoyat qilganimizga binoan) va ilgari keltirilgan aqliy, mantiqiy dalilga بماذكرذا “bima zakarna” (zikr qilganimizga binoan) degan iboralari bilan ishora qiladi. Shuningdek, u “nass”, ya’ni oyat yoki hadis matnida kelgan illat yoki sababni tekshiriladigan masalani isbotlash uchun mantiqiy dalil qilib ishlatadi. U ko‘pincha aqliy dalilni, naqliy dalildan keyin keltiradi. Tug‘ilishi mumkin bo‘lgan savol yoki e’tirozga esa, فاذ قيلكذاق لناكذا “fain qiyla kaza, qulna kaza” (agar bunday deyilsa, shunday javob beramiz) iborasini ishlatgan. U ko‘pincha o‘raganayotgan masala borasida, avvalambor, Abu Hanifaning buyuk shogirdlari Abu Yusuf va Muhammad Shayboniyning qarashini, so‘ngra dalilini keltiradi, undan keyin Abu Hanifaning qarashini zikr etib, uning dalilini shunday izohlab o‘tadiki, har ikkalasi uchun javob bo‘ladi. Muallifning yozish uslubi, u ishlatgan o‘ziga xos iboralar va atamalarniyaxshi bilib olish, “Hidoya”ni o‘qib, undan foydalanishga katta yordam beradi.Muallif “asl” deb aytsa, bu bilan Muhammad Shayboniyning “Mabsut” asarini nazarda tutgan. “Muxtasar” va “Kitob” lafzlarini zikr qilganda esa, “Muxtasar al-Quduriy” asarini nazarda tutadi.Ko‘rilayotgan masala “Quduriy” yoki “al-Jome’ as-Cag‘ir”ning masalasi bo‘lsa, yoki “Bidoya”da zikr qilingan bo‘lsa, so‘z boshida «قال» (aytdi) lafzini zikr qiladi.Agar yuqoridagilardan boshqa asarlarda zikr qilingan bo‘lsa, «قال» (aytdi) lafzini zikr qilmaydi”.... Agar muallif لؤمحماذكِوثيدحلا “bu hadis falon ma’noda”desa, hadis imomlari tomonidan yakdil xulosaga kelinganiga ishora qiladi.Agar ِوثيدحلاِلمحنيلعاذك “biz uni shu ma’noda deb hisoblaymiz”, desa, hadis imomlari emas, balki faqihning o‘zi ushbu xulosaga kelganini tushinish mumkin.Qachonki هذنعُ “falonchiga ko‘ra”, desa, o‘sha kishining mazhabini nazarda tutgan bo‘ladi.هُنَعُ“falonchidan”desa, u kishidan qilingan rivoyat nazarda tutiladi. صنلا “Nass”so‘zidan Qur’oni karim oyatlari yoki hadisi shariflarni nazarda tutadi.“Zohir ar-rivoya”dan maqsad Muhammad Shayboniyning olti kitobi, “Mabsut” (bu kitob “Asl” deb ham ataladi), “Ziyodat”, “al-Jomi’ al-kabir”, “al-Jome’ as-Cag‘ir”, “as-Siyar al-kabir” va “as-Siyar as-sag‘ir” asarlarini nazarda tutgan.“Hidoya”da qiyos so‘zi o‘z joyiga qarab ikki xil ma’noda ishlatilgan. Birinchisi nassda kelmagan masalani nassda kelgan masalaga taqqoslash va unga buning hukmini berish. Ikkinchisi shariatda joriy bo‘lgan umumiy-kulliy qoidalarda.“Hidoya” asarida muallif ko‘pincha qiyos -umumiy-kulliy qoidalarni tark qilib masalani istehson -ko‘pchilik ilg‘amaydigan nozik jihatini e’tiborga olgan. Bundan maqsad odamlar uchun shariat ko‘rsatmalarini oson tushunish va ularga qulaylik yaratishga e’tibor qaratadi. “Hidoya” kitobining yana birxususiyati shundan iboratki, unda muallif “ilmul-xilof” orqali belgilab berilgan qoidalaridan keng ko‘lamda foydalangan. “Ilm alxilof” faniga birinchi bo‘lib asos solgan alloma Abu Zayd Dabusiy13edi.

Burhonuddin Marg‘inoniy “Hidoya”da huquqiy muammolarni yechish jarayonida faqat asosiy mazhablargagina emas, balki zohiriy va avzo‘iy mazhablariga doir fikr-mulohazalarni ham o‘rni kelganda tekshirib o‘tadi va har biri haqida o‘z nuqtai nazarini bildiradi. Ushbu nuqtai nazardan “Hidoya” “Ilm alxilof”ni keng ko‘lamda o‘rganish uchun ham muhim va e’tiborli manba hisoblanadi. Ayni holda uni oxirgi davrda yangi bir fan sifatida yuzaga kelgan “qiyosiy huquq”ning o‘ziga xos bir shakli deb ham qarash mumkin.

“Hidoya”ning eng dastlabki tarjimasi 1190/1776- yilda Bangola hokimi Imodud Davla Masirvolning topshirig‘i bilan arab tilidan fors tiliga mazkur shahar bosh qozisi lavozimida bo‘lgan G‘ulom Yahyoxon Bahoriy, Mavlaviy Tojuddin Bangoliy, Mir Muhammad Husayn Eroniy va Mavlaviy Shariatulloh Sambhaliylar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, bu tarjima “Hidoya” homili mutun al-Bidoya maa tarjimayi forsiy”nomi bilan 1808- yilda Kalkutta shahrida nashr qilingan.14Ana shu forscha tarjimasi asosida Charls Xamelton “Hidoya”ni ingliz tiliga tarjima qilib, 4 jildda 1791 yil Londonda nashr ettirgan. Mazkur tarjimaga asarning bevosita ibodatga oid dastlabki to‘rt kitobi (“Tahorat”, “Namoz”, “Ro‘za” va “Haj” kitoblari) kiritilmagan. Buning sababi, mazkur tarjimadan ko‘zlangan maqsad, mustamlakachilar tomonidan bosib olingan musulmon mamlakatlarida yerli aholini boshqarishda foydalanishni maqsad qilingan bo‘lishi mumkin.

O‘QUVCHILARNING O‘QUV-BILUV KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

Allayev Xurshid Abdurashid o‘g‘li-
Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola o‘quvchilarning o‘quv-biluv kompetentsiyasini rivojlantirish strategiyalariga bag‘ishlangan. O‘quv-biluv kompetentsiyasi, o‘quvchilarning bilim olish, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda qo‘llash, mustaqil ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Maqolada, o‘quvchilarning kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik strategiyalar, shu jumladan faol o‘qitish metodlari, differentsial o‘qitish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, mustaqil o‘qish va tajriba asosidagi o‘qishning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar va o‘quvchilarning bilimlarini real hayotga moslashishi orqali kompetentsiyalarini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Ushbu maqola o‘qituvchilarga o‘quv-biluv kompetentsiyasini rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar:o‘quv-biluv kompetentsiyasi,pedagogik strategiyalar,faol o‘qitish metodlari,mustaqil o‘qish,differentsial o‘qitish,zamonaviy texnologiyalar,amaliy mashg‘ulotlar,o‘qitish metodikasi,kritikal fikrlash,o‘quvchilarning mustaqilligi,innovatsion ta’lim,kompetensiya asosida ta’lim,guruh ishlari,tahliliy fikrlash,o‘quvchilarning faol ishtiroki,ta’lim jarayonida texnologiyalar,o‘qish va yozish ko‘nikmalari

STRATEGY FOR DEVELOPMENT OF LEARNING COMPETENCE OF STUDENTS

Allayev Khurshid Abdurashid’s son is a doctoral student of
Navoi State University (independent researcher)

Annotation

This article is devoted to the strategies of developing students’ academic competence. Academic competence includes students’ ability to acquire knowledge, apply learned knowledge in practice, work independently and solve problems. The article examines the importance of effective pedagogical strategies for developing student competencies, including active learning methods, differentiated instruction, use of modern technologies, independent study, and experiential learning. Also, ways to increase students’ competence through practical training and adaptation of their knowledge to real life are analyzed. This article presents theoretical and practical recommendations to teachers on the development of academic competence.

Keywords. educational and cognitive competence, pedagogical strategies, active teaching methods, independent reading, differentiated teaching, modern technologies, practical training, teaching methodology, critical thinking, student independence, innovative education lim, competency-based education, group work, analytical thinking, active participation of students, technologies in the educational process, reading and writing skills

СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ УЧЕБНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аллаева Хуршида Абдурашидович – докторант
Навоийского государственного университета (независимый исследователь)

Абстрактный. Данная статья посвящена стратегиям развития академической компетентности студентов. Академическая компетентность включает в себя способность студентов приобретать знания, применять полученные знания на практике, работать самостоятельно и решать проблемы. В статье рассматривается важность эффективных педагогических стратегий развития компетенций учащихся, включая активные методы обучения, дифференцированное обучение, использование современных технологий, самостоятельное обучение и обучение на основе опыта. Также анализируются пути повышения компетентности студентов посредством практических занятий и адаптации их знаний к реальной жизни. В данной статье представлены теоретические и практические рекомендации учителям по развитию академической компетентности.

Ключевые слова:учебно-познавательная компетентность, педагогические стратегии, активные методы обучения, самостоятельное чтение, дифференцированное обучение, современные технологии, практическая подготовка, методика преподавания, критическое мышление, самостоятельность

учащихся, инновационное образование, компетентностное обучение, групповая работа, аналитическое мышление, активное участие студентов, технологии в образовательном процессе, навыки чтения и письма

Kirish. Hozirgi zamon ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kompetensiya nafaqat ma’lumotlarni o‘zlashtirishni, balki mustaqil fikrlash, olingan bilimlarni real hayotda qo‘llash, muammolarni yechish va ijodkorlikni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalar tahlil qilinadi.

1. O‘quv-biluv kompetensiyasi tushunchasi.O‘quv-biluv kompetensiyasi – bu o‘quvchining ta’lim jarayonida o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish, yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish va o‘z faoliyatini samarali boshqarish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

-Bilim – nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zlashtirish;

-Ko‘nikma – bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyati;

-Ijodkorlik – muammolarni yechishda yangi yondashuvlarni topish;

-Analitik fikrlash – olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish.

2. O‘quvchilarning o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalari.

2.1. Aktiv o‘qitish metodlari.

-Muammoli ta’lim: o‘qituvchi muayyan mavzu bo‘yicha muammo qo‘yadi, o‘quvchilar esa uni yechish uchun bilim va mantiqiy fikrlashni qo‘llaydi.

-Loyiha usuli: o‘quvchilar guruh bo‘lib muayyan loyiha ustida ishlaydi va bu orqali bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadi.

-Interaktiv mashg‘ulotlar: rolli o‘yinlar, debatlar, munozaralar orqali o‘quvchilarning faolligi oshiriladi.

2.2. Differensiallashgan yondashuv.O‘quvchilarni bilim darajasi va qiziqishlariga qarab guruhlash ularga individual yondashish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali har bir o‘quvchining imkoniyatlari to‘liq amalga oshiriladi.

2.3. Axborot texnologiyalaridan foydalanish.Elektron darsliklar va platformalar (masalan, Moodle, Google Classroom) o‘quvchilarga o‘zlashtirishni mustaqil boshqarish imkonini beradi.Interaktiv dasturlar va o‘yinlar o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini oshiradi.

2.4. Refleksiya va tahlil.Har bir darsdan so‘ng o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qilishi va o‘zlashtirilgan bilimlarni baholashi lozim. Bu jarayon mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

3. O‘qituvchi faoliyatining ahamiyati.O‘quvchilarning o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirishda o‘qituvchining quyidagi vazifalari alohida ahamiyatga ega:

-Dars jarayonida motivatsiya yaratish;

-O‘quvchilarni mustaqil faoliyatga jalb qilish;

-Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

-Har bir o‘quvchining qobiliyatlarini hisobga olish.

Takliflar:

1. Dars jarayonida o‘quvchi faolligini oshirish:Har bir darsda interaktiv usullarni qo‘llash (debatlar, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, jamoaviy loyiha ishlari).O‘quvchilarga savol-javob orqali o‘z fikrini erkin ifodalash imkonini berish.

2. O‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini integratsiya qilish:Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va multimedia resurslardan foydalanish.Elektron platformalar orqali mustaqil topshiriqlarni tashkil etish va nazorat qilish.

3. Individual yondashuv:Har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olib darslar tashkil qilish.Zaif o‘quvchilar uchun maxsus qo‘llanmalar va qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazish.

4. Ijodkorlikni rivojlantirish:O‘quvchilarga ijodiy loyihalar va vazifalar berish (masalan, mavzuga oid esse yozish, muammoli vaziyatlarni hal qilish usullarini ishlab chiqish).San’at, texnologiya va fan sohalarini birlashtiruvchi loyihalarni tashkil qilish.

5. Refleksiya va baholash tizimini takomillashtirish:O‘quvchilarning o‘z faoliyatini baholash va o‘zlashtirgan bilimlarini tahlil qilishni o‘rgatish.Progressiv baholash tizimidan foydalanish (portfolio, loyiha ishlari va o‘z-o‘zini baholash).

6. O‘qituvchilar malakasini oshirish:Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullar bo‘yicha muntazam trening va seminarlar tashkil qilish.Tajriba almashish uchun boshqa maktablar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

7. Ijtimoiy loyihalar orqali o‘qitish:Mahalliy muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalar (atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy tadbirlar tashkil etish).Real hayotga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali o‘quvchilarda mas’uliyat va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish.

8. Qo‘shimcha ta’lim dasturlari va klublarni tashkil etish:O‘quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan fan, san’at, texnologiya va sport yo‘nalishlarida to‘garaklar ochish.Mustaqil tadqiqot va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar ishlab chiqish.

9. Ta’limga oila va jamoatchilikni jalb qilish.Ota-onalar bilan hamkorlik qilish, ularni ta’lim jarayoniga jalb etish.Mahalla va jamoatchilik tashkilotlari bilan o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar tashkil etish.Ushbu takliflar amalda qo‘llansa, o‘quvchilarning nafaqat o‘quv-biluv kompetensiyasi, balki shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlari ham rivojlanadi.

Xulosa.O‘quv-biluv kompetentsiyasini rivojlantirish strategiyalari o‘quvchilarga nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishda yordam beradi, balki ularni mustaqil o‘rganish, kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari bilan ta’minlaydi. Bu esa, ularni jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurituvchi, mustaqil va izchil o‘ylovchi shaxslar sifatida shakllantiradi. Pedagogik metodlar, zamonaviy texnologiyalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali bu kompetentsiyani rivojlantirishga erishish mumkin. O‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash hamda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishiga imkon yaratadi. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bu yo‘nalishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridir.

Adabiyotlar:

1. Ashurova, S. S. (2015). Kompetensiya asosida ta’lim tizimi. Toshkent: O‘qituvchi.

2. Karimov, I. A. (2017). Ta’limda innovatsiyalar va pedagogik texnologiyalar. Tashkent: "Fan" nashriyoti.

3. Xolmatova, N. R. (2018). O‘quvchilarni faol o‘qitish metodlari. Toshkent: Ma’naviyat va Ma’rifat.

4. Pirova, Z. G. (2016). Pedagogik kompetentsiya va uning rivojlanish yo‘nalishlari. Tashkent: "Science and Education".

5. Zaxarov, M. A. (2020). Texnologiyalar va ta’lim metodlari. Tashkent: O‘quvchi.

6.Rasulov S., "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti", Toshkent, 2021.

7. Karimov A., "Ta’limda innovatsion texnologiyalar", Toshkent, 2020.

8.Vygotsky L. S., "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes", Harvard University Press, 1978.

9.Axborot texnologiyalari va ta’lim resurslari: www.ziyonet.uz.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISH

Shopulatova Nasiba Umirovna – Navoiy innovatsiyalar universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
Barnoqulova Marjona Bahodirovna – Navoiy innovatsiyalar universiteti
“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamalakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. [1] Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan muhim hayotiy omil – bu ta’lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma’lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilm-u ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.Albatta ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan ya’ni, xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o‘ylanmagan ishlarga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Maktab, ta’lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo‘lishi Asosiy qonunlarimizda belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va keng qo‘llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy

[1] Karimov. I..A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2010.

masaladir.Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Hozirgi globallashuv davri barcha insonlardan bir necha tillarni mukammal bilishni talab etmoqda. Xususan, yurtimizda ona tilining chuqur o‘rgatilishiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. O‘quvchilarning yangi tilga qiziqishini oshirish va ular egallagan bilimlarni mustahkamlash uchun o‘qituvchi ko‘plab izlanishlar qilishi kerak, albatta. Yosh o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida ularning yoshini, qiziqishini, iste’dodini, dunyoqarashini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bola ona tilini o‘rganishni qanchalik erta boshlasa, uning samarasi shunchalik yaxshi bo‘ladi.

Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining grammatik savodxonliklarini oshirish bir muncha murakkab sanaladi. Ularning diqqati muntazam bo‘lmaydi va ular tezda zerikib qolishlari mumkin. Shuning uchun darsning samarasi va o‘quvchilarning darsga munosabati bevosita darsning qanchalik qiziqarli tarzda olib borilishiga bog‘liq. Ona tili darslari har bir o‘quvchi uchun qiziqarli va maroqli bo‘lishi uchun o‘qituvchi darslarda rasmli tarqatmalar, turli xil ta’limiy o‘yinlar, har xil she’rlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ashulalardan foydalanishi ahamiyatlidir. Kuylash orqali, ya’ni she’rlarni ritmga solib aytish orqali bolada “til hissi” uyg‘onadi.

Har bir dars jonli, hissiyotga boy tarzda o‘tkazilishi zarur, zero o‘quvchilar darsdagi jarayonning har bir bosqichidan ijobiy taassurot ola olsinlar va ular mashg‘ulotdan mamnun bo‘lishlari muhimdir. Bunda ko‘rgazmali qurollar katta rol o‘ynaydi. Turli xil rasmli kartochkalardan, ta’limiy o‘yinlardan foydalanish darsning yorqin va maroqli bo‘lishini hamda o‘quvchilarning bilimlarni puxta o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi.

Quyida biz o‘quvchilarning grammatik savodxonliklarini oshirishga xizmat qiladigan “Bilmasvoyning xatosini toping” ta’limiy o‘yinini ko‘rib o‘tamiz.

Ushbu o‘yindan darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash va mustahkamlash qismida foydalanilsa maqsadga muvofiq. O‘quvchilarga x va h harflari ustida ishlash uyga vazifa qilib topshirilgan edi. O‘qituvchi uyga vazifani bajarilganligini tekshirish maqsadida barcha o‘quvchilarga tarqatmalar tarqatadi.

HONA, XONTAHTA, HIZMAT, XASHAMATLI, XOVLI, IHCHAM
DASTURHON, XURMAT, MAXALLA, OSHHONA, DAHLIZ, ISHTAXA

O‘quvchilarga tarqatmadagi xatoliklarni topish va tuzatish topshirig‘i beriladi. “*Bilmasvoyning xatosini toping”* o‘yini orqali uyga vazifaning bajarilganligi tekshiriladi.

“Bilmasvoyning xatosini toping” ta’limiy o‘yinini qo‘llashda
kutiladigan natija:

- o‘quvchilarda imloviy savodxonlik ko‘nikmalari shakllanadi;
- ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi;
- xotirani mustahkamlaydi;
- o‘quvchilarga estetik ruh bag‘ishlaydi;
- ularning o‘zbek tili faniga bo‘lgan qiziqishlari yanada oshadi;

“Topqirlar musobaqasi” ta’limiy o‘yini

Bizga ma’lumki, ona tilini o‘rganish 1-sinfdan boshlanadi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi harflarini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning grammatik savodxonliklarini oshirish uchun o‘qituvchilardan pedagogik mahorat talab etiladi. “Topqirlar musobaqasi” ta’limiy o‘yini o‘quvchilarning grammatik savodxonliklarini oshirish uchun xizmat qiladigan o‘yinlardan biri sanaladi. Ushbu o‘yindan darsning o‘tilgan mavzuni so‘rash yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida foydalanilsa maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarga yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan shaklda tarqatmalar tarqatiladi. So’ngra ularga bo‘g‘inlarni ifodali o‘qish va nuqtalar o‘rniga mos harflarni qo‘yib so‘zlar tuzish topshirig‘i beriladi. Tezkorlik va toqirlik bilan so‘zlarni to‘g‘ri tuza olgan o‘quvchilar g‘olib hisoblanadilar.

“Topqirlar musobaqasi” ta’limiy o‘yinini qo‘llashda kutiladigan natija:

- har bir o‘quvchi ishtiroki ta’minlanadi;
- ularni zehnli, idrokli qilib tarbiyalaydi;
- o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifani tekshirishda, yangi mavzuni mustahkamlashda yaxshi samara beradi;
- o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini boyitadi, tashabbusini orttiradi;
- o‘quvchilar faolligini oshiradi;

Ona tilini erta yoshdan boshlab o‘rgatish bolada o‘rganilayotgan tilga qiziqish va ijobiy munosabat, xalqlar madaniyatiga qiziqish, o‘zini shaxs sifatida ma’lum bir til va madaniy jamiyatga tegishli ekanligini anglash, ona tilini o‘rganishning muhimligini tushunish kabi xislatlar shakllanadi.

TASAVVUFDA BAG‘RIKENGLIK VA MUROSA MADANIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

NavDPI Tarix fakulteti talabasi **Shermummadov Hasan**
Ilmiy rahbar: NavDPI Ijtimoiy fanlar kafedrsi katta o‘qituvchisi **Sh.Turobova**

Abstract: This article examines the origins of Sufism, its essence, the views of Sufis known in Sufism, the history of the emergence of sects in Sufism, in particular, the sects of Yassavia, Kubroviya, Naqshbandi, and the essence of these sects.

Keywords: Sufism, sect, Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandi, renaissance, religious, sheikh.

Markaziy Osiyo IX - XII asrlarda madaniy yuksalish - Uyg‘onish davrini o‘z boshidan kechirdi va butun musulmon Sharqida, jahonda yangi madaniy qadriyatlarni yaratish jihatdan katta yutuqlarga erishdi. Bu olamshumul jarayonning eng muhim tomonlaridan biri – dunyoviy va diniy ilmlar barqaror rivoj topdi, ma’naviy jihatdan bir-birini to‘ldirdi va boyitdi. Bu davrda O‘rta Osiyoda tasavvuf ham shakllandi va tez taraqqiy etdi. Tasavvuf ham diniy ilm, ham e’tiqod sifatida yangi yo‘nalishlarni vujudga keltirdi. Xo’jagon-Naqshbandiya, Yassaviya, Kubroviya tariqatlari O‘rta Osiyoda shakllanib, boshqa musulmon o‘lkalariga ham tarqaldi, rivojlandi.

Tasavvuf – bu musulmonlarni halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimni o’zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da’vat etuvchi dunyodagi turli xalqlarning ijtimoiy, falsafiy, badiiy tafakkuridan keng o’rin egallagan va ko’p tarmoqli murakkab ta’limotdir. Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarida yozilishicha, Shayx Abdusaid Abulxayrdan “Tasavvuf nima?” deb so’raganlarida shunday javob qilgan ekanlar: “Tasavvuf - bu boshingda ne bo’lsa, chiqarib tashlash, tasavvuf - bu qo’lingda neki bor, qo’ldan chiqarish, tasavvuf - bu boshqalardan senga nima ozor yetsa, ranjimaslik”[1].

Tasavvuf uzoq asrlar davomida xalqimiz ma’naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan. Insonning ruhiy, axloqiy yuksalishi ilohiy muhabbat bilan yuksalib borish bu ta’limotning asosiy g‘oyalari hisoblanadi. Shu bois tasavvuf chuqur insonparvarlik g‘oyalari bilan bog‘liq bo’lib, haqiqat talabida yurgan odamlar qalbiga yo’l topdi, odamlarning poklik, abadiy hayot, ko’ngil hurriyati haqidagi orzularini ifodalab keldi. Xalqimiz so’fiy-darveshlarga hurmat-ehtirom orqali Alloh taologa, uning insonni ulug‘lagan qudrati va insonga berilgan mavqeyiga e’tiqodlarini izhor etganlar. Shayxlarning karomatlari, so’zlari va siyrat-u surati yuksak axloq va ilohiy muqaddaslik namunasi sifatida qabul qilingan. Tasavvuf shayxlari xalqning ma’naviy rahbarlari, ruhoniy murabbiylar sifatida maydonga chiqib, payg‘ambar faoliyati, holatlarini davom ettirishga jazm etganlar. Shu bois, tasavvufning tarixiy taraqqiyoti, nazariy jihatlarini o’rganish borasida, yirik shayxlar, avliyolar faoliyatini o’rganish ham muhim hisoblanadi. Voqean, nazariy qarashlarning o’zi ham shayxlarning so’zi va holatlari, asarlari, nasihatlari, ular haqidagi xotiralar, rivoyat va hikoyalarni o’rganish zamirida umumlashtirilgan.

Ulug‘ so’fiy va shoir Farididdin Attor o’zining “Tazkirat ul-avliyo” asari muqaddimasida: “Avliyolarning so’zi kishi qalbining malhami va ruhining quvvatidir, kimki avliyo so’zini diliga jo etsa, u Qur’oni Karim va Hadislar mag‘ziga eshik ochadi, o’zining holati, axloqini, qilayotgan ishlarining yaxshi-

[1] Ibrohim Haqqul. “Tasavvuf va She’riyat”. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent, 1991. – B.10-15.

yomonligini o'ylaydigan bo'lib qoladi va hayot, oxirat, insoniylik xususida mulohaza yuritib, ichki olamini tartibga soladi", - deb qayd etganlar[1].

Islom tasavvufining eng buyuk xususiyatlaridan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmay, tasavvuf tamoyillarini tariqatlar yo'li orqali amaliy hayotda tadbiq etish hamdir. Nazariyada "tasavvuf" deb atalgan bu oqimga amaliyotda "tariqat" deb ta'rif beriladi.

Tariqat. Tariqat – arabcha "yo'l" degan ma'noni bildirib, tasavvuf adabiyotida "Allohga yaqinlashmoq va uning roziligiga erishish maqsadida yurish kerak bo'lgan komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi yo'l" demakdir. Ushbu yo'lda yurgan kishi "solik" deb ataladi. Solik bu yo'lda yurish davomida Allohni bilib-tanigunga qadar turli manzillar va maqomlarni bosib o'tadi. Ba'zi soliklar bu safarini nihoyasiga yetkaza olmay, yarim yo'lda qolib ketadilar. Ba'zilari esa bu mashaqqatli yo'lni bosib o'tib, Allohga vosil bo'ladilar, bu kishilar "vosil" deb ataladi. Bu yo'lchilik – safar chog'idagi manzillarni bosib o'tish "sayru suluk" deb ataladi[2].

Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. O'rta Osiyoning turli o'lkalarida tasavvufning turli tariqatlari paydo bo'ladi. Xususan, XII asrda Turkistonda Yassaviya tariqati, XII asr oxirida Xorazmda Kubroviya tariqati, XIV asrda Buxoroda Xo'jagon-Naqshbandiya tariqati vujudga keladi.

Yassaviya tariqati. Yassaviya tariqati asoschisi Ahmad Yassaviy hisoblanadi. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur "Devoni Hikmat" asarida bayon etilgan. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillashtiradi. Yassaviya tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g'oyasi olg'a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farog'atidan voz kechib, uzlatda toat va ibodat yo'lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Yassaviya tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etilsa-da, inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi. Insonning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi.

Kubroviya tariqati. Kubroviya tariqati asoschisi Najmiddin Kubro (asl ismi Ahmad ibn Umar Xivaqiy, uning taxallusi "dinning ulug' yulduzi" degan ma'noni anglatadi) hisoblanadi. Yassaviya tariqatidan farqli o'laroq, Kubroviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubroviya tariqatida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi. Xo'jagon-Naqshbandiya tariqati. Xo'jagon-Naqshbandiya tariqati asoschisi Bahouddin Naqshband hisoblanadi. Xo'ja Bahouddin "Hayotnoma" va "Dalil al-oshiqin" nomli asarlar yozib, o'z tariqatini yaratadi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sof dil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning "Dilba yor-u dastba kor" ("Ko'ngil Allohda bo'lsin-u, qo'l mehnat bilan band bo'lsin") degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tasavvuf ilmini o'rganish, uni ommaga to'g'ri yetkazib berish, musulmon ahlining burchi hisoblanadi. Yassaviya tariqatining asosini tashkil etadigan "shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi" degan tushuncha hozirgi davrda dolzarb hisoblanadi. Xususan, tasavvufning o'zi ham ma'rifat orqali butun musulmon olamiga yoyilgan. Buni biz Yassaviyning "Devoni Hikmat" asaridan ko'rishimiz mumkin. Bu maqolani yozish davomida men ham O'zbekistonlik tasavvufshunos olimlarning ishlari bilan tanishib chiqdim. Xususan, Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqul, Hamidjon Homidov kabi tasavvufshunos olimlarning risolalari, maqola va kitoblarini o'rganib chiqish davomida menda tasavvuf haqida to'liq tushuncha shakllandi deb aniq aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ibrohim Haqqul. "Tasavvuf va She'riyat". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent – 1991-yil
2. Hamidjon Homidov. "Tasavvuf allomalari". Toshkent: "Sharq", 2009.
3. Usmon Turar. "Tasavvuf tarixi". Toshkent: "Istiqlol",1999.
4. Hamidulla Boltaboyev. "Islom tasavvufi manbalari" (Tasavvuf nazariyasi va tarixi). Toshkent: "O'qituvchi", 2005.
5. Najmiddin Komilov. "Tasavvuf". Toshkent: "Movarounnahr", 2009.

[1] Hamidjon Homidov. "Tasavvuf allomalari". Toshkent: "Sharq", 2009. –B.25.
[2] Usmon Turar. "Tasavvuf tarixi". Toshkent: "Istiqlol",1999. –B.30.

БОЛЬШЕВИКЛАРНИНГ БУХОРОГА ТАЖОВУЗИ ЁХУД “КОЛЕСОВ ВОҚЕАСИ” ТАРИХИ

Зухриддин Жунаев
“Тарих” кафедраси доценти в.б., т.ф.ф.д (PhD)

Маълумки, Октябр тўнтаришидан кейин совет Россияси билан Бухоро ўртасидаги муносабатлар кескин ёмонлашган эди.1917 йил 2 декабрда бўлиб ўтган Бухоро амирлигидаги рус посёлкалари вакилларининг II область съездида Россия ва Туркистон ҳукуматининг Бухоро ишлари бўйича ҳайъати сайланди. Орадан кўп ўтмай Ёш бухороликлар партияси Файзулла Хўжаев бошчилигидаги делегацияни кескин ва қатъий чора кўриш учун Тошкентга жўнатишди. Улар Бухорода очиқ қўзғолон кўтариш учун шароит етилди, унда камида 30 000 киши иштирок этади, деб Туркистон ўлкаси Халқ Комиссарлари Советини ишонтирдилар[1].

1918 йил 28 февралда (айрим манбаларда 1918 йил 1 мартда) Туркистон ўлкаси Халқ Комиссарлари Совети раиси Ф.И.Колесов (1891–1940) қизил гвардиячилар отряди (3 500 киши)[2] ҳамроҳлигида Янги Бухоро (Когон) шаҳрига келди. Ёш бухороликларнинг 7 кишидан иборат инқилобий қўмитаси – Файзулла Хўжаев раислигида (аъзолар: Абдурауф Фитрат, Отаулла Хўжаев, Абдулвоҳид Бурҳонов, Исҳоқ Ағдаров, Қори Йўлдош Пўлатов, Фазлиддин Махсум) тузилди. Улар билан бўлган қисқагина кенгашдан кейин Ёш бухороликлар ҳамда Колесов номидан амирга имзо чекиш учун манифест таклиф қилинди, унда қуйидаги бандлар бор эди: “1) Сўз, матбуот ва бошқа демократик эркинликлар берилади; 2) амир ҳузурида Ёш бухороликлардан иборат Кенгаш бўлиши керак, амирнинг маслаҳатчилари ўз лавозимларидан бўшатилади; 3) Бухоро ҳукуматининг барча аъзолари Ёш бухороликлар партияси томонидан тавсия этилган янги аъзолар билан алмаштирилиши лозим; 4) ўлим жазоси ва тан жазоси бериш бекор қилиниши даркор; 5) бир қатор солиқлар бекор қилиниши зарур”[3].

Амир Саид Олимхон 24 соат ичида ушбу талабларга рози эканлигини маълум қилса, у ўз ўрнида қоладиган бўлди. Мабодо у рад жавобини берадиган бўлса, қурол кучи билан амирлик тугатилиши пўписа қилинди. Амир Олимхон вақтдан ютиш учун музокаралар бошлади. У ўз жавоб мактубида ислоҳотларни аста-секин амалга ошириши мумкинлигини баён қилди. Бу жавобдан қаноатланмаган Ф.И.Колесов ҳарбий ҳаракатларни бошлашга буйруқ берди. 1918 йил 2 мартда Бухорога ҳужум бошланди. Бу ҳужумда ҳар бири 200 кишидан иборат Ёш бухороликлар ва Янги Бухоро (Когон) ишчиларининг отрядлари ҳам қатнашдилар[4].

Бухоро шаҳри яқинидаги Фатҳободда бўлган дастлабки тўқнашувда амир Олимхон қўшинлари мағлубиятга учраб, шаҳарга чекиндилар. Вазият бундай тус олишини кутмаган Амир Олимхон Ф.И.Колесовга ўзининг махсус фармони олийсини юбориб, унда барча талабларга рози бўлиш билан бир қаторда мамлакатда солиқлар камайтирилиши, тан ва ўлим жазоси бекор қилинишини айтди. Ҳарбий ҳаракатлар тўхтатилиб, музокаралар қайтадан бошланди. Саид Олимхон бу фурсатдан унумли фойдаланиб, 35 000 кишилик лашкар тўплади. Бухороликлар шаҳар ҳимоясига қўзғалди. Карманадан Қоракўлгача 170 км масофадаги темир йўл излари амир сарбозлари томонидан бузиб ташланди[5].

Уруш ҳаракатлари қайта бошлангач, Ф.И.Колесов отряди қуршовда қолди. Тошкент, Самарқанд, Янги Чоржўй, Ашхабод, Марв, Янги Термиз гарнизонларидан қизил гвардиячи отрядлар Колесовга ёрдам учун жўнатилди. Бироқ Бухорони босиб олиш режаси амалга ошмаслигига кўзи етган Ф.И.Колесов 5 март куни кечқурун Тошкент томонга чекинишга буйруқ беради.

Тошкентдан зудлик билан Ф.И.Колесовга ёрдамга юборилган қизил гвардиячилар 11 мартда Кармана шаҳрини эгалладилар. Улар Бухоро амирининг Кармана атрофидаги ёзги саройида

---

[1] Касымов Ф., Эргашев Б. Бухарская революция. Дорогу выбрал курултай // «Родина» (Москва), 1989, №11. –С. 8.

[2] Маҳаллий тарихчи Муҳаммад Али Балжувоний “Тарихи нофеий” (“Фойдали тарих”) асарида совет аскарлари сонини 10 000 киши атрофида келтиради. Бу ҳақда қаранг: Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих). –Тошкент: “Академия”, 2001. –Б.53.

[3] Бухоро Шарқ дурдонаси. –Тошкент: “Шарқ”, 1997. –Б.71.

[4] Ўзбекистон миллий архиви, И-3-фонд, 1-рўйхат, 27-йиғма жилд, 56-варақ.

[5] Каримов Р., Ражабов Қ. Колесов воқеаси // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том 4. –Тошкент: “ЎзМЭ нашриёти”, 2002. –Б.655.

жойлашдилар ва бу ерни талон-тарож қилиб маишатга берилдилар. Шундан сўнг босқинчиларни бухороликлар Карманадан қувиб чиқаришган.

Тошкентдан жўнатилган Колузаев бошчилигидаги қизил гвардиячилар отрядлари Қизилтепада Ф.И.Колесов отряди билан бирлашди. Ф.Колесов Қизилтепага келгач, сулҳ музокаралари олиб бориш учун Саид Олимхонга вакиллар жўнатди. Амир Саид Олимхон ўз навбатида Ф.Колесов билан сулҳ музокаралари олиб боришга тайёр эканлигини билдирди. 17 мартда Ф.Колесов отряди билан Самарқандга етиб келди. Бу пайтда қизил аскарлар Карманадан ташқари Хатирчи, Зиёвуддин, Мир, Қизилтепа, ҳатто Қоракўл ва Чоржўйни эгаллаб, талон-торож қилишган эди[1].

Большевикларнинг Тошкентдаги сиёсий мухолифлари (сўл эсерлар, кадетлар ва б.) улар тутган босқинчилик йўлини маъқуллашмади. Шунинг учун ҳам Туркистон ўлкаси Халқ Комиссарлари Совети Амир Саид Олимхон билан музокаралар олиб боришга мажбур бўлди.

1918 йил 25 мартда Қизилтепада совет Туркистони билан Бухоро амирлиги ўртасида битим тузилди. Битимни Бухоро амирлиги номидан бош закотчи Мирзо Салим Парвоначи, Абдурауф Бий Хожа Карвонбоши Азизов, Мир Бобо Мирохўр, Россия томонидан отряд комиссари В.Я.Шмидт, ҳарбий мутахассислар: Г.А.Колузаев, Степанов, В.М.Копилов, Туркистон ўлкаси темир йўллар комиссари А.Ф.Солькин, Янги Бухоро шаҳар бошлиғи А.Я.Гальперин, Туркистон ўлкаси ХКСнинг махсус вакиллари П.П.Введенский ва Ҳ.Мирбадалов имзолашди[2]. Тўққиз банддан иборат битим матнидан шуни англаш қийин эмаски, Бухоро амирлиги фақат жабр кўргангина эмас, аксинча ўз давлати ҳудудидаги ҳарбий ҳаракатларда айбдор деб ҳисобланди ва товон тўлашга мажбур қилинди[3]. Бухоро амирлиги ўз сарбозлари миқдорини 12 000 кишидан оширмаслик мажбуриятини олди.

Қизилтепа сулҳ битими имзолангач, қизил аскарлар амирлик ҳудудидан чақириб олинди. Ф.Колесов отряди Кармана ва Хатирчида талон-тарож қилинган катта бойлик (амирлик хазинаси ва б.) билан Тошкентга қайтади.

Колесов воқеасидан сал кейин Туркистон ўлкасининг фавқулодда комиссари қилиб В.И.Ленин томонидан тайинланган П.А.Кобозевнинг шоҳидлик беришича, “Степанов ва Колузаев бошчилигидаги Тошкент–Перовск қизил гвардиячилар отрядлари Бухорога қилган ҳужумидан жуда кўп миқдорда мусодара қилинган пул, сигир, от ва бошқаларни олиб қайтди:улар бу ўлжанинг бир қисминигина республика хазинаси ва ҳукуматига расмий равишда топширди, анча қисмини ўзларида яшириб олиб қолишди... Бухоро ва Қўқондан Колесов ўнларча миллион рубль олиб келиб, билганича сарфлади, пуллар дарёдек оқиб келарди, ҳеч ким уларнинг ҳисобини олмаган”[4]. Назаримизда, Туркистон фавқулодда комиссари большевик П.А.Кобозевнинг бу иқрори ҳеч қандай таҳлилга муҳтож эмас.

Бу ўринда шу нарсани алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки, Ф.И.Колесовнинг иғвогарона ҳаракати ўз моҳиятини йўқотганлиги ва муваффақиятсизликка учраганлигининг асосий сабаби ҳозирги пайтда айрим тарихчилар ёзаётганидек, Ёш бухороликлар партиясининг кенг халқ оммаси ишончини оқламаганлигидан эмас, балки қизил гвардиячи отрядлар, гарчи улар сафида Ёш бухоролик жадидлар бўлса ҳам, Бухоро ҳимоячилари томонидан истилочи ва босқинчи сифатида қабул қилинганлигида эди. Шунинг учун ҳам Бухоро халқи томонидан амир Олимхон ўша пайтда ҳақли равишда қўллаб-қувватланди[5].

“Новый Туркистан” газетаси сал кейинчалик воқеалар жараёнини шундай таҳлил қилган эди: “Халқ орасида кенг кўламда иш олиб бориш ўрнига, эски тартиботдан халос бўлиш йўлида ҳар бир халқ босиб ўтиши лозим бўлган ўта машаққатли йўл ўрнига, халқ билан тайёргарлик ишлари олиб бориш ўрнига ва фақат халқ орқали инқилоб қилиш ўрнига Ёш бухороликлар партияси... милтиқларимиз найзалари ёрдамида инқилоб қилишга жазм этди...”[6].

Шундай қилиб, Ф.Колесовнинг Бухорога ҳарбий ҳужуми натижасида энг аввало амирликнинг яқин қўшнилари бўлган совет Россияси ва Туркистонида большевиклар томонидан ўрнатилган янги режимнинг ҳақиқий моҳияти кўриниб қолди. Амир Саид Олимхон ўз ички сиёсатида катта

---

[1] Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор Р.Я. Раджапова. –Ташкент: «Шарк», 2000. –С.294.

[2] Қаранг: Протокол соглашения, заключенного между русскими и бухарскими Уполномоченными в Кызыл-Тепе 25 марта 1918 года // Бюллетень САГУ. Выпуск 16. –Ташкент: 1927. –С.96-98.

[3] «Советский Туркестан» (Ташкент), №12. 28 июня 1918г.

[4] Ўзбекистон миллий архиви, И-3-фонд, 1-рўйхат, 1450-йиғма жилд, 17-варақ.

[5] Ражабов Қ., Мақсудов Р. Қизилтепа тарихи. –Тошкент: “Muharrir”, 2011. – Б.125-126.

[6] «Новый Туркестан», 9 апреля 1918 года.

миқдордаги замонавий қуролланган мунтазам армияни тузишга интилди, у Афғонистон ва бошқа хорижий мамлакатлар билан яқинлашишга ҳаракат қилди. Шунингдек, амир Олимхон томонидан Бухоро ҳудудидаги 3 000 киши жадидчиликда айбланиб, ноҳақ қатл этилди ва уларнинг бутун мол-мулки мусодара қилинди.

Ўша давр воқеаларининг бевосита шоҳиди бўлган маҳаллий тарихчи Муҳаммад Али Балжувонийнинг "Тарихи нофеий" ("Фойдали тарих") асарида келтирилишича, бу фожиалардан кейин Бухоро давлати ҳудудини тахминан 222 Ёш бухороликлар тарк қилишга мажбур бўлган[1]. Бу ҳисобга таъқиб қилинишидан қўрқиб, Бухородан чиқиб кетган минглаб оддий кишилар кирмайди.

MUSIQA TA'LIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Egamberdiyev Uyg'un Sayfiddin o'g'li-
NavDPI magistranti
Ilmiy rahbar: Nurullayev Farrux Gaybullayevich -
BuxDU p.f.f.d., professor

Annotatsiya: Maqolada musiqa mashg'ulotlari tushunarli, ilmiy, ta'sirchan, ko'rgazmali, ko'rsatmali, texnika vositalari yordamida o'tkazilgandagina yaxshi natijalarga erishish mumkinligi va uning ishi rejali, tizimli yo'lga qo'yilishi oddiydan-murakkablikka tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirilishi lozimligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, innovatsiya, Interfaol metodlar.

Bugungi kunda jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak manaviyat - yengilmas kuch" asarida musiqa san'ati haqida ham o'z fikrlarini bildirganlar. Musiqaning inson ruhiy kamolotiga ta'siri haqida gapirib albatta, bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmasligini ta'kidlaganlar.

Mamlakatimizning ma'naviy yuksalishi ko'p jihatdan milliy qadriyatlarimizni qayta tiklashni chuqur anglash, qalb bilan his etgan holda keng ko'lamda targ'ibot qilish, va eng muhimi yosh avlodni tarbiyalashni izchil taqozo etadi. Bu borada musiqiy qadriyatlarimiz alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, o'zbek halqi musiqasiga mansub turfa shaklli kuy-qo'shiqlar xalqimizning chinakkam bebaho ma'naviy boyliklarini tashkil etadi.

Musiqa o'zining betakror tabiati bilan o'quvchilarning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir qilish kuchiga ega. Zero, kuy va ohang ta'sirida o'quvchilarda xissiyot olamining o'sishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilishi, go'zallikni sevish, tabiatni asrash, oila Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagi tobora ortib boradi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. "Musiqa ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatish quvvatiga ega, hamonki, musiqa shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash predmetlari qatoriga qo'yilmog'i lozim", - deb aytgan edi qadimgi buyuk yunon faylasufi Arastu. SHunday ekan musiqiy ta'lim orqali o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash o'ziga xos pedagogik yondashuvni talab etadi. Innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan -kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

[1] Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих). Тожик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, З.Чориев. –Тошкент: "Академия", 2001. –Б.54.

"Texnologiya"- grekcha "techne" so‘zidan olingan bo‘lib, mahorat, hunar va "logos"- tushuncha, ta’limot ma’nosini anglatadi. Texnologiya samarali vositalar yordamida ishlab chiqarishda mahsulotning sifat o‘zgarishga olib keluvchi tizimli usullar yig‘indisidir.

“Innovatsiya” - inglizcha inovation (yangilik kiritish, yangilik yaratish, novatorlik) so‘zidan olingan bo‘lib, novatsiyalarga invistitsiyalar sifatida talqin qilinadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar bu -jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi -talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o‘quvchilarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;
- o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- o‘qituvchi va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchining bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishi uchun balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘lar, bular o‘qituvchi va o‘quvchiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirishi zarur, bunda o‘qituvchiga u tomonidan bo‘lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitini, eng asosiysi, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafotlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o‘quvchini ta’limning markaziga olib chiqish kerak.

Darsning texnologik xaritasini qay ko‘rinishda yoki shaklda tuzish, bu o‘qituvchining tajribasi, qo‘ygan maqsadi va ixtiyoriga bog‘liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak. Texnologik xaritani tuzilishi o‘qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o‘z aksini topadi.

O‘qituvchi tomonidan o‘zi o‘qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg‘uloti bo‘yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik xarita unga fanni, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishiga (bir semestr, bir o‘quv yili bo‘yicha), yaxlit o‘quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini ko‘ra olishiga yordam beradi.

Shunday ekan yangi innovatsion texnologiyalarni o‘rganish uchun o‘qituvchilarni qayta tayyorlashni tashkil etish; multimedia o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqqan o‘qituvchilarni rag‘batlantirishni; internet tarmog‘i orqali on-lain konferensiyalar, seminarlar va boshqa o‘qitish tadbirlarini tashkil etish; ta’lim muassasalarida multimedia sinflari, laboratoriyalar va kutubxonalar sonini ko‘paytirish; internet va boshqa elektron o‘quv vositalari bo‘yicha o‘qitish akademik soatlari miqdorini ko‘paytirish; tahsil oluvchilar bilan zamonaviy axborot texnologiyalari haqida ko‘proq ilmiy tanishtiruv ishlarini olib borish zarur bo‘ladi.

Shunday ekan, musiqa madaniyati darslarini ham hozirgi zamon talabida olib borish muhim ahamiyatga egaligini har birimiz anglab etmog‘imiz darkor. Ammo e’tibor bersak, umumta’lim maktablaridagi musiqa madaniyati sinf xonalarida fortopianino, cholg‘u sozlari respublikamizning ko‘pgina maktablarida mavjud emas. Bo‘lsa ham yaroqsiz yoki talab darajasida emas. Musiqa

madaniyati darsi qashqar rubobi, dutor va boshqa o‘zbek milliy cholg‘u sozlarida o‘tib kelinmoqda. Natijada fan - texnika rivojlangan bir paytda yoshlarimizga an’anaviy dars o‘tish orqali musiqa faniga nisbatan qiziqishi pasayadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar dan foydalaib, ta’limning samaradorligini oshirish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o’quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent, Ma’naviyat. 2008-yil.

2. Тафаккур гулшани. В. Воронцов композицияси Е.Еулом номидаги “Адабиёт ва санъат” нашриёти Т.: 1981- 159 б.

3. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) https://t.me/joinchat/ - Music teacher, https://infourok.ru - music lessons

4. Muminova Muqaddas Riskulovna ***International Journal of Mechanical Engineering.*** The Innovative Technologiyes Of Teaching In Musical Edukational Establishments1764-1767- betlar. 2022- йил.

MUSIQA O‘QITUVCHILARINI INNOVATSION TA’LIM FAOLIYATIGA TAYYORLASH

Hikmatova Dilnoza Himmatovna-
NavDPI magistranti
Ilmiy rahbar: O.O.Fayziyev
NavDPI professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan bo‘lajak musiqa madaniyati fani o‘o‘qituvchilarini shu jumladan xozirgi zamon talablari asosida puxta kasbiy tayyorgarlikga ega, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lib yetishlariga asosiy e’tiborini qaratmoq fan va ta’lim qolaversa kadrlar tayyorlash tizimi oldiga qo‘yilayogan eng dolzarb vazifalar ta’limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta’sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvoffaqiyatini belgilab beruvchi omillar to‘grisida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, Texnologiya, Kommunikatsiya, O‘qituvchi, Kadr, Pedagogika, Musiqa, Metodika, Dirijyor, Solfedjio, Amaliyot, Madaniyat.

O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va istiqbolini ta’minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda bo‘layotgan o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lib, bunday o‘zgarishlarda faol ishtirok etish uchun kasbiy soha egalaridan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, intelektual salohiyat, keng dunyoqarash va axborot kommunikatsiyalaridan ustalik bilan foydalanish malakalariga ega bo‘lishlik talab etiladi. Ana shu talablar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimiz, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanib borishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri, bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali,ongli mutaxasis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz[1]”!

Shuning uchun ham “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maqsad va vazifalarini amalga oshirishning birinchi bosqichida “Pedagog va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malskasini oshirishni zamon talablariga javob berdigan darajada tashkil etish” belgilangan.

[1] I. Karimov. Barkamol avlod- O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, Sharq, 1997. 5-bet

Ikkinchi bosqichda ta’lim muassasalarining texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o‘quv -tarbiya jarayoni yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlanadi. Shu ma’noda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amalga joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi kasb mahoratini yanada takomillashtirish, pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish bilan bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni mazkur faoliyatga tayyorlash bugungi kunning muhim talablaridan biridir.

Ta’limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta’sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvoffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarni shu jumladan musiqa o‘qituvchilarini ham, xozirgi zamon talablari asosida puxta kasbiy tayyorgarlikga ega, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lib yetishlariga asosiy e’tiborini qaratmoq fan va ta’lim qolaversa kadrlar tayyorlash tizimi oldiga qo‘yilayogann eng dolzarb vazifalardandir.

O‘qituvchi qanchalik bilimdon o‘z kasbini puxta egallagan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mahironi foydalana oladigan bo‘lsa, u kelajak avlodni ham shunchalik bilimdon har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalay oladi. Oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda va musiqiy fanlardan - musiqa o‘qitish metodikasi, musiqa nazariyasi va taxlili, xor va xorshunoslik, dirijyorlik, solfedjio kabilardan bilim va malakalari va eng muhimi o‘z tanlagan kasblariga munosabati muhim o‘rin tutadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qish davomida innovasion faoliyatga tayyorlash ularni pedagogik faoliyatga tayyorlash ishlari bilan yaxlit bir butunlikda olib borilsagina bu faoliyat samarali va maqsadga muvofiq bo‘ladi. Musiqiy ta’lim yo‘nalishida fanlar integrasiyasi shunday ko‘rinish kasb etadiki har bir fan o‘z navbatida ikkinchi, uchinchi va h.k. barcha musiqiy, amaliy - nazariy bilimlar jamlanmasini o‘zida mujassamlashtirgan holda kerakli ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishni taqozo etadi. Masalan cholg‘u asbobida ijrochilik mahoratini egallash uchun musiqa nazariyasi (musiqani ifoda vositalari), solfedjio, (nota o‘qish) musiqa asarlari tahlilini, xor va xorshunoslik fanida esa vokal kuylash, nazariy savodxonlik, dirijyorlik, xor aranjirovkasi, asarlar tahlili bo‘yicha ma’lum bilimlar zahirasi talab qilinadi. Shu bois har bir fan o‘qituvchisi o‘zi dars berayotgan fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib talabalarni pedagogik texnologiya faoliyatiga tayyorlab borishi kerak bo‘ladi. Hozirgi kunda oily ta’lim tizimida buy onalishdagi ishlarni kuzatish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki musiqiy ta’limy o‘nalishida faoliyat yuritayorgan professor - o‘qituvchilarni aksariyati talabalarni texnologik faoliyatga tayyorlashga o‘zini hech bir aloqasi yo‘q deb biladi. Bu ish bilan shug‘ullanishni “Pedagogika” fani yoki “Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi” fani o‘qituvchilarining ishi deb qarashadi, yoki umuman bu ishga e’tibor berishmaydi. Bunga sabab birinchidan professor - o‘qituvchilarni o‘zlarini ushbu faoliyatga tayyor emasliklari bo‘lsa, ikkinchidan bo‘lg‘usi pedagog - kadrlarni texnologik faoliyatga tayyorlab borishning ijtimoiy, siyosiy zarurat sifatidagi mohiyatini tushunmasligidir.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini texnologik faoliyatga tayyorlash bir fan doirasida emas, barcha fanlarni o‘qitilishida yaxlit tizim asosida tashkil etilsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Ya’ni musiqani xor va xorshunoslik, dirijyorlik, vocal ijrochiligi, cholg‘u ijrochiligi, musiqa tarixi, musiqiy asarlar tahlili, musiqa o‘qitish metodikasi (bu fanlar talabaning kelajakdagi musiqa o‘qituvchilik faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi fanlar hisoblanadi) kabi fanlar o‘qitilishi jarayonida kasbga tayyorlash va texnologik jarayonga tayyorlash ishlari bir - biri bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilsa va tadbirlarning (mashg‘ulotlarning) har biri bosqichma - bosqich bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayonini mohirona ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil etishga tayyorlasagina u bir butun tizim sifatida samaradorlik kasb etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayonida texnologik yondashuvga tayyorlashda ayniqsa pedagogik amaliyot muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda musiqiy ta’lim ixtisosligining har bir bosqichida talabalar o‘quv, malakaviyamaliyotga chiqadilar. Birinchi kursda 1 hafta, 2-3- kurslarda 2 haftalik, 4 - kursda esa 11 haftalik pedagogik amaliyotlar ularni kasbga tayyorlashda muhim davrni tashkil etadi. Agar mana shu jarayonda talabalarni pedagogik texnologik tayyorgarligiga e’tabor qilinmasa, u holda xuddi biz yuqorida ta’kidlaganimizdek muammo vujudga keladi. Chunki

amaliy ish faoliyatidagiga nisbatan talabalik davrida pedagogik texnologiyalar va ularni dars jarayonida qo‘llash, tadbiq etish malakalarini egallash ancha qulay, samarali va zamonaviy talablarga mos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev Sh, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent, - Fan, 2001-yn.
2. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent, - Fan, 2008 - yil.
3. Tolipova Sh. Pedagogik texnologiyalar - do‘stona muhit yaratish omili. - Toshkent, YUNIREF, RTM, XTB, 2005 - yil.
4. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. - Toshkent, - O‘zbekiston, 1999 - yil.
5. Sharipova G. Musiqa o‘qitish metodikasi. TDPU, 2004 - yil.

INTERTEKSTUALLIK PRISMASIDA G‘ARB VA SHARQ AN‘ANALARI VA YONDASHUVLARIDAGI SEMANTIK VA ESTETIK TAFOVUTLAR

Nodira Raximova-
Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola G‘arb va Sharq adabiy-tanqidiy an’analarida intertekstuallikning semantik va estetik tafovutlarini madaniy, falsafiy va tarixiy kontekstlar asosida tahlil qilishga bag‘ishlangan. Intertekstuallik tushunchasi Yuliya Kristeva va Mixail Baxtin ishlariga asoslangan holda nazariy jihatdan ko‘rib chiqiladi. G‘arb adabiyotidagi intertekstuallik tahliliy, eksperimental va individual talqinga asoslangan bo‘lsa, Sharq adabiyotidagi intertekstuallik ma’naviy, ramziy va kollektiv madaniy xotiraga qaratilganligi alohida ta’kidlab o‘tiladi. O‘zbek adabiyotidagi intertekstuallik esa Sharq an’analarining umumiy xususiyatlarini milliy kontekst bilan uyg‘unlashtiradi. Maqolada Alisher Navoiy, Furqat, Jaloliddin Rumiy kabi shoirlarning asarlari misolida matnlararo bog‘lanishlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Intertekstuallik, G‘arb va Sharq adabiyoti, semantik tafovutlar, estetik yondashuvlar, matnlararo bog‘lanish, tasavvufiy ramzlar, postmodernizm, madaniy xotira.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу семантических и эстетических различий интертекстуальности в западных и восточных литературно-критических традициях в контексте культурных, философских и исторических факторов. Понятие интертекстуальности рассматривается в теоретическом аспекте на основе работ Юлии Кристевой и Михаила Бахтина. Интертекстуальность в западной литературе характеризуется аналитическим, экспериментальным подходом и акцентом на индивидуальную интерпретацию, тогда как в восточной литературе она ориентирована на духовные, символические аспекты и коллективную культурную память. Интертекстуальность в узбекской литературе сочетает общие черты восточных традиций с национальным контекстом. В статье анализируются межтекстовые связи на примере произведений таких поэтов, как Алишер Навои, Фуркат и Джалалуддин Руми.

Ключевые слова: Интертекстуальность, западная и восточная литература, семантические различия, эстетические подходы, межтекстовые связи, суфийская символика, постмодернизм, культурная память.

Abstract. This article is dedicated to the analysis of semantic and aesthetic differences in intertextuality within Western and Eastern literary-critical traditions, examined through cultural, philosophical, and historical contexts. The concept of intertextuality is theoretically explored based on the works of Julia Kristeva and Mikhail Bakhtin. Intertextuality in Western literature is characterized by an analytical, experimental approach and a focus on individual interpretation, while in Eastern literature, it is oriented toward spiritual, symbolic elements and collective cultural memory. Intertextuality in Uzbek literature combines the general characteristics of Eastern traditions with a national context. The article analyzes intertextual connections through the works of poets such as Alisher Navoi, Furqat, and Jalaluddin Rumi.

Keywords: Intertextuality, Western and Eastern literature, semantic differences, aesthetic approaches, intertextual connections, Sufi symbolism, postmodernism, cultural memory.

Kirish.

Intertekstuallik – adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikdagi muhim tushuncha bo‘lib, matnlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar, ularning bir-biriga ta’siri va o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi. Bu tushuncha Yuliya Kristevaning 1960-yillardagi ishlarida ilk bor tizimli shaklda ta’riflangan bo‘lsa-da, uning ildizlari ancha oldingi adabiy an’analarga borib taqaladi. Intertekstuallik nafaqat badiiy matnlarning ichki tuzilishini, balki ularning madaniy, ijtimoiy va falsafiy kontekstlarini tushunishda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. G‘arb va Sharq adabiy-tanqidiy an’analarida intertekstuallikning talqini va qo‘llanilishi sezilarli darajada farq qiladi, bu esa o‘z navbatida semantik va estetik yondashuvlardagi tafovutlarni namoyon etadi.

Ushbu maqola G‘arb va Sharq adabiy an’analarida intertekstuallikning semantik va estetik o‘ziga xosliklarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Maqola xorijiy (G‘arb va Sharq adabiyotshunosligiga oid) va o‘zbek manbalariga asoslanadi, shuningdek, ushbu an’analarning o‘zaro ta’siri va farqlarini ko‘rib chiqadi.

Intertekstuallikning nazariy asoslari.

Intertekstuallik tushunchasi Y. Kristeva tomonidan M. Baxtin ishlari asosida ishlab chiqilgan. Baxtin o‘zining “dialogizm” va “polifoniya” konseptlari orqali matnlarning o‘zaro bog‘lanishini va ularning ijtimoiy-madaniy kontekst bilan aloqasini ta’kidlagan[1]. Kristeva esa intertekstuallikni matnning boshqa matnlarga nisbatan o‘zaro ta’siri sifatida ta’riflaydi hamda har bir matn o‘zidan oldingi matnlarning “izlarini” o‘z ichiga oladi.[2] Bu jarayonda matnlar nafaqat o‘zaro iqtiboslar yoki havolalar orqali bog‘lanadi, balki ularning semantik va estetik ma’nolari ham yangi kontekstlarda qayta shakllanadi.

G‘arb adabiyotshunosligida intertekstuallik ko‘proq strukturalizm va poststrukturalizm doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, Sharq adabiy an’analarida bu tushuncha ko‘pincha an’anaviy she’riyat va nasrning ichki bog‘lanishlari, masalan, tasavvufiy matnlar yoki klassik adabiyotdagi ramzlar tizimi orqali talqin qilingan. O‘zbek adabiyotshunosligida intertekstuallikni o‘rganish so‘nggi o‘n yilliklarda faollashgan bo‘lib, Alisher Navoiy, Furqat, Muqimiy kabi klassik shoirlarning asarlarida matnlararo bog‘lanishlar tahlil qilinmoqda.[3]

G‘arb adabiy-tanqidiy an’analarida intertekstuallik.

G‘arb adabiyotshunosligida intertekstuallikning o‘rganilishi bir qancha maktablar va yondashuvlar bilan bog‘liq. Strukturalizmda, masalan, Roland Barthes matnni “o‘zidan oldingi matnlarning to‘qimasi” sifatida ko‘radi.[4] Uning fikricha, har bir badiiy asar o‘zidan oldingi matnlarning izlarini o‘z ichiga oladi va muallifning o‘zi faqat “matnlar to‘plovchisi” sifatida harakat qiladi. Poststrukturalizmda esa intertekstuallik matnning ochiqligi va ko‘p ma’noliligi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Misol uchun, Jak Derrida o‘zining “dekonstruksiya” nazariyasida matnlar o‘rtasidagi chegaralarni yo‘qotish va ularning doimiy o‘zaro ta’sirini ta’kidlaydi[5].

G‘arb adabiyotidagi intertekstuallikning estetik jihatlari ko‘pincha modernist va postmodernist asarlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, Jeyms Joysning “Uliss” romani Gomerning “Odisseya”si bilan chuqur intertekstual bog‘lanishlarga ega. Bu bog‘lanishlar nafaqat syujet yoki personajlar orqali, balki ramziy va semantik ma’nolar orqali ham amalga oshiriladi. Postmodern adabiyotda intertekstuallik ko‘proq parodiya, pastish va iqtiboslar shaklida namoyon bo‘ladi, bu esa estetik tajribani ko‘p qatlamli va ironik tusga kiritadi.[6]

Semantik jihatdan, G‘arb adabiyotidagi intertekstuallik ko‘pincha matnning ma’no yaratish jarayoniga qaratilgan. Masalan, Umberto Eko o‘zining “Kitobxonning roli” asarida intertekstuallikni o‘quvchining matnni talqin qilishdagi faol ishtiroki bilan bog‘laydi.[7] Bu jarayonda kitobxon matn ichidagi boshqa matnlarga havolalarni aniqlaydi va ular orqali yangi ma’nolar yaratadi. G‘arb adabiy-tanqidiy an’analarida intertekstuallikning semantik o‘ziga xosligi uning tahliliy va tizimli yondashuvida yotadi, bu esa matnni dekonstruksiya qilish va uning ichki mantiqiy tuzilishini ochib berishga xizmat qiladi.

[1] Bakhtin, M. (1981). The Dialogic Imagination: Four Essays. University of Texas Press.
[2] Kristeva, J. (1980). Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. Columbia University Press.
[3] Komilov, N. (2000). Alisher Navoiy va adabiy an’analar. Toshkent: O‘zbekiston.
[4] Barthes, R. (1977). Image, Music, Text. Hill and Wang.
[5] Derrida, J. (1976). Of Grammatology. Johns Hopkins University Press.
[6] Eco, U. (1989). The Open Work. Harvard University Press.
[7] Eco, U. (1979). The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts. Indiana University Press.

Sharq adabiy an’analarida intertekstuallik.

Sharq adabiy an’analarida esa intertekstuallik ko‘proq an’anaviy she’riyat va nasrning ichki tuzilishi, shuningdek, diniy va falsafiy matnlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Sharqning badiiy matnlarida intertekst asosan muqaddas kitob va hadislar, folklyor namunalari, boshqa bir yozuvchining asarlaridan parchalar olish tarzida namoyon bo‘ladi.[1] Sharq adabiyotidagi intertekstuallikning o‘ziga xosligi uning ramziy va tasavvufiy xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi she’rlar Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”si bilan intertekstual bog‘lanishlarga ega bo‘lib, bu bog‘lanishlar nafaqat syujet yoki motivlar orqali, balki tasavvufiy ramzlar va estetik ideal orqali ham amalga oshiriladi.[2]

Sharq adabiyotidagi intertekstuallikning semantik jihatlari ko‘pincha matnning ma’naviy va falsafiy ma’nolariga qaratilgan. Masalan, Jaloliddin Rumiy va Hofiz Sheroziyning she’rlarida Qur’on va hadislarning izlari aniq ko‘rinadi, bu esa matnlarning semantik chuqurligini oshiradi.[3] Bu jarayonda intertekstuallik nafaqat adabiy an’anaga xizmat qiladi, balki o‘quvchining ma’naviy tajribasini boyitishga yordam beradi.

O‘zbek nasri va nazmda intertekstual birliklarning uchrashi ularning mazmun ifoda shakliga bog‘liq ravishda farqlanadi[4]. Nasriy matnlarda boshqa matnlardan katta hajmdagi iqtiboslar, she’r parchalari, folklor namunalari keng qo‘llanilishi mumkin. Aksincha, she’riy matnlarda bunday imkoniyatlar cheklangani bois, asosan alluziya va iqtibos kabi intertekstual ko‘rinishlar ko‘proq uchraydi. Alisher Navoiy ijodida ham boshqa matn parchalaridan intertekstual birliklar sifatida faol foydalanilgan.

Shoirning “Badoyi‘ ul-bidoya” devoniga kiritilgan g‘azal va qit’alarida intertekstual mazmun yaratishda, asosan, Qur’oni karimga ishora qiluvchi intertekstlar hamda payg‘ambarlar va farishtalar nomlari asosiy manba sifatida faol qo‘llanilgan. Sharq adabiyotida Qur’oni karim oyatlari, shuningdek, unda tilga olingan farishtalar va payg‘ambarlar nomlaridan foydalanish keng tarqalgan bo‘lib, bu holat Navoiy ijodida ham o‘z aksini topgan. Xususan, shoir g‘azallarida Jabroil, Yusuf, Ya’qub, Xizr, Nuh, Muhammad (s.a.v.), Iso, Sulaymon, Qorun kabi shaxslar nomlari intertekst sifatida uchraydi. Navoiy bu nomlarni faqat qofiya yoki vazn talabidan kelib chiqib emas, balki ular orqali boshqa matnlarga ishora qilish, shu vosita bilan g‘azalning g‘oyaviy mazmunini aniqlashtirish va badiiy-estetik ta’sirini oshirish maqsadida qo‘llagan. Masalan, Muhammad (s.a.v)ning nomlari Navoiy g‘azallarida juda ko‘p va o‘rinli qo’llanilgan. Quyida keltirilgan bayt buni yaqqol isbotlaydi:

Ulusni tutti Navoiy so‘zi, aning birla
Magar Rasuli alayhissalom qildi hadis.

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, estetik jihatdan, Sharq adabiyotidagi intertekstuallik ko‘pincha she’riy shakl va ramzlar tizimi bilan bog‘liq. Masalan, g‘azal janrida intertekstuallik shoirning o‘zidan oldingi shoirlarning obrazlari yoki motivlarini qayta ishlashi orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda estetik tajriba nafaqat matnning ichki go‘zalligida, balki uning an’anaga bog‘lanishida ham aks etadi. Sharq adabiyotidagi intertekstuallikning o‘ziga xosligi uning kollektiv xotiraga asoslanishida bo‘lib, bu esa matnni madaniy va tarixiy kontekst bilan chambarchas bog‘laydi.[5]

Bundan tashqari mumtoz adabiyotimizdagi “irsoli masal”, “talmeh”, “tazmin”, “nazira” kabi badiiy san’at turlari intertekstuallikning ko‘rinishlari sifatida keltirishimiz mumkin. Negaki, ularning badiiy matndagi vazifasi va shakli intertekstuallik tushunchasiga hamda uning mohiyatiga deyarli mos keladi.

Semantik va estetik tafovutlarning komparativ tahlili. G‘arb va Sharq adabiy an’analarida intertekstuallikning semantik va estetik tafovutlari bir qancha asosiy jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Semantik yondashuvlar

G‘arb adabiyotidagi intertekstuallik ko‘proq tahliliy va tizimli yondashuvga ega. Matnning ma’no yaratish jarayoni o‘quvchining faol ishtiroki va matnlararo havolalarni aniqlash orqali amalga oshiriladi.[6] Masalan, postmodern adabiyotda intertekstuallik ironiya va parodiya vositasi sifatida ishlatiladi, bu esa ma’nolarning ko‘p qatlamliligini ta’kidlaydi. Sharq adabiyotidagi intertekstuallik esa ko‘proq ma’naviy va falsafiy ma’nolarga qaratilgan. Matnlararo bog‘lanishlar diniy yoki tasavvufiy ramzlar orqali amalga

[1] Xomidova, M. Mumtoz matnlarda interteksuallik (Navoiy ijodi misolida)
[2] Navoiy, A. (1987). Xamsa. Toshkent: G‘afur G‘ulom.
[3] Schimmel, A. (1992). A Two-Colored Brocade: The Imagery of Persian Poetry. University of North Carolina Press.
[4] Фатеева Н.А. Типология интертекстуальных элементов и межтекстовых связей в художественном тексте. – //Известия РАН. Сер. литературы и языка, 1998. – № 5.
[5] Losensky, P. (1998). Welcoming Fighani: Imitation and Poetic Individuality in the Safavid-Mughal Ghazal. Mazda Publishers.
[6] Eco, U. (1979). The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts. Indiana University Press.

oshiriladi, bu esa kitobxonning ma’naviy tajribasini boyitadi.[1] O‘zbek adabiyotida Navoiy “Xamsa”sidagi tasavvufiy motivlar semantik chuqurlikni an’anaga bog‘lash orqali ta’minlanadi.

O‘zbek xalq dostonlari, masalan, “Alpomish” yoki “Gorog‘li”, ham intertekstualizmning o‘ziga xos shaklini namoyish etadi. Bu kabi dostonlarda ramziy ma’nolar Sharq falsafasidagi hayot va o‘lim, adolat va muhabbat kabi universal tushunchalarga asoslanadi.

Estetik tajriba.

G‘arb adabiyotidagi intertekstuallikning estetik jihatlari ko‘pincha eksperimental va innovatsion shakllarda namoyon bo‘ladi. Postmodern asarlardagi parodiya va pastish estetik tajribani kinoyali va o‘ynoqi tus oldiradi. Sharq adabiyotidagi intertekstuallikning estetikasi esa an’anaga sodiqlik va ramziy go‘zallikka asoslanadi. G‘azal yoki ruboiy kabi janrlarda intertekstual bog‘lanishlar she’riy shakl va ramzlar orqali amalga oshiriladi, bu esa estetik tajribani an’anaga bog‘laydi. Masalan o‘zbek adabiyotidagi Furqat yoki Muqimiy she’rlaridagi klassik motivlar estetik go‘zallikni an’ana bilan uyg‘unlashtiradi.

Madaniy kontekst.

G‘arb adabiyotidagi intertekstuallik individual ijodkorlik va o‘quvchining talqin erkinligiga urg‘u beradi. Matnlararo bog‘lanishlar ko‘pincha madaniy va tarixiy kontekstdan ajralgan holda tahlil qilinadi.[2] Bu yondashuvda matn statik emas, balki doimiy ravishda boshqa matnlar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Sharq adabiyotidagi intertekstuallik esa kollektiv madaniy xotira hamda ramziylikka asoslanadi. Matnlar diniy, falsafiy yoki an’anaviy kontekst bilan chambarchas bog‘lanadi, bu esa intertekstual bog‘lanishlarni madaniy merosning bir qismi sifatida ko‘rishga olib keladi.

Xulosa.

G‘arb va Sharq adabiy an’analarida intertekstuallikning semantik va estetik tafovutlari ularning madaniy, falsafiy va tarixiy kontekstlaridagi farqlardan kelib chiqadi. G‘arb adabiyotidagi intertekstuallik tahliliy, eksperimental va individual talqinga asoslangan bo‘lsa, Sharq adabiyotidagi intertekstuallik ma’naviy, ramziy va kollektiv madaniy xotiraga qaratilgan. O‘zbek adabiyoti esa ushbu ikki an’ananing sintezini taklif qiladi, bunda Sharq an’analarining umumiy xususiyatlari milliy kontekst bilan boyitiladi.

Intertekstuallikni o‘rganish nafaqat adabiy matnlarning ichki tuzilishini, balki ularning madaniy va falsafiy ma’nolarini tushunishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. G‘arb va Sharq an’analarining o‘zaro ta’siri kelajakda yanada chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lib, bu jarayonda o‘zbek adabiyotshunosligi muhim hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bakhtin, M. (1981). The Dialogic Imagination: Four Essays. University of Texas Press.
2. Barthes, R. (1977). Image, Music, Text. Hill and Wang.
3. Derrida, J. (1976). Of Grammatology. Johns Hopkins University Press.
4. Eco, U. (1979). The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts. Indiana University Press.
5. Eco, U. (1989). The Open Work. Harvard University Press.
6. Kristeva, J. (1980). Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. Columbia University Press.
7. Losensky, P. (1998). Welcoming Fighani: Imitation and Poetic Individuality in the Safavid-Mughal Ghazal. Mazda Publishers.
8. Schimmel, A. (1992). A Two-Colored Brocade: The Imagery of Persian Poetry. University of North Carolina Press.
9. Komilov, N. (2000). Alisher Navoiy va adabiy an’analar. Toshkent: O‘zbekiston.
10. Navoiy, A. (1987). Xamsa. Toshkent: G‘afur G‘ulom.

[1] Schimmel, A. (1992). A Two-Colored Brocade: The Imagery of Persian Poetry. University of North Carolina Press.
[2] Barthes, R. (1977). Image, Music, Text. Hill and Wang.

IIB LITSEYI O‘QUVCHILARINING LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Gadoeva Dildora Baxtiyorovna-
Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada IIB (Ichki ishlar bo‘limi) litseylari o‘quvchilarining liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Litsey o‘quvchilarida liderlik sifatlarini shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillar, ijtimoiy va psixologik muammolar, shuningdek, ularni bartaraf etishning pedagogik usullari yoritilgan. Tadqiqot doirasida zamonaviy o‘quv-metodik yondashuvlar va interaktiv pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, liderlik kompetensiyalarini shakllantirishda o‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning hamkorligi alohida o‘rganilgan. Maqola ichki ishlar sohasidagi professional kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga ko‘maklashishni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar: liderlik kompetensiyalari, IIB litseyi, ijtimoiy-pedagogik muammolar, pedagogik texnologiyalar, o‘quvchilar rivoji.

SOCIO-PEDAGOGICAL PROBLEMS OF DEVELOPMENT OF LEADERSHIP COMPETENCIES OF STUDENTS OF IIB LYCEUM.

Gadoeva Dildora Bakhtiorovna-
Independent researcher of the Navoi State Pedagogical Institute

Annotation. Abstract This article analyzes the issues of developing leadership competencies of IIB (Department of Internal Affairs) lyceum students from a socio-pedagogical point of view. Factors affecting the formation of leadership qualities in lyceum students, social and psychological problems, as well as pedagogical methods of their elimination are highlighted. As part of the research, suggestions and recommendations were developed for the development of leadership skills through the use of modern educational and methodological approaches and interactive pedagogical technologies. At the same time, the cooperation of teachers, parents and society in the formation of leadership competencies was studied separately. The article aims to help improve the quality of training of professional personnel in the field of internal affairs.

Key words: leadership competencies, IIB Lyceum, socio-pedagogical problems, pedagogical technologies, student development.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЛИДЕРСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ ЛИЦЕЯ МИБ

Гадоева Дилдора Бахтиоровна-
независимый научный сотрудник
Навоийского государственного педагогического института

Аннотация. Аннотация В статье анализируются вопросы развития лидерских компетенций лицеистов МИБ (Отдел внутренних дел) с социально-педагогической точки зрения. Выделены факторы, влияющие на формирование лидерских качеств у лицеистов, социальные и психологические проблемы, а также педагогические методы их устранения. В рамках исследования были разработаны предложения и рекомендации по развитию лидерских качеств посредством использования современных учебно-методических подходов и интерактивных педагогических технологий. При этом отдельно изучалось сотрудничество педагогов, родителей и общества в формировании лидерских компетенций. Цель статьи – способствовать повышению качества подготовки профессиональных кадров в сфере внутренних дел.

Ключевые слова: лидерские компетенции, МИБ-лицей, социально-педагогические проблемы, педагогические технологии, развитие учащихся.

Kirish. Bugungi kunda yoshlarni ta’lim-tarbiya va professional rivojlantirishda liderlik kompetensiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, Ichki ishlar bo‘limi (IIB) litseylari o‘quvchilarining liderlik sifatlarini rivojlantirish, nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki ularning jamiyatda ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxslar bo‘lib yetishishlariga ham zamin yaratadi. Liderlik kompetensiyalari – bu shaxsning maqsadga erishish, boshqaruv, qaror qabul qilish, jamoada ishlash va boshqalar bilan aloqada muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar to‘plamidir. IIB litseylari o‘quvchilari ko‘pincha murakkab ijtimoiy sharoitlarda faoliyat yuritishga tayyorlanadigan, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilayotgan yoshlar bo‘lib, ularda yuqori liderlik sifatlarini rivojlantirish, ta’lim tizimi va pedagogik amaliyotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

IIB (Ichki ishlar bo‘limi) litseylari o‘quvchilarining liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolar qatoriga kiradi.

Liderlik kompetensiyasining mohiyati.Liderlik kompetensiyasi shaxsning boshqaruv qobiliyatlari, qaror qabul qilish, jamoaviy ishni tashkil etish va o‘z fikrini ifoda etish kabi ko‘nikmalardan iborat.IIB litseyi o‘quvchilari uchun liderlik qobiliyatlari nafaqat o‘qish jarayonida, balki professional faoliyatida ham zarur. IIB litseyi o‘quvchilarining liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari sirasiga:

-motivatsiya yetishmasligi: Ba’zi o‘quvchilarda bilim olish va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qiziqish past bo‘lishi.

-pedagogik usullarning mos emasligi: Ta’lim jarayonida interaktiv va innovatsion metodlarning yetarlicha qo‘llanmasligi.

-ijtimoiy stereotiplar: Jamiyatdagi qabul qilingan fikrlar o‘quvchilarni liderlikka intilishdan cheklashi mumkin.

-jamoada ishlash qobiliyatlarining sustligi: Ko‘pgina o‘quvchilarning jamoaviy ishlarga tayyor emasligi.

Rivojlantirish usullari.Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Treninglar, rolli o‘yinlar va case-studies metodlari yordamida liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

-amaliy mashg‘ulotlar: Jamoada ishlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish bo‘yicha maxsus darslarni tashkil qilish.

-mentorlik tizimi: Yetuk liderlarning o‘quvchilar bilan ishlashi orqali motivatsiya va tajriba o‘rtoqlashuvi.

-ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik: O‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun oilaviy va ijtimoiy muhitni shakllantirish.

Liderlik shaxsning boshqalarni boshqarish, qaror qabul qilish va jamoani maqsadga erishishga yo‘naltirish qobiliyati sifatida aniqlanadi.Liderlik kompetensiyalari: Bular shaxsning o‘z maqsadlarini amalga oshirish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, boshqaruv va tashkiliy ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.Liderlik turlari: Autokratik, demokratik, va laissez-faire liderlik uslublari mavjud. Har biri o‘ziga xos vaziyatlarda samarali qo‘llaniladi.

Liderlik kompetensiyalari haqida zamonaviy nazariyalar:

-Transformatsion liderlik: Bu nazariyada lider boshqalarga ilhom bag‘ishlash, o‘zgarishlarni amalga oshirish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surishda asosiy rol o‘ynaydi (Bass, 1990).

-Xizmat qiluvchi liderlik: Bu yondashuvda lider jamoa a’zolarining ehtiyojlarini qondirish va ularning o‘sishini qo‘llab-quvvatlashni asosiy vazifa sifatida belgilaydi (Greenleaf, 1977).

-Situatsion liderlik: Bu nazariya liderlik uslubini vaziyatga qarab moslashtirishni ta’kidlaydi (Hersey & Blanchard, 1969).

Ta’lim va liderlik: Liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ta’lim tizimi motivatsion muhit yaratishi lozim. Pedagogik jarayonda shaxsni rivojlantirish va uning salohiyatini ochishga qaratilgan metodlar qo‘llanilishi zarur.Interaktiv metodlar: Mashg‘ulotlar va treninglar orqali o‘quvchilarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish samarali natijalar beradi. Misol: rolli o‘yinlar, loyiha usullari va qizg‘in muhokamalar.

IIB litseylari uchun liderlikning ahamiyati.Ichki ishlar tizimida faoliyat yuritadigan mutaxassislar uchun liderlik qobiliyatlari ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, inqirozli vaziyatlarni boshqarish va jamoaviy muhit yaratishda asosiy o‘rin tutadi.Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga liderlik kompetensiyalarini singdirish nafaqat kasbiy tayyorgarlikni, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham ta’minlaydi.

Liderlikni shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillar.Ijtimoiy muhit: Jamoa, oila va jamiyat liderlik ko‘nikmalarining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.Shaxsiy xususiyatlar: O‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi, motivatsiyasi va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati.Ta’lim resurslari: Interaktiv materiallar va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.Mazkur nazariy asoslar IIB litseylari o‘quvchilarida liderlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik yondashuvlarni

belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, bu jarayonda nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg‘unlashgan holda tatbiq etilishi kerak.

Xulosa. Mazkur maqolada IIB litseylari o‘quvchilarining liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, liderlik kompetensiyalarini shakllantirish nafaqat o‘quv jarayonining tarkibiy qismi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy mas’uliyatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy muammolar – pedagogik usullarning zamonaviy talablarga mos emasligi, o‘quvchilar orasida motivatsiya yetishmasligi va ijtimoiy muhit ta’siri kabi omillar sifatida aniqlangan.

Maqolada ilgari surilgan tavsiyalar IIB litseylari o‘quvchilari uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ularning o‘zaro muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda individual va jamoaviy yondashuvlarni birlashtirishni taklif qiladi. Shu bilan birga, ota-onalar, pedagoglar va jamiyat vakillarining hamkorligi bu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, IIB litseylari o‘quvchilari uchun liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish faqatgina ta’lim tizimining rivojlanishiga emas, balki jamiyatda faol, yetakchi shaxslarni tarbiyalashga ham katta hissa qo‘shadi. Ushbu masalaga tizimli va kompleks yondashuv amalga oshirilganda, yosh avlodning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki ijtimoiy faolligi ham yuqori darajada shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Abdullaev, K.Yu. (2015). Liderlik kompetensiyalari: nazariy va amaliy asoslar. – Toshkent: O‘qituvchi.
2.Axmedov, N.A. (2018). Yoshlar psixologik rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta’siri. – Toshkent: Istiqbol nashriyoti.
3.Vaxidov, B.I. (2020). Pedagogik texnologiyalar asosida shaxsiy rivojlanish. – Toshkent: Fan va texnologiyalar.
4.Karimova, M.R. (2019). Pedagogik jarayonda ijtimoiy-ruhiy omillarning ahamiyati. – Toshkent: O‘quv qo‘llanma.

OILADA MILLIY TARBIYANI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MAZMUN-MOHIYATI

Xushvaqova Gulnoza –
Navoiy davlat pedagogika instituti
Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashish asosida oilada milliy tarbiya jarayonini tashkil etish, jumladan, bolalarning milliy tarbiya haqidagi muayyan tushunchalarni shakllantirish amaliyotidagi ahvoli qanday? Globallashuv jarayonida ota onalar tomonidan olib borilayogan milliy tarbiya jarayoni ijtimoiy va pedagogik talablariga nechog‘lik javob berayapti? Agar javob bermayotgan bo‘lsa, mazkur muammoning qaysi jihatlari zamon oqimi, ruhidan ortda qolmoqda ekan? Tarbiya jarayonini zamon bilan hamnafas bo‘lishi uchun nimalar qilish lozim? Mazkur savollarga javob topish tadqiq etilayotgan muammoning holati, ahvolini, aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot muammosini uch aspektda o‘rganish maqsadga muvofiq: oila instituti tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar, milliy tarbiya masalasining u yoki bu jihatini Sharq mutafakkirlarimiz tomonidan tadqiqi, hamda uning bugungi kunda yoshlar tomonidan qay tarzda qabul qilinayotganligi. Respublikamiz turli viloyatlaridagi oilalarida bolalarga milliy ruhda ta’lim-tarbiya berish, shu jumladan ularda muayyan ilmiy diniy, dunyoviy dunyoqarash elementlarini shakllantirish masalalarini ijtimoiy jihatdan o‘rganish va uni pedagogik tahlil etish.

Birinchi yo‘nalishning tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Oila” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan, “oila va jamiyat, oila va mahalla munosabatlari bilan bog‘liq milliy boy an’analar, sermazmun milliy qadriyatlarimizning ildizlarini, ajdodlarimiz merosini o‘rganish va ularni ommalashtirish yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda;

oilaning pedagogika, psixologiya, etnopsixologiya, etnopedagogika, yo‘nalishlaridagi muammolarini o‘rganish va rivojlanish istiqbollari bo‘yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

yosh avlodda ma’naviyat, madaniyat, ma’rifatni yanada yuksaltirish orqali oilada barkamol avlodni tarbiyalashning eng samarali, maqbul usullarini izlash va ishlab chiqish» bo‘yicha amaliy tadbirlar va ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Alohida e’tirof etib o‘tish lozimki, Respublikamizda Oila, bolalar va yoshlar munosabatlari haqida ham yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi 76, 77, 78, 79, 80-moddalarda belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan

bog‘lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta’minlash;

yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni emiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish;

uzluksiz ma’naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yish[1] masalalariga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Fikrimizcha, ikkinchi yo‘nalishda olib borilgan ishlarni ularning mazmuni va mohiyatiga ko‘ra quyidagicha tahlil etishni maqsadga muvofiq. Biz tadqiqotni olib borish jarayonida, kompetensiyaviy yondashish asosida oilada milliy tarbiya jarayonini tashkil etishning amaliyotdagi ahvolini o‘rganish va tahlil qilishga harakat qildik. Tadqiqot ishini amalga oshirishda respublikamizning turli viloyatlari jumladan, Navoiy, Samarqand va Buxoro fuqarolar yig‘inlarida tuzilgan “Ota-onalar universiteti” jamoatchilik tuzilmasining yillik ish rejalari, o‘quv kurslari bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturlar va o‘quv qo‘llanmalarini o‘rganib chiqdik. Muammoning amaliyotdagi ahvolini o‘rganish “Ota-onalar universitetlari” mashg‘ulotlari orqali ota-onalarga farzandlari bilan o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashda, mahalla va oilaning jamiyatdagi o‘rni alohida ekanligini tushuntirish, kompetensiyaviy yondashish asosida oilada milliy tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga asoslanish lozimligini ko‘rsatdi:

yaxlit yondashuv - bolalarning biologik va ruhiy, axloqiy va ma’naviy, milliy va mafkuraviy immunitetini boyitish jihatdan o‘z-o‘zini anglashi asosida;

individual yondashuv - bolalarga ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand, individual munosabatda bo‘lishni talab etuvchi shaxs deb qarash. Bunda yuksak milliy qadriyat, urf-odat va an’analarning inson shaxsini rivojlantirishdagi o‘rni va oilada tarbiya topayotgan har bir bolaning individualligi va takrorlanmas ekanligi, hurmat qilinishi, bolalar huquq va erkinliklarning e’tirof etilishi.

tabaqalashtirigan yondashuv - ijtimoiy institutlarning asosiy funksiyalariga muvofiq keladigan, tarbiya jarayonidagi ob’ektlarning individualligini hisobga olgan holda, tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlari, vositalari tanlab olinadi.

tabiat bilan uyg‘unlikda yondashuv-bolaning individual, shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish va tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojlariga tayanish, psixologik -pedagogik tashxis, maslahat va korreksiyaning o‘zaro aloqadorligini ta’minlash.

insonparvarlik yondashuvi - oilada ota-ona, bobo-buvi va qarindoshlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, bolaning fikrini diqqat bilan tinglash, ularga mehrli va e’tiborli munosabatda bo‘lish, bolaning o‘z haq-huquqlarini bilishi va himoyalanganligi, bola o‘zini kerakli va ahamiyatli his etishi, oilada qulay psixologik iqlimning yaratilganligi;

ta’limiy-tarbiyaviy yondashuv - o‘quv tarbiyaviy jarayonda “Oila- mahalla - ta’lim muassasasi” hamkorligiga tayanish. Ushbu hamkorlikning samarali yo‘lga qo‘yilishi yoshlar orasida globallashuv jarayonida, shuningdek giyohvandlik, diniy ekstremizm, “ommaviy madaniyat” va shunga o‘xshash illatlarning oldini olishda, ularni sportga jalb etish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish. Asosiysi, bu hamkorlik doirasida bolalarni mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish orqali bolalarda milliy qadriyatlarga sadoqat hissini tarbiyalashga erishish. Sharqona tarbiyada ibrat ham yaxshilik timsoli bo‘lib, bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Yaxshi fazilatlarga erishmoqchi bo‘lgan odam yoshligidanoq insof, adolat, iymon, e’tiqod kabi axloqiy tushunchalarni doimo hayotiy zarurat deb bilishi va unga amal qilishi lozim. Xalqimizda “Qari bilganni pari bilmaydi” degan naql bejiz aytilmagan. Keksa otaxonlarning hayoti va ularning fikr-mulohazasi hech bir kitobda bitilmagan, dono o‘gitlari doimo yoshlarga ibrat bo‘lgan.

[1] Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi. https://lex.uz/ru/docs/-4676839

QORAQALPOQLAR TARIXINI O‘RGANISHNING MUHIM TAMOYILLARI

Erkinboyev Fozilbek Zakirjon o‘g‘li
Ilmiy rahbar: **Shirinova Firuza Inoyatovna**
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti

Vatan tarixini yoritishda nazariy-metodologik asoslarni bilish katta ahamiyatga ega. Ilmiy, tarixiy metodlar tarixni yoritishning asosiy kaliti hisoblanadi. Birinchidan, Qoraqalpog‘iston tarixining yaxlit konsepsiyasini yaratish, amalga oshirish uchun bir butun tarixiy jarayonni nisbatan mustaqil bo‘lgan bo‘laklarga, ya’ni davrlarga bo‘lish va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Eng asosiy vazifalardan biri yangi yozilgan tarixni o‘rganishni tashkil qilishdir. Haqiqatdan ham mustaqillik yillarida to‘plangan qancha tarixiy hujjatlarni ilmiy asosda umumlashtirish vaqti keldi. Bu borada bir qancha ilmiy harakatlar ham bor. Ammo ularni yanada jadallroq, qat’iyroq amalga oshirish davr talabidir.

Ilmiylik bilan bir qatorda xolislik turadi. Bunda har bir tarixiy voqea-hodisalarni tahlil qilyotganda, xolis, haqqoniy ravishta o‘rganish yoki tarixshunoslikning xohish-irodasidan tashqarida, voqea-hodisalar qanday sodir bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha yoritish ko‘zda tutiladi. Har bir tarix yozuvchisi o‘zining mulohazalari va boshqa xis-tuyg‘ulari bilan atrofni o‘rab turgan muhit bilan uzviy ravishda bog‘liq bo‘ladi lekin tarixchi o‘zining xis-tuyg‘ularini tarixga qorishtirishga haqi yo‘q. Xolislik talab etadigan qoidalar shundan iboratki, ushbu yo‘nalishda tarixiy-madaniy taraqqiyotni (tarixning turli davrlarida) o‘rganish jarayonida bo‘lib o‘tgan yoki ushbu taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan voqea-hodisalarni hech bir o‘zgarishlarsiz qanday bo‘lib o‘tgan bo‘lsa u shu holatda tahlil va talqin etish, tekshirish va xulosalar chiqarib yaxlit holga keltirish o‘ta muhimdir. Bu xolatda aniq manbaviy asoslarga tayanish, tarixiy jarayonlarni o‘zaro chambarchas bog‘liqligini asoslash lozim bo‘ladi. Bu jarayonda hududlar o‘rtasidagi rivojlanish jarayonini o‘zaro taqqoslash, qiyoslash faqat ijobiy natijalarni berishi tabiiydir.

Qoraqalpog‘iston tarixini o‘rganishning metodologik asoslaridan yana biri bu voqea va hodisalarni dialektik tarzda o‘rganishdir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo‘ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o‘zaro bog‘lanishda, uzliksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo‘ladi deb ta’lim beradi.

Bu metod Qoraqalpog‘iston tarixini o‘rganishda uni to‘laligicha, voqea- hodisalarni bir-biri bilan bog‘liqlikda, ayrim tarixiy voqealarni o‘rganuvchi fanlarni ham bir butunlikdi, uning bo‘laklarini ajratib olmaslik va voqea-hodisalarni doimo o‘zgarishda, rivojlanishda o‘rganishni taqozo qiladi. Birok bir davr hakida fikr-muloxaza yoritilayotgan bo‘lsa, ana shu davrning o‘ziga xos xususiyatini anglab olib, uni ko‘rsatishni talab qiladi. Dialektik metodga asoslanib, tarixiy jarayonni umumiylik va alohidalik qoidalardan kelib chiqqan xolda tushunish lozim.

Unda tashqari dialektik metod Qoraqalpog‘iston tarixini avvola O‘rta Osiyo, qolaversa, jahon xalqlari tarixi bilan bog‘lik xolda o‘rganishni taqoza etadi. Chunki mavjud bo‘lgan har bir xalq, millat yoki elat faqat o‘ziga xos xususiyatlari bilan butun insoniyat taraqqiyotida umumiy bog‘lanishdadir.

Haqiqatan ham, qoraqalpoq xalqining siyosi, ijtimoiy iqtisodiy va madaniy rivojlanishi jahon tarixiy taraqqiyotining ajralmas qismidir. Chunki eng qadimgi davrlardan boshlab yaqin o‘tmishga qadar O‘rta Osiyo, Sharkiy Turkiston, Yettiysuv, Eron, Afg‘oniston, Shimoliy Hindiston kabi hududlar o‘rtasida yagona iqtisodiy va madaniy makon mavjud edi.

Qoraqalpog‘iston tarixini o‘rganishda tarixiylik metod xam alohida o‘rin egallaydi. Bu metod tarix jarayonida sodir bo‘lgan voqea hodisalarni o‘rganishda ketma-ketlikni talab kiladi. Bir voqea-hodisa bilan boshqasini sabab-oqibatli bog‘lanishi xam ko‘rsatiladi. Tarixiylik voqea-hodisalarni qay tarzda sodir bo‘lganligini, jamiyat rivojlanishda ayrim shaxslar va ularni roli to‘g‘risida to‘g‘ri, haqqoniy fikr yuritishga o‘rgatadi.

Qoraqalpoqlarning kelib chiqish tarixining uzoq davrlarni o‘z ichiga olishi, aslida ularning etnogenezining murakkab va ko‘p bosqichli jarayon ekanligini anglatadi. Bu jarayonning boshlanishi miloddan avvalgi VIII-IV asrlarga borib taqaladi. Xorazmning shimoliy-g‘arbiy va shimoliy-sharqiy chegaralarida qadimda ko‘chmanchi va yarim-ko‘chmanchi xalqlar yashagan, masalan, sak-massagetlar va savromat-sarmatlar. Ushbu xalqlar, ayniqsa, saklar o‘zlarining geografik joylashuvlari bilan ajralib turgan va ularning o‘ziga xos etnik xususiyatlari Qoraqalpoqlarning kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Saklar o‘zining keng makoniga, Qizilqumning shimolida, Sultanuvayis tog‘ining atrofiga, Janadaryo va Inkardaryo etaklarida, Uzboy daryosi sohillarida joylashgan. Grek tarixchisi Strabonning ma'lumotiga ko‘ra, massagetlar, Kaspiy dengizining sharqida joylashgan keng yerlar bo‘ylab Orol dengiziga qadar yashagan. Bu hududda yashagan massagetlar o‘zining yirik ko‘chmanchi urug‘i bilan tarixda alohida o‘rin tutgan.

Miloddan avvalgi 530-yilda, Kir II boshchiligidagi forslar O‘rta Osiyo hududini egallashga urinishlari davomida, o‘sha davrning e’tiborga loyiq voqeasi sodir bo‘lgan. Eronning podshosi Kir II Orol bo‘yida yashovchi massagetlar bilan urushni boshlashni rejalashtirganida, massagetlarning malikasining urushdagi qat’iyatliligi juda yaxshi ma’lum. To‘maris, Kir IIga qarshi o‘zining jasurligi bilan nom chiqargan va aynan kurash natijasida uning boshini olgan. To‘marisning o‘ziga xos dostoniga aylanib qolgan bu jang, o‘zining qahramonlik fazilatlarini ko‘rsatishning misoli sifatida tarixda saqlanib qolgan.

Geradotning yozishicha, saklarning orasida eng kuchlilari va ko‘pchiligi massagetlar edi. Bu xalqlarning o‘ziga xos etnik-madaniy aloqalari, urf-odatlari va ijtimoiy tizimi, o‘z navbatida, Qoraqalpoqlarning etnogeneziga ta’sir ko‘rsatgan va bu xalqlar orasidagi bog‘liqlikni, ularning ajdodlaridan qolgan etnik kelishuvni tahlil qilish, shubhasiz, Qoraqalpoqlarning kelib chiqish tarixini yanada boyitadi.

Saklar va massagetlarning o‘rni, ayniqsa, o‘z nomlarini – "sak" va "samat" etnik kelishuvlarini Qoraqalpoq tilida va madaniyatida saqlab qolganligi, bu etnik guruhlarning tarixiy merosini anglashda juda muhimdir. Ularning etnik madaniy ta’siri, ayniqsa, adabiyot va xalq ijodi, shuningdek, urf-odatlarida hali ham o‘z aksini topmoqda. Shunday qilib, Qoraqalpoq xalqining shakllanishi, nafaqat geografik hududga, balki bu xalqning qadimiy etnik aloqalari, ko‘chmanchi hayoti va ijtimoiy tuzilmasining o‘ziga xos jihatlari bilan ham bog‘liqdir.

Bu jarayon, albatta, Qoraqalpoqlarning o‘ziga xos etnik va madaniy muhitini yaratishda muhim omil bo‘lgan va hozirgi kunda ham bu tarixiy qadriyatlar ularning ma’naviy hayotida saqlanib qolgan.

Miloddan avvalgi VII-V asrlarda Orol-Kaspiy dengizlari oralig‘ida sak, massaget, day, apasiak, issedon kabi qadimgi turkiy va osiyo xalqlari Xorazmliklar bilan siyosiy-harbiy ittifoq tuzgan. Ushbu ittifoqlar, xususan, saklar va massagetlarning o‘zaro aloqalari, o‘zlarining keng tarqalgan hududlarida va davlatlarida o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam berdi. Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida, Janubiy Orol bo‘yida shakllangan siyosiy-harbiy-demokratik “Katta Xorazm” podsholigining tashkil topishida sak-massaget qabilalari faol ishtirok etdi.

Bu davrda Xorazmning siyosiy tuzilmalari kengayib, savdo va harbiy strategiyalar orqali markazlashgan davlatni tashkil etdi. Saklar va massagetlar kabi etnik guruhlarning bu jarayondagi roli, nafaqat hududiy ekspansiya, balki ijtimoiy tizimning shakllanishi, madaniyat va urf-odatlarning o‘zgarishi bilan ham bog‘liq edi. Sak-massagetlar, o‘zlarining ijtimoiy va harbiy kuchi bilan, Xorazmning mustahkamlanishida, o‘zgarishlar yaratishda va boshqa xalqaro ittifoqlar bilan aloqalar o‘rnatishda katta ta’sir ko‘rsatdi.

Massagetlar qabilalari orasidagi apasiaklar va augasiylar qavmlari qoraqalpoqlarning etnik shakllanishida katta rol o‘ynagan. Professor T.A. Jdanko apasiaklar va augasiylarning turmush tarzidagi onalik dasturini, qoraqalpoq xalqining "Qirk-qiz" dostonida ifodalangan deb takidlaydi. Apasiaklar Janubiy Orol bo‘yida yashagan va "dengiz saklari" deb atalgan, augasiylar esa Sir Daryo pastki hududlarida yashagan va "daryo saklari" deb atalgan.

Qadimiy "day" qavmlari atamasi, qoraqalpoqlarning qiyat urug‘i "takay" tiyrasida, shuningdek, Qozog‘istondagi "aday" urug‘ining nomlarida saqlanib qolgan. Apasiaklar va augasiylar kiygiz o‘tovlarda yashagan, go‘shtni mol qorniga solib, gombe(go‘mma) qilib, boshlariga kíygizdan tikilgan uchli bosh kiyim kiygan. Ularning san’atida "hayvonat stili", "kuchkor muyz", "atonak" kabi naqshlar, shuningdek, "saukale"1 kabi qizlar kiyimlari mavjud bo‘lgan.

Miloddan avvalgi VII-V asrlarda Orol bo‘yida saklarining antropologik qiyofasida mangaloyid belgilari sezila boshlagan. Shuning uchun, qoraqalpoqlarning etnik shakllanishining dastlabki qatlamida sak-massaget, savromat-sarmat, day, apasiak va augasiylar qavmlarining ishtiroki ustun bo‘lgan. Bu guruhlarning har biri o‘zining o‘ziga xos ijtimoiy tuzilishi, madaniyati va turmush tarzi bilan qoraqalpoq xalqining kelib chiqishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Qoraqalpoqlarning etnik jihatdan shakllanishining ikkinchi bosqichida turkiy tilda so‘zlashuvchi qavmlar — xunnlar, tele, uyg‘ur, usun, qangar, kanli kabi qavmlar bilan bir qatorda, eroniy laqchadagi, Eronning sharqidagi asslar, alanlar kabi qavmlar ham ishtirok etgan. Ko‘chmanchi yuechji-toxarlarning bir qismi Orol bo‘yiga kelib joylashgan. S.P. Tolstov, toxarlar massagetlar ittifoqiga kirib, bir guruhining Sharqiy Turkistonda, ikkinchi guruhining esa Sirdaryoning eski deltasi Quvandaryoning quyi bo‘lagida yashashini va miloddan avvalgi III–II asrlarda Xorazmga kelganini takidlaydi.

[1] Hozirgi kunda qoraqalpoq ayollarining milliy kiyimi

Hozirgi qoraqalpoqlarning Qipchoq urug‘i kanli tiyrasi, qadimgi Qang‘uylar nomi bilan bog‘liqdir. "Avesto" kitobida Sharqqa qarab qanotli ot bilan uchib yuradigan elning nomi "Tur" deb ataladi va ularning makoni "Turan" deb nomlangan. Milodiy II–IV asrlarda, Kaspiy dengizining shimoliy dalalarida, Orol dengizining shimoliy-g‘arbiy tomonlarida, Sirdaryoning o‘rta va quyi yerlari hududida asslar, aors, alanlar kabi qavmlar yashagan. Ustuyurt hududida hozirgi kunda Alanqal’a, Assaka yer nomlari saqlanib qolgan. Shuningdek, Muyten urug‘i tarkibida tele, jaungir urug‘i tarkibida uyg‘ur tiyralari nomlari ham saqlanib qolgan. Berdoqning "Shajara" asarida "Uysin-qung‘irod elinda" iboralari mavjud.

Xulosa qilib aytganida, ikkinchi bosqichda turkiy tilda so‘zlashuvchi qavmlar qoraqalpoqlarning etnik shakllanishida muhim rol o‘ynagan va ularning etnik tarkibi kengayib borgan.

Qoraqalpoqlarning etnik shakllanishining uchinchi bosqichida, asosan, jeti-asarlilar, ayniqsa, kerderlilarning o‘rni katta. VII-VIII asrlarda, Sirdaryoning quyi tomonidagi, Quvandaryo va Eskidaryoning hududlaridan Amudaryo bo‘yidagi Kerder yeriga jetiasarlilar ko‘chib kelgan. Kerderlilar Tokqal’a, Gyauqal’a, Kuyikqal’a, Kurgancha, Xayvonqal’a, Porltau, Kerder kabi shaharlarni qurishgan. Orol dengizi esa "Kerder ko‘li" deb atalgan.

Bu davrda, jetiasarlilar o‘zlarining boy tarixiy va madaniy merosini qoraqalpoq xalqining etnik shakllanishiga qo‘shgan, va shu bilan birga, Kerderlilar tomonidan qurilgan shaharlar va ularning ijtimoiy, madaniy tuzilmalari Qoraqalpoq tarixida muhim o‘rin egallagan. Bu shakllanish jarayonida jetiasarlilar, o‘zining ijtimoiy va iqtisodiy faoliyati orqali, qoraqalpoqlarning etnik shakillanishini yanada boyitgan.

Kerderlilar Orol atrofida yashagan kengeres, tele, gunn kabi qavmlar bilan aralashgan jetiasarlilar va shu hududda fors tilining sharqiy dialektida so‘zlashgan asslar, alanlar, xorazmliklar bilan aralashib shakllangan xalqdir. Qoraqalpoqlarning Muyten urug‘ining bir tiyrasi dastlab kerderli nomlangan. Kerderlilarning tili xorazm yoki turk tiliga o‘xshamagan. Darson va Mizdaxan yadgorliklaridan topilgan ossuarilar, vafot etgan kishiga yig‘lab, lapar aytish dasturlari namunalarini ifodalagan. VI asrda, Orol bo‘yida turk yozuvi paydo bo‘ladi.

To‘rtinchi davr milodiy VIII-XIII asrlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda qadimgi sak-massaget, savromat-sarmat, qang‘uy, hunn-gunn, ass-alan, kerder, qangar kabi qavmlar birlashib, og‘uzlarning katta siyosiy birlashmasini tuzadi. Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan Yangikent shahri og‘uzlarning poytaxti bo‘lgan. Mahmud Qashg‘ariy og‘uzlarning 22 urug‘dan tashkil topganligini yozib ketgan. Og‘uzlarning etnik shakllanishiga ta’siri quyidagi omillar bilan tasdiqlanadi: Og‘uzlarning hukmdori Yabg‘u deb atalgan va Qipchoq urug‘ining Yabi-Jabi tiyrasi mavjud.

VIII-IX asrlar davrida, og‘uzlar bilan bir qatorda, Orol dengizining shimolida pecheneg qavmlari yashagan. IX asrning 80-yillarida Xazarlar bilan Og‘uzlar birlashib, pecheneglarga qo‘shiladi. Pecheneg-Kang‘arlar Orol-Kaspiy oralig‘ini tark etib, Bolqon yarimoroli, ya'ni Vizantiya tomon yo‘l olishadi. Pecheneglarning sharqiy bo‘limi Og‘uzlar bilan aralashib, Sariqamish va Orol dengizi oralig‘ida yashaydi, ikkinchi bo‘limi Xorazmga kelib joylashadi, uchinchi bo‘limi esa Sirdaryoning quyi tomoniga kuchaydi. Pecheneglar davridan Qoraqalpoqda kabasan, abaz va boshqa urug‘ nomlari qolgan.

XI-XIII asrlarda, Shimoliy va Markaziy Qozog‘iston dalalarida ko‘chmanchi qipchoq qavmlari yashagan. 1064-yili qipchoqlar og‘uzlarni Orol va Sirdaryoning quyi yerlardan siqib chiqarib yuborishadi. Qipchoqlar to‘qsoba, ya'ni to‘qqiz urug‘dan tashkil topgan. Qoraqalpoqda qipchoq urug‘ining hozirgi vaqtga qadar saqlanishi, ularning qoraqalpoq xalqining etnik shakllanishida o‘rta asrlarda katta rol o‘ynaganligini ko‘rsatadi.

IX asr o‘rtalarida, Kiyev Rusiga borgan pecheneg, tork, berendey, qipchoq qavmlari, rus manbalarida "qora borikli" (chernye klobuki) nomi bilan tanilgan. Mo‘g‘ullarining bosqinidan so‘ng, "qora borikli"larning bir bo‘lagi mo‘g‘ullarga xizmat qiladi, ikkinchi bo‘lagi esa Gagauz xalqini tashkil etadi.

Bu davrda og‘uzlar va qipchoqlar kabi qavmlar qoraqalpoq xalqining etnik shakllanishida muhim rol o‘ynagan, ularning madaniy va ijtimoiy ta'sirlari, turli qabilalar va urug‘lar o‘rtasidagi aralashmalar qoraqalpoq etnogenezining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Beshinchi davr XIII-XVI asrlar. XIII-XIV asrlarda Orol-Kaspiy oralig‘ida qipchoqlar bilan bir qatorda mang‘it, qiyat, qo‘ng‘irot, nayman, qatagan kabi katta urug‘ birlashmalari tashkil etilgan. XV-XVI asrlarda qoraqalpoq ulusi tuziladi. O‘sha davrda Orol dengizi atrofida, Jayxun va Seyxun daryolari quyi qismida qoraqalpoqlar xalq bo‘lib shakllanib, o‘zining hududi, tili va madaniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoqlarning etnik shakllanish jarayoni miloddan avvalgi VII asrdan, milodiy XVI asrlarga qadar bo‘lib, o‘zbek xalqlari bilan bog‘liq holda birgalikda shakllangan. Turk tilida

so‘zlashuvchi jetiasarlilar, ayniqsa, kerderlilar qoraqalpoqlarning etnik shakllanishida katta rol o‘ynagan. Ularning madaniy, ijtimoiy va til xususiyatlari qoraqalpoq xalqining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

YOSH GANDBOLCHILARNI TARBIYALSHDA YOSH XUSUSIYATLARI

NavDPI Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti **Suyarov X.B.**
NavDPI 1-kurs magistri **Raxmonova G.R.**

Annotatsiya. Yosh gandbolchilarda tezkorlikni tarbiyalashning usullarini o‘rganishda, agarda tezkorlikni rivojlantirish usullariga talab darajasida e'tibor berilsa jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik oshirilsa yosh gandbolchilarni pedagogik hususiyatlari inobatga olinsa ta'lim tarbiya ishlari samarali bo‘ladi.

Abstract. When studying the methods of developing speed in young handball players, if attention is paid to the methods of developing speed at the required level, if physical development and training are increased, if the pedagogical characteristics of young handball players are taken into account, then educational work will be effective.

Kalit so‘zi Yosh gandbolchilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini harakatli o‘yinlar orqali rivojlantirish usullari aniqlandi**.**

Keyword Methods for developing the general and special physical training of young handball players through active games have been identified.

Kirish. O‘zbekiston yoshlarining barkamol voyaga yetishi uchun yaratayotgan chora-tadbirlari, ishlari, maslahatlari beqiyosdir. O`sib kelayotgan organizmni to`g`ri tarbiyalash uchun bola organizmini o`sish va rivojlanish kabi asosiy hususiyatlarini bilish zarur. O`sish va rivojlanish barcha tirik organizmlar kabi, odam organizmiga xos xususiyatdir. Organizmning har tomonlama o`sish va rivojlanishi uning paydo bo`lgan vaqtidan boshlanadi. Bu ikki protsess murakkab jarayon hisoblanib, bir butun va bir-biriga bog`langandir.O`sish deganda o`z tuzilishini saqlagan holda miqdor jihatdan ko`payishdir. Unda tana vazni, undagi hujayra va to`qimalarning ko`payishi hisobiga o`lchamining kattalashuvi tushiniladi.Hujayralarining ko`payishi natijasida tirik organizm o`lchamlarining ortishi, ya'ni bo`yning chizilishi, og`irlikning ortishi tushuniladi. Bola ma'lum yoshgacha to`xtovsiz, ammo o`sish davrida ayrim tana qismlarining nomunosib o`sishi (bosh, oyoq, va qo`l suyaklari, ko`krak qafasi va qorin bo`shlig`i va ichki organlari) va turli yoshda har xil jadallikda bo`lib bunda o`sish prosesi barcha organizmlarda bir xil kechmaydi, uning yoshga oid chegaralari mavjud bo`lib, qizlar 18 yoshda o`g`il bolalar esa 20 yoshga kelib o`sishdan to`xtaydi. Ba'zi hollarda xotin-qizlar 21-22 yoshgacha, erkaklar esa 24-25 yoshga davr o`sish mumkin.O`sish qatorida hujayrada ularning bajaradigan vazifasining ortishi jarayoni kuzatiladi. Bu rivojlanish jarayonidir. Rivojlanish deganda esa sifat jihatdan yangilanish bo`lib, unda organizm tuzilishining murakkablashishi yoki to`qima va organlarning morfologik takomillashuvi tushiniladi. Rivojlangish tufayli butun bir organizmlarning funktsiyalari va xulq-atvori mukammallashadi. Masalan: jismoniy rivojlanish ko`rsatkichlariga bo`yning o`sishi, vazn, bosh aylanasi, ko`krak qafasi kabilar kiradi. Bu ikki jarayon notekislik, uzluksizlik, geteroxronik va akseleratsiya jarayonlari asosida yuzaga chiqadi. Bolaning o‘sishi va rivojlanishi muayyan qonuniyatlar asosida boradi, bularga geteroxroniya va akselerasiya kiradi.Organizmning normal holatida o‘sish va rivojlanishi juda uzviy bog'langan va o‘zaro bir-biriga ta'sir qilsa-da, biroq ular bir vaqtda sodir bo‘lmaydi. Ular turli tezlikda boradi, chunki biror organ to‘qimaning massasi ortishi uning ayni vaqtda funksional jihatdan takomillashuvini bildirmaydi. Bu hodisa geteroxroniya, ya'ni rivojlanishning notekisligi nomini olgan.U chaqaloqning yashab ketishini ta'minlaydi, chunki hayotiy muhim sistemalar boshqa organlardan tezroq rivojlanadi.Odam organizmi paydo bo`lganidan to vafot etgunga qadar ketma-ket keladigan morfologik, bioximik va fiziologik o`zgarishlarga uchraydi. Bu o`zgarishlar o`sish va rivojlanish bosqichlarini yuzaga keltiruvchi irsiy faktorlarga bog`langan. Biroq, bu irsiy faktorlarni yuzaga chiqishida, yosh hususiyatlarini shakllanishida ta'lim, tarbiya bolaning ovqatlanishi, turmushining gigiyenik sharoiti, uning kattalar bilan muloqati, sport va mehnat faoliyati, umuman olganda insonning ijtimoiy hayoti katta ta'sir ko`rsatadi. Inson hayoti bu uzluksiz rivojlanish jarayonidir. Bolaning dastlabki qadam tashlashi va hayoti davomidagi harakat funktsiyasining rivojlanishi, bolaning birinchi aytgan so`zi va hayoti davomida nutq funktsiyasining rivojlanishi, bolaning o`smirga aylanishi, markaziy nerv sistemasining rivojlanishi, reflektor faoliyatining murakkablashuvi. Bular organizmda kechadigan, yuz beradigan uzluksiz o`zgarishlarning bir bo`lagidir. Bunday o`zgarishlarni bolaning gavda proportsiyasini

o`zgarishida kuzatish ham mumkin. Yangi tug`ilgan chaqaloq katta odamdan oyoq — qo`llarining kaltaligi, gavda va boshining kattaligi bilan farqlanadi. Yangi tug'ilgan bola boshining uzunligi tana umumiy uzunligining 1|4 qismini, 2 yoshda 1|5 qismini, 6 yoshda 1|6 qismini tashkil qiladi. Yangi tug'ilgan bola qo‘llarining uzunligi oyoqlar uzunligiga teng bo‘ladi.

Boshqa organlarga qaraganda bosh miya tezroq o‘sadi. Yangi tug'ilgan bolada katta odamnikiga nisbatan bosh miyaning vazni 25%, 6 oyligida 50%, 2,5 yoshida 75%, 5 yoshda 90%, 10 yoshda 95% ni tashkil etadi.Odam yoshi bilan birga boshning o`sishi sekinlashadi, oyoq-qo`llarning o`sishi tezlashadi. Jinsiy balog`atga etguncha qiz va o`g`il bolalar gavda proportsiyasida jinsiy tafovut sezilmaydi, biroq, balog`at yosh davri kelishi bilan jinsiy farq yuzaga chiqadi, ya'ni o`g`il bolalarda oyoq-qo`llari uzunlashadi, gavda kaltalashadi, tazi tor bula boshlaydi.Bola bo`yining uzunligi va massasining notekis o`sishi va rivojlanishini quyidagi misollarda ko`rish mumkin. Bolalarda yoshga qarab bo‘yining o‘zgarishi**.** Yangi tug'ilgan bolaning bo‘yi 48-50 sm bo‘ladi. Bolaning bir yoshigacha bo`yining uzunligi har oyda ikki smdan o`sib bir yosh oxirida 75 sm ga etadi. Hayotining ikkinchi yilida atigi 10 sm ga o`sadi. 6-7 yoshgacha bo`yning o`sishi yanada sekinlashadi. Boshlanchg`ich maktab yoshida bola bo`yi uzunligi 7-10 sm ga o`sadi. Jinsiy etilish munosabati bilan qizlarda 12 yoshdan, o`g`il bolalarda 15 yoshdan boshlab bo`yiga o`sish tezlashadi. Bo`yiga o`sish qizlarda asosan 18-19, yigitlarda 20 yoshda to`xtaydi. Butun o`sish davrida oyoqlarning uzunligi 5 marta, qo`l uzunligi 4 barobar, gavda uzunligi 3 barobar, bosh balandligi 2 barobar ortadi. Jinsiy jihatdan voyaga etish davrida bolaning bo`yi 6-8 sm dan o`sadi.Tana vaznining yoshga qarab o`zgarishi. Tana vazni yoshga qarab quyidagicha o`zgaradi. Yangi tug`ilgan qiz bolalarning o`rtacha vazni 3 kg, o`g`il bolalarniki esa 3,4 kg., bo`ladi. Bolaning vazni tug`ilganidan keyingi birinchi oyda 600 g, ikkinchi oyda 800 g ortadi. Bir yashar bolaning vazni tug`ilganidagi vaznidan uch marta ortib 9-10 kg ga etadi. 2 yoshda bolaning vazniga 2,5 — 3,5 kg qo`shiladi. 4, 5, 6 yoshlarda bola vazniga har yili 1,5 — 2 kg qo`shilib boradi. 7 yoshdan boshlab uning vazni tez ortib boradi. 10 yoshgacha o`g`il bolalar bilan qiz bolalar tana vazni bir xilda o`zgaradi. Jinsiy etilish boshlanishi bilan qizlarning vazni 4-5 kg dan 14-15 yoshda har yili 5-8 kg ortadi. O`g`il bolalarda esa 13-14 yoshdan vazni 7-8 kg ortadi. 15 yoshdan boshlab ularning vazni qizlarning vaznidan ortib ketadi.Aqliy rivojlanishning notekisligini barcha sinf o`quvchilarida ko`rish mumkin. Bu notekislik ayrim hollarda bolaning aqliy jihatdan orqada qolishi bo`lsa, boshqa holda shaxsning nisbatan tez o`sib ketishi sabab bo`ladi. Birinchi holda bu hususiyatning ustunligi kichik maktab yoshidagi bolalarga xos bo`lsa, boshqa holatda o`qituvchining dars berish mahoratiga ham bog`liqdir. Ikkinchi holatda o`quvchi o`z sinfdoshlaridan o`zib ketgan holda, u mustaqil bo`lishga va o`zbilarmonlikka berilib o`qituvchiga ham buysinmay qoladi. Bunday o`quvchilar o`qituvchiga nisbatan tenglashishga harakat qilib, o`z sinfdoshlariga hurmatsizlik bilan qarab hayot tajribasidan orqada qoladi. Shuning uchun bolalarni nisbatan o`zib ketishiga nisbiy munosabatda bo`lish kerak bo`ladi. Bolalarni individual o`sish va rivojlanishini e'tiborga olmasdan turib ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish mumkin emas. Bolalarning yoshlariga nisbatan aqliy kamol topishi ularning shaxsiy qobiliyatiga va atrof muhit sharoitiga ham bog`liqdir. Ularning aqliy va psixologik rivojlanishi bolalarni o`rab turgan muhitga va o`quv-tarbiyaviy ishlarga ham bog`liqdir. Shuni yodda tutish kerakki, bolalarning nisbatan bir necha yil bir xil sharoitda yashashi ularning shaxsiy o`sish tempiga ta'sir etadi. Shu bilan birga kichik maktab yoshidagi bolalar orasida o`ta qobiliyatlilari ham uchrab turadi. Bularni vunderkinddar (nemis tilida sexrli bolalar) deyiladi. Ko`pgina atoqli odamlarning yoshligidanoq katta qobiliyatga ega bo`lganliklari bizga ma'lum. Jumladan, buyuk allomalarimizdan Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy va Abu Ali ibn Sinolarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Abu Ali ibn Sino 16-17 yoshidanoq mashhur tabib-hakim bo`lib tanilgan. Dunyoning birinchi vunderkindi deb Italiya yozuvchisi Torkvato Tasso e'lon qilingan. U 13 yoshida Balon universiteti talabasi bo`lgan. Viktor Gyugo esa Frantsiya Akademiyasining rag`batnomasini olgan. Yana buyuk kompozitor Motsartni misol qilishimiz mumkin. U 4 yoshida musiqa yozgan. Bunday misollarni tarixda ko`p keltirishimiz mumkin. Hozirgi davrda bunday bolalarga davlatimizda katta e'tibor berilmoqda. Ular uchun maxsus litsey va kollejlar tashkil etilgan.Bolalarning jismoniy va aqliy jihatdan o`sishi va rivojlanishida, yuqorida aytib o`tilganidek, turmush sharoiti, maktabdagi mehnat faoliyati, jismoniy mashqlar, kasalliklar bilan og`rigani muhim ahamiyatga ega.Bundan tashqari, ob-havo sharoiti, iqlim sharoiti, quyosh radiatsiyasi ham ularning o`sishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko`rsatadi. Bolalar yoz faslida (iyul —avgust) hususan tez o`sadi. Agar bola kichikligidan muntazam ravishda jismoniy mashqlar va sport bilan shug`ullansa u sog`-salomat o`sadi, uning organlari uygun rivojlanadi. (m-n. bola nafas organlarining takomillashuvi yurak — qon tomir tizimining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1.Akramov J.A. “Gandbol” Voris nashriyoti T.2007.
2.Azizova R.I. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi.T.2010.
3.Изаак В.И. Набиев.Т.И. Гандбол в вузе.-Т.2005.
4.Niyozov.I. Olimpiya sport o‘yinlari. “Fan”T.2006.84-92B.
5.Павлов Ш.К. Абдураҳманов Ф.А. Подготовка гандболистов.-Т.2006.
6.Павлов Ш.К. Абдураҳманов Ф.А Акрамф.Ж.А. Гандбол.-Т.2005.
7.Павлов Ш.К. Абдураҳманов Ф.А. Азизова.Р.И. Гандбол.-Т.2007.

YANGI O‘ZBEKISTONNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH – BARQAROR IQTISODIYOT OMILI

Sheraliyeva Saida Azatovna-
NavDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti v.b.

Jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga erishishlari mumkin. Bunda tashqi iqtisodiy siyosat muhim o‘rin egallaydi. Buning eng asosiy sababi esa, fan-texnika taraqqiyoti natijasida jahon xo‘jalik tizimida globallashuv va xo‘jalik faoliyatining baynalmilallashuvi jarayonlari kuchaymoqda. Natijada tashqi iqtisodiy faoliyat milliy xo‘jalikning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday sharoitda muayyan maqsadga yo‘naltirilgan tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish iqtisodiy o‘sishning muhim omili hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi eksport salohiyatini oshirish dolzarb muammolardan biri sanaladi. Sababi respublika tashqi savdo aylanmasi minus saldoda bormoqda (2021 yilda tashqi savdo aylanmasi – 42071,6 mln. AQSH dollari, shundan eksport – 16610,6 mln. AQSH dollari, import esa 25461 mln. AQSH dollari va saldo minus 8850,4 mln. AQSH dollari bo‘ldi). Bu rivojlanayotgan mamlakat uchun og‘riqli nuqta hisoblanadi. CHunki import tarkibida o‘zimizda ishlab chiqarish imkoniyati bo‘lgan mahsulotlar hajmining oshishi oqibatida mamlakatdan erkin konvertirlanadigan valyuta chiqib ketadi va mamlakat oltin-valyuta zaxiralari kamayib ketadi. Bunday holatda mamlakatning xorij mamlakatlari va xalqaro tashkilotlardan tashqi qarzi oshib boradi. Bu esa mamlakatning boshqa mamlakat va tashkilotlarga qaramlik holatini yuzaga keltiradi. Bunday holat dolzarb ekanligi uchun ham Prezidentimiz tomonlaridan ilgari surilgan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlarida ham keltirib o‘tilgan. Xususan, Farmonda strategiyaning 22-maqsadi sifatida mis, qurilish materiallari, to‘qimachilik mahsulotlari hajmini 2 barobarga oshirish; charm-poyabzal, farmatsevtika mahsulotlarini 3 barobarga oshirish; elektrotexnika mahsulotlari hajmini 2 barobarga oshirib, eksport hajmini 3 barobarga oshirish maqsad qilib olingan. Bundan tashqari O‘zbekiston eksporti uchun istiqbolli sanalgan mebel sanoati mahsulotlari hajmini 2,8 barobarga oshirish asosiy maqsad sifatida keltirib o‘tilgan.

Bilamizki, O‘zbekiston mahsulotlari Yevropa bozorlariga kirib borgan va O‘zbekiston eksport geografiyasini kengaytirish yo‘lida. SHu sababli, yevropada yangi bozorlarni egallash maqsadida turli sa’y-harakatlar qilinmoqda. SHuning natijasida, 2021 yil 10 aprelda O‘zbekiston uchun yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqarish uchun maxsus preferensiyalar tizimi (GSP+) kuchga kirdi, unga O‘zbekiston Umumiy preferensiyalar tizimi (GSP) doirasida benefitsiar mamlakat sifatida qabul qilingan edi. Ushbu maqom mamlakatimizga yevropa bozoriga bojsiz yetkazib beriladigan tovar pozitsiyalarining sonini ikki barobarga oshirib, 6200 taga yetkazish imkonini beradi. yevropa Ittifoqi mamlakatlari ichida Germaniya O‘zbekistonning eng yaqin hamkori sanaladi. Germaniyaning qo‘llab-quvvatlashi natijasida benefitsiar maqomini qo‘lga kiritdik va bu O‘zbekiston eksportchilari uchun tarixiy natijadir. Strategiyada GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini 2 barobarga oshirish ko‘zlangan.

Biz katta marrani ko‘zlaganmiz, ya’ni eksport hajmini 30 mlrd. AQSH dollariga yetkazish (2021 yilda eksportimiz 16 610,6 mln. AQSH dollari, importimiz 25 461 mln. AQSH dollari). Buning uchun hozirgi kunda mavjud bo‘lgan tovarlarning eksport geografiyasini 115 mamlakatdan, 150 mamlakatga yetkazish reja qilingan. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar sonini oshirish eng asosiy vazifamizdir. Bu orqali biz qo‘shilgan qiymat beradigan mahsulotlarga ega bo‘lamiz, jahon bozori talablariga javob beradigan va raqobatlasha oladigan tovarlar eksportida yetakchilikka erishamiz. Eksport tarkibida xizmatlar sohasining ulushini 60 %ga yetkazish reja qilingan. Bundan tashqari eksportchi korxonalarga tashkiliy va moliyaviy yordam berish asosiy vazifa sifatida qaralmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslarida ilgari surilayotgan “Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida 200 ta eksportchilarni ochiq tanlov asosida saralab olib, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish uchun har tomonlama ko‘maklashiladi.

Eksport salohiyatimizni oshirish yurtimiz taraqqiyotida sezilarli rol o‘ynaydi. CHunki eksport hajmining oshishi mamlakatning iqtisodiy qudrati oshayotganligidan dalolat beradi. Eksportni oshirishda mamlakatning asosiy vazifasi eksportchilarni qo‘llab-quvvatlash, bojxona imtiyozlarini joriy etish, ularga subsidiyalar ajratish, transport infratuzilmasini yaxshilash va boshqalardan iborat bo‘ladi. Eksportchilarni turli ovoragarchiliklardan himoya qilish maqsadida albatta bojxona ko‘rigidan o‘tkazishda mahsulotlarni turli guruhlarga ajratgan holda, “yashil”, “sariq” va “qizil” yo‘laklarni joriy etish va ularni samaradorligini oshirish maqsadida bojxona postlarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash lozim.

O‘zbekiston anklav mamlakatligidan kelib chiqib, eksport geografiyasini kengaytirishda savdoda eng arzon bo‘lgan transport turi – kema transportidan foydalanish imkoniyati cheklanganligini inobatga olib, Rossiyaning Novorossiysk, Turkiyaning Mersin, Pokistonning Karachi va Eronning Bandar-Abbos portidan foydalanishni davom ettirgan holda, ulardan yuklarni tashishda maksimal darajada foydalanishni yo‘lga qo‘yish. Buning uchun esa, ikki tomonlama manfaatli va istiqbolli shartnomalar tuzish bo‘yicha rejalarni ishlab chiqish juda ham muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018 yil 29 dekabr. №271-272 (7229-7230).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz/uz/docs/-5841063

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti www.stat.uz ma’lumotlari.

4. O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining rasmiy sayti www.karantin.uz ma’lumotlari.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA HUQUQIY MADANIYAT VA ADOLAT G‘OYALARI: ZAMONAVIY IJTIMOIY HAYOT BILAN UYG‘UNLIKDA

N.A.Nematova – NavDU Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi,
Xasanova Ruxshona Erkin qizi – NavDU ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan adolat, huquqiy madaniyat, axloqiy qadriyatlar va shaxsiy javobgarlik g‘oyalari tahlil qilingan. Navoiy fikrlarining zamonaviy ijtimoiy hayotdagi dolzarbligini ochib beradi hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, jinoyatchilikning oldini olish, yoshlar tarbiyasida ma’naviy-me’yoriy qadriyatlarning ahamiyatini yoritadi. Asarda Navoiy asarlaridan iqtiboslar keltirilib, ularning bugungi jamiyatdagi ifodalari misollar bilan bog‘lanadi. Maqola huquqiy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarida, ta’lim tizimida va yoshlar bilan ishlashda metodik material sifatida foydalanishga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, huquqiy madaniyat, adolat, axloqiy tarbiya, jinoyatchilikning oldini olish, yoshlar huquqiy tarbiyasi, zamonaviy ijtimoiy hayot, shaxsiy javobgarlik, ma’naviyat, huquqiy savodxonlik.

Kirish. Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy o‘zining betakror asarlari orqali insoniyatni adolat, huquq va odob-axloqqa da’vat etgan. Uning fikrlarida jamiyat barqarorligi va shaxs erkinligi huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishiga bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Bugungi kunda ham Navoiy o‘z asarlari orqali yoshlarni qonunlarga hurmat va adolatga intilishga chaqiradi. Insoniyat tarixida adolat va huquq qadriyatlarini ulug‘lagan buyuk siymolar ko‘p bo‘lgan. Shulardan biri – o‘zbek adabiyoti va ma’naviyatining sarchashmasi sanalgan Alisher Navoiydir. Navoiy nafaqat she’riyat va adabiyot sohasida, balki axloq, odob, jamiyat taraqqiyoti va inson huquqlari haqida ham teran fikrlar bildirgan. Uning asarlarida huquqiy madaniyat, adolat, shaxsiy burch va jamiyat oldidagi mas’uliyat kabi g‘oyalar o‘z ifodasini topgan. Bugungi kunda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va jinoyatchilikning oldini olish masalalari global muammolardan biriga aylangan. Ayniqsa, yoshlar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish, ularga qonunlarga hurmat

tuyg‘usini singdirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Alisher Navoiy merosidagi adolat va huquqiy tarbiya haqidagi fikrlar biz uchun bebaho manba vazifasini o‘taydi.

Uning "Mahbub ul-qulub", "Nasoyim ul-muhabbat", "Xamsa" kabi asarlarida bayon etilgan adolat, rahbarlarning odil bo‘lishi, shaxsiy javobgarlik va axloqiy tarbiya haqidagi g‘oyalar nafaqat o‘z davri uchun, balki hozirgi zamon uchun ham dolzarbligini saqlab qolgan. Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan huquqiy madaniyat va adolat g‘oyalari tahlil qilinadi, ularning zamonaviy ijtimoiy hayot bilan qanday uyg‘unlashayotgani ko‘rsatib beriladi.

Asosiy qism.

Adolat — jamiyat hayotining poydevori

Alisher Navoiy o‘z asarlarida adolatni jamiyat taraqqiyotining asosiy negizi sifatida tasvirlaydi. U «Mahbub ul-qulub»da shunday hikmat aytadi:

> "Adolat elning tuzog‘idur, jahonning bezag‘idur."

Bugungi zamon ijtimoiy hayotida ham adolat tamoyili juda muhim. Xususan, sud tizimi isloh qilinishi, korrupsiyaga qarshi kurashish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish kabi sohalarda adolat prinsiplariga qat'iy amal qilish talabi kundan-kunga ortib bormoqda. Talabalar orasida adolat tuyg‘usini shakllantirish — huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishning eng muhim omilidir.

Rahbarlarning huquqiy madaniyati va yoshlarning roli

Navoiy «Mahbub ul-qulub»da shunday deydi:

> "Podshoh adolat qilmasa, el zulm qiladi."

Bu fikr zamonaviy jamiyatda rahbarlarning shaffof va adolatli faoliyat yuritishi zarurligini ko‘rsatadi. Hozirgi ijtimoiy hayotda talaba-yoshlar yetakchilikka tayyorlanmoqda. Ularning huquqiy bilimli, mas’uliyatli va adolatparvar bo‘lib yetishishi — kelajakdagi davlat va jamiyat taraqqiyotining kafolati bo‘ladi. Talabalar huquqiy ong va madaniyat asosida o‘z burch va mas’uliyatlarini chuqur anglasalar, jamiyatda korrupsiya, huquqbuzarlik, jinoyatchilik kabi salbiy holatlarga qarshi barqaror immunitet hosil qiladi.

Axloq va huquqiy madaniyat uyg‘unligi

Alisher Navoiy odob va axloqni ham huquqiy madaniyatning ajralmas qismi deb biladi. U «Nasoyim ul-muhabbat»da yozadi:

> "Odob egasining qiyofasi jamoldir, jaholat egasining qiyofasi zavoldir."

Bugungi kunda ham axloqiy qadriyatlar zaiflashishi jinoyatchilik va huquqbuzarlikning ko‘payishiga olib kelmoqda. Talabalar o‘z odobi, madaniyati va huquqiy savodxonligi bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lishi kerak. Ta’lim muassasalarida odob-axloq va huquqiy madaniyatni targ‘ib qiluvchi darslar, seminarlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar muntazam o‘tkazilishi lozim.

Shaxsiy mas’uliyat va o‘zini anglash

Navoiy o‘zini anglash va shaxsiy javobgarlik haqida shunday deydi:

> "Kim o‘zini bilsa, jahonga foyda keltirar."

Bu fikr zamonaviy hayot uchun ham beqiyos ahamiyatga ega. Talabalar o‘z huquq va burchlarini bilib, jamiyat oldida o‘z mas’uliyatini his qilishsa, jinoyatchilikning oldi olinadi, barqaror va huquqiy jamiyat qurishga katta hissa qo‘shiladi. Bugungi kunda «Huquqiy ongni oshirish yili», «Yoshlar siyosati» kabi davlat dasturlarining asosiy maqsadi ham aynan yoshlar ongida huquqiy madaniyatni yuksaltirishdir.

Adolat haqida

> "Adolat — saltanatni barqaror qiladi, zulm esa taxtni qulatadi."

(Mahbub ul-qulub)

Hozirgi kunda ham davlat boshqaruvida adolat tamoyillariga amal qilish davlatning mustahkamligi va xalq ishonchining asosi hisoblanadi. Agar rahbarlar adolatsiz qarorlar qabul qilsalar, xalq orasida norozilik kuchayadi, tartibsizlik va beqarorlik yuzaga keladi. Shu bois, O‘zbekistonda sud-huquq islohotlari, inson huquqlarini ta’minlash choralari adolat tamoyilini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Masalan, sudlar faoliyatining oshkora va shaffof bo‘lishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Odob-axloq va huquqiy tarbiya haqida

> "Odob — insonning bezagi, jaholat — insonning balosi."

(Nasoyim ul-muhabbat)

Zamonaviy yoshlar uchun odob-axloq va huquqiy bilimlar birdek muhim. Ijtimoiy tarmoqlarda, ko‘cha-ko‘yda o‘zini tutish madaniyati jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, onlayn platformalarda salbiy, haqoratli so‘zlardan foydalanish ham huquqbuzarlik hisoblanadi va jazoga sabab

bo‘lishi mumkin. Shu sabab, maktab va universitetlarda huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy saboqlar muntazam tashkil etilmoqda.

Shaxsiy mas’uliyat va jamiyat oldidagi burch haqida

> "Elga rahm qilmagan, o‘z joniga dushman bo‘lur."

(Mahbub ul-qulub)

Bugungi jamiyatda har bir fuqaro — o‘qituvchi, talab, ishchi, tadbirkor — jamiyat oldidagi burchini anglashi kerak. Agar bir kishi faqat o‘z manfaatini ko‘zlab, jamiyat manfaati haqida o‘ylamasa, oxir-oqibat o‘zi ham bu jamiyatdagi beqarorlikdan zarar ko‘radi. Masalan, korxonalarda mehnat huquqlariga rioya qilinmasa, butun ishlab chiqarish jarayonida muammolar yuzaga keladi. Shu sabab, bugun ijtimoiy adolat va shaxsiy mas’uliyat bir-biriga chambarchas bog‘langan.

Xulosa. Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan adolat, huquqiy tarbiya, axloq va shaxsiy javobgarlik g‘oyalari zamonaviy ijtimoiy hayotda o‘z dolzarbligini yanada oshirmoqda. Talabalar o‘z huquq va majburiyatlarini bilib, adolat va odob-axloq tamoyillariga amal qilsalar, jamiyatimizda jinoyatchilikka qarshi kurash yanada samarali kechadi. Navoiydan o‘rnak olib, har bir yosh o‘z huquqiy madaniyatini yuksaltirishni hayotining muhim qismi deb bilishi kerak.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.

2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1992.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilgi "Yoshlar va huquqiy madaniyatni oshirish yili" davlat dasturi.

5. "Huquqiy madaniyat asoslari" fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.

O‘QISH DARSLARIDA QUDDUS MUHAMMADIY IJODINING O‘RGANILISHI

Murodilloyeva Mahbuba-
“Profi University” Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: K.M.Ulug‘murodova f.f.f.d. (PhD), “Profi University” Navoiy filiali

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek bolalar she’riyatining taniqli siymolaridan biri Quddus Muhammadiy asarlarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni, o‘ziga xosligi, yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati va mazmundorligini oshirishdagi roli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik,darslik, o‘qish savodxonligi, she’rlar, mehnat, samimiyat, jonlantirish, yumor, badiiy-estetik.

Ma’lumki, bolalar adabiyoti umummilliy adabiyotning uzviy qismidir. Shu bois o‘tgan asrning so‘ngi choragi badiiy-estetik tafakkuri, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning poetik ifodasiga xos bo‘lgan o‘tish davri murakkabliklari, ijodiy evrilishlar, shakily-uslubiy izlanish jarayonlari bolalar adabiyotida ham muayyan darajada o‘z ifodasini topdi. Mustaqillik arafasi va istiqlol yillarida ijtimoiy- siyosiy va adabiy hayotda kecha boshlagan o‘zgarish va yangilanishlar bolalar adabiyotida ham yangicha estetik printsiplarni yuzaga keltiruvchi va shakllantiruvchi asosiy omillarga aylandi[1].

O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish borasida, yurt boshimiz kerakali bo‘lgan barcha imkoniyatlar eshigini ochmoqda va o‘quvchilar bilimini jahon miqyosidagi bilimga ega bo‘lgan davlatni yaratish uchun sayharakat qilmoqda. Buning uchun esa bolalarni kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirishimiz darkor.

Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o‘rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgullikka undaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kotobxonlik

[1] Quddus Muhammadiy. Dunyoda nima kuchli: she’rlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2017. – B.3- 4.

madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan va bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda[1].

O‘qish darsi va u bilan bog‘liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o‘quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi; bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o‘stirishga keng imkoniyat mavjud[2].

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, ona diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ilm-fanga muhabbatini oshiradi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi, ilg‘or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg‘ularini o‘stiradi.

Xalqda “Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga e’tibor” deyiladigan juda katta ta’lim-tarbiyani o‘zida jamlagan umumlashma bor[3].

Shuni aytish joizki, insonni ma’naviyati, axloqi kuchli bo‘lsa, shakshubhasiz, bunday xalq insonlari hech kimga tobe bo‘lmaydi, rivojlanishda ham, o‘zini hech kimdan kam emasligini ham yana bir bor isbotlaydi. Shunday ekan, ma’naviyatni yoshlikdan rivojlantirishimiz darkor. Bu borada ko‘plab shoirlarimiz izchil mehnat qilishgan.

Aslida, bolalar yozuvchilari sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib asarlarini yoza olishlari kerak. Buning uchun esa u xalq bolasini, turmush tarzini puxta bilishi kerak bo‘ladi, shundagina bolalar ko‘nglidan joy oladigan asarlar yarata oladi.

Darhaqiqat, shoirlar orasida Quddus Muhammadiy asarlari alohida o‘ringa ega.

Shoirning mohirona bola tilidan yozgan she’rlari har qanday insonning qalbiga tezda yetib boradi. Uning bolalarcha beg‘uborligi va fikrlashlari shunday asarlar yaratilishi uchun zamin bo‘la oladi.

Quddus Muhammadiy har bir she’rini bolalarning kundalik hayotidan olib yozadi. Uning she’rlari kichkintoylarni hunar o‘rganishga, odobli bo‘lishga, mehnatga chaqiradi, qiziqtiradi, yordam beradi. Quddus Muhammadiy sofdil, a’lochi o‘quvchilarni sevadi, o‘z she’rlarida bunday bolalarni maqtaydi. “A’lochi Sodiq”, “Sinov”, “Mening orzuyim”, “Bizning uyda”, “Yasha, Omon”, “Besh”, “Solijonning darsxonasi” va boshqa she’rlari a’lochi o‘quvchilar haqida yaratilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi .

Quddus Muhammadiy ijodining yana bir muhim qirrasi hajv va yengil kulgi bilan bog‘liq. “Nomsiz erkatoylar haqida”, “Dum”, “Ahmadjonga uyat”, “Lapashang”, “Ravshanjonning qo‘li tilga kirdi” kabi ko‘plab she’rlarida bolalar fe’lidagi yomon odatlar ayovsiz tanqid qilinadi[4].

Darhaqiqat, Quddus Muhammadiy shunchaki shoir emas, balki bolalarni ichki kechinmalari, orzu-hayollarini oddiy so‘zlar bilan aks ettira oladigan ulkan bir siymodir. Doim bolalarni ezgulikka, yaxshilikka, vatanparvarlikka, a’lo baholarda o‘qisa, qanday natijalarga erishish mumkinligi haqida boshqalar misolida ko‘rsata olgan shoirdir. Ayniqsa, hayvonlar ko‘rinishida bitgan she’rlari taqsinga loyiq. Ular ortida qanchalik keng ma’nolar mujassamligini payqash qiyin emas, oddiy tilda yozilgan bu she’rlarni bolalar tezda ilg‘ab olishadi. Chunki aksariyat bolalar bu obrazlarda o‘zlarini ko‘radilar.

Uning ijodiga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri hozirjavoblikdir. Shoir asarlarida ona-Vatanga muhabbat, a’lo o‘qish, xulq-odobda boshqalarga namuna bo‘lishga da’vat etish, fan va texnikani o‘rganish muammolari asosiy mavzulardan hisoblanadi. Quddus Muhammadiy uchun mavzuning chegarasi yo‘q, – deb yozgan edi S.Mamajonov, - bolalarning ruhiy kechinmasidan tortib to hayvon parandalargacha hamma-hammasi haqida yozadi…[5]

Chunki tasvirlangan har bir jism yoki tabiat hodisasi bo‘lsin she’rni o‘qiyotgan vaqtingizda xuddi, o‘sha hodisalarni his qilgandek bo‘lasiz go‘yo. Shoir o‘zi foydalangan so‘zlarida sehrni ham ko‘rishingiz mumkin. Asarlarni berilib o‘qigan o‘quvchi o‘zini o‘sha asar qahramoni etib his qilishi bejiz emas.

Shunday qilib, Quddus Muhammadiy o‘zbek bolalar she’riyatining sohibkori darajasiga ko‘tarilib, uni tom ma’noda yangi mavzular va g‘oyalar, yangi badiiy shakllar va obrazlar, yangi tasviriy vositalar va uslublar bilan boyitib, kelajak bunyodkori bo‘lgan navqiron naslning orzu-armonlari, o‘yin, o‘qish va yashashdagi zafarlari, iztirob va quvonchlari, orzu-umidlarini, odam va olamga

[1] Egamqulova. G. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 2023. 11-son. – B.12.
[2] Xalilova R. O`quv qo`llanma. Ona tili o`qitish metodikasi. – Buxoro.: Fan va ta’lim, 2022. – B. 41.
[3] Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va ifodali o`qish. – T.: VORIS-NASHRIYOT, 2017. – B. 5.
[4] Jamilova B. O`zbek bolalar adabiyoti. O`quv qullanma. – T.: 2019. – B.92.
[5] https//doi.org/10.5281/zendo.6528463

munosabatlarini turfa jilolarda kuylab nainki o‘z yurtida, balki uning sarhadlarida ham tanilgan. Shoir she’laridagi poetik-lingvistik qirralar, axloqiy, ta’limiy-tarbiyaviy xususiyatlar uning zukko tilshunos, adabiyotshunos va ma’rifatparvar ekanligini ham tasdiqlaydi[1].

Shoirning ijodiga mansub she’rlaridan boshlang‘ich sinflarning 2-4-sinf o‘qish savodxonligi darsliklariga kiritilgani ham bunga misol bo‘la oladi.

Quddus Muhammadiy asarlarini sahna ko‘rinishlarida ham o‘quvchilar qiziqish bilan ijro etadilar. U, ayniqsa, tabiatni juda sevuvchi inson bo‘lgan va o‘z she’rlarida ham shuni aks ettirgan. Shoir jannatmakon O‘zbekistonimizni so‘lim tabiatini, ona-yerimizni qanchalik go‘zalligini asarlarida ifoda etgan.

Quddus Muhammadiy bolalarning yoshiga, saviyasiga mos qilib asarlar yaratgan, adabiybadiiy vositalarni izlab topgan, kinoya, satira va yumor unsurlaridan unumli foydalangan. Shoir butun umrini, ijodini kichkintoylarning adabiyoti uchun bag‘ishladi.

Shoir o‘z asarlarida bolalarning yurak tuyg‘ularini, orzu va intilishlarini, o‘qishdagi yutuqlarini aks ettirish bilan birga, ulardagi kamchiliklarni qoralaydi, uni yo‘qotish yo‘llarini izlaydi, topadi, o‘z o‘quvchisiga talabchan o‘rtoq, qattiqqo‘l ustoz sifatida yo‘l ko‘rsatadi.

Shoirni bolalarning hamma tomoni qiziqtiradi. U o‘z she’rlari bilan bolalarda estetik didni o‘stirishga, go‘zallik haqida tasavvur hosil qilishga harakat qiladi. Quddus Muhammadiy to‘qson yillik umrini bolalarga she’r, qo‘shiq, doston, doston-ertak yaratishga qaratgan.[2]

Xulosa qilib aytganda, Quddus Muhammadiy asarlari unutilmas bir tarixga aylangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoir butun umrini, ijodini kichkintoylarning adabiyoti uchun bag‘ishladi. Uning ijodi nihoyatda serqirra, sermahsul va bolalar dunyosiga mos va xosdir.Shuning uchun ham biz uning ijodiiy merosini hali hanuz o‘qib o‘rganmoqdamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Egamqulova. G. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 2023. 11-son.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va ifodali o`qish. – T.: VORIS-NASHRIYOT, 2017.
3. Jamilova B. O`zbek bolalar adabiyoti. O`quv qullanma. – T.: 2019.
4. https//doi.org/10.5281/zendo.6528463
5. Quddus Muhammadiy. Dunyoda nima kuchli: she’rlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2017.
6. Xalilova R. O`quv qo`llanma. Ona tili o`qitish metodikasi. – Buxoro.: Fan va ta’lim, 2022.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARINING TASHKIL ETILISHI

Ishpo‘latova Laziza –
Profi University Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 5-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: K.M.Ulug‘murodova f.f.f.n (PhD)

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari ta’lim tizimida juda muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning savodxonligini oshirish, mustaqil fikrlash, badiiy nutqini rivojlantirish, adabiy-badiiy asarlarga qiziqish uyg‘otish bu darslarning asosiy vazifalaridan biridir. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkil etishning asosiy jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘qish, boshlang‘ich sinf, ertak, ta’lim, metod, **interfaol,** so‘z, tafakkur.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari bolalarning savodxonligini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va adabiyotga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qish darslari bolaning tafakkurini boyitish, lug‘at boyligini oshirish va adabiy-estetik didini rivojlantirishga ham yordam beradi. Shu boisdan boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini to‘g‘ri tashkil etish va samarali metodlardan foydalanish juda muhim hisoblanadi[3]. Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning har bir o‘quvchisi jahon andozalariga mos ravishda tayyorlanishi zarur, yoshkarning puxta bilim olishi hamda zamonaviy sohalardan fan asoslarini chuqur egallashlari birinchi navbatda ta’lim berish samaradorligiga bog‘liq. Shuning uchun ham, o‘qish savodxonligi darslarini o‘qitishimizda o‘z oldimizga maqsadlarni qo‘yib olishimiz lozim.

[1]Jamilova B. O`zbek bolalar adabiyoti. O`quv qullanma. – T.: 2019. – B.92.
[2] Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va ifodali o`qish. VORIS-NASHRIYOTI. – T.:2017. – B.121.

[3] Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: NOSIR, 2009. – B. 67.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan;

- O‘quvchilarga o‘qish va yozish malakalarini shakllantirish.
- Ularning matnni tushunish va mazmunini anglash qobiliyatini rivojlantirish.
- Lug‘at boyligini oshirish va og‘zaki nutqini shakllantirish.
- O‘quvchilarga badiiy adabiyotga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish.
- Mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirish.
- Kitob o‘qishga bo‘lgan ehtiyojni yaratish va odat hosil qilish.
- Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish va tahliliy fikrlash qobiliyatini oshirish[1].

O‘qish darslarini samarali tashkil etish uchun quyidagi tamoyillar asosida ishlash lozim:

1. Yosh xususiyatlarini hisobga olish:

Bolalar turli yoshda har xil darajada bilimlarni qabul qiladilar. Masalan, 1-sinf o‘quvchilari yangi so‘zlarni eslab qolishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, shuning uchun ularga ko‘proq rasmli materiallar berish kerak. 2-4-sinflarda esa o‘quvchilarning so‘z boyligi ortadi, ular badiiy matnlarni tushunish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

2. Ta’limiy va tarbiyaviy yondashuv:

O‘qish darslari nafaqat bilim berishi, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lishi kerak. Matnlarda milliy qadriyatlar, odob-axloq qoidalari va insoniylik fazilatlari aks etgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

3. Fanlararo bog‘liqlik:

O‘qish darslari boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak. Masalan, ona tili fanida o‘rganilgan qoidalar o‘qish darslarida mustahkamlab boriladi. Shuningdek, matematika va atrof-muhitni o‘rganish fanlari bilan ham bog‘liqlik mavjud bo‘lishi mumkin.

4. O‘yin va interfaol metodlardan foydalanish:

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini zerikarli qilmaslik uchun o‘yinli metodlar, rolli o‘yinlar, guruhli ishlash usullari va didaktik o‘yinlardan foydalanish tavsiya etiladi[2].

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish, lug‘at boyligini oshirish ham asosiy vazifalardan biridir. O‘quvchilarda axloqiy qadriyatlar, Vatanga bo‘lgan muhabbat, insoniylik va do‘stlik hissini shakllantirish. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari turli xil yo‘nalishlarda tashkil etiladi. O‘quvchilar hikoyalar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar va she’rlarni o‘qish orqali fikrlash va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. O‘quvchilar matnni hissiyot bilan, ta’sirchan o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilarga mustaqil kitob o‘qish va uni tahlil qilish imkoniyati beriladi.

Bunda ertaklarning roli katta hisoblanadi. Chunki o‘qish darslarida ko’p ertaklarning o‘qilishi va eshittirilishi o‘quvchilarning tasavvur boyligini va mustaqil fikrlashini rivojlanishiga yordam beradi.

Ertaklar –xalq og‘zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo‘lib, ular orqali bolalar nafaqat o‘zbek xalq og‘zaki ijodi bilan tanishadilar, balki hayotiy tajriba orttiradilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ertaklarning asosiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

- **Nutq boyligini oshirish** – yangi so‘z va iboralarni o‘rganish, to‘g‘ri talaffuz qilish.
- **Ijodiy fikrlashni rivojlantirish** – ertak syujetidan kelib chiqib yangi hikoyalar yaratish.
- **Axloqiy tarbiya** – ezgulik va yovuzlikni farqlash, yaxshi odatlar bilan tanishish[3].

Boshlang‘ich sinflarda ertak darslarini o‘qitish nafaqat bolalarning savodxonligini oshirish, balki ularning ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Turli metodlar orqali o‘quvchilar ertaklarning mazmunini chuqur anglashlari, xulosa chiqarishlari va o‘z hayotlariga tadbiq etishlari mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilar ertaklarni faqat o‘qib berish bilan cheklanmasdan, ularni turli o‘yinlar, sahnalashtirish, munozara va tasviriy metodlar bilan boyitishlari lozim.

Q. Husanbayevaning "Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi" kitobida aynan shu jarayonning metodik asoslari yoritilgan. Ushbu maqolada adabiyot darslarini tashkil etishning asosiy tamoyillari va samarali metodlari bayon etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarning badiiy asarlarni o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

- O‘quvchilarda badiiy nutqni rivojlantirish.
- Matn mazmunini anglash va uni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish.
- O‘qish darslarida interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish.
- O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularning mustaqil fikrlashiga yordam berish[1].

[1] https://m-soatova.zn.uz

[2] http://in-academy.uz

[3] Jamilova B. O`quv qo`llanma. O`zbek bolalar adabiyoti. – T.: O`qituvchi, 2019. – B.6-7.

Shu bilan birgalikda o‘quvchilarda tahlil qilish ko‘nikmasini ham shakllantirish maqsadga muvofiqdir. “Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali o‘quvchilarni badiiy adabiy olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O‘quvchilarning yozuvchi oldinga qo‘ygan g‘oya, muammolarni tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo‘lmaydi”[2].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarini tashkil etishda mavzuga mos bo‘lgan metodikalardan foydalanishimiz o‘quvchilarning ijodiy va tahliliy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga ifodali o‘qish, munozara, rolli o‘yinlar va grafik metodlardan foydalanish orqali bolalar badiiy matnlarni chuqurroq anglab, ulardan hayotiy saboq chiqaradilar. O‘qituvchilarning zamonaviy interfaol usullardan foydalanishi o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etilishiga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husanboyeva Q, Shodiyev F, Hazratqulov M. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
2. Jamilova B. O`quv qo`llanma. O`zbek bolalar adabiyoti. – T.: O`qituvchi, 2019.
3. Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: NOSIR, 2009.
4. Zunnunov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992.
5. https://m-soatova.zn.uz
6. http://in-academy.uz

SIFAT SO‘Z TURKUMINI O‘RGANISH ORQALI O‘QUVCHILARDA ESTETIK TAFAKKUR VA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Profi University Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
5-bosqich talabasi
Xo‘jamqulova Farangiz Ruslan qizi
Ilmiy rahbar: **K.M.Ulug‘murodova**, f.f.f.d. (PhD)

Boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumining o‘rganilishi o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu davrda o‘quvchilarda estetik tafakkur va obrazlilikni shakllantirish, tilni to‘g‘ri va samarali ishlatishni o‘rgatish o‘qituvchilar uchun asosiy maqsadlardan biridir. O‘quvchilarga sifatlar yordamida voqealarni tasvirlash, baholash va fikrlarni aniq ifodalashni o‘rgatish orqali, ularning nutqiy kompetensiyasi va estetik tafakkuri yanada mustahkamlanadi. Ushbu maqolada, boshlang‘ich sinflarda sifatlarning o‘quvchilarda estetik tafakkur, obrazlilik va nutqiy kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada o‘quvchilarning o‘z fikrlarini obrazli va estetik tarzda ifodalash uchun sifatlarning qanday yordam berishi ko‘rsatiladi.

Sifatlar — bu tilning tasviriy va baholovchi so‘z turkumi bo‘lib, ular yordamida ob'ektlar va hodisalar tasvirlanadi. Masalan, "yashil", "go‘zal", "kichik", "baland" kabi sifatlar o‘quvchilarga ob'ektlarning tashqi va ichki xususiyatlarini aniq va rang-barang tarzda tasvirlash imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sifatlar orqali tasvirlash jarayoni ayniqsa muhimdir, chunki bu ularning tasavvurini rivojlantirishga, nutqini boyitishga yordam beradi. Estetik tafakkur esa o‘quvchilarga faqat tashqi ko‘rinishlarni tasvirlashda yordam berib qolmay, balki his-tuyg‘ularini, taassurotlarini va fikrlarini ham ifodalashga yordam beradi. Misol uchun, o‘quvchi "kichik, shirin to‘p" degan jumlada to‘pning nafaqat o‘lchamini, balki uning shirinligini ham tasvirlashga imkon yaratadi.[3]

O‘quvchilarda estetik tafakkur, ayniqsa, sifatlar yordamida o‘z fikrlarini san’atkorona tarzda ifodalashga undaydi. Ular tasvirlarni rang-barang va jonli qilib yaratadilar, bu esa ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sifatlarni o‘rgatishda ularning tasavvurini

---

[1] Husanboyeva Q, Shodiyev F, Hazratqulov M. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – B.19.

[2] Zunnunov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992. – B. 160.

[3] Shomurodov A., Karimov Sh. Sifat va uning lingvistik funksiyalari. – Toshkent: O‘zbekiston universiteti nashriyoti, 2019. – B.210.

kengaytirish, nutqiy tasvirlarni yaratishga o‘rgatish juda muhimdir. Sifatlar o‘quvchilarga nafaqat ob'ektlarni, balki ular bilan bog‘liq hissiyotlarni ham ifodalashni o‘rgatadi.

Sifatlar va nutqiy kompetensiya: Boshlang‘ich sinflar misollarida

Boshlang‘ich sinflarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda sifatlarning ahamiyati katta. Nutqiy kompetensiya o‘quvchilarning tilni samarali va to‘g‘ri ishlatish qobiliyatini anglatadi. Bu qobiliyat o‘quvchilarda sifatlarni ishlatish orqali rivojlanadi. Misol uchun, 2-sinf o‘quvchisi "yashil o't" yoki "baland tog'lar" degan jumlalar orqali o‘zi kuzatgan tabiiy manzaralarni tasvirlashi mumkin. Ushbu misolda sifatlar o‘quvchilarga voqeani yanada boy va rang-barang tarzda ifodalash imkoniyatini beradi. O‘quvchilar sifatlarni ishlatib, ob'ektlar yoki hodisalarni baholashni, taqqoslashni, tasvirlashni o‘rganadilar.[1]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyaning shakllanishi uchun sifatlar yordamida voqealarni nafaqat obyektiv, balki baholovchi tarzda ifodalash ham muhimdir. Masalan, 3-sinf o‘quvchisi "quyosh chiqdi, havo iliq va go‘zal" yoki "yomg‘ir yog‘ayapti, havo xushbo‘y" kabi jumlalarni tuzishda sifatlar yordamida o‘z fikrini bildirishi mumkin. Bu nafaqat o‘quvchilarni tasvirlashda, balki o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda ham yordam beradi.

Sifatlar o‘quvchilarda estetik tafakkur va baholash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sifatlar yordamida baholash funksiyasini o‘rgatish, ularning fikrini aniq ifodalashga yordam beradi. Misol uchun, "a'lo", "yaxshi", "yomon" kabi sifatlar o‘quvchilarga ob'ektlarni yoki voqealarni baholash imkonini yaratadi. Bu baholash jarayoni o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va mulohaza qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, 2-sinf o‘quvchisi "bu rasm juda go‘zal" yoki "bu kitob juda qiziqarli" kabi ifodalar orqali o‘z fikrini bildirishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning tilni to‘g‘ri va tasvirli ishlatish qobiliyatini oshiradi.[2]

Estetik tafakkur va baholovchi sifatlar yordamida o‘quvchilarga ob'ektlarning nafaqat tashqi, balki ichki holatlarini ham baholashni o‘rgatish mumkin. Masalan, "ushbu rasm shirin va yoqimli" yoki "bu o‘rmon qorong‘u va sirli" kabi sifatlar yordamida o‘quvchilar voqealarni nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki uning his-tuyg‘ularini ifodalaydilar. Bu esa ularning nutqiy kompetensiyasini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf darslarida sifatlar bilan ishlash davomida estetik tafakkur quyidagi bosqichlar asosida shakllanishi kuzatiladi:

1. **Tushunish** – sifatlarning ma’nosini anglash va turkumini bilish.
2. **Baholash** – predmet va hodisalarning belgilariga estetik yondashish.
3. **Tasvirlash** – sifatlar yordamida obrazli fikr bildirish.
4. **Yaratish** – sifatlardan foydalangan holda matn, she’r, tavsif yozish.

Bu bosqichlar orqali o‘quvchida estetik obrazlar bilan ishlash ko‘nikmasi shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida uning badiiy tafakkuri, ifodaviy nutqi va estetik dunyoqarashining tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Sifatlar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari obrazli fikrlarni yaratishni o‘rganadilar. Obrazlilik, tilni nafaqat tasvirlash, balki his-tuyg‘ularni va taassurotlarni ifodalashga imkon beradi. Masalan, 4-sinf o‘quvchisi "bu shamol juda kuchli va sovuq" yoki "yulduzlar osmondan porlab turadi" kabi ifodalar orqali voqealarni obrazli tarzda tasvirlaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantiradi. Obrazlilik orqali o‘quvchilar voqealarni nafaqat real tarzda, balki o‘z his-tuyg‘ulari va tasavvurlari asosida tasvirlashni o‘rganadilar.

Zamonaviy dars jarayonlarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirib, ularni o‘qituvchidan faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, grammatik mavzularni o‘zlashtirishda interfaol yondashuvlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini mustaqil bildirish, obrazli ifodalar topish va baholashga intilishadi. Bu jarayon sifat so‘z turkumini o‘rgatishda ayniqsa samarali natija beradi.

Klaster usuli, **“Aqliy hujum”**, **Venn diagrammasi**, **Rolli o‘yinlar** kabi metodlar o‘quvchilarni mavzuga faol jalb qiladi, ularning nutqiy tafakkuri va ifoda qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, klaster usuli orqali “go‘zal” sifatiga bog‘liq barcha belgilar va obrazlarni yozish orqali o‘quvchi birgina so‘z atrofida qanday tafakkur jarayoni ketishini o‘rganadi. “Aqliy hujum” orqali esa o‘quvchilar matnga turli sifatlarni kiritib, ifoda ohangini qanday o‘zgartirish mumkinligini tajriba yo‘li bilan aniqlaydilar.

Interfaol metodlar yordamida sifatlarning tasnifi (sifat darajalari, kelib chiqishi), semantik imkoniyatlari, badiiy matnlardagi o‘rni kabi murakkab jihatlar ham sodda va obrazli yo‘l bilan o‘rgatiladi. Masalan, she’r yoki hikoya ichidan sifatlarni ajratish, ularni baholovchi yoki tasviriy guruhlarga ajratish

[1] Rustamova K. O‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda sifatlarning o‘rni. – Toshkent: Maktab nashri, 2018. – B.150.

[2] Axmedov M. R. Sifatlar va ularning ta’limdagi o‘rni. – Toshkent: Ta’lim va taraqqiyot, 2017. – B. 200.

orqali o‘quvchi matnni chuqur anglashga o‘rganadi. Bu orqali faqat grammatik bilim emas, balki **badiiy-estetik tahlil ko‘nikmasi** shakllanadi.

Eng muhimi, interfaol metodlar orqali o‘quvchilar darsda erkin fikrlaydilar, o‘zlarining shaxsiy munosabatlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa estetik tafakkur va nutqiy kompetensiyani yanada chuqurlashtiradi. Har bir sifat so‘z turkumiga oid mashg‘ulotda o‘quvchi nafaqat predmetning belgisini, balki unga bo‘lgan munosabatini estetik tarzda bildiradi.

Mashq: Estetik tafakkur va sifatlarni qo‘llash

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun quyidagi mashqni bajarish tavsiya etiladi. Mashqning maqsadi sifatlarni aniq va obrazli tarzda ishlatishdir. O‘quvchilarga quyidagi jumlalarni taklif qilish mumkin:

1. "Yozgi kun"ni tasvirlab, "sifat"larni qo‘llang. Masalan, "quyosh", "yoqimli havo", "yengil shamol" kabi sifatlarni ishlatish.
2. "Bahor"ni tasvirlab, qanday sifatlar yordamida bahorda his qilgan his-tuyg‘ularingizni ifodalash mumkinligini ko‘rsating. Misol: "toza", "yoqimli", "qizg‘in".
3. Biror joyni tasvirlab, “bu yer qanday?” degan savolga sifatli javob berish. Masalan, "bu bog‘ go‘zal", "bu o‘rmon qorong‘u va sirli" kabi sifatlar yordamida voqealarni ifodalash.

Bu mashqlar o‘quvchilarga sifatlar yordamida nafaqat tasvirlashni, balki hissiyot va taassurotlarni aniq ifodalashni o‘rgatadi. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumining o‘rganilishi o‘quvchilarda estetik tafakkur va nutqiy kompetensiyani shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Sifatlar yordamida o‘quvchilar ob'ektlarni tasvirlash, baholash va obrazli fikrlarni ifodalashni o‘rganadilar. Bu jarayon o‘quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantiradi, ularning fikrlarini aniq va rang-barang tarzda ifodalashlariga yordam beradi. O‘quvchilarga sifatlarni o‘rgatish orqali ularning nutqiy kompetensiyasi va estetik tafakkurini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shomurodov B. A., Karimov N. Sh. Sifat va uning lingvistik funksiyalari. – Toshkent: O‘zbekiston universiteti nashriyoti, 2019. – 210 b.
2. Rustamova M. K. O‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda sifatlarning o‘rni. – Toshkent: Maktab nashri, 2018. – 150 b.
3. Axmedov M. R. Sifatlar va ularning ta’limdagi o‘rni. – Toshkent: Ta’lim va taraqqiyot, 2017. – 200 b.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA “OT” SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH TEXNOLOGIYASI

Profi University
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 5-kurs talabasi
Abdualimova Nazokat Kamolovna
Ilmiy rahbari: **K.M.Ulug‘murodova** f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumini o‘rgatish metodikasi, dars mobaynida qo‘llaniladigan yangidan yangi metodlar qiziqarli texnologiyalardan foydalanib o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya beramiz. O‘quvchilar ushbu yangi va qiziqarli metodlar va o‘quv qo‘lanmalari orqali darsni qiziqib tez va ososn o‘zlashtiradilar. Maqolada o‘quvchilarda obrazli fikrlash,estetik ifoda va mustaqil nutq ko‘nikmasini shakillantirish yo‘llari va turli xil yangi metodlar yoritilgan.

Ona tili darslarida “Ot” so‘z turkumiga oid nazariy tushunchalarni o‘rgatish „Ot“ mavzusini o‘rganish tizimi maqsadga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, bunda shu so‘z turkumining umumlashtirilgan ma’nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog‘liqlikda o‘rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to‘g‘ri foydalanish va to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi. Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o‘rganish vazifalari, o‘quvchilaming yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ulami o‘rganish izchilligi belgilangan.

Boshlang‘ich sinflarda otni o‘rganish vazifalari quyidagilar: 1) „ot“ haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish; 2) kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan (shaxs bildirgan) otlardan nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildir gan) otlarni farqlash ko‘nikmasini hosil qilish; 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlar va geografik nomlami bosh harf bilan yozish ko‘nikmasini shakllantirish; 4) otlarda son (otning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi) bilan ta nishtirish; 5) otlarni egalik qo‘shimchalari bilan to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish; 6) Otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo‘shim- chalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish; 7) o‘quvchilar lug‘atini yangi

otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o‘rinli foydalanish malakasini o‘stirish; 8) so‘zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish. Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, „Ot“ mavzusini o‘rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo‘lgan bir vazifani hal qilishga ko‘proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1-2-sinflarda so‘z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so‘roqlari) o‘rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko‘plikda qo‘llanishini o‘zlashtirishga aha miyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo‘shimchalarining yozilishini o‘rganishga e’tibor qaratiladi.

O‘quvchilarning nutqi va tafakkurini o‘stirish vazifasi esa mavzuni o‘rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o‘rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o‘quvchilar lug‘atini boyitishga, bog‘lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga qaratiladi. So‘z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma’nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha Otlarning umumiy leksik ma’nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (kishi, qush, hayvon, asalari), yer va osmonga oid narsalar (quyosh, yulduz, daryo, tog‘), o‘simliklar (paxta, beda, gul), voqealar (yig‘in, majlis), ta biat hodisalari (shamol, bo‘ron, yomg‘ir, momaqaldiroq), belgixususiyat (ahillik, kuchlilik, samimiyat), harakat-holat (uyqu, sevinch, kurash), o‘rin va vaqt (yoz, bahor, joy) nomlarini bildiradi. Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko‘plikda qo‘llanadi, egalik qo‘shimchalari bilan o‘zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko‘proq ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hoi va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe’l bilan birika oladi. Otning ma’nolari va grammatik belgilari xiyla murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o‘quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

Otni o‘rganishda izchillik. Otni o‘rganishga tayyorlov bosqichi savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda o‘quvchilar shaxs-narsalarni va ularning nomi bo‘lgan so‘zlarni farqlashga o‘rganadilar, so‘zning leksik ma’nosiga e’tibor ko‘proq qaratiladi, ma’nolarini hisobga olgan holda so‘zlar (qushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni guruhlash ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Shunga qaramay, grammatik tushunchani shakllantirish uchun o‘quvchilar so‘zning aniq ma’nosini yetarli bilmaydilar, so‘zning leksik ma’nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham o‘zlashtirish zarur. Keyingi bosqichda otning leksik ma’nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi (kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘lishi, shaxs, narsani bildirishi tushuntiriladi). O‘quvchilar kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan otlarni nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan otlardan farq- lashni, ularni so‘roq berish bilan ajratishni o‘rganadilar, o‘quvchilarda mavhum grammatik tafakkur o‘sa boradi, ularda atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko‘nikmasi shakllana boradi. 2-sinfda Otlarning leksik ma’nosi, atoqli va turdosh otlar (atamasiz) haqidagi bilim chuqurlashtiriladi. „Ot“ tushunchasini shakllantirish uchun shu so‘z turkumiga kiradi- gan otlarni asosiy leksik guruhlarga ajratish, barcha otlarga xos bo‘lgan belgilarni, ularning nutqimizdagi o‘rnini ko‘rsatish muhim ahami yatga ega. Shu maqsadda mavzuni o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi darslardayoq shaxs va narsani bildiradigan so‘zlar bir tizimga solinadi, kishilami, buyum, o‘simliklar va hayvonlami, tabiat hodisalarini, voqealami bildiradigan so‘zlar guruhlarga ajratiladi. Shu so‘zlaming hammasi uchun umumiy bo‘lgan belgilar aniqlanadi: bu so‘zlar shaxs, narsalarni bildirib kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Dasturga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sifat va boshqa so‘z turkumlaridan yasalgan mavhum ma’nodagi (yaxshilik, go‘zallik, ishonch, sevinch, o‘kinch, qo‘rqinch, tayanch kabi) otlar bilan ta nishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va o‘quvchilar qiziqib so‘rasalar, otning bolalar o‘rgangan belgilari asosida (nima? so‘rog‘iga javob bo‘lishi, shaxs yoki narsa nomini bildirishi) tushuntiriladi.

O‘quvchilar matndagi otlarni tushirib qoldirib o‘qiganda, matn mazmunini tushunib bo‘lmasligini anglaydilar. Xulosa chiqariladi: ot atrofimizni o‘rab olgan shaxs va narsalarning nomi, bu so‘zlarsiz bir-birimizga o‘z fikrimizni tushuntira olmaymiz. Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi. 3-sinfda „Otlar, ya’ni Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi" ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarda: 1) birlik va ko‘plikda qo‘llangan Otlarning ma’nosi va qo‘shimcha orqali farqlash, 2) birlikdagi oldan ko‘plik shaklidagi va, aksincha, ko‘plikdagi otdan birlik sondagi ot hosil qilish, 3) gapda so‘zlaming bog‘lanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi. Buning uchun bir predmetni va shunday bir necha predmetni bildirgan otlar taqqoslanadi: daftar - daftarlar, qalam-qalamlar, nok-noklar kabi. Suhbat asosida daftar so‘zi nechta (bitta) predmetni va daftarlarso‘zi nechta (ikki va undan ortiq) predmetni bildirishi aniqlanadi. Boshqa so‘zlar bilan ham shunday ishlanadi. Oddiygina xulosa chiqariladi va fikrlar iimumlashtiriladi: agar otlar bir predmetni bildirsa, birlikda qo‘llanadi, agar ikki va undan ortiq shaxs yoki narsani bildirsa, ko‘plikda qo‘llanadi. Ko‘plikdagi otni yasash uchun birlikdagi otga -lar qo‘shimchasi qo‘shiladi. Birlikdagi otlar kim? yoki nima? so‘rog‘iga, ko‘plikdagi otlar esa kimlar? yoki nimalar?

so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Bu sinf o‘quvchilariga faqat birlikda qo‘llanadigan otlar. birlik shaklida qo‘llangan armiya, qo‘shin, xalq kabi otlar ko‘plik ma’nosini bildirishi, bunday otlarga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda anglata- digan ma’nosi maxsus tushuntirilmaydi. Agar o‘quvchilar bu haqda savol bersalar, soddagina shaklda tushuntirish mumkin. Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishini kuzatish aslida so‘z shakli ustida ishlashning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi.

Bunda o‘quvchilar otlarni ko‘plik qo‘shimchasi bilan o‘zgartirish, ya’ni otga shakl yasovchi qo‘shimcha qo‘shish bilan so‘zning leksik ma’nosi o‘zgarmasligiga ishonch hosil qiladilar. Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘lanishini o‘rgatish. Bu mavzu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muiakkab hisoblanadi, chunki bu mavzu o‘rganilgunga qadar, o‘quvchilar „shaxs" tushunchasi bilan hali tanishtirilmagan, kishilik olmoshlarini hali o‘rganmagan bo‘ladilar. O‘quvchilarga egalik qo‘shimchasi shaxs, narsa birlik va ko‘plikdagi uch shaxsdan biriga taalluqli ekanini bildirishini tush untirish qiyin. Shularni hisobga olib, o‘quvchilarni otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishini o‘zgatishda o‘qituvchi ishni sar- lavhadagi „egalik" so‘zining leksik ma’nosini tushuntirishdan bosh- lashi maqsadga muvofiq: „egalik" ega bo‘lish, qarashlilik, tegishlilik, oidlik ma’nolarini bildiradi, demak, egalik qo‘shimchasi deganda biror narsaga ega bo‘lishni, shu narsa tegishli, shu narsaning egasi ekanini bildiradigan qo‘shimchalar tushuniladi. Otlar egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi. Otga qo‘shilgan egalik qo‘shimchasi shu ot ifodalagan shaxs, narsaning kimgadir qarashli ekanini, shu narsaning egasi ekanini bildiradi.

Xulosani o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilaming o‘zlari chiqaradilar: oxiri q undoshi bilan tugagan otlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -qa shaklida qo‘shiladi. O‘quvchilar o‘rin-payt kelishigining xususiyatlari bilan tanishtirilgach, da kelishik qo‘shimchasi -ta bo‘lib eshitilsa ham, -da shaklida yozilishi tushuntiriladi. Ba’zi o‘quvchilar o‘rin-payt kelishigi o‘rniga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini ishlatib, xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bunday xatoning oldini olish uchun o‘quvchilar bilan fe’ldan jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigida qo‘llangan otga so‘roq berib, so‘z birikmasini topishni ko‘proq mashq qilish va kelishiklaming so‘rog‘i va ma’nosiga qarab farqlashga o‘rgatiladi. Masalan, bordi (qayerga?) maktabga, bo‘ldi (qayerda?) maktabda; oldim (kimga?) ukamga, ko‘rdim (kimda?) ukamda.

O‘quvchilar chiqish kelishigining xususiyatlari bilan ham reja asosida tanishtirilib, ularga kelishik qo‘shimchasining yozilishi tushuntiriladi. Kelishiklar haqidagi malakani shakllantirish ustida ishlashning samaraliligini ta’minlaydigan shartlar, birinchidan, maqsadga muvofiq mashq tanlash, mashq materialini asta murakkablashtirib borish bilan o‘quvchilaming mustaqqlligini oshirish, ikkinchidan, imloni gramma tik bilimni takomillashtirib borish va o‘quvchilaming nutqini o‘stirish bilan bog‘lab o‘rgatishdir. Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda ot yaxlit holda o‘rganiladi va uni o‘rganish o‘quvchilar shu so‘z turkumining belgilarini, vazifasini o‘zlashtirishiga, shuningdek, ularda kelishik qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Jamilova B. O`quv qo`llanma. O`zbek bolalar adabiyoti. – T.: O`qituvchi, 2019.

2 Husanboyeva Q, Shodiyev F, Hazratqulov M. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022.

3. Zunnunov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992.

4. Rahimov X. “Bolalar adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi”. Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

5. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. (Darslik-majmua). — Toshkent: O‘qituvchi, 14. Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh. Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: Bayoz, 2022.

FUTBOL MAKTABI MASHG‘ULOTLARIDA YOSH O‘SPIRINLARNI SOG‘LOMLASHTIRISHNING ASOSIY MEZONLARI

NavDPI Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti
Zaripova F.A. NavDPI 1-kurs magistri
Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqolada Futbol mashg‘ulotlarning asosiy vazifasi yosh bolalar va shug‘ullanuvchilarning salomatligini mustaxkamlash, jismoniy va aqliy kamolatga etkazishdan iboratdir.

Abstract. In this article, the main task of football training is to strengthen the health of young children and trainees, bringing them to physical and mental maturity.

Kalit so‘zi Yosh shug‘ullanuvchilarning jismoniy barkomolligiga chiniqishiga, tana azolari va umuimy ish qobiliyatining o‘sishiga yordam berish.

Keyword To contribute to the physical development and hardening of young athletes, the growth of body organs and overall work capacity.

Kirish. Koʻpgina mutaxassislar oʻz tadqiqotlari hamda tajribalariga suyanib futbolni shunday ta'riflardilarki, ushbu sport turi oʻzining oʻta oʻzgaruvchan vaziyat ekanligi, tarkibiga xayotiy zarur malakalarni kiritishi (yurish, toʻxtash, sirpanish, chopish, sakrash), tezkorlik, kuch, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirishi kattayu — kichikni oʻziga rom qiluvchi harakat malakalari va taktik kombinatsiyalari bilan oʻquv muassalarida jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi boʻlib xisoblanadi va eng ommabop oʻyin sifatida bolalar e'tiborini kozongan.Oʻquv muassalarida dars shaklida yoki darsdan tashkari mustakil oʻtkaziladigan futbol mashgʻulotlari oʻzining sogʻlomlashtirish funktsiyasi jixatidan global ta'sir kuchiga ega boʻlib, shugʻullanuvchilarning nerv, kon —tomir, nafas olish, mushaklar hamda boshqa tizim va organlarini takomillashtiradi.Futbol bilan muntazam shugʻullanish natijasida koʻrish, eshitish vestiboʻlyar va boshka analizatorlarga ijobiy ta'sir koʻrsatib, ular faoliyatini shakllantiradi. Futbolda qoʻllaniladigan mashqlar va ushbu oʻyinning oʻzi harakat apparatiga ta'sir etib, mushak tolalarini rivojlantiradi, natijada ularning tonusi ortadi, jismoniy sifatlar taraqqiy etadi. Shu bilan bir qatorda sport bilan shugʻullanishda, mashgʻulotlar jarayonida qoʻllaniladigan mashqlar bolalarning yoshi, jinsi va boshqa xususiyatlari e'tiboriga olinishi shart.Oʻgʻil bolalarda 7 — 8 yoshda ayrim mushaq guruxlar kuchini rivojlantirish maqsadga muvofik.8—9 yoshda tezkorlik va umumiy chidamkorlikni, 9—10 yoshda egiluvchanlik va muvozanat saqlash funktsiyasi, 11 — 12 yoshda maxsus yoki dinamik chidamlilik, 13—14 yoshda kuch va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish yaxshi natija beradi.Mustaqil oʻtkaziladigan mashgʻulotlarda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak boʻladi:Oʻrgatishning birinchi yilida tezkorlik mashqlarining hajmi chidamkorlik mashqlaridan kam boʻlmasligi lozim:

Umumiy jismoniy tayyorgarlik texnik — taktik mashqlar bilan ravishda qoʻllanilib borilishi darkor. Futbol bilan muntazam shugʻullanish natijasida taraqiy ettirilgan tezkorlik, kuch, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik sifatlari va shu sifatlarni futbolga xos kurinishi organizmda sogʻliq, koʻrsatkichlari yuqori darajada rivoj topganligidan dalolat beradi. Ilm — fanga azaldan ma'lumki, jismoniy mashqlar yoki sport bilan uzluksiz shugʻullanadigan va shugʻullanmaydigan bolalar bir—biridan ham jismoniy, ham ruxiy, ham funktsional jixatlardan keskin ajralib turadi. Jumladan, sportchi bolalar tetik, harakatchan, dadil, jasur, gʻayratli, irodali va xozir javoblik xususiyatlariga ega boʻladilar. Ularning qaddi — qomatlari, buy — bastlari, harakat madaniyati va guzalligi hamda jismoniy sifatlari nisbatan shakllangan boʻladi. Yana bir narsa aniq va ravshanki sportni qanda qilmaydigan bolalar turli kasalliklardan yiroq boʻladilar. Sababi ma'lum, muntazam harakat, toza xavo, suv, quyosh ta'sirida organizm va organlar, xujayralar, tuqimalar charxlanadi, chinikadi, ruxiy saykal topali, iroda mustaxkamlanadi. Bu ijobiy oʻzgarishlar oʻz navbatida turli kasaliklarga nisbatan immunitet xosil qiladi.Sport nazariyasi boʻyicha yetakchi ilmiy tadqiqotchilarning koʻpchiligi sport bilan shugʻullanish davomida umumiy va maxsus jismoniy va funktsional imkoniyatlarini aks ettiradi, balki uning sogʻligi mustaxkamlanib borishidan darak beradi deb xisoblaydilar.Shunday ekan mavjud adabiyotlarga tayangan xolda futbol bilan shugʻullanish davomida jismoniy tayyorgarlik va jismoniy sogʻlikni shakllantirish uchun qanday mashqlar tanlash va ularni qoʻllash tartibi xaqida ma'lumotlarni berish maqsadga muvofikdir.Sportchi sogʻligini mustaxkamlash, uning qaddi — komatini shakllantirish, undagi jismoniy sifatlarni rivojlantirib, kamol toptirishga karatilgan jaryon—bu jismoniy tayyorgarlikdir.Jismoniy sifatlar deganimizda, inson harakatlari imkoniyatlarining ba'zi sifat jixatlarini kuzda tutgan boʻlamiz.Ularning rivojlanish darajasini aniqlab olishda organlari va sitemalarining fiziologik imkoniyatlari bilan kifoyalanib qolmay, shuningdek, ruxiy omillari, xususan, irodalilik fazilatlari kay pogʻonada rivoj topganini ham inobatga olamiz.Jismoniy tayyorgarlik umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikka boʻlinadi.Umumiy jismoniy tayyorgarlik jismoniy sifatlarni oshirishga harakat normalarini organizmning ishlash funktsiyalarini va sogʻlom mustaxkamlashda xizmat qiladi.Maxsus jismoniy tayyorgarlikning vazifasi esa jismoniy sifatlarni kengaytirishda xizmat qiladi.Futbol oʻyini uchun umumiy jismoniy tayyorgarlikning ahamiyatli tomonlari quyidagilar:Har tomonlama jismoniy rivojlanish va sogʻliqni mustaxkamlash vazifalarini toʻliq bajaradi. Oʻyinchining nerv tuqimalari xarakteri boʻyicha va organizmning ishlash rejimini toʻliq bir-biriga toʻgʻri tushirishida ishtirok etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Акрамов.Ж.А Обидов Ш.У. Ёш футболчиларнинг мусобақа фаолиятнинг хусусиятлари. // Фан-спорга №1 -2007у

2.Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Тошкент., 2003у

3.Касимов А. Подвижные игры. Ташкент, Укитувчи, 1993. - 79с.

4.Насритдинов Ф.Н., Қосимов А.Ш. Ўзбек халқ миллий ўйинлари. Т., 1 тўплам. 1993. - 27с.

5.R. A. Akramovning umumiy tahriri ostida. Futbol (darslik). Toshkent – 2006.

6.O. V. Goncharova. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. T. 2005 y.

TALABALARDA TAJOVUZKORLIK HISSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

R.Begmatov -
Navoiy DPI Psixologiya kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d (PhD)

Ta’kidlash joizki, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zining ijtimoiy tabiati bilan alohida ahamiyat kasb etib, uni fanlararo tadqiqotlar tizmida o‘rganish, muammoga oid ko‘plab nazariy va amaliy ma’lumotlarni yangilashi shuningdek, tajovuzkor xulq-atvor to‘g’risidagi ayrim bahs-munozarali holatlarga oydinlik olib kelishi ehtimoldan holi emas. Ya’ni, boshqalar bilan o‘zaro munosabatlardan kelib chiqadigan bunday kelishmovchiliklar, oxir-oqibat nizolarga olib kelishi mumkin. Talabalar hayotining ajralmas qismi bu – turli qarama-qarshilik va to‘qnashuvlardan iborat bo‘lgan shaxslararo nizolardir. Shaxslararo nizolar - keskin shaklda ifodalanadigan ko‘p qirrali maqsadlar, manfaatlar, istaklar, fikrlar hamda qarashlar majmuidan iboratdir. Namoyon bo‘lish xususiyatiga qarab, samarali (konstruktiv) va buzg‘unchi (distruktiv) nizolar ajaratiladi.

Qoidaga ko‘ra, “tajovuz”, “tajovuzkorlik” so‘zlari ko‘pchilik tomonidan salbiy qabul qilinadi. Biroq, uning tabiatini yaxshiroq bilib olish uchun, “nizo”, va “nizoli vaziyatlar” tushunchalarining mazmun mohiyati, uning kelib chiqish sabablarini aniqlash lozim bo‘ladi. T.G.Rumyansevaning aytishicha, talabalar guruhi yoshlardan iborat bo‘lganligi sababli, ularga xos tajovuzkor xulqni o‘rganishda avvalambor, yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak. Chunki, bu davrda inson tajovuzga moyil bo‘ladi. Shuning uchun, talabalar shaxsida tajovuzkor xulq namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlarini aniqlashda, avvalambor, shaxsning yoshga oid xususiyatlari, psixologik o’ziga xosliklari va intellektual rivojlanganlik holatlarini ham e’tiborga olishi asosiy shartlardan biridir. S.L.Soloveva o‘zining “Oddiy va patologik sharoitlarda tajovuzkorlik shaxsiy xususiyat sifatida” nomli asarida yozishicha, talabalik davri shunday bir davrki, unda insonning kamolotdan-kamolotga o‘tish davri yuz beradi Ya’ni, katta insonlarning psixologik va psixofiziologik funksiyalari o‘zlashtiriladi”.

Nizolarga va turli vaziyatlarga munosabat bildirishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bundan tashqari, talabalik davri – kech o‘spirinlik davri ham sanalib, u insonning jamiyat hayotiga qadam qo‘yishning dastlabki pilla poyasi ham sanaladi. Boshqa bir psixolog I.A.Zimnyayaning so‘zlariga ko‘ra, talabalik davri -shaxs shakllanishining o‘ziga xos bosqichi hisoblanib, u turli xil qiziqishlar namoyon bo‘lishining markaziy davri ham sanaladi.

Shuningdek, muallif talabalar jamoasini “maxsus ijtimoiy toifa, oliy o‘quv yurti tomonidan tashkil etilgan o‘ziga xos insonlar jamoasi” deb hisoblaydi. Xuddi shu bois ham, muvaffaqqiyatli ta’lim sharoiti talabalar shaxsining bilish sohasiga, kasbiy kompetentligiga, kommunikativ malakasiga, xulq-atvor shakllariga keng ta’sir ko’rsatib, oxir-oqibat ularda o‘ziga xos mazmundagi o‘zgarishlar olib kelishi ta’kidlanadi.

A.K.Bolotovaning ta’rificha, talabalik - bu insonning intensiv ijtimoiylashuv davri bo‘lib, u yuqori aqliy funksiyalarning rivojlanishi va butun intellektual tizimning shakllanishi uchun eng maqbul davrdir. Biroq, talabalar jamoasining faqat biologik yoshini hisobga olgan holda tahlil etsak, u holda, uni shaxsning bolalikdan balog‘atga o‘tish davri sifatida tahlil qilish to‘g‘riroqdir. Talabalar jamoasining shakllanishi va har bir talaba hayotidagi eng qiyin bosqichlardan biridir. Bu bosqichda, talabalar hayotining o‘ziga xos jihatlarini, bir-birlari bilan qanday munosabatda bo‘lishni va turli muammolarni hal qilishda, yetarlicha tajribaga ega bo‘lishmaydi. Oliy ta’limga kirishib ketishning o‘zi murakkab jarayondir. P.A.Kislyakovning ta’kidicha, o‘zgargan turmush sharoitlariga moslashish, ko‘p jihatdan talabaning shaxsiy fazilatlariga bog‘liqdir. Ko‘pincha, nizoli vaziyatlar axloqiy munosabatlar, me’yorlar, qadriyatlar, xatti-harakatlardagi farqlar tufayli yuzaga keladi.

Tajovuzkor xulq mazmunidan kelib chiqib, talabalar guruhiga xos xarakterologik xususiyatlarni ajratib olish eng muhim vazifa sanaladi. Tadqiqotchi L.V. Mishenkoning fikricha, talabalar jamoasi [70; 42-b.] o‘zaro shaxsiy dushmanlik, hasad, raqobat, o‘qish va ilmiy ishdagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik, e’tibor uchun raqobat kabi xarakterologik xususiyatlarga ega

bo‘ladi. Bundan tashqari, talabalar muhitida yoshlarning o‘zaro munosabati va qadriyatlariga ta’sir etuvchi millatlararo munosabatlar ham o‘ta qizg‘in kechadi. Boshqa jihatdan esa, oliy ta’lim muassasasi talabalarga, turli mamlakatlardan kelgan shaxslar bilan samarali muloqot qilish va tajribasiga ega bo‘lish imkonini beradi. L.F.Chekinaning olib borgan tadqiqotlari o‘ziga xos sanalib, unda talabalar guruhiga xos ko‘plab ijobiy sifatlar haqida so‘z boradi. Muallifning aytishicha, talabalar jamoasida boshqalarga nisbatan bag’rikenglik munosabatini shakllantirish uchun, professor-o‘qituvchilar o‘quv jarayonida o‘quvchilarning hayotiy pozitsiyalarini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratishi lozim sanaladi. Tadqiqotchi L.Kozerning so‘zlariga ko‘ra, talabalarning individual xususiyatlari guruhning psixologik iqlimini shakllantirish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Talabalik davrining dastlabki bosqichida o‘z-o‘zini hurmat qilish hissi, maksimalizm, universitetda o‘qishdan yuqori umidlar, shuningdek, bu davr qat’iy axloqiylik jihati bilan alohida ajralib turadi.

Ta’kidlash joizki, guruhiy faoliyatda ba’zi talabalar yetakchilik lavozimlarini egallaydilar, boshqalari esa guruhiy muhitda muloqot qilishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelishadi. Qolganlar esa bir necha kishidan iborat mikroguruhlarni tashkil etuvchi a’zolar bo‘lib, ular yetakchilarga ergashadi. M.B.Batyutaning yozishicha, har bir guruh nisbatan izolyatsiya qilingan va o‘ziga xos munosabatlar uslubiga egadir. Tajovuzkor vaziyatlarga, hissiyotlariga yuqori kurs talabalari kamroq duch kelishadi, chunki mikroguruhlar shaxslararo muvofiqliklar asosida shakllanadi.

Bizningcha, ta’limda mavjud bo’lgan ijobiy psixologik muhit, kasbga yo’nalishning ortishiga, bundan tashqari guruhiy munosabatlardan qoniqishga ham keng imkon beradi. L.I.Ryumshinaga ko’ra, “ijobiy psixologik muhit” talabalar shaxsiga xos bo’lgan iqtidorlilik, ijtimoiy faollik, muntazam mashg‘ulotlarga qatnashishga hamda o‘quv jarayoniga tez adaptatsiya qilishlariga katta ta’sir etadi. Bir so‘z bilan aytganda, oliy ta’lim maskani kasbiy bilimlarni egallash uchun ko‘plab motivatsiyalarni paydo etadi. Oliy ta’lim bosqichi shaxs shakllanishining muhim davri sanalib, unda o’z hayotiy qadriyatlarini qayta qurish amalga oshib, unda o‘zaro muloqot jarayonidagi shaxslar ko‘pincha, o‘z odatlari va qadriyatlaridan imkon qadar voz kechishlari lozim. Tadqiqotchi V.N.Paferovning aytishicha, jamoa talablariga javob bera olmaslik, ayrim holatlarda nizoli vaziyatlarga olib keladi, ayniqsa, guruhda ikki yoki undan ortiq lider bo‘lsa, bu jarayon tez yuz beradi. Talabalar jamoasining shakllanishi sekin va ko‘pincha murakkab kechadi, shuning uchun, o‘qishning birinchi yilida ularga qulay psixologik muhitni yaratish kerak.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, nizolashayotgan tomonlar o‘rtasidagi muloqot va jamoaviy jipslilikni shakllantirish yanada rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Demak, ta’lim jarayonidagi nizolar obyektiv xarakterga ega bo‘lib, u oddiy hodisa sifatida qaralishi kerak. Ya’ni, zamonaviy ta’lim sharoitlari nizolar va qarama-qarshiliklarga asoslangan pedagogik texnologiyalardan tashkil topishi lozim. Ayrim ilmiy adabiyotlarda talabalar guruhiga xos nizoli xulq-atvor va uni malakali bartaraf etish, o‘z navbatida ijobiy natijalarga olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi. V.N.Myasishevga ko‘ra, nizolar inson xarakterini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Talabaning xarakterologik xususiyatlari, ko‘pincha jamoani shakllantirishga keng hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar

1. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия. М.: Апрель-Пресс, 2000. – 357 с.
2. Басс А. Концепция агрессии / враждебности: учебник / А. Басс, А. Дарки. – Екатеринбург, 2013. – 86 с.
3. Ефимова Н.С. Социальная психология: учебное пособие / Н.С. Ефимова. – М.: Ид форум, ниц инфра-М, 2013. – 131 с.
4. 40. Зеленков М.Ю. Конфликтология: Учебник / М.Ю. Зеленков. - М.: Дашков и К, 2013. – С.47.

QADRIYATLARNING YOSH AVLODNI TARBIYALASHDAGI ROLI VA AHAMIYATI

F.P. Kazbekova –
Navoiy davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Biz bilamizki har bir jamiyat o‘zining tarixiy va madaniy qadriyatlariga tayangan holda rivojlanadi. Yosh avlodni tarbiyalashda esa bu qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bolalar va yoshlarga axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy mezonlarni singdirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati va ularni shakllantirish yo‘llari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Milliy qadriyatlar, yosh avlod tarbiyasi, qadriyatlar tushunchasi, til, madaniyat, urf-odatlar.

Asosiy qism. Mazkur maqolamizda bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonimizda yosh avlod tarbiyasi va uning jamiyatda o‘z o‘rnini egallash jarayonidagi milliy qadriyatlar va ularning o‘rni haqida chuqurroq mulohaza yutitamiz. Avvalo qadriyat tushunchasi va uning turlari xususida so‘z yuritsak. Qadriyatlar – bu jamiyat tomonidan e’tirof etilgan ma’naviy, axloqiy va madaniy tamoyillar yig‘indisidir. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Milliy qadriyatlar (til, madaniyat, urf-odat va an’analar);
- Umuminsoniy qadriyatlar (halollik, adolat, mehr-oqibat, tinchlik);
- Diniy qadriyatlar (ezgulik, sabr-toqat, vijdon erkinligi);
- Ijtimoiy qadriyatlar (oila, mehnat, jamiyat bilan uyg‘un yashash);
- Ekologik qadriyatlar (tabiatga bo‘lgan hurmat, atrof-muhitni asrash).

Biz bilamizki har bir millat o‘z farzandlarini tarbiyalashda voyaga yetkazib kamol toptirishda qadriyatlarga alohida e’tibor beradi. Qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi roli bugungi kunda juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Yosh avlodga to‘g‘ri tarbiya berish jarayonida qadriyatlar quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

- Axloqiy tarbiya – Halollik, rostgo‘ylik, adolat kabi tushunchalar yoshlarning ongiga singdiriladi.
- Ma’naviy tarbiya – O‘z milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tushunish va hurmat qilish ko‘nikmasi shakllanadi.
- Ijtimoiy tarbiya – Jamiyatning ajralmas qismi bo‘lish, birdamlik va o‘zaro hurmat tamoyillari o‘rgatiladi.
- Vatanparvarlik tarbiyasi – O‘z Vatanini sevish, uning taraqqiyoti uchun hissa qo‘shish istagi uyg‘otiladi.
- Ekologik tarbiya – Yosh avlodda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish tushunchasini shakllantirish.

Qadriyatlarni yosh avlodga singdirish yo‘llari xususida o‘ylarkanmiz bu o‘rinda oila, mahalla, maktab kabilarni o‘rni muhimligiga amin bo‘lib boramiz. Har bir yosh avlod oila dargohida milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalansa axloqiy tarbiya yaxshi berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz bilamizki oilada har bir bola rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, o‘zaro hurmat asosida tarbiyalanishi zarur. Bu jarayonda kattalar o‘z qilgan amallari bilan yosh avloda namuma bo‘lgan holda tarbiya bersalar ayni muddao bo‘ladi.

Oila muhitida berib boriladigan bunday tarbiya katta ahamiyatga egadir. Ota-onalar farzandlariga qadriyatlarni namuna sifatida ko‘rsatishlari kerak deb bejizga aytmadik, “ qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqola bejizga aytilmagan. Har bir bola avvalo oilada ota-onasi qaromog‘ida voyaga yetadi va ulardan asosiy tarbiyani oladi. Shu sababdan oilada qadriyatlarga alohida etibor berilsa va bunda namuna bo‘la olishsa yosh avlod ham shu tarzda voyaga yetadi. Milliy qadriyatlar asosida kattalarga hurmat, mehnatsevarlik rostgo‘ylik va halollik kabilarni farzandlarimiz oiladan olishadi. Kelajagimiz, vatanimiz ravnaqi va uning yuksak darajada rivojlanishi yosh avlod qo‘lidaligini hisobga olgan holda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonimizda ularni mustahkam e’tiqodli va barkamol avlod qilib tarbiyalashimiz shart va zarurdir.

Shu xususda shuni ham aytish lozimki tarbiya faqat oila va oila a’zolari orqali emas ta’lim muassasalari orqali o‘rgatish joizdir. Bugungi kunda har bir bola mukammal ta’lim tizimi bilan qamrab olinganligini va kunining asosiy qismini ta’lim dargohida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida o‘tkazishini hisobga olgan holda bu tomonlama ham ta’lim olish bn birgaligda qadriyatlar asosida tarbiyalanishida maktab o‘qituvchilari va ma’sullari tomonidan va oliy ta’lim dargohlarida ham axloqiy va ma’naviy darslar o‘tilishi o‘quvchilar fikri o‘rganilishi bu darslardan olayitgan bilimi nazorat qilib borilishi maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Shu o‘rinda shuni ham ta’kidlash lozimki Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish – Yoshlarni ma’rifiy va tarbiyaviy materiallar bilan tanishtirishga ham alohida e’tibor qaratish zarur.

Madaniy tadbirlar va an’analarni davom ettirish – Urf-odatlar, bayramlar va milliy sanalarni nishonlash orqali qadriyatlarni mustahkamlash. O‘quchilar va o‘qituvchilar tomonidan milliy kiyimlarda jamiyatda faol bo‘lish ham ahamiyatlidir.

Ko‘ngilli va jamoat ishlari – Yoshlarni turli jamoat va xayriya ishlariga jalb qilish orqali ularda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish va bu bilan insonparvarlik ruhida voyaga yetishiga zamin yaratish kerakdir.

Innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash – Interaktiv o‘yinlar, zamonaviy texnologiyalar va kreativ yondashuvlar orqali qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish va ularda chuqur ko‘nikma hosil qilish kerak.

Xulosa qilib shun i aytishimiz mumkinki Qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida muhim omil bo‘lib, ularning shaxsiyati, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini shakllantirishga xizmat qiladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarga to‘g‘ri yetkazish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish mumkin. Shuning uchun ota-onalar, o‘qituvchilar va butun jamiyat birgalikda harakat qilib, kelajak avlodning ma’naviy kamolotiga e’tibor qaratishlari lozim. Shuningdek, ekologik qadriyatlarni singdirish, jamoaviy mas’uliyatni oshirish va innovatsion ta’lim usullarini joriy etish orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Jo‘rayev.A, “Milliy tarbiya nazariyasi”, Toshkent. Fan nashriyoti, 2018,

2. Hamroyev o, “Ma’naviyat va qadriyatlar nazariy asoslar”, Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti 2020

3. Aliyev M, “ Tarbiya nazariyasi va amaliyoti” Toshkent yoshlar nashriyoti 2019, 103- bet.

TIL QADRIYAT, ADABIYOT
ESKIRGAN SO‘ZLAR – BADIIY ADABIYOTDA MILLIY MADANIYATNI IFODALASH OMILI

Norova Mohitobon Fayzulloevna,
tayanch doktorant,
O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. So‘zlar vaqt o‘tishi bilan leksik qatlamdan chiqib ketishi mumkin. Bunda narsa va hodisalarning nomi foydalanishdan chiqib ketadi va lug‘atdan tushib qoladi. Foydalanishdan chiqib ketayotgan barcha eskirgan so‘zlar odatda ikki turga ajratiladi: arxaizmlar va istorizmlar. Bunday hodisa lug‘at boyligidagi evolyutsion o‘zgarishlarning turli sabablari bilan sodir bo‘ladi. So‘z o‘z-o‘zidan kundalik foydalanishdan tushib, “eskirgan” bo‘lib qolishi, ya’ni o‘zi anglatgan tushunchani yo‘qotishi yoki boshqa bir sinonim so‘z bilan ishlatilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: arxaizm, istorizm, leksik qatlam, lug‘aviy birlik, istorizm-leksema, istorizm-sema, anaxronizm.

Annotation. Words can leave the lexical layer over time. In this case, the names of things and events fall out of use and fall out of the dictionary. All obsolete words that fall out of use are usually divided into two types: archaisms and historicisms. This phenomenon occurs due to various reasons for evolutionary changes in vocabulary. The word itself may go out of use, “become obsolete,” that is, lose its original meaning, or be used by another synonymous word.

Key words: archaism, historicism, lexical layer, lexical unit, historicism-lexeme, historicism-seme, anachronism.

Jahon tilshunosligining rivojlanish bosqichlari jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar barcha sohada bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligi oldida ham yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Tarixiy, madaniy-ma’naviy, iqtisodiy taraqqiyot, rivojlanishning har bir pog‘onasi biz tilshunoslarga ham yangi vazifalarni yuklaydi. Dunyo xalqlari o‘z milliy qadriyatlarini, maqsad – muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyatga egadir. Ajdodlar yodi, ular bosib o‘tgan yo‘l, barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo‘qotish va qurbonlari, quvonch va istiroblari bilan muhim ahamiyatlidir. Ya’ni, tilshunosligimizda adabiy til qonun-qoidalarining tarixiy jihatdan taraqqiyoti, shakllanish va

rivojlanish jarayonini o‘rganib, takomillashtirish ahamiyatlidir. Ammo bu soha hozircha ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida chuqur o‘rganilmagan. Ba’zi ilmiy tadqiqotlarda bu masalani atroflicha muhokama qilishga bag‘ishlangan ayrim ma’lumotlar mavjud, xolos. Ularda leksik qatlamning ba’zi bo‘limlariga ta’riflar berilib, tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan o‘ziga xos tomonlari qayd qilingan.

Ko‘rinadiki, badiiy asarda tasvirlangan davr, badiiy til me’yorlarini o‘rganmasdan turib, yangi va eskirgan so‘zga ajratib ham, uning badiiy qiymatini o‘rganib ham bo‘lmaydi. Arxaik so‘zlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr ruhiyatini ifodalashda, asar qahramoni nutqidagi o‘ziga xos jihatlarini tasvirlashda uslubiy vosita sifatida ishlatiladi. Asarda o‘n beshinchi asr voqealarini tarvirlayotgan ijodkor albatta o‘sha davrda foydalanilgan so‘z va iboralarni sinchkovlik va to‘g‘ri qo‘llashga harakat qiladi. Ya’ni o‘sha davr koloritini yaratish uchun albatta ana shu davrdagi narsa-buyumlar, tushunchalar, kiyimlar yoki hodisalar qo‘l keladi. Shunday ekan, eskirgan so‘zlarning ham tilimizdagi o‘rni juda beqiyosdir.

Arxaizm - bu o‘zining ma’nosini yo‘qotgan, ammo hozir ham ma’lum bir kontekstlarda ishlatiladigan so‘zlardir. Ular xuddi qadimgi tangalar singari, o‘tmish davri haqida dalolat beradi. Misol uchun, "bitik" so‘zi arxaizmdir, chunki uning sinonimi bo‘lgan "kitob" hozirgi zamon tilida ko‘proq ishlatiladi.

Istorizm - bu o‘tmishdagi hayotiy hodisalarni, narsalarni, tushunchalarni ifodalovchi, hozirgi kunda esa ishlatilmaydigan so‘zlardir. Ular o‘zbek xalqining o‘tmish hayoti haqida hikoya qiladigan tilning qoldiqlaridir. Masalan, "cho‘pon " so‘zi o‘tmishda keng tarqalgan kasbni ifodalagan, hozir esa uning ahamiyati yo‘qolgan.

So‘z turmushdagi yangiliklarni, kishilar faoliyatini, voqea hodisalarni ifodalovchi vositadir. Tilda hayot uchun zarur turli yangi so‘zlar paydo bo‘la borganidek, turmush uchun keraksiz so‘zlar iste’moldan chiqib ketadi. Eskirganligi, yaroqsizligi tufayli iste’moldan chiqqan so‘z va iboralar lingvistikada arxaizm deb ataladi[1].

Istorizm va arxaizmlarni o‘rganish o‘zbek tilining tarixini, uning evolyutsiyasini chuqurroq anglashga, shuningdek, o‘zbek xalqining hayot tarzi qanday o‘zgarganini ko‘rishga yordam beradi. Bu so‘zlar bizga o‘tishga, zamonaviy o‘zbek tilining ildizlarini anglashga imkon beradi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida doim o‘zgarib turadi. Davr o‘zgarishi bilan lug‘at tarkibida yangi so‘zlar paydo bo‘lsa, ayrim so‘zlar foydalanishdan chiqib ketadi. Arxaizmlar va istorizmlar zamonaviy adabiy o‘zbek tilining passiv lug‘atiga kiritilgan. Ko‘rib turganimizdek, eskirgan so‘zlar va arxaizmlar zamonaviy tilda o‘xshash so‘z yoki sinonimlariga ega. Arxaizmlar nutqda faol foydalanilmaydi va o‘zbek tili lug‘at tarkibining passiv so‘zlar turkumida mavjud.

Arxaizmlar va istorizmlar zamonaviy adabiy o‘zbek tilining passiv lug‘atiga kiradi. Tilning lug‘at tarkibidagi rivojlanish va o‘zgarishlar ba’zi so‘zlar qatorining paydo bo‘lishi yoki boshqalarining undan yo‘qolishiga olib keladi. Passiv lug‘atga tegishli bo‘lishiga qaramay, eskirgan so‘zlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Arxaizm va istorizmlar adabiyot, san’at va tarixda muhim o‘rin tutadi. Ular ilmiy, publitsistik yoki badiiy matnlarda o‘tmish voqeligini nomlash, eskilik bo‘yog‘i orqali davrni gavdalantirish uchun xizmat qiladi. O‘quvchi va tadqiqotchilarga ma’lum bir tarixiy kontekstga sho‘ng‘ish, o‘sha davr odamlari mentalitetini tushunish, tarixiy taraqqiyotida tilning go‘zalligini qadrlash imkonini beradi. Arxaizmlar va istorizmlar shunchaki "eski so‘zlar" emas. Bular bugungi va kelajagimizni yaxshiroq tushunishimizga yordam beradigan o‘tmishning dalilidir. Ular avlodlar o‘rtasida ko‘prik bo‘lib, millatning madaniy merosi va lingvistik o‘ziga xosligini saqlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish: Dorilfunun va pedagogika in-tlari talabalariga qo‘ll. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 109 b.
2. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari ta- labalari uchun darslik. — Toshkent: Sharq, 2008. – 168 b.
3. Tursunov U., Muxtorov A., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik. –T., 1992. –B. 157-164.
4. *Расулов* Р., *Умумий тилшунослик*. —Тошкент: Фан ва технология, 2007. — 256 б.
5. *Sodiqov* A., Abduazizov A., Irisqulov M. *Tilshunoslikka kirish*: Dorilfunun va pedagogika in-tlari talabalariga qo‘ll. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – 109 b.

[1] Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан кискача очерк. -Т.: Фан, 1959. -Б . 180

ISLOMIY OBIDALAR ZIYORAT TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA

Fattoyev Islom Ilg‘orovich-
Navoiy davlat universiteti doktoranti

Resume: This article discusses the unique features of Islamic culture and architecture and their importance in the development of tourism today.

“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi. SHuning uchun ham u qudratlidir.Tarixiy merosni asrab-avaylash,o‘rganish va avlodlardan-avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustivor yo‘nalishlaridan biridir.”[1] Darxakikat.Islom dinining O‘rta Osiyoga kirib kelishi o‘lka xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyatining yanada ravnaq topishiga keng yo‘l ochib berdi. “Islom dini bilan birga arab imlosining kirib kelishi, ziyolilar tomonidan o‘zlashtirish va keng foydalanishi arab tilidagi boy madaniy boyliklar bilan yakindan tanishishga xamda o‘z madaniy yutuqlarini keng musulmon olamiga olib chiqishga imkon berdi»[2]. Darhaqiqat, islom dininig kirib kelishi mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotida yuksalishlar davrini boshlab berdi. Barchani ilmu-ma’rifatga, ezgulikka, yaxshilikka, sabr toqatli bo‘lishga, savob ishlar qilishga chorlovchi islom dini xalqni yagona e’tiqod atrofida birlashishiga, bu esa o‘z navbatida asta-sekinlik bilan mamlakat osoyishtaligi, yurt obodligi, xalq farovonligiga olib keldi. Markaziy Osiyo uyg‘onish davri madaniyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ilm-fan, madaniyat va san’atning rivojlanishiga keng yo‘l ochib berilishi hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojlanishi, qadim Samarqand va Buxoroning madaniy markazga aylanishi barcha sohada yuksak darajadagi taraqqiyotga, diyorimizdan buyuk allomalarning yetishib chiqishiga, mamlakatning dunyoga tanilishiga olib keldi. YUrtimizda qad ko‘tarib turgan ko‘plab noyob tarixiy yodgorliklar ajdodlarimizning diniy e’tiqodlari bilan bog‘lik ravishda shakllandi, bu davrda bunyod etilgan mahobatli islomiy obidalar arxitektura san’atining yuksalishiga sabab bo‘lgan. Har bir qishloqda masjid, hududlarda madrasalar barpo etildi. Madrasalarda diniy bilimlar bilan birga dunyoviy ilmlardan saboq berilishi buyuk allomalar, muhaddislarning yetishib chiqishi va ularning jahon madaniyatini yuksaltiruvchi noyob ijod durdonalari, ilmiy kashfiyotlar qilishiga sabab bo‘ldi. SHu bilan birga noyob tafakkur va karomat sohiblari ko‘plab shogirdlarga piru - ustozlik qilish bilan birga xalqni o‘z orqasidan ergashtirib, xalq ma’naviyatining yuksalishiga, millat tafakkurining takomillashishiga xizmat qilgan. Islom dinida ustoz-shogirdchilik an’analari ulug‘langan, ustozlarga chuqur hurmat-ehtirom ko‘rsatilgan. Piru ustozlariga atab, tiriklik chog‘ida va olamdan o‘tgandan so‘ng ularning xotirasiga hurmat sifatida, farzandlari, shogirdlari tomonidan mahobatli maqbaralar barpo etgan. Masjid, minora, madrasa, maqbara singari noyob arxitektura inshootlari qurilishi jarayonlarining takomillashuvi O‘rta Osiyo me’morchiliginig taraqqiy etishiga olib keldi. Islom madaniyatining yuksalib borishi millat ravnaqiga, qolaversa, jahon madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Islom madaniyati va me’morchiligi haqida chuqurroq to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, o‘z zamonasida ilm-ma’rifat o‘choklari bo‘lgan dastlabki masjidlar Buxoroda VIII asr boshlarida qurilganligi tarixdan ma’lum. Keyinchalik bu binolar turi taraqqiy etib, mehrob tomoni alohida bezatiladi va uning to‘g‘risidan yagona kirish qismi joylashadi. Natijada Buxorodagi Mag‘oki Attori kabi pishiq g‘ishtdan qurilib, usti gumbaz bilan yopilgan XI- XII asrlar masjidi yuzaga keladi. Bunday imoratlar xonaqoh tipidagi mahalla va qishlok masjidlarining birinchi namunalari bo‘lib, ular ham taraqqiy etib boradi. Hovlili masjidlarning dastlab barpo etilganlaridan biri Afrosiyob qazilmalaridan ma’lum. Somoniylar davrida paxsa va xom g‘ishtlardan bunyod etilgan bu masjid dastlab tashqi tomonlari kvadrat tarzida bo‘lgan. Buxorodagi Kalon masjidining ham shu davrda yog‘ochdan qurilganligi va uni CHingizxon tomonidan yoqib yuborilganligi tarixdan ma’lum. Masjidlar xalqni iymon-e’tiqodga ilm-ma’rifatga chorlovchi maskan sifatida xalq

[1] Ш Мирзиёев “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кутарамиз” Т.Узбекистон 2017 1-жилд 29- бет

[2] М.М.Хайруллаев Урта Осиёда илк уйгониш даври маданияти. Т. Фан. 1994.

ma’naviyatini yuksaltirishda xizmat qildi. Bu me’moriy obidalar boshqa imoratlardan o‘ziga xos va betakrorligi bilan ajralib turadi.

Mahobatli madrasalar, masjidlar, minoralar, maqbaralar gumbazlar o‘zining ichki va tashqi bezaklari bilan diqqatga sazovor bo‘lib, islomiy obidalarning qurilish uslubi, ulardagi har bir bezak, naqsh va rang o‘ziga xos ma’no-mazmunni ifodalagan.

Har bir hududda joylashgan Allohning uyi sanalmish masjidlar o‘ziga xos arxitektura uslubi bilan har tomonlama maqsadga muvofiq bo‘lib, yozda salqinligi va qishda sovuqdan himoyalanganligi bilan muhim ahamiyat kasb etgan. Har bir masjid yonida barpo etilgan minoralar ham noyob arxitektura namunasi sifatida diqqatga sazovor. Minora arab tilidagi ”minoratun” so‘zidan olingan bo‘lib, “mayoq”,” yo‘l ko‘rsatuvchi” ma’nolarini anglatgan. Masjidlar yonida minoralarning qurilishi muazzinlarning azon aytishiga mo‘ljallangan bo‘lishi bilan birga u Allohning yagonaligi timsolidir. Uning baland va viqorli turishi esa, Allohning ulug‘ligi va hamma narsani bilguvchi, ko‘rguvchi ekanligiga ishora sifatida qaraladi. Bundan tashqari minora Allohdan boshqaga bo‘yin egmaslik, kasu-nokaslikdan o‘zini baland tutmoq, hamma narsaga bir hil qarash, o‘tmish, bugun, kelajakni birdek ko‘rib turish, iymon-e’tiqod ramzidir.

Masjid devorlarini bezab turgan takrorlanmas, jilokor naqshlar bir-biriga uyg‘un chirmashib ketgan “Kufiy ”,” Suls”xati yozuvlarida musulmon kishining Alloh Taolo bilan tanho muloqotining nozik jihatlarini ifodalovchi xilqatlar mujassamligining guvohi bo‘lamiz. Ularda Qur’on oyatlaridan parchalar, islomiy g‘oyalar aks etgan bo‘lib, naqshning chodraga o‘ralgan ayolga qiyoslanishi bejiz emas. Naqsh-haqqoniyatni qo‘l bilan ushlab ko‘rish emas, balki go‘zallikni dildan his qilish, chodra ortidagi vaziyatga o‘zini qalban tayyorlash va unga kirib borish timsolidir. Islomiy obidalarning naqshlari –oliy barkamollik, Alloh huzuriga yo‘l olish ramzlari hamdir. Naqshdagi gullar: gulsafsar -osoyishtalik, umri boqiylik, to‘lqinsimon gul poyasi-boylik va farovonlik,novda va yaproqlar – navqironlik timsoli bo‘lsa, zangori rang- oliy e’tiqod, oq rang-baxt va omad, qizil rang -shodlik va yoshlik timsollari sifatida ifodalangan. Tom ma’noda naqshlar, hamma go‘zalliklarni yaratgan va uni bandalariga ne’mat qilib bergan yagona va rahmli Alloh huzuriga borish va uning jamoliga yetishish omilidir.

Samarqand, G‘ijduvon hamda Buxorodagi mahobatli madrasalar, piru ustozlarga atab shogirdlari tomonidan barpo etilgan islom olamida “etti pir” nomi bilan mashhur ulug‘ avliyolar-tasavvuf ta’limotining buyuk namoyondalari - Abduxoliq G‘ijduvoniy, Boboi Samosiy, Anjir Fag‘naviy, Romitoniy, Amir Kulol, Bahouddin Naqshband hamda buyuk mutassavif Mavlono Orif Deggoroniy, ulug‘ avliyo -Qosim SHayx, islom fiqhshunosligida mashhur avliyo -Mir Said Bahrom maqbaralari va boshqa noyob islomiy obidalar shu kungacha o‘zining mahobati, betakrorligi, ko‘rkamligini saqlab qolganligi bilan diqqatga sazovor.

Dunyo sayyyohlari diqqatini tortib kelayotgan bu noyob madaniy merosimizni asrab-avaylash, kelgusi avlodga shundayligicha yetkazish, qolaversa, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan turizm sohasi ravnaqi uchun ulardan oqilona foydalanish davr talabi.

PSIXOLOGIYA FANINING INSON HAYOTI VA IJTIMOIY TARAQQIYOT AN’ANALARI BILAN BOG‘LIQLIGI

Kazakbayeva Mariya Alimkulovna -
NavDU Tarix fakulteti “Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Muslimova Balziya Maman qizi -
NavDU Tillar fakulteti qozoq tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiyaning inson hayotiga ta’sir qilish darajasi, uning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Psixologiya, psixologik metodlar, tafakkur, pedagogik psixologiya, psixologik xizmat.

Hozirgi vaqtda ko‘pchilik insonlar psixologiyani bilishi va shu bilan birga ma’lum darajada psixologik bilimlardan va psixologik o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishalari mumkin. Masalan, ijtimoiy muhitdagi har bir

inson psixologik ma’lumotlarni har xil internetdan, gazeta va jurnallardan, psixologik kitoblardan olishi mumkin. Shu o‘rinda psixologiya so‘ziga tarif berib o‘tsak, psixologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi grekcha “psyuxe”- jon, ruh; “logos”- fan degan ma’noni bildiradi. Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganadi. Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga kora psixikani yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko‘rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xayol, xotira va tafakkur; Bilish faoliyatlari: diqqat, nutq jarayonlari. Shaxsning hissiy, irodaviy sohasi: hissiyot, iroda; Shaxsning individual psixologik xususiyatlari:temperament, xarakter, qobiliyat. Psixologiya haqidagi dastlabki fikrlar bundan ikki yarim ming yil ilgari paydo bo‘ldi.

Psixologiya fan sifatida X1X asrning ikkinchi yarmigacha falsafa fanining tarkibida rivojlangan. Ilmiy psixologiyagacha bo‘lgan davrda psixologiya dastlabki og‘zaki fan sifatida, keyin esa yozma fan sifatida mavjud bo‘ldi. Shunga qaramasdan insonlarning jamiyatga, tabiatga va tirik mavjudotlarga va ijtimoiy muhitga nisbatan bo‘lgan munosabatlari ma’lum funktsiya va mexanizmlar yordamida qanday amalga oshirilishi, bu mexanizmlar asosini nima tashkil qilishi savol tariqasida namoyon bo‘ladi. Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to‘g‘risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar kategoriyalari kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo‘lmish ong va o‘zini o‘zi anglashni tadqiq etadi. Psixologiya sohasi bizning hayotimizda muhim rol o‘ynaydi, bizning fikrlarimiz, xattiharakatlarimiz va his-tuyg‘ularimizga ta’sir qiladi. Bolalikdagi tajribamizdan, ta’limdagi yutuqlarimizdan, ishdagi, hayotimizdagi va shaxsiy munosabatlarimizdagi psixologiya biz qilayotgan hamma narsaga ta'sir qiladi.

Bugungi psixologiya fani ijtimoiy taraqqiyoti an’analari bilan bog‘liq insonning amaliy psixologiyasini,uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo‘lmaydi.Shu nuqtai nazardan,inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to‘g‘ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a’zolariga psixologik xizmat ko‘rsatish muqarrarligini talab qiladi. Bu borada iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o‘zaro mustahkam hamkorligi natiijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Psixologik xizmat metodologiyasi esa ko‘proq birinichi yo‘nalish ,,psixologik ijtimoy psixologiya’’asoslari zaminida tarkib toptiriladi.

Bolalikda psixologiya bolalarning qanday rivojlanishi va o‘rganishini tushuntirishga yordam beradi, rivojlanishdagi nuqsonlar yoki o‘rganishdagi buzilishlar kabi muammoli sohalar haqida muhim tushunchalar beradi. Bola rivojlanishi va xulq-atvorini tushunish ota-onalarga farzandlarini ishonch bilan tarbiyalashda va hayotlarida yaxshiroq qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Biz o‘sib ulg‘ayganimizda, psixologiya maqsadlarimiz, ehtiroslarimiz va orzularimizni qanday qilib eng yaxshi tarzda amalga oshirishimiz mumkinligi haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Masalan, bu odamlarga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini tushunishga, real va erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni belgilashga imkon beradi. Shuningdek, u eng yaxshi kasb tanlashni tushunishga yordam beradi va yanada foydali va qoniqarli martaba olib kelishi mumkin bo‘lgan strategiyalarni taklif qiladi. Ish joyida psixologiya tashkilotlarga qiziqarli, hamkorlikka asoslangan va samarali ish muhitini yaratishda yordam berishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Misol uchun, psixologiya menejerlarga odamlarning fikrlash va o‘zini tutish usullarini tushunishga yordam beradi va xodimlarni samarali boshqarish, ijodkorlik va innovatsiyalarni ilhomlantirish, motivatsiyani oshirish va muloqotni yaxshilash strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Psixologiya har bir insonga ma’lum darajada ta'sir qiladigan ruhiy salomatlik muammolarini tushunish va hal qilishga qaratilgan. Biror kishi ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarga duch keladimi yoki do‘sti yoki oila a’zosi bo‘ladimi, psixologiya ruhiy farovonlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi hollarda, bu terapevtni shaxsning muammolariga nima sabab bo‘lishi mumkinligini tahlil qilishni va ularni engishga yordam beradigan davolash rejasini ishlab chiqishni o‘z ichiga olishi mumkin. Boshqa hollarda, bu stress, tashvish, depressiya yoki boshqa ruhiy salomatlik muammolarini yaxshiroq boshqarish uchun ruhiy salomatlik haqida xabardorlik va strategiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Bugungi psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma’qul va manzur bo‘lgan. Lekin psixologik xizmatning keng targ‘ibot qilinishi uchun yuqoridan maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to‘sqinlik qilib kelar edi.1990-yillarga kelib mustaqillik, erk, o‘zlikni anglash hislari hukmron bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida inson va

jamiyat kamolotini ko‘zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psiixoloogik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun ham o‘ziga xos zamin hozirlandi. Bu esa O‘zbekiston uchun xarakterli bo‘lgan psixologik xizmat rivojlantirilishinning navbatdagi amaliyotchi-psixologlar tayyorlash bosqichiga o‘tishni muqarrar qilib qo‘ydi. Chunki maktabdagi ijtimoiy-psixlogik iqlimni tahlil qila oluvchi malakali amaliyotchi-psixologlar tayyorlamay turib, O‘zbekistonda psixologik xizmat tatbiqini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo‘lmas ekan. Shunga muvofiq dastavval Toshkentda, so‘ngra Buxoroda, keyinchalik Navoiy, Andijon, Samarqand va boshqa viloyatlarda umumta’lim maktablari uchun “Amaliyotchi-psixologlar” mutaxassisligi bo‘yicha qayta tayyorlov kurslari ochildi va bu kurslarni muvaffaqiyatli tugatganlar Respublikamizning talaygina maktablarida psixologik xizmat tashkilotchisi, targ‘ibotchisi va tadqiqotchisi samarali ish olib bormoqdalar. Psixologik xizmat qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilsa,insonlarda uchraydigan turli ruhiy holatlar ham shunchalik oson korreksiya qilinadi. Insonlar o‘z hayotida uchraydigan muammolarni bartaraf qilishni o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. B.M.Umarov “Psixologiya” qo‘llanma.
2. M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya” darslik.
3. P.I.Ivanov va M.E.Zufarova “Umumiy psixologiya” darslik.

НАУЧНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧИСЛОВЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Шахназарова Дилфуза Нарпулатовна-
НавГПИ преподаватель кафедры русского языка и литературы

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению и анализу категории единственного и множественного числа, то есть категории числа в современном узбекском языке. Значение множественногочисла в родном языке изучается как грамматическая категория в группе существительных и глаголов в работах по практической грамматике.

Ключевые слова: Узбекский язык, грамматика, образование, множественное число, современные методы.

На узбекском языке числовые слова играют свою роль в повседневном общении. Они используются для определения количества, порядка, времени и других важных аспектов. В этом эссе мы рассмотрим, как употребляются числовые слова на узбекском языке и как они помогают нам выражать наши мысли и идеи. Первым типом числовых слов на узбекском языке являются количественные числительные. Они использовались для указания количества предметов или людей. Например, "бир" означает "один", "икки" -"два", "уч" -"три" и так далее. Эти числительные могут использоваться как самостоятельно, так и как часть существующего. Вторым типом числовых слов являются порядковые числительные. Они используются для последовательного определения порядка предметов или людей. Например, «биринчи» означает «первый», «иккинчи» - «второй», «учинчи» - «третий» и так далее. Эти числовые часто используются при перечислении и упорядочивании предметов. Третьи типовые числа слов -это временные числительные. Они используются для указания времени или частоты событий. Например, «бир марта» означает «раз», «икки кунда» - «два дня», «уч ойда» -«три месяца» и так далее. Эти числовые инструменты нам точно определяют временные интервалы.Кроме того, числовые слова могут использоваться в математических операциях, измерениях и других контекстах, где важно указать точное количество. Например, "икки плюс уч раис тутишингиз мумкинми?" означает «сколько будет два плюс три?». Следующие слова также берут на себя всю роль в разговорном языке, помогая нам описывать и приводитьпример. Например, когда мы хотим уточнить количество или сделать более точное утверждение, мы используем числовые слова. «Икки киши келишигини кутиман» означает «я жду прихода двоих людей».

В узбекском языке также существуют специальные числовые слова дляобозначения даты, времени, валюты и других особых ситуаций. Например, «июль олтинчи куни» означает «восьмое июля», «бир доллар» - «один доллар». Несколько слов на узбекском языке могут быть изменены с помощью суффиксов и прист.Использование числовых словв узбекском языке является фундаментальным аспектом общения, выполняющим различные функции по передаче информации. Числовые слова на узбекском языке используются для выражения величин, измерений, дат и других числовых значений, которые необходимы в повседневном общении. Понимание правил и нюансов

использования числовых слов на узбекском языке имеет решающее значение для эффективного общения, как в формальном, так и в неформальном контексте. В этом эссе мы рассмотрим различные аспекты использования числовыхслов в узбекском языке и проанализируем их значение в различных лингвистических контекстах. Одним из ключевых аспектов использования числовых слов на узбекском языке является понимание системы счета и нумерации. В узбекском языке используется десятичная система счета, как и во многих других языках мира. Основные числовые слова на узбекском языке следуют единому образцу и структуре, что позволяет учащимся относительно легко понять систему счета. Например, цифры от одного до десяти на узбекском языке: «бир, икки, уч, торт, беш, олти, йетти, саккиз, токакиз, о'н», которые следуют логической прогрессии.

Числовые слова на узбекском языке также играют решающую роль в выражении величин и величин. В повседневных разговорах люди часто используют числовые слова, чтобы указать количество или размер чего-либо. Например, делая покупки на рынке, можно попросить «то'ккиз кило помидор» (девять килограммов помидоров) или «икки метр пакста» (два метра ткани). Понимание того, как использовать числовые слова для точного выражения величин, необходимо для эффективного общения в различных контекстах. Еще одним важным аспектом использования числовых слов в узбекском языке является указание времени и даты. Числовые слова широко используются для обозначения определенного времени, датыи продолжительности на узбекском языке. Например, чтобы сказать «десять часов» по-узбекски, нужно сказать «о'н беш»; чтобы выразить такую дату, как «15 апреля», можно было бы сказать «15 апреля».

Понимание того, как использовать числовые слова для обозначения времени и даты, важно для назначения встреч, составления планов и обсуждения событий на узбекском языке. Помимо подсчета, количественной оценки и обозначения времени, числовые слова на узбекском языке также выполняют практическую функцию в различныхматематических и научных контекстах. Математика и естествознание в значительной степени полагаются на числовые значения и вычисления, и четкое понимание числовых слов имеет решающее значение для выполнения расчетов, анализа данных и проведения исследований в этих областях. Числовые слова на узбекском языке используются для выражения математических операций, измерений, уравнений и других числовых понятий, что делает их необходимыми для академического и технического общения.Одним из аспектов использования числовых слов на узбекском языке, который может оказаться сложным для учащихся, является понимание грамматических правил, регулирующих их использование.

Числовые слова в узбекском языке могут менять форму в зависимости от их положения в предложении, рода и количества изменяемых ими существительных, а также других грамматических факторов. Например, числовое слово «бир» (один) может измениться на «биринчи» (первый), если оно используется в качестве порядкового числительного, или на «бирор» (любой), если оно используется как неопределенное местоимение. Понимание этих грамматических нюансов важно для точного использования числовых слов в различных лингвистических контекстах. Кроме того, числовые слова на узбекском языке также могут использоваться в идиоматических выражениях и пословицах для передачи различных культурных и социальных значений. Например, пословица «оддий озгача, уч озга буйюк» (обычный уникален, три больше) отражает идею о том, что простота и уникальность более ценны, чем сложность и количество. Числовые слова в узбекском языке могут быть наполнены символическими и метафорическими значениями, которые перекликаются с культурным и историческим наследием узбекского народа, добавляя языку богатства и глубины.В заключение отметим, что использование числовых слов на узбекском языке является важнейшим аспектом общения, который выполняет различные функции по точной и эффективной передаче информации.

Числовые слова необходимы для подсчета, количественной оценки, измерения, указания времени и дат, выполнения математических и научных расчетов, а также выражения культурного и социального значения. Понимание правил и нюансов использования числовых слов на узбекском языке имеет решающее значение для учащихся, которые овладевают языком и умело общаются в различных контекстах. Понимая значение числовых слов в узбекском языке, учащиеся могут улучшить свои языковые навыки и углубить понимание богатого культурного наследия узбекского языка.

Использованная литература:

1. Кошгари М. Девону луг'отит турк (Переводчик и издатель С. Муталибов). Т. I-II-III. -Т.: Наука, 1960-1963. Т. I. 1960. -529 с.; Т. II. 1961. -488 с.; Т. III. 1963. -468 с.

2. Фитрат. Правила узбекского языка –это опыт. Книга первая: Потребление. Избранные произведения. Том В. -Ташкент: Духовность, 2006. -Том IV. -Б. 140-175.

3. Гуломов А. Категория множественного числа в узбекском языке. Ташкент: Самоиздание. 1944. -56 стр.

4. Сафаров Ф. Число-мидорное микрополе в узбекском языке и его лингворечевая характеристика: Филол. наука. имя дисс. -Самарканд, 2004. -134 с.

5. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Бокиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Современный узбекский язык / Учебник –Ташкент: Университет, 2007.

MANTIQIY FIKRLASHGA OID TUSHUNCHALARNI NOSTANDART TOPSHIRIQLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

NavDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi J.S.Rasulov

Pedagogik shartlarga va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan nostandart vazifalar hozirga qadar, ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘ziga xos yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Qolaversa, pedagogik bilimlar tarixida ushbu masalaning qadim zamonlardan beri o‘rganilganligi haqida ham ayrim ma’lumotlar uchraydi. Pedagoglar I.A.Talisheva va Ye.V.Salimullinalarning darsliklarida qayd etilishicha, mantiq ilmiga o‘rgatish masalasi antik davrdan boshlangan bo‘lib, misol uchun, misrliklar, yunonlar, hindlar, xitoylar, arablar bu borada o‘ziga xos qimmatli va ibratli fikrlar aytib o‘tishgan. Masalan, mutafakkir Kvintilianning so‘zlariga ko‘ra, insonni mantiq ilmi bilan qurollantirish nafaqat uning hayoti uchun, balki dunyoviy bilimlarni egallashi, oq va qorani, yaxshi va yomonni, kecha va kunduzni hamda xatoliklarni ajratishi uchun juda muhimligini uqtirib, bunday ishlarni amalga oshirishda muallimlarning roli yuqoriligini alohida ta’kidlab o‘tadi [1]. Keyinchalik, yangi davr taraqqiyotida ushbu masalani ko‘plab olimlar matematiklar, pedagog va psixologlar, shuningdek, faylasuf olimlar keng qamrovli o‘rganishga harakat qilishgan. Bundan tashqari, elementar matematika bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini o‘rganib chiqib, shuni aytish mumkinki, har qanday topshiriq ba’zi sharoitlarda tipik xususiyatli, boshqalarida esa, tipik bo‘lmagan xususiyatli degan xulosaga kelish mumkin. Bu yerda asosiy narsa, muammoni o‘rganish obyekti sifatida ko‘rib chiqilayotganda va uni hal qilish, loyihalash va yechim topishda hal etishning umumiy yondashuvini belgilashdir. Ushbu yondashuv oz sonli mashqlarni o‘lchovli va sinchkovlik bilan hal etish, qabul qilingan qarorlarni chuqur tahlil qilishni nazarda tutadi. M.S.Poverinovaning so‘zlariga ko‘ra, matematik vazifalarni hal qilishning quyidagi ketma-ketlilik, mantiqiylik bosqichlari mavjud [2]:

1) savol (muammo) qo‘yish;

2) gipoteza, masalani yechish usullari va vositalarini aniqlash uchun zarur bilimlarni umumlashtirish;

3) maxsus kuzatishlar va tajribalar, ularni xulosalar shaklida umumlashtirish;

4) matematik, grafik, mavzuli kompozitsiyalar shaklida yuzaga kelgan fikr va tasvirlarni loyihalash;

5) ma’lumotning ijtimoiy ahamiyatini tekshirish. Shuningdek, ijodiy muammolarni hal qilishning umumiy usullari va hokazo.

Biroq, nostandart masalalarni yechish usullarini o‘rgatishda, standart masalalar bilan ishlashda bo‘lgani kabi bir xil pedagogik shartlarga rioya qilish lozim [3]. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

Birinchidan, har qanday muvaffaqqiyatli o‘qituvchi o‘quvchilarda muayyan muammoni hal qilishga qiziqish uyg‘otishi kerak. Buning uchun u avvalambor, eng qiziqarli topshiriqlarni sinchiklab tanlab olishi va ularni o‘quvchilarga jozibador qilib taqdim etishi kerak. Ya’ni hazil vazifalar, ertakli vazifalar, eski vazifalar, analogiyalar, raqamlarni taxmin qilish, matematik fokus kabilar shular jumlasidandir.

Ikkinchidan, topshiriqlar juda oson yoki juda qiyin bo‘lmasligi kerak, chunki muammoni hal qilmasdan yoki o‘qituvchi tomonidan taklif qilingan yechimini tushunmasdan, o‘quvchilar o‘z kuchiga ishonchini yo‘qotishi mumkin. Bunday holatda, yordam berish qoidasiga rioya qilish lozim. Avvalo, o‘qituvchi o‘quvchilarni tayyor yechim bilan tanishtirmasligi kerak. Maslahat berish minimal darajada bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, nostandart masalalarni yechishni o‘rganish bo‘yicha ishlar quyi sinflardan boshlab, tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak.

V.I.Kurbanovning qayd etishicha, mantiq ilmida muammoni hal qilishning muayyan bosqichlari farqlanib, ulardan oqilona foydalanish o‘quvchilar uchun, tanlangan masala bo‘yicha to‘liq yechimlarga kelish imkonini beradi [4]:

1. Topshiriq matnini tahlil qilish;
2. Yechim rejasini tuzish (yechim gipotezasi);
3. Tuzilgan rejani amalga oshirish;
4. Olingan natijani o‘rganish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni xuddi shunday turkumdagi masalalar bilan qurollantirish, kasbiy tayyorlash ishlari, zamonaviy ta’lim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida metodik adabiyotlar, matematika fani va unga bag‘ishlangan mashqlar to‘plami, oldingilariga qaraganda ancha takomillashib bormoqda. Bu holat o‘quvchilarning kognitiv faolligini maksimal darajada oshirish uchun juda muhimdir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, agar mantiqiy matn muammolarini hal qilishda kognitiv faoliyatni o‘rganishdan oqilona foydalanilsa, unda muammoni hal etishning evristik yo‘llarini yaxshilashga erishiladi. Aynan muammoni hal qilish bolaning tafakkuri, xotirasi, idroki, tasavvuri, kuzatish qobiliyati va boshqa shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga keng yordam beradi. Eng muhimi, bolalar o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifoda etishga o‘rganadilar [5]. Nostandart vazifalar yordamida bolalar tahlil va sintez, tadqiqotning elementar komponentlarini ajratishga muvaffaq bo‘ladilar. Shuning uchun bu holat, boshlang‘ich ta’lim bosqichida reproduktiv fikrlashni shakllantirishga ham katta yordam beradi. Demak, nostandart vazifalarning yana bir jihati – ular mantiqiy fikrlashi yaxshi rivojlangan va har xil yechimlarni topa oladigan bolalar uchun unchalik qiyin topshiriq emasligidadir. Zamonaviy fanlar erishgan yutuqlarga ko‘ra, matematik nostandart vazifalar o‘z mazmuni va tuzilishini ancha o‘zgartirdi, uning ta’limdagi roli yuqori pog‘onaga ko‘tarildi.

O‘qituvchiga nostandart muammolarni hal qilish orqali bolalarning qiziqishini uyg‘otish, ularni mustaqil mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga undash va buning uchun zarur qobiliyatlarni rivojlantirishga katta imkoniyat beriladi.

N.S.Terentevaga ko‘ra, mantiqiy nostandart vazifa shunchalik qiziqarli va hayajonli bo‘lishi mumkinki, maktab o‘quvchisiga u mazali muzqaymoq kabi taassurot qoldiradi. Asosiysi, bolaga nostandart vazifani to‘g‘ri taqdim etishdir. Buni esa faqat muvaffaqqiyatli va kreativ o‘qituvchi amalga oshirishi mumkin. Agar bola mantiqiy muammolarni hal qilish zavqini boshdan kechirsa, u ma’lumotlarni tez orada unutmaydi. Va umid qilish kerakki, matematika, ehtimol, uning sevimli faniga aylanadi, hayotida ma’lum o‘rin egallaydi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilar muhim kasbiy bilimlarni egallash bilan birga, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiruvchi, nostandart masalalar va qiziqarli arifmetik amallar, jumboqli savollar, mantiqqa asoslangan masalalar to‘plamini ham puxta o‘zlashtirishlari lozim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Образовательная деятельность (в схемах и таблицах). Часть 1. История образования в зарубежных странах / И.А.Талышева, Е.В. Салимуллина 2018. 2. Поверинова.М.С. Развитие логического мышления у детей старшего дошкольного возраста / М.С.Поверинова // Дошкольник. Методика и практика воспитания и обучения, 2015

3. Шалаева Г.П. «Большая книга логических игр» (Первая книга вашего малыша). – М.: «АСТ-СЛОВО», 2013

4. Курбанов.В.И., Виноградова.Л.В. Методика преподавания математики в средней школе: учеб.пособие / – Ростов н/Д.:Феникс, 2005

5. Горностаева.З.Я Воспитание наблюдательности у школьников в процессе обучения. Учебное пособие/под редакцией профессора Горностаева П.В и доцента Балашовой Л.И. – Коломна, 2006.

INNOVATSIYALAR VA AN’ANALAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALARNI MA’NAVIY RUHDA TARBIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Usmonova Dilafruz Umirzoqovna-
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti
“Psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash ularni milliy qadriyatlar asosida shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Innovatsiyalar va an’analar integratsiyasi orqali ta’lim jarayoni takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy faoliyatini yangi yondashuvlar bilan boyitish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Inovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish talabalarni faol ishtirok etishga jalb etish ularning mustaqil fikrlash ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Interaktiv darslar, onlayn platformalar, raqamli resurslar yordamida ta’limni

individualizatsiya qilish mumkin. Bu yondashuv talabalarni nafaqat ilmiy, balki ma’naviy jihatdan ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy an’analar xalqning tarixiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarni o’z ichiga oladi. Ushbu an’analar ta’lim jarayonida talabalarni vatanparvarlik, hurmat, adolat kabi fazilatlar bilan tarbiyalashda asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi. Milliy bayramlar urf- odatlar, xalq og’zaki ijodi kabi elementlar ta’lim jarayonida qadriyatdar bilan ham ta’minlaydi.

Pedagogiklarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Bu kompetensiyalar orasida kommunikativ, didaktik, psixologik va metodik kompetentsiyalarni rivojlantirish orqali talabalarni ma’naviy ruxda tarbiyalashda muvaffiqiyatga erishadilar.

Inovatsiyalar va an’analar integratsiyasi asosida talabalarni ma’naviy ruhda tarbiyalash ta’lim jarayonining samarasini oshiradi. Pedagoglarning kasbiy-pedagogikkompetensiyalarni rivojlantirish orqali bu jarayonni yanada takomillashtirish mumkin. SHu bilan birga, milliy qadriyatlarni ta’lim jarayonida integratsiya qilish talabalarni nafaqat ilmiy, balki ma’naviy jihatdan ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Inovatsiyalar va an’analar integratsiyasi asosida talabalarni ma’naviy ruhda tarbiyalashni takomillashtirish, ta’limning yangi usullarini, texnologiyalarini va pedagogik yondashuvlarni o’z ichiga olgan holda kompleks protsessni talab etadi. Bu jarayonda ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarning mustahkamlanishi, ijodiy fikrlash, mustaqillik pedagogik kadrlarning rivojlanishi va oila bilan hamkorlik muhim omillardir. SHunday qilib talabalarni ma’naviy tarbiyalashning samaradorligini oshirish uchun har tomonlama yangilangan va integratsiyalangan yondashuvlar kerak.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI IKKILAMCHI NOMINATIV BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Dildora Yadullayevna Xalikova,
o‘qituvchi

Annotatsiya. Ingliz va o‘zbek tillaridagi mushtarak formativ nominantlar shaxsning muayyan ijtimoiy, siyosiy guruh bilan aloqadorlikda nomlanishi misolida ko‘zga tashlanadi.

Kalit so‘zlar. ingliz tilida formantlar, gender tafovut, ism va belgi kategoriya, suffiksal va prefiksal formantlar.

Qiyoslanayotgan tillardagi o‘ziga xosliklardan yana biri muayyan bir formantlarning ism va belgi kategoriyaga mansub asoslarga birikkan holda shaxs ma’nosidagi nominantlarni hosil qila olishi ko‘zga tashlanadi. Xususan, ingliz tilidagi formantlar:V+er=N (reader), A+ er=N (britisher), N+er =N (prisoner); N+ist=N (careerist), A+ ist =N (realist, idealist); V+ ling=N (sukling), A+ ling=N (fatling); N+ess=N (hostess), V+ess=N (governess) kabilar shular jumlasidandir.

O‘zbek tilidagi formantlar esa ism va belgi kategoriyalariga mansub asoslarga birikib kelishiga ko‘ra farqlanadi. Masalan, bu tilda birgina “-vchi” formanti vositasida loyihala+vchi, sayla+vchi, oqla+vchi, sina+vchi kabi fe’l asoslardan, boshqa formantlar esa asosan (payvand+chi, bog‘+bon, arava+kash, chorva+dor, masqara+boz, til+shunos, mashina+soz, mahsi+do‘z, zar+gar, osh+paz) ot asoslardan shaxs nominantlarini hosil qiladi.

O‘zbek tilidan farqli ravishda ingliz tilida formantlar insonlarning gender tafovutini belgilashi bilan xarakterlanadi:

a) “-ess” formanti vositasida: actress, doktoress, poetess, baroness, directress, giantess, kabi,

b) “-ette” vositasida: conductorette, farmerette,

v) “-stress”: songstress seamstress kabi ayol jinsiga mansublikni bildiruvchi nominantlarni hosil qilinishi misolida ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilida bunday tafovut kotib-kotiba, aktyor-aktrisa kabi o‘zlashmalardagina ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilidan farqli holda ingliz tilida suffiksal va prefiksal formantlar orqali shaxs otlari yasaydigan modellar mavjud:

1) ante+N=N: antepope, antimintalist,

2) co+N=N: co-education, co-operatoor,

3) arch+N=N: arch-shop, arch-father,

4) counter+N=N: counterterrorist,

5) ex+N=N: ex-champion, ex-serviceman,
6) out+N=N: outpatient, outworker,
7) over+N=N: over-men,
7) post+N=N: postgraduate,
8) pro+N=N: pro-marketeer, proconsul
9) sub +N=N: subcommissioner,
10) super+N=N: supermen, super-intendent.

O‘zbek tilida bunday nominantlar fors-tojik tilidan o‘zlashgan “ham” perfiksi vositasida yasaladi: hamyostiq, hamyotoq, hamjins, hamkasb, hamkurs, hammaktab, hammuallif, hammillat kabi. Bu tilda “ham” old qo‘shichasi asl o‘zbekcha “-dosh” suffikisi bilan yonma-yon holda ishlatiladi: hamyostiq/ yostiqdosh, hamyotoq / yotoqdosh, hamjins / jinsdosh, hamkasb / kasbdosh, hamkurs / kusdosh, hammaktab / maktabdosh kabi. Biroq hamdam, hamkor, hampoy, hamqadam, hamroz, hamroh, hamsoya, xamqur nominantlari bunday juftlikka ega emas.

Ingliz tilida asos so‘zning o‘zak yoki konversiv ma’nosi bilan formativ nominantlar hosil qilinishi mumkin. Masalan, coiner – “tanga zarb qiluvchi” nominantining coin -“tanga” o‘zak ma’nosidan emas, “tanga zarb qilmoq” konversiv ma’nosidan; questioner – tergovchi nominantining question – “savol” o‘zak manosidan emas, “savol bermoq” konversiv ma’nosidan; attacker – “hujumchi” nominantining attack- “hujum qilmoq” o‘zak ma’nosidan emas, “hujum” konversiv ma’nosidan; cleaner- “tozalovchi, farrosh” nominantining clean – “toza” o‘zak ma’nosidan emas, “tozalamoq” konversiv ma’nosidan; colourist – “bo‘yoqchi” nominantining colour – “bo‘yoq” o‘zak ma’nosidan emas, “bo‘yamoq” konversiv ma’nosidan yasalishi; fighter - “jangchi” nominantning fight – “jang qilmoq” konversiv manosidan emas, “jang” o‘zak ma’nosidan; archer - “kamonchi” nominantining arch – “yoy, arkasimon shaklga keltirish, egish, bukish” konversiv ma’nosidan emas, “yoy, kamon, arka” o‘zak ma’nosidan yasalishi shular jumlasidandir. O‘zbek tilida buday nominantlar kuzatilmaydi.

Ingliz va o‘zbek tillarida “agent noun/shug‘ullanuvchi shaxs” guruhiga mansub tub va yasama nominantlar miqdoran ham farqlanadi. Xususan, “Oxford advanced learner’s dictionary” lug‘atida bu guruhga mansub nominantlar 2508 tani tashkil qilsa, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 2939 tadir. Ulardan formativ nominantlar soni ingliz tilida; 1300 tani, o‘zbek tilida esa 1352 tani tashkil qiladi. Ushbu nominantlarning formantlar ishtirokiga ko‘ra miqdori 1-ilovada ko‘rsatilgan bo‘lib, ingliz tilidagi formativ nominantlarning 49 foizi “R+er=N” modelida, o‘zbek tilida esa 52 foiz nominantlar “R+chi=N” modelida hosil qilingan.

“X bilan aloqador shaxs” propozitiv modelidagi “aloqadar” konsepti shaxs va manba o‘rtasidagi implikatsion aloqadorlikni tashkil qilishdan tashqari, nominativ maqsad vakili bo‘lgan insonni faoliyat manbalaridan kelib chiqib, tasnifiy idrok etish imkonini ham yaratadi. Shaxs va manba implikatsion aloqadorlikdan kelib chiqadigan tasnifiy ko‘rsatkichlar nominantlarni shaxs va manba o‘rtasidagi implikatsion aloqadorlikning davriy va muntazamlik belgilariga ko‘ra farqlanadigan ichki guruhlari misolida ko‘zga tashlanadi. Xususan, ingliz va o‘zbek tillaridagi: dotard, drunkard, dullard,attdenter, avenger, backer,bather,buyer, besieger, betrayer,
biker, blackmailer, caller, camper, caravanner, challenger, charterer, chaser, detainee, examinee, lessee, contrabandist, controversialist, conversationalist; arzachi, anonimchi, baynalmilalchi, bahschi, darakchi, ziyoratchi, poyloqchi, suiqasdchi, tilanchi, xaridor, hissador, hamkasb, tarafkash, xizmatkash, hamkor, isyonkor, xaloskor kabilar nominantlar “X bilan davriy aloqador shaxs” propozitiv modeliga asoslanishi bilan xarakterlanadi.

Ushbu propozitiv modelning oppozitivi “X bilan muntazam aloqador shaxs” modeli bo‘lib, mazkur model nominantlarni shaxs va manba o‘rtasidagi implikatsion aloqadorlikning: 1) shaxs va makon, manzil aloqadorligi, 2) shaxs va kasbiy faoliyat aloqadorligi, 3) shaxs va muayyan ijtimoiy-siyosiy guruh aloqadorligi kabi turlar asosida tasnifiy tahlil qilish imkonini yaratadi. Ular quyidagilarda ko‘zga tashlanadi:

1. Ingliz tilida muayyan makon, manzil bilan aloqador bo‘lgan shaxs ma’nosidagi nominantlarni hosil qilishda asosan: “N+an=N”: African, Alaskan, American, Anglican, Angolan, Cretan, Fijian, Iranian; “N+ian=N”: Albanian, Algerian, Amerindian, Andalusian, Argentinian; “N+ese=N”: Japanese, Javanese, Lebanese, Maltese, Nepalese, Pekinese, Portuguese, Senegalese kabi modellarga va qisman “N+er=N” modeliga: foreigner, Hollander, Londoner, Leningrader, Laplander tayaniladi. O‘zbek tilida esa “X manzil, makon bilan aloqador shaxs” propozitsiyasiga asoslangan nominantlarni hosil qilishda birgina “N+lik=N” modelidan foydalaniladi: kattaqo‘rg‘onlik, amerikalik, angliyalik, toshkentlik, samarqandlik, qishloqlik, shaharlik, osiyolik, yevropalik kabi.

2. Ingliz va o‘zbek tillarida muayyan kasbiy faoliyat bilan aloqador bo‘lgan shaxs ma’nosidagi nominantlar miqdoran ko‘pligi va o‘ziga xos ichki guruhlardan tashkil topishi bilan xarakterlanadi. Mazkur

ichki guruhlar shaxsni manbalardan kelib chiqadigan sohaviy tarmoqlanishlari orqali ko‘zga tashlanadi. Xususan, ingliz tilidagi sud-huquq sohasiga oid: accuser, barrister, coroner, debunher, decrier, defender, executioner, inquirer, searcher, chaser, warder, lawyer kabi “R+er=N” modelida; adjudicator, executor, interrogator, investigator, legislator, liberator, prosecutor, protector, solicitor kabi; “R+or=N”modelida: apologist, canoeist, catechist, constitutionalist, criminoloqist kabi “R+ist=N” modelida yasalgan nominantlar shular jumlasidandir.

O‘zbek tilida mazkur sohaga oid nominantlarni “N+chi=N” modelida yasalgan: adliyachi, himoyachi (advokat), zindonchi (zindonbon), ijrochi, qonunchi (qonunshunos), nazoratchi; V+uvchi=N modelida yasalgan: ayblanuvchi, oqlovchi, qoralovchi, tergovchi kabi formativ va formativ-konversiv nominantlar misolida kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.
2. Никитевич В.М. Основы номинативной деривации. –Минск : Вышэйш. шк., 1985. – 157 с.
3. Никитин М.В. Курс лингвистической семантики. Учебное пособие. 2-е издание, дополненное и исправленное. — СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2007. — 819 с.
4. Нурмонов А, Маҳмудов Н. ва бошқалар.Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 294 б.
5. Павлов В. М. Понятие лексемы и проблема отношений синтаксиса и словообразования. - М.: Наука,1985. - 278 с.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY RIVOJLANTIRISH

Diyora Rahmonova O‘tkir qizi-
NavDPI Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaning jismoniy, aqliy, psixologik salomatligi shakllanishi va aqliy rivojlanish qobiliyatini takomillashtirishda ota-onalarning e’tiborli bo‘lishi va shartsharoitlarni yaratibberishlari muhim ekanligi yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxs, rivojlanish, o‘sish, taraqqiyot, ta’lim, qobiliyat, iste’dod diqqat, emotsiya, tarbiya, mantiq, faollik, tasavvur.

Bolani rivojlanishida maktabgacha bo‘lgan davr juda muhim rol o‘ynaydi.Bu davrda bolaning jismoniy, aqliy, psixologik salomatligi shakllanadi va aqliyrivojlanish qobiliyati takomillashadi.Bolani kelajakda omadli va aqlli yoki iste’dodli bo‘lishiniistaganota-ona uning rivojlanishiga aynan shu davrdan boshlab ahamiyat bermog‘i lozim.Ta’lim boladan diqqatni bir joyga to‘plashni, tasavvur, faol fikrlashni, xotirani rivojlantirishni talab qiladi.[1]. Ta’lim jarayoni emotsional, harakat namunasi ya’ni tarbiyachi tomonidan ko‘rsatilsa va bolalar tomonidan bajarilsa obrazli, shuningdek, og‘zaki-mantiqiy, mashqlar bolalarning o‘zlari tomonidan amalda bajarish bilan bog‘lik bo‘lsa motor harakatli xotira rivojlanadi. Ta’lim jarayoni erkin bo‘lishi kerak. Bolalarga ta’lim berish, axloqiy tarbiya, bolaning ma’naviy tuyg‘usi va ongini shakllantirish o‘zaro yordam beradi. SHaxsni har tomonlama komil inson qilib rivojlantirish tamoyili bolalarda aqliy qobiliyatni, harakat malakalari va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan, bola shaxsini tarbiyalashni birgalikda va har tomonlama tarbiyalashni amalga oshirishga mujassam holda yondashishni ko‘zda tutadi. [2].Aqliy tarbiya tizimidagi bunday yondashuv kishilarning o‘ziga xos xususiyatlari, yosh rivojlanish bosqichlari xususiyatlari, hayotning u yoki bu davrida asosiy faoliyat sifatida tanlanadigan aqliy tarbiya faoliyati turlari xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bola uchun eng muhim narsa-jismoniy rivojlanishdir.Jismonan faol, harakatchan va emotsional bolalarning aqli, nutqi, fikrlash qobiliyati, mantiq va xotirasi tezroq va mukammalroq rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirishda quyidagi amaliy va nazariy faoliyatlardan foydalanish ijobiy natija beradi. Kitob o‘qish:bola bilan birga kitobning rasmlarini tahlil qilib o‘qish, kitobdagi ertakning mazmunini bolaga o‘yin tarzida qayta gapirtirish,

o‘yinchoqlarga kitobning mazmunini aytirish juda foydali va qiziqarlimashg‘ulotlardan biri hisoblanadi. Bu bolaning fikrlashiga va albatta diqqat qilib tinglashga o‘rgatadi. CHizish:bolalar odatda chizishni juda yaxshi ko‘radilar.Lekin uddalay olishmasa ham xafa bo‘lib chizmay qolishlari ham mumkin.Bolaga qalamning o‘rniga qo‘llarini taklif qilib ko‘ring. Bola bo‘yoqqa qo‘llarini botirib istagan rasmlarini chizsin, siz esa uni kuzating, chizayotgan bola zavqlanadi. YOki chala chizish mashqini qo‘llash ham juda yaxshi samara beradi.Bunda siz bolaga biron bir narsani oxiriga yetkazmasdan chizibberasiz.Bolaning o‘zi esa uni tugatib qo‘yishi kerak.Masalan, siz aylana chizib bering, boladan uni tugatib qo‘yishini so‘rang.SHunda bola aylanadan nima chizish haqida o‘ylab fikr yuritadi. Ushbu mashg‘ulot orqali bolani tasavvur qilishi va tafakkurini boyitishiga yordam beradi.[3]

SHe’r yodlash: bolalarning xotirasini rivojlantirishda har kuni bitta kichik she’r yodlatish zarur.CHunki bola she’rni yod olish jarayonida sizni eshitadi, o‘zi qayta so‘zlarni takrorlaydi, takrorlash jarayonida esa xotirasi yaxshilanadi, nutqi rivojlanadi.

So‘zlarni topish:ko‘chada aylanib yurganda yoki uyda bolaga ko‘rinadigan buyumlarning birinchi harfini aytish kera, qolganini esa o‘zi topsin.Ushbu mashg‘ulot bolani fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.Eng asosiysi bolani o‘yin tarzida rivojlantirish kerak.Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolani aqliy jihatdan rivojlanishiga uning o‘ynayotgan o‘yinchoqlarining ham ahamiyati katta. CHunki bola dunyoga kelgan kunidanoq turli o‘yinchoq uni barkamol bo‘lib rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu bolalar uchun rivojlantiruvchi o‘yinchoqlar muhim ahamiyatga egadir. [3]

1.Osma shaqildoq, marjonlar, mobili - tug‘ilgandan 3 oylikkacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangandir.Ko‘rish va eshitish qobiliyatini rivojlantiradi, diqqatni bir joyga jamlashga o‘rgatadi, shuningdek ijtimoiy-ruhiy rivojlanishiga ko‘maklashadi. Keyinroq bola ularga talpinishni boshlaydi, “qo‘l-ko‘z” harakatlarini boshqarishni o‘rganadi.

2. SHaqildoq-tug‘ilgandan 12 oylikkacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Mayda motorikani, diqqatni jamlashni, lokomotorikani rivojlantiradi.

3.Piramida-6 oydan oshgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Sensomotor koordinatsiyani shakllantirishga, “qo‘llar va ko‘zlar” harakatini muvofiqlashtirishga yordamlashadi. O‘yinchoqning tarkibiy qismlaridan foydalanib, bolani shakl, rang va hajm haqidagi asosiy tushunchalar bilan tanishtirish mumkin.

4.Bir-birini ichiga tushadigan o‘yinchoqlar-6 oydan oshgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Bunday o‘yinchoqlarning asosiy turlari - bu idishlar va ramkalar. O‘yinchoqning tarkibiy qismlarini birlashtirar ekan, bola buyumlarning hajmi va shaklini solishtirishni, qo‘l va ko‘z harakatlarini boshqarishni o‘rganadi. Bu o‘yinchoqlar, shuningdek, fikrlash va tasavvur qobiliyatini rivojlantiradi.

5.Obrazli o‘yinchoqlar - qo‘g‘irchoqlar, hayvonlar va h.k.-12 oydan oshgan bolalar uchun. Ular bolada shaxs tushunchasi rivojlanishiga, ijtimoiy-ruhiy rivojlanishga ko‘maklashadi, bola insonlar olamiga “qo‘shilishiga”yordam beradi, o‘yinning syujet liniyasini o‘ylab topar ekan, bolaning tasavvuri va hayol qilish qobiliyati rivojlanadi.[3]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yosh bola hayotidagi eng asosiy va murakkab davrlardan biri hisoblanadi. CHunki bolani tafakkuri o‘sadi, nutq rivojlanadi va bola aqliy jihatdan takomillashib boradi. Bolani aqliy jihatdan rivojlantirishda eng muhimi uning jismonan, ruhan tetikligi va salomatligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ilk qadam Davlat shquv dasturi” Toshkent-2018 yil
2. F.R.Qodirova, SH.Q.Toshpo‘latova, M.N.A’zamova “Maktabgacha pedagogika” Toshkent-2019 yil
3. A.X.Kubashev “Jismoniy tarbiya jarayonida ta’lim va tarbiyaning rivojlanish asoslari” Toshkent- 2014 yil
4. Ziyonet.uz. sayti

JADID MA’RIFATPARVARLARINING TADBIRKORLIKKA DOIR PEDAGOGIK QARASHLARI

Parmonov Ulug‘bek Odiljon o‘g‘li –
Xalqaro Nordik unversiteti yoshlar ishlari va talabalarga xizmat ko’rsatish departamenti tyutori, tarbiyachi-pedagog.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda paydo bo‘lgan jamiyatni yangilashga intilgan jadidchilik harakati namoyondalarining davlatni rivojlantirishga, kishilar ongini o‘stirishga qaratilgan harakatlaridagi iqtisodiyotga oid qarashlari bugungi Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans sharoitiga naqadar mos kelishi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakati, jadidlar, yangi usul maktablari, “Turkiy Guliston yoxud axloq”, axloqiy tarbiya, amaliy tarbiya

Yangi O’zbekiston Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasini strategik maqsad sifatida belgiladi. Ushbu strategik maqsad g’oyasi birdaniga paydo bo’lib qolgani yo’q. G’oyaning ildizi xalqimiz mustaqillikni Chor Rossiyasiga boy bergandan keyin, millatning ilg’or o’qimishli ziyolilari chiqargan achchiq tarixiy xulosasi, taraqqiyot va ozodlik to’g’risidagi orzu- istaklariga borib taqaladi. Tarixga jadid ma’rifatparvarlari nomi bilan kirgan erksevar bobolarimiz istiqlolga, milliy taraqqiyotga, mustaqillik va erkga erishish uchun avvalo ta’lim – tarbiya tizimini, odamlarning hayotga, rivojlanishga bo‘lgan munosabatini o’zgartirishni, bekorchilikdan choyxonalarda oshxo’rlik va bedanabozlik qilishdan voz kechib, yaratuvchilikka, bunyodkorlikga g’aflat uyqusidan uyg’onishga, yoshlarga zamonaviy ilmlarni, kasblarni o’rgatishga chorladilar. Ta’lim-tarbiya islohotlaridan boshlangan jadidchilik harakati tezda butun madaniy hayotni, adabiyot va san’atni, maishiy turmushni, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qarashlarni qamrab oldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati o‘z zamonasi uchun ilg‘or ijtimoiy-ma’rifiy oqim sifatida maydonga chiqqan. Ushbu harakat vakillari, ya’ni jadidlar, murakkab siyosiy va iqtisodiy sharoitda xalqni ma’rifatga yetaklash, zamonaviy ilm-fan asoslarini joriy etish orqali jamiyatni yangilashga, davlatni rivojlantirishga intildilar. Ular an’anaviy ta’lim tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ongida yangicha fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratganlar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 20 dan ortiq davlatlar vakillari ishtirok etgan “Jadidlar: milliy o’zlik, istiqlol va davlatchilik g’oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo’llagan tabrigida jadid bobolarimizga yuksak baho berib quyidagilarni izhor etdi: “Barchamizga ayonki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g’oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g’aflat botqog’idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy tarraqiyotni egallashda, deb bildilar. Ular shu yo‘lda fidoyilik ko’rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a’zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o’zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg’or davlatlarga o’qishga yubordilar”[1]

Jadidlarning asosiy maqsadi – Turkiston xalqlarini birlashtirish, milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surish va taraqqiyot sari olg’a qadam bosish edi. Ular ta’lim-tarbiyani isloh qilish orqali jamiyat hayotiga yangicha qarash olib kirishga harakat qildilar. Shu ma’noda, jadidlar o‘z mablag‘lari hisobiga yangi uslubdagi maktablar, sahna san’ati bilan shug‘ullanuvchi teatrlar, matbaa, kutubxonalar hamda gazeta-jurnallar tashkil etdilar. Shu bilan birga, iqtidorli yoshlarni xorijga yuborib, ularni ilg‘or bilimlarga ega bo‘lishlariga ko‘maklashdilar.

Ularning faoliyati nafaqat ta’lim sohasini modernizatsiya qilish, balki jamiyatda tadbirkorlik, tashabbuskorlik va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirish kabi dolzarb yo‘nalishlarga ham xizmat qilgan. Jadidlar Turkiston jamiyatini o‘rta asrlardagi tarqoqlikdan ozod qilish, mustaqil va zamonaviy boshqaruvga asoslangan milliy davlat qurish g‘oyasini ilgari surdilar. Ularning faoliyati yosh avlodni g‘oyaviy, ma’naviy va milliy jipslik asosida tarbiyalashga qaratilgan edi.

Jadidlar yangi usuldagi maktablarni (usuli jadid) ochish orqali ta’lim tizimiga amaliy fanlarni, jumladan, iqtisodiyot, savdo, geometrik hisob-kitob kabi sohalarni kiritdilar. Bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ularga kichik biznes yuritish, o‘z mahsulotini hisob-kitob qilish, foyda va zarar tahlilini o‘rganish imkonini yaratgan. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida shunday deydi: “Tarbiyada ikki tomon bo‘lur: biri axloqiy, biri amaliy. Farzandlarimizga axloq bilan birga kasb va hunar ham o‘rgatilsa, ular hech qachon xor bo‘lmas.”[2] Bu so‘zlar bizga tarbiyaning ikki muhim yo‘nalishini ko‘rsatadi: axloqiy va amaliy tarbiya. Axloqiy tarbiya - bu insonning to‘g‘ri, halol, odobli bo‘lib voyaga yetishini ta'minlaydi. Amaliy tarbiya esa - unga kasb-hunar, mehnat qilish, o‘ziga to‘q bo‘lish yo‘lini o‘rgatadi. Jadidlarning yangi usuldagi maktablar orqali ta’limga amaliy

fanlarni joriy etgani — yosh avlodni faqat bilimli emas, balki hayotda mustaqil yashashga qodir, kasb-hunarli, tadbirkor shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qilgan. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy va amaliy tarbiyaning uyg'unligi insonning to'laqonli shakllanishini ta'minlaydi. Bugungi kunda ham bu ikki tomonlama tarbiya — halollik va kasb egallash — yoshlarga mustahkam hayotiy poydevor yaratib, ularni kelajakda o'z yo'lini topadigan, jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi kunda, ayniqsa yoshlarimiz uchun, aynan shu ikki tomonlama tarbiya juda muhim. Chunki halol, axloqli bo'lgan, ustiga-ustak biror hunar yoki kasb egasi bo'lgan yosh hech qachon boshqalarga muhtoj bo'lib qolmaydi. U har qanday sharoitda o'z yo'lini topadi, o'z biznesini yo'lga qo'yadi, tadbirkor bo'lish sari dadil qadam tashlaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, huquqiy-demokratik jamiyat barpo etish va erkin fikrli avlodni tarbiyalash jarayonlarida jadidlar merosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, "Uchinchi Renessans" g'oyasi doirasida yoshlarni ilmga, kasb-hunarga, vatanparvarlikka yo'naltirishda jadidlar boshlab bergan yo'l bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning gumanistik qarashlari va xalq manfaati yo'lida qilgan fidokorona sa'y-harakatlari bugungi taraqqiyotimizda mustahkam ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev: "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya 2023-yil 11-dekabr
2. Sh.Mirziyoyev: Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidan. 2023 yil 6-mart
3. Karimov N. XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyat va jadidchilik harakatining vujudga kelishi. //O'zbekistonning yangi tarixi. Konseptual-metodologik muammolar mavzuidagi ilmiy anjuman materiallari. -T., 1995. -B.38.
4. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent: Ma'naviyat, 2002
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi", 2004 yil 96-bet

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNIKALARINI RIVOJLANTIRISH

Abdusodiqova Shahlo G'ayratovna
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik texnikalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Akmeologiya ta'lim jarayonida pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish va ularning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan fan sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada innovatsion pedagogik texnikalar, interaktiv metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari tahlil qilinib, ularni ingliz tili o'qitishda qo'llash imkoniyatlari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Akmeologik yondashuv, innovatsion pedagogika, ingliz tili o'qitish, kasbiy rivojlanish, interaktiv metodlar, ta'lim texnologiyalari, kompetensiyalar.

Annotation. This article explores the development of innovative pedagogical techniques for English language teachers based on the acmeological approach. Acmeology is considered as a science aimed at enhancing teachers' professional skills and developing their personal and professional competencies in the educational process. The article analyzes innovative pedagogical techniques, interactive methods, and modern educational technologies, as well as their application in English language teaching..

Keywords: Acmeological approach, innovative pedagogy, English language teaching, professional development, interactive methods, educational technologies, competencies**.**

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития инновационных педагогических техник преподавателей английского языка на основе акмеологического подхода. Акмеология рассматривается как наука, направленная на повышение профессионального мастерства педагогов и развитие их личностных и профессиональных компетенций в образовательном процессе. В статье анализируются инновационные педагогические техники, интерактивные методы и современные образовательные технологии, а также рассматриваются возможности их применения в преподавании английского языка**.**

Ключевые слова: Акмеологический подход, инновационная педагогика, преподавание английского языка, профессиональное развитие, интерактивные методы, образовательные технологии, компетенции.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, innovatsion pedagogik texnikalarni qo‘llash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda akmeologik yondashuv asosida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tili o‘qituvchilari uchun yangi texnologiyalar va interaktiv metodlarni o‘zlashtirish, zamonaviy didaktik yondashuvlardan foydalanish talab etiladi. Ushbu maqolada ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik texnikalarini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish masalalari yoritiladi.

1. Akmeologik yondashuvning mazmuni va uning ta’lim tizimidagi o‘rni

Akmeologiya – bu shaxsning eng yuqori kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga erishish jarayonini o‘rganadigan fan. Bu yondashuv insonning ta’lim va kasbiy rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda tahlil qilishga yordam beradi. Akmeologik yondashuvning asosiy maqsadi o‘qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish va takomillashtirishdan iborat.

Akmeologik yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Kasbiy o‘sish va rivojlanish tamoyili – o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda oshirib borish.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash tamoyili – zamonaviy pedagogik metod va vositalarni o‘zlashtirish.

Refleksiya va tahlil qilish tamoyili – o‘z ish faoliyatini baholash va samaradorligini oshirish.

2. Ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik texnikalari

Zamonaviy ingliz tili ta’limida innovatsion pedagogik texnikalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi usullar pedagogik jarayonda samarali natijalar beradi:

2.1. Kommunikativ yondashuv

Bu metod orqali o‘quvchilar tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadilar. Dars jarayonida dialoglar, muhokamalar, rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlar keng qo‘llaniladi.

2.2. Interaktiv o‘qitish usullari

CLIL (Content and Language Integrated Learning) – fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish.

Task-Based Learning – o‘quvchilarga muayyan topshiriqlar berish orqali til o‘rganish jarayonini faol amalga oshirish.

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) – o‘yin elementlarini dars jarayoniga kiritish orqali qiziqarli va samarali ta’lim muhitini yaratish.

2.3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Online platformalar (Duolingo, Quizlet, Kahoot) orqali interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish.

Sun’iy intellekt yordamida moslashtirilgan o‘qitish – ChatGPT va boshqa AI vositalaridan foydalanish.

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalaridan foydalangan holda vizual va interaktiv darslarni tashkil qilish.

3. Akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi

3.1. Shaxsiy kasbiy o‘sishni rejalashtirish

O‘qituvchi o‘zining kasbiy rivojlanishini quyidagi bosqichlarda amalga oshirishi lozim:

1. O‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash
2. O‘z ustida ishlash rejasini ishlab chiqish
3. Doimiy ravishda yangi metod va texnologiyalarni o‘rganish
4. O‘z tajribasini baholash va takomillashtirish

3.2. Metodologik kompetensiyani rivojlantirish

Ta’lim treninglari va kurslarda ishtirok etish

O‘zaro tajriba almashish (master-klasslar, seminarlar, vebinarlar)

Ilmiy izlanishlar olib borish va maqolalar yozish

3.3. Psixologik barqarorlik va motivatsiyani oshirish

O‘qituvchining motivatsiyasini oshirish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish kerak:

Karyera o‘sish imkoniyatlarini aniqlash

Ishga ijodiy yondashish

Professional burnout oldini olish

Kommunikativ, interaktiv va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilimlarini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

O‘zbekistonlik olimlar ta’lim jarayonida akmeologik yondashuv va innovatsion pedagogik texnikalar haqida turli tadqiqotlar olib borishgan. Quyida ba’zi olimlarning fikrlari keltiriladi:

1. S. G‘aniev – Akmeologiya o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va o‘z-o‘zini takomillashtirishini ta’minlovchi muhim yondashuvlardan biri ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun doimiy o‘rganish va tajriba almashish zarur.

2. U. Tursunov – Innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ingliz tili o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam berishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, akmeologik yondashuv orqali o‘qituvchilar o‘z mahoratini doimiy ravishda oshirishlari lozim.

3. M. Yo‘ldoshev – Akmeologiyaning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan holda, pedagoglarning kasbiy o‘sishi uchun maxsus dasturlar va treninglar ishlab chiqish muhimligini qayd etadi. Uning fikricha, ingliz tili o‘qituvchilari zamonaviy metodlarni puxta o‘zlashtirib, ularni dars jarayonida samarali qo‘llashlari lozim

4. N. Qosimova – Pedagogik innovatsiyalar va psixologik yondashuvlar orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga e’tibor qaratadi. U o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida kreativ yondashuv va innovatsion texnikalarni qo‘llashi o‘quvchilarning til o‘rganish motivatsiyasini oshirishini ta’kidlaydi.

Bu fikrlar ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik texnikalarini rivojlantirishda akmeologik yondashuvning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik texnikalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O‘qituvchilar o‘z kasbiy rivojlanishlariga e’tibor qaratgan holda, zamonaviy metod va texnologiyalarni o‘zlashtirishlari muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulkhanova-Slavskaya K.A. Akmeologiya: Lichnostnyy i professionalnyy rost. – M.: Nauka, 2001.

2. Vlasova O.I., Kuzmina N.V. Pedagogicheskaya akmeologiya i innovatsionnye tekhnologii obucheniya. – Sankt-Peterburg: Piter, 2013.

3. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.

4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – Pearson Education, 2015.

5. Назарова З.М. *Инновационные технологии

AKSIOLOGIK YONDOSHUV ORQALI BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Bekboyev Zafar Zavqiddin o‘g‘li, NavDU
Ilmiy rahbar: **Mustafayev Shomurod Normo‘minovich,** NavDU

Annotatsiya. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini takomillashtirishda modulli o‘qitish texnologiyalarining samarali ekanligi mazkur maqolaning mazmunini tashkil etishadi. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisini o‘qitish uchun modulli yondashuvning dolzarbligi mehnat bozorini tahlil qilish imkoniyatidan foydalanish, ilgari amaliy o‘qitish bilan ta’minlanmagan amaliyotning keskin kasbiy ehtiyojlarini aniqlashdir. Kalit so‘zlar: modulli o‘qitish texnologiya, kompetensiya, musiqa ta’limi o‘qituvchisi, oliy ta’lim. Zamonaviy jamiyatda, oliy ta’lim inson faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunday e’tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qiymati va asosiy kapitali yangi bilimlarni qidirish va o‘zlashtirishga, nostandart qarorlar qabul qilishga qodir mutaxassisni tayyorlash ekanligini tushunishdir. Zamonaviy pedagogik fanning muhim yo‘nalishi o‘qituvchini o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan vositalar va sharoitlarni izlashdir. Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb

bilamiz” degan fikrlari ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan oliy ta’limning pedagog xodimlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Ijtimoiy hayot taraqqiyoti O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi oldiga bir qator o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni amalga oshirish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Bulardan ayrimlari sifatida ta’lim sifatini tubdan yaxshilash, fanlar, mavzulararo, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi aloqadorlik va uzviylik muammolarini hal qilish, ta’limning barcha uchun ochiqligini ta’minlash, dunyoning rivojlangan ilmiyta’limiy muhiti bilan integratsiyalashuv jarayonlarini tezlatish kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bunday muammolarni hal qilish maqsadida o‘quv-tarbiya jarayoniga modulli o‘qitish texnologiyalarini

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirishning asosiy poydevori kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydigan qadriyat sifatida bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga ularni faol jalb etishdir. Bundan tashqari atrof-muhitni ma’naviy-nazariy o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik qadriyat sifatida bilish faoliyatining o‘ziga nisbatan faol munosabatni shakllantirish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlik jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining aksiologik nuqtai nazardan shakllanishi – bu bilish orqali maqsadli, tizimli harakatlanish, bilimlarni ijodiylik bilan uyg‘unlashuvini qadriyatli anglash va baholash, muntazam o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatini shakllantirish, shakllangan qadriyatli yo‘nalishlar shaxsning bo‘lajak pedagogik faoliyatga qadriyatli munosabatini aniqlab beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishga aksiologik yondashuv shaxs qiziqishlari va intilishlariga yo‘nalganlik, individual foyda (pramatiklik) ierarxiyasi, faoliyatning motivatsion dasturini taqdim etadigan talabalarda qadriyatli yo‘nalganlik tizimini shakllantirishga xizmat qilib, uning hayotiy va kasbiy rejalarini amalga oshirishga tayyorlik darajasini aniqlab beradi.

Aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish funksional-maqsadli (maqsad va funksiyalar), metodologik (yondashuvlar va tamoyillar), mazmunli-jarayonli (pedagogik aksiologiya elektiv kursi va “Pedagogik aksiologiya” ijodiy to‘garak dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish), tashkiliy (ta’lim jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, metodlari va vositalari), natijaviy (mezonlari, darajalari, faoliyat natijasi) bloklardan iborat pedagogik modelni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, zamonaviy pedagogika ta’limning asosiy maqsadi sifatida olamga qadriyatli munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilganlik bilan tavsiflanadi. Qadriyatli munosabat – shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli aloqalarni ifoda etadigan shaxsning ichki pozitsiyasidir. Bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy voqelikdagi narsa-buyum va hodisalarga aksiologik munosabatni shakllantirish uchun shaxsning u yoki bu qadriyatyalarga yo‘nalganligi sifatida unda qadriyatli munosabatni tarkib toptirish zarur. V.Slastyoninning fikricha, o‘qituvchining qadriyatli munosabatlar tizimi uning shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini anglash tuzilmasining tarkibiy asoslarilan biri hisoblanadi. Olim o‘qituvchining kasbiy pedagogik madaniyat tuzilmasiga xos quyidagi pedagogik qadriyatlarni aniqlashtirgan: maqsadli (shaxsiy va kasbiy “Men”); vositali (pedagogik muloqot konsepsiyasi, innovatika texnikasi va texnologiyasi va boshqalar), munosabatli (kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabat pozitsiyasi), sifat (xulq-atvor sifatlari), bilimga doir (shaxsiy va kasbiy kompetentlik).

O‘quvchi shaxsiga ta’lim-tarbiya beradigan umumta’lim maktablari oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishi, avvalo, oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashga bog‘liq. Mutaxassislarning kompetentlilik darajasi, kasbiy mahorati, pedagogik jarayonlarni to‘g‘ri va maqsadli boshqara olishi o‘quvchi shaxsini tarkib toptirish muvaffaqiyatini belgilab beradi. Bu oliy pedagogik ta’lim tizimi, umuman ta’lim va kadrlar tayyorlash uchun mas’ul bo‘lgan barcha tashkilotlar oldiga bo‘lajak pedagoglarning barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishga kasbiy tayyorgarligi masalalarini yanada mukammal tadqiq qilishdek dolzarb vazifani qo‘yadi. Bunday maqsadlarga erishish yo‘lida oliy ta’lim tizimi o‘quv-metodik bazasini yanada mustahkamlash, talabalarni har tomonlama intellektual bilim olishlari uchun sharoitlarni yanada yaxshilash, kadrlarning ilmiy salohiyatini, kasbiy kompitentligini oshirish lozim bo‘lmoqda. “Kompetensiya” so‘zi fanda ilk bor XX asrning 50-60-yillarida qo‘llangan va insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqatini bildirgan. “Kompetensiya” bilim, ko‘nikma va malakalarning

samarali qo‘llanishi; “kompetentlilik” esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan layoqatdir. Shu bois har bir fanni o‘qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi. Kasbiy kompetentlilik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish muammosining dolzarbligi musiqa o‘quv yurtlarini tugatgan bitiruvchilarning ko‘pincha mustaqil kasbiy faoliyatga layoqatsizligi bilan bog‘liq.

Kamchiliklar orasida musiqiy madaniyat va san’at sohasidagi bilimlarning cheklanganligi, musiqa ta’limi metodologiyasi, mutaxassis tayyorlash va ijrochilik amaliyotining yetarli emasligi alohida ahamiyatga ega. Ko‘pincha yosh mutaxassisning to‘liq ijodiy qobiliyatsizligi mavjud. Shunday qilib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining ijodiy faoliyatini, o‘zini o‘zi anglashga hissa qo‘shadigan, bitiruvchining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga ta’sir qiluvchi omillarni ajratib ko‘rsatish kerak. San’at – o‘z mohiyati va ijtimoiy mazmuniga ko‘ra har qanday milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida muayyan davlat, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyoti darajasini belgilovchi eng muhim va ustuvor mezonlardan biridir. San’at yo‘nalishidagi ta’lim, u qanday bo‘lishi kerak? So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan ijodkorlarga qaratilayotgan e’tibor va ehtirom soha vakillarining mehnatini rag‘batlantirishi bilan birga har bir ijodkorning ijtimoiy mas’uliyatini ham oshirib, o‘z faoliyatiga yangicha nuqtai nazar bilan qarashga da’vat etdi. Xususan, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Milliy madaniyatni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorda madaniyat va san’at yo‘nalishida malakali kadrlar tayyorlash tizimida ta’limtarbiya va maxsus ijodiy-kasbiy dasturlar o‘rtasida uzviylik va vorislik tamoyillarining yo‘qligi, talabayoshlarni o‘qitishda yakka tartibdagi o‘quv uslubidan samarali foydalanilmayotgani alohida qayd etilgan edi.

Zamonaviy musiqa ta’limi o‘qituvchisi duch keladigan birinchi umumiy muammo tavsiya etilayotgan dasturning o‘zgaruvchanligi va uning cheklanganligi bilan bog‘liq. Pedagogik muammoli vaziyatlar ko‘pincha o‘qituvchi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan barcha o‘quv majmuasidan, masalan, ishchi rejalaridan foydalanish kerak bo‘lganda ularni qanday amalga oshirishni tushunmasligidan yuzaga keladi. Bu, ayniqsa, mintaqaviy o‘quv muassasalaridagi va oliy ta’limda yetarlicha kasbiy ko‘nikmmalarga ega bo‘lmagan musiqa o‘qituvchilariga tegishli. Ularning bunday vaziyatga tushishi ishchi rejadagi o‘qitilishi kerak bo‘lgan mavzular, ko‘rsatmalar, qo‘shimcha didaktik materiallarni elektron shaklda taqdim etish uchun texnik vositalar (videoproektor, elektron doska va boshqalar) maktabda bo‘lsa ham ko‘pincha o‘qituvchiga berilmaydi, berilganda ham o‘qituvchi ishlatish layoqatiga ega emasligidan kelib chiqadi. Agar biz tuman hududlari haqida gapiradigan bo‘lsak, bunday vositalarni mustaqil ravishda izlash juda qiyin bo‘lib ko‘rinadi, aksariyat hollarda hech qanday urinish ham bo‘lmaydi. Tavsiya etilgan dasturlarning mualliflari o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan materiallarni ochiq elektron nusxada nashr ettirmaydilar, kitob do‘konlarida yangi to‘plamlar har doim ham mavjud emas, ammo kutubxonalarda faqat eskirgan nusxalarni topish mumkin ammo, yangi ijod etilgan musiqiy asarlarni har doim ham topa olmasligini aytib o‘tishdi. Ushbu muammo musiqa o‘qituvchilariga taklif etilayotgan kompetensyaviy talablar sababli dolzarb bo‘lib bormoqda.

Yuqorida keltirilganlarning hammasi ta’lim oluvchilarni fikrlash darajasini kengaytirish, yuz beradigan voqea-hodisalarning sababini anglash, izlanishni o‘rgatishga qaratilgan. Modul tizimining mohiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchilar ta’limning alohida birlik modullarini izchil holda ketma-ket o‘zlashtiradilar. 1. Modulli o‘qitishdagi dastlabki shart-sharoitlarni tahlil etish. Musiqa fanida modul tizimini qo‘llash eski modul birligi o‘rniga tezda yangisini ishlab chiqish va amalda qo‘llash imkoniyatini beradi. Musiqa fanida modul tizimi asosida ta’lim berishning afzalligi shundaki, e’tibor ko‘proq ta’lim oluvchiga, uning o‘z ustida mustaqil ishlashi, hamda o‘z-o‘zini nazorat qilishiga qaratiladi. Modul tizimi asosida o‘qitishning davomiyligi ta’lim oluvchining tayyorgarligiga va kasbiy malakani qay darajada egallash istagiga bog‘liq. O‘qitishni ta’limning istagan modelidan keyin to‘xtatish mumkin. Musiqa fanini modul texnologiyasi asosida o‘qitishga tayyorgarlik ko‘rish, ya’ni nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun dastlab uch

yo‘nalishda ish olib boriladi. Birinchidan, talabalarning tayyorgarlik holati tahlil qilinib, ularning bilimi, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi va qobiliyati aniqlanadi. Chunki ularning ta’lim olishida o‘ziga ishonchi, qobiliyati, shaxsiy holati, va yoshi muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning qobiliyatiga ko‘ra tabaqalashtirish asosida ularga fanni mustaqil o‘zlashtirish tavsiya etiladi Ikkinchidan, mavjud shartsharoitlar tahlil etiladi. U o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: huquiy shart-sharoitlar; Bunda ta’lim jarayoniga taaluquli o‘quv rejasi va dasturlar o‘rganiladi. O‘quv jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq shart-sharoitlar; Bunda modul tarkibiga kirgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilinadigan joy va boshqa sharoitlar o‘rganiladi. Texnikaviy shart-sharoitlar; Bunda texnik jihoz va moslamalar, o‘quv va yordamchi audiovizual vositalarining mavjudligi, holati o‘rganiladi.

Foyfalanilgan adabiyotlar

1. Умарова, А. И., Мискинова, С. З., Кимсанов, О. (2022). Таълим технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари ва аҳамияти. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2(9), 207-210.

2. Кодирова, Ф. У. (2021). Педагогический инновационный кластер в инклюзивном образовании. Academic research in educational sciences,

NAVOIY VILOYATINI TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI TUTGAN O‘RNI

Xo‘jayeva L.Sh.
NavDPI tarix fakulteti
Tarix kafedrasi o‘qituvchsi

Kalit so‘zlar: Turizm, sivilizatsiya,metodologiya,investitsiya, company’’,xorijiy investitsiya,To‘dako‘l tabiiy suv ombori,’’Turizm ko‘chasi’’ loyihasi .

Annotasiya: Ushbu maqolada respublikamizda turizm sohasida tutgan o‘ziga xos o‘rni shuningdek mustaqillik yillarida mamlakatimizda turizmni yaxshilash va turistlar tashrifini ko‘paytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohatlar,hozirgi kunda Navoiy viloyatida turizm sohasida olib borilayotgan loyihalar haqida ma’lumot berilgan.

O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi tarixida yuksak iz qoldirgan, insoniyat ilk vakillarining dastlabki manzilgohlari ko‘plab joylashgan[1], dunyo ilm-fanida yangi bilimlarga asos solgan, tarixiy-madaniy yodgorliklarga boy[2] hududlarni qamrab olgan. O‘zbekistonning qadimiy Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent kabi hududlari jahon xalqlari tarixida o‘z o‘rni va salohiyatiga ega bo‘lgan va hozirda ham shunday. Xususan, Navoiy viloyati ham O‘zbekiston va jahon tarixida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Azim Zarafshon vohasida, behisob tabiiy boyliklar makoni bo‘lgan Qizilqum mintaqasida joylashgan Navoiy viloyati, ta’bir joiz bo‘lsa, mamlakatimizning duru javohirlar xazinasidir” [3].

Mazkur hudud nafaqat hozirgi O‘zbekiston balki, Markaziy Osiyoda ham muhim savdo yo‘llari kesishgan, qulay tranzit va logistika imkoniyatlarini mujassam etgan, Buyuk Ipak yo‘lining asosiy tarmoqlarini[4] birlashtirgan, shuningdek, Samarqand va Buxoro kabi yirik savdo-iqtisodiy va madaniyat markazlari oralig’idagi, ularni bog’lab turgan hudud bo‘lgan qadimiy tarixga ega makon sifatida ma’lum. Xuddi shu omillar mazkur hududning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va tarixiy taraqqiyotida muhim omil bo‘lgan.,..

Turizmni rivojlantirish va bu yo‘lda olib borilayotgan islohotlar yurtimizning mustaqillik yillarida alohida sahifa bo‘lib tarixga muhrlandi.Xususan, 2010-2017-yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravarga oshdi va 2017-yilda 546,9 mln AQSH dollari 2018-yilda esa 1041mln AQSH dollarini tashkil etdi.2018-yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan manlakatda turizmni

[1] Мирсаатов Т. М. Древние шахты Учтута. - Ташкент: Фан, 1973. - С.108

[2] Кабиров А. Сармишсой қоя тош тасвирлари. - Тошкент: Фан, 1976; Хужаназаров М. Древнейшие наскальные изображения Сармишсая. История материальной культуры Узбекистана. Вып.32. 2001. - С.24-30.

[3] Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б. 111.

[4] Ҳотамов А., Бекниёзов Н. Кармана - қадимий диёр. - Тошкент: Ўзбекистон, 2007. - Б.5.

rivojlantirishga yo‘naltirilgan 11 hujjat,Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa 25 normativ -huquqiy hujjat imzolandi.Ko‘pchilik orasida bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan sayyohlik oqimi ko‘rsatkichlari haqida so‘z yuritar ekanmiz,eng avvalo O‘zbekiston sayyohlarini hisoblashda turizm sohasidagi yetakchi tashkilot hisoblangan UNWTO metodologiyasini takidlash joiz.Unga ko‘ra,biror mamlakatga ishga joylashishdan boshqa har qanday maqsadda tashrif buyurgan shaxs sayyoh va mehmon hisoblanadi.

Malumot uchun UNWTO-BMT tizimining ixtisoslashgan hukumatlararo muassasasi.U 158 mamlakat, 6 hudud, kuzatuvchi maqomidagi 2 hudud va 500 dan ortiq affil tashkilotlarni o‘zida birlashtiradi.Shtab-kvartirasi Madrid shahrida joylashgan.

Hozirgi kunda O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab samarali loyihalar yo‘lga qo‘yilyabti. Shu jumladan 2019-2025 yillarda O‘zbekiston respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi olib borgan islohotlar samaradorlikni oshirish,turizm sohasini jadal rivojlantirishga xizmat qildi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida yurtimizda shu jumladan Navoiy viloyatida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.Jumladan,To‘dako‘l suv havzasi atrofida sayyohlar uchun tashrif buyuradigan maskanlar barpo etish maqsadida 2019-yil Qiziltepa tumani hokimining tegishli qaroriga asosan mehmonxona va dam olish maskani tashkil etish uchun „Golden safari’’ MCHJ ga 15 gektar yer maydoni ajratib berildi. Maskur loyiha joriy yilning 1-avgustida ishga tushurilishi rejalashtirildi.

Bundan tashqari, ,,Traiding Servisi’’ SICHK ga mevali daraxtlar hamda ekzotik o‘simliklarni o‘stirish uchun kichik bo‘g’ ,issiqxona, kichik yurtali lagerlar va milliy uslubda jihozlangan zamonaviy mehmonxonalarni tashkil etish uchun 14 gektar yer ajratildi.

Shu bilan birga Navoiy viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida ,,Qosim Shayx’’ majmuasi , ,,Mavlono Orif Deggaroniy’’ masjidi va ,,Mir Said Bahrom’’ maqbarasida qurilish ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.Navbahor tumanidagi qadimiy Sarmishsoy darasida ham turistlarni keng jalb qilish maqsadida ,,Muhabbat bo‘gi’’ MCHJ va „Sarmishsoy-Navoiy’’ MCHJ tomonidan dam olish maskanlari qurib bitkazildi.

Viloyatning turistik salohiyatini yanada keng targ’ib qilish uchun viloyatning investitsion va turizm imkoniyatlarini o‘zida aks ettiruvchi videorolik va qo‘llanma kitoblar chop etilib, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi hamda xorijiy davlatlarning O‘zbekistondagi elchixonalariga taqdim etildi.Bugungi kunda Navoiy viloyatida xorijiy investitsiya mablag’lari hisobidan 27 turisti investitsion loyihasi amalga oshirilmoqda. Investitsion loyihalarning umumiy qiymati 141,9 mlrd so‘mni tashkil qiladi.Amalga oshirilayotgan ushbu ishlarning bugungi kundagi holatini o‘rganish hamda tadbirkorlarga qo‘shimcha ko‘mak berish maqsadida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi ma’sul hodimlari shaharda amalga oshirilayotgan loyihalarning bugungi kundagi holatini o‘rganishdi.Boshqarma vakillari „Navoiy Tinch Tekstil’’MCHJga qarashli qiymati 25,5 mlrd so‘mlik mehmonxona loyihasi, „Navoiy Fayz mebel’’MCHJ hamda Turkiya davlati bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan yengil konstruksiyali qiymati 4,75 mlr so‘mlik mehmonxona , ,,Sharq qurilish servis’’MCHJ ga qarashli qiymati 12 mlrd so‘mlik mehmonxona hamda „Navoiy Spets Obuv’’MCHJga qarashli qiymati 4,5 mlrd so‘mlik mehmonxona loyihalari bilan tanishishdi. Shuni ham aytib o‘tish joizki, mazkur loyihalarning 14 tasi 2020-yilda ishga tushirilgan.Ushbu loyihaning ishga tushurilishi natijasida shaharda 278 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Navoiy viloyatining turistik salohiyati haqida so‘z borar ekan, Nurota tumanidagi ,,Chashma’’ me’moriy majmuasiga to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. ,,Chashma’’ me’moriy majmuasida turizm infratuzilmasi yaratilmoqda. Ziyoratgoh ro‘parasida ,,Nurota’’ mehmonxonasi ishga tushirilgan. Bu yerda ,,Buyuk imorat qurilish’’ MCHJ quruvchilari tomonidan 54 o‘rinli mehmonxona bunyot etilgan.Shuningdek, mehmonxonaning tashqi va ichki qismlari qo‘qonlik,xorazmlik,jizzaxlik va qaraqalpoq ustalar tomonidan milliy uslubda bezalgan.Loyihada majmua uchun jami 12 gektar maydon ajratilgan. Shu loyihani amalga oshirish uchun ,,Chashma’’ hududidagi 150 xonadon ko‘chirilib,o‘rnida 2019-yil yakunida yana bir qator binolar bunyot etildi. Turizm respublikamiz iqtisodini yuksaltirish, milliy va madaniy qadriyatlarimizni dunyoga targ’ib qilishda muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonda turizmning turli yo‘nalishlarida rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilayotganligi sababli viloyatlardagi tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy-madaniy ob’ektlarga yangi sayyohlik yo‘nalishlari ochilmoqda. Buning uchun viloyatlarda keng imkoniyatlar mavjud. Hozirda mamlakatda 180 dan ortiq xalqaro sayyohlik yo‘nalishlarining 140 tasi aynan tarixiy-madaniy meros ob’ektlari bilan bog’liqdir[1].

2022yildan boshlab Navoiy shahrida sayyohlar uchun qiymati 13,7 mlrd so‘mlik ,,Turizm ko‘chasi’’ qurilishi boshlandi.Loyihaga ko‘ra, hududga yangi granit toshlar yotqiziladi, piyoda va velosiped yo‘laklari,

[1] Мухторов Н. Маданий мерос объектларига эътибор янада кучаяди // http://parliament.gov.uz. 2018. 24 декабрь.

mahalliy aholi va sayyohlar uchun ovqatlanish joylari bunyot etiladi.Bu loyihani Islom Karimov va Amir Temur ko‘chalari kesishmasidan to „Alisher Navoiy istirohat bog’i’’ gacha bo‘lgan hududda tashkil etish rejalashtirildi. ,,Turizm ko‘chasi’’da kichik arxitektura shakllari, sanitariya gigiyena punkti, turistik ma’lumot markazi,rangli musiqali favvora,mahalliy aholi va sayyohlar uchun ovqatlanish joylari qurilishi ma’lum qilingan.Bundan tashqari 7 ta me’moriy yechimi bir-biriga o‘xshamaydigan zamonaviy salqin ichimliklar savdo nuqtalari bunyot etilishi ko‘zda tutilgan. Ma’lum qilinishicha, bundan turizmni yanada rivojlantirish, tashrif buyurayotgan sayyohlarga munosib infratuzilma yaratish maqsad qilingan.
Amalga oshirilgan ushbu ishlar natijasida viloyatimizda 2018-yilda 15926 nafar xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan bo‘lib,2017-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich ikki baravarga oshgan.Yildan yilga Navoiy viloyatiga tashrif buyuruvchilar soni ortib bormoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki,dunyodagi har bir millat o‘z madaniyati, urf-odatlari, san’ati bilan bir-biridan ajralib turadi vas hu xususiyatlari bilan boshqa xalqlarni o‘ziga jalb qiladi.Masalan siz biror hududga tashrif buyurar ekansiz,u yerdan o‘zingizga qiziqbo‘lgan nimadir qidirasiz. Bu yurtning urf-odatlari,an’analari sizni o‘ziga tortadi. Agar o‘sha hudud turistlar tashrifi uchun yetarli sharoit va qulayliklar bilan ta’minlangan bo‘lsa,siz u yerda miriqib dam olasiz va tanishlaringizga ham bu yerni tavsiya qilasiz. Bizning yurtimizda ham mustaqillikdan keyin bir qator rejalar,loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa bizning tarixiy obidalarimizni qayta rekanstruksiya qilish va atrof-muhitni obodonlashtirish uchun juda katta mablag’ ajratilmoqda. Bunyod etilayotgan turistik zonalar, amalga oshirilayotgan loyihalar natijasida aholi qo‘shimcha ish o‘rinlari bilan ta’minlanmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda, turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar xalq manfaatlariga xizmat qilmoda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б. 111.
2.Мирсаатов Т. М. Древние шахты Учтута. - Ташкент: Фан, 1973. - С.108
3.Кабиров А. Сармишсой қоя тош тасвирлари. - Тошкент: Фан, 1976; 4.Хужаназаров М. Древнейшие наскальные изображения Сармишсая. История материальной культуры Узбекистана. Вып.32. 2001. - С.24-30.
5.Ҳотамов А., Бекниёзов Н. Кармана - қадимий диёр. - Тошкент: Ўзбекистон, 2007. - Б.5.
6.Мухторов Н. Маданий мерос объектларига эътибор янада кучаяди
7.// http://parliament.gov.uz. 2018. 24 декабрь.
8.Navoiy VTRK-Rasmiy kanali.
9.Navoi.travel.time//navoitourism.
10.https //uz.m.wikipedia.org.
11.https //www.gazeta.uz.Gazeta.uz.
12.O‘zbekiston turizm sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi va yaqin kelajak uchun pragnozlar.https //kun.uz/
13.https //yuz.uz//uz//news/o‘zbekiston -xavfsiz-sayohat-kafolatlangan -diyor.

IBN XALDUN QARASHLARIDA IQLIM SHAROITLARINING INSON TAFAKKURIGA TA’SIRI MASALASI

Ochilov Baxtiyor Shuhrat og‘li-
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Adburahman ibn Muhammad ibn Muhammad Abu Zayid ibn Xaldun hijriy 732-808, millodiy 1322 1406 yilllarda yashgan. U o’ta so’zga chechan, xushsurat, oqil va yuksak fazilatlarni o’zida jamlagan inson edi[1]. Ibn Xalduning “Muqaddima” asari musulmon olami va jahon hamjamiyati uchun tafakkurning durdonasi hisoblanib falsafa, jamiyatshunoslik, tarix, iqtisodyot va siyosatni qamrab olgan[2] qomusiy asardir.

Ibn Xalduning falsafiy qarashlarida inson tabiyati va uning maqsadi, intilishlari, inson fel atvori va tafakkurini turli mintaqalarda yashayotgan aholi vakillarining yashash sharoiti bilan bog‘liq ekanligini tahlil qildi. Misr hududi qirg‘oq tepaliklari va tepaliklarning janubida joylashgan aholisi quvnoqlik, engillik va kelajak haqida qayg‘urmaslik xususiyatlari ustunlik qiladi. Mag‘ribdagi Fors shahri ichkarida joylashgan

[1] Ibn Xaldun Muqaddima.”Trust and support” nashiryoti. -Toshkent: “O‘zbekiston” 2024.- B.3
[2] Ibn Xaldun Muqaddima.”Trust and support” nashiryoti. -Toshkent: “O‘zbekiston” 2024. - B.6

bo'lib, sovuq tepaliklar bilan o'raglan. Uning aholisi g'amgin va ma'yus[1]. Ibn Xaldun, Misr va Fors hududlarida yashovchi insonlarning fe'l-atvori va tafakkuridagi farqlarni, ayniqsa issiq va salqin iqlimlarning ta'siriga bog'liq ekanligini tahlil qilgan. Issiq iqlim sharoitida yashovchi odamlarda passivlik va befarqlik kuzatiladi chunki issiq iqlim sharoiti insonlarning faol harakatiga to'sqinlik qilasa, salqin iqlim esa insonlarda ko'proq faolikni, jangovarlik ruhni va qat'iyatlilikni oshiradi.

Ibn Xaldun bu farqli jihatlarni iqlim sharoitlari bilan bog'liq ekanligini izohlaydi, bu esa uning ijtimoiy kuzatuvlarining muhim jihati. Shunday qilib, Ibn Xaldun iqlimning insonning fe'l-atvoriga qanday ta'sir ko'rsatishini o'zining faoliyatida isbotlab bergan. Iqlimi yaxshi, hosili mo'l, chorvolari ko'p bo'lgan mamlakatlar aholisi odatda aqil-zakovati zaif odamlar sanaladi. Xolbuki arpa va tarix bilan kun kechiradigan Masamud, G'umoda va Sus aholisining aql va tafakkur jihatidan boshqalardan ustun, tanalari esa nisbatdan go'zalroq[2]. Ibn Xaldun, iqlimi turlicha bo'lgan hududlarda yashayotgan insonrning tafakkuri va fe'l-atvoriga ta'sirini chuqur o'rgandi.

"Muqaddima" asarida harakatda va qiyinchilik hayot tarziga o'rgangan Masamud, G'umoda va Sus mintaqalarda yashovchilarni aqlli va tafakkurli deb ta'riflaydi. Buning sababini u shunday izohlash mumkin: og'ir mehnat, tabiat resurslarning kamligi og'ir sharoitga maslashishtirdi. Insonlarning ish samaradorligi va ijodkorligiga ta'sir etib, ularning tana va aqliy salohiyatini oshirishga yordam berdi. Iqlimi mo'tadil bo'lgan joylarda odamlarning passiv bo'lishi o'z imkoniyatlaridan to'la foydalana olmaslikga olib keldi bu hol tafakkurining rivojlanish darajasini cheklaydi. Ibn Xaldun insonlarning fe'l-atvori va aqliy salohiyatlaridagi farqlarni iqlim, yashash sharoiti va mehnat faoliyati bilan bog'ladi, bu esa uning ijtimoiy, tarixiy va falsafiy tahlillari, qimmatbaho fikrlari, hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlari bilan taqqoslanganda, o'zining beqiyos qiymatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ibn Xaldunning inson tafakkuri va fe'l-atvoriga iqlimning ta'siri haqidagi qarashlarini XXI asr ilm-fanidagi psixologiya, sotsiologiya va antropologiya sohalaridagi tadqiqotlar bilan bog'lash manbani aniq va chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

"HAYRAT UL-ABROR" DOSTONINING UMUMIY STRUKTURASI

Ismatova Zarina Yodgorovna,
NavDPI magistranti

Hazrat Alisher Navoiy dostonchilikda salaflari an`analarini davom ettirish bilan birga Sharq xalqlari madaniyatidagi badiiy, falsafiy, didaktik, ma'rifiy-irfoniy g'oyalarni sintez qila oldi. Akademik Aziz Qayumov e'tirof etishicha, «Navoiy «Xamsa»si garchi o'z adabiy ildizlari bilan mustahkam birlikni saqlagan bo'lsa-da, bu shohona asar avvalgi «Xamsa»larning takroriy namunasi emas edi. U o'zbek adabiyotining mustaqil, Alisher Navoiy dunyoqarashi, uning g'oyaviy-mafkuraviy mazmunini aniq va ayon namoyon epik asarlar yig'indisi hisoblanadi». Hazrat Navoiyning o `zlari «Muhokamat ul-lug'atayn»da «Xamsa»ning besh dostonini yozishda ruhlantirgan ijodkorlar haqida «Avvalkim «Hayrat ul-abror» bog'ida tab`im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi «Maxzan ul-asror»idin boshimga durlar sochibdur» deb, «Farhod va Shirin»ni Xusrav Dehlaviydan, «Layli va Majnun»ni Himmatiydan, «Sabbai sayyor»ni Ashraf Marog„iydan, «Saddi Iskandariy»ni ustozi Jomiydan ilhomlanib yaratganini aytib o'tganlar. Demak, «Hayrat ul-abror» yaratilishida ko'p jihatdan Nizomiy Ganjaviy ilk dostoniga suyanilgan. Ta'kidlash joizki, «Maxzan ul-asror» ham «Hayrat ul-abror» singari axloqiy-ta'limiy, falsafiyirfoniy doston hisoblanadi. Unda Nizomiyning ko'p yillik kuzatishlari, tafakkur dunyosining zakosi, daho ijodkor sifatida teran qarashlari o'z ifodasini topgan albatta.

Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi birinchi doston "Hayratu-l-abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi") 1483 yilda yaratilgan edi. Doston 3988 baytdan iborat bo'lib, 63 bob, 20 maqolat va 20 hikoyatdan iborat. Shundan Kirish (muqaddima) 21 bobni o'z ichiga olgan. Dostonning birinchi bobi Qur`oni karimdagi bosh ilohiy jumla "Bismillohir rahmonir rahim" ("Mehribon va rahmli Olloh nomi bilan boshlayman")ning poetik sharhiga bag'ishlangan. Bu bob nafaqat "Hayrat ul- abror" uchun, balki umuman "Xamsa" uchun ham kirish vazifasini o'taydi, chunki keyingi dostonlarda biz bu ilohiy jumlani uchratmaymiz. Hazrat Navoiy bu jumlani ikki nuqtai nazardan tahlil qiladi, ya'ni qabul qiluvchilar va rad etuvchilar. Bunda ushbu jumladagi har bir harfga alohida ma'no yuklatilgan. Dastlab rad etuvchilarga

[1] Ibn Xaldun Muqaddima."Trust and support" nashiryoti. -Toshkent: "O'zbekiston" 2024. - B.209-210
[2] Ibn Xaldun Muqaddima."Trust and support" nashiryoti. -Toshkent: "O'zbekiston" 2024. - B.213

to‘xtalinar ekan, ushbu jumladagi har bir harfning bu toifa kishilarini jazolantirishga xizmat qildirilganligini ko‘rish mumkin. Xususan, “س” – “sin” harfi haqida gapirilganda, uning shakli nahang balig‘ining umurtqa suyagidagi arradek bo‘lib, rad etuvchilar uchun ofatdek; “م” – “mim” harfi ilon nafasidek o‘t sochib, yo‘l boshida og‘zini ochgan holda yotadi degan tashbehlardan foydalaniladi. Shu tariqa Navoiy ushbu jumladagi qolgan harflarni ham ushbu maqsadga xizmat qildiradi va kitobot (harf) san`atining betakror namunasini yaratadi. Ikkinchi toifa, ya’ni qabul qiluvchilarga to‘xtalinganda endi bu harflarning ijobiy ma‟no kasb etishini kuzatamiz. Xususan, “س” “sin” harfi endi salomatlik yo‘lining zinasiga o‘xshatilsa, “م” – “mim” harfining maqsad manzilidagi buloq boshiga nisbat berilganligini ko„ramiz. Bularning barchasida Navoiyning yuksak badiiy salohiyati namoyon bo‘ldi.

Dostonning ikkinchi bobi Xoliq, ya’ni Olloh hamdiga bag„ishlanadi. Mazkur bobda shoir hamma narsani yaratgan Xoliqning osmon va quyoshdan tortib har bir zarrani, butun o„simliklar va hayvonot olamini, kishilik jamiyatini bir-biriga bog‘lab harakatlantirib turishini cheksiz hayrat bilan tasvirlagan. Alisher Navoiy “Uning zoti lutf va safodan iborat, lekin vafo isi unga begona” degan fikrlarni ilgari surar ekan, bu o‘rinda tasavvuf ta’limoti asosida fikr yuritilayotganligini bilish mumkin. Munojotlarda dunyodagi barcha mavjudotlar o‘z yaratganiga doim sajda qilishi zarur, Xudoning qahri kelsa, “ko‘k bir etak kul” kabi sovurilib ketishi hech gap emasligi ta’kidlangani. Shuning uchun insonlar o‘ylab ish qiladi, gunoh qilishga yo‘l qo‘ymasligi, qiyomat kunini unutmasligi, har bir gunoh uchun qiyomat kuni jazo olajagini esda tutishi, islom dini qoidalariga to‘la rioya qilishi zarurligi uqtiradi. Navoiy oxirgi munojotda Xudoga murojaat qilib, gunohlarini kechirishini so‘raydi:

Garchi gunahning hadu poyoni yo‘q,
Aylamasang rahm ham imkoni yo‘q.

Adabiy an`anaga ko‘ra munojotdan so‘ng payg‘ambar madhiga, ya’ni na’tga o‘tilgan. Dostonda 5 ta na’t keltirilgan. Birinchi na’tda tasavvuf ta’limotidagi “Nuri Muhammadiya” nazariyasiga To‘xtalinib, ushbu nazariyadagi “Odam Ato unga ham o‘g‘il, ham ota” degan tushuncha Ta’rifi beriladi. “Nuri Muhammadiya”ga ko‘ra Alloh barcha olamlarni yaratishdan oldin Muhammad nurini yaratgan bo‘lib, shu nur tufayli olamni va odamni yaratgan. Demak, Odam Ato ham Muhammad nuridan bino qilingan. Shuning uchun hazrati Muhammad (s.a.v) Odam Atoga ham ota, ham o‘g‘ildir:

Bo‘ldi sanga Odami sabqatnamo,
Avval o‘g‘ul, so‘ngra gar o‘lsa Ato.

Keyingi na’tlarda payg‘ambarning bolaligi, payg‘ambarlik davridagi faoliyati, noyob insoniy xususiyatlari, me’roj tuni ta’riflari keltirilgan. Dostonning 12-bobi ulug‘ salaflar Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy madhiga bag‘ishlangan. Dastlab Nizomiyga ta’rif berilar ekan, uning ismidagi harflar abjad hisobiga ko‘ra 1001 soniga teng kelishi jihatidan Xudoning 1001 ismiga hamohang ekanligi aytiladi. Ishtiqoq (o‘zakdosh so‘zlarni keltirish) va iyhom (baytni ikki xil ma‟noni qo‘llash) san`atlari vositasida u yaratgan xazina (“Xamsa”)ga ta’rif beriladi:

Ganja vatan, ko„ngli aning ganjxez,
Xotiri ganjuru tili ganjrez.

Xusrav Dehlaviy madhi keltirilganda esa uning ismidagi “xusrav” so‘zining podsho manosini bildirishi Dehlaviyning so‘z podshosi sifatida hind mulkini obod qilganligi, uning har bir dostoni Hindistonning bir o‘lkasiga teng ekanligi bilan izohlanadi:

Nazmi savodi aro har doston,
O‘ylaki, bir kishvari

13-bob esa Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhini o‘z ichiga oladi. Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni bir bobda ta’riflanib ustozi va do‘sti Abdurahmon Jomiyga alohida bobni bag‘ishlaydi. Uni o‘sha davrning “qutbi tariqati” deb atar ekan, o‘zining unga nisbatan ojiz va muhtojligini g‘oyat kamtarlik bilan bayon qilib, Jomiyning yangi yozgan biror asarini o‘zidan oldin hech kim ko‘rmasligini faxr bilan keltirib `tgan:

Nomag‘akim roqim etib xomasin,
Ko‘rmadi men ko‘rmayin el nomasin.“Hayratu-l- abror” dostonining yozilishida aynan Jomiyning “Tuhfatu-l-ahror” dostoni turtki bo‘lganligini aytib o‘tadi

Boshtin-ayoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar, “Tuhfat ul-ahror” edi…
Chun o‘qimoq zamzamasi bo‘ldi bas,
Ko‘nglum aro dag‘dag‘a soldi havas.
Kim bu yo‘l ichraki alar soldi gom,

Bir necha gom o‘lsa manga ham xirom.

Dostonning 14-15-boblari so‘z ta’rifiga bag‘ishlangan. Hazrat Navoiy so‘zning buyukligini “kun” (yaral) so‘zining olam va odamni yaratishda vosita bo‘lganligi bilan dalillaydi:

Dahr muqayyad bila ozodasi,
Borcha erur “kof” ila “nun” zodasi.
Zodasidin zoda bo‘lub beadad,
Zodaga ham volid o‘lub, ham valad.

Alisher Navoiy bu o‘rinda so‘zning mahsuli bo‘lgan adabiy turlar haqida ham to‘xtalib, nazm va nasrga alohida ta’rif beradi, nazmni nasrdan ustun qo‘yadi, gulshanda gullarning saf tortib turishini nazmga, sochilib, to‘kilib yerda yotishini nasrga o‘xshatgan. Shoirning e’tiroficha, nazm bu qadar e’zozlanmasa, Tangri so‘zida she’r bo‘lmas edi:

Bo‘lmasa e’joz maqomida nazm,
Bo‘lmas edi Tengri kalomida nazm.

Shuningdek, Navoiy ushbu bobda turkiy tilda she’r aytishga kuchli ishtiyoq sezishini va bu yo‘lda ancha yuqori darajaga erishganini faxr bilan bayon qiladi. Dostonning 16-bobi zamona sultoni Husayn Boyqaro madhini ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy bu bobda talmeh san`ati vositasida Husayn Boyqaroni kuch-qudratda Firdavsiy qahramoni Rustamga, adolat va fazlu kamolda Eronning afsonaviy podshosi Jamshidga o‘xshatgan.

17-bob “Ko‘ngul ta’rifida” hisoblanadi. Bu bobda Navoiy qudratli dehqon (Xudo) ilk tongda insonni yaratgandan keyin unga ko‘ngul ato etganini bayon qilar ekan, ko‘ngulni yurak bilan adashtirmaslikka chaqiradi. Shoirning fikricha, yurak savdogarda ham bor, lekin uning butun fikri-yodi savdoda. Yaratganning yodi bilan yashaydigan insondagina haqiqiy ko‘ngul bo‘ladi va ugina “ahli dil” sanalishi mumkin. Shuningdek, Navoiy ko‘ngulni olamikubro,Ka’badan-da ulug‘ joy deb ataydi. Muqaddimaning qolgan uch bobi (18-20 boblar) hayrat ta’rifiga bag‘ishlangan. Bu boblarda Xoja, ya’ni ko‘ngulning avval mulk (narsalar) olamiga, keyin malakut (farishtalar) olamiga va nihoyat so‘ngida “ajoyib bir shahar” (inson tanasi)ga sayohati bayoni keltiriladi va bu sayohat ko‘ngulning o‘zligini tanib, inson tanasiga kirgani tasviri bilan yakunlanadi. Alisher Navoiy bu o‘rinda “o„zligini bilgan Xudoni ham biladi” g‘oyasini ilgari suradi: *Nafsg‘a chun orif o„lub mo„-bamo„ Foyiz o„lub “qad arafa rabbahu”.* Muqaddimaning so‘nggi 21-bobi Xoja Bahouddin Naqshband va uning xalifasi Xoja Ubaydulloh Ahror madhiga bag‘ishlangan. Alisher Navoiyning muqaddimadagi so‘nggi bobni aynan shu shayxlarga bag‘ishlashi shoirning naqshbandiya suluki vakili ekanligiga ishora edi. Bob o‘z ichida ikki qismga ajratiladi, birinchi qism 15 baytdan iborat bo‘lib, uning deyarli har bir baytida naqsh so‘zining turli holat va shakllarda ishtiqoq (o‘zakdosh so‘zlarni keltirish) va tanosub (ma’no va mohiyat jihatidan bir-biriga yaqin so‘zlarni keltirish) san`atlari vositasida qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Navoiy Bahouddin Naqshbandni yuksak martabali naqqoshga, uning ta’limotini muhtasham va dilkash naqshga o‘xshatadi:

Xojaki naqqoshi sipehri baland,
Bo‘lg‘ali har safhasig‘a naqshband.
Ayladi avroq munaqqash base,
Naqsh raqam ayladi dilkash base.

Bobning ikkinchi qismi naqshbandiya tariqatining o‘sha davrdagi mashhur pirlaridan biri Xoja Ubaydulloh Ahror madhiga bag‘ishlangan. Navoiy uni murshidi ofoq (yo‘lboshlovchi pir) deb ulug‘lar ekan, shohlar unga qulluq qilishga o‘zlari keladilar, hatto haqiqat sirlaridan ogohlar ham uning huzurida hushlaridan judo bo‘ladilar deb yozadi:

Yuz qo„yubon qullug„ig„a shohlar,
Bazmida bexud o„lub ogohlar.

Alisher Navoiy bobni ulug‘ shayx faoliyatiga yuksaklik tilash va uning himmatidan bahramandlik umidi bilan yakunlaydi va bu umid bevosita muqaddimaga ham yakun yasaydi:

Qo‘ymasun ayvoni jahonni tihi,
Dabdabai ko„si Ubaydullahi.
Himmatidin bizni ham etsun Xudoy,
Faqr yo‘lida g‘ani, imong‘a boy.

Dostonning 22-bobidan asosiy qism boshlanadi. Asosiy qism maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 bobni o‘z ichiga oladi. Maqolatlar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, mavzu yuzasidan o‘z fikr- mulohazalarini bayon qiladi,

so‘ngra shu mavzuga mos ibratli hikoya keltiradi. Shu tariqa asosiy qism 20 maqolat va unga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlar bayoni tarzida davom etadi.

Eng avvalgi maqolat iymon sharhiga bag‘ishlanadi. Bu bejiz emas, zero dostonning bosh g‘oyasi komil inson timsolini vasf etishdir, komillikning bosh belgisi esa iymondir:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga iymon erur.

Alisher Navoiy “Kimdaki iymonning uch belgisi bo‘lsa, u haqiqiy insondir” deydi va bu belgilar sifatida sabr, shukr va hayoni ko‘rsatib o‘tadi:

Bas ani inson atag„il beriyo,
Kim ishidur sabr ila shukru hayo.

Komil inson ta’rifidan keyin iymon sharhiga to‘xtalib o‘tiladi. Hazrat Navoiy iymonning 6 sharti sifatida quyidagilarni keltirib o„tadi:

1) Haqning borligiga iymon keltirish;
2) farishtalarga iymon;
3) Allohning so„zlari bo„lgan muqaddas kitoblarga iymon;
4) Payg„ambarlarga iymon;
5) qiyomat kuniga iymon;
6) taqdiri azalga iymon.

Ushbu fikrlardan so‘ng Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat keltiriladi. Hikoyatda bir kuni Shayx Boyazid Bistomiydan g‘amginlik sababini so‘ragan muridiga shayx bu dunyoda haqiqiy insonlar kamayib ketganligidan xafaman deb javob beradi. Shunda muridi shayxni haqiqiy insonlar safida deb hisoblashini aytganida, shayx o‘zini ham yuz ming sarson sargardonlar qatorida sanashini, agar bu dunyodan iymon bilan ketmas ekan, inson sanalmasligini aytadi. Hikoyatda diniy mazmundan tashqari tasavvufiy qarashlar ham mavjud bo‘lib, bunda tariqatdagi xavf maqomi haqida so‘z boradi, deb aytish mumkin. N.Komilovning “Tasavvuf” kitobida yozilishicha, xavf tariqatning 6-maqomi bo‘lib, bunda solikning nafs makridan qo‘rqishi, shayton nayrangining ko‘ngilga xavf solishi nazarda tutiladi. Nafs shunday kuchli dushmanki, solik tariqatdagi tavba, vara‟, zuhd, faqr, sabr kabi maqomlarni egallagan bo‘lishiga qaramay, nafsning iymonga daxl qilishi mumkinligidan doim xavfda bo‘ladi. Alisher Navoiy keyingi maqolatlarda ham birinchi maqolatda keltirilgan bosh mavzu – komil insonga xos sifatlar bayonini davom ettiradi. Xususan, 5- maqolat karam va saxovat, 6- maqolat adab, 7-maqolat qanoat, 8-maqolat vafo, 10-maqolat rostgo‘ylik ta’rifidadir. Bu maqolatlar orasida 7-maqolat badiiy timsollarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Navoiyning fikricha,

kimki qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, u eng boy insondir. Oltin, kumush va zebu ziynatlarni boylik deb bilmaslik kerak, balki haqiqiy boylik qanoat xazinasidir:

Kimgaki ish bo„ldi qanoat fani,
Bilki, ani qildi qanoat g„ani.
Ganji tajammulni g„ino bilmagil,
Balki g„ino ganji qanoatni bil.

Mazkur maqolatda qanoat tushunchasi chiroyli tashbehlar va tamsillar vositasida ifodalab berilganligini ko‘ramiz. Masalan, osmon qanchalik katta bo‘lmasin, u bitta kulcha, ya’ni quyosh bilan kun kechiradi. Ko‘z doim shuning uchun ravshanki, u mehrob ostida turib, ikkita bodom bilan oziqlanadi. Shunday ekan, insonlar qanoat bobida osmon va ko‘z singari bo‘lishlari kerak. Maqolatda kitobot (harf) san`atining ham yetakchilik qilishini kuzatish mumkin:

Qushlar aro shohki, anqo durur,
Nuktaye bu amrda paydo durur.
Bordur agar fikr ila topsang vuquf,
Qoni"yu anqog„a muvofiq huruf.

Qushlarning ichida anqo shoh hisoblanadi. Bunda ma’lum bir ma’no bor. Agar fikr bilan voqif bo‘lishni istasang, “qoni‟” va “anqo” so‘zlarining yozilishida harflar bir-biriga muvofiqdir. Yoki

Shoh boshining sharafi toj emas,
Angla ani shohki, muhtoj emas.
Shoh agar ul bo„lsaki, muhtojdur,
Harf ila muhtojda ham tojdur.

Shoh boshining sharofati tojdan emas, kimki muhtoj bo‘lmasa, o‘shani shoh deb tushun. Muhtojni ham shoh deb atash mumkin bo‘lsa, harf nuqtai nazaridan “muhtoj” so‘zida ham “toj” bor-ku! Maqolatga “Qanoatli va qanoatsiz ikki do‘st” haqidagi hikoyat ilova tarzida keltirilgan. Hikoyatda keltirilishicha, ikki do‘st Fors mulkidan Chin mamlakati tomon yo‘lga tushadilar. Biri taqdir berganiga qanoatli inson bo‘lib, ikkinchisi ochko‘z, tama’gir edi. Yo‘lda ketayotib, bir toshga ko‘zlari tushadi. Uning yarmi yer ostida bo‘lib, yarmi yer yuzasiga chiqib turardi. Tosh ustida: “Kimki mehnat qilib toshni aylantirib qo‘ysa, ostidagi afsonada vayrona tagida bekitib qo‘yilgan xazina haqida yozib qo‘yilgan. Kimki bu mashaqqat, azob uqubatlarni xohlamasa, uning uchun sabru qanoat hammasidan yaxshiroqdir” degan yozuv bitilgan edi. Ochko‘z yigit yozuvni o‘qigach, xazina ilinjida tosh ostini qazishga tushib ketadi. Qanoatli odam esa beparvo tarzda shahar tomon yo‘l oladi. Shaharga kiradigan bir necha darvoza bo‘lib, u shaharga birinchi bo‘lib kiradi. Shahar aholisining odatiga ko‘ra, mamlakat podshosi qazo qilsa, darvozadan birinchi kirgan odamni podshoh qilib ko‘tarar ekanlar. Shu tariqa bu do‘st o‘z qanoati tufayli mamlakatga podshoh bo‘ladi. Uning tosh ostini qaziyotgan do‘sti esa og‘ir mehnatni bajarib bo‘lgach, toshni ag‘darib qarasa, “Xom tama‟ bu dunyoda alam chekadi” deb yozib qo‘yilgan ekan. Xulosa shuki, qanoatli inson o‘z sabru qanoati tufayli shoh martabasiga erishadi, qanoatsiz
inson esa ta’ma ilinjida xoru zor bo‘ladi. “Hayratu-l-abror” dostonida xotima ham o‘ziga xos o‘ringa ega.

Dostonning 62-63-boblari hazrat Navoiyning xulosa va yakuniy fikrlarini o‘z ichiga oladi. 62-bobda Navoiy dostonni yaratish orzusidan boshlab uni tugatgunicha bo‘lgan jarayon haqida yozar ekan, dostonni yozish xayoli unga tinchlik bermagani, elu yurt xizmati, xalq arz-dodini tinglash uni asosiy maqsaddan Chalg‘itsa-da, Xudoning o‘zi unga marhamat ko‘rsatib, nihoyat bu ulug‘ muddaoni poyoniga yetkazganini betakror tashbehlar vositasida bayon qilib beradi. Bob so‘ngida Navoiy g‘oyat nazokat va kamtarlik bilan agar yozganlari elga manzur bo‘lmasa, uni afv etishlarini so‘rab,
Allohga iltijo qiladi:

Jilva ber el ko„ziga ham xo„b ani,
Qilg„il ulus ko„ngliga marg„ub ani.
Har nechakim, jurmum erur pech-pech,
Lekin erur rahmating olinda hech.

63-bobda oyog„i toyib ketib, kosadagi oshni shohning boshiga to‘kib yuborgan va olijanob shohning xijolatdan o‘lar holatga yetgan bu qulni afv etgani haqidagi hikoyat beriladi va bu hikoyat bevosita 62-bobga hamohang tarzda, unga ilovadek keltiriladi. Navoiy Allohni olijanob shohga, o‘zini oyog‘i toyib ketgan qulga o‘xshatar ekan, shunday yozadi:

Har necha ko„p bo„lsa gunohim mening,
Shukrki, bor sendek ilohim mening.
Xijlat ila qolmadi xud jom manga,
Yeri durur aylasang ehson manga.

“Hayratu-l-abror” dostonida kun tartibiga qo„yilgan masalalar bevosita “Xamsa”ning keyingi dostonlarida ham davom etadi, xususan, komil insonga xos adab, qanoat, karam va saxovat, futuvvat, rostlik, vafo kabi xislatlar bilan bog‘liq masalalar “Farhod va Shirin” dostoni, “Sab‟ai sayyor” tarkibidagi hikoyatlar, “Saddi Iskandariy” dostonlarida yangicha talqin topganligini ko‘ramiz.
Doston aruz tizimining sari “ bahri – sari” i musaddasi matviyi makshuf (ruknlari va taqti`i:
muftailun muftailun foilun – VV – / – V V – / – V –) vaznida yozilgan. Bu vazn pandu nasihat mazmunidagi fikrlarni bayon qilishga nihoyatda qulay bo„lganligi sababli doston uchun asosiy she’riy o‘lchov vazifasini o‘tagan.

REFERENCES

1. Қаюмов А. Ўзбек хамсашунослигининг адабий илдизлари // Ўзбек адабиѐтшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари // Илмий-назарий анжуман материаллари. – Т., 2014. – Б. 11-12.
2. Alisher Navoiy. ”Muhokamat ul-lug‟atayn”. TAT. O‟n jildlik. O‟ninchi jild. – Toshkent: G‟afur G‟ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B.520.
3. Маллаев Н. Низомий Ганжавий. – Т.: А.Навоий номидаги Ўз.миллий кутубхонаси нашриѐти, 2015. – Б.22-23.
4. Ойбек. МАТ. Ўн тўққиз томлик.Ўн учинчи том // Хамсанинг асосий образлари. – Тошкент.1979. – Б.159.
5. Низомий Ганжавий. Махзан ул-асрор. Форсийдан Жамол Камол таржимаси.

– Тошкент, 2016;
6. Низомий Ганжавий. Сирлар хазинаси. (“Махзан ул-асрор”). Аслиятдан Олимжон Бўриев таржимаси. – Тошкент: CHASHMA PRINT, 2013.
7. Хусрав Деҳлавий. Матлаъ ул-анвор. – Москва: Наука, 1975;
8. Хусрав Деҳлавий. Матлаъ ул-анвор. Осори мунтахаб. Дар чахор чилд. Чилди якум. – Душанбе: Ирфон, 1971;

MUNDARIJA:

SO‘ZBOSHI		**3**
Kalonov Muhiddin Bahriddinovich		**4**
BIRINCHI SHO‘BA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR DIALEKTIKASI		
1.	**С.А.Каримов, А.Б.Пардаев** Тиллар глобаллашуви ва ўзбек тили амалда бўлишининг айрим жиҳатлари	**5**
2.	**B.P.Zaripov** O‘zbek tilshunosligida “qadriyat” mazmuniy maydonining mikrosistemalari	**9**
3.	**Қурбонов Х.** Ўрта Осиёдан сафарбар қилинган меҳнат армиячиларининг санитария-гигиена ҳолати ва тиббий хизмат	**15**
4.	**M.Z.Yuldosheva** Badiiy matnda xushmuomalalik strategiyalarining namoyon bo‘lishi	**17**
5.	**О.Ғ.Эшдавлатов** Дунёқараш ва қадриятларнинг ёш авлодни тарбиялашдаги роли ва аҳамияти	**20**
6.	**V.Ashirov** Milliy ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishning ijtimoiy tarixiy asoslari (Navoiy viloyati misolida)	**23**
7.	**Z.A.Qarshiboyeva** Milliy va umuminsoniy qadriyatlar imom al-buxoriy saboqlarida	**25**
8.	**М.Ф.Хайитмуродова** Основные требования к профессиональным умениям и личностным качествам педагога	**27**
9.	**L.Karimova** “Axloqiy tarbiya” ma’noviy guruhining semantik xususiyatlari	**29**
10.	**N.Ashurova** **Ilmiy rahbar: prof. R.Yusubova** Abdulla Oripov she’rlarida satiraning ko‘rinishi	**30**
11.	**D.Qurbonova** **Ilmiy rahbar: dots. R.Nuritdinova** Mahmud Koshg‘Ariyning ,,Devoni lug‘otit turk” asarida qipchoq lahjasida qo‘llaniladigan so‘zlar	**31**
12.	**F.Muxammadiyeva** **Ilmiy rahbar: dots. R.Nuritdinova** “At-tuhfatuz zakiyatu fil-lug‘atit turkiya” asaridagi maishiy turmushda ishlatilgan ayrim so‘zlarning qiyosiy o‘rganilishi (“Devoni lug‘atit-turk”, “Shajarai turk”, “tarjumon” asarlari misolida)	**34**
13.	**S.Shermatova** **Ilmiy rahbar: dots. R.Nuritdinova** "Devoni lug‘otit-turk" asarida uchrovchi zoonimlar tasnifi	**36**
14.	**N.Sanoyeva** Oilada ustoz-shogird an’anasi	**38**
15.	**У.Имомов** Ёшлар эстетик маданиятининг фалсафий-мафкуравий масалалари	**39**

IKKINCHI SHO‘BA AREAL LINGVISTIKA VA LINGVISTIK GEOGRAFIYA MUAMMOLARI		
16.	**B. R.Mengliyev** Dialektologiyaning yangi paradigmalari haqida	**41**
17.	**J.Eltazarov, M.Bobotayev** Izohlı lug‘atlarda dıalektal lısonıy bırlıklarnıng berılıshı va tavsıflanıshı masalası xususıda	**42**
18.	**N.Q.Murodova** Lingvistik atlaslar – tarixni o‘rganishda muhim manba	**46**
19.	**I.O‘.Darvishov** Areal tilshunoslik: lingvistik xususiyatlarning hududiy taqsimlanishi, etnik lisoniy xususiyatlar va izoglosslar	**49**
20.	**R.A.Suvonova, D.Rustamova** Qipchoq lahjasiga xos harakat fe’llari	**52**
21.	**A.A.Allaberdiyev, Ch.Jumayeva** Ijtimoiy tilshunoslik	**55**
22.	**I.O‘.Darvishov** O‘zbek xalq shevalaridagi milliy ruh va mahalliy-milliy hayot nafasi	**56**
23.	**A.R.Ahmedov** XI-XII asr yozma yodgorliklarida o‘g‘uz til birliklarining radiatsiyasi	**58**
24.	**Sh.M.Alimova** Xorazm viloyati o‘zbek shevalarini areal o‘rganish muammolari	**61**
25.	**N.Raxmonov** Navoiy viloyati o‘zbek shevalarining morfologik xususiyatlariga doir	**63**
26.	**G.M.Norova** Ozarbayjon shevalarida o‘zlashgan leksik qatlam	**64**
27.	**J.U.Yuldashev** Dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlari	**66**
28.	**M.X.Suvanova** Navoiy viloyatidagi toponimlarning grammatik xususiyatlari (navbahor tumani misolida)	**68**
29.	**N.Muhammadiyev** Kitob vohasining quyosh sistemasi bilan payt ma’nosini ifodalovchi so‘zlarning arealiga doir	**72**
30.	**M.X.Suvanova** Oilaviy-maishiy marosimlarga oid etnografizmlarning areali	**73**
31.	**Z.R.Tillabayeva** Samarqand viloyati qarluq shevalari va ular leksikasidagi paronimlar yuzasidan mulohazalar	**77**
32.	**У.К.Турдиев** Миллий қадриятлар диалектологик атласи тарихини ўрганишда муҳим манба	**79**
33.	**M.I.Bobotayev** “O‘zbek tılınıng ızohlı lug‘atı”dagı dıalektal leksıkanıng parametrık tahlılı masalası xususıda	**82**
34.	**S.L.Yoqubov** O‘zbek areal lingvistikasida qarluq lahjasining paydo bo‘lish ildizi va tarixiy taraqqiyoti	**85**
35.	**J.N. Pulatov** Barqaror rivojlanish manfaatlari yo‘lida tinchliksevar va ochiq jamiyatlar barpo etishning ilmiy-nazariy asoslari	**86**
36.	**S.Q. Xasanova** Ingliz tilidagi majhul nisbat va uning oraliq grammatik ma’nolari	**88**
37.	**M.E.Orifova** Yetti raqami asosida shakllangan frazemalarning badiiy matnlarda qo‘llanish xususiyatlari	**90**

	UCHINCHI SHO‘BA **TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI: MUAMMO, YECHIM, ISTIQBOLLAR**	
38.	**Xədicə Heydərova** Vaqifin dilində bəzi semantik və qrammatik xüsusiyyətlər	**93**
39.	**Sevinc Səfərova** Azərbaycan ədəbi dili və köməkçi adlar	**96**
40.	**T.H.Asadov** O‘zbek va turk tillari ayrim grammatik hodisalarining integratsiyasi va differensiyasi xususida	**101**
41.	**I. O‘.Dilmanov** Turkiy tillar leksikasini qiyosiy tadqiq etish masalalari	**103**
42.	**F.Maxmudova, G.Toshtemirova** Jahon tilshunosligida mualliflik lug‘atlarining paydo bo‘lishi	**104**
43.	**M.M.Tojiyeva** Using blended learning in teaching foreign language	**107**
44.	**Sh.Kurbanova** O‘zbek va turk tilidagi olmoshlar integratsiyasi va differensiatsiyasi	**109**
45.	**D.Sh.Abdurasulova** Ergonimlarning onomastik tizimdagi o‘rni va tadqiqi	**112**
	4-SHO‘BA **TIL VA QADRIYAT: ADABIYOT, FOLKLOR, SAN’AT**	
46.	**A.Xolmurodov** Qissa janrida g‘oya va obraz	**115**
47.	**О.С.Қаюмов** Шомон афсоналарида мифологик ҳомийлар талқини	**119**
48.	**Н.Турсунова** Ўзбек халқ маросимларида урф-одат ва иримлар талқинига доир	**121**
49.	**Z.Jumayev** O‘zbek adabiy tilining kamolotida alisher navoiyning o‘rni	**124**
50.	**D.O.Fayziyeva** Ajdar obrazining mifologik xususiyatlari	**125**
51.	**M.Xudoyorova** Ma’no tuhfasidan iborat kishvar	**126**
52.	**Z.O.Quvonov** Alisher Navoiy “Xamsa”si germenevtikasi	**129**
53.	**М.Норқобилов** Ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини таъминлашда Саъдуддин Тафтазоний илмий меросининг ўрни	**132**
54.	**M.N. Sanoyeva** Ertaklarda so‘z sehri	**134**
55.	**Almaz Ülvi (BİNNƏTOVA)** Professor Nurbay Cabbarov	**135**
56.	**M.B.Abdiyev** Umumlisoniy sistema termini xususida	**140**
57.	**M.M.Axmedova** O‘zbek va rus afsonalarida tanimaslik motivi kommunikativ vazifalari aspektida	**144**
58.	**F.Nizomov** Qissada yaqin tarixning in’ikosi	**146**
59.	**B.O.Tillayev** Professor Sultonmurod Olim ilmiy faoliyatidagi asosiy mezonlar	**149**

60.	**Y.Rahmatullayev** Arab tili va uning taraqqiyot bosqichlari	**151**
61.	**G.N.Abdullayeva** Badiiy matnda “vafo” konseptining lisoniy talqini	**153**
62.	**M.X.Qurbonova** Ta’lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati	**157**
63.	**Ixtiyor Qurbonov** Abdurauf Fitratning jadidchilik harakatiga kirib kelishi va istambuldagi ta’lim	**158**
64.	**D.J.Norboyeva** Rus va o‘zbek adabiyoti badiiy asarlari va tarjima muammolari	**161**
65.	**N.A.Nematova, Ch.Mamatova** O‘zbek va ingliz ona allasining lingvomadaniy xususiyatlari	**163**
66.	**M.A.Narzulloyeva, N.J.Yarashova** Zahiriddin Muhamad Bobur – tarjimon	**167**
67.	**G.K.Xatamova** Talabalarda “biznes jarayonlarini boshqarish” faninini o‘qitish ko‘nikmasini rivojlantirish	**169**
68.	**Т.А.Чернова** Восток и его традиции в рассказе А. Колмогорова «Листья тутового дерева»	**171**
69.	**Саидий Саид Болта-Зода** Мозий садоларидан таралган усуллар семантикаси (“Зарб -ул - қадим” усули мисолида)	**174**
70.	**Toshmurodov Baxriddin Umarovich -** Folklor qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarni vokal-xor malakalarini shakllantirishning interfaol usullari (1-4 sinflar misolida)	**176**
71.	**Abdualimova Gulsanam Sherali qizi-** O‘zbek xalq musiqashunosligi va etnomusqiqashunoslik sohasining o‘rni va rivojlanishidagi ahamiyati	**178**
72.	**Эргашева Гулчехра -** Навоий вилоятида оммавий спорт турларининг ҳолати ва ривожланиш тенденциялари (Туманлар мисолида)	**179**
73.	**Inatullayev Ma’rufjon Nodirjon o‘g‘li -** Maktab musiqa darsliklarini brayl yozuvida yaratish texnologiyalarining zamonaviy metodlari	**183**
74.	**Ҳасанова М.С. -** Основные требования к профессиональным умениям и личностным качествам педагога	**185**
75.	**Rahmatova Ch.I.** Kimyo o‘qitishda laboratoriya tajribalaridan foydalanish metodikasi	**187**
76.	**Hasanova D.O‘.** Tibbiy va ijtimoiy omillarning biologik axloq shakllanishdagi o‘rni	**188**
77.	**Suyarov X.B., Ramazonova Gulmira G‘olib qizi** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning nazariy-amaliy, pedagogik asoslari	**190**
78.	**Kobilova M.Sh.** Efinitions and scope of media discourse	**192**
79.	***Хонимов Ш.Б.*** Янги Ўзбекистон шароитида ёшларнинг ижтимоий-маданий жиҳатдан ижтимоийлашув жараёнлари	**194**
80.	**Понсотова Н.У.** Таълим муассасаларида имконияти чекланган ўқувчи-ёшлар учун яратилаётган шароитлар	**199**
81.	**Raximberdiyeva H.M**. O‘quvchilarda folklor namunalari orqali vokal-xor malakalarini shakllantirish	**203**
82.	**Murodullayeva M.G‘.** Yoshlarning ma’naviy-axloqiy tafakkurini shakllantirishda musiqa madaniyatining ahamiyati	**204**
83.	**Umarova Sh.F.** Abu Ali ibn Sinoning badantarbiya va jismoniy mashqlar to‘g‘risidagi qarashlari	**205**

84.	**Mirsaidov A.** Gid nutqning tilshunoslikda o‘rganilishi	**207**
85.	**Qodirova Shaxlo Qobiljon qizi** Metaforalarning lingvistik tadqiqi	**208**
86.	**Саидкулова К.Д.** Изучение пословиц и поговорок в произведениях А.С.Пушкина	**210**
87.	**Saidiy S.B., Mustafoyeva M.** Musiqada milliy qadriyatlarning ifodalanishi	**212**
88.	**Xolmuratova G.K.** Sharq mutafakkirlarining kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xulq-atvoriga ta’sir etuvchi milliy an’ana va tarbiya vositalari xususidagi qarashlari	**214**
89.	**Suyarov X.B.** Mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodika yondashuvlar, usullar va vositalar	**217**
90.	**Азмиева Э.Э., Сапаева И.** Философская мысль рассказа И.А.Бунина «Темные аллеи»	**218**
91.	**Aliyeva N.Z.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida iqtidorli bolalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash masalalari	**222**
92.	**Шукуров Б.С.** Интернет тобелиги муаммосини ўрганишнинг умумпсихологик масалалари	**223**
93.	**Ширинова Ф.И.** Навоий вилоятида мактабгача таълим соҳаси тарихининг айрим жиҳатлари (1992-2000 йиллар)	**225**
94.	**Ашрапов Равиль Рамзаевич** Этапы становление читательской культуры в европе от средневековья до нового времени	**227**
95.	**Ergasheva H.S.** Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya” asarining yozish uslubi	**229**
96.	**Allayev X.A.** O‘quvchilarning o‘quv-biluv kompetentsiyasini rivojlantirish strategiyasi	**231**
97.	**Shopulatova N.U., Barnoqulova M.B.** Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkillashtirish	**233**
98.	**Sh.Turobova, Shermummadov Hasan** Tasavvufda bag‘rikenglik va murosa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi	**235**
99.	**Жунаев З.** Большевикларнинг Бухорога тажовузи ёхуд “Колесов воқеаси” тарихи	**237**
100.	**Egamberdiyev U.S., Nurullayev F.G‘.** Musiqa ta’limida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘llari	**239**
101.	**Hikmatova D.H., Fayziyev O.O.** Musiqa o‘qituvchilarini innovatsion ta’lim faoliyatiga tayyorlash	**241**
102.	**Raximova N.** Intertekstuallik prismasida G‘arb va Sharq an‘analari va yondashuvlaridagi semantik va estetik tafovutlar	**243**
103.	**Gadoeva D.B.** IIB litseyi o‘quvchilarining liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari	**247**
104.	**Xushvaqova G.** Oilada milliy tarbiyani tashkil etishning pedagogik mazmun-mohiyati	**249**
105.	**Erkinboyev F.Z., Shirinova F.I.** Qoraqalpoqlar tarixini o‘rganishning muhim tamoyillari	**251**
106.	**Suyarov X.B., Raxmonova G.R.** Yosh gandbolchilarni tarbiyalshda yosh xususiyatlari	**254**
107.	**Sheraliyeva S.A.** Yangi O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirish – barqaror iqtisodiyot omili	**256**

108.	**N.A.Nematova, Xasanova R.E.** Alisher Navoiy asarlarida huquqiy madaniyat va adolat g‘oyalari: zamonaviy ijtimoiy hayot bilan uyg‘unlikda	**257**
109.	**Murodilloyeva M.** O‘qish darslarida quddus muhammadiy ijodining o‘rganilishi	**259**
110.	**Ishpo‘latova, K.M.Ulug‘murodova** Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining tashkil etilishi	**261**
111.	**Xo‘jamqulova Farangiz Ruslan qizi, K.M.Ulug‘murodova** Sifat so‘z turkumini o‘rganish orqali o‘quvchilarda estetik tafakkur va nutqiy kompetensiyani shakllantirish	**263**
112.	**Abdualimova Nazokat Kamolovna, K.M.Ulug‘murodova** Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarga “ot” so‘z turkumini o‘rgatish texnologiyasi	**265**
113.	**Zaripova F.A., Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o‘g‘li** Futbol maktabi mashg‘ulotlarida yosh o‘spirinlarni sog‘lomlashtirishning asosiy mezonlari	**267**
114.	**R.Begmatov** Talabalarda tajovuzkorlik hissining psixologik xususiyatlari	**269**
115.	**F.P.Kazbekova** Qadriyatlarning yosh avlodni tarbiyalashdagi roli va ahamiyati	**271**
116.	**Norova M.F.** Eskirgan so‘zlar – badiiy adabiyotda milliy madaniyatni ifodalash omili	**272**
117.	**Fattoyev Islom Ilg‘orovich** Islomiy obidalar ziyorat turizmni rivojlantirishda muhim manba sifatida	**274**
118.	**Kazakbayeva Mariya Alimkulovna, Muslimova Balziya Maman qizi** Psixologiya fanining inson hayoti va ijtimoiy taraqqiyot an’analari bilan bog‘liqligi	**275**
119.	**Шахназарова Дилфуза Нарпулатовна** Научное значение использования числовых слов в узбекском языке	**277**
120.	**Jasur Rasulov** Mantiqiy fikrlashga oid tushunchalarni nostandart topshiriqlar asosida rivojlantirish mazmuni	**279**
121.	**Usmonova Dilafruz Umirzoqovna** Innovatsiyalar va an’analar integratsiyasi asosida talabalarni ma’naviy ruhda tarbiyalashni takomillashtirish	**280**
122.	**Dildora Yadullayevna Xalikova** Ingliz va o‘zbek tillaridagi ikkilamchi nominativ birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	**281**
123.	**Diyora Rahmonova O‘tkir qizi** Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirish	**283**
124.	**Parmonov Ulug‘bek Odiljon o‘g‘li** Jadid ma’rifatparvarlarining tadbirkorlikka doir pedagogik qarashlari	**285**
125.	**Abdusodiqova Sh.G‘.** Akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik texnikalarini rivojlantirish	**286**
126.	**Bekboyev Z.Z., Mustafayev Sh.N.** Aksiologik yondoshuv orqali bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	**288**
127.	**Xo‘jayeva L.Sh.** Navoiy viloyatini turizm sohasini rivojlantirishdagi tutgan o‘rni	**291**
128.	**Ochilov B.Sh.** Ibn Xaldun qarashlarida iqlim sharoitlarining inson tafakkuriga ta’siri masalasi	**293**
129.	**Ismatova Z.Y.** “Hayrat ul-abror” dostonining umumiy strukturasi	**294**

“MILLIY QADRIYATLAR DIALEKTOLOGIK ATLASI – TARIXNI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA”
mavzusidagi
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi
M A T E R I A L L A R I

Hajmi 12,6. 1/16 bosma taboq. Adadi 50 nusxa.
NavDPI bosmaxonasida chop etildi.
Navoiy shahri Ibn Sino-45.